

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Tillar va maktabgacha ta’lim fakulteti

UMUMFILOLOGIK TADQIQOTLAR: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

mavzusidagi konferensiya materiallari to‘plami

2026-YIL, 13-14-MART

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

TOSHKENT IQTISODIYOT VA PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
TASHKENT UNIVERSITY OF ECONOMY AND PEDAGOGY
ТАШКЕНТСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ

«UMUMFILOLOGIK TADQIQOTLAR: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR»

«GENERAL PHILOLOGICAL RESEARCH: PROBLEMS AND SOLUTIONS»

«ОБЩЕФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ»

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari 2026-yil 13-14- mart

Materials of the Republican Scientific and Practical Conference March 13--14, 2026

Материалы Республиканской научно-практической конференции 13-14 марта 2026 г.

Chirchiq – 2026
Chirchik – 2026
Чирчик – 2026

UO‘K: 811. 81-112.2
81-11
821.512.133
811.512.1
303.02

“Umumfilologik tadqiqotlar: muammolar va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Maqola va tezislar to‘plami. – Chirchiq: Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti nashriyoti, 2026. – 673 b.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2026-yil 16-yanvardagi 11-son buyrug‘i asosida Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universitetida 2026-yil 13-14- mart kunlari o‘tkazilgan “Umumfilologik tadqiqotlar: muammolar va yechimlar” mavzusida respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallaridan tashkil topgan. To‘plam materiallaridan soha mutaxassislari, o‘qituvchilar, tadqiqotchilar hamda magistratura va bakalavriat talabalari foydalanishlari mumkin.

Tahrir hay’ati:

1. Adilov S.A., iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
2. Daniyarov B. X., filologiya fanlari doktori, professor.
3. Yuldashev M.M., filologiya fanlari doktori, professor.
4. Sharopova Z.F., dotsent.
5. Matkarimova S.Sh., pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
6. Haydarov Sh.M., filologiya fanlari nomzodi, dotsent.
7. Xabibjonov.I.T., filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor v.b.
7. O‘tayev A.Y., pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
8. Nasriyeva D.M., filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.
9. Murodova Sh.I., pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi.
10. Boboqulova U.S., filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi.

Mas’ul muharrir:

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b. Abdullayev A.A.

Maqola va tezislarning ilmiy saviyasi, ma’lumotlarning haqqoniyligiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

Maqola va tezislar Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universitetining «Tillar va maktabgacha ta’lim» kafedrasida tahrir etilgan va universitet Kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

“TIPU nashriyoti”, 2026.

KIRISH SO‘ZI

Hurmatli Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi qatnashchilari!

Yangi O‘zbekistonda o‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini tubdan oshirish, yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarga sadoqat, ulug‘ ajdodlarimizning boy merosiga vorislik ruhida tarbiyalashga qaratilgan yangidan yangi tashabbuslar ilgari surilayotgani yuksak e’tirofga loyiq. Bu haqda fikr yuritganda, avvalambor, Prezidentimiz tomonidan 2019-yil 21-oktabrda qabul qilingan “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 2020-yil 20-oktabrda imzolangan “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni alohida ahamiyatga molikdir. Mazkur hujjatda mamlakatimizda davlat tilini to‘laqonli joriy etishni ta’minlashga doir istiqboldagi yuksak vazifalar ko‘zda tutilgan. Shu bilan birga, Farmonda ko‘pmillatli yurtimizdagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o‘zbek tilini o‘rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari hamda ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan.

O‘zbek tili Davlat tili sifatida siyosiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda xalqni birlashtiruvchi qudratli vosita sanaladi. Ona tilimiz so‘zlashuvchilar soni ko‘pligiga ko‘ra, sayyoramizda eng keng tarqalgan 40 ta tildan biri ekani ham biz uchun quvonchlidir. Davlatimiz rahbari ta’biri bilan aytganda, “Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zlik va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma’naviy boylik, mamlakatimizning siyosiy-ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotida g‘oyat muhim o‘rin egallab kelayotgan buyuk qadriyatdir”.

Ona tili millatning ruhi, davlat timsoli ekanini e’tiborga olgan holda, uni asrash va rivojlantirish har bir fuqaroning insoniy burchi hisoblanadi. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganiga bu yil 21-oktabrda 37 yil to‘ladi. Bu davrda O‘zbekiston suveren davlat sifatida iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy, ma’naviy jihatdan mislsiz yutuqlarni qo‘lga kiritdi. O‘zbek xalqi o‘zligini anglab oldi, ona tilining milliy madaniyat, ma’naviyatning ajralmas qismi ekanini his qildi. Shu bilan birga, o‘zbek tilini yanada takomillashtirish, boyitish, uning vazifaviy va nutqiy

uslublarining silliq, ta’sirchan va o‘tkirligini ta’minlashga yo‘naltirilgan tatqiqotlar olib borilmoqda. Jamiyat hayotida gumanitar fanlarning roli ham aynan shunda ko‘rinadi.

Mustaqillikdan so‘ng o‘zbek tilshunosligida kognitiv tilshunoslik, sotsiolingvistika, etnolingvistika, ingvokulturologiya, pragmalingvistika, kompyuter lingvistikasi kabi yo‘nalishlar yuzaga keldi. Qayd etilganlar o‘zbek tili va tilshunosligi mustaqillik sharoitida erishgan yutuqlarining ma’lum qismi, xolos. Shu sababli mustaqillik sharoitida o‘zbek tilini me’yorlashga bag‘ishlangan ilmiy ishlarning ko‘pchiligi ona tilimizning ilmiy muammolariga bag‘ishlandi. Shu ma’noda, Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universitetida respublika miqyosida tashkil etilgan mazkur ilmiy-amaliy konferensiya ham zamonaviy milliy tilshunosligimizning dolzarb ilmiy-nazariy va amaliy masalalariga bag‘ishlangandir.

“**Umumfilologik tadqiqotlar: muammolar va yechimlar**” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2026-yil 16-yanvardagi 11-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan 2026-yilda respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasining 34-bandi ijrosini ta’minlash maqsadida tashkil etilmoqda.

Konferensiya kun tartibiga qo‘yilgan masalalar bugungi kun zamonaviy o‘zbek tilshunosligi va adabiyoti, ta’lim tizimida uni o‘qitish jarayonidagi dolzarb muammolarga bag‘ishlangan bo‘lib, quyidagi sho‘balardan tashkil topgan:

1-Sho‘ba: ***“Zamonaviy lingvistikaning nazariy va amaliy masalalari”*** (kognitiv tilshunoslik, pragmalingvistika, sotsiolingvistika, lingvokulturologiya va lingvopoetika).

2-Sho‘ba: ***“Adabiyotshunoslikning nazariy va amaliy masalalari”*** (adabiy jarayonlar, adabiy tanqid, matnshunoslik va manbashunoslik).

3-Sho‘ba: ***“Onomastika, turkologiya va leksikografiyaning nazariy va amaliy masalalari”*** (nomshunoslik, turkiy tillar tadqiqi, lug‘atshunoslik).

4-Sho‘ba: ***“Til va adabiyot o‘qitishning metodik va metodologik masalalari”*** (Ona tili va xorijiy tillarni o‘qitishdagi innovatsion yondashuvlar, adabiy ta’limning zamonaviy metodlari, milliy dastur va Xalqaro tadqiqotlar).

Bugungi konferensiyaning bosh maqsadi o‘zbek tili va adabiyotining bugungi zamonaviy qiyofasi, ta’lim-tarbiya jarayonida uni o‘qitish bilan bog‘liq muammolar va ularning asosiy tendensiyalarini hamda pedagogika fani oldida turgan masalalarni aniqlash, yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan shaxsni tarbiyalashning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha fikr almashishdan iborat.

Ushbu ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plamiga Respublikamiz oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tadqiqot hamda boshqa ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari, magistrantlari hamda iqtidorli talabalarning maqola va tezislari kiritilgan.

Mazkur ilmiy-amaliy konferensiya kun tartibidagi masalalar o‘zbek tilshunosligi sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirishga, fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini yangilashga, ma’naviy merosimiz bo‘lgan sharq mutafakkirlarining asarlarini muntazam o‘rganishga, ta’lim jarayonlarida zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng joriy etilishiga, ta’lim oluvchi yoshlarni ma’naviy barkamol shaxs qilib tarbiyalashga, o‘z hissasini qo‘shadi.

Konferensiya ishida barcha ishtirokchilarga muvaffaqiyat tilayman.

S.Adilov – Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

BIRINCHI SHO‘BA: “ZAMONAVIY LINGVISTIKANING NAZARIY VA AMALIY MASALALARI” (KOGNITIV TILSHUNOSLIK, PRAGMALINGVISTIKA, SOTSIOLINGVISTIKA, LINGVOKULTUROLOGIYA VA LINGVOPOETIKA)

JADID ZIYOLILARINING MILLIY ADABIY TILNI SHAKLLANTIRISH HAQIDAGI QARASHLARI

Ma’rufjon Yo‘ldoshev,

filologiya fanlari doktori, professor

Muyassarxon To‘xtaboyeva

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Jadidlar o‘zbek xalqini millat sifatida shakllantirmoq maqsadida harakat qildilar va buni har birining oliy maslagi deb bildilar. Millatning mavjud bo‘lishi uchun hududiy va ma’naviy-ruhiy hamda ijtimoiy-siyosiy birliklar qatorida, eng asosiysi til umumiyligi ham yuzaga kelgan bo‘lishi zarur. Masalaning mohiyatini teran anglab yeta olgan jadidlar o‘zbek xalqi uchun mushtarak umumxalq adabiy tilini, uning zamirida milliy adabiy tilni shakllantirish yo‘lida harakat qildilar. Ular o‘zbek tilining siyosiy va ijtimoiy huquqini tiklash, mavqeini ham ko‘tarish borasida samarali faoliyat olib bordilar. Maqolada jadid ziyolilarining til va ta’lim bilan bog‘liq qarashlari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar. *Jadidlar, til, millat, ta’lim, milliy adabiy til, yangi maktab, yangi alifbo.*

Аннотация. Джадиты стремились к формированию узбекского народа как нации и считали это своей высшей целью. Для существования нации необходимо наличие территориального, духовно-нравственного и общественно-политического единства, а также, что наиболее важно, языковой общности. Глубоко осознав суть этого вопроса, джадиты работали над созданием единого общенационального литературного языка для узбекского народа, в основе которого лежал национальный литературный язык. Они активно действовали в направлении восстановления политических и

социальных прав узбекского языка, а также повышения его статуса. В статье рассматриваются взгляды джадитских интеллектуалов на вопросы, связанные с языком и образованием.

Ключевые слова. *Джадиты, язык, нация, образование, национальный литературный язык, новая школа, новый алфавит.*

Annotation. The Jadids aimed to shape the Uzbek people as a nation and considered this their ultimate goal. For a nation to exist, territorial, spiritual-moral, and socio-political unity must be achieved, with linguistic unity being the most crucial. Deeply understanding the essence of this issue, the Jadids worked toward creating a common national literary language for the Uzbek people, rooted in the national literary language. They actively pursued the restoration of the political and social rights of the Uzbek language and the elevation of its status. The article discusses the views of Jadid intellectuals on issues related to language and education.

Keywords. *Jadids, language, nation, education, national literary language, new school, new alphabet.*

Ziyolilarning millatparvarlik g‘oyalarini o‘sha davrda turli jurnallarda nashr etilgan maqolalaridagi milliy tilga, uning tarixiga, tilni taraqqiy toptirishga, uning tozaligini asrashga qaratilgan fikr va da’vatlarida kuzatishimiz mumkin. Ilmiy-tanqidiy maqolalari ularning teran fikrli olimlar ekanligini belgilasa, milliy adabiy til xususidagi qarashlari til ilmining ham salohiyatli kishilari ekanligindan dalolat berardi. “Turk tili asosan boy til bo‘lishi bilan va turk millatining og‘zida necha ming yillardan beri yurub, ikki ming yilga yaqin adabiy yo‘lg‘a kirdi va beshinchi asr hijriydan boshlab o‘nlarcha buyuk shoir va adiblarga ega bo‘lub, ilmiy va adabiy ishlanib keldi; sharq turk adabiyotining oltun davrlari bo‘lg‘on Navoiy, Umarxon davrlari bilan g‘arb turk adabiyotining Fuzuliy, Boqiy, Nadim, Lola davri va asrimizda Homid, Nomiq va Fikrat kabi eng buyuk shoir va san’atkorlar qo‘lida ham keragincha ishlandi va turk tili shuning uchun-da asriy bir holga kirdi” (V. Mahmud, 2007. 36-bet). Ushbu davrdagi ma’rifatparvarlardan birining ushbu fikrlari ham yuqoridagi masala ziyolilarimiz uchun nechog‘lik ahamiyatli bo‘lganligini isbotlaydi.

Bu davrda umumadabiy tilni shakllantirishda turlicha g‘oya va qarashlar o‘rtaga tashlandi. Jumladan, bulardan biri og‘zaki va yozma umumxalq tilini qayta ishlash, uning zamonaviy normalarini belgilash vahamda shu asosda adabiy tilni yuzaga keltirish fikri edi. Bu g‘oya “1929-yildagi Til va imlo qurultoyi”da yaqqol ko‘zga tashlandi. “Hujjatlardan op-ochiq ma’lumki, 1921-yilda chaqirilgan Til va imlo qurultoyi oldida o‘zbek adabiy tili masalasida uch yo‘l borliq ko‘rsatardi: 1) chig‘atoy turkchasiga tortish; 2) janub turkchasiga tortish va; 3) shimol turkchasiga tortish.

Shu yillarda nashr etilgan gazeta, jurnallar va kitoblar bu oqimlarning hammasiga ham xizmat qilardi, ya’ni qaysi bir narsa qaysi bir oqim kishilari qo‘lida bo‘lsa, shu tilda bosilardi va oqimlarning hech biri o‘zbek adabiy tili to‘g‘risida gapirilganda, ishlaganda, mehnatkashlar ommasini nazarda tutib shu ommaning manfaati nuqtayi nazaridan hal qilmoqchi bo‘lmasdi. Shuning uchun bularning hammasi to‘g‘ri yo‘ldan ketolmadi. Shunday bo‘luvi ham tabiiy edi” (Botu, 2004. 126-bet).

Keyingisi umumturkiy adabiy til g‘oyasi edi. Buning asoschilari va targ‘ibotchilaridan biri Ismoilbek Gaspirali edi. Sir emaski, u barcha turkiy xalqlar uchun turk va qrim-tatar tili asosida umumiy yozma adabiy tilni joriy etish g‘oyasini ilgari surgan edi (Qosimov, 1992). Turkistonlik ziyolilar orasida birinchi bo‘lib Behbudiy Gasprinskiyning til birligi g‘oyasini keng targ‘ib qildi va quvvatladi. Dastlab u o‘sha davrning aksariyat musulmon ziyolilari kabi Rossiya musulmonlarining yagona tili bo‘lishi kerakligi haqidagi g‘oyaga qiziqish bildirdi. Behbudiy bu masala yuzasidan Turkiston shaharlarida o‘ziga xos so‘rovnoma va tajriba ham o‘tkazdi. Aytish lozimki, “Ikki emas, to‘rt til lozim”, “Har millat o‘z tili ila faxr etar”, “Til masalasi”, “Sart so‘zi majhuldir”, “Sart so‘zi ma’lum bo‘lmadi” singari maqolalari va ayrim darslik hamda tilshunoslikka doir maqolalarida ko‘tarilgan masalalar uning zukko tilshunos bo‘lganini to‘la isbotlaydi.

Tayinki, millatning o‘zligini ko‘rsatadigan xossalaridan biri til va maorifdir. Gasprinskiy 1905-yilda yozgan maqolalaridan birida millatning asosi ikkita: tavhidi til (til birligi) va tavhidi din (din birligi) deb yozgan edi. Darhaqiqat, tilning o‘rni

beqiyos: “Insonning oti bo‘lmasa, o‘zi ham yo‘q demakdir, shuningdek tili bo‘lmagan inson ham soqovdir”. “Til birligi masalasi bizim hayotimizda hayot-mamot masalasidir va biz bu masalada bir qadam ham orqaga chekinmaymiz, - yozadi I.Gasprinskiy 1906-yil 18-dekabrda. – Biz uchun orqaga chekinmoqqa yo‘l yo‘q” (Qosimov, 1992). Umumiy turkiy til masalasi tatar, ozarbayjoi, o‘zbek gazetalari hamda jurnallari sahifalarida muhokama qilib turildi.

Navbatdagi taklif milliy tilni rus tili vositasi, ta’siri asosida shakllantirish va rivojlantirish g‘oyasi edi. Ayrim ziyolilar rus tili, uning lug‘at tarkibi o‘zbek tili leksikasini boyituvchi asosiy manba ekanligini urg‘ulashgan. Ular rus tiliga xos xususiyatlarni o‘zbek adabiy tiliga olib kirish yo‘lida yetarlicha tashabbus ko‘rsatishdi, ularning o‘zbek tiliga o‘zlashishi va qo‘llanilishiga xayrixohlik munosabatida bo‘lishgan. (Tursunov, 1995. –B. 178-207.) Bunda “Turkiston viloyatining gazeti” muhim ahamiyat kasb etdi. Bu fikr taraqqiyparvar mualliflariga ungacha bo‘lgan davrdagi yozuvchi va shoirlarning asarlari muayyan darajada asos bo‘lib xizmat qilgan. Jumladan, Isoqxonning kuyidagi fikrida rus tili ta’sirida o‘zbek tiliga o‘zlashtirilgan leksik unsurlar yaqqol ko‘rinadi: “*Asrimiz madaniyati bor erdi, chunonchi, otash aroba, tiligrom* (telegramma), *tilifun* (telefon), *iliktr* (elektr) *fanirlari, hatto uchadurgon ayripiloi* (aeroplan), *giramufun* (grammafon), *fatagirof* (fotografiya), *tipogirof* (tipografiya), *litogirof* (litografiya), *anvoyi mash inalar: aftomubel* (avtomobil), *valisafed* (velosiped), *tilsiz tiligiromlar* (telegrammalar), *necha-necha ashyoyi jadida, anvoyi adidalar hammasi mavjud edi”* (“Turkiston viloyatining gazeti”).

Milliy tilni “chig‘atoy” tili, ya’ni eski o‘zbek adabiy tili asosida yaratish g‘oyasi. “... ma’lum bir guruh ziyolilar eski “chig‘atoy” tiliga qaytish, uni tiklash g‘oyasini qo‘ydilar”(Tursunov, 1995. -B. 57).

To‘rtinchi taklif adabiy tilni arab tili asosida rivojlantirish, o‘zbek xalqi uchun arab tili ta’lim tili bo‘lishi lozimligi g‘oyasi edi. Bu g‘oya tarafdorlari adabiy til masalasini din bilan bog‘lashga urindilar. Shu o‘rinda ta’kidlash o‘rinliki, arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar orfografiyaning an’anaviy prinsipi asosida, ya’ni so‘z va morfemalar qadimda qanday yozilgan bo‘lsa, mazkur davrda ham shunday yozilgan.

Bu davrda arabiy so‘zlarning yozilishiga juda bilimdonlik va ziyraklik bilan e’tibor berishgan. Savodxonlik yuqori darajada bo‘lgan. Bu qarash tarafdorlari o‘z fikrlarini quyidagicha quyidagicha dalillashga harakat qilishgan: “Bizning dinimiz islomdir. Har bir musulmon uchun u arab tilidir. Har bir musulmon arab tilining morfologiyasi va sintaksisini o‘rganishi shart”(Tursunov, 1995. –B. 178-207). Maktab va madrasalarda ta’lim tili arab tili bo‘lishi kerak edi. 1920-yil may oyida xalq ta’limi bo‘lim boshliqlarining I syezdida qilgan ma’ruzasida Munavvar qori diniy ta’lim muassasalarini yo‘q qilish emas, balki ta’lim dasturlarini dunyoviylashtirish orqali ta’lim tizimini isloh kerakligini ta’kidlagan edi. Zero, “o‘rta asrlarda ham O‘rta Osiyo madrasalarida diniy bilimlar bilan bir qatorda arab tili, mantiq, geografiya, astronomiya, matematika, tibbiyot kabi dunyoviy fanlar o‘tilgani bois bunday ta’lim dargohlarida buyuk allomalar yetishib chiqqan”ligiga Munavvar qori o‘z chiqishida urg‘u beradi.

Adabiy tilni o‘zbek xalq lahjalari va shevalari asosida shakllantirish hamda rivojlantirish g‘oyasi. “Turkchaning shu’ba va shox(a)lari bo‘lgan o‘zbek-chig‘atoy, totor, ozarbayjon, qozoq va turkman lahjalarindagi yangi matbuotning eng ahamiyatlik masalalaridan biri, albatta, sheva, lahja, imlo masalalaridur” (Behbudiy, 2006. 184-b). Bu nazariya tarafdorlari, o‘z navbatida, uch guruhga ajralgan edilar. Birinchi guruhdagilar turkiy tillarning shakllanishiga asos bo‘lgan barcha sheva xususiyatlarini inobatga olib, o‘zbek xalqi uchun yagona adabiy tilni yaratish kerak, degan fikrni o‘rtaga tashladilar. Ikkinchi guruhdagilar muayyan hudud shevalari asosida turli adabiy tillarni yaratish kerak, deb hisobladilar. Uchinchi guruhdagilar esa o‘zbek tilining shakllanishi uchun asos bo‘lgan qarluq shevalarining adabiy til uchun asosiy manba bo‘lishi kerakligini yoqlab chiqdilar. “Chig‘atoy gurungi” jamiyatining faol a’zosi bo‘lgan Elbek ham o‘zbek tili lug‘at tarkibini boyitishda tilning ichki imkoniyatlari asosida rivojlantirish va shu orqali milliy adabiy tilni yaratish tarafdori bo‘ldi.

Shuningdek, til siyosati borasida ziyolilar o‘zining individual fikrlarini ham o‘rtaga tashladilar. Jumladan, Vadud Mahmud turkiy-o‘zbek tilning tarixi va kelib chiqishiini o‘rganishda, uni to‘g‘ri anglashda, muammolar asosini ochib berishda

aniq faktlarni yig‘ish va o‘rganish, unga yondosh bo‘lgan hodisalar bilan solishtirish, qo‘yilgan muammoga zarur javobni bevosita real voqelikdan, ba’zan badiiy asarlartilidan izlab topish yo‘lidan boradi. Muallif “Adabiy tanqidga bir nazar” maqolasida Abdurahmon Sa’diyning “O‘zbek yosh shoirlari” deb nomlangan maqolasidagi ayrim fikrlarga munosabat bildirib, turkiy til tarixiga oid muhim ma’lumotlarni izohlashga harakat qiladi. Bunda Abdurahmon Sa’diyning XX asr boshlaridagi adabiy tilni “o‘zbek tili” deb atab, uning boshlanish davrini Abulg‘ozi Bahodirxonga borib taqalishini, “chig‘atoy tili”ni esa undan ayro holdagi bir til deb tushunish g‘oyasini ma’qullamaydi: “Bu til chig‘atoydan ko‘b jihatdan ayriladurg‘on bir tildir. Buning uslubida o‘zgachadir. Abulg‘ozining “Shajarai turk”i esa bu til bilan yozilgan emas, balki chig‘atoy tili bilan yozilgan. Mana shu keltirgan namuna va dalillarimiz bu da’vomizni isbotiga kifoyat etsa kerak. Bundan shu natija chiqadirki, bu kungi adabiy tilimiz va Behbudiylarning tili va uslubi, A. Sa’diy aytganicha o‘zbekcha bo‘lmasdan yuqorida ko‘rsatganimizcha chig‘atoychadir”. Muallif o‘z fikrini dalillashda “Shajarai turk” va “Boburnoma” asarlaridan namunalar keltirib, ularning tili va uslubini o‘zaro qiyoslaydi, dalillar asosida bu ikki manbaning tili va uslubida “hech bir ayriliq emas, balki birlik ko‘rinadur”, deb ishonchli xulosalarga keladi. Abdurahmon Sa’diy “Shajari turk”da istifoda qilingan bir necha so‘zning “Boburnoma”da yoki boshqa chig‘atoy tilida yozilgan asarlarda uchramaganligi sababli shunday xulosalarga kelgan, degan fikrni aytadi (Normamatov, 2017. 53-b.)

Shuningdek, tadqiqotchi “haqiqatan o‘zbek tili degan bir til bormidir, yo‘qmidir yoki bu faqat yuqorida aytganimiz kabi quruq bir otdan iboratmidir?” (V.Mahmud) degan savolni o‘rtaga tashlaydi va unga javob beradi: “o‘zbek” atalgan bir qavm bo‘lgani kabi “o‘zbekcha” degan bir til ham bordir. Lekin u til bugungi gazeta va kitoblarimizning tili emas. Balki u til hali adabiyotimizga kirmagandir. Bu o‘zbekcha sof o‘zbeklar yashagan joylarda ishlatiladirkim, uning namunasini G‘ozi Olim o‘rtoq adabiyotimizga birinchi o‘laroq hadya etdi” (V.Mahmud) deya “Bilim o‘chog‘i”ning 2-sonidagi “Alpomish” dostonidan parcha keltiradi va “mana bu til o‘zbekchadir. Bu til chig‘atoydan ko‘b jihatdan ayriladurg‘on bir tildir. Buning uslubida o‘zgachadir. Abulg‘ozining “Shajarai turk”i esa bu til bilan yozilgan emas, balki chig‘atoy tili

bilan yozilgan. Mana shu keltirgan namuna va dalillarimiz bu da’vomizni isbotiga kifoyat etsa kerak. Bundan shu natija chiqadirki, bu kungi adabiy tilimiz va Behbudiylarning tili va uslubidir” degan xulosani beradi (V.Mahmud). Ya’ni, XX asr boshlaridagi adabiy tilni A.Sa’diy qayd ettganidek, “o‘zbekcha” emas, balki “chig‘atoycha” deb baholaydi. Albatta, munaqqidning ushbu fikrlarida ba’zi munozarali o‘rinlar mavjud bo‘lishiga qaramay, masalaga ilmiy yondashib milliy adabiy til va uslub, uning takomil bosqichlari haqida bildirgan ilmiy qarashlari o‘sha davr uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Jadid adabiyotining yirik vakillaridan biri Fitrat o‘zbek adabiy tilining me’yorlarini belgilashda eski o‘zbek adabiy tilining xususiyatlari hisobga olinishi kerak, deb hisobladi. U mumtoz yozma tilni soddalashtirish va soflashtirishga intildi, ya’ni eski o‘zbek adabiy tilida iste’molda bo‘lgan kitobiy yot unsurlardan voz kechish, ularning o‘rniga qadimgi turk tili va xalq shevalaridan mos muqobillarni topib qo‘llashni nazarda tutdi (Fitrat. Adabiyot qoidalari. Tanlangan asarlar. V jildli. –T.: Ma’naviyat, 2006. -IVjild). “Eng eski turk adabiyoti namunalari” (Fitrat, 2008. 124 b), “O‘zbek adabiyoti namunalari (1-jild)” (Fitrat, 2013. 292 b) majmualarini chop ettirdi. Shundan kelib chiqib, u o‘z badiiy asarlari tiliga bir qator unut bo‘lgan qadimgi turkiy so‘zlarni olib kirdi. Masalan, *ayoq* (qadah, piyola), *og‘och* (daraxt), *yozug‘* (gunoh, ayb), *uchmoq* (jannat), *ochun* (dunyo, olam) *usruk* (mast, sarxush) va boshqalar. Shuningdek, Fitrat fe’lga mazmuniy va grammatik nuqtayi nazardan yondashadi. Fe’lning harakat bildirishini hamda shaxs va zamon grammatik ma’nolarini bildiruvchi shakllarga ega bo‘lishini quyidagicha bayon qiladi: *«Har bir fe’l bir ish bilan uning ishlovchisi hamda bir zamonni bildiradir».* Fe’lning bu uch jihati uning uch “butog‘i” sanaladi. Shu uch butoqning o‘zgarishiga qarab, fe’llar turli o‘zgarishlarga uchrashi ko‘rsatiladi. “Harakat” tushunchasi “ish” atamasi bilan, “shaxs” tushunchasi “ishlovchi” atamasi bilan nomlanadi. Masalan, *“Ish ishlovchi tomonidan ishlansa, «men yozdim”* deyiladir. *Eshituvchi tomonidan bajarilsa, “sen yozding”* deyiladir», - deb bayon qilinadi (Nurmonov, 2002). Shuningdek, Abdurauf Fitrat birinchilardan bo‘lib Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ati-t-turk” asarini tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etgan olim hisoblanadi.

Aytish joizki, jadidlar – istiqlol kurashining g‘oyaviy ilhomchilari edilar. O‘zbekiston mustaqilligining tiklanishi tasodifiy va favquloddagi hodisa bo‘lmay, uning uchun kurash ildizlari uzoq o‘tmishga, eng yaqini o‘tgan asr boshlaridagi milliy ozodlik harakatiga borib taqaladi. XIX asrning oxirida Turkistonga kirib kelgan jadidchilik harakati ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy oqim sifatida o‘lka tarixida zalvarli o‘rin egalladi. Bu harakat tashqaridan qaraganda ko‘proq ma’rifiy g‘oyalarni ilgari surgandek ko‘rinsa-da, mohiyatan ijtimoiy-siyosiy maqsadlarni ifodalar edi. Chunki millatni ozod etib, o‘z taqdirini o‘zi hal qila oladigan jamiyat tuzmasdan na ijtimoiy na ma’naviy masalada tub islohotlar o‘tkazib bo‘lmas edi.

Адабиётлар рўйхати

1. B.Qosimov. Ismoilbek Gaspirali.-T.: Ma’naviyat, 1992.
2. Behbudiy. Til masalasi. Tanlangan asarlar. -T.: Ma’naviyat, 2006. 184-bet.
3. Botu. Tanlangan asarlar. -T.: Sharq, 2004. 126-bet.
4. Fitrat. Eng eski turk adabiyoti namunalari. - Toshkent: Mumtoz so‘z, 2008. - 124 bet.
5. Fitrat. O‘zbek adabiyoti namunalari - Toshkent: Mumtoz so‘z, 2013. -292 b.
6. Normamatov S. Jadid munaqqidchiligida til masalasi. 2017 № 1. 53-bet.
7. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2002.
8. Tursunov U. va b. O‘zbek adabiy tili tarixi. -T.: O‘qituvchi, 1995. 178-207-betlar.
9. Vadud Mahmud. Tanlangan asarlar - T.: Ma’naviyat, 2007. 36-bet.

BUYRUQ GAPLARNING SINTAKTIK LINGVOPOETIKASI

Ibragimova Fazilat Erkinovna,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jizzax davlat pedagogika universiteti kafedra mudiri
+99893-306-43-55, fazilatxon81@mail.ru

Аннотация: В данной статье рассматривается тот факт, что повелительные предложения в узбекском языке выражают не только чистый приказ выполнить задачу, но и другие значения, в частности, существование типов повелительного значения, таких как строгий приказ, строгий приказ и чистый приказ, а также их важность как лингвопоэтического инструмента в литературном тексте.

Abstract: This article discusses the fact that imperative sentences in the Uzbek language express other meanings in addition to a pure order to perform a task, in particular, the fact that there are types of imperative meaning such as a strict order, a strict order, and a pure order, and their importance as a linguopoetic tool in a literary text.

Buyruq gap tinglovchini biror narsaga – biror ishni bajarishga qistash, uni bajarish haqidagi buyruq va shu bilan bog‘langan boshqa ma’nolarini ham ifodalaydi: *do‘q, qat’iy buyruq, iltimos, yalinish, nasihat, taqiqlash, ogohlantirish, taklif, tilak-istak* kabi. Masalan,

1. Odatdagi buyruqni bildiradi: *tez yugur!*
2. Ba’zan shu ishni bajarishga tashviq qilish, qistash kabi ma’no qirralarini bildiradi: *tez yugursang-chi?*
3. Ba’zan bu mazmun iltimos yo‘li bilan beriladi: *Menga so‘z bering.*
4. Maslahat ma’nosida: *Yaxshisi o‘zingiz boring.*
5. So‘zlovchining istagini, tilak-maqsadini ifodalashi mumkin: *Bugun men ham boray.*
6. Ba’zan chaqirish-undash ma’no qirrasi ifodalanishi mumkin: *Olg‘a! Fan cho‘qqilari tomon!*

Ko‘rinadiki, buyruq gaplarning umumiy ma’nosi buyruq bo‘lsa, xususiy ma’nolari turlichadir. Yuqoridagilarni umumlashtirib buyruq gaplarni ikkiga ajratishimiz mumkin:

1) sof buyruq gaplar;
2) *maslahat, iltimos, nasihat, istak* kabi ma’nolarni ifodalaydigan buyruq gaplar.

Sof buyruq gaplar ommaga yoki yakka shaxsga qaratilgan bo‘ladi. Shunga ko‘ra o‘z ichida yana ikkiga bo‘linadi:

1) umumiy buyruqlar;

2) individual buyruqlar.

Umumiy buyruq gaplar birgalikda yoki ko‘pchilik bajaradigan faoliyatni anglatadi. Masalan,

– ***Ertalabgacha bajarasan***. *Kimligini aytganimda “Nima uchun?” degan savol* ***bermalaring.*** (Tohir Malik. Shaytanat)

Ushbu misolda *ertalabgacha bajarasan* buyruq gapi yakka shaxsga qaratilgan, ammo keyingi jumladan aniqlanadiki, buyruq (*savol berma**lar**ing)* ko‘pchilikka qaratilayapti. Buyruq bilan birga ta’kid ma’nosi ham mavjud. Yana bir misol:

Shoshilib hovliga chiqdi-da, sigaret chekib turgan Chuvrindiga qisqagina buyruq berdi:

– ***Ketdik!*** (Tohir Malik. Shaytanat)

Bu misolda esa buyruq gap birgalikda bajariladigan faoliyat ifodalanyapti. Solishtiring: ketdim-ketdik. Gapdagi fe’l aniqlik maylidagi yaqin o‘tgan zamon fe’li intonatsiya yordami bilan buyruq gap hosil qilinyapti.

Individual buyruqlar yakka shaxsga qaratilgan bo‘ladi.

Ko‘zlari tinib, a’zoyi badani bo‘shashdi. Shu ahvolda ekanida akasining ihraganini eshitdi. Keyin akasi joni boricha baqirdi:

– ***Zohid qoch!!!*** (Tohir Malik. Shaytanat)

Ushbu misolda individual buyruqni ko‘rishimiz mumkin. Bu buyruqning ichida ichki hayqiriq, ilojsizlik, iltimos, o‘kinch kabi tuyg‘ular jamlangan. Yana bir misol:

Ko‘cha eshikdan ayvonga o‘n besh qadam, ayvon ikki qadam. Asadbek nazarida Manzura bu yo‘lni bir necha soatda bosib o‘tganday bo‘ldi. Avvaliga ***“tezroq yur!”*** *deb baqirib bermoqchi bo‘ldi edi. Ammo sovuq xabarni bir soniya bo‘lsa-da, kechroq eshitganim ma’qul, degan yashirin o‘y bunga yo‘l qo‘ymadi.*

(Tohir Malik. Shaytanat)

Ushbu misoldagi *tezroq yur!* buyruq gapi yakka shaxsga qaratilgan.

Yana bir misol:

Zohid ostona hatlamoqchi edi, Soliyev uni to‘xtatdi:

– *Sen kirmay tur.*

– *Bularni taniyman.*

– *Tanisang ham kirmay tur. – Soliyev shunday deb engashdi-da, yigitlarning bosh tomonidan bir varaq qog‘oz olib, o‘qidi: – “Erkak bo‘lsang – qasos ol!” Bu xat senga atalgan shekilli?*

(Tohir Malik. Shaytanat)

Ushbu misolda individual buyruq ifodalanyapti, ya’ni boshqalar kirishi mumkin (*Sen kirmay tur*). Ikkinchi buyruq gap (*Erkak bo‘lsang – qasos ol!*) ham individual buyruq gapiga kiradi, unda da’vat, ta’kid ma’nolari ham ifodalanadi.

Bu turlar jonli tilda intonatsiya jihatidan bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Intonatsiya o‘sha gaplarning ichki turini, ma’no qirralarini ifodalaydi, natijada har bir gapning o‘ziga xos intonatsiyasiga ega bo‘ladi. Ayniqsa, gaplardagi so‘zlar tartibi o‘zgarishi ham talaffuzning ifodaliroq bo‘lishiga olib keladi.

A.G‘ulomov buyruq gaplarning intonatsion xususiyatlarni quyidagicha ko‘rsatadi:

1. Gapning bu turi buyruq intonatsiyasiga ega bo‘ladi.
2. Bu tipdagi gapning kesimi odatda buyruq maylidagi ikkinchi shaxsda turgan fe’ldan bo‘ladi.
3. Boshqa vositalar bo‘lmaganda buyruq gap intonatsiyasining o‘zi bilangina tuziladi.
4. Buyruq maylining uchinchi shaxsi (birlik) shaklidagi fe’l-kesim majhul darajadagi fe’l bo‘lganda, odatda umumiy buyruq mazmuni kelib chiqadi.
5. Bunday gaplarning kesimi ba’zan shart mayli shaklida bo‘ladi.
6. Aniqlik maylidagi yaqin o‘tgan zamon fe’li ba’zan intonatsiya yordami bilan buyruq gap hosil qilishi ham mumkin.
7. Buyruq gapning kesimi odatda buyruq maylidagi fe’ldan bo‘ladi, shunga ko‘ra bu gap ko‘pincha undov intonatsiyasi bilan bog‘langan bo‘ladi.
8. Buyruq gap ko‘pincha undalmali va undovli bo‘ladi [1].

Buyruq gaplarning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri buyruq intonatsiyasiga ega bo‘lishidir. Bu intonatsiya darak gapnikiga ko‘ra kuchli bo‘ladi. Keskin buyruq, do‘q bildiradigan gaplarda intonatsiya, ayniqsa, kuchli bo‘ladi. O‘z-o‘zidan buyruqni bildiradigan bo‘lak kuchli aytiladi. Masalan,

– Sharipov, - dedi u, telefon go‘shagini qulog‘iga tutib.

– Lola ko‘chasidagi o‘n yettinchi uydan qoradori topilgan. Qidiruv guruhi jo‘nadi. Bu ish sizga topshiriladi.

Buyruq qisqa va qat’iy edi. Zohid shoshilmay o‘rnidan turdi-da, go‘shakni joyiga qo‘yib, tashqariga yo‘l oldi. (Tohir Malik. Shaytanat)

Ba’zi holatlarda keskin buyruq bilan birga boshqa ma’nolar ham qo‘shib ifodalanishini ko‘rishimiz mumkin:

– Uningni o‘chir! – dedi Asadbek dag‘al ovozda. – Uyga bor, ovozingni chiqarma. Bitta-yarimta so‘rasa… ammasinikida edi, de. (Tohir Malik. Shaytanat)

Bu misoldagi *uningni o‘chir!* jumlasida keskin buyruq va do‘q ma’nolari ifodalanyapti, talaffuz dag‘al ovozda aytilishi ham buni aniq ko‘rsatadi.

Buyruq bilan do‘q ma’nolari ifodalanganda yana haqorat ma’nosi ham qo‘shiladi. Masalan:

– Tur o‘rningdan, to‘nka! – deb baqirdi.

Ushbu misolda “o‘rningdan tur” ning o‘rniga “tur o‘rningdan” deb qo‘llash buyruqning keskinligini bildirayapti.

– Qo‘llarimni bo‘shat, haromi!

– Haromi nimaligini bilasanmi o‘zing! – Jamshid shunday deb uning qorniga tepdi. (Tohir Malik. Shaytanat)

Yuqoridagi buyruq gaplarda ma’no qirralarini quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

BG= B+D BG=B+D+H

Bu holatda BG- buyruq gap, B-buyruq ma’no, D-do‘q ma’nosi, H-haqorat ma’nosi.

Yana bir misol:

– Dadamga tegmang! Tegmang dadamga! – daf’atan kelgan hayqiriqni to‘xtata olmadi. Irg‘ib turib uzun bo‘ylining yelkasiga tirmashdi.

– Jim bo‘l, ilonvachcha! – u shunday deb itarib yubordi.

– Bolaga tegmang! – deb baqirdi dadasi.

– Bo‘ldi, tomosha tamom, yur, – dedi past bo‘yli odam. (Tohir Malik. Shaytanat).

Ushbu misolda esa buyruq ma’nosi to‘rt xil ma’no qirralari yorityapti. *Dadamga tegmang! Tegmang dadamga!* matnida noan’anaviy tartiblanganda inversiyalangan (o‘rni almashgan) so‘zlar intonatsiyaga ta’sir ko‘rsatadi, natijada ma’no qirralari ochiladi. *Dadamga tegmang* deganda mantiqiy urg‘u “dadamga” so‘ziga tushadi, *Tegmang dadamga!* deganda esa “tegmang” so‘zi mantiqiy urg‘uga ega bo‘ladi va keskin buyruqni bildiradi. Inversiyaga uchragan konstruksiyalarda so‘zlar dalilli, asosli, ifodaliroq bo‘ladi. *Jim bo‘l, ilonvachcha!* jumlasida esa buyruq bilan birga haqorat ma’nosi ifodalanayapti. *Bolaga tegmang!* jumlasida buyruq ma’nosi kuchaytirilsa, *Bo‘ldi, tomosha tamom, yur* jumlasida oddiy buyruq ifodalanmoqda. Yana bir misol:

Anvar onasi uyga kirguncha izidan qarab turdi. Risolat kampir ostona hatlab o‘tib orqasiga o‘girildi:

– Nimaga qoqqan qoziqday turibsan, ***kir ichkariga!***

Anvar buyruqqa itoat etib, uy tomon qadam bosganida qo‘ng‘iroq jiringladi.

Ushbu misolda ham buyruq gapda inversiya hodisasi mavjud. Natijada buyruq ma’nosi kuchaytirilayapti, keskin buyruq ma’nosi ifodalanayapti.

Iltimos, yalinish, naslahat, ruxsat etish, istak-orzu kabi ma’nolar bilan bog‘langan buyruq gaplarning intonatsiyasi sof darak gapning ohangiga juda yaqin bo‘ladi. Demak, bunda intonatsiya mazmundagi turli ma’no qirralarini, har xilliklarni ko‘rsatish vositasi bo‘ladi. Masalan,

– Mening aybim yo‘q, oyiii, – izilladi Barno, – siz ham meni loaqal bir marta eshiting! (Xazonrezgi. Internet materiallari)

Bu misolda buyruq intonatsiyasi bilan birga *iltimos, yalinish* ma’nosi ifodalanayapti. *Oyiii* murojaatida “i” unlisining jo‘zilishi ma’noni kuchaytiryapti.

BG=buyruq+iltimos+yalinish

Bunday ma’no qirralarini ifodalashda ba’zan ayrim yuklamalar ham xizmat qiladi. Masalan, *Kitobni mehga ber-chi. Qani, qo‘l ko‘tarib ko‘r-chi!*

Bu misolda buyruq bilan birga *tahdid* ma’nosi ifodalanmoqda:

BG=buyruq+ogohlantirish+tahdid

Yoki:

Asab torlari tarang tortilgan. Asadbek unga o‘qrayib qarab turib, oxiri portladi:

– Jim o‘tirsang-chi, birpas! (Tohir Malik. Shaytanat)

Buyruq gaplar biror ishni bajarish yuzasidan berilgan buyruq bilan birga boshqa ma’nolarini ham ifodalaydi. Buyruq ma’nosining o‘zi ham keskin buyruq, qat’iy buyruq, sof buyruq kabi turlari ko‘riladi. Umumiy buyruq ma’nosi *do‘q, iltimos, maslahat, yalinish, g‘azab, haqorat, nasihat, taqiqlash, ogohlantirish, taklif, tilak-istak, e’tiroz* va boshqa xususiy ma’nolar bilan birgalikda keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ғуломов А.Ғ., Асқарова М.А. Ҳозирги замон ўзбек тили. Синтаксис. – Тошкент, 1961. –Б.54.

2. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси (синтаксис). –Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 232 б.

O‘ZBEK TILIDA MODAL SO‘ZLAR VA KIRISH BO‘LAKLARNING O‘ZARO MUNOSABATI

Tojimatov Rasuljon G‘anijonovich,

University of Business and Science oliy ta’lim muassasasi,

Til va adabiyot ta’limi kafedrasi dotsenti,

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

rasuljontojimatov966@gmail.com (945637333)

Annotatsiya: maqolada o‘zbek tilidagi modal so‘zlar va kirish bo‘laklarning semantik hamda sintaktik xususiyatlari tahlil qilinadi. Modal so‘zlar va kirish bo‘laklarning nutq jarayonidagi vazifalari, ularning o‘xshash va farqli jihatlari yoritiladi. Shuningdek, ushbu birliklarning gap mazmuniga munosabat ifodalashdagi

o‘rni misollar asosida ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari o‘zbek tilshunosligida modal birliklarni o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: *modal so‘zlar, kirish bo‘laklar, gap semantikasi, nutq munosabati, sintaktik birliklar*.

Аннотация: В статье анализируются семантические и синтаксические свойства модальных слов и вводных фраз в узбекском языке. Выделены функции модальных слов и вводных фраз в процессе речи, их сходства и различия. Также на примерах показана роль этих единиц в выражении отношения к содержанию предложения. Результаты исследования имеют большое значение для изучения модальных единиц в узбекской лингвистике.

Ключевые слова: *модальные слова, вводные фразы, семантика предложения, отношение к речи, синтаксические единицы*.

Abstract: The article analyzes the semantic and syntactic properties of modal words and introductory phrases in the Uzbek language. The functions of modal words and introductory phrases in the speech process, their similarities and differences are highlighted. Also, the role of these units in expressing the attitude to the content of the sentence is shown on the basis of examples. The results of the research are of great importance in the study of modal units in Uzbek linguistics.

Keywords: *modal words, introductory phrases, sentence semantics, speech attitude, syntactic units.*

«Modal so‘z» va «kirish bo‘lak» tushunchalari o‘zaro teng emas: birinchisi morfologik hodisa bo‘lsa, ikkinchisi sintaktik hodisadir. Kirish bo‘lak vazifasida, modal so‘zdan tashqari, turli turkum so‘zlari keladi. Modal so‘z kirish bo‘lak vazifasida keluvchi so‘z tiplaridan biridir, xolos. Demak, har bir kirish bo‘lak modal so‘zga teng bo‘lavermaydi; kirish bo‘lak bilan modal so‘zning o‘zaro munosabati butun bilan qism munosabatidekdir. Quyidagi so‘z tiplari modal so‘zlar qatoriga kiritilmaydi: 1) Fikrlarning o‘zaro munosabatini ko‘rsatuvchi so‘zlar:

a) umumlashtiruvchi fikrga o‘tishni ko‘rsatuvchi so‘z: ***xullas, demak, binobarin, qisqasi, umuman*** kabi;

b) izohlovchi fikrga o‘tishni ko‘rsatuvchi so‘z: ***masalan, jumladan, chunonchi*** kabi;

v) zid fikrga o‘tishni ko‘rsatuvchi so‘z: ***aksincha*** kabi;

g) fikrlarning tartibini ko‘rsatuvchi so‘z: ***avvalo, avvalambor, nihoyat*** kabi.

2) Eslatishni, e’tiborni jalb qilishni bildiruvchi so‘zlar: ***aytganday, aytmoqchi,*** kabi.

3) Ta’kid bildiruvchi so‘zlar: ***xususan, ayniqsa, asosan*** kabi.

4) Emotsional ma’no ifodalovchi so‘zlar: ***koshki, zora, yaxshiki, xayriyat, haytovur, attang, afsuski, ajabo, obbo, bo‘lmasa(m)chi*** kabi.

Yuqorida sanalgan so‘z tiplari mavjud klassifikatsiyada biror turkumga kiritilmaydi. Ammo shu asosda bularni modal so‘zlar qatoriga qo‘shib qo‘yish ham to‘g‘ri bo‘lmaydi. Sintaktik vazifadagi umumiylik (kirish bo‘lak bo‘lib kelish) bu so‘z tiplarini modal so‘zlar bilan birlashtirishga huquq bermaydi. Chunki kirish bo‘lak vazifasida turli turkum so‘zlari kelaveradi.

Masalan, fikrimcha (fikringcha, fikricha) kabilar ot turkumiga, *meningcha (seningcha, uningcha...), nima, bu, shu* kabilar olmosh turkumiga, *bilishimcha, aytishlaricha* kabilar fe’l turkumiga, *rost, to‘g‘ri, durust, tuzuk, ma’qul* kabilar sifat turkumiga, *tag‘in, yana* kabilar ravish turkumiga mansub so‘zlardir (*mayli, xo‘p, bo‘pti, bas* kabilar yana bir alohida guruhni tashkil etadi). Bular kirish bo‘lak vazifasida kelishi bilan o‘z turkumi doirasidan chiqib ketmaydi. Modal so‘z esa, kirish bo‘lak vazifasida kelishidan qat’i nazar, biror turkumdan o‘sib, ajralib chiqadi va alohida, yangi bir turkumni shakllantiradi.

Masalan, quyidagi gapda to‘g‘ri so‘zi modal ma’noni ifodalab kelyotir, ammo bunday ma’noning ifodalanishi kontekstga bog‘liq bo‘lib, hali sifatning modal so‘zga o‘tganini yoki bu sifat asosida modal so‘z tug‘ilganini ko‘rsatmaydi (modal ma’noning gavdalanishida yuklama ham katta hissa qo‘shyotir): To‘g‘ri, axir kuniga necha marta o‘zgarib turuvchi seryog‘in aprel va may kunlari o‘tib ketdi-ku! [1. Фан, 1985.].

Quyidagi gapda bu so‘zi kirish bo‘lak bo‘lib kelyotir (yangi fikrga e’tiborni jalb qilish uchun ishlatilgan), ammo uni modal so‘z deb bo‘lmaydi, albatta: Xat?

Qanaqa xat? Ha... Yo‘q, xat yo‘q, qizim... Bu, xolam qanilar? (Uyg‘un). Mana bu gapda baribir so‘zi go‘yo kirish bo‘lak vazifasida kelgandek ko‘rinadi (shu sababli yozuvda bu so‘z ko‘pincha vergul bilan ajratiladi), haqiqatda esa bu so‘z ravish holi vazifasida kelib, gapda odatdagi o‘rni o‘zgargan, xolos (shunga ko‘ra, uni hatto kirish bo‘lak deb ham bo‘lmaydi): Sen bu ishga yaramaysan baribir. Undan ko‘ra rassomliging tuzuk (H. Nazir). Qiyoslang (odatdagi tartib): Biz uni bari bir o‘qitamiz (O. Yoqubov).

Zaruriyat ma’nosini ifodalovchi kerak, **darkor, zarur, lozim** kabi so‘zlar ham modal so‘z emas, balki modal ma’noli so‘zdir. Chunki modal so‘zdan farqli ravishda yuqoridagi so‘zlar gap bo‘lagi bo‘lib yoki gap bo‘lagi tarkibida keladi, demak, gap bo‘laklari bilan sintaktik bog‘lanadi. Masalan, **borishim kerak** yoki **borish kerak** kabi konstruksiyalarida kerak so‘zi kesim sostavida keladi (birinchisi — shaxsli gap, ikkinchisi esa shaxssiz gap), **kitob kerak** kabi konstruksiyalarda kerak so‘zi kesim vazifasida keladi. Modal so‘z esa bunday vazifalarda kelmaydi.

Modal ma’noli so‘zlar tilda anchagina: *shubha, ishonch, gumon, tusmol* (bular — ot); *rost, to‘g‘ri, haq, chin* (bular — sifat); *ishonmoq, shubhalanmoq* (bular — fe’l) kabi. Sanab o‘tilgan tipdagi so‘zlar o‘z leksik ma’nosiga ko‘ra modal ma’noni anglatib turadi. Ammo bu so‘zlar anglatgan ma’nolar nominativ (nomlash) vazifasini bajaradi: ot predmetni, sifat predmetning passiv belgisini, fe’l predmetning harakatini nomlaydi. Modal so‘zdan esa nominativ ma’no anglashilmaydi. Garchi modal ma’no anglatsa ham, modal ma’noni ifodalash uchun ishlatilsa ham, yuqoridagi kabi so‘zlar o‘z turkumi doirasida deb qaraladi. Masalan, quyidagi birinchi gapda fe’l, ikkinchi gapda sifat modal ma’noni anglatib, ifodalab kelgan: Ammo, rosti, yuragimda boyagi vahima yo‘q edi (H Nazir) [2., 2008. – 1-kitob. – B.6-12].

Odatda gap vazifasida keluvchi qaydam so‘zi ham asli modal ma’noli so‘zdir: «Tursunali qani?» — «Qaydam, bilmadim...» (Uyg‘un). Bu gapdagi har ikki so‘zdan noaniqlik, gumon ma’nosi anglashiladi. Bunday ma’noni u so‘zlarning leksik ma’nosi beradi. Shunda ham *qaydam* so‘zi bu ma’noni o‘zicha anglataveradi, bilmadim (bilmasam) kabilarda esa kontekst (nutq situatsiyasi) va intonatsiya muhim rol o‘ynaydi.

Modal so‘zlar aslida mustaqil so‘zlardan kelib chiqqan. Masalan, aftidan, haqiqatdan so‘zlari otdan: shubhasiz, so‘zsiz tabiiy so‘zlari sifatdan o‘sib chiqqan va boshqalar. Modal so‘zlar o‘z ma’nolariga ko‘ra, asosan 2 guruhga bo‘linadi.

1. Fikrning aniqligini ifodalovchi modal so‘zlar.

2. Fikrning noaniqligini ifodalovchi modal so‘zlar.

Birinchi guruhdagi modal so‘zlar fikrning rostligi, chinligini ifoda etadi. Albatta, haqiqatdan, tabiiy kabilar. Bu shubhasiz, haqiqat. Ikkinchi guruhdagi modal so‘zlar gumon, tusmol, taxminiylikni ifodalaydi. *Balki, chamasi, ehtimol* kabi. Bu ehtimol uning butun borligini zaharlaydi.

Xuddi shuningdek, modal so‘zlar afsuslanish / *attang*, fikrning o‘zaro munosabati va tartibini ifodalashi mumkin / demak, xususan, xullas, masalan, jumladan, chunonchi, birinchidan, ikkinchidan kabi. *Mumkin, kerak, lozim, darkor, zarur, shart* kabi so‘zlar ham modal ma’no ifodalaydi.

Modal so‘zlar quyidagi sintaktik vazifalarni bajaradi: 1. Dialoglarda avval aytilgan fikrga munosabatni ifodalab: – Lyotchikning ishi bizning ishimizdan ham og‘ir, shunday emasmi ? – Albatta (Oyda).

2. Kirish so‘z vazifasida keladi: Sharofat yerga qarab o‘tirar, aftidan, bu savolga javob bermoqchi emas edi (A.Q).

Modal so‘z va kirish so‘z o‘zaro teng emas. Kirish so‘z vazifasida turli so‘z turkumlari kelish mumkin, jumladan, modal so‘zlar ham.

Modal so‘zlarining ma’lum guruhi sinonimik fe’l-atvoriga ega: chamasi-chog‘i-mazmuni; albatta-shubhasiz-so‘zsiz; tabiiy-o‘z-o‘zidan; aslida-haqiqatan-darhaqiqat kabi.

Sinonimik modal so‘zlar o‘zaro ma’no xususiyatidagina emas, balki nutqda qo‘llanishiga ko‘ra ham farq qiladi. Masalan, ehtimol-balki-shekilli sinonimlarning qo‘llanishini chog‘ishtirib ko‘ramiz: shekilli modal so‘zi asosan gapning tugallanishida, balki modal so‘zi asosan gapning boshlanishida ham, ichida ham, tugallanishida ham kela oladi.

Bundan tashqari, balki, ehtimol modal so‘zlari dialoglarda javob tariqasida yolg‘iz holda modal so‘zida bunday xususiyat yo‘q. Modal so‘zlarni, qo‘llanish

jihatdan, yana aktiv va passiv guruhlarga ham bo‘lish mumkin: albatta, ehtimol, darhaqiqat kabilar aktiv; chog‘i darvoqe kabilar esa passiv qo‘llanuvchi modal so‘zlardir. Ba’zi modal so‘zlar takrorlangan holda kela oladi. Bunday qo‘llanish ma’noni kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Masalan: Bu hafta bo‘lmasa, kelar hafta olasan, albatta – albatta olasan. Modal so‘zlar morfologik tarkibiga turlicha bo‘ladi. Bulardan tub modal so‘zlar quyidagicha ko‘rinishlarga ega:

a) sof o‘zaklardan iborat bo‘lgan modal so‘zlar: balki, ehtimol, albatta, kerak, zarur, lozim va boshqalar. Bulardan kerak, zarur, lozim, darkor kabi modal so‘zlar harakat nomlari bilan bevosita birika oladi: borish kerak, bilish lozim, aytish zarur kabi. Bunday birikmalar predikativlik vazifasida qo‘llanganda, birikma tarkibidagi harakat nomi egalik qo‘shimchasini oladi, modal so‘zlar esa o‘zgarishsiz qolaveradi: aytishim zarur, borishing kerak, bilishi lozim kabi.

b) arab tilidan kirgan haqiqatdan, voqeani kabi modal so‘zlar o‘zbek tilida butunligicha tasavvur qilinsa ham, aslida bular o‘zak va affiksdan iborat: darhaqiqat, darvoqe so‘zlari ham -dar morfemasi bilan yasalgan. Bulardagi dar – tojikcha o‘rin-payt ko‘rsatkichga to‘g‘ri keladi. Shu tufayli haqiqatda shaklida ham qo‘llanadi.

v) tarkibida egalik affikslari bo‘lgan modal so‘zlar: chog‘i, asli, mazmuni va shu kabilar. Lekin bundagi egalik affikslari o‘z grammatik mohiyatini yo‘qotgan. Yasama modal so‘zlar tarkibida *-li* yoki *-siz* kabi affikslar bo‘ladi: shubhasiz, so‘zsiz, shekilli / shakilli, so‘zlari yasama modal so‘zlardir. Ham egalik ham kishilik affikslarini olgan aslida, aftidan kabi modal so‘zlar ham butunligicha modal so‘z vazifasida qo‘llanadi. Bo‘lishli va bo‘lishsizlik ma’nosiga ega bo‘lgan juft so‘zlardan tashqil topgan modal so‘zlar: hoyna-hoy, / Xoh-noxoh, « xohlasang - xohlamasang», bilsam – bilmasam, bo‘lsa- bo‘lmasa va boshqalar. Modal ma’noli so‘zlar kirish so‘z va kirish birikmalar gapda boshqa gap bo‘laklari bilan grammatik aloqaga kirishmasida, semantik jihatdan ular bilan ma’lum bir munosabatda bo‘ladi va shu tomonlari bilan ayrim semantik – stilistik rol o‘ynaydi. Ular so‘zlovchining ifoda etilayotgan fikrga bo‘lgan turlicha munosabatini, qarashini bildiradi. Shuningdek, bayon etilayotgan adabiyotlardagi fikrning manbaini va uning avvalgi fikr xabarlar Bilan aloqasini ko‘rsatadi, bir fikr bilan ikkinchi fikr orosidagi munosabatni

belgilashga xizmat qiladi.[3., Маҳмудов Н., Бегматов Э. Тилимизнинг кеча ва кундузи // Ўзбек тили ва адабиёти, 2010. – №5. – Б.11.]

Kirish so‘z va kirish birikmalarining ma’nolari xilma-xil bo‘lib, ular bayon etilayotgan fikrning qay darajada aniq, ishonchli ekanligini; so‘zlovchining gapda ifoda etilayotgan voqea, hodisa, harakat va holatlarga bo‘lgan turlicha emotsional munosabatini ifodalaydi. Kirish so‘z va kirish birikmalar turli ma’no bilan ifoda etilayotgan fikrga emotsional ekspressiv tus beradi. Ular nutqda tartib va izchillikni saqlash / birinchidan, ikkinchidan, dastlab, avval; taxmin, gumon, ishonchsizlikning turli ottenkalarini bildirish / ehtimol, balki, aftidan, chamasi, shekilli; shodlik, mamnunlik, ko’nikish, tilak: ishqilib; biror voqea-hodisadan afsuslanish, achinish / afsus, afsuski, esiz, attang, baxtga qarshi, taassufki, aksiga olib; ajablanish, hayratlanish**,** taajjub, ajab, ajabki, taajjubki, nahot, nahotki; / albatta, so‘zsiz, shubhasiz, muqarrar va bulardan tashqari biror fikrni alohida ta’kidlab, ajratib ko‘rsatish, ayrim fikrlardan birini rad etib, ikkinchisini tasdiqlash ma’nolarini bildiradi.

So‘zlovchi kirish so‘z va kirish iboralar yordamida gapning ayrim bo‘laklari yoki gap mazmunining umumiy fikrga qanday munosabatda ekanligini ko‘rsatish mumkin. Bu tipdagi kirish so‘z va kirish iboralar ajratish, chegaralash kabilarni ta’kidlaydi.

BADIIY MATNDA O‘ZINIKI BO‘LMAGAN KO‘CHIRMA GAPLAR ORQALI PERSONAJ HOLATI, HIS-TUYG‘ULARI, O‘Y-FIKRLARINI BADIIY-ESTETIK TASVIRLASH

Shoxida Isoqovna Siddiqova,

f.f.b.f.d., (PhD) dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti

siddikovajizzac1975@gmail.com

+998915985522

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplarning semantik-lingvopoetik xususiyatlari xususida fikr yuritilgan. Bunda bevosita badiiy matnga aloqador ayrim muxtasar tushunchalarga ham to‘xtalib o‘tamizki, o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar ham xuddi shu matnlarda o‘z ifodasini topadi. Xususan, badiiy matn boshqa matnlardan farqli ravishda, nafaqat tinglovchiga oddiy axborot yetkazish vazifasini, balki uning ruhiyatiga ta’sir etish vazifasini ham o‘z zimmasiga oladi. Bu xususiyati esa badiiy matndagi turli poetik vositalar, sintaktik figuralar orqali namoyon bo‘ladi. Badiiy matnning estetik vazifasini yuzaga chiqaradigan, uning ta’sirchanligini oshiradigan badiiy tasvir vositalaridan biri o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar hisoblanadi. Ma’lumki, so‘zlovchi yoki yozuvchi o‘z fikrlarini nutq qaratilgan shaxsga yetkazishda o‘z oldiga ma’lum bir maqsadni qo‘yadi. Shunga ko‘ra u tomonidan tanlangan til birliklari ma’lum bir nutqiy muloqot jarayonida turli lingvostilistik vazifalarni bajarishga uslubiy xoslangan bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: *o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar, nutqiy faoliyat, lisoniy shaxs, semantik-lingvopoetik xususiyatlar*.

Аннотация. В данной статье рассматриваются семантические и лингвопоэтические свойства неоригинальных цитат. В статье также будут затронуты некоторые краткие понятия, непосредственно связанные с литературным текстом, которые также выражены в этих текстах. В частности, литературный текст, в отличие от других текстов, берет на себя задачу не только передачи простой информации слушателю, но и воздействия на его психику. Эта особенность проявляется в различных поэтических приемах и синтаксических фигурах в литературном тексте. Одним из средств художественного изображения, раскрывающих эстетическую функцию литературного текста и усиливающих его воздействие, являются неоригинальные цитаты. Как известно, говорящий или пишущий ставит перед собой определенную цель, передавая свои мысли человеку, к которому обращена речь. Соответственно, выбранные им языковые единицы методологически адаптированы для выполнения различных лингвистико-стилистических задач в конкретном процессе речевой коммуникации.

Ключевые слова: *неоригинальные цитаты, речевая деятельность, языковая личность, семантико-лингвопоэтические свойства*.

Abstract. This article discusses the semantic and linguopoetic properties of non-original quotations. In this article, we will also touch on some brief concepts directly related to the literary text, which are also expressed in the same texts. In particular, the literary text, unlike other texts, assumes the task of not only conveying simple information to the listener, but also of influencing his psyche. This feature is manifested through various poetic devices and syntactic figures in the literary text. One of the means of artistic depiction that reveals the aesthetic function of the literary text and increases its impact is non-original quotations. As is known, the speaker or writer sets a certain goal in conveying his thoughts to the person to whom the speech is addressed. Accordingly, the language units selected by him are methodologically adapted to perform various linguist-stylistic tasks in a particular process of speech communication.

Keywords: *non-original quotations, speech activity, linguistic personality, semantic-linguopoetic properties*.

Nutqiy faoliyat milliy-ma’naviy madaniyatning o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lishidir. Chunki har bir xalqda ko‘p asrlik nutq madaniyati me’yorlari asosida fikr ifodalash nozik san’at hisoblanadi. Til kommunikatsiya jarayonida o‘zining ijtimoiy vazifalarini to‘lasincha namoyon etadi. U nafaqat aloqa, fikr ifodalash va yetkazish, ta’sir etish, balki konseptual olam manzarasiga oid ma’naviy bilimlarni to‘plash va saqlash, obyektiv voqelikni idrok qilish vositasi ham hisoblanadi. Inson o‘zi mansub bo‘lgan tilninggina emas, balki bir vaqtning o‘zida ma’lum milliy-madaniy mentallik va voqelikni idrok qilishning individual usuli sohibi hamdir. Tilda insonning mental, ichki dunyosi, aqliy saviyasi, lisoniy shaxs namoyon bo‘lishi ham o‘z aksini topadi. Shuning uchun ham keyingi yillarda inson va olam munosabati, lisoniy shaxs ruhiyati, o‘y-kechinmalari, orzu-umidlarini ifodalashda til birliklarining rolini antropotsentrik yo‘nalishda tadqiq etishga e’tibor sezilarli darajada kuchaydi.

Darhaqiqat, zamonaviy tilshunoslik uchun inson omili va xususan, muayyan “lisoniy shaxs” masalasi ilmiy tahlil obyekti sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.[1]

Nutq faoliyatida inson omili muhim o‘rin tutadi. Bunda nutqiy harakatni rejalashtirish, voqelantirish, uning strategiyasini amalga oshirish kabi mexanizmlarni boshqaruvchi asosiy figura sanaladi. Sistem-struktur paradigmada “inson faktori” tushunchasi “bir xil nutqiy sharoitdagi ideal so‘zlovchi”ga nisbatan e’tirof etiladi va uni “lisoniy qobiliyat” tushunchasi ta’rifi bilan talqin qilinadi. Pragmalingvistik paradigmada esa “inson omili” tushunchasi batamom o‘zga ko‘rinish oladi. Sh.Safarov bu turdagi ijtimoiy belgilarni barqaror (doimiy) va o‘zgaruvchan guruhlarga ajratadi va shu xususiyatlarga nisbatan pragmalingvistik tahlil uchun “ideal til sohibi – so‘zlovchi” tushunchasiga tayanishdan ko‘ra, so‘zlovchining shaxsiy-ijtimoiy tavsifi muhimdir[2] – degan xulosaga keladi.

Ma’lumki, so‘zlovchi yoki yozuvchi o‘z fikrlarini nutq qaratilgan shaxsga yetkazishda o‘z oldiga ma’lum bir maqsadni qo‘yadi. Shunga ko‘ra u tomonidan tanlangan til birliklari ma’lum bir nutqiy muloqot jarayonida turli lingvostilistik vazifalarni bajarishga uslubiy xoslangan bo‘ladi. So‘zlovchi o‘zi va nutq qaratilgan shaxsning ijtimoiy mavqei, jinsi, yoshi, o‘ziga yaqinlik darajasi,kasbi, nutqiy muloqot bo‘lib o‘tayotgan vaziyat, joy kabilarni hisobga olib tilda mavjud bo‘lgan birliklarni tanlaydi va o‘z kommunikativ maqsadidan kelib chiqib ularni qo‘llaydi. Badiiy matnda fikr ifodalashda faol qo‘llaniladigan sintaktik birliklar qatori o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar ham obraz, xarakter va tasvir yaratish vazifasini bajaradi hamda lisoniy shaxs doirasida umumlashadi. O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gap badiiy matnda nutqning ichki yoki tashqi ko‘rinishida ifodalanishidan qat’iy nazar, personaj holati, his-tuyg‘ulari, o‘y-fikrlarini muallif istagiga mos holda badiiy-estetik tasvirlash imkonini beradi.

O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar strukturasining grammatika bo‘yicha emas, matn qonuniyati bo‘yicha shakllanishi badiiy matnda ijodkorning fikrlashi,

[1] Пардаев З. Прагматик лингвистика. Услубий қўлланма. –Самарқанд, 2013. 72-бет.
[2] Сафаров Ш. Прагмалингвистика.-Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. –Б.153.

ongi orqali amalga oshadi. Muallif fikrlarining umumlashmasi sifatida matn semantik sathda ham, grammatik sathda ham buni namoyon etadi.

Yozuvchining badiiy matnda o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar zimmasiga uslubiy vazifalar yuklashi ularning o‘quvchi shaxs tomonidan tez va to‘g‘ri tushunilishini ta’minlashdan tashqari obrazlilikni ham vujudga keltiradi. Badiiy asarlarda qo‘llanilgan o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplarni qo‘llashda shu gaplar tarkibida ishtirok etayotgan va personaj ruhiyatini, uning ichki kechinmalari tasviriga asoslangan leksik-frazeologik vositalarning tadqiq etilayotgan matnning lingvostilistik va badiiy-estetik qimmatini belgilashda, lisoniy shaxsga xos belgilarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etishiga alohida e’tibor qaratiladi. Ular badiiy asar tilining o‘ziga xosligini ta’minlashdan tashqari personaj nutqini tavsiflashda ham asosiy omillardan biri hisoblanadi. Badiiy matnda asar mazmunini ochishga, personajlar xarakter-xususiyatlarini obrazli tarzda ifodalashda o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar muhim ahamiyatga ega. Har bir ijodkor bu gaplardan o‘rinli foydalana olishi bilan o‘z ijodi mahsuli bo‘lgan asar tilining ifodali va ta’sirchanligini ta’minlashga erishadi. Badiiy matnlarda qo‘llanilgan o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar so‘zlovchi kommunikativ maqsadining amalga oshishini ta’minlashdan tashqari tasvirlangan nutqiy vaziyat, unda ishtirok etuvchilarning ruhiy holatini o‘quvchi ko‘z o‘ngida aniq gavdalantiradi, kitobxonda ularga nisbatan ma’lum bir subyektiv munosabat uyg‘onishiga asos bo‘ladi.

Ijodkorning o‘zini o‘rab turgan obyektiv voqelikni idrok qilishi uning shu asarni yaratishida tilda mavjud bo‘lgan lisoniy vositalardan, jumladan, o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplardan ham foydalanishiga ta’sir ko‘rsatadi. O‘zga gapga bag‘ishlangan ishlar tahlilida ular ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplarning qo‘shilishidan hosil bo‘lgan qorishiq shakldek tasavvur uyg‘otadi. Haqiqatan ham, o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gap tuzilishida ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplarga xos belgilarni ko‘rish mumkin, ammo bu uning faqat shakliy tomonini tashkil qiladi. O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar strukturasining grammatika bo‘yicha emas, matn qonuniyati bo‘yicha shakllanishi badiiy matnda ijodkorning fikrlashi, ongi orqali amalga oshadi. Muallif fikrlarining umumlashmasi sifatida matn semantik sathda ham, grammatik sathda

ham buni namoyon etadi. O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplarni ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplar bilan taqqoslab ko‘ramiz. Bu hodisaning tuzilishi va funksional imkoniyatlari aniqlanganidan so‘ng o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gapning hosil bo‘lishida nutq ifodalashning bu ikki usulining ahamiyatini belgilash mumkin. O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gap haqida fikr yuritish matn stilistikasi, matnda qo‘llanuvchi lisoniy birliklarni izohlash tamoyili haqida ham gapirishni taqozo qiladi. Badiiy matnlarning kompozitsion nutq qurilishi, avvalo, muloqot doirasida, badiiy matn uchun vazifaviy xoslanish, matndagi qo‘llanish hajmi va qanday lisoniy vositalar ishtirokida voqelanganligiga ko‘ra tavsiflanadi. A.Shomaqsudov ta’kidlaganidek, “adabiy asarlarda individual xususiyatlar asarning badiiylik qiymatini belgilovchi asosiy o‘lchovlardan biridir va shu sababli yozuvchining adabiy asarda voqelikni badiiy idrok etishi, obraz yaratishi, asar kompozitsiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan individual xususiyatlarning hammasi asar tilida yorqin namoyon bo‘ladi”[3]. Kompozitsion-nutq qurilishiga muallif gapi, ko‘chirma gap, o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma nutq kabilarni kiritish mumkin. Ularning me’yoriy tavsifi quyidagicha namoyon bo‘ladi: muallif gapi monologik ko‘rinishda bo‘lib, birinchi va uchinchi shaxs shaklida namoyon bo‘ladi. Birinchi shaxs shaklida muallif “men”i bo‘rtib turadi va eksplitsit shaklda ifodalanadi, uchinchi shaxs shaklida esa muallif eksplitsit ifodalanmaydi. Muallif gapi nutq qaratilgan obyektni ta’riflash, hikoya qilish, mulohaza qilish kabi vazifalarini bajarib, badiiy prozaik matnda salmoqli o‘rin egallaydi. Muallif gapi ifodalanishida adabiy tildagi mavjud me’yorlarga asoslaniladi. Ko‘chirma gapda nutq subyekti – jo‘natuvchi, nutq qaratilgan shaxs – oluvchi sifatida badiiy matnga tegishli personaj chiqadi. Asar muallifi har bir til birligini qo‘llashda ma’lum bir kommunikativ maqsadni ko‘zda tutadi. Shunga ko‘ra ko‘chirma gaplarning badiiy matnda bajaradigan asosiy vazifasi asar qahramonlarini tavsiflash, ularning mukammal portretini yaratishdan iborat bo‘ladi.

Ko‘chirma gaplarning badiiy matnlarda qo‘llanish darajasi muallif gapiga nisbatan sezilarli darajada past bo‘ladi. Ichki monologda so‘zlovchi ham nutq

[3] Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Х. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983, Б. 33.

qaratilgan shaxs ham bir kishi hisoblanadi. Ichki monologning funksional xoslanishi – nutq subyektining ichki dunyosini ochib berish, uning ichki kechinmalari, his-tuyg‘ulari, voqelik faktlariga munosabati va ularni baholashi hisoblanadi. An’anaga ko‘ra ichki monologning qo‘llanishi va ahamiyatini subyekt belgilab beradi. .

Kompozitsion-nutqiy struktura doirasida shakllangan o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gap ko‘chirma gap va o‘zlashtirma gaplarga nisbatan keyinchalik shakllangan. Kommunikativ doirada muallif gapida xabar, ma’lumot berish mazmuni ifodalansa, o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplarda personajni tavsiflash muhim o‘rin tutadi.

O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gap subyekt ta’rifini o‘zgartirmay, qahramonni yaratish rejasiga kiritiladi. O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gap o‘zlashtirma gap va ko‘chirma gap bilan teng emas. O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar grammatik, sintaktik va leksik belgilariga ko‘ra ajratiladi.

B.Yo‘ldoshev o‘zining “O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gap grammatik-uslubiy kategoriya sifatida” nomli monografiyasida badiiy matnlarda o‘zga gaplarning tutgan o‘rni va vazifasi to‘g‘risida quyidagicha fikr yuritadi: Badiiy nutq uslubining uziga xos xususiyati tilning estetik ta’sir etish vazifasi bilan uzviy bogliq holda yuzaga chiqadi. Badiiy nutq uslubi mualliflarga asarning estetik ta’sirini kuchaytirish uchun tilning barcha leksik, frazeologik va grammatik vositalaridan ustalik bilan foydalanish, tanlash, shuningdek, yangidan-yangi ifoda-tasvir vositalari yaratish imkonini beradi. Badiiy nutq uslubida til vositalari obraz, xarakter va manzaralar yaratish uchun xizmat kiladi. Badiiy nutq o‘zining obrazliligi bilan adabiy tilning boshqa funksional uslublaridan ajralib turadi. Badiiy nutq uslubida keng qo‘llanadigan o‘zga gap shakllari, jumladan, O‘BKG ham ana shunday obrazlilik uchun, xarakter va manzaralar yaratish uchun bevosita bo‘ysundirilgan bo‘ladi.[4] Ma’lumki, o‘zga gaplar badiiy matnlarda ifodalangan mazmun bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ijodkor tildagi ko‘chirma, o‘zlashtirma yoki o‘ziniki bo‘lmagan gaplar vositasida betakror obrazlar, insoniy munosabatlarni aks yettirgan badiiy tasvirlar yaratadi. O‘quvchi badiiy matn vositasidagina o‘zini o‘rab turgan voqelikni badiiy-

[4] Йўлдошев Б. Ўзиники бўлмаган кўчирма гап грамматик-услубий категория сифатида. Тошкент, 2015. Б.37.

estetik idrok qilish imkoniga ega bo‘ladi. Badiiy matn esa ijodkor tomonidan to‘g‘ri tanlangan til birliklari vositasida inson ruhiyatiga ta’sir etuvchi kuchga aylanadi. Demak, badiiy matnlarda ma’lum bir uslubiy vazifani bajarishga xoslangan boshqa birliklar kabi o‘zga gaplar ham muallif uchun obrazlar yaratishning, ularning nutqini individuallashtirishning asosiy vositalaridan biridir. Muallif o‘zga gaplarsiz kitobxonni asar mazmuni bilan tanishtira olmaydi, asarda ishtirok etuvchi personajlar o‘rtasidagi munosabatlarni, so‘zlovchining nutq qaratilgan shaxsga, voqea-hodisalarga munosabati va bahosini aks ettira olmaydi. Shuning uchun badiiy adabiyotda ijodkorlar o‘zga gaplardan aniq, o‘rinli foydalanishga harakat qiladilar. Badiiy asar tilida qo‘llanilgan har bir so‘z yoki matn mazmunidan kelib chiqib, ma’lum bir uslubiy vazifani bajaradi. Ana shu birliklar qatori o‘zga gaplar ham badiiy matnlarda muloqotchilar orasidagi aloqani ta’minlaydi, turli ifoda maqsadini ifodalaydi, nutq obyektini baholaydi. Asar muallifi o‘quvchini mavzu mohiyati bilan tanishtira borar ekan, voqea-hodisaning badiiy tarzda tez va oson tushunarli bo‘lishi uchun bir qator obrazlar yaratadi va ular orasidagi turli aloqalarni ko‘rsatish barobarida ularni ijobiylik yoki salbiylik nuqtai nazaridan baholaydi. Ana shundan kelib chiqib badiiy matnlarda muallifning subyektiv munosabatiga bog‘liq holda yuzaga kelgan obrazlar galereyasi hosil bo‘ladi. Badiiy matnlarda muallifning o‘zi tomonidan yaratilgan obrazga va shu orqali turli shaxslar, jamiyat hayotida ro‘y berayotgan voqea-hodisalarga munosabati asar qahramonlari tilida qo‘llanuvchi o‘zga gapning turli ko‘rinishlari vositasida namoyon bo‘ladi. Muallif badiiy matnda tasvirlangan voqealar jarayonida personaj xatti-harakatlarini bayon qilish asnosida unga nisbatan o‘quvchida ma’lum bir his-tuyg‘u ham uyg‘ota boradi, insoniy munosabatlar, ziddiyatli voqealar shiddat bilan kechayotgan ayrim o‘rinlarda personajning mazkur voqealar tizimida tutgan o‘rni, o‘y-fikrlarini, xatti-harakatlarini batafsil ifodalaydi, unga o‘z munosabatini o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gap shaklida beradi va bu bilan o‘quvchini ham munosabat bildirishga, o‘ylashga undaydi.

Yangi kishini shakllantirishda g‘oyaviy, axloqiy, nafosat ta’sir kuchini o‘zida mujassamlashtirgan badiiy asarga xos tasviriy vositalar, o‘ziga xos xususiyatlar o‘quvchiga tushunarli bo‘lgan taqdirdagina uning tarbiyaviy ahamiyati, ta’sir kuchi

to‘liq namoyon bo‘ladi. Buning uchun esa badiiy asar tilini lisoniy tahlil qilmasdan turib, ko‘zlangan maqsadga erishish qiyin.[5]

Isajon Sulton “Alisher Navoiy” romanida obrazni tasvirlashda qo‘llanilgan o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplarda qahramon ongida yangi o‘zgarishlar paydo bo‘lishi kabi holatlar muhim o‘rin tutadi. Matnda qo‘llanilgan o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar personaj ichki dunyosini ifodalashda ichki monologga vazifa jihatidan mos keladi: *“Bu go‘zal o‘y endi she’rga aylanishi kerak edi. Yulduzlar boqiy emaslar. Vaqti kelgach, “Bas, qachonki, yulduzlar so‘ndirilgach” qavliga muvofiq, cho‘g‘ kabi so‘nib bitarlar. Shuningdek, quyosh-u oy, tun-u kun ham mangu emasdir...” (Isajon Sulton “Alisher Navoiy”.)*

Ko‘rinadiki, badiiy matnda o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar sezilmas darajada bo‘ladi. O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar tasvirlanayotgan personaj xarakter-xususiyatlarini, voqelik faktlariga munosabatini ochib berishda tildagi mavjud vositalarga asoslaniladi va u lisoniy tavsifga ko‘ra muallif gapiga mos kelishi kuzatiladi. Muallif tomonidan ongli ravishda matnga kiritilgan va uslubiy vosita sifatida ishtirok etuvchi sintaktik birlikning o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gap sifatida qaralishi uchun quyidagilarning bo‘lishi talab etiladi:

– badiiy matnlarda o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplarni uslubiy maqsadda qo‘llashda tasvirlanayotgan personaj va uning kognitiv-pragmatik imkoniyatlari doimo e’tiborda bo‘ladi;

– tahlil qilinayotgan matn va tasvirlanayotgan personaj shaxsiy xususiyatlari: uning voqelikni idrok qilishi, o‘y-kechinmalari, fikr ifodalash imkoniyatlari o‘zaro bog‘liqlikda namoyon bo‘ladi;

– badiiy matnda, albatta, tasvirlanayotgan voqea-hodisalar, manzaralar insonga bog‘liq holda o‘z badiiy talqiniga ega bo‘ladi.

Antropotsentrik nazariyaga ko‘ra ularning markazida inson turar ekan, tahlil qilinayotgan parchada, jumladan, o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplarda hech bo‘lmasa personaj shaxsiyati bilan bog‘liq uslubiy belgi yoki subyektiv modallik ifodalovchi shakliy ko‘rsatkichlar bo‘lishi lozim. O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma

[5] Лапасов Ж. Бадиий матн ва лисоний таҳлил. Тошкент. 1995. 3-бет.

gaplarni o‘zga gapga yaqinlashtiruvchi xususiyatlardan biri shuki, unda nutq subyekti va fikrlar uchinchi shaxsda ifodalanadi, fe’lning shaxs shakllarining o‘zgarishi bilan xarakterlanadi. Qolgan hamma shakllar o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gapni ko‘chirma gapga yaqinlashtiradi.

– sintaktik sathda: yaqin deyksis, so‘roq, undov, qisqa, parselyativ gaplar, murojaatlarning, yuklama, undovlarning qo‘llanishi;

– grammatik-morfologik sathda: fe’lning grammatik shakllari (zamon, mayl);

– leksik sathda: kirish-modal, emotsional-ekspressiv, baholovchi so‘zlar, shuningdek, alohida personajlarga xos bo‘lgan leksika[6].

Umuman olganda, o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar badiiy matnda asar mazmunini ochishga, qahramonlar xarakter-xususiyatlarini obrazli tarzda ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Har bir ijodkor o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplardan o‘rinli foydalana olishi bilan o‘z ijodi mahsuli bo‘lgan asar tilining aniq va tushunarli, ifodali va ta’sirchanligini hamda estetik imkoniyatlarini ta’minlashga erishadi.

СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССОВ СЛОВООБРАЗОВАНИЯ В СОВРЕМЕННОМ АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Ибрагимова Дилбар Атхамовна

Ташкентский университет экономики и педагогики, доцент.

ORCID 0009-0001-1794-5030

e-mail: *dilbaribragimova1984@gmail.com*, ***+998903182080***

Аннотация. В статье представлено сравнительное исследование процессов словообразования в современном английском и узбекском языках. Актуальность работы обусловлена возрастающим интересом к сопоставительной лингвистике, межкультурной коммуникации и методике

[6] Беличенко Е.Е. Несобственно – прямая речь в языке художественной литературы (На материале анималистической прозы) –Автореф. канд дисс… Санкт-Петербург, 2006.

преподавания иностранных языков. Цель исследования — выявить общие и специфические особенности словообразовательных моделей в двух языках, принадлежащих к разным языковым семьям: германской и тюркской.

Ключевые слова: *словообразование, сопоставительная лингвистика, английский язык, узбекский язык, аффиксация, словосложение, агглютинация, аналитизм.*

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy ingliz va o‘zbek tillarida so‘z yasash jarayonlarini qiyosiy o‘rganish keltirilgan. Ishning dolzarbligi qiyosiy tilshunoslik, madaniyatlararo muloqot va xorijiy tillarni o‘qitish usullariga qiziqishning ortishi bilan bog‘liq. Tadqiqotning maqsadi turli til oilalariga mansub ikki tilda: german va turkiy tillarda so‘z yasash modellarining umumiy va o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashdir.

Kalit so‘zlar: *so‘z yasash, qiyosiy tilshunoslik, ingliz, o‘zbek, affiksatsiya, sintaksis, aglutinatsiya, analitizm.*

Введение. В ходе анализа рассматриваются основные способы словообразования, характерные для современного английского языка: аффиксация, словосложение, конверсия, аббревиация и заимствование, а также продуктивные модели узбекского языка, включая аффиксацию, словосложение, редупликацию и аналитические конструкции. Особое внимание уделяется типологическим различиям, связанным с аналитическим характером английского языка и агглютинативной структурой узбекского языка, что определяет специфику словообразовательных механизмов и степень их продуктивности.

В результате исследования выявлены сходства в универсальных способах образования новых слов (например, аффиксация и словосложение), а также существенные различия в морфемной структуре, порядке присоединения аффиксов и роли грамматических категорий в формировании новых лексических единиц. Полученные результаты могут быть использованы в теоретической лингвистике, переводоведении и практике преподавания английского и узбекского языков.

Словообразование является одной из ключевых областей современной лингвистики, отражающей динамику развития языка, его внутренние ресурсы и механизмы пополнения словарного состава. В условиях глобализации, активных межкультурных контактов и интенсивного развития информационного пространства процессы создания новых слов приобретают особую значимость. Изучение словообразовательных моделей позволяет глубже понять структурные особенности языка, его типологическую специфику и закономерности функционирования лексической системы.

Сопоставительное исследование процессов словообразования в современном английском и узбекском языках представляет научный интерес в силу их принадлежности к разным языковым семьям и различным морфологическим типам. Английский язык как представитель германской группы индоевропейской семьи характеризуется преимущественно аналитическим строем и высокой степенью продуктивности таких способов словообразования, как конверсия и словосложение [9]. Узбекский язык, относящийся к тюркской языковой семье, обладает агглютинативной структурой, что определяет особую роль аффиксации и последовательного присоединения словообразовательных и формообразующих морфем.

Актуальность настоящего исследования обусловлена необходимостью комплексного анализа сходств и различий словообразовательных механизмов в данных языках с целью выявления универсальных и специфических черт их лексической системы. Особое значение работа приобретает в контексте методики преподавания английского языка в узбекской аудитории, а также при подготовке специалистов в области перевода и межкультурной коммуникации.

Объектом исследования выступают словообразовательные процессы в современном английском и узбекском языках, а предметом — их структурно-семантические и типологические особенности. В работе применяются методы сопоставительного анализа, описательный метод, а также элементы морфемного и словообразовательного анализа.

Таким образом, данное исследование направлено на выявление закономерностей функционирования словообразовательных моделей в двух типологически различных языках и определение их роли в развитии современной лексической системы.

Методы исследования. Для достижения поставленной цели в статье используется комплекс взаимодополняющих методов лингвистического анализа, обеспечивающих всестороннее изучение словообразовательных процессов в современном английском и узбекском языках.

Основным методом исследования является сопоставительный (контрастивный) анализ, позволяющий выявить сходства и различия в словообразовательных моделях двух языков, определить их типологические особенности и установить универсальные и специфические черты. Данный метод применяется при сравнении структурных моделей производных слов, способов аффиксации, словосложения, конверсии и других механизмов образования новых лексических единиц [2].

Описательный метод используется для систематизации и характеристики словообразовательных средств каждого языка в отдельности. В рамках данного подхода анализируются продуктивные словообразовательные модели, их морфемная структура, семантические особенности и функциональная нагрузка в современном языковом употреблении.

Морфемный анализ применяется с целью выявления структуры производных слов, определения типов аффиксов, порядка их присоединения и особенностей взаимодействия корневых и служебных морфем [2]. Особое внимание уделяется различиям между аналитическим строем английского языка и агглютинативной системой узбекского языка.

Словообразовательный анализ позволяет установить способы и модели образования новых слов, определить степень их продуктивности, а также выявить закономерности формирования словообразовательных гнёзд и парадигм.

Кроме того, в работе используются элементы количественного анализа, направленные на определение частотности употребления отдельных словообразовательных моделей в современных текстах, а также метод лингвистического обобщения для формулирования выводов и теоретических положений исследования.

Комплексное применение указанных методов обеспечивает объективность и научную обоснованность полученных результатов, а также позволяет раскрыть типологическую специфику словообразовательных процессов в английском и узбекском языках [10].

Сопоставительный анализ словообразовательных систем современного английского и узбекского языков демонстрирует как универсальные механизмы пополнения лексики, так и существенные типологические различия, обусловленные их принадлежностью к разным языковым семьям и морфологическим типам.

- **Типологическая основа словообразования**

Английский язык относится к германской группе индоевропейской семьи и характеризуется преимущественно аналитическим строем. Это проявляется в ограниченной флективности и высокой роли синтаксических средств, а также в продуктивности таких способов словообразования, как конверсия и словосложение [1].

Узбекский язык, принадлежащий к тюркской языковой семье, является агглютинативным. Для него характерна последовательная и чёткая присоединяемость аффиксов, каждый из которых выражает одно грамматическое или словообразовательное значение.

Таким образом, уже на типологическом уровне наблюдаются различия: в английском языке словообразование тесно связано с синтаксисом и семантическим переосмыслением, тогда как в узбекском — с морфемной структурой слова.

- **Аффиксация** является универсальным способом словообразования в обоих языках, однако её структура и функции различаются.

В английском языке активно используются как префиксы, так и суффиксы:

happy → unhappy (префиксация)

teach → teacher (суффиксация)

develop → development

Аффиксы могут изменять часть речи и лексическое значение слова. Однако английские аффиксы часто имеют исторически сложную семантику и могут быть менее прозрачны.

В узбекском языке аффиксация является основным и наиболее продуктивным способом словообразования:

ish (работа) → ishchi (рабочий)

kitob (книга) → kitobxon (читатель книг)

yoz (писать) → yozuvchi (писатель)

Характерной особенностью узбекского языка является строгая последовательность аффиксов: корень + словообразовательный аффикс + формообразующий аффикс. Например:

kitob + xon + lik → kitobxonlik

Таким образом, если в английском языке аффиксация конкурирует с другими способами словообразования, то в узбекском она занимает доминирующее положение.

- **Словосложение** является продуктивным способом образования новых слов в обоих языках.

В английском языке:

blackboard

smartphone

greenhouse

Английские сложные слова могут писаться слитно, через дефис или раздельно, что отражает их переходный характер [3].

В узбекском языке:

Temiryo‘l (железная дорога)

Qo‘lyozma (рукопись)

yurtboshi

Узбекские сложные слова чаще всего оформляются слитно и морфологически интегрированы в систему языка.

- **Конверсия** — один из наиболее продуктивных способов словообразования в английском языке:

to email → an email

to run → a run

to call → a call

Изменение части речи происходит без формальных изменений слова.

В узбекском языке подобное явление выражено значительно слабее, поскольку агглютинативная система предполагает наличие формальных показателей. Переход слова в другую часть речи чаще сопровождается аффиксацией.

- **Аббревиация и заимствования**

В современном английском языке широко распространены аббревиатуры:

UNESCO

IT

ASAP

В узбекском языке аббревиация также используется, особенно в официально-деловом стиле, однако заимствования играют более заметную роль в пополнении лексики:

kompyuter

menejer

marketing

Это свидетельствует о влиянии глобализации и активных языковых контактов.

- **Основные сходства и различия**

Сходства:

наличие аффиксации и словосложения;

активное пополнение словарного состава;

влияние заимствований.

Различия:

аналитический характер английского языка и агглютинативный строй узбекского;

высокая продуктивность конверсии в английском языке;

строгая морфемная последовательность в узбекском языке;

различная степень морфологической прозрачности производных слов.

Вывод. Сравнительный анализ показывает, что процессы словообразования в английском и узбекском языках имеют как универсальные черты, так и глубокие структурные различия. В английском языке словообразование характеризуется большей гибкостью и синтаксической обусловленностью, тогда как в узбекском языке доминирует морфологическая чёткость и последовательность аффиксации.

Полученные результаты подтверждают важность типологического подхода в сопоставительной лингвистике и могут быть использованы в преподавании, переводоведении и дальнейших исследованиях в области морфологии и словообразования.

Список использованной литературы

1. Аракин В. Д. Сравнительная типология английского и русского языков. — М.: Физматлит, 2005.

2. Арнольд И. В. Лексикология современного английского языка. — М.: Флинта: Наука, 2012.

3. Кубрякова Е. С. Типы языковых значений. Семантика производного слова. — М.: Наука, 1981.

4. Хамраев М. К. Современный узбекский язык (лексикология и словообразование). — Ташкент: Ўқитувчи, 2008.

5. Шоабдурахмонов Ш., Аскаров А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. — Тошкент: Ўзбекистон, 2010.

6. Миртожиев М. М. Ўзбек тили лексикологияси ва лексикографияси. — Тошкент: Фан, 2000.

7. Хайруллаев Х. Н. Сопоставительная типология английского и узбекского языков. — Ташкент: Фан, 2012.

8. Marchand H. The Categories and Types of Present-Day English Word-Formation. — Wiesbaden: Otto Harrassowitz, 1969

9. D.A. Ibragimova, Asosiy kompetensiyalar va tayanch malakalarning ta‘lim jarayonidagi roli. Scientific Journal (2023).

10. D.A. Ibragimova, The issues and solutions in teaching English for specific purpose (ESP) to adult learners. American Journal of language, literacy and learning in STEM education (2024).

MORFONOLOGIYA VA TOVUSH O‘ZGARISHLARI

Asatullayeva Dilnavoz
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti
+998934382672

Annotatsiya. Sheva materiallari asosida morfema chegarasida yuz beradigan tovush almashinuvi, assimilyatsiya, dissimilyatsiya, tovush tushishi (eliziya), orttirilishi va fonetik variantlilik hodisalari yoritiladi. Morfonologik jarayonlarning tarixiy-lisoniy omillari hamda ularning og‘zaki nutqdagi namoyon bo‘lish xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, Buxoro shevalaridagi morfonologik o‘zgarishlarning adabiy til bilan munosabati va lingvodidaktik ahamiyati asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari hududiy nutqdagi fonetik-morfologik jarayonlarni tizimli o‘rganish va ularni ta’lim jarayoniga tatbiq etish imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *Buxoro shevalari, morfonologiya, morfonologik o‘zgarish, tovush almashinuvi, assimilyatsiya, dissimilyatsiya, eliziya, fonetik variantlilik, og‘zaki nutq, hududiy dialekt.*

Аннотация. На основе диалектного материала рассматриваются звуковые чередования на стыке морфем, процессы ассимиляции, диссимиляции, выпадения и вставки звуков, а также фонетическая вариативность. Освещаются историко-лингвистические факторы формирования данных явлений и их проявление в устной речи. Кроме того, обосновывается соотношение морфонологических процессов бухарских говоров с нормами литературного языка и их лингводидактическая значимость. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию фонетико-морфологических процессов в региональной речи.

Ключевые слова: *бухарские говоры, морфонология, морфонологические изменения, звуковые чередования, ассимиляция, диссимиляция, элизия, фонетическая вариативность, устная речь, диалектология.*

Annotation. Based on dialectal data, the research examines sound alternations at morpheme boundaries, processes of assimilation, dissimilation, sound deletion and insertion, and phonetic variability. The historical and linguistic factors influencing these phenomena and their manifestation in oral speech are discussed. The paper also explores the relationship between morphonological processes in the Bukhara dialects and the norms of the literary language, highlighting their linguodidactic significance. The findings contribute to a deeper understanding of phonetic and morphological processes in regional speech and their application in educational practice.

Keywords: *Bukhara dialects, morphonology, morphonological changes, sound alternation, assimilation, dissimilation, elision, phonetic variability, oral speech, dialectology.*

Til tizimi o‘zining ko‘p qatlamli va murakkab tuzilishi bilan fonetik, morfologik hamda semantik birliklarning o‘zaro munosabatini taqozo etadi. Ushbu munosabatlar kesishgan nuqtada yuzaga keladigan hodisalar morfonologiya doirasida o‘rganiladi. Morfonologiya morfema tarkibida va morfemalar chegarasida yuz beradigan fonologik o‘zgarishlarni tahlil qiluvchi tilshunoslik yo‘nalishi sifatida XX asr boshlarida shakllangan bo‘lib, uning nazariy asoslari N.S. Trubetskoy tomonidan ishlab chiqilgan. Keyinchalik bu yo‘nalish R.O. Yakobson, A.A. Reformatskiy

hamda boshqa tilshunoslar tomonidan rivojlantirilgan. [Aleksandr Aleksandrovich Reformatskiy. Vvedeniye v yazykovedeniye. – Moskva: Prosveshcheniye, 1967. B-67]

O‘zbek tilshunosligida ham morfonologik jarayonlar fonetika va morfologiya kesishmasida ko‘rib chiqilib, morfema tarkibidagi tovush almashinuvlari, qo‘shimchalar ta’sirida yuzaga keladigan fonetik o‘zgarishlar hamda variantlilik masalalari yoritilgan.[G‘ozi Abdurahmonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili fonetikasi va morfologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996. B-37] Ayniqsa, dialektal materiallar asosida olib borilgan tadqiqotlar hududiy nutqda morfonologik hodisalarning yanada faol va rang-barang namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi

Buxoro vohasi shevalari o‘zining tarixiy-etnik tarkibi, ko‘p tillilik muhiti hamda o‘ziga xos fonetik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Mazkur hudud nutqida morfema chegarasida tovush tushishi, almashinuvi, orttirilishi, assimilyatsiya va dissimilyatsiya jarayonlari faol kuzatiladi. Bu hodisalar nafaqat fonetik, balki morfologik tuzilishga ham ta’sir ko‘rsatib, morfema variantlarini yuzaga keltiradi. Shu jihatdan Buxoro shevalaridagi morfonologik o‘zgarishlarni tizimli ravishda o‘rganish nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, morfonologik jarayonlar adabiy til me’yorlari bilan qiyosiy o‘rganilganda, hududiy nutqning ichki qonuniyatlari hamda tarixiy shakllanish omillari yanada aniqroq namoyon bo‘ladi. Shuningdek, mazkur hodisalarni lingvodidaktik nuqtayi nazardan tahlil qilish umumta’lim tizimida fonetik va morfologik bilimlarni integrativ asosda o‘qitish imkonini beradi. Mazkur ishning maqsadi — Buxoro shevalarida uchraydigan morfonologik o‘zgarishlarni aniqlash, ularning turlarini tasniflash hamda til tizimidagi funksional ahamiyatini asoslashdan iborat. Tadqiqot davomida tavsifiy, qiyosiy va tizimli tahlil metodlaridan foydalanildi.

Buxoro vohasi shevalari o‘zining tarixiy shakllanishi, ko‘p millatli va ko‘p tilli muhitda rivojlangani bilan boshqa hudud shevalaridan farqlanadi. Mazkur hudud nutqida fonetik jarayonlarning morfema tarkibi va morfemalar chegarasida faol namoyon bo‘lishi kuzatiladi. Xususan, undoshlarning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga

keladigan assimilyativ o‘zgarishlar, sonor tovushlarning tushib qolishi, ayrim unlilarning qisqarishi yoki almashinuvi Buxoro shevalarining morfonologik tizimida muhim o‘rin tutadi.

Masalan, morfema chegarasida l fonemasining tushib qolishi (bo‘lgan → bo‘gan), undoshlarning soddalashuvi (qilgan → qigan), jarangli va jarangsiz undoshlar almashinuvi, shuningdek, qo‘shimchalar ta’sirida yuzaga keladigan fonetik variantlilik hodisalari hududiy nutqda keng tarqalgan. Ayrim hollarda affiks tarkibidagi fonemalar qisqarib, morfemaning fonetik shakli o‘zgaradi, biroq grammatik ma’no saqlanib qoladi. Bu esa morfonologik jarayonlarning tizimli xarakterga ega ekanini ko‘rsatadi.

Buxoro shevalarining yana bir o‘ziga xos jihati — tarixiy va areal omillar ta’sirida shakllangan fonetik qatlamlarning saqlanib qolganidir. Hududning tojik-uzbek ikki tillilik muhiti ayrim fonetik va morfonologik variantlarning barqarorlashuviga ta’sir ko‘rsatgan. Natijada morfema tarkibidagi tovush o‘zgarishlari nafaqat ichki fonetik qonuniyatlar, balki kontakt hodisalari bilan ham bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Shu jihatdan Buxoro shevalaridagi morfonologik o‘zgarishlarni o‘rganish nafaqat fonetik yoki dialektologik masala, balki til tizimidagi tarixiy, areal va funksional omillarni kompleks tahlil qilish imkonini beradi. Shuningdek, Buxoro vohasining tarixiy-etnik tarkibi va ko‘p tillilik muhiti morfonologik variantlarning shakllanishi va barqarorlashuviga ta’sir ko‘rsatgan. Hududiy nutqda ayrim fonetik qatlamlarning saqlanib qolishi hamda kontakt hodisalari bilan bog‘liq o‘zgarishlar morfonologik tizimning areal xususiyatini belgilaydi.

Umuman olganda, Buxoro shevalaridagi morfonologik o‘zgarishlarni o‘rganish o‘zbek tilining hududiy ko‘rinishlarida fonetik-morfologik jarayonlarning ichki qonuniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari dialektologiya, morfonologiya va lingvodidaktika sohalari uchun nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, umumta’lim tizimida fonetika va morfologiyani integrativ asosda o‘qitishda hududiy nutq materiallaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nikolay Sergeyevich Trubetskoy. Grundzüge der Phonologie. – Prague: Travaux du Cercle Linguistique de Prague, 1939.

2. Aleksandr Aleksandrovich Reformatskiy. Vvedeniye v yazykovedeniye. – Moskva: Prosveshcheniye, 1967.

3. G‘ozi Abdurahmonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili fonetikasi va morfologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.

4. Abduaziz Hojiyev. O‘zbek tilshunosligi terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2002.

5. Vladimir Vasilevich Reshetov. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Fan, 1978.

MATN KOMPOZITSIYASIDA NOAN’ANAVIY INTONATSIYADAN FOYDALANISH

Ibragimova Fazilat Erkinovna,

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Jizzax davlat pedagogika universiteti kafedra mudiri

+99893-306-43-55, fazilatxon81@mail.ru

Аннотация: В данной статье рассматривается, как интонация усиливает эстетический эффект посредством мелодичности в поэтической речи, как тон дифференцирует содержание, и как эмоциональная риторика, такая как риторическая эпифора, риторический вопрос, риторическое восклицание, риторический призыв и риторическое утверждение, усиливает эмоциональность интонации.

Abstract: This article discusses the way intonation enhances the aesthetic effect through melodiousness in poetic speech, the way tone differentiates content, and the ways in which emotional rhetoric, such as rhetorical epiphora, rhetorical question,

rhetorical exclamation, rhetorical appeal, and rhetorical affirmation, increase the emotionality of intonation.

Ma’lumki, qadimda badiiy matn, ayniqsa, she’riyat dastlab eshitishga asoslanib yaratilgan, shu sababdan badiiy asar tilining qabul qilinishi vizual emas, jonli ohang jarangi bilan eshitilishi kerak. O‘z navbatida, axborotning estetik jihati ortadi, xabar beruvchining subyektiv bahosi ifodalanadi, emotsional munosabatini aks ettiradi, tinglovchiga shu hissiy ta’sir yetkaziladi.

Badiiy matnda intonatsion hodisalarning emotsional-ekspressiv xususiyatlarini ochuvchi vositalardan biri ohangdorlikdir.

Ohang – musiqiylik, ovoz toni, nutq tempi, ritm, emotsional urg‘u, tezlik, shiddat, tembr va shu kabi elementlar majmuyidir. Ohang nutqni fonetik jihatdan uyushtiradi, turli sintaktik ma’no va kategoriyalarni ifodalash, shuningdek, ifodaning ekspressiv-emotsional bo‘yog‘ini oshirish vositasi hisoblanadi [1].

Har bir asarning o‘ziga xos sintaktik tuzilishi, matnda segment va ustsegment birliklarning talaffuzi turli xildagi ohangdoshlikni paydo qiladi. Natijada matnda ohang orqali mazmun farqlanishi yuzaga chiqadi. Ohangdorlik so‘zlovchi va tinglovchi orasidagi kommunikatsiyaning maqsadini ko‘rsatadi.

Yonoqlaring lovulladilar,

Shudring jarangladi gulbargga tomib,

Sochlaring yelkangda shovulladilar,

Ko‘zlaringni yumib... ko‘zlaringni yumib... (Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman)

Bu misolda bir xil bo‘g‘inlar: *lovulladilar, shovulladilar* so‘zlarida fe’l yasovchi *-ulla* qo‘shimchasining, o‘tgan zamon qo‘shimchasi *-di qo‘shimchasining*, *-lar* ko‘plik qo‘shimchasining, *tomib, yumib* so‘zlarida *-ib* ravishdosh qo‘shimchasining misra oxirida takrorlanishi ohangdorlikni hosil qilmoqda.

Epiforaninng bir turi bo‘lgan ritorik epifora ham intonatsiyaga bog‘liq bo‘lib, unda his-tuyg‘u kuchli ifodalangan so‘z, so‘z birikmasi, jumla takrorlanadi va alohida talaffuz bilan aytiladi. Natijada tinglovchiga kuchli ta’sir ko‘rsatiladi, tasavvur kuchaytiriladi, ishontirish amalga oshiriladi. Ritorik epiforada kuchli his-tuyg‘uni intonatsiya orqali ifodalashda yozuvda tinish belgilari faol ishlatiladi. Masalan,

Siniq oy sarg‘ayib kezarkan ko‘kda,
Tomlarda shu’lalar arpasin ilg‘ab,
Zanjirini siltab, ayqirdi ko‘ppak:
- Xavf!
- Xavf!!
- Xavf !!! (Iqbol Mirzo. Gunoh)

Ushbu misolda “xavf” borgan sari kuchayib borayotgani undov belgisining oshib borishi bilan ifodalangan.

Yoki quyidagi she’rda ham ritorik epifora mavjud:

Ayo, sevgim!
Qaqradi lablar
tashnalarday tamshanib ko‘kka.
Bir yutoqib yutdi hilolni
Nahanglarni ko‘rib bo‘ldik biz.
Ayo, sevgim!
Sabiston aro
kaptar bo‘lib uchdi shohbaytlar.
Yuragimiz oqdi – oqardi
sanarlarni ko‘rib bo‘ldik biz.
Ayo, sevgi!
Hayot xazonrez,
Zahar tutti hovuch-hovuchlab,
Hali o‘lib ko‘rganimiz yoq,
Jahannamni ko‘rib bo‘lik biz. (Nurmuhammadnur Aziz)

Shoir ritorik epiforani yozuvda ifodalash uchun har bir to‘rtlikning boshida *Ayo, sevgim!* til birligini qaytarishi va undov belgisidan foydalanishi natijasida ifodalamoqda.

Ritorik epiforalar faqat undovlardan emas, balki boshqa tinish belgilari bilan ham ifodalanadi. Masalan,

*Barcha go‘zallarni rashk qilguvchi – **men,***

*Boqmasa yuragin ham tilguvchi – **men,***
*Qo‘l yetmas yulduzga intilguvchi – **men,***
Dilimda illatim bormidi mening,
Mendan senga faqat ozorlar yetdi. (Iqbol Mirzo. Ozorlar yetdi)

Ushbu misolda *men* so‘zi (–) tinish belgisi bilan yozilgan, bu esa pauzani bildiradi, pauzadan keyin kelgan so‘zga e’tibor kuchaytiriladi. Demak, bu misolda leksik epifora emas, ritorik epifora ifodalanyapti. Ushbu tinish belgisi faqat misra oxirida emas, balki misra oxirida ham kelishi mumkin:

***She’r** – muattar bo‘yli xotira,*
Tunda qumday sochilar shoir.
Momaqaymoq so‘zlar ortida
Isyon bor der, iztirob bor der.

***She’r** – ko‘ksingdan tomchilagan qon –*
Siyohdan gul yasamoq zavqi.
Alanglab gurlagan gulxan
Ichra suvsab yashamoq zavqi.

Shoirni mahv etar Azroil,
***She’r** – mangulik, poklik, joziba.*
*Oh, qaniydi, bitta **SHE’R** yozib,*
Hayratidan o‘lsam…
Roziman! (Nurmuhammad Aziz. She’r)

Ritorik epiforani ifodalash uchun tinish belgilarida yana uch nuqta ham ishlatilishi mumkin. Masalan,

Qorako‘z turnalar Qo‘qonga qaytar,
Giyohlar yugurib kelar olisdan.
Mening turnam qani?
Giyohim qayda?
Yolg‘izman...

Uchar likobchada - sirli tayyorada
Do‘st bo‘lib izlab kelishar qay bir yuldizdan.
Men esam butun boshli sayyorada –
Yolg‘izman...
Do‘stlar eshigimni yuz bora qoqar,
Eshik qoqmay kirar maktub
bir qizdan.
Goho jonga yoqar,
goho jonni yoqar...
Yolg‘izman...

(Iqbol Mirzo. Yolg‘izman)

Shoirning “Yolg‘izman” she’rida *yolg‘izman* so‘zini har to‘rtlikning oxirida ishlatilishi ritorik epiforani yuzaga keltiradi. Ushbu so‘zdan keyin uch nuqtaning qo‘yilishi so‘zni alohida ohang bilan talaffuz qilish lozimligini ko‘rsatadi.

Ritorik savol (yunon. geshe - notiq) sintaktik figuralardan biri bo‘lib, unda savol orqali tasdiq ifodalanadi. Masalan,

Olamda rost bormi, kim bilar?
Uyg‘oq ovoz bormi, kim bilar?
Saboq berib jimlik ilmidan,
Ustozimiz odil, Hazratim. (Nurmuhammad Aziz. Nasimiy)

Ritorik savollar matnga falsafiy elementlar ham qo‘shiladi. Ba’zi savollar epiforik takror sifatida kelishi mumkin. Masalan,

Bir bandaman senki hursan nima qilay?
Ko‘kdabo‘lsang, yerda yursam nima qilay?
Shu holimga yaxshi ko‘rsam nima qilay?
O‘xshashingni topolmasam nima qilay? (Iqbol Mirzo)

Ushbu misolda “nima qilay” savol takrori orqali kamtarlik, hokisorlik kabi oshiqlarga xos fazilatlarni ifodalamoqda.

Ritoruk undov emotsionallikni oshiradi, uning yordamida ma’lum predmetga e’tibor qaratiladi. Undov orqali u yoki bu tushuncha tasdiqlanadi. Masalan,

Iqbol Mirzo “Zulfiya” she’rini quyidagicha yakunlaydi:

Kitobimni ichidan uchib tushar suvrat,

Sevmaganman men uni,

Abdul yaxshi ko‘radi!

Yirtaman deb suratin,

Yirtolmayman har kuni,

Sevmaganman men uni!

Sevmaganman men uni!... (Iqbol Mirzo)

Takrorlanayotgan “Sevmaganman men uni!” jumlasi orqali inkor ifodalansa ham, bu jumlani takrorlash bilan Zulfiyani chindan sevganligini va hali hamon unuta olmayotganligini, go‘zal tarzda sevgisini inkor qila turib, tasdiqlaydi.

Yana bir she’rda ritorik undov quyidagicha ifodalanadi:

Bu yerdan oh urib o‘tgan Go‘ro‘g‘li,

Bu yerdan ot surib o‘tgandir Namoz,

Bu yerga qismatning uchta sor o‘g‘li

Piyoz ekiyapmiz,

Piyoz! (Iqbol Mirzo. Dashtda)

Ritorik undov orqali ta’kid ifodalanyapti. Shu bilan birga his-tuyg‘ularni ifodalashni kuchaytiradi.

Ritorik murojaat muallifning o‘ziga xos intonatsiyasini ifodalaydi: g‘azab, tantana, kesatiq, samimiyat kabilarni bildiradi. Yozuvchi asar qahramoniga, narsalarga, tabiat hodisalariga murojaat qilishi mumkin.

Ritorik tasdiq badiiy nutqda faol ishlatiladi. Masalan,

Gullayotgan, o‘sayotgan eldir bu,

Zulmat yo‘lin to‘sayotgan eldir bu.

Inson nomin bezayotgan eldir bu

Avval keling, ko‘ring O‘zbekistonni! (Iqbol Mirzo)

Deb yakunlaydi shoir. “Avval keling, ko‘ring O‘zbekistonni” she’rining har bir misrasi yakunidagi “eldir bu” birikmasi uslubiy bo‘yoqdorlik hosil qilmoqda. Misra oxiridagi urg‘u ko‘tarinki ohangni yuzaga ketiradi va mantiqiy urg‘u ham shu takror

birlikka tushgan. Shu orqali so‘zlovchining o‘z vatanidan faxrlanish kuchli ekanligini ham ifodalashga xizmat qilgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, intonatsiya poetik nutqda ohangdorlik orqali estetik ta’sirni oshiradi, ohang orqali mazmun farqlanishi yuzaga chiqadi. Bunday emotsional-ritorikaning turlari intonatsiyaning emotsionalligini oshiradi. Bu turlarni quyidagicha ko‘rsatish mumkin: ritorik epifora, ritorik savol, ritorik undov, ritorik murojaat, ritorik tasdiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Панов М.В. Современной русский язык. Фонетика. – Москва. Высщая школа. 1979. – С. 438.

2. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули. – Тошкент: Фан, 1987. – 87 б.

AMERIKA BADIIY DISKURSIDA KONSEPTOSFERANING AKSIOLOGIK VA NARRATIV MODELLARI

Azizov Solijon Uchmas o‘g‘li

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

katta o‘qituvchisi, Tel.: +998933924778

Annotatsiya. Mazkur tezisda Amerika badiiy diskursida konsept va konseptosferalarning shakllanishi hamda tarixiy taraqqiyoti kognitiv va diskursiv yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida Amerika adabiyotida konseptosfera diniy-axloqiy modeldan individualistik, modernistik va postmodern plyuralistik tuzilmalarga qadar evolyutsiyalashgani ilmiy asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: *konsept, konseptosfera, Amerika badiiy diskursi, kognitiv lingvistika, individualizm, identitet, aksiologik tizim, narrativ strategiya.*

Abstract. This paper analyzes the formation and historical development of

concepts and conceptospheres in American literary discourse through cognitive and discursive approaches. The study demonstrates that in American literature the conceptosphere has evolved from a religious-moral model to individualistic, modernist, and postmodern pluralistic structures.

Key words: *concept, conceptosphere, American literary discourse, cognitive linguistics, individualism, identity, axiological system, narrative strategy.*

Аннотация: В данной статье анализируются формирование и историческое развитие концептов и концептосферы в американском художественном дискурсе на основе когнитивного и дискурсивного подходов. В результате исследования показано, что в американской литературе концептосфера эволюционировала от религиозно-нравственной модели к индивидуалистическим, модернистским и постмодернистским плюралистическим структурам.

Ключевые слова: *концепт, концептосфера, американский художественный дискурс, когнитивная лингвистика, индивидуализм, идентичность, аксиологическая система, нарративная стратегия.*

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida tilshunoslikda antropotsentrik paradigma ustuvor yo‘nalishga aylandi. Til struktur tizim sifatida emas, balki inson tafakkuri, bilish jarayoni va madaniy ongini aks ettiruvchi kognitiv mexanizm sifatida talqin qilina boshlandi. Shu jarayonda “konsept” va “konseptosfera” kategoriyalari nazariy lingvistikaning markaziy tushunchalaridan biriga aylandi.

Konsept – bu inson ongida shakllangan, tarixiy tajriba, ijtimoiy qadriyatlar, baholash va emotsional komponentni mujassamlashtirgan murakkab mental birlikdir. Konseptosfera esa muayyan millat yoki madaniyat ongidagi konseptlar tizimi va ularning o‘zaro semantik munosabatlar majmuasidir. Har bir milliy adabiyot ana shu konseptosferaning estetik modelini yaratadi.

Amerika badiiy diskursi tarixiy jihatdan mustamlakachilik davri, puritan tafakkuri, mustaqillik mafkurasi, fuqarolar urushi, sanoatlashuv, globalizatsiya va postmodern jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq ravishda rivojlangan. Natijada undagi konseptual maydon dinamik xarakter kasb etgan. “Erkinlik”, “individualizm”,

“adolat”, “jinoyat”, “identitet”, “tenglik”, “kuch” kabi konseptlar turli davrlarda turlicha mazmuniy yuklama olgan.

Konsept nazariyasining kognitiv asoslari. Amerikalik tilshunos J.Lakof va faylasuf M.Jonson konseptual metafora nazariyasini ishlab chiqib, inson tafakkuri metaforik modellar orqali tashkil topishini ilmiy asosladilar. Ularning ta’kidlashicha, abstrakt tushunchalar konkret tajriba asosida tuzilgan metaforalar yordamida idrok qilinadi [6]. Masalan, “ADOLAT – TAROZI”, “HAYOT – YO‘L” kabi metaforik modellar badiiy diskursda konseptlarning obrazli ifodalanishiga xizmat qiladi.

Kognitiv semantika doirasida Ch.Fillmor freym nazariyasini ishlab chiqdi. Unga ko‘ra, har bir til birligi ma’lum kognitiv vaziyat modeli – freymni faollashtiradi [4]. Badiiy matnda konseptlar aynan shu freymlar orqali strukturaviy shakllanadi.

Kognitiv grammatika asoschisi R.Langaker esa ma’no va grammatika o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ko‘rsatib, konseptual tuzilmalarning til vositasida qanday kodlanishini tushuntiradi. Uning nazariyasiga ko‘ra, lingvistik birliklar konseptualizatsiya jarayonining mahsulidir [7].

Diskurs va ijtimoiy ong munosabatini tadqiq etgan britaniyalik olim N.Ferklaf badiiy diskursni ijtimoiy amaliyot sifatida talqin qiladi. Uning yondashuvida diskurs ijtimoiy kuch va ideologiyani shakllantiruvchi mexanizm sifatida qaraladi [2]. Shu bois konseptosfera nafaqat semantik, balki ideologik tuzilma ham hisoblanadi.

Amerika badiiy diskursida konseptosferaning tarixiy evolyutsiyasi. Amerika adabiyotining dastlabki bosqichlarida diniy-puritan konseptlar ustuvor bo‘lgan. “Gunoh”, “najot”, “ilohiy iroda” kabi konseptlar axloqiy paradigma asosini tashkil etgan. Keyinchalik ma’rifatparvarlik va mustaqillik davrida “erkinlik” konsepti markaziy o‘ringa chiqdi.

XIX asrda individualizm konsepti kuchaydi. Masalan, R.U. Emerson asarlarida “self-reliance” (o‘ziga tayanish) konsepti milliy ongning tayanch elementi sifatida talqin qilinadi [1]. Bu davrda konseptosfera shaxsiy mustaqillik va tabiiylik g‘oyalari bilan boyidi.

XX asr modernizmida ijtimoiy inqiroz va urush tajribasi natijasida “yo‘qotish”, “ma’naviy bo‘shliq”, “zo‘ravonlik” konseptlari kuchaydi. E.Xeminguey va U.Folkner

asarlarida adolat va axloqiy tanazzul konseptlari murakkab psixologik qatlamda ochiladi.

XX asr ikkinchi yarmidan boshlab konseptosfera ko‘p madaniyatli tus oldi. T.Morrison asarlarida [8] “irq”, “xotira”, “identitet” konseptlari milliy ongning qayta qurilish jarayonini aks ettiradi.

XIX asr Amerika badiiy diskursida individualizm va milliy ong konseptosferasi. XIX asr Amerika adabiyotida konseptosfera diniy-me’yoriy paradigmadan antropotsentrik paradigmaga siljiydi. Bu davrda shaxs markaziy kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi. Individualizm konsepti milliy identitetning tayanch semantik yadrosiga aylanadi.

Transsendentalizm falsafasi R.U. Emerson insonni tabiat va kosmik ong bilan uyg‘unlikda ko‘radi. Uning qarashlarida “self-reliance” (o‘ziga tayanish) konsepti shaxsiy mustaqillik, ichki erkinlik va axloqiy avtonomiya bilan bog‘lanadi [1]. Natijada konseptosferada “erkinlik” konsepti tashqi siyosiy ma’nodan ichki ruhiy ma’noga kengayadi.

Shuningdek, G.D. Toro asarlarida [9] fuqarolik itoatsizligi, axloqiy pozitsiya va tabiat bilan uyg‘unlik konseptlari shakllanadi. Bu jarayonda konseptosfera shaxsiy tanlov va ijtimoiy mas’uliyat kategoriyalari bilan boyiydi.

Demak, XIX asrda Amerika badiiy diskursi konseptosferasining yadrosi – individualizm, erkinlik va axloqiy avtonomiya konseptlari bilan belgilanadi.

XX asr modernizmida konseptosferaning inqiroziy transformatsiyasi. XX asr boshlarida urushlar, iqtisodiy inqiroz va urbanizatsiya natijasida Amerika badiiy diskursida konseptosfera tubdan o‘zgaradi. Barqaror aksiologik tizim parchalanib, ekzistensial noaniqlik kuchayadi.

Modernizm vakili E.Xeminguey asarlarida “yo‘qotish”, “sukut”, “ma’naviy sinov” konseptlari ustuvorlik qiladi [5]. Qahramonlar ichki bo‘shliq va tashqi zo‘ravonlik o‘rtasida yashaydi. Konseptosfera tragik tajriba asosida quriladi.

U.Folkner esa janubiy Amerika tarixini tasvirlar ekan, “ayb”, “xotira”, “meros” konseptlarini murakkab narrativ struktura orqali ochadi. Uning diskursida vaqt konsepti chiziqli emas, fragmentar xarakter kasb etadi [3]. Bu esa konseptosferaning

strukturasini ham ko‘p qatlamli qiladi.

Shunday qilib, modernizm davrida konseptosfera barqarorlikdan inqirozga, kollektiv identitetdan individual travmaga siljiydi.

Postmodern davrda ko‘p madaniyatli konseptosfera shakllanishi. XX asr ikkinchi yarmidan boshlab Amerika badiiy diskursida ko‘p madaniyatli paradigma shakllanadi. Konseptosfera irq, gender, migratsiya va identitet muammolari bilan kengayadi.

T.Morrison asarlarida “xotira”, “irqiy identitet”, “tarixiy adolatsizlik” konseptlari markazlashadi [8]. Bunda konseptosfera kollektiv travma va tarixiy ong asosida qayta quriladi.

Postmodern diskursda markazlashgan yagona aksiologik tizim yo‘qoladi. Ma’no plyuralizmi kuchayadi. Bu jarayonni diskurs nazariyotchisi N.Ferklaf ijtimoiy amaliyotlar o‘zgarishi bilan bog‘laydi [2]. Natijada konseptosfera dinamik, ochiq va intertekstual tizimga aylanadi.

Zamonaviy Amerika badiiy diskursida konseptosferaning global integratsiyasi. XXI asrda Amerika badiiy diskursi global madaniy jarayonlar bilan integratsiyalashadi. Raqamli kommunikatsiya, migratsiya va transmilliy identitet konseptosferaning yangi qatlamlarini shakllantiradi.

Zamonaviy adabiyotda “global identitet”, “madaniy gibridlik”, “ijtimoiy adolat”, “inson huquqlari” kabi konseptlar faol ishlatiladi. Konseptosfera milliy chegaralardan chiqib, global semantik maydonga ulanadi.

Kognitiv nuqtayi nazardan, bu jarayon konseptual metaforalarning universallashuvi va yangi diskursiv strategiyalarning paydo bo‘lishi bilan izohlanadi. Konseptlar endilikda faqat milliy ongni emas, balki transmilliy tajribani ham ifodalaydi.

Amerika badiiy diskursida aksiologik konseptosferaning shakllanishi. Amerika badiiy diskursida konseptosfera faqat semantik tizim emas, balki aksiologik (qadriyatlar) tizim sifatida ham rivojlanadi. Har bir tarixiy bosqichda qadriyatlar iyerarxiyasi o‘zgarib boradi va bu jarayon badiiy matn orqali reprezentatsiya qilinadi.

Ma’rifat davrida “erkinlik” va “huquq” konseptlari ijobiy aksiologik yadroni

tashkil qilgan bo‘lsa, XIX asrda “shaxsiy mustaqillik” va “axloqiy avtonomiya” ustuvorlik kasb etdi. XX asr modernizmida esa qadriyatlar iyerarxiyasi izdan chiqadi, natijada “ma’naviy inqiroz”, “yo‘qotish”, “begonalashuv” kabi salbiy aksiologik konseptlar paydo bo‘ladi.

Postmodern davrda qadriyatlar plyuralizmi yuzaga keladi. Yagona markazlashgan aksiologik tizim o‘rnini ko‘p markazli baholash modeli egallaydi. Bu jarayonda konseptosfera iyerarxik tuzilmadan tarmoqlangan (network) tuzilmaga o‘tadi.

Shunday qilib, Amerika badiiy diskursida konseptosferaning taraqqiyoti aksiologik mezonlarning o‘zgarishi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Narrativ strategiyalar va konseptosfera strukturasi. Konseptosferaning taraqqiyoti faqat mazmuniy emas, balki narrativ shakl orqali ham namoyon bo‘ladi. Badiiy diskursda konseptlar hikoya qilish usuli, vaqt modeli va personaj nutqi orqali strukturaviylashadi.

XIX asr realizmida narrativ chiziqlilik konseptosferaning barqaror va sabab-natija asosidagi modelini yaratadi. Modernizm davrida esa vaqt fragmentatsiyasi va ichki monolog usuli konseptual makonning murakkablashuviga olib keladi. Bu jarayonni modernist yozuvchilarning tajribaviy uslubi yaqqol ko‘rsatadi. Postmodern diskursda intertekstuallik va ironik strategiyalar konseptosferani ochiq tizimga aylantiradi. Ma’no bir markazga emas, balki ko‘p talqin imkoniyatlariga bog‘lanadi. Natijada konseptlar qat’iy semantik chegaralarga ega bo‘lmaydi, balki kontekstga qarab dinamik talqin qilinadi.

Demak, Amerika badiiy diskursida konseptosfera taraqqiyoti narrativ texnikalarning evolyutsiyasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, shakl va mazmun o‘zaro dialektik birlikda rivojlanadi.

Xulosa shuki, Amerika badiiy diskursida konsept va konseptosferalar taraqqiyoti tarixiy bosqichlar almashinuvi bilan birga dinamik ravishda rivojlanib, diniy-axloqiy modeldan individualistik paradigma, modernistik inqiroz, postmodern plyuralizm va zamonaviy global integratsiyaga qadar murakkab evolyutsion jarayonni bosib o‘tganligi aniqlandi. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, konseptosfera faqat semantik birliklar

majmui emas, balki aksiologik, ideologik va narrativ strukturalar tizimi bo‘lib, u metafora, freym va diskursiv strategiyalar orqali badiiy matnda reallashadi hamda milliy ongdagi qadriyatlar transformatsiyasini aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Emerson R.W. Self-Reliance // Essays: First Series / Emerson R.W. – Hollister, MO: YOGeBooks, 2010. – pp. 27–54.
2. Fairclough N. Discourse and Social Change. – Cambridge: Polity Press, 1992. – 259 p.
3. Faulkner W. The Sound and the Fury. – New York: Jonathan Cape and Harrison Smith, 1929. – 326 p.
4. Fillmore Ch.J. Frame semantics // Linguistics in the Morning Calm. – Seoul: Hanshin Publishing Co., 1982. – pp. 111–137.
5. Hemingway E. A Farewell to Arms. – New York: Charles Scribner’s Sons, 1929. – 355 p.
6. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 2008. – 256 p.
7. Langacker R. W. Foundations of Cognitive Grammar. Vol. 1: Theoretical Prerequisites. – Stanford: Stanford University Press, 1987. – 540 p.
8. Morrison T. Beloved. – New York: Alfred A. Knopf, 1987. – 324 p.
9. Thoreau H.D. Civil Disobedience. – Boston: Ticknor and Fields, 1849. – 30 p.

FORMATION TRENDS OF ABBREVIATIONS AND ACRONYMS IN ENGLISH

*Scientific Supervisor: Senior Lecturer **D.U. Rustamov**,*
Faculty of Languages and Preschool Education, TIPU
*Student: **Dilobar Ibragimova**, Student of Group XTA 22/1,*
Faculty of Languages and Preschool Education, TIPU

Abstract: Abbreviations and acronyms have become an essential part of modern English, especially in the age of technology, globalization, and digital communication. They help speakers and writers express ideas more quickly and efficiently while saving time and space. The growth of social media, scientific development, and professional communication has significantly increased the number of shortened forms used in everyday language. This article explores the main formation trends of abbreviations and acronyms in English, explains their linguistic features, and analyzes their role in modern communication.[1]

Introduction: Language constantly changes to meet the needs of society. As communication becomes faster and more global, English has developed various strategies to simplify expression. One of the most noticeable changes is the increasing use of abbreviations and acronyms. These shortened forms are now common in academic writing, technology, business, media, and daily communication.

People often use abbreviations to save time and make language more efficient. For example, instead of saying or writing long phrases such as “World Health Organization” or “Artificial Intelligence,” speakers prefer shorter forms like *WHO* or *AI*. This tendency is especially strong in digital communication, where speed and brevity are highly valued.[2]

Although abbreviations have existed for centuries, modern communication technologies have accelerated their development. Understanding how abbreviations and acronyms are formed is important for language learners, linguists, and educators because these forms reflect social and cultural changes in communication patterns.

Definitions and Terminology: Before discussing formation trends, it is important to distinguish between abbreviations and acronyms. An **abbreviation** is any shortened form of a word or phrase, such as *Dr.* for “Doctor” or *etc.* for “et cetera.” An **acronym** is a type of abbreviation formed from the initial letters of a phrase and pronounced as a word, for example, *NATO* or *UNESCO*.[3]

Another related term is **initialism**, which refers to shortened forms pronounced letter by letter, such as *BBC* or *USA*. In everyday usage, people often use the term

"acronym" to describe both acronyms and initialisms, although linguistically they are slightly different.

Main Formation Trends

1. Initial Letter Formation

One of the most common trends is forming abbreviations from the first letters of words in a phrase. This method is widely used in organizations, technology, and academic contexts. Examples include *NASA* (National Aeronautics and Space Administration) and *CEO* (Chief Executive Officer). This trend reflects the need for clarity and efficiency in communication.[4]

2. Clipping

Clipping involves shortening a single word by removing one or more syllables. For example, *advertisement* becomes *ad*, *laboratory* becomes *lab*, and *examination* becomes *exam*. Clipping is common in informal language and spoken communication because it creates simpler and more natural expressions.[5]

3. Blending

Another important trend is blending, where parts of two words are combined to create a new term. Examples include *brunch* (breakfast + lunch) and *smog* (smoke + fog). In modern English, blending is often used in technology and media, producing creative forms that quickly become popular.

4. Digital and Internet-Based Acronyms

The rise of digital communication has created a large number of internet acronyms such as *LOL* (laughing out loud), *BRB* (be right back), and *OMG* (oh my God). These forms appear frequently in texting and social media because they allow users to communicate quickly and informally. Over time, many of these acronyms have entered spoken language as well.[2]

5. Hybrid Forms

Modern English also shows a trend toward hybrid abbreviations that combine letters, numbers, or symbols. Examples include *B2B* (business-to-business) and *4U* (for you). These forms reflect the influence of digital culture and creative language use.

Functions of Abbreviations and Acronyms

Abbreviations and acronyms serve several important communicative functions. First, they increase efficiency by reducing long expressions into shorter forms. This is especially useful in academic, scientific, and professional fields where complex terminology is common.[3]

Second, they help create group identity. Certain professions or communities use specific acronyms that signal membership or expertise. For example, medical professionals use abbreviations that may be unfamiliar to outsiders. Third, abbreviations reflect modern lifestyle and technology, where fast communication is essential. Social media users prefer short forms because they reduce typing effort and support quick interaction.

Influence on Modern English

The widespread use of abbreviations and acronyms has significantly influenced modern English vocabulary. Many acronyms eventually become standard words and lose their original full meaning for most speakers. For instance, words like *radar* and *laser* were originally acronyms but are now treated as regular vocabulary items.[4]

However, excessive use of abbreviations may sometimes create communication problems, especially for language learners who may not understand the meanings. Therefore, context and audience awareness remain important when using shortened forms.

Conclusion: In conclusion, abbreviations and acronyms represent an important linguistic trend in modern English. Their formation reflects the growing need for speed, efficiency, and creativity in communication. Processes such as initial letter formation, clipping, blending, and digital abbreviation show how language adapts to social and technological changes. While these forms make communication more efficient, speakers and writers should use them appropriately depending on context and audience. Understanding the formation and functions of abbreviations helps learners better interpret and use modern English in real-life communication.

References

1. Crystal, D. (2003). The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge University Press.
2. Crystal, D. (2011). Internet Linguistics: A Student Guide. Routledge.
3. Yule, G. (2020). The Study of Language (7th ed.). Cambridge University Press.
4. Bauer, L. (1983). English Word-Formation. Cambridge University Press.
5. Plag, I. (2003). Word-Formation in English. Cambridge University Press.
6. Algeo, J. (1991). Fifty Years among the New Words. Cambridge University Press.

Footnotes

[1] Crystal, D. (2003). The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge University Press.

[2] Crystal, D. (2011). Internet Linguistics: A Student Guide. Routledge.

[3] Yule, G. (2020). The Study of Language. Cambridge University Press.

[4] Bauer, L. (1983). English Word-Formation. Cambridge University Press.

[5] Plag, I. (2003). Word-Formation in English. Cambridge University Press.

“MUQANNA” DRAMASIDA IBORALARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI TO‘G‘RISIDA

Imamova Gulnora Talibovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi
94 564 07 94

Annotatsiya: Tilning lug’at tarkibini tashkil etuvchi birliklardan biri iboralardir. Frazeologizmlar til birligi sifatida nutqda namayon bo‘ladi.Ular nutqni ta’sirchan va bo‘yoqdor bo‘lishini ta’minlaydi. Ushbu maqolada H.Olimjonning “Muqanna” daramasida qo‘llanilgan iboralarning linvopoetik xususiyatlari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: *frazeologiya, frazema, frazeologik birlik, frazeologik chatishma, frazeologik butunlik(birlashma), iboralarning mazmun va ifoda plani*.

Аннотация: Одной из единиц, составляющих словарный запас языка, являются фразы. Фразеологизмы проявляются в речи как языковые единицы. Они делают речь выразительной и красочной. В данной статье анализируются лингвопоэтические свойства фраз, используемых в стихотворении Х. Олимджона “Муканна”.

Ключевые слова: *фразеология, фразема, фразеологическая единица, фразеологическое сочетание, фразеологическое целое (комбинация), содержательная и выразительная структура фраз*.

Abstract: One of the units that make up the vocabulary of a language is phrases. Phraseologisms are manifested in speech as language units. They make speech expressive and colorful. This article analyzes the linguopoetic properties of phrases used in H. Olimjon's poem “Mukanna”.

Keywords: *phraseology, phraseme, phraseological unit, phraseological combina*tion, phraseological whole (combination), content and expression plan of phrases.

“Tasviriylik va hissiylik badiiy matnning asosiy xususiyatlaridandir. Chunki yozuvchi tabiiy va ijtimoiy borliqqa nisbatan erkin munosabatda bo‘lib, shu borliqning mohiyatini ochib ko‘rsatish maqsadida turli-tuman lug‘aviy birliklar, badiiy obrazlar, adabiy tilning tasviriy vositalari va nozik qirralaridan to‘liq foydalanadi”.[1.86]

Lingvopoetikaning asosiy o‘rganish obyekti badiiy matndir. Badiiy matnni nutqning turli ko‘rinishlariga xos bo‘lgan boshqa matnlar bilan taqqoslaganda, uning o‘ziga xos xususiyatlari yaqqol ko‘zga tashlanadi. Badiiy matn yaratuvchisi, ya’ni yozuvchi, shoirlar til sathlari birliklaridan o‘z badiiy maqsadlariga ko‘ra foydalanadilar. Mazkur jarayonda har bir adibning o‘ziga xos uslubi ham ahamiyatga egadir. Chunki qaysidir adiblarimiz o‘z asarlarida shevaga xos so‘zlarni ko‘p qo‘llasa, yana biri maqol va matallar, iboralardan foydalanishni afzal ko‘radi, yana qaysidir adibning asarlar tilida o‘xshatishlarning originallarini kuzatasiz va hakozo. Til birliklaridan foydalanishda yozuvchi va shoirlarimizning asarlarida ifodalanayotgan zamon va makon muhim ahamiyatga ega. Tarixiy mavzuga

bag‘ishlangan nasriy va she’riy asarlarda tarixiy so‘zlardan foydalanish asarning o‘qishli bo‘lishini ta’minlovchi omillardandir.

“Sir emaski, badiiy matn badiiy-estetik butunlik sifatida benihoya murakkab, serqatlam hodisa. Badiiy matnda ifodalangan asosiy g‘oya – fikr - mazmunni tushunish, anglash shunchaki emas, balki ancha qiyin va murakkab ijodiy jarayondir. Badiiy asarda mutlaqo o‘ziga xos, goho ochiq, goho yashirin, turli ishoralar, tag ma’nolar, kosa tagidagi nim kosalar bilan shamoyil topgan mazmunning ma’nosini to‘g‘ri anglash ma’naviy-madaniy, aqliy-hissiy va lisoniy-estetik faoliyat natijasida mumkin bo‘ladi. Har qanday matnning mazmunini tushunish uchun til leksikasi va grammatikasini bilish zarur va yetarli bo‘lsa, badiiy matnning mazmunini idrok etish uchun, bundan tashqari, ayni paytda badiiy matnning o‘ziga xos lisoniy-poetik qonuniyatlarini ham bilish lozim bo‘ladi”. [4. 27] Mazkur fikrlardan kelib chiqadigan xulosa shuki, lingvopoetik tahlil badiiy matn doirasida ish ko‘radi.

Sevimli hassos shoirimiz Hamid Olimjon asarlari tahlilini amalga oshirar ekanmiz, o‘zbek tilining jozibador birliklaridan unumli foydalanganligining guvohi bo‘lamiz. Xususan, shoirning badiiy maqsadini o‘quvchiga yetkazish uchun o‘zbek tilidagi frazeologik birliklarning dostonlariga, she’rlariga juda chiroyli singdirganligining guvohi bo‘ldik.

Guloyin:

Yo‘q ko‘z ochib ko‘rgan kishim sen bo‘lding?!

Toleyimning shumligiga hayronman,

Baxti qora, hamda bag‘ri giryonman. [2. 52]

Shoirning mashhur “Muqanna” tarixiy dramasidan olingan ushbu parchada qahramon qiz Guloyin tilidan olingan ushbu kichik parchada uning iztirobli holatini tasvirlash uchun to‘rtta iboradan foydalanilgan: *ko‘z ochib ko‘rgan, toleyimning shumligi, baxti qora, bag‘ri giryon*. Bir paytning o‘zida to‘rtta iboraning qo‘llanilishida shoirning badiiy mahorati namoyon bo‘lmoqda. Iboralarning tarkibida qatnashgan har bir so‘z o‘z lug‘aviy ma’nosini emas, balki ular umumiy tarzda bitta yaxlit, ko‘chma ma’noni ifodalab keladi. Iboralar asar qahramonining turli his-tuyg‘ularini, psixologik holatini ifodalashi bilan badiiy matnda tasviriylik,

obrazlilikni ta’minlash uchun ham ishlatiladi. Yuqoridagi iboralarning barchasi asar qahramoni Guloyinning tushkun kayfiyatini ifodalash maqsadida qo‘llanilgan hamda voqelikning rivojlanib borishi natijasida gradatsiya hosil qilgan. Guloyinning o‘z taqdiridan norozilik kayfiyati dastlab “ko‘z ochib ko‘rganim” iborasida afsuslanish ma’nosida, “toleyimning shumligi”da taqdiridan norozilik, “baxti qora” iborasida baxtsiz taqdiridan nolish, “bag‘ri giryon”da norozilik, nolishning eng rivojlangan holati aks etgan. Ko‘rinib turibdiki, Hamid Olimjon “Guloyin”ning ichki kechinmalarini ta’riflash uchun frazeologik birliklardan unumli foydalangan. Agar shoir mazkur iboralar o‘rnida leksik birliklardan foydalanganida badiiy tasvir bu darajada ta’sirchanlik kasb etmasdi.

“Frazeologizmlar uslubiy bo‘yoqdorlikka boy bo‘lgan til birligi bo‘lib, obrazli tasviriy vosita sifatida badiiy asar tilida keng qo‘llaniladi. Frazeologizmlar denonativ ma’nodan tashqari konnotativ ma’noga ega bo‘ladi. Bu esa ularning yorqin emotsional-ekspressiv bo‘yoqqa ega ekanligini anglatadi” [3.115-118-b]

Tahlilimizni “Muqanna” tarixiy dostoni qahramonlari tilidan aytilgan frazeologizmlar bilan davom ettiramiz:

Battol:

Xotinlarning sochi uzun bo‘ladi,

Sochi uzun, aqli qisqa bo‘ladi. [2.51]

“Muqanna” tarixiy dramadagi salbiy qahramonlaridan biri “Battol” tilidan aytilgan “sochi uzun, aqli qisqa” iborasi ayollarga nisbatan kamsitish ma’nosida ishlatilmoqda. Berilgan parchada dastlabki satrida “sochi uzun” birikmasi o‘z ma’nosida, keyingi satrda esa iboraning tarkibiy qismi sifatida qo‘llanilgan. Ma’lumki, har bir, so‘z, ibora, maqol yoki matalda qahramonning kayfiyati bilan birga, xarakter -xususiyatlari ham namoyon bo‘ladi. Ya’ni qahramonning kim, qanday obraz ekanligini shoir yoki yozuvchi uning tilida ishlatayotgan birliklari orqali ham tasvirlab beradi. Xususan, Hamid Olimjon “Battol”ning xarakterini ochish, uning insonlarga, ayniqsa, ayollarga bo‘lgan munosabatini tasvirlash maqsadida uni ataylab shunday “gapirtiradi”, ya’ni salbiy ma’noli “*sochi uzun, aqli qisqa*” iborasini so‘zlatadi.

G‘irdak:

Hoy, *burga deb sen to‘shakni kuydirma*,

Arabda ham musichaday begunoh,

Senga o‘xshash bechoralar juda ko‘p. [2.58]

Mazkur parchada Hamid Olimjon o‘zbek tilidagi arzimagan narsani jahl ustida noto‘g‘ri qaror chiqarib qo‘yish, zararli ish qilib qo‘yish ma’nosida ishlatiladigan “burgaga achchiq qilib ko‘rpani kuydirmoq”, yoki uning variant “burgaga achchiq qilib ko‘rpaga o‘t qo‘ymoq” iboralarini ijodiy qo‘llaydi: *burga deb sen to‘shakni kuydirma*. Tildagi ibora tarkibidagi “burgaga achchiq qilib” o‘rniga “burga deb”ni qo‘llasa, “ko‘rpa” so‘zi o‘rnida “to‘shak”dan foydalangan. Badiiy matnlarda frazeologik birliklar tarkibidagi so‘zlar o‘rniga uning sinonimi yoki yaqin ma’noli so‘zlarni almashtirib qo‘llash holatlari kuzatiladi. Yuqoridagi iboraning tahlilidan ko‘rinib turibdiki, *burga deb sen to‘shakni kuydirma* iborasida asl iboradan ko‘ra ma’no kuchliroq, ta’sirchanroq ifodalanmoqda.

Otash:

Puch yong‘oqni sola berma qo‘yningga,

Jamoat jam axir qani Jaloyir?

G‘irdak:

Puch yong‘oqni chaqolmaydi asil er,

Ha, Jaloyir farmonimni kutmoqda,

Battol bo‘lsa, qip-qizil *qon yutmoqda.*

Bir nafasda hozir bo‘lar buyursam. [2.61]

Mazkur dialogda Otash tilidan aytilgan “puch yong‘oqni sola berma qo‘yningga” iborasi tilda “puch yong‘oq bilan qo‘ynini to‘ldirmoq”, “qo‘ynini puch yong‘oqqa to‘ldirmoq” shaklida kelib “yolg‘on va’dalar bilan aldash” ma’nosini bildiradi. G‘irdak tilida esa bu ibora ellipsisga uchragan: “puch yong‘oqni chaqolmaydi”. Iboraning ma’nosini kuchaytirish maqsadida, qahramonlar ruhiyatidagi, xarakteridagi o‘ziga xosliklarni ifodalash maqsadida shoir asl frazeologizmlar tarkibini almashtirib qo‘llagan. G‘irdak nutqidagi g‘azab iborani to‘liq aytishga to‘sqinlik qilganini ko‘rsatib turibdi, ayni holatni keying satrdagi “qon

yutmoq” iborasi to‘ldirib kelmoqda. Darhaqiqat, yozuvchi va shoirlar o‘z badiiy maqsadini ifodalash, tinglovchiga estetik ta’sir ko‘rsatish maqsadida tilning turli sathlari birliklarini, xususan, iboralarni lingvopoetik vosita sifatida qo‘llaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. - B. 5. (- 86

2. Хамид Олимжон. “Muqanna”, 3 том. Пьесалар. – Тошкент: -1971. 52 б

3. Mamatov A. Frazeologik stilistika masalalari. Toshkent. 1991. -B.115. (118 b.))

4. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоетикаси. – Тошкент, Фан, 2008. - Б.27.

MADANIY ALMASHINUVDA ICHKI OLAM KONSEPTLARI: INGLIZ-O‘ZBEK TARJIMA ADABIYOTIDA “UMID” (HOPE) KONSEPTINING LINGVOMADANIY ADAPTATSIYASI

Rahmatullayeva Guljahon Normo‘min qizi,

Samarqand davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti

rahmatullayevagulijahon@mail.ru

+998 90 276 66 17

Annotatsiya. Maqola ingliz-o‘zbek tarjima adabiyotidagi “umid” tushunchasining lingvokultural moslashuvini madaniy almashinuv kontekstida o‘rganadi. Ingliz yozuvchilarining asarlaridan (masalan, Dikkens, Heminguey) olingan misollar va ularning o‘zbekcha tarjimalari tahlil qilinib, insonning ichki dunyosini ifodalashdagi madaniy farqlar aniqlanadi. Tarjimada semantik chuqurlikni saqlab qolish yo‘llari taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: *“umid” tushunchasi, lingvokulturologiya, tarjima adabiyoti, madaniy moslashuv.*

Аннотация. В статье рассматривается лингвокультурная адаптация концепта “надежда” (hope) в англо-узбекской переводной литературе в контексте культурного обмена. Анализируются примеры из произведений английских авторов (например, Dickens, Hemingway) и их узбекские переводы, выявляются культурные различия в выражении внутреннего мира человека. Предлагаются решения для сохранения семантической глубины в переводах.

Ключевые слова: *концепт “надежда”, лингвокультурология, переводная литература, культурная адаптация*.

Annotation. The article examines the linguocultural adaptation of the “hope” concept in English-Uzbek translated literature within the context of cultural exchange. Examples from English authors’ works (e.g., Dickens, Hemingway) and their Uzbek translations are analyzed, revealing cultural differences in expressing the human inner world. Solutions for preserving semantic depth in translations are proposed.

Keywords: *concept “hope”, linguoculturology, translated literature, cultural adaptation.*

Inson ichki olami – ruhiy holatlar, emotsional tajribalar va ontologik qidiruvlarning murakkab tizimi bo‘lib, badiiy adabiyotda konseptlar orqali ifodalanadi. Lingvomadaniyatshunoslik va kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan, bu konseptlar madaniy almashinuv jarayonida tarjima orqali o‘zgaradi va adaptatsiya qilinadi. Xususan, “umid” (hope) konseptini ingliz adabiyotidan o‘zbek tiliga tarjima qilishda madaniy farqlar yaqqol namoyon bo‘ladi. Ingliz madaniyatida umid ko‘pincha individual kurash, shaxsiy muvaffaqiyat va optimizm bilan bog‘liq bo‘lsa (masalan, romantizm va modernizm davrlarida), o‘zbek madaniyatida u sabr-toqat, taqdirga tavakkul va kollektiv chidamlilik bilan uzviy ravishda bog‘lanadi [1: 45; 3: 78].

Ushbu maqolada ingliz-o‘zbek tarjima adabiyotida "umid" konseptining lingvomadaniy adaptatsiyasi chuqur tahlil qilinadi, shu jumladan klassik va zamonaviy asarlar misolida. Maqsad – madaniy almashinuv sharoitida ichki olam konseptlarining tarjima jarayonidagi transformatsiyasini o‘rganish, semantik

yo‘qotish va boyitish jihatlarini aniqlashdir. Vazifalar: 1) konseptning ikki madaniyatdagi semantik va metaforik xususiyatlarini taqqoslash; 2) tarjima misollarini lingvomadaniy nuqtai nazardan tahlil qilish, jumladan Charlz Dikkens, Ernest Xeminguey, Mark Tueyn va Jek London asarlarini; 3) adaptatsiya muammolari va yechim strategiyalarini taklif etish.

1. “Umid” konseptining madaniy-lingvistik xususiyatlari va metaforik modellari. Kognitiv lingvistika bo‘yicha (Lakoff va Jonson nazariyasi), konseptlar metaforik modellarga asoslanadi [2: 112]. Ingliz tilida “hope” quyidagi metaforalar orqali ifodalanadi:

HOPE IS LIGHT (“a ray of hope”, “light at the end of the tunnel”) – umid yorug‘lik sifatida, qorong‘ulikdan chiqish ramzi;

HOPE IS A JOURNEY (“journey of hope”) – umid sayohat sifatida, individual harakat va rivojlanish;

HOPE IS A FORCE (“hold on to hope”) – umid kuch sifatida, shaxsiy kurashni qo‘llab-quvvatlovchi.

Bu modellar G‘arb madaniyatidagi individualizm va sekulyar optimizmni aks ettiradi. Masalan, Ernest Xemingueyning “The Old Man and the Sea” asarida umid qariyaning ichki kurashi va tabiat bilan yakkama-yakka qolishida namoyon bo‘ladi: “It's silly not to hope. It's a sin he thought” [6]. Bu yerda umid insoniy gunoh va fazilat sifatida ko‘riladi, ammo asosan shaxsiy irodaga bog‘liq.

O‘zbek madaniyatida “umid” ko‘proq tasavvufiy va kollektiv tus oladi: “umid so‘nmasin”, “umid bilan yashash”, “Allohning umidi” kabi iboralar sabr, taqdir va ilohiy inoyat bilan bog‘lanadi. O‘zbek adabiyotida umid ko‘pincha “sabr” va “qanoat” bilan birlashib, ichki tinchlik va jamoaviy chidamlilikni bildiradi. Bu farqlar tarjima jarayonida domestikatsiya (target culturega moslashtirish) va forinatsiya (source culture saqlash) strategiyalarini talab qiladi [7: 134].

2. Tarjima adabiyotida “umid” konseptining konkret misollari va lingvomadaniy tahlili. Charlz Dikkensning “Great Expectations” (o‘zbekcha “Katta umidlar”, tarj. A. Qodirov) asarida “hope” Pipning shaxsiy ambitsiyalari va ijtimoiy yuksalish orzularini ifodalaydi. Asl nusxada “great expectations” individual orzular

va umidlar majmuasini bildiradi. O‘zbek tarjimada sarlavha “Katta umidlar” deb saqlangan, ammo matnda “hope” ko‘pincha “umid” yoki “intizorlik” bilan almashtirilgan. Masalan, Pipning umidlari “katta orzular” yoki “umidvorlik” sifatida tarjima qilingan, bu o‘zbek o‘quvchisiga yaqinroq bo‘lib, ammo asl nusxadagi ironiya va individualizmni biroz yumshatadi [4: 156]. Bu domestikatsiya misoli – umidni o‘zbek madaniyatidagi “orzular” va “intizor” bilan boyitish orqali ichki olamni moslashtirish.

Ernest Xemingueyning “The Old Man and the Sea” (o‘zbekcha “Chol va dengiz”, tarj. M. Musaev) asarida umid qariyaning dengizdagi kurashi ramzi. Asl matnda: “Hope rises in him again” kabi jumlalar umidni ichki kuch sifatida ko‘rsatadi. Tarjimada “umid yana uyg‘ondi” yoki “umid paydo bo‘ldi” deb berilgan, lekin ba'zi joylarda “Allohning inoyati” yoki “taqdirga ishonch” elementlari qo‘shilgan. Bu madaniy adaptatsiya – sekulyar ingliz umidini o‘zbek tasavvufiy kontekstiga moslashtirish, ammo asl nusxadagi shaxsiy irodani biroz zaiflashtiradi [5: 89].

Boshqa misol sifatida Mark Tueynning “The Adventures of Tom Sawyer” (o‘zbekcha “Tom Soyyerning sarguzashtlari”, tarj. I. Tukhtasinov) asarini ko‘rib chiqaylik. Bu asarda “hope” bolalik sarguzashtlari va erkinlik orzularida namoyon bo‘ladi. Asl nusxada Tomning umidlari individual o‘yin va kashfiyotlar bilan bog‘liq, masalan, “hope of finding treasure” – xazina topish umidi. O‘zbek tarjimada bu “umidvorlik” yoki “orzular” deb berilgan, ammo o‘zbek madaniyatida bolalik umidlari ko‘proq jamoaviy o‘yin va oilaviy qadriyatlarga moslashtirilgan. Bu adaptatsiya ichki olamni o‘zbek bolalar adabiyotiga yaqinlashtiradi, lekin asl nusxadagi amerikalik individualizmni biroz o'zgartiradi [9: 120].

Shuningdek, Jek Londonning “Martin Eden” (o‘zbekcha “Martin Iden”, tarj. Q. Qo‘ldoshev) asarida umid yozuvchi Martinning ijtimoiy yuksalish va ijodiy muvaffaqiyat orzularida aks etadi. Asl matnda “hope” shaxsiy kurash va o‘z-o‘zini takomillashtirish ramzi: “He clung to hope.” Tarjimada “umidga yopishdi” deb berilgan, lekin o‘zbek versiyada u ko‘proq “sabr va mehnat” bilan boyitilgan, bu o‘zbek madaniyatidagi kollektiv mehnat qadriyatlariga mos keladi. Bu

domestikatsiya orqali ichki konfliktni madaniy nuqtai nazardan moslashtiradi, ammo asl sekulyar motivlarni biroz tasavvufiy tus beradi [10: 145].

Lingvomadaniy tahlil shuni ko‘rsatadiki, tarjima jarayonida semantik ekvivalentlik buzilishi mumkin: inglizcha individual va optimistik umid o‘zbek tarjimada fatalistik va sabrga asoslangan tus oladi. Bu madaniy almashinuvning ijobiy tomoni – o‘zbek o‘quvchisiga yaqinlashtirish, ammo salbiy tomoni – asl ichki olamning universal jihatlarini yo‘qotish.

3. Adaptatsiya muammolari va yechim strategiyalari. Asosiy muammolar: Semantik yo‘qotish (masalan, “hope against hope” – “umidsiz umid” o‘zbekcha “umid so‘nmasin” deb tarjima qilinganda nuanslar yo‘qoladi); Madaniy farqlar tufayli emotsional ta'sirning o‘zgarishi; Metaforik modellar mos kelmasligi.

Yechimlar:

Gibrid strategiyalar (Venuti bo‘yicha): domestikatsiya va forinatsiyani birlashtirish – asl metaforani saqlab, o‘zbek madaniy ekvivalenti qo‘shish [7: 134]. Masalan, “light of hope” ni “umid nuri” deb tarjima qilish va izoh qo‘shish. Tarjimachilar uchun lingvomadaniy kompetentsiyani oshirish: kognitiv modellarni o‘rganish va madaniy kontekstni hisobga olish. Zamonaviy tarjima nazariyasida (Newmark, Baker) tavsiya etilgan usullar: paraphrasing, cultural substitution va amplificationdan foydalanish [8]. Bu strategiyalar ichki olam konseptlarini madaniy almashinuvda saqlashga yordam beradi va tarjima adabiyotini boyitadi.

Ingliz-o‘zbek tarjima adabiyotida “umid” konseptining lingvomadaniy adaptatsiyasi madaniy farqlar va o‘xshashliklarni ochib beradi, ichki olamni ifodalashda universal va lokal jihatlarni ko‘rsatadi. Ko'rib chiqilgan asarlar (Dikkens, Xeminguey, Tueyn, London) misolida muammolarni hal qilish uchun gibrid tarjima strategiyalari, tarjimachilar malakasini oshirish va madaniylararo muloqotni kuchaytirish zarur. Bu nafaqat adabiyotni boyitadi, balki ikki madaniyat o‘rtasidagi tushunishni chuqurlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] – Evans V. Cognitive Linguistics: An Introduction. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2006. – 45 b.

[2] – Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 112 b.

[3] – Mahmudov N. O‘zbek tili va adabiyoti: Konseptual tahlil. – Toshkent: Fan, 2015. – 78 b.

[4] – Dickens Ch. Great Expectations (o‘zbek tarjimasi: Katta umidlar, tarj. A. Qodirov). – Toshkent: Sharq, 1998. – 156 b.

[5] – Hemingway E. The Old Man and the Sea (o‘zbek tarjimasi: Qari va dengiz, tarj. M. Musaev). – Toshkent: Adabiyot, 2005. – 89 b.

[6] – Hemingway E. The Old Man and the Sea. – New York: Scribner, 1952.

[7] – Venuti L. The Translator's Invisibility: A History of Translation. – London: Routledge, 1995. – 134 b.

[8] – Newmark P. A Textbook of Translation. – New York: Prentice Hall, 1988. – 201 b.

[9] – Twain M. The Adventures of Tom Sawyer (o‘zbek tarjimasi: Tom Soyyerning sarguzashtlari, tarj. I. Tukhtasinov). – Toshkent: O‘zbekiston, 1980. – 120 b.

[10] – London J. Martin Eden (o‘zbek tarjimasi: Martin Iden, tarj. Q. Qo‘ldoshev). – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1975. – 145 b.

GENDER AND LANGUAGE USE IN ENGLISH COMMUNICATION

Ph.D. (PhD), Associate Professor, Acting ***Z.B. Sabirova***

Tashkent University of Economics and Pedagogy,

Faculty of Languages and Preschool Education,

Raxmatullayeva Madina Fatxullayevna

Tashkent University of Economics and Pedagogy

Faculty of Languages and Preschool Education, FFL 23/1 3-course

Abstract: The relationship between gender and language usage in English communication is highlighted in this article. It looks at how men and women employ

different communication techniques, degrees of directness and politeness. The essay also examines how gender stereotypes impact how people communicate and express their opinions, as well as how social and cultural expectations impact communication patterns. It also discusses the growing use of gender-inclusive terminology in contemporary English and emphasizes how important it is for promoting equality and respect for one another. The article illustrates how gender influences communication and how English is still evolving with society using linguistic research and real-world language usage examples.

Key words: *Gender, communication, linguistic research, language, politeness theory, English, men, women.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilidagi muloqotda gender va tildan foydalanish o'rtasidagi bog'liqlik ta'kidlangan. Unda erkaklar va ayollar turli xil muloqot texnikalaridan, to'g'ridan-to'g'ri va xushmuomalalik darajalaridan qanday foydalanishlari ko'rib chiqiladi. Unda, shuningdek, gender stereotiplarining odamlarning muloqot qilish va o'z fikrlarini ifoda etish usullariga qanday ta'sir qilishi, shuningdek, ijtimoiy va madaniy talablar muloqot shakllariga qanday ta'sir qilishi o'rganiladi. Shuningdek, u zamonaviy ingliz tilida genderni qamrab oluvchi terminologiyaning tobora ko'proq qo'llanilishini muhokama qiladi va uning tenglik va bir-biriga hurmatni targ'ib qilish uchun qanchalik muhimligini ta'kidlaydi. Maqolada genderning muloqotga qanday ta'sir qilishi va ingliz tilining jamiyat bilan qanday rivojlanayotgani lingvistik tadqiqotlar va real dunyo tillaridan foydalanish misollari yordamida ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: *Gender, muloqot.*

Introduction: Language is more than just a way to share information; it reflects who we are and how we relate to others. One important factor that affects how people speak is gender. Men and women often use language differently in daily life. These differences can be seen in how polite or direct they are, how they express emotions and how they interact in conversations. Understanding these differences is important for many reasons. It helps people communicate more effectively, improves relationships and supports equality between men and women. In English, gender

differences are visible not only in word choice and tone but also in conversational style, turn-taking and social expectations. At the same time, modern English is developing and gender-inclusive language is becoming more common to encourage respect, fairness and understanding. Studying gender and language also shows how society shapes communication. Culture, education and social norms affect what is expected from men and women in conversations. By examining these patterns, we gain insight into human interaction and social behavior. Moreover, awareness of gender differences can help learners of English communicate more naturally and avoid misunderstandings across cultures.

Main body: Even though society increasingly depicts men and women as equals, in reality women often do not have the same opportunities to speak or be fully heard. This is mainly because men and women communicate in different ways, using distinct linguistic choices and conversational strategies. Simply put, the language women use is not identical to that used by men and these differences affect how they interact in both personal and professional contexts. The following section will examine these variations in detail, exploring how gender shapes communication styles, conversation behaviors and how social and cultural expectations influence the way men and women express themselves.

1. Gender Differences in Vocabulary

Research shows that men and women often use different words and expressions in daily English communication. Men are more likely to use slang, taboo word or aggressive expressions, even if they have the same education as women. For example, phrases like: "Facts be damned", "Get a life!", " I have no intention of 'lightening up' when you continue to make trashy postings", "Did you just pull that out of your ****?" are more common in men's speech, reflecting a direct and sometimes confrontational style. Women, in contrast, tend to use polite, supportive and empathetic language, even in casual conversations. FAO (1997) emphasizes that these differences are socially constructed: gender is shaped by culture, education and social expectations rather than biology.

2. Differences in Topic Selection

Men and women often prefer different topics. Men typically discuss politics, economics and sports, which are considered “serious” topics, while women focus on family, personal relationships and education, often labeled as “trivial” by social norms. Lydie Meunier (1996) explains: “Topics such as sports, politics and cars are reserved for men; women’s topics, such as child-bearing and relationships, are labeled trivial.” This shows that cultural expectations influence what men and women consider appropriate to talk about.

3. Differences in Politeness and Cooperative Strategies

Research indicates that women frequently employ politeness strategies and collaborative language, such as modals (“might,” “could”), hedges (“perhaps,” “I think”) and backchanneling expressions (“mm-hmm,” “I see”), which help maintain social harmony in conversation. These linguistic features signal support and inclusion, aligning with the idea that women use language to sustain relationships. On the other hand, men are more likely to use direct and assertive language, which can be interpreted as focusing on task outcomes or leadership. Additionally, studies on gender-linked speech patterns suggest that women use some politeness markers (like conventional openings and closings) more frequently than men, further illustrating a subtle preference for cooperative interaction. However, it is important to note that not all politeness features differ significantly by gender and contextual factors play a major role in shaping communication patterns.

4. Differences in Amount of Talk

Men and women also differ in how much they talk depending on context. Women usually talk more at home, sharing feelings and personal experiences. Men tend to talk more in public, telling stories or jokes to claim attention. This can create misunderstandings: Women may feel ignored when men don’t share at home. Men may dominate conversations in social settings, leaving women unnoticed. Thus, the amount of talk reflects both gendered social roles and situation.

5. Gender and Intonation Patterns

Studies indicate that women and men may exhibit different intonation patterns in speech. Women are often found to use a wider range of pitch and expressions that

may sound more expressive or emotional, including features such as rising intonation and varied sentence endings. Men's speech, in contrast, may appear flatter or more monotone in comparison. These differences can impact how assertions and questions are perceived in conversation and how speakers are interpreted in terms of confidence or emotional engagement.

Conclusion: Gender differences, as a social phenomenon, are clearly reflected in language and have been widely studied in sociolinguistics. Research shows that men and women differ in vocabulary, syntax, conversational strategies and responses to various social interactions, largely due to social and cultural expectations rather than biological factors (Tannen, 1991; FAO, 1997). This thesis focused on conversational language, drawing examples from all-female, all-male and mixed-gender interactions. While some limitations are inevitable, the findings highlight how men often use direct, task-focused language, whereas women tend to use empathetic, cooperative and polite strategies. Understanding these differences is valuable for improving communication, reducing misunderstandings and promoting respectful interactions in both personal and professional contexts. Moreover, awareness of gendered language contributes to more effective English teaching, learning and cross-cultural communication. The study of gender and language remains an open field, with continued research offering further insights into how social roles shape communication.

References:

1. Asian Social Science. (2010). Gender differences in language usage. Asian Social Science, 6(2), 127-130.

2. FAO. (1997). Gender: Definitions and concepts. Food and Agriculture Organization of the United Nations.

3. Meunier, L. (1996). Gender and language: Topic selection differences. Gender Studies Journal.

4. Ojs.scipub.de. (n.d.). Gendered communication patterns in English.

5. Nature Communications. (2025). Gender differences in linguistic behavior. Nature Communications.

6. University of Buxoro. (n.d.). Gender and intonation differences in English speech.

7. Asian Social Science. (2010). On Gender Difference in English Language and Its Causes. Asian Social Science, 6(2):126-126

FOLKLORIZMLAR VA ULARNING LINGVOTRANSFORMATSION XUSUSIYATLARI

Oybek Tohirov

O‘zDSMI “Sahna nutqi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

orcid.0009-0004-4900-2055

Annotatsiya. Folklorizm lingvopoetik tadqiqotlarda badiiy matn tarkibiga kiritilgan xalq og‘zaki ijodiga xos barqaror va yaxlit birliklarni anglatadi. Ushbu birliklar matnda milliy-madaniy kodni aktuallashtirish, jonli nutq koloritini yaratish, ekspressivlikni kuchaytirish va personaj nutqini individuallashtirish vazifasini bajaradi. Qo‘shiqlar, laparlar, latifalar, maqol-matallar, aforizmlar hamda an’anaviy o‘yin shakllari muayyan badiiy-estetik maqsad asosida qo‘llanib, asarning intertekstual tabiatini ta’minlaydi. Maqolada dramatik asarlardagi folklorizmlarning sahna talqinida yuz beradigan transformatsion jarayonlar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *folklorizm, lingvotransformatsiya, dramatik asar, sahna talqini, intertekstuallik.*

Abstract. In linguopoetic studies, folklore means stable and integral units inherent in folk oral creativity included in the composition of a literary text. These units perform the function of actualizing the national-cultural code in the text, creating a lively speech color, enhancing expressiveness, and individualizing the character's speech. Songs, rhymes, anecdotes, proverbs, aphorisms, and traditional game forms are used based on a certain artistic and aesthetic goal, ensuring the intertextual nature of the work. The article discusses the transformation processes that occur in the stage interpretation of folklore in dramatic works.

Keywords: *folklore, linguistic transformation, dramatic work, stage interpretation, intertextuality*.

Folklorizm atamasi lingvopoetik tadqiqotlarda, badiiy matnga olib kirilgan xalq og‘zaki ijodiga xos yaxlit birliklarga nisbatan ishlatiladi. Folklorizmlar odatda matnga jonli nutqqa xoslikni, ta’kidlash uchun olib kiriladi. Qo‘shiq, lapar, latifalar, xalq donoligini ifodalovchi aforizmlar, turli o‘yinlar badiiy matnga muayyan maqsad bilan olib kiriladi va ular asarning intertekstualligini ta’minlashga ham xizmat qiladi.Tilshunos A.Azizova folklorizmlarning adabiyotshunoslik va folklorshunoslik nuqtai nazaridan keng o‘rganilganligini aytib o‘tadi rus tilshunoslari tomonidan bu masalaning chuqur o‘rganilganligini ta’kidlaydi va u quyidagicha yozadi: A.G.Kostina “folklorizm” tushunchasi keng qamrovli ekanligini, folklor matnlarining o‘ziga xos folklor formulasi va folkloremadan iborat bo‘lishini ta’kidlaydi. A.G.Kostina fikriga ko‘ra, folklorema an’anaviy ma’noga ega bo‘lgan obrazli, ramziy leksema, ibora (shu jumladan folklor formulasi ham), folklor matnining bir qismi yoki kichik folklor janri matnidan iborat. Bu ma’no matn yaratuvchisining mifologik tafakkuri, marosim yoki ideallashtirilgan folklor voqeligining o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Folkloremaning asosiy mohiyati shundaki, u ijodkorning dunyoqarashini aks ettiradi va folklorning chuqur ma’nosini ochib beradi. Folklorema maqol yoki matal bilan ifodalanishi mumkin.

Y.Xushvaqtov qalamiga mansub “Chimildiq” asari boshdan oxiriga qadar folklorizmga xos materiallarga boy. Asar avvalida kelinni o‘lan qo‘shig‘i jo‘rligida olib kirishi tasvirlanadi. Sahna talqinida ham mazkur epilog bor, lekin asardagi kabi to‘liq shaklda emas, balki bir qismi tushirilib o‘rniga yor-yor ohangida takrorlanuvchi aytimlar bilan to‘ldirilgan holda ijro etiladi. Ayrim satrlar esa ijroga mos ravishda o‘zgartiriladi. Masalan: “*Bodom shoxi singanda- yo, bolam desin yor-yor, bolam desin yor-yor*” satri “*Bodom shoxi qayrilganda, bolam desin yor-yor, bolam desin yor-yor*” tarzida transformatsiya qilingan.

Matnda kuyovnavkarlar doira chalib ijro etadigan “Yor-yor yoroney” qo‘shig‘ining matni asarning sahna talqinida butunlay o‘zgartirilgan. Asosiy matnda quyidagi lapar berilgan:

Beda bersang toyga ber yor-yor yoroney

Kasir-kusir chaynasin yor-yor yoroney.

qizni bersang yoshga ber yor-yor yoroney,

Ishqi bilan o‘ynasin yor-yor yoroney.

Sahna talqinida esa uning o‘rniga shu ohangdagi boshqa bir qo‘shiq qo‘llanilgan. Ijroda mazkur qo‘shiqni xalq og‘zaki ijodida kengroq tarqalgan, nisbatan aytishga qulay bo‘lgan versiyasiga almashtirish maqsad qilingan.

Yana bir o‘rinda checha (momo) obrazi tilidan aytiladigan: “*Oftobi anbarim xush keldingiz, Yurtimning sarvari xush keldingiz*” satrlari bilan boshlanuvchi laparda “*yurtimning sarvari*” birikmasi o‘rnida “*yigitlarning sardori*” birikmasi qo‘llanadi va bu trasformatsiyaning “leksik tanlash” tamoyiliga juda mos keladi. Bu transformatsiyada kuyovni “*yurt sarvari*” sifatida baholashdan ko‘ra “*yigitlarning sardori*” sifatida baholashning ma’qul va mubolag‘asiz bo‘lishi sahna ijrochilari tomonidan to‘g‘ri sezilgan. Mazkur parcha ijrosi oldidan matnda “*Ey to‘xtang, voy esim qursin, bu o‘ris zamonida urf-odatlarimiz ham esdan chiqib ketyapti. Odatimiz bo‘yicha kuyov kelinning qo‘lidan ro‘molchani olmaguncha o‘tirmaydi*” gapi aytilishi kerak. Biroq, birinchi gap, ya’ni “*Ey to‘xtang, voy esim qursin, bu o‘ris zamonida urf-odatlarimiz ham esdan chiqib ketyapti*” qismi sahna talqinidan tushirilgan. E’tiborga molik joyi shundaki, urf-odatlarning esdan chiqishiga “*o‘ris zamoni*” matnda alohida ta’kidlangan bo‘lib, sahnada tilga olinmaydi. Bu esa o‘z navbatida, aynan, “*o‘ris zamoni*” ta’kidlangani uchun ham tushirilganmidi, degan savolni paydo qiladi.

“Chimildiq” folklor-etnografik dramasida folklorizmlarning turli ko‘rinishlari uchraydi. Ular ichida *duo* folklorizmi lingvopoetik jihatdan alohida ahamiyatga ega nutqiy birliklar hisoblanadi. Duolar xalq og‘zaki ijodiga xos muayyan qoliplar asosida tuziladigan nutq shaklidir. Duo folklorizmi tuzilish jihatidan ko‘p qatlamli bo‘lib, an’anaviylik, marosimlarga xoslanganlik, barqarorlik xususiyatlariga ega nutq hisoblanadi. Badiiy matnda qo‘llanilganda vazifa jihatidan, jamiyatdagi axloqiy me’yor, kolektiv ong va qadriyatlarga e’tibor qaratish, diniy-ijtimoiy birdamlikni ta’kidlash hamda matnning lingvopoetik qatlamdorligini oshirish maqsad qilingan

bo‘ladi. “Chimildiq” spektakli tilida ham duolar kommunikativ, ritual-performativ, ijtimoiy-axloqiy funksiyalarda qo‘llanilgan bo‘lib, lingvopoetik jihatdan alohida tadqiqot olib borishni talab qiladi.

Asardagi checha (momo) nutqida duo folklorizmidan bir necha maqsadlarda foydalanilgan. Bunday ritual nutq semantikasida “ezgu tilaklar tilash”, “ilohiy olam bilan ruhiy aloqa o‘rnatish”, “himoya maydonini hosil qilish” kabilar yetakchilik qiladi. Duolar shu kabi ma’nolar asosida shakllanganligi uchun ularning shakliy tuzilishi ham barqaror holga kelgan. Biz tadqiqotimizda lingvotransformatsiyani asos matn va sahna talqini o‘rtasidagi aloqadorlik doirasida ko‘rib chiqyapmiz. Bu jihatdan qaralganda ham jiddiy transformatsion holatlar majudligi kuzatildi. Masalan, matndagi “Omin, qo‘shgani bilan qo‘sha qarib, uvali-juvali bo‘lishsin” gapi ijroda “Qani iloho omin, qo‘shgani bilan qo‘sha qarib, uvali juvali, serfarzand serdavlat bo‘lishsin, qadamalari tekkan joy gulu nurga to‘lsin, rizqlari hamisha butun bo‘lsin” tarzida o‘zgartirilgan. Semantik jihatdan matndagi duo nutqi saqlangan, struktur jihatdan ham bir qadar saqlangan, biroq og‘zaki nutqda faol qo‘llanadigan duo qoliplaridan ham erkin foydalanilgan. Natijada duo nutqining musiqiyligi oshgan, ta’sirchanlik kuchaygan va ijro bilan bog‘liq “kommunikativ bo‘shliq” o‘rni xalqona iboralar bilan to‘ldirilgan.

“Chimildiq” asari matnida folklorizmlar ritual-etnografik va ramzlar majmui sifatida namoyon bo‘ladi. Shu tarzda asar lingvopoetik tadqiqotlar uchun ahamiyatli manbaga aylangan. Matndagi olqish-duolar, hazil-mutoyibalar, jest-mimikalar, dekoratsiyadagi bezaklar, aktyor va aktrisalarning milliy-marosim liboslari va boshqa omillar lingvopoetik jihatdan tadqiq qilishga arzirli materiallar hisoblanadi. Avvalo, asar nomining o‘zi etnografizm sifatida e’tiborni jalb qiladi. Asarning markaziy ob’ekti bo‘lgan chimildiqning sahna o‘rtasiga o‘rnatilishi ham juda muhim yechim sanaladi. U shunchaki bir makonni ifodalovchi unsur emas, balki sakral makon, ya’ni nikohning muqaddas ekanligini ta’kidlash va yangi hayot bosqichiga o‘tish ramzi hisoblanadi. Quyidagi parchada ayni ma’no nihoyatda ta’sirchan tarzda ifodalangan:

“- Otam orzu-umidlarimni o‘ldirib, chimildiq deb atalmish qafasga tiqib qo‘ydilar!

- Hay-hay, chimildiq qafas emas, muqaddas joy, bolam!

- Qafas! Uyga qaytib borib otamning boshini xam qilaman!

- Kapalagimni uchirma, otangning boshini xam qilib, baxtli bo‘lolmaysan. Chimildiqqa xiyonat qilib, qochib, armon bilan yurganlar chimildiq ko‘rmay, nikohsiz farzand ko‘rib, uzoqlarda yurganlarning taqdiriga havas qilma!”

Dialogdan ma’lum bo‘ladiki, chimildiq ramziy ma’nolarni o‘zida mujassam qilgan ikki qutbli obraz sifatida tasvirlangan. Kelin uchun “qafas, cheklov, jazo” bo‘lgan bu makon momo uchun “muqaddas va shu bois muhokama qilish mumkin bo‘lmagan kollektiv ong mahsli.” Unga xiyonat qilganlar umr bo‘yi armon va afsusda hayot kechiradilar. Momo nutqidagi quyidagi jumlalar ham chimildiqning muqaddas maskan sifatida talqin qilinganligini dalillaydi: “Xayriyat, muqaddas chimildiqqa, urf-odatimizga xiyonat qilishmadi. Yaratganning buyurgani bilan bino bo‘lgan uya buzilmadi.”

Asardagi marosimlar ham folklor-etnografik formulalarga boyligi bilan e’tiborni jalb qiladi. Masalan: “*Urf-odatimizni oxirigacha qilaylik. Nonni kelinningizning qo‘ltig‘iga qistiring, suprangizni yoying, qo‘lingizda 3 marta olib kelinningizga undan tuting. Kelinningizning suprasidan don-dun arimasin! Endi bir dona qandni og‘zingizda kelinngiz kelinngizni og‘ziga tuting*.” Mazkur parchada qaynona-kelinning ilk muloqoti maxsus ritual asosida amalga oshiriladi. Undagi “*Kelinningizning suprasidan don-dun ari*masin!” gapi duo-olqish sintaktik formulalariga muvofiq tarzda shakllantirilgan. Shuningdek, “*Turmushlari novvotday shirin bo‘lsin. Ilohim rizqli-nasibali bo‘lishsin*” olqish-duolari ham semantik jihatdan rizq, baraka va totuvlik konseptlarini ifodalaydi.

“- Tuflab qo‘yinglar, ko‘z tegmasin!

- Tuf-tuf, ko‘z tegmasin!

- Suqlaringiz ham tegmasin!

- Tuf-tuf, suqumiz ham kirmasin!”

Ayollar nutqidagi suq-nazar tegmasin mazmunida “tuf-tuf”lash folklor-etnografik formulasi ham “himoya magyasi”ni yaratish, “yomonliklardan muhofaza qilish” maqsadini ifodalovchi verbal-ritual akt hisoblanadi. Bunday vazifaga

xoslangan formulalar folklorshunoslikda apotropey (yun. apotropaios - “qaytaruvchi”, “baloni daf etuvchi”) termini bilan izohlanadi. Mazkur ifodalar asarning sahna talqinida ayol aktrisalar tomonidan mazmuni saqlangan holda shakliy o‘zgarishlar bilan ijro etilgan.

Asar yakunida 24 misradan iborat “Kelin salom” matni ham berilgan bo‘lib, yakunlovchi funksiyani bajaradi.

Xashladig-u, xashladik,

O‘rtaga gilam tashladik.

Qabul aylang qudalar,

Kelin salomimni boshladik.

Nikoh marosimi tarkibida aytiladigan, kelinning yangi ijtimoy maqomga o‘tishi, oila a’zolariga ehtirom ko‘rsatishi kabi ma’nolarni ifodalovchi mazkur aytim ham sahna talqinida aktrisalarning improvizatsiyasi asosida muayyan transformatsiyalarga uchragan holda ijro etilgan.

Bu holatni asar matniga xiyonat deb baholab bo‘lmaydi. Agar tarixiy voqelik qalamga olingan asar bo‘lganida edi, matnga sodiq qolishni talab qilish mumkindir. Biroq, xalqona mavzudagi, folklor-etnografik materiallarga boy asarga aktyorlar ham o‘z tajribasi,saviyasi va mahoratiga ko‘ra dahl qilishlari mumkin bo‘ladi. Bunda sahna ijrosidagi vaqt oralig‘ida “kommunikativ bo‘shliq” yuzaga kelmasligi, hududiy xosliklarni neytrallashtirish, nutq uslubini asar voqeligiga moslashtirish kabi bir qator omillarga alohida e’tibor beriladi.

“Chimildiq” dramasidagi folklorizmlar lisoniy jihatdan milliy-madaniy kodni ifodalasa, marosim nuqtayi nazaridan o‘tish ritualini, semiotik jihatdan esa taqdir, hayotning davomiyligi, oila, himoya, baraka kabi konseptlar tizimini ramziylik asosida ifodalaydi. Shu bois, mazkur asardagi folklorizmlar oddiy etnografik ma’lumotlar emas, balki asar badiiyatini ta’minlovchi lingvopoetik vositadir.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, folklorizm atamasi lingvopoetik tadqiqotlarda badiiy matn tarkibiga kiritilgan xalq og‘zaki ijodiga xos barqaror va yaxlit birliklarni izohlash uchun ishlatiladi. Mazkur birliklar matnda milliy-madaniy kodni faollashtirish, jonli nutq koloritini yaratish, ekspressivlikni kuchaytirish va personaj

nutqini individuallashtirish vazifasini bajaradi. Qo‘shiq, lapar, latifa, maqol-matal, aforizm hamda milliy o‘yin shakllari muayyan badiiy-estetik maqsad asosida qo‘llanilib, asarning intertekstualligini ta’minlaydi. Shu tarzda folklorizmlar matnning semantik qatlamini boyituvchi va milliy-madaniy xotira bilan bog‘lovchi muhim lingvopoetik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmedova A. Cho‘lpon asarlarida intertekstuallik // O‘zbek tilini dunyo miqyosida keng targ‘ib qilish bo‘yicha hamkorlik istiqbollari mavzusidagi xalqaro ilmiy- amaliy anjuman materiallari. – Toshkent. 2020.

2. Ergashova B. Lingvokulturologiya – til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi // Xorijiy filologiya: til, adabiyot, ta’lim ilmiy- uslubiy jurnal. – Samarqand. 2022.

3. Fayzullayeva M. Diniy markerlangan allyuziya va uning turlar. Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, https://journal.fledu.uz. 2020.

4. Israilova S. Ranglarning etnolingvistik va milliy-madaniy xususiyatlari // O‘zbekiston Til va madaniyat. Lingvistika. – Toshkent. 2022 Vol 3 (1) www.uzlc.navoiy-uni.uz

5. Jo‘rayeva M. Tohir Malik hikoyalarida intermatnlarning ahamiyati. Educational Research in Universal Sciences https://t.me/Erus_uz Multidisciplinary Scientific Journal, 2023. .

6. Mahmudov N. Toil tilsimi tadqiqi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2017.

7. Mahmudov N. Olamning lisoniy manzarasi va so‘z o‘zlashtirish// O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2015.

8. Xudoyberganova D. Til. Tafakkur. Madaniyat. Ilmiy risola. –Toshkent: Nodirabegim, 2020.

9. Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2007.

10. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент, 2019.

TIL VA FALSAFANING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

Nazarov Nurali Normirzayevich

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti professori,

falsafa fanlari nomzodi

Annotatsiya: maqolada til va falsafaning azal-azaldan uzviy bog‘liqligi, tilning inson tafakkuri, ongi va borliqni anglash jarayonidagi o‘rni falsafiy jihatdan ochib berildi. Shuningdek, tilning mohiyati, til falsafasi, ma’no va mazmun munosabati, so‘z va narsa o‘rtasidagi bog‘liqlik, nutq va tafakkur uyg‘unligi tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: *til, falsafa, til va tafakkur, borliqni anglash tushunish va tushuntirish, tilning so‘z va ma’no bilantmunosabati, tilni mantiq bilan chambarchas bog‘liqligi, tushuncha, hukm va xulosa.*

Kirish. Insoniyat paydo bo‘libdiki, uning ma’naviy taraqqiyotida til va falsafaning o‘zaro uyg‘unligi juda katta ahamiyat kasb etadi.Tabiatdagi mavjud mavjudotlar orasida inson o‘zining yuksak ongi tafakkuri hamda tafakkur qilganini til vositasida aniq va tushunarli qilib ifoda etishi bilan ajralib turadi. Tilning falsafiy mohiyati faqatgina muloqot qilish jarayonidagina emas, shuningdek borliqni anglash tushunish va tushuntirish jarayonida ham namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Inson fikrlaydi belgilar tizimi bo‘lgan til orqali boshqalar bilan muloqat qiladi. Natijada yangi bilimlar paydo bo‘ladi. Falsafiy jihatdan tilning so‘z va ma’no munosabati, til va reallik o‘rtasidagi bog‘liqlik, til va tafakkur birligi, til orqali insonning haqiqatni ifoda etish imkoniyati kabi jihatlari o‘rganiladi va tahlil qilinadi. Antik davr faylasufi Platon o‘zining “Kratil” **[1]** asarini falsafiy dialog usulida yozgan bo‘lib, unda so‘zlar tabiatan paydo bo‘lganmi yoki kelishuv natijasimi degan savolni o‘rtaga tashlagan. Bugungi kunda ham ushbu savol faylasuflar o‘rtasida o‘z yechimini topmagan masalalardan biri bo‘lib turibdi. Yana bir antik davr faylasufi Aristotel tilni tafakkurning shakliy ifodasi deb hisoblagan. U tilni mantiq bilan chambarchas bog‘lab, tushuncha, xukm va xulosalarni falsafiy jihatdan tahlil qilgan. **[2]** Rimlik stoik faylasuflar vakili davlat arbobi va dramaturg Lutsiy Aney Senikaning ta’kidlashicha, so‘z faqatgina tasvirlash uchun emas, balki, aqlning

shakliy hamda tartiblangan ifodasidir. Shuningdek, til fikrni aniq va ta’sirli yetkazish vositasi hamdir. Uning fikricha, so‘z kishilarning ruhiy holatlarini, ma’naviy dunyolarini aks ettiradi. Insonning maqsadli va estetik did bilan amalga oshiradigan nutqi uning ahloqiy va falsafiy olamini ochib beradi. **[3]**

G‘arb faylasuflari kabi Sharq mutafakkirlari ham til va ma’no muammosiga katta e’tibor qaratganlar. O‘zining **“**Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi**”** (arabcha *“Ihso al-ulum”),* Harflar kitobi, (**“**Kitob al-Huruf**”),** “Kitob al-Qiyos”, “Kitob al-Ibora” asarlarida Abu Nasr Forobiy til va mantiq o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni, til kishilik jamiyati shakllanishi va ilm-fan taraqqiyotining asosiy omili ekanligini ko‘rsatib bergan. Til inson fikrini ifoda etishi bilan birgalikda, u simvollar tizimi bo‘lib, unda fikr va ma’noni bildiruvchi so‘zlar va iboralarning tartib va mantiq qoidalari borligini a’lohida ta’kidlagan. Forobiy tilning fikrni ifoda etishdagi ahamiyatini falsafiy tahlil qilib, jamoaviy muloqot va ilm tarqatishdagi muhim jihatlarini ham yoritib bergan. Abu Rayhon Beruniy arab, fors, turkiy tillar va sanskrit tillarini juda yaxshi bilgan. Ularni o‘zaro leksikasi va grammatikasi solishtirgan. Nafaqat solishtirgan balki, ulardagi so‘zlarning tamalidan (ildizidan) chiqishi va turli shakllarini ochib bergan. Beruniy tillarni o‘rganishning eng ma’qul yo‘li “tarjima qilish orqali” amalga oshadi deb hisoblagan.**[4-5]**

Alisher Navoiy turkiy tilda **“**Xamsa**”**, “Hazoyin ul-maoniy”, ustozlari xotirasiga “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”**,** “Holoti Pahlavon Muhammad”**,** “Xamsat al-mutahayyirin” (“Besh hayrat”) kabi asarlarini, fors tilida 12 ming misradan oshiq she’r, muammo janri haqida “Mufradot” risolasini, “Sittayi Zaruriyya”**,** “Fusuli Arba’a” kabi turkum qissalarini, “Foniy” taxallusi bilan alohida devon yozadi. Har ikki til mohiyati va mazmunini yaxshi bilgan Alisher Navoiy turkiy va fors tillari leksika va morfologiyasini qiyosiy tahlil qilib, “Muhokamat al-lug‘atayn” asarida o‘zining butun ijodiy yo‘lini sarhisob qilib, turkiy tilidagi she’riyatning qudratini alohida ta’kidlagan. **[6]**

Antik davr g‘arb va o‘rta asrlar Sharq faylasuflarining til bilan bog‘liq ilmiy izlanishlari XVIII–XIX asrlarda ham faylasuflar tomonidan yanada chuqur o‘rganila boshlandi. Vilxilm von Gumboldt 1830-1835 yillarda yozilgan “Insoniyat tili

qurilishining rang-barangligi va uning bashariyat ruhiy taraqqiyotiga ta’siri” nomli asarida **[7-8]** tilni xalq ruhiyati va dunyoqarashining ifodasi deb ta’riflagan. Uning nazariyasiga ko‘ra, har bir millat dunyoni o‘z tili orqali ko‘radi va anglaydi. XX asrda til falsafasi alohida yo‘nalish sifatida shakllandi. Avstriyalik faylasuf Lyudvig Vetgenshteyn tilning ma’nosi uning qo‘llanilishida ekanini ta’kidlagan. Uning “Tractatus Logico-Philosophicus” asarida til va dunyo o‘rtasidagi mantiqiy muvofiqlik masalasi yoritilgan. **[9]** “Philosophical Investigations” asarida esa u “til o‘yinlari” g‘oyasini ilgari surgan. Bu g‘oyaga ko‘ra, til ma’nosi uning hayotiy qo‘llanish sharoitiga bog‘liq. Til inson ongini shakllantiradi, dunyoqarashini belgilaydi va madaniyatni saqlab qoladi. Milliy til – milliy o‘zlikning asosiy belgisidir. Shu ma’noda til faqat lisoniy emas, balki ijtimoiy va madaniy hodisadir. Inson ongi borliqni aks ettiradi. Ammo, bu aks ettirish bevosita emas, balki til orqali amalga oshadi. Inson narsalarga nom beradi, ularni tushunchalar orqali ifoda etadi va shu tariqa dunyoni anglaydi. Til tafakkurning moddiy shakli sifatida namoyon bo‘ladi.

Jadidchilik namoyondalaridan biri yangi usul maktablari orqali tilni rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan Behbudiy 1918-yilda til masalasini yangi ma’murlar oldiga qo‘yib, Turkistonda turkiy tillar ichida o‘ziga xos nufuzga ega bo‘lgan o‘zbek tili davlat tili sifatida tan olinishini taklif qiladi. Tabiiyki bu masala o‘sha davrda salbiy yakun topadi. Behbudiy ta’lim jarayonida sodda va tushunarli tildan foydalanib, o‘qitiladigan fan darsliklarni milliy ruhda yaratib, farzandlarimizga ona tilimizda bilim berishimiz kerak degan g‘oyani ilgari suradi. U til nafaqat muloqot vositasi shuningdek, milliy uyg‘onish quroli, ma’rifat tarqatish vositasi, jamiyatni isloh qilish omili ekanligini ta’kidlab, tilni matbuot orqali isloh qilish g‘oyasini ilgari surgan. **[10]**

1901- yilda “Olti tilli lug‘at”(“Lug‘at sitta as-sina”- arab, fors, hind, turk, o‘zbek va rus) tuzgan Is’hoqxon to‘ra Ibratning “Bizning yoshlar, albatta, boshqa tillarni bilish uchun sa’y-harakat qilsinlar, lekin avval o‘z ona tilini ko‘zlariga to‘tiyo qilib, ehtirom ko‘rsatsinlar. Zero, o‘z tiliga sadoqat bu – vataniy ishdir” degan fikrilari bugungi global taraqqiyotning ba’zi tillarning rivoji boshqalarining tanazzuliga ta’siri oshgan bir davrda yanada qadrlidir. **[11]**

Yana bir jadidchi harakatining yirik namoyondasi Abdulla Avloniy “Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurg‘on oyinai hayoti — til va adabiyotidur”, til millatning mavjudligi va mustaqilligining belgisidur. Agar millat o‘z tilini yo‘qotsa, u o‘zligini ham yo‘qotadi. Shuning uchun u ona tilini asrash va rivojlantirishni muqaddas burch deb hisoblagan. Abdulla Avloniy muallim va ma’rifatparvar sifatida til masalasiga alohida e’tibor qaratib, tilni millatning ruhi, ma’naviyati va taraqqiyotining asosi bilgan. “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida “Milliy tilni yo‘qotmak – millatning ruhini yo‘qotmakdur”, -deya til inson axloqini shakllantirishini, tilni buzilishi oxir oqibat millat ma’naviyatiga zarar yetkazishini ta’kidlagan. **[12]**

Hozirgi zamon faylasuflarining fikricha, til falsafasi semiotika, strukturalizm, germenevtika kabi yo‘nalishlar bilan bog‘liq holda rivojlanmoqda. Til ma’no yaratish mexanizmi sifatida o‘rganilmoqda. Zamonaviy qarashlarda til bu – belgilar tizimi, muloqot vositasi va ijtimoiy amaliyot birligi sifatida tushunilmoqda. Falsafiy nuqtai-nazardan qaraganda, fikr va til o‘zaro bog‘liq, lekin ayni bir narsa emas. Fikr ichki jarayon bo‘lsa, til uning tashqi ifodasidir. Biroq fikr tilsiz shakllana olmaydi. Shu jihatdan til tafakkurning shakllanish shartidir.

Xulosa qilsak, o‘rganishlarimiz natijasida ta’kidlashimiz mumkinki, til va falsafa o‘rtasidagi munosabat azal-azaldan bir-biri bilan juda chuqur bog‘langan va bir-birini to‘ldiruvchi va boyituvchi serqirra jarayondir. Fikrning shaklini til bilan ifoda etsak, fikrning mazmunini falsafiy jihatdan tahlil qilamiz Tilni o‘rganish bu nafaqat lingvistik, balki, falsafiy ahamiyatga ham ega bo‘lgan tarixiy jarayondir. Falsafa tilsiz mavjud bo‘la olmaydi, o‘z o‘rnida falsafa tilning tabiati, ma’noning shakllanishi, so‘z va borliq o‘rtasidagi munosabatlarni ochib beradi. Falsafiy yondashuv orqali til faqat muloqot vositasi emas, balki, inson dunyoqarashi va madaniyatini shakllantiruvchi asosiy omil ekani namoyon bo‘ladi. Har qanday falsafiy g‘oya, tushuncha va nazariya til orqali shakllanadi va ifoda etiladi. Inson o‘z fikrini aniq va tizimli bayon etishi uchun til asosiy vosita ekanligini, shuning uchun ham ona tilimizni avaylab-asrash va uni boyitib borishimiz lozimligini unutmasligimiz kerak**.**

Foydalanilgan adabıyotlar:

1. Платон. Кратил. Strelbytskyy Multimedia Publishing, 2017/ ISBN 3961890003X 396189003X. 9783961890033 9783961890033

2. Аристотель. Риторика. Поэтика. М.: Лабиринт, 2005. С.5–165.

3. Seneka Lutsiy Anney Tragedii. Azbuka-Atticus;ABC 2022 p.448

4. Абу Райҳон Беруний. “Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар”. Танланган асарлар. I жилд.

5. Абу Райҳон Беруний. “Ҳиндистон”. Танланган асарлар. I жилд

6. Алишер Навоий. “Муҳокамат ул-луғатайн” Тафаккур Нашриёти, 2014 йил. – 144 бет.

7. Wilhelm von Humboldt. (1907). Gesammelte Schriften. Band VII. Erste Abteilung: Werke VII. Erste Hälfte. Berlin, B. Behr´s Verlag.

8. Гумбольдт В. (1984). Избранные труды по языкознанию. Москва

9. Ludwig Wittgenstein. Tractatus Logico-philosophicus Harcourt, Brace, Incorporated, 1922 p.189 ISBN 1989708684, 9781989708682

10. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Тил масаласи *(1915) “Оина” журнали, 1915 йил, 11—12-сонлар. 274—277, 306-311-бетлар.*

11. Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq”. – T.: Yoshlar matbuoti, 2024-yil. -112 bet.

12. Исҳоқхон *Ибрат. Жомеъ ул-хутут.* Наманган: Матбааи Исҳоқия, 1912,. 106-бет

MUSTAQILLIKDAN KEYINGI O‘ZBEK SIYOSIY DISKURSIDA TIL SIYOSATI VA MILLIY IDENTITET KONSTRUKSIYASI (KRITIK DISKURS TAHLILI ASOSIDA)

Abdukarimova Dilnoza Rahimberdi qizi

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

abdukarimovadilnoza450@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada mustaqillikdan keyingi o‘zbek siyosiy diskursida til siyosatining milliy identitetni shakllantirishdagi o‘rni kritik diskurs tahlili asosida o‘rganiladi. Tadqiqot doirasida normativ-huquqiy hujjatlar, xususan O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili haqida Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qoidalari, shuningdek, Islom Karimov va Shavkat Mirziyoyev nutqlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *siyosiy diskurs, til siyosati, milliy identitet, davlat tili, suverenitet, ideologiya, kritik diskurs tahlili, identitet konstruktsiyasi, mustaqillik davri, siyosiy nutq.*

Mustaqillikdan keyingi davr O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida tub transformatsiyalar davri sifatida namoyon bo‘ldi. Siyosiy tizimning yangilanishi, davlat suverenitetining mustahkamlanishi va milliy davlatchilik konsepsiyasining shakllanishi jarayonida til siyosati alohida strategik ahamiyat kasb etdi. Davlat tilining maqomini belgilash, uning huquqiy asoslarini mustahkamlash va ijtimoiy hayotdagi funksional imkoniyatlarini kengaytirish jarayoni siyosiy diskursda milliy identitetni qurish mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo‘ldi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili haqida Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi til masalasini davlat suvereniteti, milliy birlik va tarixiy davomiylik konseptlari bilan bog‘laydi.

Zamonaviy siyosiy lingvistika va diskurs tadqiqotlarida til siyosati faqatgina normativ-huquqiy jarayon sifatida, balki ideologik konstruksiya sifatida ham talqin etiladi. Siyosiy nutq orqali tilga berilgan ma’no, uning ramziy maqomi va funksional yuklamasi milliy o‘zlikni shakllantirish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Mustaqillikdan keyingi davrda siyosiy liderlar nutqida davlat tili milliy tiklanish, ma’naviy meros, davlat mustaqilligi va “Yangi O‘zbekiston” kabi konseptlar bilan bog‘langan holda talqin qilinmoqda. Xususan, Islom Karimov va Shavkat Mirziyoyev nutqlarida til masalasi turli davrlarda turlicha ideologik urg‘u bilan ifodalanganligi kuzatiladi. Shu jihatdan til siyosati siyosiy legitimatsiya va identitet konstruktsiyasi vositasi sifatida alohida ilmiy tahlilni talab qiladi.

Biroq mavjud tadqiqotlarda til siyosati asosan huquqiy yoki sotsiologik jihatdan o‘rganilgan bo‘lib, uning siyosiy diskurs doirasida milliy identitetni shakllantirish mexanizmi sifatidagi roli yetarlicha ochib berilmagan. Ayniqsa, mustaqillikdan keyingi ikki siyosiy davr diskursini qiyosiy tahlil qilish orqali til

konseptining ideologik transformatsiyasini aniqlash masalasi alohida ilmiy muammo sifatida dolzarblik kasb etadi.

Shu jihatdan mazkur tadqiqot (maqola)mizning maqsadi sifatida *mustaqillikdan keyingi o‘zbek siyosiy diskursida til siyosati orqali milliy identitetning qanday diskursiv mexanizmlar asosida konstruksiya qilinishini aniqlash* va *uning transformatsion xususiyatlarini kritik diskurs tahlili asosida ochib berish* sifatida tanlab oldik.

Til siyosati va siyosiy diskurs o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik zamonaviy ijtimoiy-gumanitar tadqiqotlarda kompleks yondashuvni talab etadi. Xalqaro ilmiy adabiyotlarda siyosiy diskursni ijtimoiy hokimiyat, ideologiya va identitet konstruktsiyasi bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilish an’anasi shakllangan. Xususan, Norman Fairclough tomonidan ishlab chiqilgan kritik diskurs tahlili (KDT) modeli[1] diskursni nafaqat lingvistik hodisa, balki ijtimoiy amaliyot shakli sifatida talqin etadi. Faircloughga ko‘ra, diskurs ijtimoiy munosabatlarni qayta ishlab chiqaradi va legitimlashtiradi; shu bois siyosiy matnlar hokimiyat strukturalari hamda ideologik ustuvorliklarni mustahkamlash mexanizmi sifatida ko‘rib chiqilishi lozim.

Teun A. van Dijk siyosiy diskursni kognitiv va ideologik tuzilmalar bilan bog‘liq holda o‘rganadi. U ideologiyalarni ijtimoiy guruhlar ongida shakllanadigan kollektiv tasavvurlar tizimi sifatida talqin qiladi va siyosiy nutqda “biz” va “ular” qarama-qarshiligi, ijobiy o‘zini taqdim etish hamda boshqani salbiy konnotatsiyada ifodalash strategiyalari orqali milliy identitet konstruktsiyasi yuz berishini asoslaydi[2]. Mazkur nazariya til siyosatini davlat suvereniteti va milliy birlikni legitimlashtirish vositasi sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Mahalliy ilmiy maktab doirasida til va ijtimoiy tafakkur munosabatlari alohida o‘rganilgan. Sh.Safarov pragmalingvistika nuqtai nazaridan til birliklarining kommunikativ vazifasi va kontekstual ma’nosini tahlil qilib, diskursning ijtimoiy shartlanganligini asoslaydi [3]. Bu yondashuv siyosiy nutqda tilning ramziy va pragmatik yuklamasini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Tilshunos olim N.Mahmudov tilni milliy tafakkur va madaniy identitet bilan bog‘liq fenomen sifatida ko‘rib, davlat tilining jamiyat ma’naviy hayotidagi o‘rnini

konseptual asosda izohlaydi [4]. Uning tadqiqotlari til siyosatini milliy davlatchilik konsepsiyasi bilan uzviy bog‘lash imkonini beradi.

O‘zbek adabiyotshunosligi va ma’naviyat masalalari bo‘yicha taniqli olim Boqijon To‘xliyev esa mustaqillik davrida til va ma’naviyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilib, davlat tili masalasining ideologik ahamiyat kasb etganini ilmiy asoslaydi[5]. Unga ko‘ra, til milliy o‘zlikni ifodalovchi ramziy kapital sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqotda asosiy metod sifatida Norman Faircloughning uch bosqichli kritik diskurs tahlili modelini qo‘llashni joiz deb topdik. Mazkur model doirasida tahlil quyidagi darajalarda amalga oshiriladi:

Matn darajasi – siyosiy nutqlarda qo‘llanilgan leksik birliklar, metaforalar, semantik takrorlar va konseptual klasterlar aniqlanadi.

Diskursiv amaliyot darajasi – matnning yaratilish sharoiti, siyosiy kontekst va auditoriyaga yo‘naltirilganlik xususiyatlari o‘rganiladi.

Ijtimoiy amaliyot darajasi – diskursning ideologik funksiyasi va uning milliy identitet konstruktsiyasidagi roli tahlil qilinadi.

Qo‘shimcha ravishda van Dijkning ideologik diskurs nazariyasi asosida siyosiy nutqda identitetni shakllantiruvchi strategiyalar (inklyuziya, kollektivlik konstruksiyasi, legitimatsiya) aniqlanadi[2].

Empirik material sifatida mustaqillikdan keyingi davrga oid normativ-huquqiy hujjatlar hamda davlat rahbarlarining rasmiy nutqlari tanlab oldik. Tanlov mezonlari quyidagilardan iborat:

davlat tili masalasiga bevosita murojaat qilgan nutqlar;

konstitutsiyaviy yoki ma’naviy-ma’rifiy mazmundagi rasmiy chiqishlar;

tilni milliy birlik yoki suverenitet bilan bog‘lovchi diskursiv fragmentlar.

Mazkur tadqiqotda qo‘llanilgan kritik diskurs tahlili modeli asosida siyosiy nutqlar uch darajada — matn, diskursiv amaliyot va ijtimoiy amaliyot kesimida o‘rganildi. Adabiyotlar tahlilida qayd etilganidek, diskurs ijtimoiy hokimiyat va ideologiya bilan uzviy bog‘liq fenomen sifatida qaraladi hamda milliy identitetni shakllantirish mexanizmlarini ochib berishga xizmat qiladi. Shu metodologik

yondashuv asosida aniqlanishicha, mustaqillikdan keyingi o‘zbek siyosiy diskursida til siyosati konsepti mazmunan bosqichma-bosqich transformatsiyaga uchragan. Dastlabki davr nutqlarida davlat tili asosan suverenitet va milliy mustaqillik ramzi sifatida talqin qilingan bo‘lsa, keyingi bosqichlarda uning ideologik yuklamasi kengayib borgan.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, **birinchi bosqich**da til konsepti siyosiy legitimatsiyaning markaziy elementi sifatida namoyon bo‘lgan. Diskursiv birliklar orasida *“milliy tiklanish”, “o‘zlikni anglash”, “davlat mustaqilligi”* kabi semantik klasterlar ustuvorlik kasb etadi. Bu davrda til milliy davlatchilikning ramziy asosi sifatida ifodalanadi va davlat suverenitetini mustahkamlovchi ideologik vosita vazifasini bajaradi.

Ikkinchi bosqichda til siyosati diskursining funksional doirasi kengayganligi kuzatiladi. Nutqlarda til *“xalqni birlashtiruvchi omil”, “milliy qadriyatlar tayanchi”* sifatida talqin qilinadi. Kollektivlik konstruksiyasi *(“bizning tilimiz”, “umumxalq qadriyati”)* kuchayib, tarixiy davomiylik g‘oyasi bilan bog‘lanadi. Bu esa tilni ijtimoiy konsolidatsiya va ma’naviy integratsiya mexanizmi sifatida namoyon etadi.

Uchinchi bosqichda esa til siyosati diskursida modernizatsion komponent kuchaygan. Davlat tili global integratsiya, raqamli rivojlanish va ko‘p tillilik sharoitida milliy manfaatlarni himoya qiluvchi strategik resurs sifatida talqin qilinadi. Til endilikda nafaqat tarixiy meros yoki birlik timsoli, balki taraqqiyotning amaliy instrumenti sifatida ifodalanadi.

Tahlil mezoni	**I-bosqich (mustaqillikning dastlabki yillari)**	**II-bosqich (institutsional mustahkamlanish)**	**III-bosqich (modernizatsiya davri)**
Til konseptining asosiy talqini	Suverenitet ramzi	Milliy birlik va ma’naviy tayanch	Taraqqiyot va global integratsiya instrumenti
Diskursiv markaz	Mustaqillik, milliy tiklanish	Birlik, tarixiy davomiylik	Modernizatsiya, raqamli rivojlanish
Identitet konstruktsiyasi usuli	Davlat markazli legitimatsiya	Xalq markazli kollektivlik	Rivojlanayotgan millat modeli
Ideologik funksiyasi	Siyosiy mustaqillikni	Ijtimoiy konsolidatsiyani	Milliy manfaatni global maydonda

	asoslash	kuchaytirish	himoya qilish
Tilning ramziy maqomi	Davlat ramzi	Ma’naviy qadriyat	Strategik resurs

1-jadval. Mustaqillikdan keyingi o‘zbek siyosiy diskursida til siyosati konseptining bosqichma-bosqich transformatsiyasi

Muallifning tahliliga ko‘ra, ushbu transformatsiya siyosiy diskursning ijtimoiy ehtiyojlarga mos ravishda yangilanib borishini ko‘rsatadi. Til konsepti barcha bosqichlarda milliy identitet konstruktsiyasining markaziy elementi bo‘lib qolgan bo‘lsa-da, uning ideologik funksiyasi davrga qarab o‘zgarib borgan. Shunday qilib, til siyosati siyosiy diskursda suverenitetni legitimlashtirishdan boshlab, ijtimoiy birlikni mustahkamlash va modernizatsiyani asoslashgacha bo‘lgan murakkab ideologik evolyutsiyani boshdan kechirgan.

Olingan natijalar kritik diskurs tahlili nazariy asoslari bilan qiyoslanganda, mustaqillikdan keyingi o‘zbek siyosiy diskursida til siyosati milliy identitetni konstruksiya qilishning markaziy mexanizmi sifatida namoyon bo‘lishi tasdiqlanadi. Diskursning ijtimoiy amaliyot sifatidagi talqini shuni ko‘rsatadiki, davlat tili konsepti har bir siyosiy bosqichda muayyan ideologik vazifani bajarib kelgan: dastlab u suverenitet va mustaqillikni legitimlashtirish vositasi bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik ijtimoiy konsolidatsiya va ma’naviy birlikni mustahkamlashga xizmat qilgan, zamonaviy bosqichda esa modernizatsiya va global integratsiya jarayonlarida milliy manfaatni himoya qiluvchi strategik resurs sifatida talqin qilinmoqda. Bu transformatsiya siyosiy diskursning dinamik tabiatini, ya’ni ijtimoiy-siyosiy ehtiyojlarga mos ravishda ideologik mazmunini yangilab borish xususiyatini namoyish etadi. Shu bilan birga, barcha bosqichlarda til konsepti “biz” kollektiv identitetini shakllantirishning asosiy ramziy tayanchi sifatida saqlanib qolganligi aniqlanadi; bu esa siyosiy legitimatsiya jarayonida tilning nafaqat kommunikativ, balki ideologik va strategik funksiyaga ega ekanini ko‘rsatadi. Demak, til siyosati siyosiy diskursda oddiy normativ masala emas, balki hokimiyat, identitet va ijtimoiy birlikni qayta ishlab chiqaruvchi kompleks diskursiv konstruktsiya sifatida amal qiladi.

Tadqiqot natijalari mustaqillikdan keyingi o‘zbek siyosiy diskursida til siyosati milliy identitetni shakllantirish va legitimlashtirishning markaziy vositasi sifatida namoyon bo‘lganini ko‘rsatdi. Diskursiv tahlil shuni aniqladiki, davlat tili konsepti turli siyosiy bosqichlarda suverenitetni asoslash, ijtimoiy birlikni mustahkamlash hamda modernizatsiya jarayonlarini ideologik jihatdan qo‘llab-quvvatlash funksiyalarini bajargan. Tilga yuklangan ma’no davrlar davomida transformatsiyaga uchragan bo‘lsa-da, u barcha bosqichlarda kollektiv “biz” identitetini konstruksiya qilishning ramziy tayanchi sifatida saqlanib qolgan.

Shu tariqa, til siyosati siyosiy diskursda normativ-huquqiy masala bilan cheklanmay, hokimiyat, identitet va ijtimoiy konsolidatsiya o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalovchi strategik diskursiv mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Fairclough, N. (1995). Critical Discourse Analysis: The Critical Study of Language. London & New York: Longman.

2. Van Dijk, T. A. (1998). Ideology: A Multidisciplinary Approach. London: Sage Publications.

3. M.I.Khujanova. “Tilshunoslikda siyosiy-ijtimoiy diskursning ilmiy-nazariy asoslari”. Inter education global study. *Ilmiy-nazaiy va metodik jurnal.* ISSN 2992-9024 (online), 2025 (2). 297-303-betlar.

4. M.O.Ubaydullayeva. “Siyosiy diskurs dunyoning konseptual tasviri sifatida”. “Oriental Art and Culture” Scientific-Methodical Journal Volume 3 Issue 1/March 2022. 750-753-betlar.

5. R.O‘.Ro‘ziyev. “Tilshunoslikda siyosiy diskurs tushunchasi”. Oriental Renaissance: innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 1 | ISSUE 2 ISSN 2181-1784. 229-233-betlar.

6. D.R.Turgunpolatov. “Agitatsion nutqning lingvistik ekspertizasi va ta’sir strategiyalarini tahlil qilish”, “Jismoniy tarbiya tizimini rivojlantirishning dolzarb muammolari va istiqboldagi yechimlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 2025. 812-816-betlar.

7. D.R.Turgunpolatov. “Jamoatchilik diskursi ekspertizasi: ommaviy nutqda manipulyativ til vositalarini aniqlash”, “Yangi O‘zbekistonda filologik ta’limning dolzarb muammolari, yechimlari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 2025. 594-600-betlar.

8. M.Rasulova. “O‘zbek matbuotida manipulyativ nutq vositalarining lingvistik tahlili”. “Til va adabiyot tadqiqotlari”, (2023). 4(2), 56–65-betlar.

NUTQ AKTLARI NAZARIYASI VA UNING BADIIY MATNDAGI LINGVOPRAGMATIK TALQINI

Djurabekova Yulduz Turdialiyevna

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada nutq aktlari nazariyasining shakllanish bosqichlari, nazariy-metodologik asoslari hamda uning badiiy matn tahlilidagi o‘rni keng ko‘lamda yoritiladi. Lokutiv, illokutiv va perlokutiv aktlar tizimi, illokutiv kuch, kommunikativ maqsad, pragmatik strategiya va nutq vaziyati kategoriyalari izchil tahlil qilinadi. Dialog va monolog nutq shakllarida pragmatik mexanizmlarning namoyon bo‘lishi zamonaviy o‘zbek nasri misolida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari nutq aktlari nazariyasining badiiy matnning subtekstual qatlamini, personaj psixologiyasini va muallif pozitsiyasini ochishda muhim metodologik asos ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *pragmatika, nutq akti, lokutiv akt, illokutiv akt, perlokutiv akt, illokutiv kuch, kommunikativ maqsad, dialog, monolog, lingvopragmatika, subtekst.*

Zamonaviy tilshunoslik taraqqiyoti jarayonida tilni faqat struktur-semantik tizim sifatida emas, balki inson faoliyati, tafakkuri va ijtimoiy munosabatlari bilan uzviy bog‘liq hodisa sifatida o‘rganish zarurati yuzaga keldi. Ana shu ilmiy burilish natijasida pragmatika mustaqil yo‘nalish sifatida shakllandi. Pragmatik yondashuv til birliklarining real nutq jarayonida qanday ishlatilishi, nutq subyektining niyati,

kommunikativ vaziyat, kontekst va tinglovchining reaksiyasi kabi omillarni hisobga olgan holda tahlilni amalga oshiradi. Shu nuqtai nazardan nutq aktlari nazariyasi pragmatikaning markaziy yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. J.Ostinning ta’kidlashicha, inson nutq jarayonida faqat ma’lumot yetkazmaydi, balki muayyan harakatni amalga oshiradi, ya’ni so‘z orqali ish bajaradi[7]. Ushbu fikr tilning funksional va ijtimoiy tabiatini ochishga xizmat qilgan bo‘lib, keyingi lingvistik tadqiqotlar uchun mustahkam nazariy asos bo‘lib xizmat qildi.

Nutq aktlari nazariyasining shakllanishi XX asr falsafiy lingvistikasida yuz bergan tub o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Ostin nutqni uch tarkibiy jihatga ajratib, lokutiv, illokutiv va perlokutiv aktlar tushunchalarini ilmiy muomalaga kiritdi[8]. Lokutiv akt nutqning grammatik va leksik jihatdan shakllangan ifodasini bildiradi. Bunda so‘zlovchi ma’lum til birliklarini qo‘llab, mazmunli gap tuzadi. Illokutiv akt esa nutq orqali bajarilayotgan ijtimoiy harakatni anglatadi. Masalan, buyruq berish, va’da qilish, ogohlantirish yoki minnatdorchilik bildirish kabi harakatlar nutqning illokutiv mohiyatini tashkil etadi. Perlokutiv akt esa nutqning tinglovchi ongida yuzaga keltirgan ta’sirini, ya’ni natijaviy effektini ifodalaydi. Bu tasnif tilni ko‘p qatlamli hodisa sifatida talqin qilish imkonini beradi, chunki nutq bir vaqtning o‘zida shakl, maqsad va ta’sir birliklarining uyg‘unligidan iboratdir.

J.Syorl nutq aktlari nazariyasini rivojlantirib, illokutiv aktlarni funksional mezon asosida tasnif etdi va ularni representativ, direktiv, komissiv, ekspressiv hamda deklarativ turlarga ajratdi[9]. Representativ aktlar voqelik haqida xabar berish yoki tasdiqlashni ifodalasa, direktiv aktlar tinglovchini muayyan harakatga undaydi. Komissiv aktlar so‘zlovchining majburiyat olishiga asoslanadi, ekspressiv aktlar esa hissiy munosabatni ifodalaydi. Deklarativ aktlar esa ijtimoiy yoki huquqiy holatni o‘zgartiruvchi kuchga ega. Mazkur tasnif badiiy matnni lingvopragmatik tahlil qilishda samarali metodologik vosita bo‘lib xizmat qiladi, chunki adabiy asarda personaj nutqi ko‘pincha aynan illokutiv kuch orqali xarakterlanadi.

[7] Остин Дж. Слово как действие. – Москва: Прогресс, 1986. – С. 94.
[8] Остин Дж. Слово как действие. – Москва: Прогресс, 1986. – С. 98-102.
[9] Searle J. R. Speech Acts. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. – P. 23-24.

Illokutiv kuch nutqning funksional yo‘nalishini belgilovchi muhim kategoriya hisoblanadi. Grammatik shakl har doim ham illokutiv maqsad bilan mos kelavermaydi. Masalan, so‘roq shaklidagi gap iltimos yoki kinoya ma’nosini anglatishi mumkin. Levinsonning ta’kidlashicha, nutqning haqiqiy ma’nosi kontekst bilan belgilanadi va illokutiv kuch kommunikativ vaziyat orqali aniqlanadi[10]. Shu bois badiiy matnda nutq aktlarini tahlil qilishda kontekstual omillarni hisobga olish zarur. Kommunikativ maqsad esa nutq subyektining ongli niyati bo‘lib, u mazmunning chuqur qatlamini tashkil etadi. Sh. Safarovning fikriga ko‘ra, nutq ma’nosi faqat semantik struktura bilan cheklanmaydi, balki kommunikativ vaziyat va nutq ishtirokchilarining o‘zaro munosabati bilan belgilanadi[11]. Bu qarash nutq aktlari nazariyasining antropotsentrik mohiyatini ko‘rsatadi.

Badiiy matnda nutq aktlari nafaqat kommunikativ vosita, balki estetik va psixologik ifoda shakli sifatida ham namoyon bo‘ladi. Zamonaviy o‘zbek nasrida dialog va monolog nutq shakllari orqali personajning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari va ijtimoiy munosabatlari ochib beriladi. Masalan, Ulug‘bek Hamdam asarlarida qahramonlarning savol shaklidagi replikalari ko‘pincha norozilik yoki ichki ziddiyatni ifodalaydi. Tashqi ko‘rinishda oddiy savol bo‘lgan nutq birligi illokutiv jihatdan tanqid yoki e’tiroz ma’nosini anglatishi mumkin. Bu holatda perlokutiv ta’sir o‘quvchining tafakkurida yuzaga keladi, chunki u yashirin ma’noni anglash jarayoniga jalb etiladi. Isajon Sulton nasrida esa dramatik dialoglar orqali perlokutiv effekt kuchaytiriladi, natijada o‘quvchida hamdardlik yoki achinish hissi shakllanadi. Bunday misollar nutq aktlari nazariyasining badiiy matn tahlilidagi amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi.

Dialog nutq interaktiv xarakterga ega bo‘lib, unda har bir replika oldingi nutq aktiga javob sifatida yuzaga keladi. Bu jarayonda implikatura va presuppozitsiya kabi pragmatik mexanizmlar muhim rol o‘ynaydi. Dialogdagi yashirin ma’no ko‘pincha to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalanmaydi, balki kontekst orqali anglashiladi. Monolog nutqda esa ichki nutq mexanizmi ustuvor bo‘ladi. Personajning ichki kechinmalari orqali

[10] Levinson S. C. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – P. 112.
[11] Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 45.

illokutiv kuch subtekst shaklida namoyon bo‘ladi. Monolog o‘quvchini qahramonning ichki olamiga yaqinlashtiradi va perlokutiv ta’sirni kuchaytiradi. Shu jihatdan nutq aktlari nazariyasi monolog nutqni psixologik tahlil qilishda ham samarali metod hisoblanadi.

Lingvopragmatik yondashuv asosida olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, nutq aktlari badiiy matnning ko‘p qatlamli tuzilishini ochishda muhim vositadir. Lokutiv qatlam matnning tashqi shaklini tashkil etsa, illokutiv qatlam uning ichki maqsadini, perlokutiv qatlam esa o‘quvchiga ko‘rsatgan ta’sirini ifodalaydi. Ushbu uchlik birlik badiiy asarning kommunikativ samaradorligini ta’minlaydi. Sh. Safarov pragmatik tahlilni badiiy matnning yashirin qatlamini ochishning eng muhim metodlaridan biri sifatida baholaydi[12]. Bu fikr nutq aktlari nazariyasining nazariy va amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, nutq aktlari nazariyasi zamonaviy pragmatikaning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida tilni harakat shaklida talqin qiladi. Lokutiv, illokutiv va perlokutiv aktlar tizimi nutqning shakliy, maqsadli va ta’siriy jihatlarini aniqlash imkonini beradi. Badiiy matnda esa ushbu nazariya personaj xarakteri, muallif pozitsiyasi va subtekstni ochishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Dialog va monolog nutq shakllarida pragmatik mexanizmlarning namoyon bo‘lishi adabiy asarning estetik va kommunikativ qiymatini belgilaydi. Shu bois nutq aktlari nazariyasi zamonaviy o‘zbek nasrini lingvopragmatik yondashuv asosida o‘rganishda ilmiy jihatdan asoslangan va dolzarb metod sifatida e’tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Остин Дж. Слово как действие. – Москва: Прогресс, 1986. – 168 с.

2. Searle J. R. Speech Acts. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. – 203 p.

3. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Фан, 2008. – 256 б.

4. Levinson S. C. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – 420 p.

[12] Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 112.

5. Нурмонов А. Лингвистик тадқиқот методологияси *ва методлари*. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – 280 б.

6. Hamdam U. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2018.

7. Sulton I. Hikoyalar va qissalar. – Toshkent: Akademnashr, 2016.

ZAMONAVIY LINGVISTIK YO‘NALISHLAR – PRAGMALINGVISTIKA, SOTSIOLINGVISTIKA, LINGVOKULTUROLOGIYA VA KOGNITIV TILSHUNOSLIKNING NAZARIY VA AMALIY MASALALARI HAQIDA

Xasanova Aziza Kumushbek qizi

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti talabasi

azizaxasanova99@gmail.com +998909015927

Ilmiy rahbar: Abdullayev Akmal Amirovich

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti

“Tillar va maktabgacha ta’lim” kafedrasi dotsenti v.b., f.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy lingvistikaning yetakchi yo‘nalishlari – pragmalingvistika, sotsiolingvistika, lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslikning nazariy asoslari hamda amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Tilning kommunikativ, ijtimoiy, madaniy va kognitiv jihatlari o‘zaro bog‘liq tizim sifatida yoritiladi. Tadqiqotda antropotsentrik paradigma doirasida til va inson tafakkuri, til va jamiyat, til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlar ochib beriladi. Shuningdek, mazkur yo‘nalishlarning ta’lim, tarjima, media diskurs va raqamli kommunikatsiyadagi qo‘llanish imkoniyatlari asoslanadi.

Kalit so‘zlar: *zamonaviy lingvistika, pragmalingvistika, sotsiolingvistika, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, diskurs, konsept, nutq akti, madaniyat, kommunikatsiya.*

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты современных направлений лингвистики – прагмалингвистики, социолингвистики, лингвокультурологии и когнитивной лингвистики. Язык

анализируется в рамках антропоцентрической парадигмы как явление, связанное с мышлением, обществом и культурой. Особое внимание уделяется коммуникативной природе языка, социальным факторам языкового развития, культурной семантике языковых единиц и когнитивным механизмам концептуализации. Обосновывается значение интегративного подхода в образовании, переводоведении и медиадискурсе.

Ключевые слова: *современная лингвистика, прагмалингвистика, социолингвистика, лингвокультурология, когнитивная лингвистика, дискурс, концепт, речевой акт, культура, коммуникация.*

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the theoretical and practical issues of modern linguistics, focusing on pragmalinguistics, sociolinguistics, linguoculturology, and cognitive linguistics. Within the anthropocentric paradigm, language is examined as a phenomenon closely connected with human cognition, society, and culture. Special attention is given to communicative functions, social determinants of language variation, cultural semantics, and cognitive mechanisms of conceptualization. The study emphasizes the integrative nature of these disciplines and their applications in education, translation studies, and media discourse.

Keywords: *modern linguistics, pragmalinguistics, sociolinguistics, linguoculturology, cognitive linguistics, discourse, concept, speech act, culture, communication.*

Zamonaviy lingvistika fanining rivojlanishi tilni faqat struktur tizim sifatida emas, balki inson faoliyati, tafakkuri va ijtimoiy munosabatlari bilan uzviy bog‘liq hodisa sifatida o‘rganish zaruratini yuzaga keltirdi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslikda antropotsentrik paradigma shakllandi. Ushbu paradigma tilni inson omili bilan bog‘liq holda tahlil qilishni nazarda tutadi.

Bugungi kunda pragmalingvistika, sotsiolingvistika, lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslik zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlariga aylangan. Ular tilning kommunikativ, ijtimoiy, madaniy va bilish jarayonlari bilan aloqador jihatlarini ochib beradi.

Pragmalingvistika: kommunikativ ma’no va nutq strategiyalari. Pragmalingvistika til birliklarining real nutq jarayonidagi qo‘llanilishi va ma’no hosil qilish mexanizmlarini o‘rganadi. Tilning grammatik tuzilishi doirasidan chiqib, u kommunikativ vaziyat, kontekst va ishtirokchilar o‘rtasidagi munosabatlarni hisobga oladi. Pragmalingvistikaning asosiy kategoriyalari quyidagilardan iborat:

- Nutq akti;
- Presuppozitsiya;
- Implikatura;
- Deiksis;
- Diskurs.

Nutq akti nazariyasiga ko‘ra, har bir nutq birligi ma’lum maqsadni amalga oshiradi: axborot berish, buyruq berish, iltimos qilish, ogohlantirish va boshqalar. Ma’no faqat lingvistik birliklar orqali emas, balki kontekst va kommunikativ niyat orqali shakllanadi. Amaliy jihatdan pragmalingvistika:

- Rasmiy va diplomatik nutq tahlilida;
- Reklama va siyosiy diskursni o‘rganishda;
- Sud-lingvistik ekspertizalarda;
- Sun’iy intellekt asosidagi muloqot tizimlarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sotsiolingvistika – tilning ijtimoiy tabiati. Sotsiolingvistika til va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni o‘rganadi. Til ijtimoiy guruh, yosh, jins, kasb va hududiy omillarga bog‘liq ravishda o‘zgaradi. Ijtimoiy differensiallashuv til tizimida dialektlar, ijtimoiy lahjalar, jargon va sleng shaklida namoyon bo‘ladi.

Sotsiolingvistikaning asosiy masalalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Tilning ijtimoiy tabaqalanishi;
- Ko‘p tillilik va diglossiya;
- Til siyosati va til rejalashtirish;
- Kod-almashish hodisasi.

Globallashuv sharoitida migratsiya jarayonlari, internet kommunikatsiyasi va ommaviy axborot vositalari til o‘zgarishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli

sotsiolingvistika zamonaviy jamiyatdagi til dinamikasini tushunishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Amaliy jihatdan esa, ta’lim tizimida til me’yorlarini belgilash, davlat til siyosatini ishlab chiqish hamda ijtimoiy kommunikatsiya strategiyalarini takomillashtirishda qo‘llaniladi.

Lingvokulturologiyada til va madaniyatning uzviy bog‘liqligi ko‘p jihatlarda namoyon bo‘ladi. Lingvokulturologiya til birliklarida mujassamlashgan madaniy ma’lumotni o‘rganadi. Har bir til o‘z xalqining tarixiy tajribasi, mentaliteti va qadriyatlarini aks ettiradi. Shu bois tilni madaniyatdan ajratib o‘rganish mumkin emas. Sohaga taalluqli asosiy tushunchalar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- Konsept;
- Madaniy kod;
- Milliy obraz;
- Lingvomadaniy birlik.

Masalan, ayrim frazeologizmlar yoki maqollar xalqning dunyoqarashi va qadriyatlarini ifodalaydi. Lingvokulturologiya aynan shu jihatlarni tahlil qiladi. Amaliy jihatdan ushbu yo‘nalish tarjima jarayonida madaniy ekvivalentlikni ta’minlash, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish hamda chet tilini o‘qitishda madaniy komponentni integratsiya qilishda muhim ahamiyatga ega.

Kognitiv tilshunoslikni til va tafakkur mexanizmlarining uzviy aloqasi sifatida taqdim etish o‘rinli bo‘ladi. Kognitiv tilshunoslik tilni inson ongidagi bilimlar tizimi bilan bog‘liq holda o‘rganadi. Til bu – nafaqat aloqa vositasi, balki dunyoni idrok etish va konseptuallashtirish vositasidir. Sohaga oid ilmiy adabiyotlarda asosiy kategoriyalar sifatida quyidagilar keltiriladi:

- Konsept;
- Freym;
- Skript;
- Metafora.

Kognitiv yondashuvga ko‘ra, inson tajribasi til orqali kategoriyalashadi. Metaforalar esa abstrakt tushunchalarni konkret tajriba orqali ifodalash imkonini beradi. Shunga ko‘ra ushbu yo‘nalish sun’iy intellekt va tabiiy tilni qayta ishlash,

psixolingvistika hamda ta’lim metodikasida bilimni strukturalashtirishda amaliy namoyon bo‘ladi.

Yuqorida keltirilgan zamonaviy lingvistika yo‘nalishlari o‘zaro integratsiyalashgan holda rivojlanmoqda. Masalan, diskurs tahlilida pragmatik, ijtimoiy va kognitiv omillar birgalikda ko‘rib chiqiladi. Media matnlarida esa lingvokulturologik va sotsiolingvistik jihatlar uyg‘unlashadi.

Raqamli kommunikatsiya sharoitida tilning yangi shakllari — internet diskursi, emodzi va qisqartmalar paydo bo‘lmoqda. Ularni o‘rganishda yuqoridagi yo‘nalishlarning kompleks yondashuvi zarur.

Zamonaviy lingvistika tilni inson omili bilan bog‘liq holda o‘rganadigan kompleks fan sifatida shakllandi. Pragmalingvistika tilning kommunikativ xususiyatlarini, sotsiolingvistika til va jamiyat munosabatini, lingvokulturologiya til va madaniyat integratsiyasini, kognitiv tilshunoslik esa til va tafakkur aloqasini yoritadi. Ushbu yo‘nalishlarning integratsiyasi nazariy jihatdan tilning ko‘p qirrali mohiyatini ochib bersa, amaliy jihatdan ta’lim, tarjima, media va raqamli texnologiyalar sohasida samarali natijalarga erishishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Austin, J. L. (1962). How to Do Things with Words. Oxford University Press.
2. Searle, J. R. (1969). Speech Acts. Cambridge University Press.
3. Grice, H. P. (1975). Logic and Conversation. Academic Press.
4. Labov, W. (1972). Sociolinguistic Patterns. University of Pennsylvania Press.
5. Trudgill, P. (2000). Sociolinguistics. Penguin Books.
6. Lakoff, G., Johnson, M. (1980). Metaphors We Live By. University of Chicago Press.
7. Langacker, R. (1987). Foundations of Cognitive Grammar. Stanford University Press.
8. Maslova, V. A. (2001). Lingvokulturologiya. Moskva.
9. Kubryakova, E. S. (2004). Yazyk i znaniye. Moskva.

10. Safarov, Sh. (2008). Pragmalingvistika. Toshkent.
11. Mahmudov, N. (2012). Til va madaniyat. Toshkent.
12. Nurmonov, A. (2010). Tilshunoslik nazariyasi. Toshkent.

EMODZILAR POETIKASI: VIZUAL BELGILAR VA TILNI SHE’RIYATDA UYG‘UNLASHTIRISH

Usmanova Xumora Ahmadjonovna
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
O‘zbek va jahon filologiyasi kafedrasi dotsenti v.b.
usmanovaxumora18@gmail.com ***(90-997-08-30)***

Annotatsiya. Ushbu mavzu she’riyatda emodzilarning (emoji, ramzlar, yoki boshqa grafik elementlar) qo‘llanilishi va “Emodzilara poetikasi” kontseptsiyasining tahliliga qaratilgan bo‘lib, bu zamonaviy vizual belgilar bilan an'anaviy tilning uyg‘unlashuvini o‘rganadi. Poetikada vizual elementlar va til o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanish, she’rning mazmuniy chuqurligini kengaytirib, yangi estetik va talqiniy o‘lchovlarni yaratadi. Ushbu uyg‘unlik, she’riyatning an'anaviy shakllari bilan birgalikda, o‘quvchi tajribasini boyitadi hamda zamonaviy san’atkorlarning ifoda vositalarini yanada kengaytiradi. Raqamli va vizual kommunikatsiya turlarining she’riyatdagi o‘rni va uning kreativ imkoniyatlari o‘rganishning markazida turadi.

Kalit so‘zlar: *emodzi, ramz, belgi, she’riyat, matn, semiotika, poetika.*

Annotation. This study focuses on the use of emojis (symbols or other graphic elements) in poetry and the analysis of the concept of emoji poetics, which examines the integration of modern visual signs with traditional language in poetic texts. The interaction between visual elements and linguistic expression in poetry expands the semantic depth of a poem and creates new aesthetic and interpretative dimensions. Such a synthesis enriches the reader’s experience while simultaneously broadening the expressive possibilities available to contemporary poets. The research also

explores the role of digital and visual communication forms in poetry and their creative potential within modern literary practices.

Keywords: *emoji, symbol, sign, poetry, text, semiotics, poetics.*

Hozirgi kunda axborot texnologiyalari tez rivojlanayotgani tufayli, insonlar o‘rtasidagi muloqot shakllari sezilarli darajada o‘zgardi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshiriladigan muloqot zavonaviy kommunikatsiyaning ajralmas qismiga aylandi. Bunday muloqot jarayonida yozma matn bilan birga turli grafik ramzlar, emodzilar va internet belgilaridan keng qo‘llanilmoqda.

Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, internet muloqoti an’anaviy yozma nutqdan bir qator xususiyatlari bilan farq qiladi va u tilning yangi shakllarini shakllantiradi. [1:25.] Bugungi zamonaviy muloqot madaniyatida emodzilar nafaqat internet chatlarida, balki adabiy ijodda ham faol qo‘llanilishi bilan ajralib turadi. Ularning she’riy matnlardagi qo‘llanilishi tilning vizual va ekspressiv funksiyasini kengaytirib, she’riy ifodaga yangi plastlar qo‘shadi. Emodzilar orqali muloqot ishtirokchilari his-tuyg‘ularni va kayfiyatni tez va aniq ifodalay oladi. Shu bois ular nafaqat internet muloqoti, balqi adabiyotshunoslikda ham tahlil obyektiga aylanmoqda.

She’riyatning poetikasi qo‘p yillar davomida til va shakl munosabatidan iborat bo‘lib, unda ta’sirchanlik, obrazdorlik, metafora, ramz va ritm ustivor ahamiyatga ega. Vizual belgilar – emodzilar – she’riy matnlarga yangi ma’no, ekspressivlik va vizual ta’sir qo‘shmoqda, bu esa zamonaviy poetikada tadqiq etilishi lozim bo‘lgan dolzarb masala hisoblanadi.

Semiotika – belgilar fani, tilshunoslik va adabiyotshunoslikda emodzilarni tahlil qilish uchun asosiy nazariy baza hisoblaanadi. Semiotika nazariyasiga ko‘ra, har qanday belgi uchta elementdan iborat: belgining shakli, ma’nosi va qabul qiluvchi subyekt [2: 72.]. Emodzi ham shu uchlikka mos keladi: u vizual shakl, ma’no va uni qabul qiluvchi o‘quvchi orqali muloqotda ishtirok etadi.

Shu qatorda emodzi nima va uning kelib chiqishiga ta’rif bersak. Emodzilar raqamli kommunikasiyada qo‘llaniladigan grafik belgilar bo‘lib, ular insonning his-tuyg‘ulari va munosabatini ifodalash uchun xizmat qiladi. Emodzilar dastlab

Yaponiyada mobil aloqa xizmatlarida qo‘llanilgan va keyinchalik butun dunyoda keng tarqalgan. **“E”** (rasm) + “**MOJI**”(belgi) ma’nosini anglatadi. Tadqiqotlarga ko‘ra, emodzilar raqamli muloqotda paralingvistik vosita vazifasini bajaradi va matnning emotsional mazmunini kuchaytiradi. [3: 67.]

Zamonaviy raqamli kommunikasiya sharoitida emodzilar internet muloqotining muhim elementlaridan biriga aylandi. Ular yozma matnda insonning his-tuyg‘ulari, munosabati va kayfiyatini ifodalashga xizmat qiladigan grafik belgilar hisoblanadi. Emodzilar orqali muloqot ishtirokchilari o‘z fikrlarini qisqa va aniq tarzda yetkazish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Tilshunos olim David Kristalning ta’kidlashicha, internet kommunikasiyasida qo‘llaniladigan ramzlar va belgilar yozma nutqning yangi shaklini shakllantirmoqda. Uning fikriga ko‘ra, emodzilar yozma muloqotda intonasiya, emosiya va nutqning ekspressiv xususiyatlarini ifodalashga xizmat qiladi [1: 38.].

Shuningdek, semiotika sohasi tadqiqotchisi Marsel Danesi emodzilarni zamonaviy raqamli madaniyatning muhim belgilar tizimi sifatida baholaydi. Olimning fikricha, emodzilar insonlar o‘rtasidagi muloqotda vizual ma’noni ifodalashga xizmat qiluvchi universal ramzlar tizimini shakllantirmoqda [3:72.]. Ayrim tadqiqotlarda emodzilar, yuqorida ta’kidlab o‘tkanimizdek, paralingvistik vosita sifatida ham qaraladi. Paralingvistik vositalar deganda nutqdagi emosiya, intonasiya va munosabatni ifodalashga xizmat qiladigan qo‘shimcha elementlar tushuniladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, emodzilar yozma internet muloqotida og‘zaki nutqning ayrim xususiyatlarini kompensasiya qilish vazifasini bajaradi [3:45.]

Bundan tashqari, tilshunoslikda emodzilarning semantik va pragmatik xususiyatlari ham tadqiq qilinmoqda. Semantik jihatdan emodzilar muayyan ma’noni ifodalaydigan belgilar hisoblansa, pragmatik jihatdan ular muloqot ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatni va kommunikativ maqsadni anglatishga xizmat qiladi.

O‘zbek tilshunosligida ham zamonaviy lingvistik tadqiqotlar internet tili va raqamli kommunikasiya masalalariga alohida e’tibor qarata boshladi. Olimlar ta’kidlashicha, raqamli muloqot sharoitida ramzlar va grafik belgilarning qo‘llanilishi

tilning yangi funksional xususiyatlarini namoyon etadi [4:52.]. Shu tariqa, emodzilar zamonaviy raqamli kommunikasiyada muhim kommunikativ vosita sifatida shakllanib, tilshunoslik, semiotika va kommunikasiya nazariyasi nuqtai nazaridan tadqiq qilinayotgan dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

Shuni aytish joizki, she’riyatda ham vizual belgilar – emodzilar o‘z o‘rnini topa boshladi. Ular she’riy ifodaga yangi plastlar qo‘shadi, emosional va estetik ta’sirni kuchaytiradi. Shu bois, emodzilarni zamonaviy poetikada tadqiq etish muhim ilmiy masalaga aylandi.

She’riyatda emodzilar vizual belgilarning bir qator muhim funksiyalarini amalga oshiradi: ular obrazdorlikni kuchaytiradi, she’riy ritm va vizual ta’sirni ta’minlaydi, ekspressivlikni oshiradi hamda universal xarakterga ega bo‘lib, turli tilda so‘zlashuvchi auditoriya tomonidan ham tushunilishi mumkin. Emodzilar she’riy obrazlarni vizual shaklda taqdim etish imkonini beradi. Masalan, atirgul ramzi muhabbat va mehr-muhabbat tushunchasini ifodalaydi, shu bilan she’riy ifodaga tez va aniq ma’no qo‘shadi. Bu fenomen emodzilarning semantik funksiyasini ko‘rsatib, matnning vizual va ma’noviy boyligini ta’minlaydi. She’riy matnga qo‘shilgan vizual belgilar she’rning ritmi bilan uyg‘unlashadi. Natijada matnning grafik tarkibi va vizual ritmi ham ta’sircha bo‘lib, she’rning estetik ta’sirini oshiradi. Bu xususiyat emodzilarning paralingvistik va kompozitsion funksiyalarini namoyon qiladi. Emodzilar orqali bitta vizual ramzda ko‘pgina ma’nolar ifodalanishi mumkin. Masalan, ular xursandchilik, qayg‘u, muhabbat va umid kabi emotsional holatlarni bir vaqtda aks ettiradi. Shu bilan emodzilar she’riy matnni boyitadi, uning emosional ta’sirini kuchaytiradi va o‘quvchi uchun tushunishni osonlashtiradi. Emodzilar turli tillarda so‘zlashuvchi insonlar tomonidan ham umumiy tushunarli belgilar sifatida qabul qilinadi. Bu ularning she’riy matnlardagi global auditoriyaga ta’sir qilish imkonini ta’minlaydi va vizual belgilar orqali universal kommunikatsiya jarayonini amalga oshirish imkonini beradi.

She’riy matnda emodzilar qo‘llanilishi:

- bulut – ***Rain falls*** – yog‘inli kayfiyat ya’ni tushkunlikni;
- kungaboqar – ***Sun fades*** – umidni;

- yurak belgisi – ***But love grows*** – muhabbatni vizual belgilar orqali ifodalaydi. Shu tariqa, vizual belgilar she’riy ma’noni boyitadi va o‘quvchida his-tuyg‘ularni aniqlashni osonlashtiradi.

Emodzilar she’riy matnda semantik va pragmatik funksiyalarni bajaradi: semantik funksiyada vizual ramzlar aniq ma’noni anglatadi va kontekst bilan birga yangi ma’nolarni shakllantirishi mumkin, pragmatik funksiyada esa muloqotda his-tuyg‘u, munosabat va ma’noga qaratilgan maqsadni aniqlashga xizmt qiladi. Shu bilan birga, vizual belgilar she’riyatda tilning yangi funksiyalari va global universal belgilar sifatida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, emodzilar poetikasi zamonaviy she’riyatning muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Vizual belgilarning til bilan uyg‘unlashtirilishi she’riy ma’noni boyitadi, ekspressivlik va emotsional ta’sirni kuchaytiradi. Shu bilan birga, tilning semantik va pragmatik funksiyalarini ham kengaytiradi. Shunday qilib, emodzilar she’riyatda nafaqat estetik, balki kommunikativ jihatdan ham muhim vosita sifatida ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Crystal, D. Language and the Internet. Cambridge University Press, 2006. – 25–60-betlar.
2. Danesi, M. The Semiotics of Emoji. London: Bloomsbury Publishing, 2016. – 60–90-betlar.
3. Danesi, M. The Semiotics of Emoji: The Rise of Visual Language in the Age of the Internet. Bloomsbury Publishing, 2016. – 70–90-betlar.
4. Nurmonov A. Zamonaviy lingvistika. Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 50–65-betlar.

СОЗДАНИЕ ИСКУССТВА И ИНТЕЛЛЕКТА: СОВРЕМЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ МИФА О ПИГМАЛИОНЕ И ГАЛАТЕЕ

Эргашева Зилола Сайдуллоевна,

преподаватель кафедры Узбекской и мировой филологии

Государственного института искусств и культуры Узбекистана

Аннотация. В мировой лингвистике интерес к изучению крылатых выражений растёт. Источники происхождения крылатых выражений разнообразны, среди которых особое место занимает мифология. Особенно важно изучать мифологические крылатые выражения, связанные с искусством. В данной статье рассматривается крылатое выражение «Пигмалион и Галатея» из древнегреческой мифологии. Анализируется её вклад в искусство и литературу.

Ключевые слова: *лингвистика, литература, искусство, мифология, крылатое выражение, скульптура, живопись, анализ*.

Introduction. In world linguistics, along with proverbs, aphorisms, and phraseological units, catchphrases have been providing our speech with expressiveness and imagery. According to linguists: “Catchphrases are semantically coherent, stable, capable of conveying thought in a figurative, impressive and concise form, and are clearly distinguished by their recollection in the mind and association with an event or phenomenon, and by their genetic memory of the author or source.”[13]

Ключевые слова: *лингвистика, литература, искусство, мифология, крылатое выражение, скульптура, живопись, анализ*.

Источники происхождения идиом разнообразны, среди которых особое место занимают священные тексты, мифология, античная и литературная литература, история и искусство. Древние мифы и легенды интересны всем народам, поскольку они важны в образном выражении повседневной жизни и деятельности людей своим содержанием и сущностью. Большинство идиом

[13] Isakova G.N. Fransuz tilidagi muqaddas matnlarga oid qanotli iboralarning semantikasiga doir // FarDU. Ilmiy xabarlar. – Farg‘ona, 2024-yil. 2-son. – Б. 506-510.

этой категории, используемых в мировых языках, составляют идиомы, происходящие из греческой мифологии.

Анализ литературы по данной теме. В мировой лингвистике научное изучение крылатых слов и выражений получило достаточно широкое распространение. Начало изучения крылатых слов и выражений в русской лингвистике связано с исследованиями С.В. Максимова и И.Е. Тимошенко. Большой вклад в развитие изучения крылатых слов внесли такие выдающиеся российские ученые, как М.И. Михельсон, С.Г. Займовский. Также проблемой крылатых слов и выражений занимались такие лингвисты, как Н.С. Ашукин, М.Г. Ашукина, А.М. Бабкин, В.П. Берков. В последние годы исследования, проведенные в русской лингвистике С.Г. Шулежковой, а также О.В. Берковой, А.А. Алексеевой, К.В. Каменевым, Ю.Г. Карпеченковой, Е.Д. Горячевой, и во французской лингвистике Г.Н. Исаковой, показывают, что сфера изучения крылатых слов и выражений расширилась.

Анализ и результаты. Ниже приводится обсуждение одной из популярных поговорок об искусстве. «Пигмалион и Галатея» (лат. Pygmălĭōn et Gălătēa) — это поговорка из древнегреческой мифологии о совершенстве скульптуры, любви и возрождении статуи. Согласно эпической поэме «Метаморфозы» древнеримского поэта Овидия (43 г. до н.э. — 18 г. до н.э.), кипрский царь Пигмалион также был талантливым скульптором. Он не смог найти свой идеал среди женщин, был разочарован аморальным образом жизни кипрских женщин и решил не жениться. Пигмалион, так любивший искусство, подумал: «Моего искусства мне достаточно». Однако, похоже, это решение не принесло хороших результатов, и всё его тело было захвачено женщиной из его воображения.

Поэтому он принялся за работу над созданием совершенной, идеальной женщины и создал статую своего воображения из слоновой кости. Пропорции статуи были настолько идеально выверены, что ни одна женщина в реальной жизни не могла сравниться с красотой творения Пигмалиона. Статуя настолько искусно выполнена, что её можно принять за настоящую женщину.

Пигмалион становится одержим своим творением. Созданная им Галатея не просто красива, но и идеально выточена. Что особенно важно, в отличие от женщин Кипра, Галатея свободна от безнравственности.

Пигмалион настолько привязывается к этой статуе, что в конце концов влюбляется в неё. Конечно, Галатея была неодушевлённым предметом, но это не мешает Пигмалиону испытывать к ней привязанность и относиться к ней как к своей любимой жене. Постепенно скульптор начинает верить, что Галатея — настоящая женщина.

Иногда скульптор не мог поверить, что она сделана из слоновой кости, потому что статуя казалась ему более реальной. Его душа, всё его тело отказывались принять статую за слоновую кость, он ласкал её, целовал и чувствовал, будто его поцелуи взаимны. Он говорил ей о любви и нежно ласкал её. Когда он прикасался к рукам Галатеи, скульптор был настолько впечатлён их подлинностью, что боялся причинить ей вред своими нетерпеливыми движениями.

Более того, Пигмалион, видя в статуе настоящую женщину, дарит ей дорогие подарки, чтобы угодить ей. Овидий утверждает, что Галатея сотворена, то есть она выглядит еще красивее обнаженной, но Пигмалион одевает ее в одежду и украшения, однако статуя остается холодной. Скульптор сильно страдает от боли неразделенной любви.

Однажды, на празднике в честь Афродиты, Пигмалион, не осмеливаясь попросить богиню оживить его статую, умоляет ее дать ему жену, подобную ей. Тронутая сильной любовью Пигмалиона, Афродита, богиня любви, трижды зажигает огонь в знак того, что она поняла его просьбу, и оживляет Галатею.

Пигмалион возвращается домой и, как обычно, целует Галатею. В этот момент происходит чудо: губы отвечают на его поцелуй. Очарованный, Пигмалион целует её снова, медленно прикасается руками к телу Галатеи и чувствует тепло, видит, что камень стал мягким и живым. Статуя ожила, превратившись в настоящую женщину.

После этого Пигмалион женится на Галатее, покровительницей этого брака является сама богиня Афродита. От этого брака рождается ребёнок, Пафос, в честь которого назван город Пафос на Кипре.

Миф о Пигмалионе и Галатее прекрасно отражает одну из главных целей древнего искусства — подражание природе, то есть мимесис. Это стремление к истине становится невольным повторяющимся мотивом для художников древности. Например, древнегреческий художник Зевксис (420-380 до н.э.) изображает виноград настолько реалистично, что даже птицы пытаются его клевать.

Миф о Пигмалионе и Галатее передает идею реального, несовершенного мира женщин, идеал, воплощенный в Галатее, идею о том, что любовь может преодолеть границы между искусством и жизнью, камнем и плотью.

На основе этого мифа и в целом мифа о Галатее (в древнегреческой мифологии — Нереиде) было создано множество произведений искусства. Особенно сильно он вдохновлял художников и скульпторов. Например, в 1511 году итальянский художник эпохи Возрождения Рафаэль Санти написал фреску с её портретом под названием «Триумф Галатеи», а в 1530 году итальянский художник Бронзино создал «Пигмалион и Галатея» в маньеристском стиле. Французские художники, в том числе Жан Батист Ванлоо, создали свои работы «Триумф Галатеи» (1684) и «Пигмалион и Галатея» (1767) Франсуа Буше в стиле рококо.

Также в 1878 году английский художник Эдвард Бёрн-Джонс написал портрет Пигмалиона и Галатеи, а в 1952 году испанский художник и сюрреалист Сальвадор Дали великолепно изобразил легендарного героя в своем собственном стиле. Даже испанский художник Пабло Пикассо создал эскизы на тему этого мифа в стиле модернизма.

Французский скульптор Этьен Морис Фальконе создал в 1763 году знаменитую скульптуру «Пигмалион и Галатея», ставшую триумфом раннего классицизма. В 1890 году французский художник и скульптор Жан-Леон Жером создал серию скульптур на эту тему. В своих работах автор изображает

момент возрождения Галатеи, когда Пигмалион целует статую с особым блеском. Также особое место в этом направлении занимает скульптура «Галатея» итальянского скульптора Паскуале Поманелли.

Миф о Пигмалионе и Галатее также широко распространен в литературе и вдохновлял художников. Соответственно, на его основе создано множество произведений. Например, среди них французский писатель Жан-Жак Руссо, испанский писатель Мигель де Сервантес и английские писатели Уильям Гилберт, Джордж Бернард Шоу и Роберт Грейвс. Интересно, что имя этой оживлённой статуи не упоминается в древнегреческом мифе; имя прекрасной героини впервые было использовано в пьесе Жан-Жака Руссо «Пигмалион и Галатея», созданной в 1762 году. В этой комической пьесе автор называет оживлённую статую Галатеей, и выдвигается идея об оживлённости, согласно которой создание искусства может быть важнее реальности. Эта новаторская интерпретация закрепляет имя Галатеи за живой статуей в культуре и становится классической версией мифа.

В 1871 году писатель и драматург Уильям Гилберт создал трёхактную пьесу под названием «Пигмалион и Галатея». 9 декабря того же года пьеса была поставлена в театре «Хеймаркет» в Лондоне и получила широкую известность. В 1912 году английский драматург Джордж Бернард Шоу создал пьесу под названием «Пигмалион». В ней профессор фонетики превращает цветочницу Элизу Дулиттл в леди, что отсылает к «эффекту Пигмалиона», то есть к трансформации человека в обмен на ожидания. В 1938 году эта работа Джорджа Бернарда Шоу была экранизирована в Великобритании в чёрно-белом варианте. Сценарий к фильму разработали Джордж Бернард Шоу, Иэн ДеПлимпл, Сесил Льюис, а сам автор добавил несколько дополнительных сцен и эпизодов. Режиссёрами фильма выступили Энтони Асквит и Лесли Ховард, а продюсером — Габриэль Паскаль. В фильме снимались Венди Хиллер и Лесли Ховард. Фильм имел огромный успех во многих странах и в том же году получил премию «Оскар» за лучший сценарий. Он также был номинирован на премии «Оскар» в категориях «Лучший фильм», «Лучший актер» и «Лучшая

актриса». В том же году фильм получил еще одну награду на Венецианском кинофестивале — Кубок Вольпи за лучшую мужскую роль.

Позже, на основе пьесы Джорджа Бернарда Шоу «Пигмалион», в 1956 году английский композитор Фредерик Лоу создал мюзикл «Моя прекрасная леди» (с либретто А. Дж. Лернера). Музыкальная комедия «Моя прекрасная леди», основанная на мюзикле Фредерика Лоу и пьесе Джорджа Бернарда Шоу «Пигмалион», была экранизирована в 1964 году режиссером Джорджем Кукором. Эта работа считается одним из десяти лучших музыкальных комедийных фильмов Голливуда. Благодаря коммерческому успеху фильм стал вторым самым кассовым фильмом года и получил восемь премий «Оскар» в 12 категориях, включая «Лучший фильм» и «Лучший режиссер». В 2018 году фильм был включен в «Национальный реестр фильмов» США за его «культурное, историческое и эстетическое значение».

Аналогично, в 1977 году был создан телевизионный балетный фильм «Галатея» по пьесе Джорджа Бернарда Шоу «Пигмалион». Этот балетный фильм был поставлен российским режиссером Александром Белинским и хореографом Дмитрием Брянцевым, с музыкой Фредерика Лоу и Тимура Когана.

По-видимому, этот сюжет активно используется в искусстве и часто применяется в произведениях искусства для изображения идеи силы творчества и веры в идеал, как в знаменитой пьесе Джорджа Бернарда Шоу, где профессор превращает обычную девушку в леди, а в живописи и скульптуре — для выражения любви к красоте, собственному творению и возможности его изменения.

Этот древний миф привлекал художников, драматургов, писателей и поэтов, а также лингвистов. Согласно законам языковых единиц, «Пигмалион и Галатея» — это крылатая фраза, используемая для обозначения человека, очень любящего свою работу. С лингвистической точки зрения, особенности использования этой крылатой фразы в тексте изучаются лексико-семантически

и стилистически, раскрывая её роль в придании речи осмысленности, выразительности и образности.

Заключение. Таким образом, миф о Пигмалионе и Галатее, вдохновивший творцов и внесший огромный вклад в обогащение литературы и искусства, является символом совершенства искусства. Как крылатая фраза, она описывает любовь человека к своему творению, к созданному им идеалу, а также выражает ситуацию, в которой творец воплотил свое творение в реального человека и оживил его, то есть вдохнул в него жизнь. Эта крылатая фраза демонстрирует созидательную силу любви, которая стирает границы между реальностью и вымыслом, способна оживить неодушевленное или превратить обычные вещи в совершенство.

Использование литературы:

1. Ашукин Н.С., Ашукина М.Г. Крылатые слова: Литературные цитаты; Образные выражения. 4-е изд., доп. – Москва: Худож. лит., 1987.

2. Бабкин А.М., В.В.Шендецов. Словарь иноязычных выражений и слов. – Ленинград: Наука, 1987.

3. Берков В.П., Мокиенко В.М., Шулежкова С.Г. Большой словарь крылатых слов русского языка. – Москва: Русские словари, 2000. – 624 с.

4. Беркова О.В. Крылатые слова и проблемы их лексикографирования. Дисс… канд. филол. наук. –Ленинград: ЛГУ, 1991. –161 с.; Алексеева А.А. Аргументативный потенциал крылатых слов. Дисс... канд. филол. наук. – Тверь: ТГУ, 2001. – 164 с.; Каменев К.В. Крылатые единицы, восходящие к синтетическим жанрам искусства, в современном русском и английском языке. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Челябинск: ЧГПУ, 2012. – 24 с.; Карпеченкова Ю.Г. Обучение крылатым выражениям русского языка студентов-иностранцев. Автореф. дисс... канд. пед. наук. – Санкт-Петербург: РГПУ, 2013. – 20 с.; Горячева Е.Д. Крылатые выражения в семантическом пространстве художественного текста: лингвокультурологический и функционально-прагматический аспекты. Дисс... канд. филол. наук. – Майкоп: АГУ, 2018. – 170 с.

5. Isakova G.N. Fransuz tili qanotli so‘zlarining semantik va stilistik xususiyatlari. Filol. fan. dok... diss. avtoref. – Toshkent, 2023. –78 b.

6. Isakova G.N. Fransuz tilidagi muqaddas matnlarga oid qanotli iboralarning semantikasiga doir // FarDU. Ilmiy xabarlar. – Farg‘ona, 2024-yil. 2-son. – Б. 506-510.

7. Займовский С.Г. Крылатые слова. Справочник цитаты и афоризма. – Москва-Ленинград: Госиздат, 1930. – 493 с.

LINGVOPOETIK TAHLILDA O‘XSHATISHLARNING O‘RNI VA VAZIFASI (AHMAD A’ZAM ASARLARI MISOLIDA)

Tursunov Mirzohid Ikromjon o‘g‘li

O‘zFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori

instituti mustaqil tadqiqotchisi

+ 998 99 617 38 50

tursunov.mirzohid1995@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘xshatishlarning lingvopoetikaning muhim o‘rganish obyekti sifatidagi nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Badiiy matnda o‘xshatishlarning semantik-struktur xususiyatlari, obraz yaratishdagi roli hamda ekspressivlikni ta’minlashdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, o‘xshatishlarning muallif individual uslubini shakllantirishdagi o‘rni va poetik niyatni ifodalashdagi funksional imkoniyatlari lingvopoetik yondashuv asosida tadqiq etiladi.

Kalit so‘zlar: *lingvopoetika, badiiy matn, o‘xshatish, obrazlilik, poetic niyat, ekspressivlik.*

Lingvopoetika so‘nggi yillarda badiiy matnni chuqur tahlil qilish va uning badiiy-ifodaviy xususiyatlarini aniqlashda muhim ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanmoqda. Mazkur yo‘nalish nafaqat tilning struktur va semantik qatlamlarini o‘rganadi, balki badiiy matnda muallifning poetik niyatini, obrazlilik va ekspressivlik

vositalarini ham tahlil qiladi. Shu nuqtayi nazardan, o‘xshatishlar lingvopoetikaning markaziy obyekti sifatida alohida ahamiyatga ega.

O‘xshatish badiiy matnlarda eng ko‘p qo‘llanadigan tasviriy vositalardan biridir. Ikki yoki undan ortiq predmetni ular o‘rtasidagi o‘xshashlik yoki farqli tomonlarini aniqlash maqsadi bilan qiyoslash tashqi olamni bilishning eng keng tarqalgan logik priyomlaridan biri bo‘lib, u inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida kuzatiladi. [1: 23.]

Turkologiyada birinchi bo‘lib o‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati yaratilganligini alohida e’tirof etish mumkin. N.Mahmudov o‘xshatishlar bo‘yicha yangi va asosli fikrlarni ilgari surgan katta tilshunoslardan biridir. Olim milliy tafakkurda o‘xshatish-qiyoslash mexanizmlarining o‘rni haqida shunday fikrni ilgari suradi: “Insonning dunyoni bilishida o‘xshatish – qiyoslash benihoya katta o‘rin tutadi. Bu behad mantiqiy kategoriya, tabiiyki, tilda o‘z aksini topadi. [2: 22.] Qadimgi hind poetikasi, xususan, epitet va o‘xshatishlarning tabiatini o‘rgangan rus tilshunosi S.L.Nevelovaning ta’kidlashicha, “o‘xshatishlar poetik figura sifatida to‘rtta unsurdan tashkil topadi. Masalan:

1) o‘xshatiladigan narsa yoki subyekt;

2) unga o‘xshash bo‘luvchi narsa yoki obyekt;

3) o‘xshatish belgisi yoki o‘xshatish asosi;

4) o‘xshatishning formal ko‘rsatkichi”. [6: 30

Ma’lumki, badiiy matnda o‘xshatishlarning bir necha ko‘rinishidan foydalaniladi. “Xususiy-muallif o‘xshatishlari yozuvchining o‘z nigohi, kuzatuvchanligi, badiiy taxayyuli, analogiya quvvati asosida xalq tilidan foydalangan holda yaratilgan o‘xshatishlaridir. Bunday o‘xshatishlarda originallik, obrazlilik va ekspressivlik hamisha yorqin ifodalangan bo‘ladi”.[5: 19] Turg‘un o‘xshatishlar uzoq asrlik tafakkur mahsuli bo‘lganligi uchun lingvomadaniy bilim va tajribalarni o‘zida mujassam qilgan bo‘ladi. “Turg‘un o‘xshatishlar o‘zbek tilining tamomila o‘ziga xos boyligi, xalq milliy-madaniy tasavvuroti va an’analarining betakror ko‘zgusi, bejirim va ta’sirli nutq imkoniyatlariga kuch beradigan tuganmas manba, avlodlar o‘rtasidagi

obrazlar vorisiyligini saqlovchi muhtasham vosita sifatida juda katta etnopsixologik, lingvokulturologik va lingvopoetik qimmatga ega” [2, 4].

Ahmad A’zam asarlarida qo‘llangan o‘xshatishlar ijodkorning badiiy uslubini aniq namoyon qiluvchi birliklar hisoblanadi. Adib an’anaviy va individual o‘xshatishlardan shu darajada mahorat bilan foydalanadiki, mavjud, hammaga tanish o‘xshatishlar ohorli mazmun bilan boyitiladi. Natijada asarning ta’sirchanligi sezilarli darajada oshadi.

Ahmad A’zam tomonidan tarkibi jihatdan murakkab holatda yaratilgan quyidagi individual-muallif o‘xshatishlar originalligi va obrazlilik darajasining kuchliligi bilan alohida ajralib turadi:

Bu odamni tabiat yarlaqagan – uning

zaxa yemagan shaftoliday,

tish tegmagan jonoqi olmaday,

qo‘l tegmagan hurkak siynaday,

onasi, yo‘q, ***ro‘zg‘or o‘pmagan bokira qizday*** *toza, ozoda, hali unniqmagan, hali dunyo ko‘rmagan, dunyodagi vijdonlar ichida eng chiroylisi bo‘lmish vijdoni bor!* (Odamoviga uchyoqlama qarash, 1)

Mazkur badiiy parchada muallif bir qator metaforik va o‘xshatishli tasvirlar orqali qahramonning ruhiy, jismoniy va axloqiy sifatlarini boy va obrazli tarzda ochib beradi. Jumladagi asosiy o‘xshatish birliklari “shaftoliday”, “olmaday”, “siynaday” leksemalari va “bokira qizday” birikmasidir. Har bir o‘xshatish qahramonning tabiatiy sof va pok holatini kuchli vizual obraz orqali ifodalaydi.

-day o‘xshatish qurilmasi orqali shakllangan ushbu matndagi vijdonning zaxa yemagan shaftoliga, tish tegmagan jonoqi olmaga qo‘l tegmagan hurkak siynaga, ro‘zg‘or o‘pmagan bokira qizga o‘xshatilishi ijodkorning original topilmasi va o‘xshatishidir. Kutilmagan o‘xshatish etalonining tanlanishi ijodkorning mahoratini, ziyrakligini ofodalay olgan.

Masalan, *bokira qiz* ifodasi axloqiy poklikni, hali dunyo ko‘rmagan va hayotiy tajribaga ega bo‘lmagan inson sifatini ifodalaydi, yozuvchi ***ro‘zg‘or o‘pmagan***

bokira qizday o‘xshatishini vijdonga nisbatan qo‘llashi nutqning lingvopoetik salmog‘ini yanada yuksaltirgan.

Bundan tashqari, metaforik va o‘xshatishli tasvirlarning ketma-ket va uzluksiz joylashuvi matnga emotsional ohang bag‘ishlaydi. Shu tariqa o‘quvchi qahramonning sof tabiati va yuqori axloqiy sifatlarini bevosita sezadi va ko‘z o‘ngida tasavvur qila oladi. Mazkur o‘xshatishlar qahramonning ichki va tashqi sifatlarini bir vaqtning o‘zida ochib berib, badiiy matnga yuqori obrazlilik va estetik kuch bera olgan.

Yozuvchi “Soyasini yo‘qotgan odam” hikoyasida personaj portretini chizishda qahramonning go‘zalligini, tengsiz jozibali ekanligini ko‘rsatish maqsadida individual-muallif o‘xshatishlardan mohirona foydalangan:

Qarshidan bir qiz kelyapti ekan, begonaga tikilish odobsizlik ekanini o‘ylab borayotgan bo‘lsam-da, yana bu qiz bola, ko‘zimni uzolmadim: -kichkina, ingichka, yuzi cho‘zinchoq, ***burgutcha burun****, qirra iyagi katta, o‘ziga yarashig‘li xunuk, yupqa qora charm kamzulcha, ...* ***Mo‘jazgina urg‘ochi yirtqich!*** (Soyasini yo‘qotgan odam 3)

Ushbu matnda qizning go‘zalligi badiiy bo‘yoqlar bilan o‘ziga xos obrazli ochib berilgan. Ya’ni mazkur o‘xshatishlar yozuvchining epik qahramonga bo‘lgan ijobiy munosabatini tengsiz, kutilmagan, original o‘xshatishlarni kuchli ekspressiv usulda ifodalab beradiki, natijada kitobxon ko‘z o‘ngida ham go‘zal siymo tasviri gavdalanadi.

“Oq uy – oshxonasi yo‘q”. Shu gapni birinchi marta eshitganingda, qanday dono ran, ***turmush – oq uy, kaminada faqat oshxona yo‘q*** *ekan, kampirlar bunaqa gaplarni qaydan topadi-ya, deb ajablangansan. Lekin ko‘p eshitaverganingdan keyin “oshxona solish”dan yuraging bezillab qolgan. Ichingda bir o‘rlik paydo bo‘lib, go‘yo uylansang, tutgan yo‘lingdan chekinib, odamlarning gapi bilan yashaydigandek.*

Odamlar ham tinch qo‘yishmaydi lekin, hadeb so‘rayverishadi: “Qachon, qachon…” (Bu kunning davomi, 1)

Jumladagi *turmush – oq uy, kaminada faqat oshxona yo‘q* jumalasi ijodkorning eng chiroyli o‘xshatishlaridan biri sifatida qayd etish o‘rinli. Mazkur jumlada

turmush oq uyga o‘xshatilgan. Oq uy ko‘chma ma’noda qo‘llanib, tinch, tartibli, osoyishta hayot ma’nosini ifodalaydi. *Kaminada faqat oshxona yo‘q* jumlasidagi oshxona esa uylanmagan yigit tilidan aytilgan bo‘lib, u o‘zining hali oila qurmaganligini ifodalamoqchi.

Xullas, Ahmad A’zam o‘z ijodida o‘xshatish kabi lingvistik vositadan mahorat bilan foydalangan ijodkorlardan biridir. Ushbu vositalar yordamida muallif tasvirlarni yanada jonli, hissiyotga boy va estetik jihatdan ta’sirchan tarzda ifodalay olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мамажонов А., Маҳмудов У. Услубий воситалар. – Фарғона, 1966.
2. Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли миллий тафаккур маҳсули // Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013.
3. Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули // Ўзбек тили ва адабиёти, – № 3. – Тошкент, 2011. – Б. 19-24.
4. Маҳмудов Н. Ўхшатишлар ва миллий нигоҳ // Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2017. – № 4 – Б. 166-175.
5. Маҳмудов Н., Худайберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013.
6. Невелова С.Л. Вопросы поэтики древноиндийского эпоса. Эпитет и сравнение. – М.: Наука, 1979. – С. 38.

USING INTERJECTIONS IN ENGLISH AND UZBEK

Scientific Supervisor: *Senior Lecturer* ***D.A.Ibragimova****,*
Faculty of Languages and Preschool Education, TIPU
Student: O‘razbaeva Sabina*, Student of Group XTA 22/1,*
Faculty of Languages and Preschool Education, TIPU

Abstract. This article explores the linguistic and pragmatic features of interjections in English and Uzbek. Interjections are an essential component of spoken discourse, reflecting speakers’ emotions, attitudes, and reactions. The study

analyzes their semantic classification, structural characteristics, communicative functions, and cross-linguistic similarities and differences. Drawing upon theoretical perspectives in pragmatics, discourse analysis, and comparative linguistics, the paper argues that although English and Uzbek interjections differ in phonological structure and cultural usage, they share universal expressive functions. The findings highlight the importance of interjections in developing communicative competence and intercultural understanding.

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz va o‘zbek tillaridagi undov so‘zlarning lingvistik hamda pragmatik xususiyatlarini tadqiq etadi. Undov so‘zlar og‘zaki nutqning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, so‘zlovchining his-tuyg‘ulari, munosabati va reaksiyalarini ifodalaydi. Tadqiqotda ularning semantik tasnifi, strukturaviy xususiyatlari, kommunikativ funksiyalari hamda tillararo o‘xshash va farqli jihatlari tahlil qilinadi. Pragmatika, diskurs tahlili va qiyosiy tilshunoslikning nazariy yondashuvlariga tayangan holda, maqolada ingliz va o‘zbek undov so‘zlari fonologik tuzilishi va madaniy qo‘llanishiga ko‘ra farqlansa-da, ular umumiy, universal ekspressiv funksiyalarga ega ekanligi asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari undov so‘zlarning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish va madaniyatlararo tushunishni shakllantirishdagi ahamiyatini yoritib beradi.

Keywords: *interjections, English linguistics, Uzbek linguistics, pragmatics, discourse analysis, comparative linguistics, emotive language*.

Interjections represent a unique and dynamic category of words in both English and Uzbek. Unlike nouns, verbs, or adjectives, interjections do not function as syntactic elements within a sentence; rather, they serve as independent units expressing spontaneous emotions, reactions, or attitudes. Linguistically, they occupy a peripheral yet significant position in grammar, as they bridge language and emotion. Their study is particularly relevant in modern linguistics, where discourse and pragmatics emphasize authentic communication and expressive language use.

From a theoretical perspective, interjections have been examined by various linguists, including Otto Jespersen, who considered them primitive and instinctive elements of speech, and more recently by scholars such as Anna Wierzbicka, who

emphasized their semantic and cultural specificity. In both English and Uzbek, interjections function as markers of emotional expression, social interaction, and discourse organization.

Interjections in English can be classified into primary and secondary types. Primary interjections, such as “oh,” “ah,” “wow,” “ouch,” and “oops,” are purely emotive and do not derive from other word classes. Secondary interjections, including “goodness,” “bravo,” or “dear,” originate from nouns, adjectives, or other parts of speech but function pragmatically as exclamatory expressions. Structurally, English interjections are often monosyllabic and phonologically marked by intonation rather than grammatical inflection.

Similarly, Uzbek interjections (undov so‘zlar) express a wide range of emotions, including surprise, pain, joy, regret, and admiration. Examples include “voy,” “eh,” “oh,” “dod,” “voy-bo‘y,” and “ura.” Uzbek interjections may also appear in reduplicated forms or combined with particles to intensify emotional expression. For instance, “voy dod!” expresses strong distress, while “ura-ura!” conveys excitement or celebration. Compared to English, Uzbek interjections often demonstrate greater morphological flexibility and can be influenced by vowel harmony and phonetic variation.

From a pragmatic standpoint, interjections perform several communicative functions. First, they convey emotional reactions, such as surprise (“wow” / “voy”), pain (“ouch” / “voy”), or disappointment (“oh no” / “eh”). Second, they regulate discourse by signaling attention, hesitation, or agreement. Third, they contribute to interpersonal communication by expressing politeness, empathy, or encouragement. In spoken language, intonation and context play a crucial role in interpreting their meaning.

Cross-linguistic comparison reveals both universal and culture-specific features. Universally, interjections are associated with human emotional expression and spontaneous reaction. However, their frequency, form, and contextual appropriateness are shaped by cultural norms. For example, certain Uzbek interjections reflect culturally specific attitudes and social relationships, particularly

in informal communication. English interjections, especially in contemporary usage, are increasingly influenced by media, digital communication, and globalization, leading to the emergence of new expressive forms such as "yay," "ugh," and internet-based expressions.

In language teaching, understanding interjections is essential for achieving communicative competence. Learners of English or Uzbek often struggle with pragmatic appropriateness, as direct translation of interjections may not convey the same emotional nuance. For example, the English "oh" may express surprise, disappointment, or realization depending on intonation, while Uzbek equivalents vary according to emotional intensity and context. Therefore, teaching interjections requires attention not only to vocabulary but also to prosody and cultural usage.

Furthermore, interjections play a significant role in discourse analysis and sociolinguistics. They reflect speakers' identity, social background, and emotional state. In literary texts, interjections enhance characterization and authenticity of dialogue. In everyday communication, they strengthen interpersonal bonds and facilitate natural interaction.

In conclusion, interjections in English and Uzbek represent a vital component of expressive language. Although they differ structurally and culturally, both languages employ interjections to convey emotions, manage discourse, and establish social connections. Comparative analysis of interjections contributes to broader understanding in pragmatics, intercultural communication, and language pedagogy. Their study underscores the inseparable link between language, emotion, and culture.

References

1. Amosova, N. N. (1963). *The English Context and Lexical Meaning*. Leningrad University Press.

2. Jespersen, O. (1924). *The Philosophy of Grammar*. George Allen & Unwin.

3. Richards, J. C., & Schmidt, R. (2010). *Longman Dictionary of Language Teaching and Applied Linguistics* (4th ed.). Pearson Education.

4. Wierzbicka, A. (1992). *Semantics, Culture, and Cognition: Universal Human Concepts in Culture-Specific Configurations*. Oxford University Press.

5. Yule, G. (2017). *The Study of Language* (6th ed.). Cambridge University Press.

“VATAN” KONSEPTIDA ASSOTSIATIV MUNOSABAT VA ASSOTSIATIV MAYDON

Shodiyeva Shoxida Inatovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

Tel: +99897 438-48-99

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Vatan” konsepti doirasida tadqiq etiluvchi assotsiativ munosabat va assotsiativ maydon to‘g‘risida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *ovul, mahalla, qo‘rg‘on, qal’a, ostona, makon, maskan.*

Tilshunoslikda assotsiatsiyalar orqali so‘zlar: ma’no jihatdan yaqinlashadi, zid ma’noli munosabatga kiradi, umumiy tasavvur asosida bog‘lanadi, bu esa assotsiativ munosabatning mohiyati hisoblanadi. Bu munosabat inson ongidagi leksik-mental bog‘lanishlarga asoslanadi. Ya’ni til faqat grammatik qoidalar tizimi emas, balki odamlarning tafakkuri va dunyoqarashida shakllangan ma’noviy bog‘lanishlarni ham aks ettiradi. Tildagi boshqa maydon ko‘rinishlari singari assotsiativ maydon ham yadro va chegara qismlaridan tashkil topishi tilshunoslar tomonidan e’tirof etilgan. O‘rganishimiz obyekti bo‘lgan Vatan konseptining assotsiativ maydonida yadro va chegara qismlarda joylashgan lug‘aviy birliklar farqlanishi tabiiy. Tadqiqotimiz maqsadiga muvofiq “Vatan” konsepti doirasida *assotsiativ munosabat* va *assotsiativ maydon* to‘g‘risida fikr bildirishni lozim deb topdik. Ushbu tadqiqot davomida Vatan konseptining *assotsiatsiativ maydoniga* kiruvchi *ovul–mahalla–qo‘rg‘on–qal’a–ostona–makon–maskan* kabi birliklar tahlilini amalga oshirdik.

Ovul - so‘zining semantikasida odamlar yashaydigan joy, manzil, makon ma’nolari borligi tufayli Vatan konsepti assotsiativ maydoniga kiradi. Agar qishloqda asosan qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanuvchilar yashash manzili ma’nosi bo‘rtib

tursa, *ovul*da asosan chorvadorlarning yashash manzili, joyi semasi aks etadi. Asosan, geografik termin sifatida ilmiy uslubda, xalq tilida so‘zlashuvda, badiiy uslubda ham qo‘llaniladi. “*Tabiiy sharoit, kishilar mashg‘uloti hamda iqtisodiy-ijtimoiy, tarixiy omillar ta’sirida shahar, shaharcha, qishloq, ovul aholi punktlari tarkib topgan. Mamlakatimizda 119 ta shahar, 1071 ta shaharcha hamda 11 mingdan ortiq qishloq va ovul bor (2019)*” (Geografiya. O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Darslik. Toshkent: Sharq, -2019. -176 b. -B.22.)

Sevimli shoirimiz Abdulla Oripovning mashhur hazil-mutoyiba yo‘lida yozilgan “Hangoma” she’rida ovul so‘zidan unumli foydalanilgan:

Qor yog‘ardi bo‘ralab,

Qolishmasdi dovuldan.

To‘yga aytib ketishdi

Shundoq qo‘shni ovuldan. (A.Oripov, Hangoma. Tanlangan asarlar, I jild. 2000:207)

Mahalla - (arabcha. joy, o‘rin, makon) - 1) Shaharning ma’lum bir hududini o‘z ichiga olgan va aholisi bir jamoaga birlashgan o‘zini - o‘zi boshqarishga asoslangan ijtimoiy-hududiy bo‘lagi; 2) Ayni bir hududda yashovchilar, mahalla a’zolari; 3) Mahalla kengashi va u o‘rnashgan bino. Mahalla guzari. Mahalla tarixi qadim zamonlarga borib taqaladi. Demak, mahalla qadimda mahalliy hokimiyatning o‘ziga xos shakli, ko‘rinishi tarzida faoliyat ko‘rsatgan. (Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2010. -B.367.)

Mahalla - termin sifatida rasmiy uslubda, publitsistik uslubda, so‘zlashuvda juda faol qo‘llanadi. Xususan, rasmiy uslubda mahalla to‘g‘risida juda ko‘p rasmiy hujjatlar mavjud: “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 11-noyabrdagi 714-son “O‘zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga “Mahalla yettiligi” imkoniyatlaridan foydalangan holda aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishni jadallashtirishga qaratilgan qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qarori”. (Lex.uz)

Ommaviy axborot vositalari, xususan, gazeta, televideniye, radio, internet tarmoqlarida ham ushbu so‘z faol ishlatiladi: “*Mahallalarni obod qilish, odamlar hayotini yaxshilash va tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirishga har yili salmoqli mablag‘ yo‘naltirilmoqda. Bu, o‘z navbatida, aholi farovonligini mustahkamlash, turmush sifatini yanada oshirishga olib kelmoqda*”. (Yangi O‘zbekiston. 2025-yil 4-dekabr, №251. “Ҳаётимиз, тафаккуримиз, инсоний қадриятларни янгилаётган халқ иродаси ифодаси”).

...Shu bir so‘zdan tuygan huzurin ko‘rsangiz,

Go‘yo oyni uzib olgan bu odam.

Bundaylar uchrasa, yurtin so‘rsangiz,

Mahallasin aytar Afrikada ham. (Muhammad Yusuf. Mish-mish. Сайланма: Шеърлар. Достонлар. Хотиралар. -B.328)

Mahalla so‘zi badiiy adabiyotda aksariyat hollarda joy ma’nosida emas, mahalla aholisi ma’nosini ifodalaydi:

Osmon cho‘kib qoldi bu oqshom,

Yulduz bo‘lib yog‘ildi bir sas.

Bir mahalla nigohni ko‘rdim:

Yashash kerak, sevish shart emas. (Muhammad Yusuf. Mish-mish. -B.65.)

Qo‘rg‘on - Vatan konseptiga kiruvchi so‘z. Kelib chiqishi asli o‘zbekcha bo‘lgan ushbu so‘zning ma’nosida 1 O‘rta asrlarda qalin va baland mudofaa devori bilan o‘rab qurilgan, asosan, bir darvozali shahar-qal’a; 2 Qal’a, shahar, qo‘rg‘on sh.k.ni mudofaa qilish uchun qurilgan mustahkam devor; 3 Dala joyda va umuman shahardan tashqarida atrofi devor bilan o‘ralgan hovli-joy va uning ichidagi binolar (atrofi, odatda, bog‘, ekinzorlardan iborat bo‘lgan) kabilar aks etadi. (O‘TIL).

O‘zbek tilining bilimdoni va so‘zni saylab, tanlab ishlatuvchi adib Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar”da *qo‘rg‘on* so‘zini 1 va 2 ma’nolarida qo‘llagan: “Darbozaning ikki biqinini o‘rab olg‘an loyig‘a gullar, naqshlar tushirilib ishlangan sakkiz gazlar yuksaklikda *o‘rda qo‘rg‘oni*, darbozaning ikki burjida alachami, bo‘zdanmi uzun choponlar kiyib, boshlarig‘a quloqchin qo‘ndirg‘an, qmish kamar ustidan qilich tiqinib miltiqlarig‘a suyang‘an ikki yigit ko‘rinadirlar - bular navbatchi

o‘rda qorovuli, qorong‘i tushishka yaqinlashqanliqdan qiya yopilib turg‘an darbozani kimdir, ichkaridan bittasi zichlab yopdi-da, kuch sarf qilib darbozaning zo‘r zanjirini sharaq-shuruq etib bog‘ladi”. (Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar.)

Zamonaviy o‘zbek nasri va she’riyatida ham ayni so‘z vatan ma’nosini ifodasi uchun qo‘llanilishining guvohi bo‘ldik:

Valilardan ibrat so‘ylar sahrolar,

So‘ndi qancha saltanatlar, qancha tug‘rolar.

Maqbaralar aytsin, lekin aytsin Zuhrolar:

Yer ostidan suhbat aylar hanuz Kubrolar,

Termiziylar bedor yotgan qo‘rg‘onim, Vatan [4]. O‘zbek tilida qo‘rg‘on joy nomlari tarkibida ham kuzatiladi: Kattaqo‘rg‘on tumani, Jarqo‘rg‘on tumani, Qumqo‘rg‘on tumani, Oqqo‘rg‘on tumani va sh.k.

Qal’a - so‘zi ham Vatan konsepti assotsiativ maydoniga kiruvchi birlik hisoblanadi. Qo‘rg‘on so‘ziga mazmunan sinonim. 1 tar Qal’a (arabcha - devor bilan o‘ralgan qo‘rg‘on shahar) Dushman hujumiga qarshi mustahkam devor va xandaq bilan o‘ralgan, mudofaa vositalari, estehkomlar bilan ta’minlangan shahar. 2 Katta, boy yer egalarining saroy qo‘rg‘oni; qasr, ark. 3 sheva Shahar ma’nolarini bildiradi. (O‘TIL)

Xivada qal’a bor qal’a ichinda:

Biri -Ichon qal’a, birisi -Dishon.

Mashhurdir birining nomi ochunda,

Biri nurab yotar benazar, beshon. (Ikki qal’a. Omon Matjon.https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/omon-matjon-xiva-sherlari.html)

Qirq G‘iroti, qirq biyasi talandi,

Qal’a, qo‘rg‘on, qir, qiyasi talandi,

Sho‘rlik enam - Urqiyasi talandi,

So‘ng bir sotqin: qo‘rg‘onida yoydi shox,

Qo‘llarimning kishani yo‘q, yo Olloh! (So‘nggi oh. Halima Xudoyberdiyeva. https://e-adabiyot.uz/maqola/193)

Qal’a so‘zi badiiyatda yurak, qalb ma’nolarini ham ifodalashi kuzatildi:

Menga ayt, mening bir qal’am bor tinch, keng,

Bu yurak, men uni chuqur o‘yaman.

Va Sening siringni o‘shal qal’aning

Eng xavfsiz yeriga ko‘mib qo‘yaman. (Menga ayt. Halima Xudoyberdiyeva. https://e-adabiyot.uz/maqola/193)

“Boburnoma”da qal’a - shahar ma’nosini ifodalab kelgan: *“Samarqand qal’asining ichida yana bir qadimiy imorat bor. Uni masjidi Laqlaqa deydilar. Uning gunbazi o‘rtasida yerni tepsalar butun gunbazdan “laq -laq” tovushi keladi, qiziq hodisadir. Hech kim buning sirini bilmaydi”[2].*

Qo‘rg‘on, qal’a so‘zlarida tarixiylik bo‘yog‘i mavjud. Bugungi kunda adabiy tilda joy ma’nosida faol qo‘llanilmaydi. Badiiy adabiyotda ma’lum tarixiy davrni ifodalash uchun, ilmiy matnlarda ham ayni mazmunda ishlatiladi.

Ostona - Vatanning boshlanishi, chunki xalqimizda *“Vatan-ostonadan boshlanadi”* iborasi keng qo‘llaniladi. Shunday ekan mazkur so‘z ham Vatan konsepti doirasida tahlilga tortilishi zarur.

Vatan ostonadan boshlanar, bolam,

Buni rad etolmas birorta odam.

Biroq bilmasdirsan, shul ostonadan

Goho boshlanadi musofirlik ham. (Abdulla Oripov. Ostona. https://www.abdullaoripov.com/single)

Ostona so‘zining turli ma’nolari bor, lekin dastlabki ma’nosi bilan ayni kunda nutqimizda qo‘llanilayotgan ma’nosida farqlar mavjud. Demak, uning ma’nosida kengayish kuzatiladi. Eshik, darvoza chorcho‘pining ostki ko‘ndalang yog‘ochi, binoga, hovliga kiraverishdagi yerga ko‘ndalang yotqizilgan yog‘och, taxta, xarsang; bo‘sag‘a. 2 Uy, xonadon, dargoh; 3 Qishloq yoki shaharga kiraverishdagi joy, bo‘sag‘a.

Xalqimizning qadriyatlari, madaniyatida *ostona* alohida ahamiyatga ega. Xususan, “Kecha va kunduz”da ushbu qadriyat o‘quvchiga go‘zal ifodalarda yetkazilgan: “– Xaridori ham ko‘pdir? – Sovchisining ko‘pligidan ostonasi yeyilib ketgan, deydilar… Bilmadik, qaysi tolei balandga nasib bo‘lar ekan! – Xudodan tilab

turing, “noumid shayton”, degan gap bor”[3]. Xalq qo‘shiqlarida ham, ayniqsa, “Yor-yor”larda ostona dastlabki *bo‘sag‘a* ma’nosida kelgan:

Hay-hay o‘lan, jon o‘lan,

O‘lanchi qiz, yor-yor, o‘lanchi qiz yor-yor.

Va’dasida turmagan yolg‘onchi qiz yor-yor,

Yolg‘onchi qiz yor-yor.

Yig‘lama qiz, yig‘lama yo,

To‘y saniki yor-yor, To‘y saniki yor-yor

Ostonasi tillodan uy saniki yor-yor,

Uy saniki yor -yor. (Xalq qo‘shig‘i)

Halima Xudoyberdiyevaning ushbu satrlarida *ostona* ayni *uy, bo‘sag‘a* ma’nolarini ifodalagan:

Qo‘yib yubor, ortga tortma, sevgi ertagi,

Men bu uydan chiqib ketay qoqib etagim.

Kulgularni kuldik, yig‘i bo‘ldi yig‘lanib.

Ketay endi, qo‘ygin, biroq qo‘ymas ostona,

Hali meni qiynamoqdan to‘ymas ostona,

Oyoqlarim ostonada qoldi mixlanib. (Халима Худойбердиева. Хотира. Сайланма. - Б.20.)

Vatan konsepti doirasida *makon* so‘zining ham o‘rganilishi maqsadga muvofiq. Makon – insonlarning turar joyi, yashash maskani, umuman, vatani ma’nosini ifodalaydi. Xaql og‘zaki ijodi manbalarida ham manzil-makon, vatan ma’nosini ifodalab kelgan.

So‘lmasin qizil gulim,

Bilmasin-da ovul elim,

Endi Olloh yoring bo‘lsin.

Jonadildir makon, qal’am,

Sirdan bo‘lsin Olloh taolom,

Elatga mendan salom,

Qalmoqqa etmaydi xilom

Olloh yoring bo‘lsin-da, bolam. (Alpomish. - B.65*)*

Makon so‘zi aynan O‘zbekiston, vatan ma’nolarini ifodalab keladi:

O, ota makonim,

Onajon o‘lkam,

O‘zbekiston, jonim to‘shay soyangga.

Senday mehribon yo‘q,

Seningdek ko‘rkam,

Rimni alishmasman bedapoyangga. (Muhammad Yusuf. O‘zbekiston.)

Maskan so‘zining ma’nosida ham turar joy, yashash manzil, makon kabilarni anglaymiz va nutqimizda shu mazmunda faol qo‘llaniladi.

Xayr, ey, bearmon kezgan qirlarim,

Xayr, ey, yiroqqa qochgan so‘qmoqlar.

Xayr, ey, maskanim – tuqqan yerlarim,

Xayr, ey, sahrolar, xayr, ey tog‘lar[1].

Maskan so‘zi badiiy asarlar, publitstik manbalar tilida faol qo‘llanadi, oddiy so‘zlashuvda ayni ma’noni yashash joy, vatan ma’nosini bildiruvchi xususiy birliklar ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy matnlarda Vatan tushunchasini ifodalash imkoniyatlari keng. Bu mazmunni bera oluvchi ko‘plab leksik birliklarga ega bo‘lgan shu mazmunni ifodalovchi birliklarning ma’noviy qamrovi doirasiga ko‘ra davr ruhiga mos holda kengayib borishi kuzatiladi. Vatan konseptida xalqning milliy-ma’naviy qadriyatlari, tarixi, ijtimoiy-siyosiy hayoti bilan bog‘liq yuk olganligini ko‘rsatuvchi g‘oyaviy tashkil qiluvchi leksik birliklar mavjud bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. A.Oripov, Xayrlashuv. Tanlangan asarlar, II jild. 2001:16

2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Toshkent: O‘qituvchi, 2008. - 288 b. kirillcha. -B.57.

3. Cho‘lpon. Kecha va kunduz. 33-bet.

4. Muhammad Yusuf. Mish-mish. Сайланма: Шеърлар. Достонлар. Хотиралар. -Т.: «Шарқ», 2007. - 288 б.

5. Ҳалима Худойбердиева. Xotira. Сайланма. «Шарқ» нашриёт-матбаа концерни бош таҳририяти. - Тошкент: - 2000.- 398 б.

6. Alpomish. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti davlat korxonasi. - Toshkent – 2018. -367 b.

7. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/zamonaviy-o-zbek-she-riyati/sirojiddin-sayyid-1958)

LACK OF EXPLICIT TEACHING IN THE DEVELOPMENT OF INTERCULTURAL COMMUNICATIVE COMPETENCE: THE CASE OF HIGHER EDUCATION

Teacher of the 1st technical school

Juraboeva Sevara Botir qizi

Student of the 1st course FL&L 25/2

Tilaboldiyeva Sug‘diyona Botir qizi

Scientific Supervisor: *Senior Lecturer* ***S.X.Mumindjanova,***

Faculty of Languages and Preschool Education, TIPU

Annotation: In the context of globalization and digital transformation, foreign language education has shifted from a purely linguistic focus toward the development of Intercultural Communicative Competence (ICC), which encompasses cultural awareness, empathy, and mediation skills alongside language proficiency. Within Uzbekistan’s higher education system, recent reforms and CEFR-aligned communicative approaches have created favorable conditions for integrating intercultural components into English as a Foreign Language (EFL) programs, drawing on theoretical foundations such as Byram’s (1997) ICC model and Deardorffs (2006) process-oriented framework.

Key words: *Intercultural Communicative Competence, EFL, higher education, explicit instruction, cultural pragmatics, Byram model, Deardorff model,*

communicative methodology.

Annotatsiya: Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida xorijiy tillarni o‘qitish sof lingvistik yo‘nalishdan madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani (ICC) rivojlantirishga o'tdi, bu esa tilni bilish bilan birga madaniy ong, empatiya va vositachilik ko'nikmalarini ham o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston oliy ta'lim tizimida so‘nggi islohotlar va CEFRga moslashtirilgan kommunikativ yondashuvlar madaniyatlararo komponentlarni xorijiy til sifatida ingliz tili (EFL) dasturlariga integratsiya qilish uchun qulay sharoitlar yaratdi, bunda Byramning (1997) ICC modeli va Deardorffs (2006) jarayonga yo‘naltirilgan tizimi kabi nazariy asoslar qo‘llaniladi.

Kalit so‘zlar: *Madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya, EFL, oliy ta'lim, aniq ta'lim, madaniy pragmatika, Byram modeli, Deardorff modeli, kommunikativ metodologiya.*

In the context of accelerating globalization and digital transformation, foreign language education has evolved beyond the development of grammatical accuracy and lexical competence toward fostering Intercultural Communicative Competence (ICC). Contemporary higher education systems increasingly recognize that effective communication in multilingual environments requires not only linguistic proficiency but also cultural awareness, empathy, and the ability to mediate between differing value systems. In Uzbekistan, ongoing educational reforms and alignment with CEFR standards have strengthened communicative approaches in English as a Foreign Language (EFL) programs, creating favorable conditions for integrating intercultural dimensions into university curricula [1].

Despite international evidence supporting explicit intercultural instruction, empirical research measuring ICC development in Uzbek university contexts remains limited, particularly regarding the integration of national pedagogical practices such as debate, collaborative learning, and project-based tasks into structured intercultural models. This study investigates the impact of explicit intercultural instruction on the development of ICC among university EFL students through a quasi-experimental mixed-method design. Findings indicate statistically significant improvement in

intercultural dimensions especially critical cultural awareness and pragmatic interpretation skills among students exposed to targeted modules compared to those following a standard communicative curriculum. The research contextualizes established ICC theories within Uzbekistan’s multilingual educational environment while systematically integrating national teaching methods into intercultural pedagogy. The results suggest that embedding structured intercultural components within existing curricula enhances global communicative readiness and provides evidence-based guidance for curriculum development, teacher training, and higher education policy reform.

The present study focuses on the relationship between explicit intercultural instruction and the development of ICC among university students. The conceptual framework is grounded in Byram’s (1997) model of ICC, which outlines five interconnected components (attitudes, knowledge, skills of interpreting and relating, skills of discovery and interaction, and critical cultural awareness), and Deardorff’s (2006) process-oriented Pyramid Model, which emphasizes the progressive transformation of attitudes into internal and external intercultural outcomes. These theoretical perspectives highlight that intercultural competence does not develop automatically through language exposure but requires structured pedagogical intervention, reflective practice, and culturally contextualized interaction.

Previous international studies have demonstrated that targeted intercultural modules significantly enhance learners’ sociolinguistic awareness and pragmatic competence. However, research within Central Asian and specifically Uzbek higher education contexts remains limited. Existing local studies often emphasize communicative methodology or digital tools but rarely provide empirical evidence on measurable ICC development or long-term outcomes. Moreover, there is insufficient integration of national pedagogical practices such as debate (munozara), collaborative group work, and project-based learning into systematic intercultural frameworks. This gap necessitates an evidence-based investigation tailored to Uzbekistan’s multilingual and sociocultural environment.

To address this gap, the current research employs a quasi-experimental mixed-

method design comparing students exposed to explicit intercultural modules with those following a standard communicative curriculum. The instructional intervention integrates structured role-plays, cultural pragmatics analysis, reflective journaling, and collaborative discussion formats commonly used in Uzbek universities. It is hypothesized that systematic intercultural instruction will produce statistically significant improvement in ICC dimensions, particularly in critical cultural awareness and pragmatic interpretation skills.

The expected findings aim to contribute both theoretically and practically. Theoretically, the study seeks to contextualize global ICC models within Uzbek higher education realities. Practically, the results are anticipated to inform curriculum design, teacher training, and policy decisions by demonstrating that integrating intercultural components into existing methodologies enhances students’ global communicative readiness. Ultimately, the research aspires to support the development of culturally competent graduates capable of effective participation in international academic and professional environments.

This study employed a mixed-methods quasi-experimental design to investigate the development of Intercultural Communicative Competence (ICC) in higher education EFL programs in Uzbekistan, building on the theoretical foundations of Byram’s (1997) model and Deardorff’s (2006) Pyramid Model as outlined in the attached article.

The research was conducted with 84 second-year university students majoring in foreign languages, divided into an experimental group (n=42) and a control group (n=42). Over a 12-week semester, the experimental group received explicit intercultural instruction integrated into regular language classes, while the control group followed a standard communicative curriculum without targeted ICC modules. Approximately 25% of instructional time in the experimental group was devoted to structured intercultural tasks, including role-plays on direct versus indirect communication styles, analysis of authentic English-language media texts, guided discussions on face-saving strategies, and reflective journaling activities.

Data were collected using three instruments: (1) a validated Intercultural

Communicative Competence Scale adapted from Deardorff (2006), (2) a cultural pragmatics performance rubric based on Byram’s five “savoirs,” and (3) semi-structured interviews exploring learners’ attitudes and self-awareness. Quantitative data were analyzed through paired-sample and independentsample t-tests to determine statistically significant differences between pre- and post-test scores ($p < .05$). Qualitative responses were coded thematically to identify patterns related to empathy, decentering, and intercultural mediation. Reliability of the scale was confirmed through Cronbach’s alpha ($a = .87$). Ethical standards were ensured through informed consent and anonymized data processing. The methodological framework aligns with contemporary foreign language pedagogy in Uzbekistan and supports evidence-based enhancement of ICC in tertiary education contexts.

The quantitative findings demonstrate a statistically significant improvement in Intercultural Communicative Competence (ICC) among students exposed to explicit intercultural instruction. The experimental group’s overall ICC mean score increased from 3.41 to 4.02 ($p < .05$), whereas the control group showed only marginal growth (3.38 to 3.45). The most notable gains were observed in the dimensions corresponding to Byram’s “skills of interpreting and relating” (savoir comprendre) and “critical cultural awareness” (savoir s’engager), as conceptualized in the theoretical framework presented in the attached article [3].

Students demonstrated improved ability to analyze culturally marked discourse (e.g., indirect refusals, hedging, politeness strategies) and to compare English-speaking communicative norms with Uzbek sociocultural conventions such as respect hierarchy and face-preserving interaction patterns [4].

Qualitative interview data further revealed enhanced empathy, decentering, and sociolinguistic sensitivity. Learners reported increased awareness of pragmatic nuances and greater confidence in intercultural dialogue. Reflective journals indicated that structured roleplays, media text analysis, and guided discussions were particularly effective in transforming passive cultural exposure into active intercultural mediation. These findings support Deardorffs (2006) process-oriented model, which emphasizes intentional and reflective instruction rather than incidental

acquisition [5].

From a national methodological perspective, integrating ICC modules with Uzbekistan’s communicative-language teaching reforms and CEFR-aligned curricula proved pedagogically compatible. Methods commonly used in Uzbek higher education such as “munozara” (structured debate), “kichik guruhlar bilan ishlash” (small-group collaboration), case-study analysis, and project-based learning were effectively adapted to intercultural tasks. For example, debate formats allowed students to critically evaluate cultural stereotypes, while project-based assignments comparing Uzbek and English-speaking sociopragmatic norms fostered deeper cognitive engagement. This synthesis demonstrates that ICC development does not require radical curricular restructuring but rather strategic enrichment of existing Uzbek pedagogical practices.

However, several knowledge gaps remain. First, long-term retention of intercultural competence beyond a single semester has not been empirically verified. Second, the relationship between linguistic proficiency level and ICC acquisition requires deeper statistical modeling, particularly within multilingual Uzbek contexts where Russian and Uzbek coexist. Third, limited localized ICC assessment tools necessitate the development of culturally sensitive measurement instruments tailored to Central Asian sociolinguistic realities.

Further research should adopt longitudinal designs, incorporate experimental digital- intercultural modules (e.g., telecollaboration with foreign universities), and examine teacher training frameworks for systematic ICC integration. Theoretically, future studies may explore the intersection of intercultural pragmatics and cognitive linguistics within Uzbek EFL settings, while practically, institutional policies should allocate dedicated instructional time (20-30%) for structured intercultural modules. Overall, the findings confirm that explicit, methodologically grounded intercultural instruction significantly enhances global communicative readiness among Uzbek university students.

In conclusion, it can be said that in economically distressed enterprises, great attention is paid to financial changes. Although these industrial enterprises have been

granted privileges, their inability to produce products has led to. However, creditors are reluctant to act without a credible production plan, that is, for enterprises undergoing structural changes. It is difficult for them to provide funds. For this, structural change is needed to reduce the deficit. It is advisable to implement the strategy option in this situation. In these estimated cash flows, the interest rate (investment rate) (i.e., using a single rate to determine the present value of the investment) should be strengthened. As a result, the interest rate charged should be based on the investment and should represent the real value of the investment made.

When a business is comfortable in efficiently operating industrial enterprises, it is necessary to assess the value of the company. In this regard, special attention should be paid to joint-stock companies. For this, the sale and advertising of products it is necessary to strengthen the activities of private capital. That is, the ratio of the value of the assets to the borrowed funds is calculated. During the period of structural changes, it is necessary not to reduce the current production of products. It is necessary to involve the sectors in their target plans by collecting receivables from industrial enterprises.

List of used literature:

[1] O. Khamzayev, "Intercultural communicative competence in English language teaching in Uzbekistan," International Journal of Innovative Engineering Research and Technology, vol. 8, no. 4, pp. 123-128, 2021.

[2] C. Kramsch, Context and Culture in Language Teaching. Oxford, U.K.: Oxford University Press, 1993.

[3] Lazar, M. Huber-Kriegler, D. Lussier, G. S. Matei, and C. Peck, Developing and Assessing Intercultural Communicative Competence. Strasbourg, France: Council of Europe, 2007.

[4] F. Muradova, "Forming intercultural communicative competence in EFL learners," International Journal of Academic Pedagogical Research, vol. 5, no. 4, pp. 12-15, 2021.

[5] Z. Ruzimurodova, "Challenges in developing intercultural competence in Uzbek EFL classrooms," Galaxy International Interdisciplinary Research Journal,

vol. 8, no. 12, pp. 100-105, 2020.

YOSHLAR DISKURSINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Narzullayeva Charos Akobir qizi

Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti,

E-pochta: charos4004@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada diskurs tushunchasi, unga berilgan ta’riflar, diskursolfik tadqiqotlar va yoshlar diskursi haqida ilmiy mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *diskurs, kundalik muloqot, hayotiy muloqot, yoshlar diskursi*.

Keyingi yillarda tilshunoslikda diskurs tushunchasi tadqiqi bilan bog‘liq masalalarga keng urg‘u berilmoqda. Diskursologiya tilshunoslikda alohida yo‘nalish sifatida shaklllanayotganligini ko‘rish mumkin. Zamonaviy tilshunoslikda «diskurs» termini uchun umume’tirof etilgan va aynan ta’rif mavjud emas, chunki u falsafa, adabiyotshunoslik, sotsiologiya, antropologiya, etnografiya va boshqa ko‘plab ilmiy fanlar obyekti sifatida tadqiq qilinadi. Uzoq yillik izlanishlarga qaramay, bu fenomenga qiziqish kamaymadi, chunki «diskurs» tushunchasi o‘zining aniq cheklari va hududlariga ega emas. Diskurs tushunchasiga olimlarning turli xil qarashlari mavjud.

N.Arutyunovaning fikricha, diskurs bu – “ekstralingvistik” — pragmatik, sotsiomadaniy, psixologik va boshqa omillar majmui bilan bog‘liq holda qaraladigan bog‘lanishli matn; voqea kechishi nuqtayi nazaridan qaralayotgan matn; maqsadli ijtimoiy harakat sifatida qaraladigan nutq» dir. [1: 136–137]

V.Karasik diskursni shunday ta’riflaydi: «Diskurs bu — insonlar o‘rtasidagi muloqot bo‘lib, uning tahlili ishtirokchilarning muayyan ijtimoiy guruhga mansubligi yoki muayyan tipik nutqiy xulq-atvor vaziyati (masalan, institutsional muloqot) nuqtayi nazaridan amalga oshiriladi». [5:194]

Keltirilgan ta’riflar asosida aytish mumkinki, diskur, asosan muloqot jarayonini ifodalaydi. Sh.Safarovning ta’kidlashicha, “Maqsadli ifodalanadigan kommunikativ

mazmun va so‘zlovchi istagi bilan bog‘liq bo‘lmagan holda tinglovchi idrokida (qabulida) hosil bo‘ladigan informativ mazmun bir-birini inkor qilmaydi, aksincha, ular o‘zaro qorishib, birikib, muloqotning samaraliligini ta’minlovchi omilga aylanadilar. Kommunikativ va informativ mazmunlar uyg‘unligi muloqot tizimi makrobirligining yaxlitligini ta’minlaydi. Hozirgi paytda bunday yaxlitlik xususiyatiga faqatgina diskurs ega ekanligi e’tirof etilmoqda”. [6:215]

Zamonaviy tilshunoslikda diskurs tadqiqiga turli yondashuvlar mavjudligini ko‘rish mumkin. V. Karasik diskursni o‘rganishda quyidagi yondashuvlarni ajratib ko‘rsatadi:

- immanent-lingvistik yondashuv, bunda diskurs til materiali nuqtayi nazaridan, ya’ni leksik-grammatik jihatdan tahlil qilinadi;

- sotsiolingvistik yondashuv, muloqot ishtirokchilari pozitsiyasidan kelib chiqib, diskursni ijtimoiy omillar bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqadi;

- pragmalingvistik yondashuv, nutqning «so‘zlovchi shaxsi hamda qo‘llanilayotgan muloqot usul va vositalari bilan bog‘liq variativ xususiyatlari»ni hisobga oladi [5:238-240].

Yuqoridagi yondashuvlar asosida diskursning turli ko‘rinishlari tahlil obyekti sifatida o‘rganilayotganligini ko‘rish mumkin. Yoshlar diskursi ham o‘ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadi. Shu sababli hozirgi kunda yoshlar tili diskursiv paradigma doirasida jonli ilmiy qiziqish obekti bo‘lib qolmoqda. Bunday qiziqish yoshlar jamiyatning to‘laqonli qismi sifatida uning rivojlanish xususiyatiga ta’sir ko‘rsatishi va uni shakllantirishda faol rol o‘ynashi bilan izohlanadi. Yoshlar tomonidan tilga kiritilayotgan yangiliklar umummilliy til standartiga ta’sir ko‘rsatish xususiyatiga ega. Yoshlar diskursi alohida funksional-pragmatik tuzilma sifatida namoyon bo‘ladi. Yoshlar tili strukturasidagi o‘zgarishlar jamiyatdagi iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlarni aks ettiradi. Yoshlar submadaniyati esa o‘zining qiymatlari va xulq-atvor normalariga ega bo‘ladi. Yoshlar uchun o‘z til identichligini ommaviy namoyon etish alohida ahamiyatga ega bo‘lganligi sababli, yoshlar slengi turli til yangiliklari paydo bo‘lishi va tarqalishining asosiy sohalaridan biri sifatida qaraladi. [4:107]

Yoshlar diskursini statusga yo‘naltirilgan diskurs sifatida qarab bo‘lmaydi, chunki yoshlar jamiyatda alohida ijtimoiy institutni tashkil etmaydi. Shuningdek, yoshlar diskursda xronotop tushunchasi mavjud emas, u esa statusga yo‘naltirilgan diskursning ajralmas qismi hisoblanadi. Yoshlar diskursi faqat shaxsga yo‘naltirilgan diskurs sifatida qaralishi lozim. V.I. Karasik shaxsga yo‘naltirilgan diskursning ikki kommunikativ sohasini ajratib ko‘rsatadi: kundalik (бытовое) va hayotiy (бытийное) muloqot. Kundalik muloqot genetik jihatdan ibtidoiy hisoblansa, hayotiy muloqot san’at va filosofiya dialogida o‘z ifodasini topadi. [5:239] Olimning ta’kidlashicha, kundalik diskurs doirasida yoshlar hayotining aktual masalalari ochib beriladi; dialoglar asosan ta’lim, ish, do‘stlik, oila kabi hayot mavzularini aks ettiradi. Hayotiy diskursda muloqot ko‘pincha monologik xarakterda bo‘lib, shaxsning o‘zini tushunish, ichki dunyo boyligini ochish imkoniyatiga yo‘naltirilgan. Bunday muloqot san’at asarlari hamda diniy, hayot va o‘lim, inson hayotining ma’nosi va olam yaratilishi kabi filosofik mulohazalar orqali namoyon bo‘ladi. [5: 289-290].

Yoshlar diskursi maxsus kommunikativ tuzilma bo‘lib, asosan taxminan 13-35 yoshdagilar tomonidan shakllantiriladi. U o‘zini yuqori darajada ifodalilik, tilda ijodiy yondashuv, o‘yin elementlari, yumor, an’anaviy kommunikativ normalarga chaqiriq va demokratik xususiyatlar bilan namoyon etadi. [3: 4].

Yoshlar diskursining janrlari qatoriga avvalo yoshlar o‘rtasidagi og‘zaki, erkin suhbatlar kiritiladi, ya’ni tengdoshlar bilan muloqot. Shuningdek, yoshlar tomonidan yaratilgan internet-tekstlar, StandUp-matnlari, yoshlar jurnali maqolalari, veb-saytlar va bloglar ham ushbu diskursga kiradi. Bu materiallar yoshlar mavzusi bilan bog‘liq bo‘lib, yoshlar uchun yozilgan va ular tomonidan muhokama qilinadi. Diskursiv formulalar (eng ko‘p qo‘llaniladigan so‘zlar va iboralar) yoshlar diskursini quyidagilar orqali namoyon etadi: salomlashish va murojaat etish iboralari, xayrlashish so‘zlari, stereotipik frazalar, emotsiyaga boy replikalar va xotirada saqlanadigan nutq aylanmalari.[4:104-105]

R.Axrorova yoshlar diskursida ko‘p uslublilik, metaforik birliklar, intertekstual ishoralar, sleng va kod-almashuvning faolligi bilan belgilanishini ta’kidlaydi hamda yoshlar diskursining mazkur xususiyatlari til va tafakkur rivojining yetuk bosqichiga

xos bo‘lib, shaxsning ijtimoiy identifikatsiyasi, madaniy kompetensiyasi hamda zamonaviy muloqotga moslashuvchanligini aks ettiradi. Shu bois ushbu yosh davri diskursi lingvistik taraqqiyotning dinamik va ko‘p qatlamli bosqichi sifatida baholanishini aytib o‘tadi.[2:19]

Anglashiladiki, yoshlar diskursi o‘ziga xos lingvistik va pragmatik xususiyatlarga ega murakkab kommunikativ hodisa hisoblanadi. Uning shakllanishi yosh davrining psixologik va ijtimoiy xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq. Aynan shu davrda muloqot jarayonida jargon, sleng va neologizmlarning faol qo‘llanilishi kuzatiladi. Bunda ijtimoiy hamda pragmatik omillar muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Арутюнова Н.Д. Дискурс// Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1990. – С. 136–137-b.

2. Axrorova R. U. Turli nutq diskurslarining yoshga oid tavsifi: Filol.fan.. dokt. ... diss. avtoref. − Andijon, 2026. – B. 71

3. Бекжанова Ж.Е. Молодежный дискурс сущность, функции, форматы//Монография. –М.: 2018.– С.281.

4. Зоркина К.В. Лингвопрагматические характеристики молодежного сленга (на материале немецкого языка): дисс. ... канд. фил.наук. – Волгоград, 2020.

5. Карасик В.В. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. - М.: ГНОЗИС, 2004. 389 с.

6. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Ташкент: Национальная энциклопедия Узбекистана, 2008.

O‘ZBEK NASRIDA SOTSIUM VA INDIVID MUNOSABATLARI: “O‘TKAN KUNLAR” ASARI MISOLIDA

Anvarjonov Adaxamjon Akmaljon o‘g‘li

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Tillar va maktabgacha ta’lim fakulteti

O‘zbek tili va adabiyot ta’lim yo‘nalishi

4-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotining durdonasi hisoblangan Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani sotsiolingvistik va falsafiy aspektda tahlil qilinadi. Tadqiqotning markazida XIX-XX asr boshlaridagi Turkiston ijtimoiy muhiti (sotsium) va unda shakllangan shaxs (individ) erki o‘rtasidagi ziddiyatlar yotadi. Muallif jamiyatning qotib qolgan an’analari, oilaviy institutlar va tabaqalanish tizimi shaxsning ichki olami, tanlov erkinligi hamda nutqiy xususiyatlariga qanday ta’sir ko‘rsatishini Otabek, Kumush va Zaynab obrazlari orqali ochib bergan. Maqolada tilning ijtimoiy vazifasi va individual nutq madaniyati o‘rtasidagi mutanosiblik sotsiolingvistik nuqtayi nazardan asoslanadi. Tadqiqot natijalari jadid adabiyotida shaxsning jamiyat qurboniga aylanishi va ma’naviy isyoni masalalarini yoritishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *Sotsium, individ, jamiyat, ijtimoiy norma, shaxs erki, patriarxal tuzum, sotsiolingvistika, jadid adabiyoti, individual nutq, badiiy konflikt*.

Abstract. This article analyzes Abdulla Qodiriy's masterpiece "Days Gone By" (O‘tkan kunlar) through sociolinguistic and philosophical lenses. The research focuses on the conflicts between the social environment (socium) of early 20th-century Turkestan and the freedom of the individual (individ) formed within it. The author explores how rigid traditions, family institutions, and social stratification influence the inner world, freedom of choice, and linguistic characteristics of characters such as Otabek, Kumush, and Zaynab. From a sociolinguistic perspective, the study establishes a balance between the social function of language and individual speech culture. The research findings serve to highlight the themes of the individual as a victim of society and their spiritual rebellion within Jadid literature.

Keywords: *Socium (Social environment), individual, society, social norm, freedom of the individual (Personal liberty), patriarchal system, sociolinguistics, jadid literaturendividual speech (Idiolect), artistic conflict (Literary conflict)*

Аннотация. В данной статье в социолингвистическом и философском аспектах анализируется шедевр узбекской литературы — роман Абдуллы

Кадыри «Минувшие дни» (*O‘tkan kunlar*). В центре исследования лежат противоречия между социальной средой (*социумом*) Туркестана конца XIX – начала XX веков и свободой личности (*индивида*), сформированной в этой среде. Автор через образы Отабека, Кумуш и Зайнаб раскрывает, как закостенелые традиции, семейные институты и социальное расслоение влияют на внутренний мир, свободу выбора и речевые особенности личности. С социолингвистической точки зрения обосновывается взаимосвязь между социальной функцией языка и индивидуальной культурой речи. Результаты исследования служат освещению вопросов духовного бунта и превращения личности в жертву общества в литературе джадидизма.

Ключевые слова: *Социум (Социальная среда), индивид, общество, социальная норма, свобода личности, патриархальный строй, социолингвистика, джадидская литература, индивидуальная речь (Идиолект), художественный конфликт*.

Kirish. Adabiyot inson hayoti va jamiyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni aks ettiruvchi san’at turi hisoblanadi. Har bir shaxs — individ — jamiyat bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, uning qadriyatlari va an’analari ta’sirida shakllanadi. Sotsium — ya’ni jamiyat, ijtimoiy muhit, an’analar va qadriyatlar tizimi — shaxsning erkin fikri va intilishlari bilan ko‘pincha ziddiyat hosil qiladi.

O‘zbek adabiyotida sotsium va individ munosabatlari XIX–XX asrlarda, xususan, jadid davri va keyingi davrlarda keng yoritilgan. Bu davrda eski an’analar bilan yangi g‘oyalar o‘rtasida keskin kurash mavjud edi. Shu bilan birga, shaxs jamiyatdagi adolatsizlikka qarshi turish orqali o‘z ma’rifiy va axloqiy pozitsiyasini namoyon qilardi.

Sotsiologiya va falsafada sotsium va individ tushunchalari muhim ahamiyatga ega. Tilshunoslikda (ayniqsa sotsiolingvistikada) sotsium (jamiyat) tilning yashash muhiti, ijtimoiy norma va muloqot vositasi sifatida qaralsa, individ (shaxs) o‘sha tilning faol tashuvchisi, ijodkori va nutq egasi sifatida o‘rganiladi. Ular muloqot jarayonida til me’yorlarini shakllantiradi va o‘zaro ta’sirda tilni rivojlantiradi.

Sotsium (Ijtimoiy muhit): Til jamoasi bo‘lib, tilning ijtimoiy funksiyalarini (muloqot, axborot almashinuvi) belgilaydi. Sotsiolingvistikada tilning etnik guruhlar, yosh, jins va kasbiy guruhlar (slanglar, jargonlar) bilan aloqasi o‘rganiladi.

Individ (Shaxs): Nutq subyekti, tilni ijtimoiy muhitdan o‘zlashtirgan holda uni o‘ziga xos tarzda (idiosinkraziya, individual nutq) qo‘llaydi. Individ nutqi sotsium normalariga asoslanadi, lekin shaxsiy xususiyatlarni ham namoyon etadi.

O‘zaro ta’sir: Sotsium tilni saqlaydi va qoliplarga soladi, individ esa uni dinamikada (o‘zgarishda) ushlab turadi. Til shaxs va jamiyatning madaniy-tarixiy tajribasini aks ettiruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. [3:1.]

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani o‘zbek adabiyotida sotsium (jamiyat) va individ (shaxs) ziddiyati eng yuksak nuqtaga ko‘tarilgan asardir.

Sotsium: (jamiyat va ota-ona qarashi ifodalangan joy) “Biz saning uchun Olim ponsadboshining qizig‘a unashib qo‘ydiq… Endi san bilan to‘y maslahatini qilishmoqchi edik...” [1:134.] Bu yerda ota-ona Otabekning fikrini so‘ramay turib uni boshqa qizga unashtirgan. Bu — jamiyatdagi ota-ona qarori ustuvor bo‘lgan sotsial tizimni bildiradi. Yoki quyidagi asardan olingan parchaga ham nazar tashlaylik: “Hasanalining so‘ziga qarag‘anda, qayin otang qizini Toshkandga yubormas ekan.” [1:134.] Bu ham qarindosh-urug‘, mahalla va urf-odat ta’sirini ko‘rsatadi. Nikoh masalasi shaxsiy emas, butun ijtimoiy muhit bilan bog‘liq.

Jamiyat va oilaviy muhit (Matnda sotsium — bu personajlarning xatti-harakatini belgilab beruvchi an’analar, ijtimoiy tabaqalanish va “obro‘” tushunchasi orqali namoyon bo‘ladi.).

O‘zbek oyimning monologi: U sotsiumning vakili sifatida gapiradi. Uning uchun eng muhimi — obro‘. “Toshkandda kimsan, Yusufbek hoji deganing ko‘chiman. Xudoyorxon ham bir kun kechasi kelib bizga mehmon bo‘ldilar…” [1:327.] O‘zbek oyim uchun oilaviy munosabatlar shaxsiy tuyg‘u emas, balki jamiyat oldidagi yuzdir.

Ko‘p xotinlik instituti: Sotsiumning o‘sha davrdagi qonuni sifatida Kumush va Zaynabni bir uyga jamlagan. Bu ijtimoiy tuzum individlarning (ayniqsa ayollarning) shaxsiy baxtini cheklaydi va ularni bir-biriga qarshi qo‘yadi.

Ayollarning ijtimoiy holati: Zaynabning mehmondorchilikda xizmat qilishi va Kumushning pichinglariga bardosh berishi sotsium belgilagan “kundoshlik” statusining ko‘rinishidir.

Individ (shaxs – Otabekning ichki qarashi)

“Xotin bo‘lmasa nima, axir?!” [1:135.] Bu yerda Otabek o‘z his-tuyg‘usi va tanlovini himoya qilmoqda. U uchun sevgi va shaxsiy tanlov muhim. Yana bir parchada esa quyidagi so‘zlar keltirilgan: “Men sizlarning orzularingizni — bajarishka agar xursandchilig‘ingiz shu bilan bo‘lsa — har vaqt hozirman. Ammo bir bechoraga ko‘ra-bila turib jabr ham xiyonat…” [1:136,137.] Bu gapda Otabek ota-ona bilan murosa qilishga majbur bo‘layotgan individ sifatida tasvirlanadi. Ichki qarama-qarshilik seziladi.

Shaxsiy tuyg‘ular va qarshilik (Individ bu yerda sotsium bosimi ostida o‘zligini, dardini yoki nafratini qanday ifodalashi bilan ajralib turadi.)

- Kumush: Matndagi eng kuchli individ. U sotsium belgilagan “yuvosh kelin” qolipidan chiqib, so‘z o‘yini orqali o‘z dardini va kinoyasini ifodalaydi. U Homid va Zaynabning nikohga sababchi bo‘lganini “to‘ng‘iz” (ifloslik) ramzi orqali bayon qiladi. “O‘sha to‘ng‘iz uylanmakchi bo‘lib manim bir o‘rtog‘img‘a sovchi qo‘yib yurar edi.” [1:329.] Bu yerda Kumush sotsiumning adolatsizligiga shaxsiy intiqom va o‘tkir aql bilan javob bermoqda.
- Otabek: U ikki sotsium (ikki oila/ikki xotin) o‘rtasida qolgan individ. Uning kulimsirashi yoki yuz o‘girishi sotsium bosimidan charchagan, ammo unga qarshi ochiq isyon qila olmaydigan shaxsning holatidir.
- Zaynab: U passiv individ. U sotsiumning (O‘zbekoyimning xohishi) qurboni ekanini anglamaydi va Kumushning pichinglarini tushunishga harakat qiladi, ammo ojiz qoladi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijasida shuni xulosa qilish mumkinki, o‘zbek adabiyotida sotsium va individ munosabatlari shunchaki badiiy syujet asosi emas, balki millatning o‘zligini anglash, ijtimoiy evolyutsiyasi va ma’naviy qiyofasini belgilovchi bosh mezondir. Olib borilgan shaxsiy izlanishlar va matniy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida individ va sotsium

to‘qnashuvi patriarxal tuzum va shaxs erki o‘rtasidagi fojiaviy ziddiyat sifatida namoyon bo‘ladi. Otabek obrazi orqali jamiyatning qotib qolgan “urf-odat instituti” shaxsning ichki “men”ini qanday qurbon qilishi dalillangan. Bu yerda sotsium individni jismonan emas, balki ma’naviy-ruhiy jihatdan o‘z qoliplariga bo‘ysundiradi va uning shaxsiy tanlov imkoniyatlarini butunlay cheklab qo‘yadi.

Tadqiqot jarayonida aniqlangan muhim jihat shundan iboratki, personajlar nutqidagi individual xususiyatlar (idiolekt) va ijtimoiy norma o‘rtasidagi kurash sotsiolingvistik nuqtayi nazardan ham o‘z tasdig‘ini topadi. Kumush va Otabekning nutqiy manevrlari, ularning kinoya va piching orqali o‘z “men”ini himoya qilishi sotsium bosimiga nisbatan o‘ziga xos lisoniy isyondir. Umumiy xulosa o‘rnida aytish mumkinki, o‘zbek adabiyoti tarixiy taraqqiyot davomida shaxsning jamiyatdagi o‘rnini izchil tadqiq etib kelmoqda. Agar jadid adabiyotida individ ko‘pincha sotsiumning qurboni sifatida tasvirlangan bo‘lsa, keyingi davr nasrida shaxs jamiyatning illatlariga qarshi o‘zining ichki ma’naviy olami bilan isyon qiluvchi va o‘zligini saqlab qoluvchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Adabiyotimizdagi bu evolyutsiya bugungi kunda ham jamiyat va shaxs uyg‘unligini ta’minlashda, inson qadr-qimmatini ijtimoiy normalar bilan muvofiqlashtirishda muhim ma’rifiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Qodiriy, (2004). O‘tkan kunlar. – Toshkent: “SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. – B. 134-135-136-137-327-328-329.

2. Abdulla Qodiriy va o‘zbek klassik adabiyoti, tahliliy maqolalar to‘plami. – Toshkent: Fan, 2012.

3. Jamiyat va shaxs munosabatlari: nazariya va adabiyot, ilmiy ishlar to‘plami. – Toshkent: Akademnashr, 2010.

4. Ozod Sharafiddinov. O‘zbek adabiyoti haqida mulohazalar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2004.

5. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2012.

6. Umarali Normatov. Ijod sehri. – Toshkent: Sharq, 2007.
7. Abdug‘afur Rasulov. Badiiy asar tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
8. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005.

AREAL LINGVISTIKAGA OID TADQIQOTLARGA DOIR

Nasriyeva Dilnoza Muhiddinovna
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Tillar va maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti v.b.
+998901268018 nasriyevadilnoza70@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola areal lingvistikaga oid tadqiqotlarning Yevropa va turkiy tilshunoslikda o‘rganilishi, ularning nazariy asoslari va amaliy ahamiyatini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Areal lingvistika turli hududlarda yashovchi xalqlar tillari o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni, ularning tarixiy, ijtimoiy hamda madaniy aloqalar natijasida shakllanish jarayonini o‘rganadi. Tadqiqotimizda til hodisalarining geografik tarqalishi, til kontaktlari, dialektlararo ta’sir va areal xususiyatlarning shakllanish omillari, lingvistik xarita va atlaslarning o‘ziga xos jihatlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *areal lingvistika, dialektologiya, lingvistik xarita, lingvistik atlas, arealogiya, tillarning tarqalishi.*

Аннотация: Данная статья посвящена изучению ареальной лингвистики в европейской и тюркской лингвистике, её теоретическим основам и практическому значению. Ареальная лингвистика изучает сходства и различия между языками народов, проживающих в разных регионах, процесс их формирования в результате исторических, социальных и культурных контактов. Наше исследование охватывает географическое распространение языковых явлений, языковые контакты, междиалектное влияние и факторы формирования ареальных особенностей, специфические аспекты лингвистических карт и атласов.

Ключевые слова: *ареальная лингвистика, диалектология, лингвистическая карта, лингвистический атлас, ареология, распространение языков.*

Abstract: This article examines areal linguistics in European and Turkic linguistics, its theoretical foundations, and practical implications. Areal linguistics studies the similarities and differences between the languages of peoples living in different regions and the process of their formation as a result of historical, social, and cultural contacts. Our research covers the geographic distribution of linguistic phenomena, language contacts, interdialectal influence, and the factors shaping areal characteristics, as well as specific aspects of linguistic maps and atlases.

Keywords: *areal linguistics, dialectology, linguistic map, linguistic atlas, areology, language distribution.*

Dunyo tilshunosligida tilshunoslikning areal lingvistika sohasi dialektologiya bag‘ridan ajralib chiqib, XIX asrning oxiri XX asr boshlarida lingvistik xarita va lingvistik atlaslarning paydo bo‘lishi bilan asta-sekin rivojlana boshladi. Bu yo‘nalishda nemis olimi G.Venker va fransuz tilshunosi J.Jilyeron tashabbuskor bo‘lishgan. Ilmiy izlanishlarning vujudga kelishi, o‘sha davrning alohida lahjalar o‘rtasida chegaralar mavjud yoki mavjudmasligi haqidagi jonli ilmiy munozaralar bilan bog‘liq edi. XIX asrning oxiridan boshlab dunyoning ko‘plab mamlakatlarida dialektologik atlaslar yaratila boshlandi. Birinchilardan bo‘lib, “Fransiya lingvistik atlasi” 1903-yilda Parijda nashr etildi, shundan so‘ng dunyoning ko‘plab mamlakatlarida navbat bilan lingvistik va dialektal atlaslar yaratila boshlandi. A.Meye tarixiy dialektologiya asoslari bilan shug‘ullangan bo‘lsa, Bartoli, B.A.Terrachini, J.Bonfante, V.Pizani, V.Portsig, T.V.Gamkrelbdze kabi olimlar ushbu yo‘nalishning nazariy asoslarini, tushunchaviy apparatini belgilab berdilar.

Rossiyada XIX asrning o‘rtalarida dialekt ma’lumotlarni areal o‘rganishga ehtiyoj paydo bo‘ldi. Sharqiy slavyan areal tadqiqotlarining kelib chiqishi I.I.Sreznevskiy nomi bilan aloqadordir. I.I.Sreznevskiy o‘zining “Rus tilining geografiyasi uchun materialga sharhlar” (1851) asarida ushbu fanning birinchi navbatdagi zaruriyati til xaritasini tuzish, deydi. U o‘z talabalari bilan birgalikda

1849- yilda kichik slavyan hududining xaritasini tuzib, shu asnoda xaritalashtirish g‘oyasini shakllantirdi. Uning fikricha, siyosiy chegaralar o‘rnini turli xalqlarning tillari chegarasi egallashi kerak [1]. Bundan tashqari, bu boradagi dastlabki amaliy qadamlar A.A.Shaxmatov nomi bilan bog‘liq bo‘lib, uning rahbarligida “Xalq shevalarining o‘ziga xos xususiyatlarini yig‘ish” dasturi ishlab chiqilgan. Bu dastur rus tilining fonetika, morfologiya, sintaksis va leksika sohalarida ma’lum bo‘lgan barcha dialektik va til xususiyatlarini aks ettirdi. Ushbu dastur doirasida to‘plangan materiallar rus tilidagi hududiy tafovutlarni o‘rganishga muhim manba bo‘ldi. To‘g‘ridan to‘g‘ri xaritalashga qaratilgan ish 1903-yilda Moskva Fanlar akademiyasida E.F.Korsha boshchiligida dialektologik komissiyasi tashkil etilgan paytdan boshlanib, 30-yillarning o‘rtalarigacha davom etdi. Uzoq davom etgan bu izlanishda turli yillarda komissiya a’zolari N.N.Durnovo, D.N.Ushakov, E.F.Korsha, R.I.Avanesov kabi olimlar bo‘lgan. Komissiya rus tilining dialektologik xaritasini tuzish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni to‘plash dasturini ishlab chiqdi. Ushbu dastur doirasida to‘plangan materiallar asosida komissiya 1915 yili «Rus tili Yevropa qismi dialektologik xaritalaridan tajriba» («Rus dialektologiyasidan ocherklar, ilovasi bilan») degan xarita nashr ettiradi. Bu xaritada hozirgi Sharqiy slavyan (rus, ukrain, belorus) tillari va bu tillar har qaysisining lahjalarga va sheva gruppalariga bo‘linishi ko‘rsatib berilgan. Mazkur xarita rus dialektologiyasi fani tarixi uchun muhim davr sanaladi.

Tilshunoslikda alohida ahamiyat kasb etgan E.R.Tenishev redaktorligi ostida yaratilgan “Yevropa lingvistik atlasi” (1967-2002) boshqa atlaslarga qaraganda ancha mukammal tuzilganligi bilan ajralib turadi. Bu atlas to‘rt turdagi atlaslarni birlashtirgan: mintaqaviy (regional) atlaslar, milliy atlaslar, tillar guruhi atlasi va qit’alar atlasi. Ushbu atlas Yevropa mamlakatining hududi til xususiyatlarini to‘liq qamrab olgan[2] Ushbu atlas nafaqat qardosh tillarni balki qardosh bo‘lmagan tillar xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirganligi bilan xarakterlanadi. Bundan tashqari “Umumslavyan lingvistik atlasi” uchun dialektik materiallar, asosan, 1965-1975-yillarda to‘plangan. Slavyan tilshunosligi tarixida birinchi marta Yevropada ular

egallab olgan barcha slavyan tillari va lahjalari yagona dastur, shuningdek, yagona transkripsiya yordamida o‘rganildi.[3]

XX asrning 60-yillaridan boshlab turkiyshunos olimlar ham lingvistik xaritalarni sistemali to‘plab, lingvistik atlas tuzish muammolariga diqqat qaratdilar. “SSSR turkiy tillar dialektologik atlasi” E.R.Tenishev va L.T.Maxmutovalar boshchiligida yaratildi. Ushbu atlasni tuzishda xaritalashning umumiy usullari, belgilar sistemasi, tayanch nuqtalar tarmog‘i hamda dialekt so‘zlarni to‘plash metodikasi ishlab chiqildi [4]. XX asr oxirlarida turkiy tillarni areal nuqtayi nazardan tadqiq qilgan N.Z.Hojiyeva, A.B.Jo‘rayev singari olimlar arealogiya rivojlanishida o‘z hissalarini qo‘shdilar. Ayniqsa, A.B.Jo‘rayevning o‘zbek tilini areal o‘rganishning nazariy asoslarini belgilab berishdagi xizmatlarini alohida ta’kidlash lozim. A.B.Jo‘rayev o‘zining doktorlik dissertatsiyasida turkiy areal lingvistikasining uslubiy masalalari (tuzilishi, terminologik va konseptual apparati, metodologiyasi)ni ishlab chiqdi, lingvoareal tadqiqotlarda foydalanish uchun o‘zbek tilida so‘zlashadigan massivni dialektli hududlashtirish konsepsiyasini tavsiya etdi, yangi areal tushunchalarni fanga kiritdi. Jumladan, azonal qism, fokus nuqtalari, dialekt zonalari zanjiri kabi. O‘zbek tilini o‘rganishning lingvoareal paradigmasiga o‘tishni asoslab berdi. Turli turkiy tillardagi materialllar bo‘yicha hududiy tadqiqotlarni tashkil etish va joylashtirish, xaritalashdan oldingi ishlarni tartibga solish, soddalashtirish tamoyillarini o’zbek tili misolida ishlab chiqdi [5]. Bundan tashqari, turkiyshunoslikda turkiy tillar va ularning shevalari N.A.Baskakov, M.M.Sheraliyev, E.V.Sevortyan kabi tilshunos olimlar tomonidan ham tadqiq qilingan [6].

So‘nggi davrlarda dunyo tillari qatorida o‘zbek tilining ham til va sheva xususiyatlarini o‘zida aks ettirgan, tilning boy va madaniy tarixini, siyosiy-ijtimoiy holatlarini umumlashtirgan dialektal va lingvistik atlaslarini tuzish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilayotganligi quvonarli hol, albatta. Hozirgi kunda tilshunoslikni til faktlarini xaritalash usulini ishlatmasdan turib tasavvur qilib bo‘lmaydi. Negaki, tilshunoslikda yaratilgan va yaratiladigan atlaslar bevosita millatning bebaho va asil merosini saqlaydi. Bugungi kunda dialektologlarimiz e’tiborini kichik areallar (viloyat,tuman) hududidagi til xususiyatlari qiziqtirmoqda.

O‘zbek tilining fonetik, leksik, grammatik jihatdan hududiy tarqalish chegarasi kichik areallarda o‘rganilishi keskin rivojlanmoqda. O‘zbek tilshunosligida mazkur sohaning rivojlanishi A.K.Borovkov, V.V.Reshetov nomi bilan bog‘liq. Ular dastlabki xaritalashtirish ishlarini boshlab berdilar. V.V.Reshetov birinchilardan bo‘lib lingvistik atlas yaratish tamoyillarini taklif qilib, Toshkent viloyati ba’zi o‘zbek shevalarini xaritalashtirdi. Ilmiy izlanishlarimizda negadir mazkur tadqiqot O‘zRFA Markaziy kutubxonasidan ham, respublikamizning boshqa kutubxonalaridan ham topilmadi. Soha mutaxassislaridan esa ushbu xarita va tamoyillar haqida so‘raganimizda aniq javob ololmadik.

Aytish joizki, areal lingvistika zamirida dialektologik tadqiqotlar yotadi. Shuni hisobga olganda, tilimizning sheva xususiyatlari turli hududlarda o‘rganilgan:

Sh.Shoabdurahmonov O‘zbekistonda birinchi bo‘lib shevalar atlasini yaratishning nazariy qoidalarini ishlab chiqdi. Q.Muhammadjonov shimoliy o‘zbek shevalarini, A. Shermatov Quyi Qashqadaryo shevalarini, Y. Ibrohimov va Z. Ibrohimovalar Orol bo‘yi o‘zbek shevalarini, N. Murodova Navoiy viloyati shevalarini kartalashtirgan [7]. Lingvistik xarita yaratishning nazariy asoslari A.Shermatov va yuqorida qayd etganimizdek, A.Jo‘rayev ishlarida ham keng yoritib berilgan[8]. Keyinchalik o‘zbek tilshunos olimlarimiz F.Abdullayev, M.Mirzayev, A.Aliyev, B.Jo‘rayev, X.Doniyorov, N.Rajabov va yosh olimlarimizdan Q.Muhammadjonov, I.Darvishov, N.Rahmonov ishlarida areal tadqiqot uchun juda katta manba yaratildi[9]. Ushbu tadqiqotlarning ba’zilarida o‘zbek tili shevalarining qaysidir jihatlari regional (mintaqaviy) xaritalashtirilgan. Ushbu ilmiy tadqiqotlar yaratiladigan atlaslar uchun beminnat ma’lumot, desak xato qilmaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Твердохлеб О.Г. Репрезентация способа, орудия и средства в субъектной сфере предложения с глаголами действия, состояния и отношения: Автореф. дис. канд. филол. наук: 10.02.01. Екатеринбург, 1999. С.18

2. Донадзе Н.З. Лингвистический атлас Европы:1971-2011 гг // Вопросы языкознание. -2011. №4

3. Материал из Википедии — свободной энциклопедии

4. Асмондьяров В.Н. Идеографический и когнитологический аспекты составления диалектологического атласа башкирского языка в сравнительном плане с данными языков Урало-Поволжья (на материале корневых основ). Дисс. на соискание учёной степени кандидата филологических наук. Уфа, 2017. – С.5

5.Джураев А.Б. Теоритические основы ареального исследования узбекоязычного массива. –Т.:Фан, 1991. С.208

6. Баскаков Н.А. Ареалы и маргинальные зоны в развит тюркских языков // Народы и языки Сибири: ареальные исследования. – М.,1978; Шералиев М.М. Азэрбајчан диалектологијасынинг асаслари. – Баку, 1981; Севортян Э.В. Ассимиляция и диссимиляция согласных в южных тюркских языках // Исследования по сравнительной грамматике тюркских языков. 1. Фонетика. – М.,1955; Гаджиева Н.З. Проблемы тюркской ареальной лингвистики: Среднеазиатский ареал. – М., 1975. –303с.

7. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – T.: Navro‘z, 2016. B. 72.

8. Шерматов А. Лингвистик география нима? –Тошкент: Фан, 1981. –Б.10;

9. Решетов В.В. Маргиланский говоры узбекского языка. В сб. “Академику В.А.Гордлевскому” –М.,1953;

[NON] LEKSEMALI O‘ZBEK XALQ MAQOLLARINING IJTIMOIY-MADANIY XUSUSIYATLARI

Nasriyeva Dilnoza Muhiddinovna

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Tillar va maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti

+998901268018 nasriyevadilnoza70@gmail.com

Karimova Shaxlo Zopir qizi

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi1-bosqich talabasi

+998878881649

Annotatsiya: Xalq maqollari millatning tarixiy xotirasi, turmush tarzi va axloqiy qarashlarini o‘zida jamlagan badiiy ensiklopediya vazifasini o‘taydi. Non tushunchasi o'zbek xalqi hayotida nafaqat asosiy oziq-ovqat mahsuloti, balki muqaddaslik, baraka, halollik va mehnat ramzi sifatida shakllangan. Mazkur maqolada o‘zbek mentaliteti, ijtimoiy munosabatlari va oilaviy qadriyatlarning badiiy ifodasi hisoblangan “non” leksemali maqollarining mazmun mohiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *maqol, ijtimoiy-madaniy hodisalar, urf-odatlar, qadriyatlar, mentalitet, [non] leksemasi”.*

Аннотация: Народные пословицы служат художественной энциклопедией, воплощающей историческую память, образ жизни и моральные взгляды нации. В жизни узбекского народа хлеб сформировался не только как основной продукт питания, но и как символ святости, благословения, честности и трудолюбия. В данной статье раскрывается сущность содержания пословиц с лексемой «хлеб», которые рассматриваются как художественное выражение узбекского менталитета, социальных отношений и семейных ценностей.

Ключевые слова: *пословица, социокультурные явления, обычаи, ценности, менталитет, лексема [хлеб].*

Abstract: Folk proverbs serve as an artistic encyclopedia embodying the historical memory, way of life, and moral views of the nation. In the lives of the Uzbek people, bread has evolved not only as a staple food but also as a symbol of holiness, blessing, honesty, and hard work. This article explores the essence of proverbs containing the word "bread," examining them as artistic expressions of the Uzbek mentality, social relations, and family values.

Keywords: *proverb, sociocultural phenomena, customs, values, mentality, word [bread].*

Maqollar xalqning asrlar davomida to‘plangan hayotiy tajribasi, donishmandligi va dunyoqarashining yaqqol namunasidir. Professor T. Mirzayev ta’kidlaganidek, o‘zbek xalq maqollari tematik jihatdan rang-barang bo‘lib, ularda ijtimoiy hayotning murakkab muammolaridan tortib, oilaviy turmushning mayda urf odatlarigacha o‘z aksini topgan. Dono fikrni, o‘tkir haqiqatni, teran mazmunni, so‘z

xazinasining dur-u javohirlarini o‘zida mujassam etgan rang-barang maqollar nutqimizning ekspressiv vositalari orasida eng ta’sirchan, eng esda qoluvchi, kishini o‘ylashga, fikr-mulohaza yuritishga beixtiyor majbur qiluvchi kuchga egadir. Ularning kishilik jamiyati va har bir inson hayoti uchun naqadar qimmatli ahamiyatga molik ekanligini jahon donishmandlari qadim-qadimdan e’tirof etib, qayta-qayta uqtirib kelganlar. Misol uchun: ”Barcha kishining kuchi ovqatdandur, aqlning kuchi esa hikmatdandur” (Aristotel). Ushbu maqol ota-bobolarimizning chuqur hayotiy tajribasiga asoslangan bo‘lib, insonning ham jismoniy, ham ma’naviy kamoloti o‘rtasidagi muvozanatni yoritib beradi. Uni quyidagicha tahlil qilish mumkin: Jismoniy quvvat va moddiy ehtiyoj. Maqolning birinchi qismi – “Barcha kishining kuchi ovqatdandur” – insonning biologik tabiati haqida. Har qanday jismoniy harakat, mehnat va hayotiy faoliyat uchun tanaga energiya kerak. Sifatli taom va jismoniy salomatlik insonning tashqi dunyoda o‘zini namoyon qilishi uchun poydevordir. Bu qism “Sog‘ tanda – sog‘lom aql” tamoyilining moddiy asosini ko‘rsatadi. Ma’naviy quvvat va intellektual ozuqa hisoblanadi. Ikkinchi qism – “Aqlning kuchi esa hikmatdandur” – ancha chuqur ma’noga ega. Insonni hayvondan ajratib turadigan asosiy jihati uning aqlidir. Ammo aql ham xuddi tana kabi “oziqlanishi” kerak. Aqlning ozuqasi esa – hikmat. Hikmat nima? Bu faqat bilim emas, balki hayotiy tajriba, ilm-fan, donishmandlik va haqiqatni anglashdir. Agar inson faqat jismoniy ehtiyojlarini qondirib, kitob o‘qishdan, mulohaza yuritishdan va yangi bilimlarni egallashdan to‘xtasa, uning aqli “och qoladi” va zaiflashadi. Maqolning umumiy falsafasi shundan iboratki, ushbu maqol insonni komillikka chorlaydi: Faqat tanani parvarish qilib, aqlni unutish insonni ma’naviy qashshoqlikka olib keladi. Faqat ilm bilan band bo‘lib, salomatlikni unutish esa jismoniy imkoniyatlarni cheklaydi. Donolik: Aqlli inson har bir ishda hikmat qidiradi. Hikmatli so‘z, yaxshi kitob yoki hayotiy saboq insonning fikrlash doirasini kengaytiradi, unga to‘g‘ri qaror qabul qilishda kuch beradi. Bu maqol insonni o‘z ustida ishlashga, nafaqat qornini, balki ruhini va ongini ham yuksak bilimlar (hikmat) bilan to‘ydirishga undaydi. “Agar aqlli bo‘lishni istasang, hikmat o‘rganginki, aql hikmat bilan kamol topadi"(Kaykovus). Ushbu maqol insonning intellektual va

ma’naviy yuksalishi haqidagi oltin qoidadir. Uni tahlil qilishda aql va hikmat o‘rtasidagi bog‘liqlikka e’tibor qaratish lozim:Aql – bu poydevor, Hikmat – bu bino. Inson tug‘ilganida aql salohiyatiga ega bo‘ladi, ammo bu aql hali “xom” hisoblanadi. Maqoldagi “aql hikmat bilan kamol topadi”, degan fikr shuni anglatadiki, hikmatsiz aql yo‘nalishsiz qoladi. Hikmat – bu yillar davomida to‘plangan bilim, tajriba va hayotiy haqiqatlardir. Aql aynan shu “oziq” orqali o‘sadi va charxlanadi.

Har bir xalqning maqollari uning xarakterini ko‘rsatadi. O‘zbek xalq maqollaridagi mehmondo‘stlik, kattaga hurmat, ilmga intilish kabi g‘oyalarni o‘rganish – o‘zligimizni anglash demakdir. Har bir xalq asrlar davomida juda katta hayotiy tajriba to'playdi, shu tajribani turli vositalar bilan kelajak avlodga meros qilib qoldiradi. Maqollar ana shunday bebaho ma'naviy merosimiz hisoblanadi. Dunyoda hikmatli durdonalari yaratmagan, ularni asrlar osha ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylab, sayqal berib, dilida, tilida saqlab kelmayotgan biror xalq yo'q o'zbek xalqi ham ana shulardan biridir. Maqollar xalqning asrlar davomida to‘plagan hayotiy tajribasi, donoligi va dunyoqarashini aks ettiruvchi ixcham, mazmunli iboralardir. Ular hayotning deyarli barcha jabhalarini qamrab oladi. O‘zbek xalq maqollarini mavzulari bo‘yicha quyidagi asosiy guruhlarga bo‘lish mumkin:

1. Vatanparvarlik va do‘stlik
2. Mehnatsevarlik va hunar
3. Bilim, odob va tarbiya
4. Oilaviy munosabatlar va farzand
5. Tabiat, dehqonchilik va rizq-ro‘z
6. To‘g‘rilik va yomon illatlar

Maqollar inson hayotining har bir qadamida unga yo‘l ko‘rsatuvchi “ma’naviy mayoq” vazifasini o‘taydi. Ular qaysi mavzuda bo‘lmasin, insonni yaxshilikka va komillikka chorlaydi. O‘zbek xalq maqollarida nonning mehnat evaziga qo'lga kiritilishi g‘oyasi yetakchi o‘rin egallaydi. Xalq og'zaki ijodida [non] mehnatning muqaddas samarasi sifatida talqin etiladi. Maqollarda non bilan bog‘liq munosabat insonning jamiyatdagi o‘rnini va axloqiy mas’uliyatini ifodalaydi.”Nonini yeb, tuziga tupurmoq”: Bu yerda non – ishonch va minnatdorchilik timsoli. Ijtimoiy

munosabatlarda xiyonat va sotqinlik aynan non va tuz (shartnoma ramzi) orqali baholanadi. ”Non ham non, ushog‘i ham non”: Ushbu maqol jamiyatda har bir resursga, hatto eng kichik narsaga ham mas’uliyat bilan yondashish kerakligini uqtiradi. Bu ijtimoiy tejamkorlik va qadrlash madaniyatining asosi hisoblanadi.[Non] leksemasi maqollarda mehnat jarayoni va natijasini bog‘lovchi asosiy bo‘g‘indir. “Noni butunning – ishi butun”: Shaxsning ijtimoiy farovonligi uning mehnat faoliyati sifati bilan bog‘lanadi. “Mehnat qilding – non tishlading”: Bu yerda non – ijtimoiy adolat ramzi. Faqat halol mehnatgina shaxsga jamiyat ne’matlaridan foydalanish huquqini berishi ta’kidlanadi . O‘zbek madaniyatida non – muloqot boshlovchi “diplomat”dir. “Non – dasturxon ko‘rki”. Ushbu tushuncha maqol darajasiga ko‘tarilgan bo‘lib, xonadonning ijtimoiy nufuzi dasturxondagi nonning borligi va sifati bilan o‘lchanadi. Maqollarda non bilan bog‘liq ijtimoiy ta’qiqlar ham o‘z aksini topgan. Jumladan, ”Nonni yerga qo‘yma” maqolida shunchaki jismoniy harakat emas, balki hayot manbaiga ega bo‘lgan madaniy hurmatning oliy shakli namoyon bo‘lgan. “Nondan katta emassan” maqolida, insonning kibrini tushirish, uning tabiat va jamiyat oldidagi o‘rnini eslatish uchun ishlatiladigan ijtimoiy-falsafiy tanbeh ko‘rsatilgan. [Non] leksemasi ishtirok etgan maqollar o‘zbek xalqining ijtimoiy odobnomasi vazifasini o‘taydi. Ular orqali halollik, shukronalik, jamoaviylik va mas’uliyat kabi milliy qadriyatlar avloddan-avlodga o‘tadi. Non – bu millatning yozilmagan ‘ijtimoiy konstitutsiyasi”dagi bosh tushunchadir. Bunda non mehnatkashlik, tirishqoqlik va halollik kabi axloqiy me'yorlarning estetik ifodasiga aylandi. Maqollarning didaktik xususiyati aynan shunday iboralar orqali yosh avlodga mehnatsevarlik fazilatini singdirishga xizmat qilgan.

Mavjud adabiyotlarda [non] ishtirok etgan o‘zbek maqollarini mazmuniy jihatdan bir necha guruhlarga ajratilgan. “Mehnatning noni – mazali, o‘g‘ rining umri – azali”, “Non yemoqchi bo‘lsang, o‘tin tashishdan erinma” kabi maqollarda non mehnat evazi qo‘lga kiritiladigan ne’mat sifatida talqin etiladi hamda mehnatsiz erishilgan non “zahar”ga, ya’ni barakasiz va halol bo‘lmagan rizqqa qiyoslanadi . Mehnat va non o‘rtasidagi bog‘liqlik xalq tafakkurida ijobiy axloqiy me’ yor sifatida mustahkamlangan. Non –baraka va farovonlik timsoli – “Non bo‘lsa bas, o‘zgasi

havas”, “Non mo‘lligi – el to‘qligi”, “Yarimta non – rohati jon”, “Ochga bir non – qalqon”. Ushbu maqollarda non insonning eng zaruriy ehtiyoji, farovonlikning asosiy mezoni sifatida namoyon bo‘ladi. “Non bo ‘lsa bas, o‘zgasi havas” maqoli orqali xalqning kamchilikka qanoat, shukr qilish fazilati ifodalangan. Ochlik va to‘qlik tushunchalari aynan non bilan bog‘lanadi .“Xasisdan don tilaguncha, gadoydan non tila”, “Nomard non ustida ham nolishini qo‘ymas”, “Yaxshi qiz erta turib, soch tarar, yomon qiz erta turib, non so‘rar”, “O‘gay ota non bermas, non bersa ham, jon bermas” kabi maqollarda, non atrofidagi ijtimoiy munosabatlar aks ettirilgan.. Saxovat, xasislik, mehmondo‘stlik, oilaviy munosabatlar – barchasi non konsepti orqali ifodalangan.

Umuman olganda, [non] leksemali o‘zbek xalqi maqollarida nonning naqadar ulug‘ligi ifodalangan bo‘lib, u ramziy ma’noda hayotning o‘zi, mavjudlik asosi, ijtimoiy-madaniy qadriyatlarning “makoni” hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. “O‘zbek xalq maqollari” – Toshkent: Sharq. 2005.

2. Imomov K. “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi” –Toshkent: O‘qituvchi, 2008.

3. Jo‘rayev M. “O‘zbek folklori va paremiologiya masalalari”. –Toshkent: Fan, 2012.

4. .Sarimsoqov B. “Xalq og‘zaki ijodi poetikasi”. –Toshkent.1990.

5. Rahmonov A. “O‘zbek maqollari va ularning tarbiyaviy ahamiyati”. – Toshkent. 2019.

6. Matjanov Sh., Isokulov A. “O‘zbek tilida qo‘llaniladigan ayrim maqollarning genetik, leksik semantik xususiyatlari”. –Toshkent. 2022 .

7. G‘afurov A. O‘zbek xalq maqollari va ularning semantik tahlili. – Buxoro: Buxoro universiteti nashriyoti, 2021.

IQBOL MIRZO SHE’RIYATINING METAFORIK TAHLILI

Xabibjonov Ikromjon Toshpulat-ug‘li

TIPU, Tillar va maktabgacha ta’lim kafedrasi professori v.b.

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek zamonaviy she’riyatining yirik vakillaridan biri bo‘lgan Iqbol Mirzo she’riyatida metafora badiiy tasvir vositasi sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqotda shoir she’rlarida qo‘llangan obrazli ifodalar, ramziy ma’nolar hamda poetik tafakkur xususiyatlari o‘rganildi. Metafora shoirning badiiy dunyoqarashi va poetik uslubini namoyon qiluvchi asosiy stilistik vositalardan biri sifatida talqin qilinadi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, Iqbol Mirzo she’riyatida metaforalar tabiat, inson ruhiyati, vatan va muhabbat mavzularini chuqur poetik ifodalashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *metafora, poetik obraz, badiiy tasvir, o‘zbek she’riyati, Iqbol Mirzo, stilistika.*

Kirish. O‘zbek adabiyotida poetik tasvir vositalari, ayniqsa metafora muhim badiiy ahamiyatga ega. Metafora badiiy matnning obrazliligini kuchaytiradi, poetik fikrni chuqurroq ifodalashga xizmat qiladi. Zamonaviy o‘zbek she’riyatida metaforik tafakkur kuchli rivojlangan bo‘lib, ko‘plab shoirlar o‘z poetik uslubini aynan metaforik obrazlar orqali namoyon etadilar.

Zamonaviy o‘zbek she’riyatining yorqin vakillaridan biri Iqbol Mirzo hisoblanadi. Shoirning ijodida milliy ruh, vatanparvarlik, insoniy tuyg‘ular va falsafiy fikrlar poetik obrazlar orqali ifodalanadi. Ayniqsa, metafora shoir she’riyatining muhim stilistik xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotshunoslikda metafora tushunchasi ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Metafora – bu bir predmet yoki hodisani boshqa predmet yoki hodisa orqali obrazli tarzda ifodalashdir. Bunday tasvir poetik matnga estetik ta’sir kuchi beradi.

Tadqiqot metodlari. Mazkur tadqiqotda Iqbol Mirzo she’riyatidagi metaforik birliklarni aniqlash, ularning semantik, stilistik hamda poetik xususiyatlarini tahlil qilish uchun bir nechta ilmiy metodlardan foydalanildi. Tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohalarida qo‘llaniladigan nazariy hamda amaliy metodlar

tadqiqotning metodologik asosini tashkil etadi. Ushbu metodlar orqali shoir she’riyatidagi metaforalarning shakllanishi, ularning badiiy vazifasi hamda poetik matndagi o‘rni aniqlashtirildi. Tadqiqot metodlari kompleks tarzda qo‘llanib, har bir metod o‘ziga xos ilmiy natijalarni olishga xizmat qildi.

Nazariy tahlil metodi. Nazariy tahlil metodi tadqiqotning asosiy metodlaridan biri hisoblanadi. Ushbu metod yordamida metafora tushunchasining nazariy asoslari, uning lingvistik va adabiyotshunoslikdagi talqinlari o‘rganildi. Metafora badiiy nutqning muhim stilistik vositalaridan biri bo‘lib, u til birliklarining obrazli qo‘llanishiga asoslanadi. Nazariy tahlil jarayonida metaforaning turli ilmiy ta’riflari, uning semantik va stilistik xususiyatlari hamda poetik matndagi vazifalari ko‘rib chiqildi.

Adabiyotshunoslikda metafora ko‘pincha bir predmet yoki hodisani boshqa predmet yoki hodisa orqali obrazli tarzda ifodalash deb talqin qilinadi. Metafora poetik nutqda yangi ma’no qatlamlarini yuzaga keltiradi va badiiy matnning estetik ta’sirini kuchaytiradi. Shu nuqtai nazardan, Iqbol Mirzo she’riyatidagi metaforalarni o‘rganishda nazariy manbalarga tayanildi hamda metaforaning badiiy tafakkur bilan bog‘liqligi tahlil qilindi.

Nazariy tahlil metodi orqali shoir ijodida metaforaning shakllanish omillari, uning poetik tizimdagi o‘rni hamda badiiy tasvir vositasi sifatidagi ahamiyati aniqlashtirildi. Bu metod tadqiqotning ilmiy asosini mustahkamlashga xizmat qildi.

Matn tahlili metodi. Tadqiqot jarayonida badiiy matnni tahlil qilish muhim metod sifatida qo‘llanildi. Matn tahlili metodi orqali Iqbol Mirzo she’rlaridagi metaforik birliklar aniqlanib, ularning semantik hamda badiiy xususiyatlari o‘rganildi. Badiiy matn tahlili adabiyotshunoslikda keng qo‘llaniladigan metod bo‘lib, u poetik matndagi obrazlar tizimini o‘rganishga imkon beradi.

Shoir she’rlaridagi metaforalarni aniqlash jarayonida matndagi obrazli ifodalar, ramziy birliklar hamda semantik ko‘chish hodisalari alohida e’tibor bilan o‘rganildi. Har bir metafora matn kontekstida tahlil qilinib, uning badiiy vazifasi aniqlashtirildi.

Matn tahlili natijasida shoir she’riyatida metaforalar turli mavzular bilan bog‘liq holda qo‘llanilishi aniqlandi. Xususan, tabiat obrazlari, inson ruhiyati,

vatanparvarlik g‘oyalari hamda falsafiy fikrlar metaforik tasvirlar orqali ifodalanganligi kuzatildi.

Stilistik tahlil metodi. Stilistik tahlil metodi badiiy matndagi til vositalarining estetik va funksional xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan. Ushbu metod yordamida Iqbol Mirzo she’riyatida metaforalarning stilistik vazifasi tahlil qilindi.

Shoir she’rlarida metafora faqat obrazli tasvir vositasi sifatida emas, balki poetik uslubni shakllantiruvchi muhim element sifatida namoyon bo‘ladi. Stilistik tahlil jarayonida metaforalar orqali yaratilgan badiiy obrazlarning estetik ta’siri hamda poetik matndagi funksiyasi aniqlashtirildi.

Stilistik tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, Iqbol Mirzo she’riyatida metaforalar ko‘pincha lirizmni kuchaytirish, badiiy fikrni chuqurroq ifodalash va o‘quvchiga estetik ta’sir ko‘rsatish vazifasini bajaradi.

Kontekstual tahlil metodi. Kontekstual tahlil metodi metaforik birliklarning ma’nosini matn kontekstida o‘rganishga xizmat qiladi. Ma’lumki, metafora ko‘pincha matndan ajratilgan holda to‘liq ma’nosini anglatmaydi. Shuning uchun ham metaforalarni tahlil qilish jarayonida ularning kontekstual ma’nosi alohida e’tiborga olindi.

Kontekstual tahlil orqali metaforalarning matn ichidagi semantik aloqalari, ularning boshqa poetik birliklar bilan munosabati hamda badiiy matndagi umumiy mazmun bilan bog‘liqligi aniqlashtirildi.

Ushbu metod yordamida shoir she’riyatidagi metaforalar nafaqat alohida stilistik birlik sifatida, balki butun poetik tizimning tarkibiy qismi sifatida talqin qilindi.

Qiyosiy metod. Qiyosiy metod orqali Iqbol Mirzo she’riyatidagi metaforalar boshqa zamonaviy o‘zbek shoirlari ijodi bilan taqqoslab o‘rganildi. Bu metod shoir poetikasining o‘ziga xos jihatlarini aniqlashga yordam beradi.

Qiyosiy tahlil jarayonida metaforik tasvirlarning mavzu doirasi, badiiy uslub va poetik ifoda vositalari o‘rganildi. Natijada Iqbol Mirzo she’riyatida metaforalar milliy ruh, tabiat obrazlari va inson ruhiy kechinmalarini ifodalashda faol qo‘llanilishi aniqlandi.

Semantik tahlil metodi. Semantik tahlil metodi metaforalarning ma’no tuzilishini o‘rganishga qaratilgan. Ushbu metod yordamida metaforik birliklarning asosiy va ko‘chma ma’nolari aniqlashtirildi.

Metafora ko‘pincha semantik ko‘chish natijasida yuzaga keladi. Shu sababli semantik tahlil jarayonida so‘zlarning ma’no kengayishi, ramziy ma’nolar hamda poetik konnotatsiyalar o‘rganildi.

Semantik tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, Iqbol Mirzo she’riyatida metaforalar ko‘pincha tabiat hodisalari, inson ruhiyati va falsafiy tushunchalar bilan bog‘liq holda shakllanadi.

Kompleks metodologik yondashuv. Mazkur tadqiqotda yuqorida ko‘rsatilgan metodlar kompleks tarzda qo‘llanildi. Kompleks metodologik yondashuv shoir she’riyatidagi metaforalarni har tomonlama tahlil qilish imkonini beradi. Bunday yondashuv tilshunoslik va adabiyotshunoslik metodlarini birlashtirgan holda poetik matnni chuqurroq o‘rganishga yordam beradi.

Natijada Iqbol Mirzo she’riyatidagi metaforalar faqat stilistik vosita sifatida emas, balki shoirning poetik tafakkurini ifodalovchi muhim badiiy element sifatida talqin qilindi.

Shunday qilib, tadqiqot metodlari Iqbol Mirzo she’riyatining metaforik xususiyatlarini ilmiy jihatdan asosli tarzda o‘rganish imkonini berdi. Ushbu metodlar orqali shoir ijodidagi metaforik tasvirlar tizimi, ularning semantik xususiyatlari hamda poetik vazifalari aniqlashtirildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Iqbol Mirzo she’riyatida metaforalar keng qo‘llanadi va ular shoirning poetik tafakkurini ifodalovchi asosiy badiiy vositalardan biri hisoblanadi.

Tabiat obrazlari orqali metafora. Shoir she’rlarida tabiat hodisalari ko‘pincha inson tuyg‘ularini ifodalash uchun metaforik obraz sifatida qo‘llanadi. Masalan, shoir ayrim she’rlarida shamol, bulut, quyosh kabi tabiat obrazlari orqali inson ruhiy holatini ifodalaydi. Bunday metaforalar poetik matnga lirizm va estetik ta’sir kuchi beradi.

Vatan obrazining metaforik ifodasi. Iqbol Mirzo she’riyatida vatan tushunchasi ko‘pincha ramziy obrazlar orqali ifodalanadi. Shoir vatanni ona, yurak yoki quyosh kabi obrazlar bilan qiyoslaydi. Bunday metaforalar vatanparvarlik g‘oyasini kuchli poetik ta’sir bilan ifodalashga xizmat qiladi.

Ruhiy kechinmalar metaforasi. Shoir she’rlarida inson ruhiyati ham metaforik tarzda tasvirlanadi. Masalan, sog‘inch, muhabbat, iztirob kabi tuyg‘ular ko‘pincha tabiat obrazlari orqali ifodalanadi. Bu esa poetik matnning obrazliligini kuchaytiradi.

Muhokama. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, Iqbol Mirzo she’riyatida metafora faqat badiiy bezak vositasi emas, balki poetik fikrni ifodalashning muhim vositasidir.

Shoir metaforalar orqali: inson ruhiyatini tasvirlaydi, milliy qadriyatlarni ifodalaydi, falsafiy g‘oyalarni badiiy shaklda ifodalaydi.

Bundan tashqari, shoir she’riyatida metaforalar milliy madaniyat bilan chambarchas bog‘liq. Tabiat obrazlari, milliy qadriyatlar va tarixiy ramzlar shoir poetikasining muhim qismini tashkil etadi.

Metaforik tasvirlar shoirning individual uslubini shakllantiradi va uning ijodini boshqa shoirlardan ajratib turadi.

Xulosa.

Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon beradi: Metafora Iqbol Mirzo she’riyatining muhim poetik xususiyatlaridan biridir. Shoir metaforalar orqali inson ruhiyati, vatan va tabiat obrazlarini chuqur badiiy ifodalaydi. Metaforik tasvirlar poetik matnning estetik ta’sirini kuchaytiradi. Iqbol Mirzo she’riyatida metafora milliy ruh va falsafiy fikrlarni ifodalashda muhim rol o‘ynaydi.

Shu sababli shoir she’riyatini o‘rganishda metaforik tahlil muhim ilmiy metod hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirzo I. Saylanma she’rlar. – Toshkent: Sharq, 2012.

2. Mirzo I. Ko‘ngil izhori. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016.

3. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013.

4. Yo'ldoshev B. Badiiy matn lingvistikasi. – Toshkent: Fan, 2008.

5. Karimov N., Mamajonov A. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1999.

6. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Toshkent: Fan, 2006.

7. Mahmudov N. Til va nutq masalalari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2010.

8. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2012.

LINGUOSYNERGETICS AND MODERN LINGUISTICS

Khayriniso Bakhtiyarovna Ganiyeva – PhD

Tel. +998 90 180 07 78:

E-mail: *khayrinisoganieva@gmail.com*

Abstract: The article advances linguistic synergetics as a new interdisciplinary research approach to language studies.The main task of linguistic synergetics is to reveal, describe and explain the mechanism of the inner dynamic structure of a language using research principles of synergetics as a paradigm of complexity. Linguosynergetics has emerged as one of the most innovative and interdisciplinary fields within contemporary linguistics, positioning itself as the science of the third millennium. Rooted in the theoretical foundations of synergetics, linguistics, and philosophy, this discipline began to take shape in the 20th century, investigating language as a complex, self-organizing, and evolving system. The multidimensional nature of language allows researchers to use synergetic methods in various areas of linguistic investigation.This approach has opened new pathways for exploring how language evolves, functions, and interacts within complex communicative and cognitive systems.

Key words: *Synergetics, linguosynergetics, complex systems, dynamic language system, self-regulation.*

In the contemporary scientific landscape, the study of language increasingly requires integrative and interdisciplinary approaches. Traditional linguistic theories, while effective in describing structural aspects of language, often fail to capture its dynamic and evolving nature. In response, linguosynergetics emerged as a scientific paradigm that applies the general principles of synergetics—the science of self-organization and complexity—to language studies. Originating in the 20th century, linguosynergetics views language as an open, nonlinear, and self-regulating system. This framework seeks to explain how linguistic order arises from the interaction of multiple components—phonetic, grammatical, semantic, and pragmatic—within communicative and cognitive contexts. The purpose of this study is to present the theoretical foundations, methodological principles, and practical significance of linguosynergetics as the science of the third millennium. The principles of synergetics: the integrity of the material and mental (spiritual) world (synergism), pluralism, indeterminacy, spontaneity, instability, instability, unity of determinism and randomness, continuous change, irreversibility. Synergetics can serve as a unique methodology for the study of the dynamic aspect of language, asystemic states in speech, and spontaneous changes on a scientific basis. Therefore, most of the research on linguosynergetics to date has been related to speech activity and discourse.Synergetic analysis of language enriches the science of linguistics with new knowledge, and also leads to the emergence of new approaches and interpretations in the study of linguistic phenomena and processes. As a result of the positive interaction of synergetic with linguistics, a new scientific direction called linguosynergetics is being formed, along with the fields of psycholinguistics, sociolinguistics, and ethnolinguistics.

This study employs a theoretical-descriptive research method based on the synthesis of philosophical, linguistic, and synergetic frameworks. The methodological foundation of linguosynergetics is drawn from:

1. Synergetic Theory (H. Haken): Focuses on the mechanisms of self-organization and the emergence of order from chaos in complex systems.

2. Systemic and Functional Linguistics: Provides insights into language as an adaptive and evolving structure.

3. Interdisciplinary Integration: Combines perspectives from the natural sciences and the humanities to analyze linguistic phenomena.

The approach involves identifying key features of complex systems—such as nonlinearity, openness, instability, and feedback—and applying these principles to the study of linguistic processes like communication, discourse development, and language evolution.This study employed a qualitative research design with elements of linguistic modelling and comparative discourse analysis. The investigation was based on the theoretical framework of linguosynergetics, an interdisciplinary branch of linguistics that integrates concepts from synergetics, system theory, and cognitive linguistics. The design followed an exploratory–analytical model aimed at identifying, describing, and systematising the self-organising mechanisms operating within natural language systems. The corpus for the study consisted of a combination of Uzbek and English linguistic materials collected from authentic sources, including academic texts, journal articles, mass media discourse, and literary works published between 1990 and 2024. Particular emphasis was placed on the analysis of linguistic structures that demonstrated non-linear, dynamic, and self-regulatory properties in their semantic and syntactic organisation. Not only synergetics, but also the theory of systems - systemology - played a special role in the emergence of this direction. It should be emphasized that the systematic approaches to language research of such scientists as W. von Humboldt, Baudouin de Courtenay, F. de Saussure, A.A. Potebnya, F. F. Fortunatov, Y.D. Apresyan, N.D. Arutyunova, V.A. Zvegintsev, B.A. Serebrennikov, Sh. Rakhmatullaev, I. Kuchkortoev, A. Nurmonov, N. Makhmudov, H. Ne'matov, R. Saifullaeva, R. Rasulov, O. Bozorov, A. Sobirov, M. Kurbanova, Sh. Shakhobiddinova, Sh. Iskanderova, B. Mengliev provided a unique impetus for linguosynergetics.

As this research was conceptual and corpus-based rather than experimental, no human participants were directly involved. However, the study contextually engaged with academic communities concerned with modern linguistic paradigms, cognitive-

discursive analysis, and complexity theory in language. The theoretical synthesis reflected international scholarly perspectives and local linguistic traditions. Linguistic materials were systematically collected and categorised according to their functional domains—scientific discourse, media communication, and literary narration. Each text was coded and indexed to ensure analytical consistency. Key variables such as semantic density, syntactic entropy, and discursive stability were identified as indicators of linguistic self-organisation. Primary data were supplemented with critical interpretations from secondary sources, including scientific monographs, conference proceedings, and peer-reviewed linguistic journals. Data analysis was conducted through synergetic modelling, discourse analysis, and comparative linguistic interpretation. The synergetic approach enabled the identification of emergent patterns of order and chaos in linguistic systems.

The analytical process combined qualitative interpretation with descriptive statistical verification where applicable, ensuring both theoretical depth and empirical accuracy. The reliability of findings was ensured through cross-comparison of data from multiple linguistic corpora and verification against established theoretical models of synergetics and linguistics. Triangulation of theoretical, corpus-based, and interpretative data strengthened the internal validity of the research outcomes.

Moreover, expert review from international linguists and Uzbek scholars contributed to the academic reliability and contextual appropriateness of the interpretations.

The theoretical analysis demonstrates that linguosynergetics offers a comprehensive model for understanding the dynamic structure of language. The main findings include:

1. Language as a Self-Organizing System: Linguistic structures emerge through interaction among elements rather than through external control. Communication acts as a self-regulating mechanism that maintains system balance.

2. Nonlinearity and Adaptation: Small changes in usage or context can lead to large-scale linguistic transformations, reflecting nonlinear development patterns.

3. Interdisciplinary Applicability: Synergetic principles can be effectively applied in various linguistic fields—such as discourse analysis, cognitive linguistics, and sociolinguistics—providing new perspectives on language behavior.

4. Complexity and Openness: The linguistic system is open to environmental, cultural, and psychological influences, constantly reorganizing itself to maintain functional stability.In synergetics, self-organisation is both a process and a result of coherent interaction of numerous components and parts of a system aimed at regulating the inner structure of this system. Self-organisation is characterized by spatial, temporal, spatial-temporal and/or functional shifts and rearrangement of the given system. Correspondingly, systems which can acquire macroscopic spatial, temporal, or spatio-temporal structures by means of internal processes without specic interference from the outside, are called self-organising systems. Self-organising systems are found both in organic and inorganic matter. The phenomenon of self-organisation of complex systems has been suc-cessfully studied in physics, chemistry and biology. While researching complex self-organising systems, a Belgian physical chemist Ilya Prigogine de□ned dis-sipative structures and formulated Dissipative Structure Theory, and a German physicist Hermann Haken introduced the notions ‘order parameters’ and ‘slaving principle’.

Language is also a self-organized system that changes and develops in compliance with the universal principles of the complex system’s behaviour re-vealed within the theory of synergetics. Like any synergetic system, language is a multi-component system characterized by complex behaviour of its parts and sub-systems. These findings confirm that linguosynergetics serves as a theoretical and methodological bridge between the natural sciences and linguistics, promoting a deeper understanding of the evolutionary and adaptive aspects of language.

Linguosynergetics embodies the scientific spirit of the third millennium—interdisciplinary, integrative, and oriented toward complexity. By conceptualizing language as a dynamic and self-organizing phenomenon, it challenges traditional views of linguistic stability and structure. This approach allows scholars to model linguistic evolution similarly to processes in other complex systems—such as

ecological, social, or technological systems. It emphasizes that language, like all living systems, seeks equilibrium through constant interaction and self-adjustment. Furthermore, linguosynergetics encourages collaboration across disciplines, linking linguistics with physics, cognitive science, communication theory, and artificial intelligence. Such integration not only broadens the scope of linguistic research but also deepens our understanding of how meaning, structure, and function emerge through self-organized processes. In the context of the third millennium, where human communication is rapidly evolving under technological and cultural transformations, linguosynergetics provides the necessary theoretical tools to analyze and interpret these changes. In this regard, the following opinion of D. Bozorov regarding the various interpretations of synergetics is of particular importance: “Synergetics is complex in nature. Because it also includes approaches to the study of non-literary knowledge. In particular, the criterion of life reality that has arisen as a result of the development of science, the level of human understanding, the management of energy and information through networks, the interpretation of new possibilities of artificial intelligence, establishing contact with like-minded friends in the universe, the correct assessment of the possibilities of the subconscious mind, emotions, and other such issues can be included. However, this should not lead to the idea that synergetics does not meet the requirements of science.Because its scientific foundations have been proven in the scientific results obtained through the scientific activities of I.R. Prigozhin (Brussels School), G. Haken (Institute of Theoretical Physics and Synergetics), S.P. Kurdyumov, G.G. Malinetsky (Keldysh Institute of Applied Mathematics), A.A. Samarsky (Moscow State University), L.I. Mandelstam (school specializing in the study of nonlinear oscillations) and other such scientists. Based on this, we can call synergetics a fruitful scientific concept. However, the remarkable feature of synergetics is not its closeness to experimental sciences or the fact that it is the product of the creativity of famous scientists and philosophers, but rather the possibility of finding answers to global problems in the relationship between man and nature. At the end of the 20th century, the development of science reached such a point that classical and non-classical sciences could no longer explain

the new regularities of their research objects, the transformation, dynamics and evolution of phenomena and processes. At that time, many scientists began to assess this situation as "science has reached the brink of crisis." In this difficult situation, synergetics recommended new paradigms that could overcome these crises, such as fluctuation, bifurcation, dissipation, attractor, emergence, dynamic chaos.A new direction in linguistics, called linguosynergetics or synergetic linguistics, is taking shape and developing on the basis of various sub-branches.

These include the following:

- discursive linguosynergetics;
- diachronic linguosynergetics;
- synchronic linguosynergetics;
- cognitive linguosynergetics;
- synergetic ethnolinguistics;
- synergetic linguosynergetics;
- linguosynergetics of poetic texts.

It is evident that a number of works devoted to the synergetic study of language formation have appeared, and through these works linguosynergetics has been formed as a direction in linguistics. The scientific views of the above-mentioned scientists are the theoretical foundations of linguosynergetics.The fact that discourse is a complex process with a gradual development and speech is a phenomenon rich in spontaneous changes justifies their study based on a synergistic approach.

In this case, traditional, structural linguistics methods are also used, but in some places there is a tendency towards the methodology of synergy.

Understanding language and speech as a gradual openness is associated with a number of synergistic features, such as their multifaceted communicative openness, their richness in internal and external influences and fluctuations, the spontaneous emergence of new meanings, content and forms of expression in various speech situations and cultural contexts, and their dynamic development.

The language system and the communicative environment are interconnected. The disappearance of certain lexical expressions (archaic and historical) from use in

connection with sociocultural changes and the inversely proportional situation - the entry into our language of many new lexical units (neologisms) associated with the development of science and technology - can be a vivid example of the "synergy" of language and society.

The fact that a certain language, out of more than 3,000 languages in the world, strives to become a "global means of communication" and plays the role of an "attractor" in this process (taking all other languages into its sphere of influence and attracting them) confirms the operation of the laws of synergy. In connection with this process, the strong influence of Arabic on the languages of the Muslim world (the abundance of Arabic words in the vocabulary of these languages), Latin on the languages of the Christian world (the abundance of Latin words in the vocabulary of these languages), and currently the influence of English on all languages (the active entry of American words into the vocabulary of all languages) is felt.

Hence, linguistic theory, psycholinguistics, cognitive fields of linguistics, text and discourse linguistics, diachronic linguistics, and linguosemiotics are being researched based on a synergetic paradigm. This is synergetic to linguistics indicating that it is actively entering. is one of the proofs.

Linguosynergetics stands as a promising scientific paradigm that unites linguistic theory with the general laws of complexity and self-organization. As a result, a new scientific thinking based on the paradigms of synergetics began to take shape. It does not completely deny the achievements of classical and non-classical science, existing scientific paradigms, in particular dialectics, but rather builds on the results achieved by them and serves as the basis for new scientific theories By applying synergetic principles to language studies, it offers a holistic understanding of how linguistic systems function, evolve, and adapt. The discipline’s interdisciplinary nature makes it a central framework for future linguistic research, reflecting the integrative and dynamic character of modern science.Based on this, it can be said that linguosynergetics is a separate new branch of "systems linguistics". Although the name "linguosynergetics" is not mentioned in a number of fundamental works devoted to the systematic study of language in Uzbek linguistics, traces of

linguosynergetics analysis are visible in them. This indicates that linguosynergetics is not alien to Uzbek linguistics.Although a number of studies devoted to this area have been created, linguosynergetics has not yet taken a firm place in science. That is, it is still a bit too early to talk about synergetic linguistics in the full sense. There are a number of reasons for this. Firstly, linguosynergetics is still a new field that is just entering linguistics. Secondly, the conceptual apparatus, categories and terminological system of linguosynergetics have not yet been fully formed. Most of its concepts entered linguistics through the storm of synergetic, and some concepts have not yet found a fully scientific interpretation.

Thirdly, a number of categories used to describe linguistic phenomena (such as energy, synergy, attractor, bifurcation, emergence, fractal, etc.) have entered linguistics from the natural sciences, general systems theory, and synergetics, and have not yet been widely recognized by linguists as linguosynergetics terminology. Taking all this into account, it can be said that linguosynergetics is currently at the stage of formation as an independent field of linguistics.

REFERENCES

1. Haken, H. (1977). Synergetics: An Introduction. Springer-Verlag.

2. Haken, H. (1983). Advanced Synergetics: Instability Hierarchies of Self-Organizing Systems and Devices. Springer.

3. Steffensen, S. V., & Cowley, S. J. (2010). Signifying Bodies: Biosemiosis, Interaction, and Health. Southern Denmark University Press.

4. Prigogine, I., & Stengers, I. (1984). Order Out of Chaos: Man’s New Dialogue with Nature. Bantam Books.

5. Keller, R. (1994). On Language Change: The Invisible Hand in Language. Routledge.

6. Ganiyeva, K. (2024). LINGUOSYNERGETIC APPROACHES OF DISCOURSE. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 5(08), 91–96. https://doi.org/10.37547/mesmj-V5-I8-12

7. Kniazeva, E. N., & Kurdiumov, S. P. (2011). *Synergetics: Nonlinearity of time and landscapes of co-evolution.* Moscow: KomKniga.

8. Ledeneva, Yu. I. (2007). *Systemicity and synergetics as factors of language stability.* In *Language. Text. Discourse* (pp. 20–28). Stavropol: Stavropol State University Press.

9. Massey, W. F. (1988). *Complexity and communication: From theory to practice.* In *Language in a Sociodynamic Context* (p. 32). London: Routledge.

RAQAMLI DAVRDA LINGVOKULTUROLOGIYA VA SUN’IY INTELLEKT INTEGRATSIYASI

Yo‘ldoshev Otabek Abdug‘aniyevich

p.f.f.d., dotsent

otabekyoldoshev06@gmail.com

99 7905379

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun’iy intellekt va lingvokulturologiya o‘rtasidagi integratsiya jarayoni tahlil qilinadi. Sun’iy intellekt texnologiyalarining tilshunoslik hamda madaniyatshunoslik sohalariga ko‘rsatayotgan ta’siri, shuningdek, ushbu jarayonda yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Maqolada sun’iy intellekt vositalari yordamida til va madaniyatning o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish, tarjima tizimlarini takomillashtirish hamda muloqot jarayonini samarali tashkil etish masalalari yoritilgan. Tadqiqot lingvokulturologiya va sun’iy intellekt integratsiyasi doirasidagi dolzarb muammolarni aniqlash va istiqbolli yechimlarni belgilashga qaratilgan.

Bugungi kunda ***sun’iy intellekt*** (SI) texnologiyalari jadal rivojlanib, turli fan sohalariga keng ko‘lamda integratsiyalashmoqda. Lingvokulturologiya esa til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganuvchi fan sifatida kommunikativ jarayonlarda muhim ahamiyat kasb etadi. Sun’iy intellekt texnologiyalarini lingvokulturologiya sohasiga tatbiq etish jarayonida muayyan muammolar va ularning yechimlari mavjud bo‘lib, ushbu masalalar ilmiy jamoatchilik e’tiborida turibdi.

Lingvokulturologiya — til va madaniyatning o‘zaro aloqasini o‘rganadigan fan sohasi bo‘lib, u lingvistika (tilshunoslik) hamda madaniyatshunoslikning kesishgan nuqtasida shakllangan. Ushbu fan til vositasida xalqning mentaliteti, dunyoqarashi, qadriyatlari va urf-odatlari qanday aks etishini tahlil qiladi. Bu borada Maslova V.A. (2001) ta’kidlaganidek, lingvokulturologiya tilning nafaqat lingvistik tuzilishini, balki u orqali ifodalanadigan madaniy qadriyatlarni ham o‘rganadi. U o‘zining “Lingvokulturologiya” nomli asarida til va madaniyatning bir-biri bilan chambarchas bog‘liqligini ilmiy asoslab bergan. Shuningdek, Vereshchagin E.M. va Kostomarov V.G. (1983) o‘zlarining tadqiqotlarida lingvokulturologiyani milliy mentalitet hamda xalqning dunyoqarashi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan fan sohasi sifatida tavsiflaydilar [1,2].

Bugungi kunda lingvokulturologiya dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib, u til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni o‘rganishga qaratilgan. Ushbu fan xalqning mentaliteti, qadriyatlari va dunyoqarashini til vositasida yoritib beradi. Globallashuv jarayonida madaniy va lingvistik xilma-xillikni saqlab qolish muhim vazifalardan biriga aylanmoqda. Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi, xususan, sun’iy intellektning tilshunoslikka integratsiyalashuvi yangi imkoniyatlar bilan birga ayrim muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Jumladan, lingvokulturologiyaning bugungi kundagi dolzarb masalalari qatorida madaniy kodlarni tahlil qilish, tarjima jarayonida yuzaga keladigan lingvokulturologik muammolar kabi jihatlar alohida e’tiborni talab qiladi.

Lingvokulturologiyaning asosiy maqsadi tilning nafaqat grammatik yoki leksik tuzilishini, balki uning ortida mujassam bo‘lgan madaniy va ma’naviy qadriyatlarni ham o‘rganishdan iboratdir. Boshqacha aytganda, lingvokulturologiya til orqali xalqning tarixiy tajribasi, madaniyati va dunyoqarashini ochib beradi. Anna Wierzbicka (1997) o‘zining “Understanding Cultures through their Key Words” asarida turli tillardagi so‘zlarning semantik jihatdan qanday madaniy xususiyatlarni aks ettirishini tahlil qilgan [3]. Uning tadqiqotlari til orqali milliy va madaniy tafakkurni ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlik turli tillarda mavjud bo‘lgan iboralar, maqollar va matallar orqali ham namoyon bo‘ladi. Ular xalqning dunyoqarashi, turmush tarzi va qadriyatlarini o‘zida aks ettiradi. Shuningdek, milliy mentalitet va stereotiplar har bir xalqning turmush tarzi, qadriyatlari hamda dunyoqarashining tilga qanday ta’sir ko‘rsatishini tahlil qilishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Sun’iy intellekt (SI) - bu inson tafakkuri, mantiqiy fikrlash va muammoni hal qilish qobiliyatlarini taqlid qiluvchi texnologiyalar majmuasidir. U mashina o'rganishi (machine learning), tabiiy tilni qayta ishlash (NLP), ekspert tizimlari va boshqa zamonaviy algoritmlarga asoslanadi. So‘nggi yillarda sun’iy intellekt tilshunoslik va lingvokulturologiya sohalarida ham keng qo‘llanilmoqda. Sun’iy intellektning maqsadi - murakkab masalalarni avtomatlashtirish va inson intellekti talab qilinadigan jarayonlarni yengillashtirishdan iborat. Tilshunoslik bilan integratsiyada sun’iy intellekt quyidagi maqsadlarni ko‘zlaydi:

- Tabiiy tilni qayta ishlash orqali matnni tahlil qilish va tarjima qilish.
- Matnni yaratish va mantiqiy asoslangan xulosalar chiqarish.
- Chatbotlar, virtual yordamchilar va ovozli tizimlar orqali inson bilan muloqotni optimallashtirish.

Til bilan bog‘liq integratsiya muammolari Sun’iy intellektni til bilan integratsiyalash jarayonida bir qator muammolar yuzaga kelmoqda:

1. **Ko‘p ma’nolilik (Polysemy) va sinonimika:** Tilda bir so‘zning turli kontekstlarda turlicha ma'no anglatishi sun’iy intellekt tizimlari uchun qiyinchilik tug‘diradi.
2. **Madaniy va kontekstual tafovutlar:** Lingvokulturologik omillar sun’iy intellekt algoritmlarining natijalariga ta’sir qiladi. Masalan, turli tillardagi metaforalar va iboralar sun’iy intellekt tomonidan noto‘g‘ri talqin qilinishi mumkin.
3. **Dialekt va lahjalarning murakkabligi:** Sun’iy intellekt algoritmlari ko‘pincha standart til qoidalariga asoslanganligi sababli, dialektlar yoki mintaqaviy xususiyatlarga moslashish muammo tug’diradi.

Ma’lumotlarning yetishmovchiligi kichik tillar yoki kamroq ishlatiladigan tilda trening ma'lumotlarining yetarli bo‘lmasligi SI tizimlarining samaradorligini pasaytiradi. **Chomsky N.** (1957) o‘zining *"Syntactic Structures"* asarida til tuzilishini generativ grammatika orqali tahlil qilish metodikasini taklif qilgan va bu sun’iy intellekt tizimlarida tabiiy tilni qayta ishlashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qilmoqda [4]. **Jurafsky D. va Martin J.H.** (2009) *"Speech and Language Processing"* kitobida sun’iy intellektning lingvistik strukturalarni anglash uchun qanday texnikalar qo‘llanishini batafsil bayon qilgan [5]. **Winograd T.** (1972) o‘zining *"Understanding Natural Language"* asarida SI tizimlarining tilni tushunishdagi cheklovlari va muammolariga e'tibor qaratgan [6]. **Bender E. va Koller A.** (2020) *"Climbing towards NLU: On Meaning, Form, and Understanding in the Age of Data"* maqolasida sun’iy intellekt algoritmlarining ko‘p hollarda yuzaki ma’lumotlarga asoslanishini va bu natijalarning ma’noni tushunishga to‘liq javob bermasligini ta'kidlagan. Sun’iy intellekt tizimlarida madaniy va mintaqaviy tafovutlarni inobatga oluvchi kengroq ma'lumotlar bazasini yaratish [7].

- Mashina o‘rganish modellarini xalq maqollari, iboralar va madaniy semantik birliklar asosida boyitish.
- Dialektlar va kichik tillarni sun’iy intellekt tizimlariga kiritish orqali lingvistik ko‘lamni kengaytirish.
- Sun’iy intellekt algoritmlarida kontekstual model (masalan, BERT, GPT) asosida murakkab tahlil qilish mexanizmlarini keng qo‘llash.

Yuqorida ta’kidlanganidek, lingvokulturologiya fanining asosiy tadqiqot yo‘nalishlari til va madaniyatning o‘zaro bog’liqligini o‘rganishga qaratilgan. SI esa ushbu jarayonni avtomatlashtirish va kengaytirishda muhim vosita hisoblanadi. Biroq, quyidagi muammolar yuzaga chiqmoqda:

Semantik muammolar: SI algoritmlari metafora, kontekst va madaniy ramzlarni tushunishda qiyinchiliklarga duch keladi. Masalan, professor A. Wierzbicka ta'kidlashicha, til madaniy kodlarni o'zida mujassam etgani sababli bu sohadagi tarjimalar inson tafakkuri orqali oson amalga oshiriladi Lingvokulturologik tadqiqotlar uchun katta hajmdagi diversifikatsiyalangan korpus ma'lumotlari talab

etiladi. Bu esa axborot yig'ish va markazlashtirish muammolarini yuzaga keltiradi. Tadqiqotchi J.Graddol fikricha, texnologik rivojlanish bilan bu muammo bartaraf etilishi mumkin [8]. (Graddol, 2006). Til va dialektlar xilma-xilligi SI tizimlari muayyan madaniyat va dialektlarni aniqlashda qiyinchiliklarga duch keladi. Professor D.Crystal fikricha, lingvistik o'zgarishlarning to'liq tasviri uchun har bir tildagi madaniy elementlarni hisobga olish zarur. Lingvokulturologiya va SI integratsiyasida quyidagi yechimlar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. **Katta hajmdagi korpus ma'lumotlarining yaratilishi:** Mavjud ma'lumotlar bazasi kengaytirilib, madaniy va mintaqaviy dialektlarga xos lingvistik xususiyatlarni o'z ichiga olishi zarur.

2. **Semantik tahlil algoritmlarini rivojlantirish:** Semantik tahlilni mukammallashtirish orqali SI tizimlari kontekstual va madaniy qirralarni aniqlashda ancha samarali ishlay oladi. Professor Y. Wilks sun’iy intellekt tizimlarini "tarjima konteksti orqali tahlil qilish" texnologiyalari bilan boyitish muhimligini ta'kidlaydi.

3. **Multimodal tizimlardan foydalanish:** Matn, audio va video ma'lumotlarni birlashtirish orqali lingvokulturologik omillarni aniqroq aniqlash mumkin.

4. **Sun’iy intellekt tizimlarida etika va madaniy me’yorlarning inobatga olinishi:** SI dasturlarining madaniy kontekstlarni hurmat qilishi va noto‘g‘ri talqinlarning oldini olish uchun maxsus algoritmlar ishlab chiqilishi lozim.

Sun’iy intellekt va til integratsiyasi zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda dolzarb masalalardan biridir. Ushbu jarayonda yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilish uchun tilshunoslik va axborot texnologiyalari mutaxassislari hamkorlikda ish olib borishi muhimdir. Bunday yondashuv sun’iy intellektning yanada takomillashishiga va inson-mashina muloqotining yanada tabiiylashishiga yordam beradi. Lingvokulturologiya va sun’iy intellekt integratsiyasidagi muammolarni bartaraf etish uchun zamonaviy texnologiyalar va ilmiy yondashuvlarni uyg'unlashtirish zarur. Bu jarayon natijasida tillar va madaniyatlar o‘rtasidagi muhim bog'liqlik yanada kengroq o'rganilib, lingvokulturologik tadqiqotlarda yangi imkoniyatlar yaratiladi. Kelajakda

ushbu integratsiya sun’iy intellekt tizimlarining yanada aqlli va madaniyatga mos ravishda ishlashiga zamin yaratishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chomsky N. (1957). Syntactic Structures. The Hague: Mouton.
2. Jurafsky D., Martin J. H. (2009). Speech and Language Processing. Prentice Hall.
3. Winograd T. (1972). Understanding Natural Language. Academic Press.
4. Bender E. M., Koller A. (2020). Climbing towards NLU: On Meaning, Form, and Understanding in the Age of Data. ACL Conference Proceedings.
5. Wierzbicka, A. (1992). Semantics, Culture, and Cognition: Universal Human Concepts in Culture-Specific Configurations. Oxford University Press.
6. Graddol, D. (2006). English Next: Why Global English May Mean the End of English as a Foreign Language. British Council.
7. Crystal, D. (2003). The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge University Press.
8. Wilks, Y. (2008). Machine Translation

RAQAMLI KOMMUNIKATSIYADA PRAGMATIK MA’NO: IJTIMOIY TARMOQLAR TILINING PRAGMALINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Murodova Shaxlo Ibragimovna

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.,

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Tel: +99897.447-00-82; e-mail: murodovashahlo54@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy raqamli kommunikatsiya jarayonida yuzaga kelayotgan pragmatik hodisalar tahlil qilinadi. Ijtimoiy tarmoqlar tilining shakllanishi, undagi emoji, emotikonlar, qisqartmalar va kontekstga bog‘liq pragmatik ma’nolar pragmalingvistika nuqtayi nazaridan o‘rganiladi. Tadqiqot davomida internet muloqotida qo‘llanilayotgan til birliklarining kommunikativ

funksiyalari, nutq aktlari hamda pragmatik strategiyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli kommunikatsiya jarayonida pragmatik ma’no qanday shakllanishi hamda bu jarayonning zamonaviy lingvistika uchun ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: *pragmalingvistika, raqamli kommunikatsiya, internet tili, emoji, nutq akti, kontekst, pragmatik ma’no, ijtimoiy tarmoqlar*.

Abstract. This article analyzes pragmatic phenomena emerging in modern digital communication. The linguistic features of social media language, including emojis, emoticons, abbreviations and context-dependent meanings are studied from a pragmalinguistic perspective. The research focuses on communicative functions of language units, speech acts and pragmatic strategies used in online communication. The study demonstrates that digital communication language has become an important object of investigation in modern linguistics and highlights the role of pragmatic meaning in shaping effective online interaction.

Keywords: *pragmalinguistics, digital communication, internet language, emoji, speech act, context, pragmatic meaning*.

So‘nggi o‘n yilliklarda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi insonlar o‘rtasidagi kommunikatsiya shakllarini sezilarli darajada o‘zgartirdi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va turli messenjer platformalarining keng tarqalishi natijasida insonlar o‘rtasidagi muloqot tobora ko‘proq raqamli muhitda amalga oshirilmoqda. Bunday kommunikativ muhitda til birliklari nafaqat semantik va grammatik, balki pragmatik jihatdan ham yangi funksiyalarni bajaradi.

Raqamli kommunikatsiya nafaqat axborot uzatish vositasi, balki yangi lingvistik fenomen sifatida ham qaralmoqda. Ayniqsa, internet tilida pragmatik ma’no shakllanishining o‘ziga xos jihatlari tilshunoslik uchun muhim tadqiqot obyekti hisoblanadi. Pragmalingvistika til birliklarining nutq jarayonida qanday maqsad bilan qo‘llanishini o‘rganadigan yo‘nalish sifatida raqamli kommunikatsiyani tahlil qilishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Internet muloqotining asosiy xususiyatlaridan biri uning tezkorligi va qisqa shaklda ifodalanishidir. Shu sababli foydalanuvchilar ko‘pincha qisqartmalar, emoji belgilar, stikerlar va boshqa grafemik elementlardan foydalanadi. Bunday vositalar

nutqning hissiy ohangini ifodalash hamda pragmatik ma’noni aniqlashtirishga xizmat qiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi ijtimoiy tarmoqlar tilining pragmalingvistik xususiyatlarini o‘rganish, raqamli kommunikatsiyada pragmatik ma’no shakllanishining asosiy mexanizmlarini tahlil qilish hamda internet muloqotida qo‘llanilayotgan kommunikativ strategiyalarni aniqlashdan iborat.

Pragmalingvistika tilshunoslikning nutq jarayonida til birliklarining qo‘llanishini o‘rganadigan muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu soha XX asrning ikkinchi yarmida shakllanib, til va nutq o‘rtasidagi munosabatni yangi nuqtayi nazardan talqin qilish imkonini berdi. Pragmalingvistika doirasida quyidagi asosiy tushunchalar muhim o‘rin tutadi:

- nutq aktlari
- implikatura
- presuppozitsiya
- kontekst
- kommunikativ niyat

Nutq jarayonida gapning haqiqiy ma’nosi ko‘pincha uning grammatik tuzilishidan ko‘ra kommunikativ vaziyat bilan belgilanadi. Masalan, bir xil gap turli kontekstlarda turli pragmatik ma’noni ifodalashi mumkin. Masalan: “Bugun juda erta keldingiz” Ushbu gap oddiy xabar sifatida ham, kinoya yoki tanqid sifatida ham talqin qilinishi mumkin. Bunda pragmatik ma’no nutq vaziyati orqali aniqlanadi. Tilshunos S. Levinson pragmatikani “til birliklarining kontekst bilan bog‘liq ma’nosini o‘rganadigan soha” sifatida ta’riflaydi. Shuningdek, H. Grays tomonidan ishlab chiqilgan implikatura nazariyasi ham pragmalingvistika rivojida muhim ahamiyatga ega.

Raqamli kommunikatsiya muhitida esa bu jarayon yanada murakkab tus oladi. Chunki muloqot ko‘pincha yozma shaklda amalga oshiriladi va unda paralingvistik vositalar yetishmaydi. Shu sababli foydalanuvchilar pragmatik ma’noni ifodalash uchun yangi belgilar va strategiyalardan foydalanadi.

Raqamli kommunikatsiya tilining o‘ziga xos xususiyatlari. Internet kommunikatsiyasi an’anaviy yozma nutqdan bir qator jihatlari bilan farq qiladi. Birinchidan, u tezkor va qisqa shaklda ifodalanadi. Ikkinchidan, unda vizual elementlar keng qo‘llanadi. Raqamli kommunikatsiya quyidagi xususiyatlarga ega:

1) tezkorlik
2) qisqa va lo‘nda ifoda
3) vizual elementlarning mavjudligi
4) kontekstga kuchli bog‘liqlik
5) ijtimoiy guruhga xos til birliklarining qo‘llanishi

Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda yozilgan qisqa izohlar ko‘pincha grammatik jihatdan to‘liq bo‘lmagan bo‘lsa ham, muloqot ishtirokchilari uchun tushunarli bo‘ladi. Misol: *“Zo‘r chiqibdi -* 🔥*”*. Bu jumla grammatik jihatdan juda sodda bo‘lsa ham, emoji belgisi orqali kuchli ijobiy baho ifodalanadi.

Emoji va emotikonlarning pragmatik funksiyasi. Emoji va emotikonlar internet kommunikatsiyasining eng muhim pragmatik vositalaridan biri hisoblanadi. Ular nutqning hissiy ohangini ifodalash hamda kommunikativ niyatni aniqlashtirishga xizmat qiladi.

Masalan: *Rahmat* 🥲 ; *Rahmat* 😑 ; *Rahmat* 😂.

Bu uch misolda bir xil so‘z ishlatilgan bo‘lsa ham, emoji belgilar tufayli turli pragmatik ma’no yuzaga keladi. Emoji belgilar quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- hissiy holatni ifodalash
- kinoya yoki hazilni ko‘rsatish
- nutqning ohangini aniqlashtirish
- kommunikativ noaniqlikni kamaytirish

Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, emoji belgilar raqamli kommunikatsiyada yuz ifodasi vazifasini bajaradi. Shuning uchun ular muloqot samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Internet slengi va qisqartmalar. Internet kommunikatsiyasida qisqartmalar keng qo‘llanadi. Bu holat tezkor muloqot zarurati bilan bog‘liq. Masalan:

LOL – kulishni ifodalovchi birlik;

OMG – hayrat ifodasi;

BRB – tez orada qaytishni bildiradi.

Bunday qisqartmalar kommunikativ jarayonni tezlashtirish bilan birga muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy identifikatsiyasini ham ko‘rsatadi.

Masalan, yoshlar nutqida quyidagi birliklar keng uchraydi:

“Top video ekan 👍*”.*

Bu jumlada “top” so‘zi sleng birlik sifatida ishlatilgan bo‘lib, “juda yaxshi” ma’nosini anglatadi.

Raqamli kommunikatsiyada nutq aktlari. Nutq akti nazariyasi pragmalingvistikaning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Nutq akti bu – gap orqali bajariladigan kommunikativ harakatdir. Kommunikativ harakat, ya’ni muloqot – murakkab ko‘rinishdagi lisoniy (nutqiy) tafakkur faoliyatidir. Bu faoliyat natijasida nutqiy tuzilmalar hosil bo‘ladi va ushbu tuzilmalar strukturasida lisoniy tafakkur faoliyatining “iz”lari saqlanadi. Ammo ushbu “iz”larni topish va ularni qismlarga ajratish oson emas, zero, muloqot birligi – matnning tarkib topishida til tizimining barcha elementlari inson ongida tug‘iladigan nutqiy qolipni voqelantiruvchi vositalarga aylanadilar. Bundan tashqari, muloqot matnining shakllantirilishida nolisony birliklarning ham ishtirok etishini unutmaslik lozim. Internet kommunikatsiyasida quyidagi nutq aktlari keng uchraydi:

a) savol
b) iltimos
c) buyruq
d) maslahat
e) baholash

Masalan: *“Linkni yubora olasizmi?”* Bu gap grammatik jihatdan savol bo‘lsa ham, aslida iltimos nutq aktini ifodalaydi. Yana bir misol: *“Bu postni hamma ko‘rishi kerak”.* Bu gap tavsiya yoki undov ma’nosini anglatadi.

Pragmatik strategiyalar internet muloqotida foydalanuvchilar turli kommunikativ strategiyalardan foydalanadi. Muloyimlik strategiyasi muloqot

jarayonida ijtimoiy muvozanatni saqlashga xizmat qiladi. Masalan: “*Iltimos, vaqtingiz bo‘lganda qarab chiqarsiz”*. Bu ifoda buyruqni yumshatadi va muloqot madaniyatini saqlaydi.

Internet muloqotida **kinoya** ham keng qo‘llanadi. Bunday holatda gapning haqiqiy ma’nosi kontekst orqali aniqlanadi. Masalan:

“Juda tez ishlayapsizlar ekan 🥲*”.*

Bu jumla kontekstga qarab tanqid yoki kinoya ma’nosini anglatishi mumkin.

Vizual kommunikatsiya, ya’ni **gif, stiker** va **memelar** ham pragmatik ma’noni ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Ular nutqni obrazli va ekspressiv qiladi. Masalan, kulgili meme orqali foydalanuvchi o‘z fikrini qisqa va ta’sirchan shaklda ifodalashi mumkin.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli kommunikatsiya til tizimiga yangi pragmatik elementlarni olib kirdi. Internet tilida an’anaviy til birliklari bilan bir qatorda grafemik belgilar, emoji va vizual elementlar ham faol qo‘llanmoqda. Bu jarayon zamonaviy lingvistikaning pragmalingvistika, sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya kabi yo‘nalishlari bilan uzviy bog‘liq. Shu sababli raqamli kommunikatsiya tilini o‘rganish kompleks yondashuvni talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, internet muloqotida til birliklari yangi pragmatik funksiyalarni bajarganligi bois raqamli kommunikatsiya zamonaviy tilshunoslik uchun muhim tadqiqot obyektiga aylanib bormoqda. Tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarni keltirishimiz mumkin:

1. Ijtimoiy tarmoqlar tili pragmatik jihatdan boy kommunikativ tizimni shakllantirmoqda.

2. Emoji va vizual belgilar nutqning hissiy ma’nosini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi.

3. Internet kommunikatsiyasida indirekt nutq aktlari keng qo‘llanadi.

4. Raqamli kommunikatsiya tilini o‘rganish zamonaviy lingvistikaning dolzarb yo‘nalishlaridan biridir.

Kelajakdagi tadqiqotlarda internet tilining kognitiv va lingvokulturologik jihatlarini chuqur o‘rganish muhim ilmiy natijalarga olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Safarov Sh. Pragmalingvistika. Toshkent, 2008.
2. Mahmudov N. Til va nutq madaniyati. Toshkent, 2013.
3. Levinson S. Pragmatics. Cambridge University Press, 1983.
4. Crystal D. Language and the Internet. Cambridge University Press, 2006.
5. Grice H. Logic and Conversation. Academic Press, 1975.
6. Brown P., Levinson S. Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge University Press, 1987.
7. Herring S. Computer-Mediated Communication. Oxford University Press, 2010.
8. Primov A., Qodirova X. Tilshunoslikning dolzarb muammolari. -Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2019.
9. Норов А. Компьютер лингвистикаси асослари. -Қарши, 2017.
10. Ҳожиев А. Тилшунослик терминлари изоҳли луғати. -Тошкент, 2002.
11. Муҳаммедова С. Ҳаракат феъллари асосида компьютер дастурлари учун лингвистик таъмин яратиш. Методик қўлланма. -Тошкент, 2006.
12. Qodirova X.M. Zamonaviy tilshunoslik muammolari: o‘quv qo‘llanma / Xorazm Khwarezm travel, 2024. – 228 bet.

XALQ OG‘ZAKI IJODI MATNLARIDAGI TAKRORIY BIRLIKLARNING LINGVOPOETIK VA LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Yuldasheva Zuhra Nizomiddinovna

O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),

Rasulova Zebiniso Jaloliddinovna

O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalq og‘zaki ijodi matnlarida uchraydigan takroriy birliklarning lingvopragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Folklor matnlarida takroriy birliklar nutqning emotsional-ekspressiv ta’sirini kuchaytirish, ma’no urg‘usini yaratish hamda tinglovchi e’tiborini muhim semantik birliklarga qaratish vazifasini bajaradi. Tadqiqotda takroriy birliklarning leksik, sintaktik va fonetik ko‘rinishlari hamda ularning kommunikativ-pragmatik funksiyalari o‘rganildi. Natijada xalq og‘zaki ijodida takroriy birliklar nafaqat badiiy-estetik vosita, balki nutqning ta’sirchanligini oshiruvchi lingvopragmatik omil sifatida xizmat qilishi asoslab berildi.

Kalit so‘zlar. *Doston, takror, takroriy birliklar, lingvopragmatika, lingvopoetika.*

Abstract. This article analyzes the linguopragmatic properties of repetitive units found in folk texts. In folklore texts, repetitive units serve to enhance the emotional-expressive effect of speech, create semantic emphasis, and focus the listener's attention on important semantic units. The study studied the lexical, syntactic, and phonetic manifestations of repetitive units and their communicative-pragmatic functions. As a result, it was substantiated that repetitive units in folk literature serve not only as an artistic-aesthetic tool, but also as a linguopragmatic factor that increases the effectiveness of speech.

Keywords. *Doston, repetition, repetitive units, linguopragmatics, linguopoetics.*

Xalq og‘zaki ijodi matnlarida takroriy birliklar muhim lingvopoetik va lingvopragmatik vositalardan biri hisoblanadi. Xalq og‘zaki ijodining bebaho namunalari hisoblangan dostonlar matnida takroriy birliklar voqea rivojini izchil bayon qilish, tinglovchining diqqatini asosiy mazmuniy nuqtalarga jalb etish hamda matnning ritmik-kompozitsion tuzilishini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Manbalarda ta’kidlanishicha, xalq og‘zaki ijodida takroriy birliklar matnning esda qolish darajasini oshiradi va kommunikativ jarayonda muallif hamda tinglovchi o‘rtasidagi pragmatik aloqani mustahkamlaydi. Shu sababli takrorlash nafaqat stilistik

bezak, balki muayyan ma’no yukini ifodalovchi kommunikativ strategiya sifatida namoyon bo‘ladi.

Jahon tilshunosligida tilning tasviriy, badiiy-estetik imkoniyatlari va ularning xalq og‘zaki ijodi namunalaridagi ishtiroki masalasi tadqiqiga katta ahamiyat berilmoqda. Zero, asrlar davomida xalqning hayot va turmush tajribalari asosida hamda olamni idrok etish ishtiyoqida yaratilgan va muntazam sayqallanib kelgan xalq og‘zaki ijodi asarlari tilini tadqiq qilish orqali milliy tilning taraqqiyot tarzini o‘rganish imkoniyati yanada kengayadi. Shuning uchun ham dostonlardagi badiiy tasvir vositalari ko‘lamini aniqlash, tavsiflash va tasniflash orqali milliy tilning estetik-ekspressiv jihatlarining namoyon bo‘lishidagi o‘ziga xosliklarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Dunyo tilshunosligida dostonlar tilining fonetik, leksik-semantik va sintaktik xususiyatlarini hamda dostonlarda qo‘llangan til birliklarining lingvopoetik imkoniyatlarini o‘rganish, dostonlardagi estetik tasvir vositalarini va ekspressivlik ifodalovchi vositalarni aniqlash bo‘yicha ko‘plab ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borilgan. Hozirgi kunda xalq dostonlari tilini har tomonlama mukammal tadqiq qilish, ularning lingvistik hamda poetik xususiyatlarini chuqur o‘rganish, dostonlar tilini fanlararo mushtarak tamoyillar asosida tekshirish, bu borada muayyan nazariy-amaliy qonuniyatlarni belgilash, xulosalarni umumlashtirish tilshunoslikning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalq yaratgan bebaho ma’naviy meros hisoblanmish dostonlarni o‘rganish va ularni keng miqyosda ommalashtirish hozirda davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgani bejiz emas. Xalqning milliy o‘zligini, uning tili va hayot tarzini, ajdodlardan yodgor an’ana va urf-odatlarini o‘zida mujassam etgan dostonlar umumbashariy madaniyatning ajralmas qismi ekanligi va shuning uchun ham uni asrab-avaylash hamda kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish bugungi avlodning muqaddas burchidir. “Bugungi kunda globallashuv jarayonlari tobora kengayib, asl san’at o‘rnini, afsuski, shou-biznes, olomon madaniyati egallab olayotgan bir sharoitda beqiyos ma’naviy boyligimiz bo‘lmish mumtoz san’atni, xalq ijodiyotining

nodir namunalarini asrab-avaylash, ularni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish barchamizning muqaddas burchimizdir”[14].

Xalq og‘zaki ijodi janrlari orasida milliy urf-odatlarni aks ettirishdagi qamrovining kengligi va lisoniy jozibadorligi bilan alohida ajralib turuvchi dostonlar tilini o‘rganish olamni bilishning milliy-lisoniy o‘ziga xosligini belgilashda o‘ta muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Xalq og‘zaki ijodining noyob namunalarini, xususan, badiiy qimmati, xalq hayoti, tafakkuri va o‘ziga xos urf-odatlarini keng qamrovli aks ettirishi bilan alohida farqlanib turuvchi dostonlar tilini o‘rganish tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biri hisoblangan.

Badiiy uslubdan boshqa uslublarda takrorlanuvchi birliklar ifoda g‘alizligini keltirib chiqaradi. Biroq takror badiiy uslubda alohida estetik maqsadaga xizmat qiladigan vositaga aylanadi. Xalq og‘zaki ijodi namunalari tilida ham bu holatni ko‘p kuzatishimiz mumkin. Hatto baxshilarning ijodiy laboratoriyasi bilan bog‘liq tadqiqotlarda takrorga asoslangan qolip ifodalarning eng birinchi yod olinadigan parchalar ekanligi aytiladi[15]. Dostonlarning kompozitsion tuzilishida takroriy birliklar alohida ahamiyatga ega bo‘lib, doston matnining shakllanishini ta’minlashga hamda “voqelikdan olingan hissiy taassurotning emotsional ta’sir kuchini oshirish”ga[16] xizmat qiladi.

Shuni ishonch bilan aytish mumkinki, “Xoldorxon” dostoni o‘zbek milliy tilining nuqradek tiniq ko‘zgusi, xalq donoligining bezavol dalili hisoblanadi. Tilshunos olim N.Mahmudov “Alpomish” dostonining tili haqidagi bir maqolasida shunday fikrni ilgari surgan edi: “Alpomish” dostoni o‘zbek xalqi tili tirikligini, undagi an’analarning bardavomligini, bu tilning rasolik va badiiy bo‘yoqlarga boylik bobidagi barkamolligini baralla ko‘z-ko‘z qilib toliqmagan, tilimizning azaliy tarovatini salomat saqlab, asrlardan asrlarga opichlab olib o‘tib kelayotgan, ming

[14] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning xalqaro baxshichilik san’ati festivali ochilishiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2023-yil 6-may. https://baxshimarkaz.uz/

[15] *Bu haqda qarang:* Мирзаев Т. Халқ бахшиларининг эпик репертуари. – Тошкент: Фан, 1979; Мирзажонова М. Барқарор эпик формулалар ҳақида баъзи мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2000. – №6; Ўзбек фолклорининг эпик жанрлари. – Тошкент: Фан, 1981.

[16] Жирмунский В.М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Л.: Наука, 1977. – С. 199.

yillik faxr-u iftixorga shoyon, yoniq yodgorlikkim, uning buyukligini dunyo to‘lasicha e’tirof etib, biz bilan birga qamishdan bel bog‘lab to‘ylashgani yurtimiz mustaqilligiga musallam bir ishdir. Turkiy tarixning eng chuqur qatlamlaridan ibtido olgan bu doston o‘zbekning o‘lmas so‘zi timsoli sifatida hali ko‘p avlodlar qalbiga munavvarlik olib kiradi”[17].

Adabiyotimizning qadim va qoyim an’analariga e’tibor bersak, tovush va so‘zlarni muntazam takrorlash orqali o‘ziga xos bir ohang butunligi hosil qilishning keng tarqalganligini ko‘rishimiz mumkin. Xalq dostonlari ham bundan mustasno emas, albatta. Ayniqsa, Ergash Jumanbulbul ijrosidagi “Xoldorxon” dostonida tovush, so‘z, so‘z birikmasi va jumla takrori orqali namoyon bo‘lgan ta’sirchan musiqani kuzatishimiz mumkin. “Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha lug‘ati”da: “Badiiy nutqqa xos kompozitsion-sintaktik ifoda usullaridan biri – ayrim tovushlarni, bir yoki bir necha so‘zni yoki so‘z birikmalarini, ba’zan esa ma’lum satrni atayin takrorlash orqali fikr yoki his-tuyg‘uni ifodalashga, uning ta’sir kuchini oshirishga va turli intonasiyalarni bo‘rttirib ko‘rsatishga imkon beradigan stilistik usul”[18], – deyiladi. Bundan anglashiladiki, takroriy birliklar badiiy nutqning ohangdorligini ta’minlovchi poetik hodisa ekan. Boshqa bir lug‘atda esa takror quyidagicha izohlanadi: “matniy, kompozitsion yoki tematik birliklarning ma’lum badiiy-estetik maqsadlarni ko‘zlagan holda takrorlanishi, badiiy matn (va asar kompozitsion qurilishi)ga xos shunday usullarning umumiy nomi. Takror badiiy asarning turli sathlarida kuzatiladi. Jumladan: a) badiiy nutqda: fonetik (alliteratsiya, assonans, fonetik anafora, ishtiqoq), leksik (so‘z takrori, klimaks, anafora, epifora, anadiplosis va b.), semantik (gradatsiya, ma’no takrori), sintaktik (sintaktik parallelizm, xiazm); ritmik birliklarning o‘lchov asosida tartibli takrorlanishi: turoq (rukn), misra (yoki bahr), band; v) she’r kompozitsion darajasida: misra takrori

[17] Маҳмудов. Н. “Алпомиш” достони лингвопоэтикасига чизгилар // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. – Тошкент: ТДПУ, 2010. – Б.12-18.
[18] Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б.235.

(refren, tarje), band takrori (naqarot); g) obrazli-tematik takrorlar (tematik parallelizm, motiv)”[19].

“Go‘ro‘g‘li” turkumiga kiruvchi “Xoldorxon” dostoni voqealar silsilasining betakrorligi bilangina emas, lisoniy tashakkulining o‘ziga xosligi bilan ham alohida ajralib turadi. Ayniqsa, dostonda qo‘llangan takroriy shakllarning badiiy-estetik ko‘rinishlari diqqatga sazovordir. Dostonning mazmuniy va intonatsion butunligini ta’minlashda takroriy shakllardan keng foydalaniladi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, matnning butun holda saqlanishi, uning tinglovchi yoki o‘quvchiga yetkazilishida takrorlar muhim vosita sanaladi. Takrorlanuvchi birliklar badiiy asarda bir necha vazifani bajarishga moslashgan bo‘ladi. Estetik vazifa bu vazifalarning eng asosiylaridan biridir. “Xoldorxon” dostonidan tilida uchraydigan o‘ziga xos takror shakllari matn butunligini ta’minlovchi muhim vositalardan biri hisoblanadi.

Nutqda gaplarning takroriy qo‘llanishi uslubiy g‘alizlikni keltirib chiqarishi mumkin. Biroq muallifning maqsadini ta’sirchan ifodalashda bunday takrorlarga ehtiyoj seziladi. Va ular badiiy matndagi tasviriy vositalar sifatida har doim tadqiqotchilar e’tiborida turadi. O‘zbek tilshunosligida lingvopoetika bo‘yicha qilingan ishlar ko‘zdan kechirilganda, deyarli ularning barchasida takror tasviriy vositasiga murojaat qilinganligi kuzatiladi[20].

Demak, takror matn yoki matn parchasini bir butun holda saqlanishini ta’minlovchi o‘ziga xos yopiq tizimdir. Bu tizimning ishlash mexanizmi ham g‘oyat o‘ziga xosdir. Dastlab, matn shakllanishida ishlatilgan bu tizim ijro jarayonini qulaylashtirishga ham ko‘maklashadi va shu tariqa ikkinchi vazifasini ado etadi. Tinglovchi tomonidan matnning qulay anglanishini ta’minlash barobarida uzoq muddat xotirada saqlash imkoniyatini yaratishi bilan yana bir muhim vazifasini bajaradi. Bu mo‘jizakor vosita doston matnlarida ba’zan tovush, qo‘shimcha, o‘zak,

[19] Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б.307.
[20] *Bu haqda qarang*: Шофқоров А. Миртемир шеъриятида такрорнинг маъновий-услубий хусусиятлари: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2012; Ибрагимов Х. Тўра Сулаймоннинг ўзбек тили лисоний имкониятларидан бадиий фойдаланиш маҳорати: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. – Жиззах, 2021; Матназаров Ж. Матназар Абдулҳаким шеърияти лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. – Урганч, 2022; Yuldashev J. Usmon Nosir she’riyati lingvopoetikasi: Filol. fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2023; Norova Sh. Asqad Muxtorning badiiy til mahorati (“Chinor” romani misolida): Filol. fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD) ...diss. avtoref. – Toshkent, 2023.

ba’zan so‘z va so‘z shakllarining qaytarilishi shaklida qarshimizga chiqadi. Ba’zan bu vositalar birin-ketin, muntazam tarzda, ba’zan aralash, ba’zan ters holda namoyon bo‘ladi. Ba’zan, hatto yashirin holda kelganda ham o‘zining mavjudligini ta’kidlab turadi. Bu lisoniy birliklarning takroridan hosil bo‘ladigan ohangdorlik esa asarning intonatsion tugalligini ham ta’minlaydi.

Takrorning matnni shakllantirishday o‘ziga xos xususiyatini M.Yo‘ldoshev va Q.Yodgorovlar ham o‘zlarining “Badiiy matnning lisoniy tahlili fanidan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish” deb nomlanuvchi qo‘llanmasida tilga olgan edilar.[21] Birinchi gapda qo‘llangan ayrim qo‘shimchalar, so‘z, so‘z birikmasi yoki gaplarning keyingi komponentlar tarkibida takroran qo‘llanishi orqali matn shakllantirilishi mumkin. Tadqiqotchi A.Shofqorovning nomzodlik dissertatsiyasi atoqli shoir Mirtemir she’riyatidagi takrorlarning ma’noviy-uslubiy xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan, ammo unda bevosita lingvopoetik yondashuv emas, balki uslubiy yondashuv ustuvorlik qiladi[22].

Takror usulidan aytilayotgan fikrni alohida ta’kidlash, tasdiqlash, kengroq, batafsilroq ifodalash maqsadida foydalaniladi. Takror yordamida nutqning ta’sirchanligi ortadi. Takrorning bir necha ko‘rinishlari bor, ular ham matn tashakkulida uslubiy vazifa bajaradi: fonetik takror, leksik-semantik va grammatik takror. Fonetik takror deganda tovushlarning matn tarkibida alohida maqsad bilan takrorlanishi tushuniladi. Grammatik takrorda esa so‘z birikmasi va gaplarning takrorlanishi tushuniladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, xalq og‘zaki ijodi matnlarida takroriy birliklar muhim lingvopoetik va lingvopragmatik vositalardan biri hisoblanadi. Xalq og‘zaki ijodining bebaho namunalari hisoblangan dostonlar matnida takroriy birliklar voqea rivojini izchil bayon qilish, tinglovchining diqqatini asosiy mazmuniy nuqtalarga jalb etish hamda matnning ritmik-kompozitsion tuzilishini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

[21] *Bu haqda qarang*: Йўлдошев М., Ядгаров Қ. Бадиий матннинг лисоний таҳлили. – Тошкент, 2007.
[22] *Шофқоров А.Миртемир шеъриятида* такрорнинг маъновий-услубий хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – 27 б.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Yo‘ldoshev, M., Yadgarov, Q. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent, 2007.

2. Yo‘ldoshev M. Badiiy tarjimada lisoniy transformatsiyaning o‘ziga xos xususiyatlari. Vol. 6 No. 2 (2025): Educational Yield Insights & Breakthroughs.

3. Quronov, D., Mamajonov, Z., Sheralieva, M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – B. 355.

4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. J. II. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 266.

5. Abdupattoev, M.T. O‘zbek tilining poetik sintaksisi: Filol. fan. dokt. (DSc) … diss. – Farg‘ona, 2021. – 162 b.

6. Solijonov, Y., Mo‘minov, S. Badiiy asarlarda ismning ayrim funksiyalari // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1984. – № 2. – B. 44–49.

7. Toshmatov, X.Q. Xalq dostonlarida metafora // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2001. – № 4. – B. 56–60.

8. To‘ychiboyev, B. “Alpomish” va xalq tili. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 2000. – 160 b.

9. Usmonova, Sh. Olamning lisoniy manzarasini yaratishda o‘xshatishlarning o‘rni // Sharqshunoslik / Vostokovedenie / Oriental Studies. – Toshkent, 2015. – № 1. – B. 76–81.

10. Shoabduraxmonov, Sh. O poeticheskix osobennostyax yazыka poemы «Ravshan» Ergasha Djumanbulbul oglы // Obщestvennыe nauki v Uzbekistane. – Tashkent, 1970. – № 10. – S. 24–27.

11. Shoabdurahmonov, Sh. Ergash Jumanbulbul dostonlarida ifoda va tasviriylik // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1970. – № 5. – B. 43–50.

12. Shoabdurahmonov, Sh. “Ravshan” dostonining tili haqida // Ergash shoir va uning dostonchilikdagi o‘rni to‘plami. – Toshkent, 1971. – 2-kitob. – B. 146–172.

13. O‘rinboyeva, D. Dostonlar tilida frazeologik birliklar // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2007. – № 6. – B. 87–90.

14. O‘rinboyeva, D. Folklor asarlari tilida matnni to‘ldirish koeffitsientini aniqlash // Stilistika va pragmatika. – 1-qism. – Samarqand, 2010. – B. 158–160.

BOLALAR NUTQI LEKSIKASINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLINGVISTIK ASOSLARI

Xolisa Abdumalikova

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti

1-bosqich magistranti

+99 894 687 69 49

xolisaabdumalikova9811@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalar nutqining ontogenezi, lug‘at boyligini egallashning psixolingvistik mexanizmlari va nazariy asoslari tahlil qilinadi. L.S. Vigotskiy, J. Piaje, N. Xomskiy kabi jahon olimlari va o‘zbek tilshunoslarining ilmiy qarashlari qiyosiy o‘rganiladi. Maqolada so‘z o‘zlashtirish jarayonida kognitiv rivojlanish va ijtimoiy muhitning o‘zaro ta’siri yoritib berilgan hamda bolalar lug‘atini boyitish bo‘yicha ilmiy xulosalar taqdim etilgan.

Kalit so‘zlar: *psixolingvistika, ontogenez, kognitiv rivojlanish, lug‘at boyligi, faol va passiv lug‘at, nutqiy muloqot, interiorizatsiya.*

Аннотация. В данной статье анализируются онтогенез детской речи, психолингвистические механизмы и теоретические основы овладения словарным запасом. Проводится сравнительное изучение научных взглядов таких мировых ученых, как Л.С. Выготский, Ж. Пиаже, Н. Хомский, а также узбекских языковедов. В статье раскрывается взаимодействие когнитивного развития и социальной среды в процессе усвоения слов, а также представлены научные выводы по обогащению детского словаря.

Ключевые слова: *психолингвистика, онтогенез, когнитивное развитие, словарный запас, активный и пассивный словарь, речевое общение, интериоризация.*

Abstract. This article analyzes the ontogenesis of child speech, psycholinguistic mechanisms, and theoretical foundations of vocabulary acquisition. The scientific views of global scholars such as L.S. Vygotsky, J. Piaget, N. Chomsky, and Uzbek linguists are comparatively studied. The article highlights the interaction between cognitive development and the social environment in the process of word acquisition and presents scientific conclusions on enriching children’s vocabulary.

Keywords: *psycholinguistics, ontogenesis, cognitive development, vocabulary, active and passive vocabulary, verbal communication, interiorization.*

Bolalar nutqini o‘rganish tilshunoslik, psixologiya va pedagogika fanlarining kesishuv nuqtasida turgan dolzarb muammolardan biridir. Lug‘at boyligi – bu shunchaki so‘zlar yig‘indisi emas, balki bolaning aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi va ijtimoiy moslashuvining asosiy ko‘rsatkichidir. Psixolingvistikada so‘zning bola ongida qanday aks etishi, uning ma’nosini anglash va nutqda qo‘llash jarayonlari murakkab mexanizm hisoblanadi. Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar davrida bolalar lug‘atini shakllantirishning an’anaviy va zamonaviy usullarini nazariy jihatdan asoslash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalar nutqining rivojlanishi masalasi zamonaviy tilshunoslik, psixologiya va psixolingvistika fanlarida fundamental nazariy yo‘nalishlar asosida o‘rganiladi. Xususan, J. Piaje, N. Xomskiy hamda L. S. Vigotskiy tomonidan ilgari surilgan kognitiv, nativistik va ijtimoiy-madaniy konsepsiyalar mazkur muammoning nazariy-metodologik asosini tashkil etadi.

Kognitiv nazariya [1:10]: Jan Piaje bolaning til o‘rganishini uning umumiy kognitiv rivojlanishi bilan bog‘laydi. Uning fikricha, bola avval tushunchani (konseptni) anglaydi, keyin unga so‘z biriktiradi. Ya’ni, lug‘at boyligi aqliy operatsiyalar rivojiga bog‘liq. Ijtimoiy-madaniy nazariyada esa [2:217]: Lev Vigotskiy tilni ijtimoiy o‘zaro ta’sir mahsuli deb hisoblaydi. Uning mashhur “Yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasiga ko‘ra, bola kattalar yordamida yangi so‘zlarni o‘zlashtiradi va bu jarayon tashqi nutqdan ichki nutqqa (interiorizatsiya) o‘tish orqali amalga oshadi. N. Xomskiy [3:25]: Nativistik nazariyani ilgari surishda bolada tug‘ma “Til o‘rganish mexanizmi” mavjudligini ilgari suradi. Uning fikricha, bola

grammatik qoliplarni va so‘zlarni tez o‘zlashtirishga biologik dasturlashtirilgan. O‘zbek tilshunosligida (A. G‘ulomov, N. Mahmudov, M. Asqarova, G‘. Abdurahmonov) bolalar nutqi ko‘proq pedagogik, madaniy, kommunikativ va metodik tomondan o‘rganilgan bo‘lsa, keyingi yillarda psixolingvistik yondashuvlar (Sh. Safarov, G. Toirova) rivojlanmoqda. Ular o‘zbek tilining agglyutinativ xususiyatidan kelib chiqib, bolalar so‘z yasash mexanizmlarini o‘ziga xos tarzda egallashini ta’kidlaydilar. M.Asqarova [5:10]: maktabgacha tarbiya va maktab yoshidagi bolalar nutqini o‘stirishda so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz etish, yangi – yangi so‘zlar bilan ularning lug‘atini boyitish, kengaytirishga alohida e’tibor berilishi haqida ta’kidlab o‘tgan. Masalan, bolalar bilan kishilarning mehnati, kasb tanlash haqida suhbat o‘tkazishda shifokor, o‘qituvchi, shofyor, duradgor, oshpaz kabi turli kasb egalari tasvirlangan rasmlarni ko‘rsatib: “Bu kim?”, “O‘qituvchi nima qiladi?”, “Shifokor kimlarni davolaydi?”, “O‘qituvchi kimlarni o‘qitadi?” kabi savollar beriladi. O‘quvchilar qisqa – qisqa gaplar bilan javob berish orqali gap tuzishga o‘rganadilar. G. Toirova bolalar nutqini ontogenez jarayonida, ya’ni bosqichma – bosqich rivojlanish asosida o‘rgangan. Uning tadqiqotlarida: o’zbek bolalar nutqining yoshga doir dinamikasi, fonetik va leksik xatolarning tizimli xarakteri, semantik kengayish va umumlashtirish hodisalari va grammatik kategoriyalarning bosqichma – boshqich shakllanishi ilmiy asosida tahlil qilingan.

Bolalar lug‘atini o‘rganishning psixolingvistik asoslari quyidagi bosqichlarda namoyon bo‘ladi:

1. **Fonetik bosqichdan leksik bosqichga o‘tish:** Hayotining birinchi yilida bola tovushlarni taqlid qiladi. 1 yoshdan 3 yoshgacha bo‘lgan davr "lingvistik portlash" davri hisoblanadi. Bu davrda bola so‘zning fonetik qobig‘ini emas, balki uning denotativ (predmetga oid) ma’nosini o‘zlashtiradi.

2. **So‘z ma’nosini umumlashtirish.** Psixolingvistik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bolalar dastlab so‘zlarni keng ma’noda (masalan, barcha to‘rt oyoqli hayvonlarni "kuchuk" deb atash) yoki juda tor ma’noda qo‘llaydilar.

3. **Faol va passiv lug‘at munosabati:** Bolaning tushunadigan so‘zlari (passiv lug‘at) har doim gapiradigan so‘zlaridan (faol lug‘at) ko‘p bo‘ladi. Psixolingvistik

jarayon passiv lug‘atni faol lug‘atga aylantirish mexanizmini o‘z ichiga oladi. Bu jarayon emotsional bo‘yoq va takrorlash orqali tezlashadi.

Psixolingvistik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bola nutqi ontogenez jarayonida izchil va bosqichli tarzda rivojlanadi. Ushbu jarayayon nafaqat umumjahon psxilingvistikasida, balki o‘zbek tilshunosligida ham alohida tadqiq etilgan.

Bola 1 yosh atrofida o’rtacha 5 – 20 ta faol so‘z ishlatadi va nutq bir so‘zli xarakterga ega bo‘ladi. Bu bosqichni J. Piaje sensor – motor tafakkur bosqichi bilan bog’laydi. O’zbek tilshunosligida ham bola nutqining dastlabki bosqichlari o’rganilgan. Jumladan, Sh. Rahmatullayev bola nutqida dastlab predmet nomlari va kundalik ehtiyojni bildiruvchi so’zlar ustunlik qilishini ta’kidlaydi. Uning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” va leksikologiyaga oid ishlarida bolalar nutqining lug’aviy tarkibi masalasiga e’tibor qaratilgan. Shuningdek, N. Mahmudov nutq madaniyati va taraqqiyoti masalalarini yoritishda bola nutqining shakllanishida oilaviy muhit va jonli muloqot muhim omil ekanini qayd etadi.

1,5 – 2 yosh lug’at hajmi 50 – 300 tagacha yetadi va so‘z o‘zlashtirish sur’ati keskin ortadi. Steven Pinker bu jarayonni insonning biologik til mexanizmi bilan izohlab beradi. O‘zbek psixolingvistikasida esa mazkur davr nutqining faollashuv bosqichi sifatida talqin qilinadi. Mamatqul Jo‘rayev bolalar nutqining shakllanishida semantik kengayish va umumlashtirish hodisalari 2 yoshdan boshlab yaqqol namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi. Masalan, bola barcha yumaloq predmetlarni “to’p” deb atashi mumkin. Bu semantik kengayish hodisasi sifatida izohlanadi. Gap tuzish va uning grammatik shakllanishi bola nutqida 3 yoshga kelib rivojlanadi. Bu davrda oddiy gaplar tuzilishi va savol shakllarini qo’llay olishi, nutq va tafakkur birlashuvi kuzatiladi. R. Qo‘ng‘irov bolalar nutqi va metodikaga oid bo‘lgan ishlarida 3 yoshdan boshlab grammatik kategoriyalar – zamon, shaxs – son qo’shimchalari faol qo‘llanila boshlashni qayd etadi.

Olimlarning fikrlarini umumlashtirgan holda, shuni aytish mumkinki, bolalar lug‘atini rivojlantirish faqat mexanik yodlash jarayoni emas. Bolalar nutqining rivoji biologik yetilishi, kognitiv taraqiyyot va ijtimoiy muhit ta’sirida bosqichma – bosqich

takomillashib boradi. Bizning fikrimizcha, bugungi kunda bolalar lug‘atini o‘rganishda quyidagi ikki omil hal qiluvchi rol o‘ynamoqda:

- Birinchidan, “jonli muloqot defitsiti”. Raqamli qurilmalar (gadjetlar) bolaning passiv lug‘atini oshirishi mumkin (multfilmlar orqali), ammo faol lug‘atni rivojlantirishda oqsashga olib kelmoqda. Chunki nutq – bu dialogik jarayon. Vigotskiy nazariyasiga tayanib aytish mumkinki, ekrandagi nutq bola uchun “ijtimoiy hamkor” bo‘la olmaydi.
- Ikkinchidan, assotsiativ bog‘liqlik. Bola so‘zni alohida birlik sifatida emas, balki vaziyat va hissiyot bilan bog‘liq holda eslab qoladi. Masalan, “issiq” so‘zini choynakka qo‘l tegizib ko‘rganda tezroq anglaydi. Demak, lug‘at o‘rgatish metodikasi quruq so‘zlar ro‘yxatiga emas, balki *vaziyatli o‘yinlarga* asoslanishi kerak.
- Psixolingvistik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, garchi til o‘rganish mexanizmi universal bo‘lsa-da, ijtimoiy-madaniy muhit so‘z boyligini egallash uslubiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Biz buni G‘arb (yevropotsentrik) va Sharq (xususan, o‘zbek) tajribasi misolida ko‘rib chiqamiz. G‘arb pedagogikasi va psixolingvistikasida (AQSH, Yevropa) bolalar lug‘atini boyitishda individualizm va to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘rgatish ustuvorlik qiladi. Masalan, (Glenn Doman va Montessori metodikasi): G‘arb oilalarida 1-2 yoshli bolalar uchun “Flashcards” (tasvirli kartochkalar) keng qo‘llaniladi. Ota-ona bolaga olma rasmini ko‘rsatib, “Bu – olma” (This is an apple) deb o‘rgatadi. Psixolingvistik tahlil: Bu usulda bola so‘zni obyektdan ajratilgan holda, belgi (simvol) sifatida qabul qiladi. Natijada, bolada *nominativ lug‘at* (narsa nomlari) juda tez rivojlanadi, lekin hissiy bog‘liqlik sust bo‘lishi mumkin. Muloqot uslubi: G‘arbda “Child-directed speech” (bolaga yo‘naltirilgan nutq) standarti mavjud bo‘lib, ota-onalar bola bilan teng huquqli suhbatdosh sifatida, ko‘p savol-javob orqali muloqot qiladilar (“Senga bu yoqdimi?”, “Nima deb o‘ylaysan?”).

Sharq madaniyatida, xususan o‘zbek oilalarida til o‘rganish jamoaviy faoliyat va kuzatish orqali amalga oshadi. Masalan, maishiy-mehnat jarayoni: o‘zbek bolasiga maxsus kartochka ko‘rsatib “Bu – xamir” deb o‘rgatilmaydi. Bola onasi

bilan oshxonada birga bo‘lib, xamirni ushlab ko‘radi, unga un sepadi va jarayon davomida “zuvala”, “yoyish”, so‘zlarini tabiiy vaziyatda (in context) jarayon ichida o‘zlashtiradi. Sharqona yondashuvda so‘z *kinestetik* (harakat) va *audial* (eshitish) kanallar orqali kiradi. Bu Vigotskiyning “Ijtimoiy vaziyatda o‘rganish” nazariyasiga to‘liq mos keladi. So‘zlar quruq atama emas, balki hayotiy tajribaning bir qismi sifatida esda qoladi. Yoki folklorlar, buvilar tarbiyasi jarayonida “Alla”, tez aytishlar va topishmoqlar – Sharq bolasining lug‘atini shakllantiruvchi kuchli vositadir. Masalan, *erkalash so‘zlari* (qo‘zichog‘im, toychog‘im) orqali bolada so‘zning emotsional bo‘yog‘i shakllanadi. G‘arb tillarida bunday diminutivlar (kichraytirish-erkalash qo‘shimchalari) o‘zbek tilichalik boy emas.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bugungi globallashuv davrida sof “G‘arb” yoki sof “Sharq” modelini qo‘llash o‘zini oqlamaydi. Zamonaviy o‘zbek pedagogikasida “Integrativ model”ni joriy etish zarur. Ya’ni, G‘arbning interaktiv metodlari (kartochkalar, vizual qurollar)ni Sharqona tarbiyaning mazmuniy-hissiy boyligi (ertaklar, oilaviy muloqot) bilan uyg‘unlashtirish bolaning ham aqliy (IQ), ham hissiy (EQ) lug‘atini baravar rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bolalar lug‘atlarini o‘rganishning nazariy va psixolingvistik asoslarini o‘rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Lug‘at o‘zlashtirish – bu kognitiv rivojlanish va ijtimoiy muhitning sintezi natijasidir.

2. Bolada so‘zga bo‘lgan ehtiyojni uyg‘otmasdan turib, lug‘at boyligini sun’iy oshirib bo‘lmaydi.

3. Psixolingvistik yondashuv shuni talab qiladiki, lug‘at ishi bolaning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va hissiy holatini inobatga olgan holda tashkil etilishi zarur.

Kelajakdagi tadqiqotlarda bolalar lug‘atiga virtual olamning ta’sirini chuqurroq o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Пиаже Ж. Речь и мышление ребенка. Москва, 1994. - В. - 526

2. Vigotskiy L. Myshlenie i rech. Psixologik tadqiqotlar. V. Kolbanovskiy tahriri ostida. - Moskva–Leningrad, 1934. – B. - 362

3. Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. Cambridge, Massachusetts, 1965. - B. - 251

4. G‘ulomov A., Ne’matov H. Ona tili ta’limi mazmuni. – Toshkent, 1995. - B. - 128

5. Asqarova M. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish. – Toshkent, 1990. - B. - 160

6. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent, 2008. - B. – 300.

7. Piaje J. The origins of intelligence in children. New York, 1956. - B. – 442.

ZAMONAVIY LINGVISTIKANING NAZARIY VA AMALIY MASALALARI: TILNING JAMİYAT VA TEXNOLOGIYALAR BILAN INTEGRATSIYASI

Allamuratov Og‘abek Bahodir o‘g‘li

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Tel: +998770672237; e-mail: allamurodovogabek56@gmail.com

Ilmiy rahbar: (PhD) dotsent v.b. ***Murodova Shaxlo Ibragimovna***

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy lingvistikaning nazariy asoslari va amaliy yo‘nalishlari o‘zaro uzviylikda tahlil qilinadi. Tilshunoslik fanining klassik bosqichlardan bugungi raqamli davrgacha bo‘lgan evolyutsiyasi, uning boshqa ilmiy sohalar (psixologiya, sotsiologiya, informatika) bilan integratsiyasi yoritilgan. Muallif o‘zining shaxsiy kuzatuvlariga tayangan holda tilning shunchaki aloqa vositasi emas, balki sun’iy intellekt va kompyuter texnologiyalari (NLP) rivojida qanchalik muhim asos ekanligini isbotlashga harakat qilgan. Shuningdek, ta’lim va tarjima jarayonlarida lingvistik yondashuvlarning amaliy ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *lingvistika, nazariy lingvistika, amaliy lingvistika, kommunikatsiya, sotsiolingvistika, kompyuter lingvistikasi, sun’iy intellekt, til tizimi*.

Аннотация. В данной статье во взаимосвязи анализируются теоретические основы и практические направления современной лингвистики. Освещается эволюция языкознания от классических этапов до современной

цифровой эпохи, а также его интеграция с другими научными дисциплинами (психологией, социологией, информатикой). Опираясь на личные наблюдения, автор стремится доказать, что язык – это не просто средство общения, а важнейший стержень в развитии искусственного интеллекта и компьютерных технологий (NLP). Кроме того, раскрывается практическая значимость лингвистических подходов в образовательных и переводческих процессах.

Ключевые слова: *лингвистика, теоретическая лингвистика, прикладная лингвистика, коммуникация, социолингвистика, компьютерная лингвистика, искусственный интеллект, языковая система*.

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations and practical branches of modern linguistics in their interconnectedness. The evolution of linguistics from classical stages to the current digital era, and its integration with other scientific fields (psychology, sociology, computer science), are highlighted. Based on personal observations, the author aims to demonstrate that language is not merely a communication tool but a crucial core in the development of artificial intelligence and computer technologies (NLP). Furthermore, the practical significance of linguistic approaches in education and translation processes is revealed.

Keywords: *linguistics, theoretical linguistics, applied linguistics, communication, sociolinguistics, computational linguistics, artificial intelligence, language system*.

Insoniyat yaralibdiki, uning eng katta va sirli ixtirolaridan biri bu – til. Ko‘pincha biz tilni oddiygina ma’lumot almashish vositasi deb qabul qilamiz, xuddi nafas olayotgan havomizni sezmaganimizdek, undan foydalanamiz. Biroq, tilshunoslik (lingvistika) fani ichiga kirib borgan sari talaba sifatida menda bir fikr shakllandi: til bu shunchaki so‘zlar yig‘indisi emas, u jamiyatning, inson tafakkurining va madaniyatning tirik organizmidir.

Til doimiy harakatda. Men har kuni ijtimoiy tarmoqlarni, tengdoshlarimning muloqotini kuzatar ekanman, tilning qanchalik tez o‘zgarayotganiga, yangi qatlamlar paydo bo‘layotganiga guvoh bo‘laman. Kechagina fanga oid bo‘lgan kompyuter

atamalari bugun oddiy ko‘cha tiliga aylanib ulgurdi. Aynan shu dinamikani tushunish, uning qonuniyatlarini o‘rganish zamonaviy lingvistikaning asosiy vazifasidir. Ushbu maqolani yozishdan maqsadim – zamonaviy lingvistika faqatgina zerikarli qoidalar kitobi emas, balki aynan bugungi davrning (ayniqsa, texnologiyalar davrining) eng kerakli fanlaridan biri ekanligini nazariy va amaliy asoslar bilan ko‘rsatib berishdir.

Har qanday fanning poydevori uning nazariyasiga borib taqaladi. Nazariy lingvistika tilning ichki mexanizmini, ya’ni fonetik (tovushlar), leksik (so‘zlar), morfologik (so‘z shakllari) va sintaktik (gap qurilishi) darajalarini tekshiradi.

Agar biz tilning ichki tuzilishini bilmasak, uni boshqa sohalarga, masalan, kompyuter dasturlariga o‘rgata olmaymiz. XX asr boshlarida shveysariyalik olim Ferdinand de Sossyur tilni “belgilar tizimi” sifatida e’tirof etib, lingvistikada haqiqiy inqilob qildi. U til (langue) va nutq (parole) tushunchalarini farqlab berdi. Ya’ni, til hammamiz uchun umumiy bo‘lgan xazina bo‘lsa, nutq o‘sha xazinadan har bir insonning o‘z xohishiga ko‘ra qanday foydalanishidir.

Keyinchalik amerikalik tilshunos Noam Xomskiy (Noam Chomsky) o‘zining “Generativ grammatika” nazariyasi bilan chiqdi. Uning fikricha, har bir inson miyasida tug‘ma til apparati mavjud. Bu nazariya bilan tanishganimda chindan ham yosh bolalar hech qanday darsliksiz, eng murakkab gaplarni ham o‘z-o‘zidan tuzib ketishi yodimga tushdi. Demak, nazariy lingvistika shunchaki kitoblardagi qoidalar emas, u bizning miyamiz qanday ishlashining kalitidir.

Bugungi kunda hech bir fan o‘z qobig‘ida o‘ralib qolib rivojlana olmaydi. Zamonaviy ilm-fanda “chegaralar” allaqachon yo‘qolgan.

Zamonaviy lingvistikada Psixolingvistika yo‘nalishi nutq qanday paydo bo‘lishi va idrok qilinishini o‘rganadi. Nima uchun asabiylashganimizda ba’zi so‘zlarni eslay olmaymiz? Yoki nima uchun yangi til o‘rganayotganimizda dastlab o‘z ona tilimizda o‘ylab, keyin uni tarjima qilamiz? Shaxsiy fikrimcha, psixolingvistika ushbu savollarga eng aniq javob beruvchi til va tafakkur o‘rtasidagi ko‘prikdir. Sotsiolingvistika: Til va jamiyat. Yoshlar jargoni, kasbiy atamalar, erkaklar va ayollar nutqidagi farqlar – bularning barchasi sotsiolingvistika obyekti.

Talabalar yotoqxonasidagi muloqot bilan akademik darsdagi muloqot o‘rtasidagi farqni kuzatishning o‘ziyoq bu fanning qanchalik hayotiy ekanligini ko‘rsatadi.

Agar nazariy lingvistika tilning arxitektori bo‘lsa, amaliy lingvistika uning quruvchisidir. Amaliy lingvistika olingan nazariy bilimlarni hayotga tatbiq etadi.

Tarjima muammolari: Hozirgi kunda Google Translate yoki Yandex kabi avtomatik tarjimonlar juda ommabop. Lekin ko‘p hollarda ular ingliz tilidagi iboralarni o‘zbek tiliga so‘zma-so‘z, kulgili tarzda o‘girib qo‘yishiga guvoh bo‘lamiz (masalan, “It is raining cats and dogs” iborasini “Itlar va mushuklar yog‘yapti” deb tarjima qilishi). Bu muammoning ildizi nimada? Sababi, texnologiya tilning faqat yuzaki qatlamini tushunadi, uning ortidagi madaniyat va o‘zbekona ma’noni his qilmaydi. Aynan shu joyda malakali lingvistik kadrlarning yordami kerak bo‘ladi.

Kompyuter lingvistikasi va Sun’iy intellekt (SI): XXI asrda lingvistikaning eng gullab-yashnagan sohasi shu bo‘lsa kerak. ChatGPT, Siri, Alexa kabi tizimlarning gapimizni tushunib, javob qaytarishi ortida mashinali o‘rganish (Machine learning) va Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP – Natural Language Processing) texnologiyalari yotadi. IT sohasiga qiziquvchi ko‘pchilik tengdoshlarim faqat kod yozish bilan sun’iy intellekt yaratish mumkin deb hisoblaydi. Ammo men shunga amin bo‘ldimki, kompyuterga tilning qonuniyatlarini, morfologiyasini matematik mantiqqa solib, algoritm qilib beradigan insonlar kompyuter tilshunoslaridir. Bugungi kunda O‘zbekistonda ham milliy korpuslarni (o‘zbek tilining elektron bazasi) yaratish ishlari boshlangan. Bu juda quvonarli hol, chunki o‘zbek tilining raqamli makondagi umri va sifati aynan mana shu korpuslar qanchalik mukammal tuzilishiga bog‘liq.

Shuningdek, til o‘qitish metodikasi ham amaliy lingvistikaning bir bo‘lagidir. Hozirgi kunda chet tillarini o‘rganish yodlashga emas, balki kommunikativ (muloqotga kirishish) kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan. Biz darslarda yillab grammatika o’qib gapira olmasligimizning sababi shundaki, tilni jonli muloqot orqali emas, quruq formulalar orqali o‘rganganmiz. Zamonaviy lingvopragmatika o’quvchini qaysi vaziyatda qanday muloqot qilishga o‘rgatadi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy lingvistika qadimiy ildizlarga ega bo‘lsa-da, bugungi kunda o‘zining eng faol, “texnologik” davrini boshdan kechirmoqda.

Maqolani yozish jarayonidagi izlanishlarim shuni ko‘rsatdiki, nazariy tilshunoslik tilning anatomiyasini ochib bersa, amaliy tilshunoslik, ayniqsa, uning kompyuter lingvistikasi yo‘nalishi tilni kiber-makonda “tiriltirish” bilan shug‘ullanadi.

Kelajakda istalgan soha mutaxassisi (xoh u iqtisodchi, xoh u dasturchi bo‘lsin) o‘z mahsulotini jamiyatga taqdim etishi uchun til qonuniyatlarini bilishi shart. Til insoniyatning eng zo‘r texnologiyasidir va biz bu texnologiyani tadqiq etishda davom etaveramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mahmudov N. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi (Sintaksis). – Toshkent: O‘qituvchi, 2013.

2. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2002.

3. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002.

3. Saussure, F. de. (1916). Course in General Linguistics (Ochiq manbalardagi tarjima nashrlari).

4. Crystal, D. (1997). The Cambridge Encyclopedia of Language. Cambridge University Press.

5. Jurafsky, D., & Martin, J. H. (2023). Speech and Language Processing. Stanford University (kompyuter lingvistikasi va NLP bo‘yicha).

ESTETIK BAHO IFODASINING LINGVOKOGNITIV XUSUSIYATLARI

Zulfiya Marufova,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID: 0009-0004-7152-8846

Annotatsiya: Maqolada sharq mumtoz adabiyotida “Go‘zallik” konseptining badiiy tasvirlar va kognitiv mexanizmlar vositasida hosil qilinishi Lutfiy ijodi misolida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *konsept, go‘zallik, o‘xshatish, metafora, metonimiya, metaftonimiya, kognitiv mexanizm, subyektiv baho.*

LINGUO-COGNITIC PROPERTIES OF EXPRESSING AESTHETIC EVALUATION

Abstract: In the article, the creation of the concept of "Beauty" in Eastern classical literature through artistic images and cognitive mechanisms is analyzed on the example of Lutfii's work.

Key words: *concept, beauty, simile, metaphor, metonymy, metaphtonymy, cognitive mechanism, subjective evaluation.*

ЛИНГВКОГНИТИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ВЫРАЖЕНИЯ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ ОЦЕНКИ

Аннотация: В статье анализируется вербализация понятия “Красота” в восточной классической литературе через художественные образы и когнитивные механизмы на примере творчества Лютфи.

Ключевые слова: *концепт, красота, сравнение, метафора, метонимия, метафтонимия, когнитивный механизм, субъективная оценка.*

She’riyat – o‘ziga xos qonunlariga ega bo‘lgan sirli olam. Tilning konseptual sferasi va uning ijodiy komponentlari haqidagi dastlabki fikrlar XIX asrda Gumboldt, Potebnya, Fossler tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, zamonaviy tilshunoslikda uning antropotsentrik, kognitiv va milliy-madaniy yo‘nalishlari bo‘yicha faol tadqiqotlar olib borilmoqda.

Sharq mumtoz adabiyotida “Go‘zallik” konsepti, asosan, ayol, yor, ma’shuqa husnini ta’riflash zaminida yuzaga kelgan, desak, xato bo‘lmaydi. Yorning qomatini, sochini, yuzini, qoshini, ko‘zlarini, lablarini, so‘zlashini, xatti-harakatlarini ta’rif-tavsif qilish uchun alohida-alohida an’anaviy ramzlar maydoni shakllangan. “Shoir she’riy misralarni yaratar ekan, ongida mavjud sevgi, e’tiqod, go‘zallik singari fundamental hayotiy qadriyatlarni o‘zining xususiy takrorlanmas interpretatsiyalari bilan yanada boyitib, yangicha ma’nolar yaratishga moyil bo‘ladi”, – deb yozadi K.V.Sboroshenko [6, 8]. Lutfiy she’rlari misolida bu hodisalarni ko‘rib chiqamiz.

Dudog‘ing ma’dani jondur” — dedim, aytur: “Senga ne?

“Qomating sarvi ravondur” — dedim, aytur: ”Senga ne?!”

Ma’dan (arab.; ko‘pligi maodin) — 1) o‘rta asr Sharq mualliflari, jumladan, Beruniy, Ibn Sino va b. asarlarida *kon, metall, ruda, mineral va, umuman, yer osti foydali qazilma boyliklari* ma’nosida qo‘llanilgan; 2) har bir narsaning asli joyi [7].

Ma’lumki, mumtoz she’riyatimizda yor labini la’lga, yoqutga o‘xshatish an’analari mavjud. *Ma’dan* so‘zining 1-ma’nosiga ko‘ra “jonimning boyligi” ma’nosi yuzaga chiqadi. 2-ma’nosiga ko‘ra “asli joyi”, “makon” semalari orqali “jonimning vatani” ma’nosi assotsiatsiyalashadi. Demak, qiz labi 1) oshiq ko‘ngining butun borlig‘i, boyligi; 2) joni saqlanadigan joy sifatida ifoda etilgan.

Baytning ikkinchi misrasida ham yor qomati sarv daraxtiga o‘xshatiladi. Bu erda sarv daraxtining semantik maydoniga kiruvchi “tik”, “to‘g‘ri” semalari etakchilik qiladi. Subgektning sarv daraxti va yorning qomati haqidagi tasavvurlari kognitiv tarzda birlashtirilishidan tik va go‘zal qomatli ayol ko‘z oldimizga keladi.

A.G.Yuldashevning ta’kidlashicha, har qanday ko‘chma ma’noga ega bo‘lgan til birliklari avvalambor, inson tafakkurida bosqichma bosqich amalga oshirilgan jarayonlar samarasidir [5, 59]. K.V.Sboroshenko metaforalar poetik matnlarda global birlik-konseptni hosil qilishi ham mumkinligini aytadi [6, 8]. Lutfiy she’riyatida kognitiv mexanizmlar vositasida xilma-xil yangi tasvirlar yaratilganini ko‘rish mumkin.

Jon-u ko‘ngul kishvarining xonisiz,


Xusnu latofat tanining jonisiz.

Ushbu baytda konseptual metafora mexanizmining ikki bosqichda verballashuvini kuzatamiz:

Birinchi misradagi *jon-u ko‘ngil+kishvar (mamlakat)* so‘zlarining birlamchi ma’nolari sub’ekt ongida qayta ishlanib, *”hayot”,”odam”, “yashash”* semalari vositasida o‘zaro tutashadi. Bunda birikmaning sintaktik qurilishi tartibiga ko‘ra *kishvar* bosh so‘z bo‘lgani holda, “makon” ma’nosi ustunlik qiladi.

2-bosqichda **“ko‘ngil (jon) kishvarining+***xonisiz”* birikmasida moslashuv yo‘li bilan birikayotgan *kishvar (mamlakat)* va *xon* so‘zlari o‘zaro *boshqarish,hukmdor* umumiy semalari yordamida tutashib, yangi ma’noni hosil qiladi, bunda *xon* birligi

etakchi o‘ringa chiqadi. J. Lakoff va M. Jonson metaforik hosila ma’noning paydo bo‘lishida ikki kognitiv maydon, ya’ni *manba maydoni* hamda *maqsad maydoni* ishtirok etishini ko‘rsatishadi. *“Ko‘ngil (jon) mamlakatining xoni”* birikmasi **manba maydoniga** aylanadi va yorning oshiq hayotidagi mavqeini belgilovchi **maqsad maydoni**ning yuzaga kelishiga yordam beradi. Shoirning maqsadi-oshiqning ko‘ngli va tirikligi yorning ixtiyorida ekanligini ta’kidlash. Bu jarayonni quyidagi sxemada tasvirlash mumkin:



Ya’ni: *Makon konsepti* + *Odam konsepti* = Go‘zallik konsepti

O‘qdayin qomatimizni *qora qoshlig‘lar* uchun,

Muttasil yo qiladurg‘on bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul,

misralarida esa *konseptual metonimiya* mexanizmi vositasida sub’ektiv baho pozitsiyasi verballashadi. N.N. Boldirev konseptual metonimiyaning bir konseptning boshqa konseptni tavsiflash uchun ishlatilishi, o‘zi bilan bog‘liq bo‘lgan konsept bilan, bir konseptual maydon atrofida birlashuvini qayd etadi [1, 256]. So‘z yasalishida konseptual metonimiya tipidagi ma’no ko‘chishining yuz berishi xususida V. Kroft va D. Kruzlar ikki kognitiv maydonni, ya’ni *vosita maydoni* va *maqsad maydonini* o‘z ichiga olishini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, metonimiyada *vosita maydoni*ning vazifasi faqat *maqsad maydoni* tuzilishini aniqlashdan iborat [5, 61]. *Qora qoshliq* birikmasi sharq mumtoz she’riyatidagi an’anaviy ifoda usullaridan biri bo‘lib, qosh orqali qoshi qora go‘zal ayol nazarda tutiladi. Ya’ni qism orqali butun ifodasi mavjud. Metonimik ma’no ko‘chishining vosita maydoni *qosh* maqsad maydoni bo‘lgan *go‘zal yor* tasvirini yuzaga chiqarishga yordam beradi. O.V.Vaxovskayaning va boshqa tilshunoslarning ta’kidlashicha, konseptual metonimiya lingvokognitiv jarayon bo‘lib, metaforadan farqli o‘laroq, bir konsept

doirasida so‘zlar qayta nomlanadi [2,17]. Ko‘rilgan misolda vosita maydoni bo‘lgan *qosh* birligi ham, manba maydoni *yor* birligi ham “*odam*” konsepti doirasiga kiruvchi so‘zlardir.

Gulchehralarning javridin qat-qat bu bag‘rim qon erur

Dur tishlilarning noridin ikki ko‘zum ummon erur.

Ushbu baytning 1-misrasida *gul va chehra* leksemalari uchun umumiy bo‘lgan *chiroyli, yoqimli, xushbo‘y* kabi semalar shoir tafakkurida assotsiatsiyalashib,o‘zaro semantik aloqaga kirishadi. Konseptual metafora mexanizmiga kiruvchi manba maydoni – *gul* maqsad maydoni-*yuz*ni ta’riflashga xizmat qilgan. O‘simlik konsepti va Odam konsepti elementlarining o‘zaro kognitiv moslashuvidan yangi hosila ma’no – “go‘zal yuz” ma’nosi shakllanmoqda. Tana a’zosi, ya’ni *chehra* orqali bir butun odam ifodalanishi esa konseptual metonimiya vositasida amalga oshyapti. *Gulchehralar* birligining semantik doirasida metafora va metonimiyaning xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan kompleks mexanizm – **metaftonimiya** mexanizmi yuzaga chiqqan. L. Gussens tilshunoslikda birinchi bo‘lib metonimiya va metaforaning o‘zaro tutashuv jarayoniga e’tibor qaratdi va bu hodisani *metaftonimiya* termini bilan atadi. L. Gussens metaftonimiyaning ikki asosiy turini farqlagan. Bular: 1) metonimiyadan kelib chiqadigan metafora (metonymy within a metaphor); 2) metaforada mujassam bo‘lgan metonimiya (metaphor from metonymy). Biz tahlil qilgan metaftonimiya 2-turga misol bo‘la oladi.

Baytning ikkinchi misrasidagi “dur tishlilar” metaftonimiyasi ham shu usulda hosil qilingan. ***Tosh(dur) + tana a’zosi (tish) = metafora (go‘zallik); dur tishlilar = (metonimiya)*** go‘zal ayollar. Birinchi tasavvurda dur va tishning mos keluvchi semalari orqali go‘zallik elementi paydo qilingach,ikkinchi tasavvurda tish orqali odam siymosi namoyon bo‘lyapti.

Lutfiy g‘azallaridagi kognitiv mexanizmlar vositasida yaratilgan ko‘plab obraz va tasvirlar, o‘zbekcha milliy, madaniy- estetik qarashlar *yor,sevgi-muhabbat,ayol* tushunchalariga sharqona yondashuvga asoslangan “go‘zallik” konsepti elementlarini voqelantirishga xizmat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, badiiy matnda estetik konseptlarning, jumladan, go‘zallikning lisoniy voqelanishida kognitiv mexanizmlarning roli katta. Har qanday go‘zallikning idrokdagi talqinini so‘z bilan ifodalash subyektiv baho va lingvomadaniy omillarga vositasida amalga oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Болдырев Н.Н. Когнитивная лингвистика. Введение в когнитивную лингвистику. – Тамбов: ФГБОУ ВПО, 2014. – 236 с.

2. Ваховская О.В. Вербализация концепта “грех”в англоязычном дискурсе XIV- XXI веков.Украина. Когниция, коммуникация, дискурс. – 2012. – № 5. – С. 17–36.

3. Croft W. and D. Alan Cruse. Cognitive Linguistics. – New York: Published in the United States of America by Cambridge University Press, 2004 – 374 p.

4. Goossens L. The Interaction of metaphor and metonymy in expressions for linguistic action //Metaphor and Metonymy in Comparison and Contrast. – Berlin; New-York: Mouton de Gruyter, 2002. – P. 349-378.

5. Yuldashev A.G. Ko‘chma ma’noli so‘zlarda kognitiv mexanizmlarning o‘rni. “O‘zbekistonda xorijiy tillar” ilmiy-metodik elektron jurnali // 3/2019. – Б. 57. https://journal.fledu.uz/uz/k%D1%9Echma-manoli-s%D1%9Ezlarda-kognitiv-mehanizmlarning-%D1%9Erni/

6. Сборошенко К.В. Метафорическая репрезентatsiя концепта “Красота” в современной поэзии. Автореферат дисс. на соискание ученой степени кандидата филол. наук. Челябинск, 2009. Стр. 8.

7. http://qomus.info/encyclopedia.

2-SHO‘BA: “ADABIYOTSHUNOSLIKNING NAZARIY VA AMALIY MASALALARI” (ADABIY JARAYONLAR, ADABIY TANQID, MATNSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK)

“BOBURNOMA” TARJIMALARIDAGI AYRIM NOANIQLIKLAR XUSUSIDA

Qodirov Valijon Abduraxmonovich
Andijon davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori,
pedagogika fanlari doktori

Annotatsiya. Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarini M.Sale tomonidan rus tiliga qilingan tarjimasidagi ayrim nomuvofiqliklar xususida so‘z yuritiladi. O‘girmadagi translatologik noaniqliklar deyarli ijtimoiy, siёsiy, diniy kontentlarning barchasida uchrashi kuzatildi.

Kalit so‘zlar: *memuar asar, tarjima variantlari, diniy kontentlar, translatologik noaniqliklar, zoonimlar, harbiy atamalar.*

Аннотация. В статье говорится о некоторых несоответствиях в переводе М. Сале произведения Захириддина Мухаммада Бабура «Бабурнома» на русский язык. Было замечено, что транслатологические неточности в переводе встречаются почти во всех социальных, политических и религиозных материалах.

Ключевые слова: *мемуары, варианты перевода, религиозное содержание, переводческие неточности, зоонимы, военные термины.*

Annotation. The article refers to some inconsistencies in the translation of M. Sale of the work of Zahiriddin Muhammad Babur "Baburnoma" into Russian. It has been observed that translatological inaccuracies in translation occur in almost all social, political and religious materials.

Key words: *memoirs, translation options, religious content, translation inaccuracies, zoonyms, military terms.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadida èshlar o‘rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil yetish to‘g‘risida”gi PQ-3721-sonli qarorida “Ulug‘ ajdodlarimizning aql-zakovati va badiiy dahosi bilan yaratilgan noyob asarlar ... va boshqa sohalarga oid manbalar nafaqat bizning xalqimiz, balki jahon ahlining bebaho boyligi hisoblanadi” [1] deya urg‘u bilan ta’kidlanadi. Ana shu bebaho boylikni targ‘ib qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18.05.2018-yildagi 376-sonli “Jahon adabiètining eng sara namunalarini o‘zbek tiliga hamda o‘zbek adabièti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori [2] qabul qilindi. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan g‘oyat boy merosning xorijda eng mashhur bo‘lgan va shu bois ham eng ko‘p tarjima qilingan namunasi “Boburnoma” sanaladi. Xususan, M.Sale tomonidan rus tiliga o‘girmasi mashhurdir[3]. Keyingi qarorning ikkinchi qismida ko‘zda tutilgan o‘zbek adabièti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish mohiyatan “Boburnoma” va u kabi asarlarning ilgari amalga oshirilgan tarjimalarni o‘rganish, ularning yutuqlarini e’tirof etib, yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni aniqlab, ularni bartaraf etgan holda keyingi nashrlarda dunè kitobxonlariga ajdodlarimiz merosini imkon qadar mazmunan to‘laqonli tarjima variantlarini yetkazish vazifalarini oldimizga ko‘ndalang qo‘yadi. Qarorda ko‘zda tutilgan vazifalarni amalga oshirishni ko‘zda tutadigan tadqiqotlar amalga oshirish zarurki, ularning dolzarbligi quyidagilar bilan izohlanadi:

Birinchidan, “Boburnoma”dagi muayyan bir qanchasi so‘z yoki so‘z birikmalari matnda ko‘zda tutilgan yoki muallif nazarda tutgan yoxud o‘sha zamonda anglatgan ma’nosini tushunib yetmaslik natijasida noto‘g‘ri o‘girilgan. Shundaylardan birgina misol: Andijon ta’rifidagi “Elining orasida husn xeyli bordur” [4,6] jumlasi “Среди жителей Андиджана много красавцев” [3,30] deb o‘girilgan. Mutarjim “husn” so‘zini chiroy (красота), “xeyl” (xayl) so‘zini *guruh* tarzida to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘girib, ularning qo‘shilmasidan ma’no chiqarishga harakat qilgan. Aslida “husn xeyli” *go‘zallikni his qiluvchilar, san’atkorlar* ma’nosida keladi.

Ikkinchidan, memuar asardagi diniy kontentlar (diniy atama, Qur’ondan olingan iqtiboslar – oyatlar, oyat qismlari, hadislar va ularga ishoralar)ning talay qismi rus tilida o‘z ifodasini to‘g‘ri topmagan. Shulardan biri: “Boysunqur mirzo tahorat olmoq bahonasi bilan Bo‘ston saroyining sharqi-shimol tarafidagi bir uyga kirdi” jumlasi tarjimada “Байсункар мирза под предлогом естественных потребностей вошел в одну постройку в северо-восточной части Бустан-Сарая” tarzida o‘girilganini ko‘ramiz. Har qanday rus kitobxoni “естественных потребности” birikmasini *tahorat olmoq* deb tushunmasligi muqarrar. Bu kabi yanglish o‘girmalar tarjimada juda ko‘plab uchraydi.

Uchinchidan, xuddi yuqoridagi kabi xatolar diniy marosimlar interpretatsiyasida ham davom etadi. Hozirgacha o‘zbeklar ichida joriy bo‘lgan marhumning “Qirq” marosimi haqidagi “Aza rasmini bajo keltirg‘ondan so‘ng osh va taom faqir va miskinga tortilub, xatm va duolar borgonlarning arvohiga qilib...” jumlasi rus tiliga shunday tarjima qilingan: “Исполняв обряд оплакивания, мы роздали нищим и беднякам кушанье и пищу и устроили моления и чтения Корана за упокой души отошедших”. Islomiy talablarda (ayniqsa, rasmiy davlat arbobi ishtirokida) yig‘lash taqiqlangan *aza rasmini* tarjimada *obryad oplakivaniya* tarzida o‘qigan kitobxon marosimda yig‘i-sig‘i qilingan deb tasavvur qiladi. Shuningdek, marosim ichidagi “xatm”ni tarjimada berilgan “чтения Корана” to‘la ifodalamaydi, chunki *чтения Корана* deyilganda bir sura yoki Qur’ondan qism tushunilaveradi, lekin “xatm” muqaddas kitobni to‘la o‘qib tugatishni anglatadi.

To‘rtinchidan, nobotot (o‘qimliklar olami), hayvonot, jomodot (jonsiz narsalar) bilan bog‘liq bir talay atama va tushunchalarining tarjimasi ba’zan noaniq, ba’zan noto‘g‘ri berilgani kuzatiladi. Shunday xatolardan biri: Hindiston ta’rifidagi “Yana noranj va limu mashhur mevalardur” jumlasi “Еще есть в Хиндустане апельсины и другие плоды, похожие на него по виду” tarzida ifodalangan. Tarjimada noranj apelsin deb, limu esa unga ishora qilib “похожие на него по виду” deb qo‘ya qolingan – noaniqlikka yo‘l qo‘yilgan.

Beshinchidan, u yoki bu mansab, ijtimoiy tabaqa, vazifadorlikni anglatuvchi so‘zlar ham ayrim o‘rinlarda o‘z ma’nosidan butunlay qochirilganini ko‘rish

mumkin: Boysung‘ur Mirzoning Tohir Muhammad otlig‘ chuhrasi ham ilikka tushti/ *Любимец Байсункар мирзы по имени Тахир Мухаммед тоже попал в плен*. Jumladagi “chuhra” (tanquriqchisi, saroy navkari ma’nosida ishlatiladi) so‘zining “*любимец*” deb o‘girilishidagi xatolik yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu kabi holatlar “Boburnoma» tarjimada oz emas.

Oltinchidan, harbiy èki sièsiy atamalarda ham yuqoridagi kabi o‘nglanishi lozim bo‘lgan bir muncha leksik birliklar bor yoki yondashuvda ayrim mulohazalarga sabab bo‘ladigan jihatlar bor. Masalan, Bobur harbiy atama bo‘lmish “g‘ul”, “borong‘or” va “javong‘or» so‘zlariga izoh berib o‘tgan. M.Sale izohni o‘girishda bu atamalarni aslidagidek, tarjima qilmay aynan keltirgan. *Munda bu nav’ yasolni o‘shal sarofate birla burong‘or va javong‘or deyildi/... то они различается таким образом: по отношении к армии барангар и джавангар употребляется в его (собственном) значении.*

Atamalarni tarjima qilmay, asl matnda keltirilgan kabi berish zaruratida qolingan ekan, ushbu majburiy izohdan kelib chiqib, mutarjim ularni o‘girmay, atama sifatida (барангар, джавангар, гул tarzida) ishlatishi mumkin edi. Lekin tarjimon keyingi satrboshlaridanoq ularni *правый край, левый край и центр* tarzida berib boradi. Shu kabi tarjimadagi harbiy leksikani jiddiy ko‘rib chiqish, konteksdan kelib chiqib turlicha qo‘llangan atamalarning berilishiga e’tibor qaratish lozim.

Hozirgacha “Boburnoma” asarining boshqa tillarga tarjimasining orginal matnga tayangan holda o‘rganilishi muammosi ilmiy tadqiqot èki amaliy loyiha mavzusi qilib olinmagan. Biz yuqorida asarning rus tiliga qilingan tarjimasidagi to‘g‘rilanishi kerak bo‘lgan kamchiliklarning ayrimlari borasida so‘z yuritdik. Dastlabki yugurik nigoh bilan tekshirishning o‘zida bir talay tahrirtalab jihatlar aniqlandi. Bu holat buyuk memuar asarning boshqa – ingliz, nemis, fransuz kabi tillarga tarjimasi ustida orginaldan kelib chiqib tadqiq etilishini taqozo qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadida yoshlar

o‘rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3721-sonli qarori. https://lex.uz/docs/4887792

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18.05.2018 yildagi 376-sonli “Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘zbek tiliga hamda o‘zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. https://lex.uz/ru/docs/3743182

3. Бабур-наме. Записки Бабура. Перевод М.Сале. Т: Главная редакция энциклопедий. 1993.

4. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Т.: Юлдузча, 1990.

BOBUR IJODI VA YOSH AVLOD TARBIYASI

Xolikova Nodira Jahongirovna,

f.f.d. (DSc), dots., O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi mudiri,

тел.: 90 992-90-66, email - nodira.79@inbox.ru

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur ijodining yosh avlod tarbiyasidagi ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati tahlil etiladi. Bobur mumtoz shoir va mutafakkir sifatida talqin qilinib, uning g‘azallari hamda “Boburnoma” asarida ifodalangan insonparvarlik, adolat, sabr, vatanparvarlik kabi axloqiy fazilatlar yoshlar tarbiyasi nuqtayi nazaridan yoritiladi. Ishda Boburning hayot yo‘li va badiiy merosi yosh avlodni barkamol shaxs etib tarbiyalashda muhim ma’naviy resurs bo‘lib xizmat qilishi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: *“Boburnoma”, yosh avlod tarbiyasi, ma’naviyat, axloq-odob, adolatparvarlik, insonparvarlik, “Temur tuzuklari” tole’, “yaxshilig‘”, Ibrohim Lo‘di, Malika Bayda, “Maxfiy vasiyatnoma”, Xumoyun.*

Аннотация. В данной статье анализируется духовно-просветительское значение творчества Захириддин Мухаммад Бабур в воспитании молодого поколения. Бабур рассматривается как классический поэт и мыслитель. С

позиции воспитания молодёжи раскрываются нравственные качества – гуманизм, справедливость, терпение, патриотизм, - отражённые в его газелях и в произведении “Бабурнаме”. В работе обосновывается, что жизненный путь и художественное наследие Бабура служат важным духовным ресурсом в формировании гармонично развитой личности молодого поколения.

Ключевые слова: «Бабурнаме», воспитание молодого поколения, духовность, нравственность, справедливость, гуманизм, “Темур тузуклари”, судьба, «яхшилиг», Ибрагим Лоди, Малика Байда, «Махфий васиятнома», Хумаюн.

Abstract. This article analyzes the spiritual and educational significance of the works of Zahiriddin Muhammad Babur in the upbringing of the younger generation. Babur is interpreted not only as a statesman and military leader, but also as a classical poet and thinker. From the perspective of youth education, the moral qualities reflected in his ghazals and in Baburnama – such as humanism, justice, patience, and patriotism are examined. The study substantiates that Babur’s life path and literary heritage serve as an important spiritual resource in forming a harmoniously developed personality among the younger generation.

Keywords: *“Baburnama”, upbringing of the younger generation, spirituality, morality, justice, humanism, “Temur Tuzuklari”, fate, “yaxshilig,” Ibrahim Lodi, Malika Bayda, “Makhfiy Vasiyatnoma”, Humayun*.

Zahiriddin Muhammad Bobur O‘rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she’riyatida o‘ziga xos o‘rin egallagan adib, shoir, olim bo‘lish bilan birga yirik davlat arbobi va sarkarda hamdir. Bobur keng dunyoqarashi va mukammal aql-zakovati bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos solib, bu mamlakat tarixida davlat arbobi sifatida nomi qolgan bo‘lsa, serjilo o‘zbek tilida yozilgan «Boburnoma» asari bilan jahonning mashhur tarixnavis olimlari qatoridan ham joy oldi. Uning nafis g‘azal va ruboiylari turkiy she’riyatining eng nodir durdonalari bo‘lib, «Mubayyin», «Xatti Boburiy», «Harb ishi», Aruz haqidagi risolalari esa islom qonunshunosligi, she’riyat va til nazariyasi sohalariga munosib hissa bo‘lib qo‘shildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Bobur Mirzo xalqimizning buyuk farzandi. Adabiyot, ilm, ma’rifat nuqtayi nazaridan u hamon yashayapti. O‘zligimizni anglab, buyuk tariximizni yoshlarga tushuntirsak, ilm-ma’rifatni rivojlantirsak, hech qachon kam bo‘lmaymiz!” – deya Zahiriddin Muhammad Boburga yuksak baho bergan.

Darhaqiqat, Bobur Mirzoni ulkan davlat arbobi sifatidagina emas, qomusiy alloma, mumtoz shoir, jasur sarkarda, adolatli va saxovatpesha davlat arbobi, ilm-fan, madaniyat va san’at homiysi sifatida ham cheksiz qadrlaymiz.

Boburning tarix oldidagi buyuk xizmatlari shundan iboratki, temuriylarning so‘nggi hukmdori bo‘lib, bu sulolani saqlab qoldi. Ayni paytda, Hindistondek ulkan mamlakatni birlashtirib, boburiylar sulolasiga asos soldi. 300 yildan ortiq hukmronligi davrida boburiylardan Afg‘oniston, Pokiston va Hindistonda bog‘-rog‘lar, masjid, madrasalar, betakror qasrlar, ulug‘ obidalar, shuningdek, nihoyatda boy ijodiy-ma’naviy meros qoldi. Dunyoning yetti mo‘jizalaridan biri – Tojmahal maqbarasi Hindistondagi eng katta tarixiy yodgorlik hisoblanadi.

Bobur she’riyatining katta qismi hasbi hol yo‘nalishida. Ularda shoirning taqdir-qismati aks etdi. Ba’zan hayotning g‘animatligini his qilib, ruhiy erkinlikni teran anglagan hayotsevar shoir, ba’zan esa armonlar iskanjasida azoblanuvchi, mahzun, tushkun kayfiyatli inson sifatida tasavvurimizda gavdalanadi. Biroq shoir har qanday vaziyatda chapdastlik bilan o‘z ruhiy holatini yaxshilikka, umidvorlikka yo‘naltira oldi. “Yaxshilig‘” radifli g‘azali Bobur hayotining yorqin timsoli sifatida hali ko‘p avlodlarimizga saboq bo‘ladi.

Kim ko‘rubdur, ey ko‘ngul, ahli jahondin yaxshilig‘?
Kimki, ondin yaxshi yo‘q, ko‘z tutma, ondin yaxshilig‘!
Gar zamonni nafy qilsam ayb qilma, ey rafiq,
Ko‘rmadim hargiz, netayin, bu zamondin yaxshilig‘!

G‘azal zamirida shoirning yaxshilik haqidagi muhim ma’rifiy, falsafiy, diniy, badiiy g‘oyalari yotadi. Boburning yuksak mahorati avvalo ushbu g‘oyalarni g‘azalda chuqur va go‘zal ifodalash, ko‘ngillarga yaxshilik urug‘ini ekish, ko‘tarinki ruh bag‘ishlash, kitobxon diqqatini tortish uchun “yaxshilig‘” so‘zini radif qilib olganligidir. Zotan, “yaxshilig‘” so‘ziga urg‘u berishning o‘zida katta ma’no bor.

G‘azal ko‘ngilga yuzlanish va ko‘ngilga murojaat bilan boshlanadi, davom etadi va yakunlanadi. Bobur o‘zining hayot tarzini, ayrim noroziliklarini ham qo‘shib ushbu durdona g‘azalini yaratgan.

Mirzo Bobur she’riyatida asosiy mavzulardan biri – Vatan mavzusi.

Bobur Mirzo butun hayoti davomida boshidan kechirgan mashaqqatlar, tashvishlar, g‘oliblik va mag‘lubiyatlardan hayotiy hukm, falsafiy xulosa chiqara olgan. O‘zligini, menligini topgan inson. Uning har bir misrasida hayot hikmati mujassam:

Tole’ yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi,
Har ishniki ayladim, xatolig‘ bo‘ldi.
O‘z yerni qo‘yib, Hind sori yuzlandim,
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi.

Yaratgan Uning tole’iga musofirlikni bitgan edi. Vatan dardi, ona tuproq sog‘inchi uni butun umr qiynashini his qilardi. Uning hasratiyu nadomati umrguzaronlik daftariga bitilib borar edi. Lekin Bobur mag‘lubiyatdan saboq oldi va hamisha olg‘a qadam qo‘ydi. Hayot sinovlarini yengishdan tolmagan Bobur o‘z-o‘zini tanqid qilish, xatodan saboq chiqarish evaziga zafar quchdi. Bobur aynan shu jihatlari bilan yosh avlod uchun ibrat maktabini yaratadi.

«Boburnoma» asarida u nafaqat tarixiy voqealarni, balki o‘zining ichki kechinmalari, xatolari va xulosalarini ham ochiq bayon etadi. Bu holat uning ijodini tarbiyaviy jihatdan ayniqsa qimmatli qiladi.

47 yillik umrining 36 yilini jangu jadallarda o‘tkazgan Bobur Mirzo aslida osoyishtalik, tinchlik odami edi. Buni Boburning o‘g‘li Humoyunga qoldirgan vasiyatnomasi ham tasdiqlaydi. Unda Hindistonni boshqarishga oid o‘git-maslahat, yo‘l-yo‘riqlar bo‘lgani uchun bu vasiyatnoma “Maxfiy vasiyatnoma” deb yuritilgan. Buyuk shoirning “Maxfiy vasiyatnoma”sidagi “*podshohlik ishlarini puxta qilish uchun hazrat Amir Temur sohibqironning ishlarini ko‘z oldingizda tuting*”, – deb aytgan so‘zlari bejiz emas edi. Sohibqiron Amir Temur bobolarining davlat ishlarini yuritishga doir yaratgan “Temur tuzuklari” barcha avlodlar uchun dasturialamal bo‘lib xizmat qildi. Uning birgina “Kuch – adolatdadir!” bitigi Bobur va uning

avlodlari uchun ilk talab bo‘ldi. Shoh Boburning hayotida tub burilish yasagan Panipat jangi va unda yengilgan Ibrohim Lo‘dining onasi Malika Baydaga ko‘rsatilgan hurmat va ehtirom Bobur Mirzoning nechog‘li adolatli raqib bo‘lganini, ona dardini his qilib, unga hamdardlik bildira olgan mard podshoh ekanini namoyish etdi. Boburning so‘zlari faqatgina o‘g‘li Humoyunga nisbatan emas, balki bugungi ommaviy tahdidlar ko‘paygan vaqtda O‘zbekiston mustaqilligini mustahkamlashi kerak bo‘lgan avlodlarga qarata aytilgan vasiyatdek jaranglaydi.

Yoshlarimizga insonparvarlik, mehr-oqibat, halollik, sabr-qanoat, mehnatsevarlikni singdirishda Bobur Mirzoning hayot yo‘li katta saboq berishi, shubhasiz. Bu insondagi adolatparvarlik, jasorat, qat’iyatlilik, mardonavorlik kabi sifatlar barchamizga ibratdir. Bobur ijodida inson hayotida zarur bo‘lgan, uning kamoloti uchun omil bo‘luvchi axloq-odob, tarbiya, ma’naviyat, madaniyat, mafkura masalalari keng, ta’sirchan, sodda tarzda yoritilgan. Ayniqsa, insonning ma’naviy go‘zallikka erishuvida yaxshi tarbiya muhim ahamiyat kasb etishini chuqur ifodalab berdi.

Davlatqa yetib mehnat elin unutma,
Bu besh kun uchun o‘zingni asru tutma…

Bobur insonlarni shaxsiy manfaat orqasidan quvmaslikka, halollik va poklikni saqlashga, nafsga berilmaslikka, mansab hirsi sababli kambag‘al va nochor xalqning haqqiga xiyonat qilmaslikka da’vat etadi.

“Boburnoma”da Boburning ota sifatidagi fe’l-atvori o‘z ifodasini topgan. U hech qachon farzandlari tarbiyasini e’tibordan chetda qoldirmagan. U saroydan uzoqda bo‘lgan paytlarida maktublar orqali ularni barkamol inson qilib tarbiyalashga harakat qilgan. Masalan, Komron Mirzo kadxudo (boshliq) etib tayinlanganda yoki Humoyun Mirzo janggohlarda ko‘rsatgan jasoratu matonatini ko‘rganda faxr tuyg‘usini oshkor bayon etgan. Valiahd Humoyunning har tomonlama to‘kis inson bo‘lib yetishganidan mamnunligini ham ochiq izhor etgan. Shu o‘rinda o‘g‘il Humoyunning otasi Boburga «Hazratim», – deb murojaat qilishi ana shu tarbiyaning samarasi, desak o‘rinli bo‘ladi.

Ma’lumki, qaysi xonadonda ota ulug‘lansa, e’zozlansa, uning gapi ikki bo‘lmasa, o‘sha uyda farzandlar tarbiyasi risoladagidek kechadi. Bobur buni shunday bayon qiladi:

Otang chunki qibla debturlar,
Qibla yanglig‘ anga nazar qilg‘il.
Ota og‘ritma, ey, otam, zinhor,
Ota ozoridin ham hazar qilg‘il.

Shu o‘rinda Zahiriddin Muhammad Boburning o‘g‘li Humoyunga yozgan maktubida ajoyib satrlar bor. U ham bo‘lsa – davlatchilikda, mamlakatni boshqarishda yurt sardori hamisha atrofdagi beklar, hayotiy tajribaga ega shaxslar bilan mashvarat qilishi, yor-birodarlarini g‘animat bilib, ularning suhbati va maslahatlarini inobatga olishiga e’tibor qaratilganligini ko‘ramiz. Bu satrlar, tarbiyaviy ahamiyatidan tashqari, temuriylar saltanatida davlatni boshqarish, ayniqsa, podshoh bir qarorga kelishda bamaslahat ish ko‘rishi lozimligi talqinida berilishi diqqatga molik:

Ahbob, yig‘ilmoqni farog‘at tutungiz!
Jam’iyatingiz borini davlat tutungiz!
Chun gardishi charx budurur, Tengri uchun,
Bir-birni necha kuni g‘animat tutungiz!

Hayot kurashlardan iborat. Kim kurashmasa, hech narsaga erisholmaydi. Bobur asarlarida kurash, yengish, zafar quchish mavzulari katta ijtimoiy tuyg‘u tarzida beriladi. Yoshlar uchun qadrli bo‘lgan bu tuyg‘ular olami nihoyatda rang-barangdir. Bobur asarlaridagi tuyg‘ular olamining rang-barangligi – shodlik va g‘am, umid va tushkunlik, baxt va baxtsizlik, mehr va vafosizlik – bugungi yoshlar duch kelayotgan ichki kechinmalar bilan hamohang. Bu esa adabiyot va tarixni tarbiyaviy vosita sifatida qo‘llash, yoshlarni ruhiy jihatdan barkamol qilib tarbiyalashda katta imkoniyat yaratadi.

Bobur – nafaqat davlat arbobi va tarixiy shaxs, balki yuksak ma’naviyat sohibi, nozikta’b shoir va inson qalbini chuqur anglagan mutafakkirdir. Uning ijodida inson

kamoloti, axloqiy poklik, bilimga intilish va hayotga ongli munosabat g‘oyalari markaziy o‘rin egallaydi.

Bobur keng qamrovli bilim sohibi sifatida tarix, geografiya, tabiatshunoslik va adabiyot masalalarida chuqur fikr yuritadi. «Boburnoma»dagi tabiat tasvirlari, joy nomlari va xalqlarning urf-odatlariga oid ma’lumotlar o‘quvchida ilmiy kuzatuvchanlik va tahlil qilish qobiliyatini shakllantiradi. Bu esa Bobur ijodini fanlararo ta’limda qo‘llash imkonini beradi.

Boburning g‘azal va ruboiylarida axloqiy tarbiyaga oid g‘oyalar alohida o‘rin tutadi. Uning she’rlarida insof, vafo, sabr, qanoat, kamtarlik kabi fazilatlar ulug‘lanadi, manmanlik va adolatsizlik esa qoralanadi.

Bu jihatdan Bobur she’riyati yosh avlod qalbida axloqiy barqarorlik va ma’naviy mas’uliyatni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Uning Vatan sog‘inichi bilan yo‘g‘rilgan asarlari milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani saqlash va fuqarolik ongini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bobur hayoti va ijodi doimiy kurash, sabr va iroda namunasidir. Uning asarlari orqali o‘quvchi qiyinchiliklar oldida sinmaslik, maqsadga sadoqat va hayotga ongli munosabat kabi muhim hayotiy saboqlarni o‘zlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi yosh avlod tarbiyasi uchun bebaho ma’naviy-ma’rifiy manba sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Uning asarlari orqali biz yosh avlodga faqat bilim beribgina qolmay, balki ularda axloqiy poklik, mustaqil tafakkur, vatanparvarlik va ma’naviy barkamollikni shakllantiramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: Sharq, 2002
2. Jumaxo‘ja N., Adizova I. O‘zbek adabiyoti tarixi (XVI-XIX asr I yarmi). Darslik. – T.: Innovatsiya-Ziyo, 2010. – 540 b.
3. Sulton X. Boburiynoma. Ma’rifiy roman. – T.: Adabiyot, 2023. – 496 b.

“O‘TKAN KUNLAR” ASARIDA IJTIMOIY MUNOSABATLARNING OBRAZ YARATISHDAGI BADIIY TASVIR MODELI

Qodiriy Mahzuna

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Ingliz tili integrallashgan kursi № 3 fakulteti,

ingliz tili fani katta o‘qituvchisi

Elektron pochta: mahzuna.qodiriy@gmail.com

+998946234623

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida ijtimoiy munosabatlarning obraz yaratishdagi o‘rni va badiiy tasvir modellari tahlil qilinadi. Asardagi personajlar tizimi shunchaki badiiy to‘qima emas, balki XIX asr Turkiston ijtimoiy muhitining mahsuli sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqolada oilaviy ierarxiya, siyosiy inqiroz va shaxs erkinligi masalalari obrazlar xarakterini shakllantiruvchi asosiy omillar sifatida tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: *obraz yaratish, ijtimoiy munosabatlar, badiiy tasvir modeli, Turkiston, milliy mentalitet, Otabek va Kumush, ijtimoiy muhit, psixologizm.*

Аннотация. В данной статье анализируется роль социальных отношений в создании образов и модели художественного изображения в романе Абдуллы Кадыри “Минувшие дни”. Система персонажей произведения рассматривается не просто как художественный вымысел, а как продукт социальной среды Туркестана XIX века. В статье исследуются вопросы семейной иерархии, политического кризиса и свободы личности как основные факторы, формирующие характеры героев.

Ключевые слова: *создание образа, социальные отношения, модель художественного изображения, Туркестан, национальный менталитет, Отабек и Кумуш, социальная среда, психологизм.*

Abstract. This article analyzes the role of social relations in character creation and artistic depiction models in Abdulla Qodiriy’s novel “Bygone days” (O‘tkan Kunlar). The system of characters in the work is examined not merely as a fictional invention but as a product of the 19th-century Turkestan social environment. The

article explores issues of family hierarchy, political crisis, and individual freedom as key factors shaping the characters' personalities.

Keywords: *characterization, social relations, artistic depiction model, Turkestan, national mentality, Otabek and Kumush, social environment, psychologism.*

“O‘tkan kunlar” romanida obrazlar tizimi shunchaki muallif xayoloti mahsuli emas, balki muayyan ijtimoiy muhitning mevasidir. Qodiriy personajlarni yaratishda “muhit va shaxs” dialektikasidan mahorat bilan foydalangan. Jumladan,

Ijtimoiy tabaqalanish va obrazlar tipologiyasi. Asardagi har bir obraz ma’lum bir ijtimoiy qatlamning vakili hisoblanadi. Muallif ularning xarakterini shakllantirishda ijtimoiy munosabatlarni asosiy “qoliplash” vositasi sifatida qo‘llaydi: (Otabek, Yusufbek hoji): Bu obrazlar orqali taraqqiyparvarlik, halollik va milliy burjuaziyaning shakllanish jarayoni ko‘rsatiladi. Otabekning “zamonaviy” fikrlashi uning savdo ishlari bilan o‘zga yurtlarga borishi va u yerdagi tartiblarni ko‘rishi (ijtimoiy tajriba) natijasidir. Azizbek va Musulmonqul obrazlari esa shaxsiy manfaatni millat manfaatidan ustun qo‘yuvchi, ijtimoiy parokandalikni yuzaga keltiruvchi kuch sifatida chiziladi. Ularning obrazi orqali “hokimiyat va xalq” munosabatlarining inqirozi tasvirlanadi.Ayollar ijtimoiy holati (Kumush, Zaynab, O‘zbek oyim): Ayollar obrazlari orqali patriarxal jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, xotin-qizlarning huquqsizligi va uy ichidagi “siyosat” yoritiladi.

“Oila — jamiyatning kichik modeli” konsepsiyasi. Qodiriy oilaviy munosabatlarni jamiyatdagi katta ijtimoiy muammolarni ko‘rsatish uchun badiiy model sifatida tanlaydi.Otabek va Kumush muhabbati: Bu shunchaki ishqiy sarguzasht emas, balki eskilik va yangilik o‘rtasidagi kurashdir. Ularning fojiasiga faqatgina “kundoshlik” emas, balki ijtimoiy muhitdagi turg‘unlik, urf-odatlarning ko‘r-ko‘rona ijro etilishi sabab bo‘ladi.Yusufbek hoji xonadoni: Bu xonadondagi munosabatlar orqali o‘zbek oilasining iyerarxik tuzilishi (ota hokimiyati, ona nufuzi) va bu tuzilishning shaxs erkinligiga ta’siri badiiy tahlil qilinadi.

Badiiy tasvir modellarining o‘ziga xosligi. Abdulla Qodiriy obrazlar orqali millatning fojiasini — ittifoqsizlikni ko‘rsatadi. “Bizning bu holga tushishimizga

sabab — ittifoqsizlikdir,” – deya jon kuydirgan Yusufbek hojining nutqi asarning ijtimoiy-badiiy o‘zagini tashkil qiladi.Obrazlarning o‘zaro munosabati (masalan, qipchoqlar va o‘zbeklar o‘rtasidagi nizo) asarda ijtimoiy munosabatlarning eng yuqori nuqtasi sifatida beriladi va bu qahramonlar taqdirini hal qiluvchi asosiy omilga aylanadi.

Abdulla Qodiriy obraz yaratishda ijtimoiy bosimning inson tabiatiga ta’sirini mahorat bilan ko‘rsatadi. Masalan, Zaynab obrazi. Zaynab tabiatan yovuz emas, balki “kundoshlik” deb ataluvchi ijtimoiy-maishiy illatning qurbonidir.Badiiy tasvirda: Zaynabning ruhiy iztiroblari, uning asta-sekin jinoyatga qo‘l urishi bu — shaxsiy nafrat emas, balki o‘sha davrdagi ko‘pxotinlilik munosabatlarining mantiqiy yakunidir. Ijtimoiy model: Muallif Zaynab orqali jamiyatdagi noto‘g‘ri an’analar qanday qilib begunoh insonni qotilga aylantirishi mumkinligini isbotlaydi.

“Otabek va Homid” — ma’naviy va ijtimoiy antiteza. Bu ikki obraz o‘rtasidagi ziddiyat shunchaki shaxsiy adovat emas, balki ikki xil ijtimoiy dunyoqarashning to‘qnashuvidir. Otabek: Ma’rifatparvar, yangi iqtisodiy munosabatlar (savdo-sotiq, Rossiya bilan aloqa) va insoniy hurriyat tarafdori. Uning qiyofasida millatning kelajagi — “O‘zbek intellektual qatlami” modeli chizilgan. Homid: Eskilik tarafdori, hasadgo‘y, shaxsiy manfaat yo‘lida millatni ham, dinni ham sotishga tayyor qatlam vakili. Tasvir usuli: Muallif ularni doimiy kontrastda (qarama-qarshilikda) tasvirlaydi. Otabekning sukuti va mulohazasi qarshisida Homidning g‘alamisligi va pinhona makri turadi.

Yusufbek Hoji — siyosiy inqirozning badiiy in’ikosi. Yusufbek hoji obrazi asardagi ijtimoiy munosabatlarning eng yuqori nuqtasidir. U davlat arbobi sifatida ham, ota sifatida ham “tizim” ichida qolgan.Siyosiy fojia: U o‘z xalqining bir-birini qirayotganini ko‘rib turadi, ammo bu ulkan ijtimoiy mashinani to‘xtatishga kuchi yetmaydi. Uning “Qipchoq qirg‘ini” voqealaridagi o‘rni — adolatli shaxsning zolim tizim qarshisidagi ojizligi modelidir. Ma’naviy yetakchilik: Uning o‘g‘li Otabekka bergan tarbiyasi va nasihatlari — milliy tarbiya tizimining ideallashtirilgan namunasi.Yusufbek hojining asar so‘ngidagi ruhiy tushkunligi bu – butun boshli milliy davlatchilikning inqiroziga berilgan badiiy bahodir.

“O‘tkan kunlar”dagi badiiy tasvir modeli shunchaki voqealarni bayon qilish emas, balki ijtimoiy diagnostika qilishdir. Abdulla Qodiriy har bir qahramon taqdiri orqali Turkistonning umumiy fojiasini ko‘rsatib beradi. Insonlarning bir-biri bilan munosabati (sevgi, nafrat, sadoqat, xiyonat) asarda ijtimoiy qonuniyatlar natijasi sifatida talqin qilinadi. Shu sababli ham, Otabek va Kumushning o‘limi bu – shunchaki ikki yoshning fojiasi emas, balki chirigan ijtimoiy tuzumning millat kelajagiga bergan zarbasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Qodiriy, A. (1994). O‘tkan kunlar: Roman. - Toshkent: Sharq nashriyoti.

2.Qodiriy, H. (1991). Otam haqida. - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.

3. Qo‘shjanov, M. (1994). Abdulla Qodiriyning tasvirlash san’ati. - Toshkent: Fan.

4. Karimov, B. (2016). Abdulla Qodiriy: Tanqid, tahlil va talqin. - Toshkent: Ma’naviyat.

5. Sharafiddinov, O. (2001). Ijodning birinchi dovoni. - Toshkent: Ma’naviyat.

JADID MARIFATPARVARLARINING ADABIYOTGA OID FORSAYT QARASHLARI

O‘tayev Akram Yo‘ldoshevich

TIPU “Tillar va maktabgacha ta’lim” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d.

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadid ma’rifatparvarlarining adabiyotshunoslikka oid konsepsiyasi, forsayt qarashlari, ushbu qarashlarning milliy adabiyot taraqqiyotining kelajak yo‘nalishlariga ta’siri va uning samaradorligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *Jadidchilik, adabiyot nazariyasi, konsepsiya, forsayt, milliy adabiyot, adabiy tanqid, janr, estetik tafakkur, ijtimoiy tafakkur, milliy til, milliy ong, nazariy qarash.*

Аннотация: В этой статье обсуждаются концепция литературоведения, взгляды на форсайт, влияние этих взглядов на будущее национальной литературы и ее эффективность.

Ключевые слова: *джадидизм, теория литературы, концепция, форсайт, национальная литература, литературная критика, жанр, эстетическое мышление, социальное мышление, национальный язык, национальное сознание, теоретический взгляд.*

Abstract: This article discusses the concept of literary criticism, views on foresight, the influence of these views on the future directions of national literature and its effectiveness.

Key words: *Jadidism, theory of literature, concept, foresight, national literature, literary criticism, genre, aesthetic thinking, social thinking, national language, national consciousness, theoretical view.*

Jadidchilik harakati nafaqat ma’rifiy va siyosiy, balki adabiy tafakkur sohasida ham strategik (forsayt) qarashlarni ilgari surdi. Jadidlar adabiyot taraqqiyotining kelajak yo‘nalishlarini oldindan ko‘ra bilishga, milliy adabiyotni modernizatsiya qilishning nazariy asoslarini ishlab chiqishga intildilar.

Jadid vakillari adabiyot orqali ham til siyosati, til maqomi, adabiy til, uning umumxalq tiliga munosabati, tillarning o‘zaro munosabati, bir-biriga ta’siri, so‘z o‘zlashtirish, tilning sofligi, nutq madaniyati, muomala odobi, nutqiy me’yor, til me’yorlari, tilning rivoji, ko‘p til bilish, ikkitillilik va ko‘ptillikka munosabat, tilning tarmoqlanishi, tilga hurmat kabi juda ko‘p boshqa masalalarga ham e’tibor berishgan. Ular, ayniqsa, davr ehtiyojidan kelib chiqqan holda boshqa tillarni ham bilishlarini kerakligini va bu orqali millatning kelajagini bashorat qiladi [1].

O‘zbekiston jadidchilik harakatining yo‘lboshchisi, XX asr o‘zbek milliy matbuoti va yangi usuldagi milliy maktab asoschisi, yangi milliy teatr tashkilotchilaridan biri, yozuvchi, adib va shoir Munavvar Qori Abdurashidxonov

adabiyotni milliy uyg‘onish va ma’rifiy islohotning muhim omili sifatida talqin qilgan. Uning fikricha, badiiy asar jamiyat hayotini haqqoniy aks ettirishi, xalq ongini uyg‘otishi va millat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim [2].

U milliy adabiyotni zamon talablari bilan uyg‘un rivojlantirish, uni jahon madaniy jarayonlaridan uzib qo‘ymaslik zarurligini ta’kidlagan. Adabiy tilni soddalashtirish, xalq tiliga yaqinlashtirish va til me’yorlarini mustahkamlash g‘oyasi ham uning konsepsiyasida muhim o‘rin tutadi.

Munavvar Qorining forsayt qarashlari shundan iboratki, u adabiyotni millat kelajagini belgilovchi strategik ma’naviy kuch sifatida ko‘radi hamda uni ijtimoiy modernizatsiya va madaniy taraqqiyot vositasi deb baholaydi.

Jadidchilik harakatining yirik namoyondasi, ma’rifatparvar, dramaturg va publitsist Mahmudxo‘ja Behbudiy nafaqat badiiy ijod sohasida, balki adabiyotshunoslikka oid ilg‘or nazariy qarashlari bilan ham alohida o‘rin tutadi. U adabiyotni faqat estetik hodisa emas, balki millatni uyg‘otuvchi, ijtimoiy tafakkurni shakllantiruvchi va ma’naviy islohotga xizmat qiluvchi kuch sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, yangi adabiyot xalqni jaholatdan qutqarishga xizmat qilishi lozim[3].

Behbudiy milliy adabiyotini milliy ruhga tayanilgan, zamon talablari va hayot haqiqatini aks ettiradigan ijtimoiy-estetik vosita sifatida baholaydi. U mumtoz adabiyot an’analarini inkor etmagan holda, zamonaviy realist yo‘nalishni qo‘llab-quvvatlaydi. Uning “Padarkush” dramasi o‘zbek dramaturgiyasining ilk namunalaridan biri sifatida teatrni tarbiya vositasi va ijtimoiy minbar darajasiga ko‘tardi [4].

Behbudiy adabiy tanqid zarurligini ta’kidlab, adabiyot baholash mezonlari ishlab chiqilishi, asar hayot haqiqatiga mos bo‘lishi va muallif jamiyat oldida mas’ul ekanini alohida qayd etadi. Shu ma’noda, uning qarashlari o‘zbek adabiyotshunosligida ilmiy tanqid shakllanishiga zamin yaratdi.

Jadidchilik harakatining yana bir yirik namoyondasi, ma’rifatparvar adib va pedagog Abdulla Avloniy ham milliy adabiyot konsepsiyasini ishlab chiqqan mutafakkirlar qatoriga kiradi. Uning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida adabiyot

va axloq masalasi o‘zaro uyg‘unlikda talqin qilinib, badiiy so‘zning tarbiyaviy ahamiyati alohida ta’kidlanadi [5].

Avloniy milliy adabiyotini millat ruhiyati va ma’naviy qadriyatlarning ifodasi sifatida baholaydi. Uning konsepsiyasida adabiyot tarbiya vositasi bo‘lib, millat taraqqiyoti ma’rifat va axloq bilan bog‘liq deb qaraladi.

Avloniyning forsayt qarashlari quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi:

- millat uchun zamonaviy adabiyot zarurligi, uning zamon talablariga javob berishi va jahon taraqqiyotidan ortda qolmasligi;
- adabiyotning keng ommaga yetkazilishida matbuot va ta’lim tizimi hal qiluvchi omil ekani;
- adabiyotning millatni uyg‘otuvchi va birlashtiruvchi kuch sifatidagi vazifasi[6].

Bu jarayonda Abdurauf Fitrat ham nazariychi olim sifatida muhim o‘rin egalladi. U milliy adabiyot taraqqiyotini ijtimoiy uyg‘onish jarayoni bilan bog‘liq holda talqin qilib, adabiyotshunoslikni mustaqil ilmiy soha sifatida shakllantirishga harakat qildi. Uning “Adabiyot qoidalari”, “O‘zbek adabiyoti namunalari” va “Abulfayzxon” asarlarida adabiyotning ijtimoiy ong, siyosiy sharoit va madaniy muhit bilan uzviy bog‘liqligi ilmiy asoslanadi [7].

Fitrat adabiyotni faqat estetik hodisa emas, balki millat hayotini shakllantiruvchi ijtimoiy kuch sifatida talqin qiladi. U milliy adabiyotning istiqbol yo‘nalishlari, janriy taraqqiyot masalalari va adabiyotshunoslik fanining shakllanishi haqida strategik (forsayt) yondashuvlarni ilgari surdi. Ayniqsa, drama va tragediya janrlarini milliy adabiyotning istiqbolli sohasi sifatida baholaydi [8].

Fitrat til masalasiga ham alohida e’tibor qaratib, adabiy tilni xalq tiliga yaqinlashtirish, ortiqcha arabiy-forsiy murakkab iboralardan voz kechish g‘oyasini ilgari surdi. Bu qarashlar milliy adabiy tafakkur modernizatsiyasida muhim bosqich bo‘ldi.

O‘zbek jadidchiligi va milliy ma'rifat taraqqiyotida muhim o‘rin tutgan ma'rifatparvarlardan biri Xoji Muinning adabiyotga oid qarashlari milliy uyg‘onish, ma'naviy islohot va zamonaviy taraqqiyot g‘oyalari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Xoji Muinning fikricha, adabiyot millat ma'naviyatini shakllantiruvchi va uni uyg‘otuvchi muhim vosita bo‘lishi, jamiyat hayotini haqqoniy aks ettirishi hamda yangi fikr va bilimlarni yosh avlodga yetkazish orqali ma'naviy islohotga xizmat qilishi lozim. U milliy adabiyotni zamonaviy sivilizasion talablar va xalq manfaatlari bilan korrelyasiyada rivojlanishi zarur bo‘lgan ijtimoiy-estetik tizim sifatida baholaydi. U realizm tamoyillarini ustuvor deb bilib, adabiyotning tarbiyaviy-funksional xususiyatini ham nazariy jihatdan asoslaydi [9].

Xoji Muin qarashlarida adabiyot strategik ma'naviy resurs sifatida talqin qilinib, u kelajak avlod ongini shakllantirish, milliy identiklikni mustahkamlash va jamiyat taraqqiyoti vektorini belgilash funksiyasini bajaradi. Uning ta'kidlashicha, yangi davr adabiyoti zamon talablariga javob berishi, ijtimoiy muammolarni ochiq konseptuallashtirishi va millatni taraqqiyot sari yo‘naltiruvchi g‘oyaviy platforma vazifasini o‘tashi kerak.

Mazkur yondashuvlar Xoji Muinning adabiyotga nisbatan forsayt pozisiyasini ifoda etadi, zero u milliy adabiyotni jamiyat modernizasiyasi va millat istiqbolini belgilaydigan strategik ma'naviy institut sifatida baholaydi.

Дарҳақиқат, Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat va Xoji Muinning adabiyotshunoslikka oid forsayt qarashlari jadid adabiy tafakkurining nazariy poydevorini yaratdi [10].

Jadid ma’rifatparvarlarining qarashlari o‘zbek adabiyotshunosligi rivojida muhim bosqichni tashkil etib, zamonaviy milliy adabiyot konsepsiyasining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fodoiylik. –T.: Ma’naviyat, 2002

2. Munavvar Qori. Tanlangan asarlar. –T.: Ma’naviyat, 2015

3. Mahmudxo’ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. –T.: Ma’naviyat,1998

4. Mahmudxo’ja Behbudiy. Yoshlarga murojaat. –T.: Turon zamin, 2024

5. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar.1-jild. –Toshkent.2006

6. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. –T.: Yoshlar matbuoti, 2024

7. Boltaboyev H. Jadidlar. Abdurauf Fitrat. –T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2022

8. Abdurauf Fitrat. Yurt qayg‘usi. –T.: Turon zamin, 2024

9. Xoji Muin. Tanlangan asarlar. –T.: Ma’naviyat, 2010

10. O‘tayev A. Pedagogika nazariyasi va tarixi. –T.: Davr maxsimum media, 2025.

XURSHID DAVRON DRAMALARIDA OBRAZ POETIKASI

Usmanova Ziyodaxon Ilxomjon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

tayanch doktoranti

+99899 396-25-21

z.usmanova@cspu.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada Xurshid Davron dramalarida obraz poetikasi masalasi tahlil qilinadi. Adibning dramatik asarlarida yaratilgan obrazlarning badiiy-estetik xususiyatlari, ularning tarixiylik va zamonaviylik uyg‘unligidagi talqini, xarakter ochish usullari hamda muallif ijodiy niyatining ifodalanish yo‘llari ilmiy asosda o‘rganiladi. Dramaturgning obraz yaratishdagi poetik mahorati, ramziy qatlam, ichki konflikt va dialog vositasida xarakter individualligini ochish jarayonlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *Drama, obraz poetikasi, badiiy talqin, tarixiy obraz, dramatizm, konflikt, xarakter, ramziy ifoda, dialog*.

Аннотация: В данной статье анализируется проблема поэтики образов в драмах Хуршида Даврона. На научной основе изучаются художественно-эстетические характеристики образов, создаваемых в драматических произведениях писателя, их интерпретация в гармонии с историчностью и современностью, методы развития персонажей и способы выражения авторского творческого замысла. Анализируются поэтическое мастерство

драматурга в создании образов, символический слой, процессы раскрытия индивидуальности персонажа через внутренний конфликт и диалог.

Ключевые слова: *Драма, поэтика образов, художественная интерпретация, исторический образ, драматургия, конфликт, персонаж, символическое выражение, диалог.*

Abstract: This article analyzes the issue of the poetics of images in the dramas of Khurshid Davron. The artistic and aesthetic characteristics of the images created in the dramatic works of the writer, their interpretation in harmony with historicity and modernity, methods of character development, and ways of expressing the author's creative intention are studied on a scientific basis. The playwright's poetic skill in creating images, the symbolic layer, the processes of revealing the character's individuality through internal conflict and dialogue are analyzed.

Keywords: *Drama, poetics of images, artistic interpretation, historical image, dramatism, conflict, character, symbolic expression, dialogue.*

XX asrning boshlarida o‘zbek adabiyotiga kirib kelgan drama tezlik bilan rivojlana boshladi. Dramaning afzalligi ko‘rishga mo‘ljallanganligi edi. Dramaturgiyaning asosiy obyekti harakat hisoblanadi. Dramada muallif aralashuvining yo‘qligi kitobxondan zukkolikni talab etadi. Bu “kamchilik”ni muallif qahramonlarning nutqi, imo-ishoralari, dialoglari, ruhiy holatlarining tasvirini beruvchi remarkalar, ijtimoiy holatini ifodalovchi detallar, dekoratsiyalar, interyer va eksteryer jihozlar yordamida to‘ldiradi. Muallif o‘zining estetik g‘oyalarini, badiiy niyatini aynan mana shu qo‘shimchalar yordamida o‘quvchiga yetkazib beradi. Qahramon nutqi epik yoki lirik ko‘rinishda bo‘lishidan qat’iy nazar personajning ichki dunyosi, psixologiyasidagi o‘zgarish va jamiyatga munosabatini o‘zida aks ettirishi bilan badiiy qiymat kasb etadi.

Mirzo Ulug‘bek tarixiy fojiasi o‘zbek va jahon adabiyotining yetakchi mavzularidan biri hisoblanadi. Xususan, o‘zbek adabiyotida M.Shayxzoda, O.Yoqubov, tarixchi B.Axmedovlarning tadqiqot ishlari mavzusiga aylandi. Bu mavzu temuriylar tarixini chuqur o‘rgangan tarixchi olim, o‘zbek adabiyotining yetakchi namoyondasi Xurshid Davronning ham e’tiboridan chetda qolmadi. Xurshid

Davronning “Alg‘ul” dramasi buyuk podshoh va olim Mirzo Ulug‘bek hayotining eng so‘nggi, fojialarga boy ikki yilini tasvirlaydi. Asar Ulug‘bekning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari va uning farzandlari, saroy ahli, shogirdlari bilan bo‘lgan murakkab munosabatlarini yoritadi. Dramaning markazida Ulug‘bekning bir tomondan sulton, ikkinchi tomondan esa ota sifatidagi o‘zaro ziddiyatlari yotadi. Aynan shu ziddiyatlar asar voqealarini harakatga keltirib, Ulug‘bek shaxsining fojiasini ochib beradi.

Asarda ilgari surilgan eng muhim g‘oyalardan biri jaholat va ma’rifatning o‘zaro kurashidir. Bu kurash kunimizda ham davom etmoqda. Islomni niqob qilib olgan ayrim munofiq kimsalar jaholat urug‘larini sepishda g‘ayrat ko‘rsatib, payg‘ambarimizning yuqoridagi kabi ilm olishning foydalari haqida aytgan hadislarini unutmoqdalar. Dindan faqat shaxsiy manfaat yo‘lida foydalanish ma’rifat nurlarini to‘sib qo‘ymaydi, albatta. Lekin ma’rifatning nurlari qanchalik yorqin porlamasin, baribir soyalarni batamom yo‘q eta olmasligi donishmand olim tarafidan e’tirof etiladi.

Drama Mirzo Ulug‘bek va shahzoda Abdullatifning ixtiloflarini tasvirlasa-da, fojianing biron o‘rnida qilich zarbi, jang suroni, jangovar otlarning kishnashi eshitilmaydi. Ota-o‘g‘il orasidagi jang faqat Mirzo Ulug‘bekning ong oqimida sodir bo‘ladi. U ota sifatida o‘g‘lining o‘ziga qarshi bosh ko‘targanini qabul qilishni istamaydi. Shu bois bu holatni “jaholatning isyoni” deb ataydi. Ota farzandini xiyonatkor ekanligini tan olishdan ko‘ra uni jaholat qurboni deb qabul qilishni ma’qul ko‘radi. “Daryoning bu tomoniga o‘tishga haqqing yo‘q edi, nega o‘tding? Nega?!. Qayerdasan, Abdullatif?” murojaatida esa cheksiz g‘am-anduh, afsus-nadomat zohir bo‘ladi. Bu bilan u ota bo‘lib farzand tarbiyasida adashgani, hukmdor sifatida qo‘l ostidagilarni yetarlicha idora eta olmaganlikda o‘zini ayblaydi.

Taxt uchun janglarda hukmdor oila vakillarining o‘zaro birodarkushlik janglari ularning ortlarida turgan amirlarni aslo cho‘chitmasligi, aksincha ba’zan o‘z manfaatlari yo‘lida ulardan foydalanishlari ayon haqiqatdir. Dramaning syujeti xarakterlarning psixologik ziddiyatiga asoslangan. Xurshid Davron talqinidagi Mirzo

Ulug‘bek obrazi ko‘proq his-tuyg‘u, ruhiy iztirob, qahramon ichki olamidagi evrilishlar orqali namoyon bo‘ladi.

Asarning eng ta’sirli nuqtasi Abdullatif taqdiri haqidagi bashorat sahnasidir.

“***Abdullatif***: Tug‘ilgan onimdan qaro bashorat la’nati ostida yashadim. Bolaligimdayoq qismatimdan o‘kindim. Keyin meni onangizga topshirdingiz, huzuringizdan uzoqqa – Hirotga jo‘natdingiz. Taqdirning qaro yozug‘ini qarangki, sizni tuqqan volidangiz, mening bibim kechayu kunduz meni sizga qayradi… Munajjimlaringiz tinmay qulog‘ingizga shipshidi: “Sizning kushandangiz shu o‘g‘lingiz!” “Zinhor yaqin yo‘latmang!” deb shipshidi folchilaringiz! Kechir kufrimni, ey Xudoyim, oxir men o‘zim bu so‘zlarga ishona boshladim. O‘zimni ishontira boshladim bu so‘zlarga, siz meni ishontirdingiz bu so‘zlarga![3.75]

O‘quvchida Abdullatif Mirzoning qayg‘usini, uning otasiga bo‘lgan adovatini anglash, shahzodaning o‘z-o‘zidan otasiga qarshi bosh ko‘tarmaganiga ishontirish uchun yana bir sabab keltiradi dramaturg. Xurshid Davron Ulug‘bek va Abdullatif haqidagi tarixiy haqiqatni juda yaxshi biladi, ammo jahon dramaturgiyasiga xos bo‘lgan jihatlarni e'tiborga olgan holda, aynan shu yo‘ldan boradi. Bu holat qahramonlar nutqida ham yaqqol seziladi. Agar yuqorida keltirilgan parchadagi Abdullatif nutqini psixologik metod asosida tahlil qiladigan bo‘lsak, otaning folchilarning loflariga ishonib, o‘z farzandidan uzoqlashgani, bu esa farzand qalbida tuzalmas og‘riqlar qoldirganini his qilish mumkin. U bir farzand o‘laroq otasiga bor vujudi bilan intilganida ko‘ksidan itarildi, bilaks inisining padari mehridan mamnun yuzidan bir dardi o‘n bo‘lar edi. Eng dahshatlisi shu ediki, Abdullatif bu chirkin bashoratga ishona boshladi, boshqacha bo‘lishi mumkin emas ekan, degan ayanchli xulosaga bordi.

Shahzoda tilidan ko‘chgan bu so‘zlar tarixiy shaxslarga nisbatan o‘zgacha rakursda baho berish zamoni kelganligiga ishora qiladi. Biz bu bilan Abdullatif qilgan qabihliklarni haspo‘shlamoqchi emasmiz. Ammo uning ruhiyatidagi illatlarning paydo bo‘lishida u yashagan muhit, atrofidagi odamlarning ta’siri, farzand tarbiyasidagi xatoliklar, Amir Temur zamonidan qolgan umidli nabiralarni onalaridan

ajratib olib bosh malika tarbiyasiga berilishining bu davrga kelib samara bermay qolgani aniq ko‘rsatiladi.

Xurshid Davron ijodida Bobur obrazi avvalo lirik turdagi asarlarida bo‘y ko‘rsatgan bo‘lsa, keyinchalik ham bu obrazni tugal, mukammal holatga keltirish xayoli shoirni tark etmadi. Buyuk sarkarda, nodir iste’dod egasi, mehribon ota siymolarini o‘zida jam qilgan Bobur unga doimo ilhom bag‘ishladi. Xayolidagi “Bobur”ga har tomonlama ishlov berish natijasida shoir dramaturgiya sohasida shoh va shoir hayotining so‘nggi yillaridagi eng muhim hodisalarni yorituvchi sahna asarini yozishga bel bog‘ladi. Bunda, albatta, Bobur obrazining o‘zigacha bo‘lgan barcha badiiy talqinlarni sinchiklab o‘rgandi. Ularni takrorlamaslik uchun yangi ijodiy uslub va badiiy topilmalar yaratishga harakat qildi.

Hech kim Vatan hasratini Boburchalik tortgan emas, buni uning hasbi hol tarzidagi she’rlari, “Boburnoma”dagi iqrorlari ham ko‘rsatib turibdi. Xurshid Davron Bobur shaxsini gavdalantirishda aynan g‘urbat motiviga ko‘p murojaat qiladi. Dramaning imkoniyatlari makon va zamon jihatidan cheklanganligini hisobga olsak, dramaturg qahramonlar hayotining eng muhim jihatlarinigina sahnaga olib chiqadi, xolos. Bu o‘rinda personajlarning ruhiy olami, psixologiyasida kechayotgan o‘zgarishlar, ichki his-tuyg‘ular, tashqi olam bilan munosabatlari, atrofdagi voqealarga reaksiyasini tasvirlash muhimdir. Bobur hayotini chuqur o‘rgangan ijodkor uning g‘am-anduhlarini o‘z tanasida his qiladi. Asarda bu holat Bobur tilidan quyidagicha bayon etiladi:

BOBUR: – G‘urbat orzusiga itoat qilgan kezlarim yosh edim, g‘ayratli edim. Hindni olaman deb farzandimg‘a Hindol deb nom berdim. Qilichim zo‘ri bila Hindni fath etdim, quvg‘indilarg‘a Vatan beray dedimu… ammo… ammo mana, umrimning xazon faslida angladimki, ularga Vatan emas, boshpana bergan ekanman… Vatan o‘sha yoqda qolgan ekan. [2.10]

Bu suhbatda ikki zid qutb – orzu va armon – ikkiligi o‘quvchi e’tiborini tortadi. Bobur farzandiga orzularining nomini berdi – Hindol. Hindni fath etishga jazm etganida aslida bobomeros yerning bir qismini egallash, keyinchalik Amir Temur saltanatini qayta tiklash orzusi bor edi. Chunki Afg‘oniston va Hindiston bir vaqtlar

Amir Temur saltanatining bir qismi edi. Faqat Bobur zamonasiga kelib mamlakat sarhadlari qisqarib Vatan deganda faqat Xuroson-u Movoraunnahr tushuniladigan bo‘ldi. Matndagi “quvg‘indi” va “boshpana” so‘zlari ham o‘zida ancha zalvorli yuk tashiydi. Quvg‘indi deganda Bobur nafaqat o‘ziga ergashib kelgan safdoshlari, balki oilasi: onasi, ayollari, farzandlari, barcha yaqinlarini nazarda tutmoqda. Shu jumladan o‘zining ham quvg‘indi ekanligi, Hindiston uning uchun haqiqiy Vatan bo‘lolmasligi, bu yer vaqtinchalik yashash uchun boshpana ekanligiga ishora qilmoqda.

Taqdir Boburni nafaqat vatangadolik, balki farzandlari bilan ham sinadi. Dramada Dildorbegim, Malika Bayda va Mohimbegim obrazlari kuchli dramatizmni yuzaga keltiradi. Chunki farzand inson umrining mazmuni hisoblanadi. Farzandi yo‘q malikaning qudrati, boyligi, ijtimoiy maqomi bir onda o‘zining mohiyatini yo‘qotadi. Dramadagi malikalar ijtimoiy mavqe va inson shaxsi fojiasining eng oliy ko‘rinishi sifatida talqin qilinadi. Bu qahramonlar orqali muallif inson hayoti, his-tuyg‘ulari dunyo moli va ijtimoiy mavqedan ustun turishiga diqqat qaratadi. Farzandi o‘limi oldida chorasiz qolgan malikalarning psixologik iztiroblari o‘quvchida katarsis holatini yuzaga keltiradi. O‘lim oldidagi nochorlik ularni oddiy inson sifatida anglashga yordam beradi. Muallif taqdir va inson irodasi, boylik va nochorlik, kuch va qo‘rquv, hayot va o‘lim dialektlari tasvirida asarning ham psixologik ham falsafiy jihatdan badiiy qimmatini oshirib boradi.

Tarixiy mavzudagi asarlari bilan tanilgan Xurshid Davron dramalari adabiyotimizga yangicha ruh, yangicha yondashuv olib kirdi. Uning dramalari shakl, mazmun va obrazlarga yondashish jihatidan adabiyotimizda yangilik bo‘ldi. Tarixiy mavzudagi dramalarda o‘tmishga munosabat, ilmiy va ma’naviy merosni o‘rganish masalalari yangilandi. Ijodkorning tarixiy manbalarni puxta o‘rganganligi dramaning muvaffaqiytali chiqishini ta’minlagan omil desak xato qilmaymiz. Uning asarlaridagi shakl, mazmun va obrazlar tasviri o‘tmishga munosabatni, milliy merosni o‘rganishni yangi bosqichga ko‘tardi. Ijodkorning tarixiy manbalarni chuqur o‘rganganligi uning dramalarining muvaffaqiyatini ta’minlagan asosiy omillardan biri bo‘ldi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduvohidov F. Drama nazariyasi. – T.: 2021. B. – 18.
2. https://kh-davron.uz/ Davron X. Menkim Bobur yoxud sog'inch.
3. Xurshid Davron "Alg'ul dramasi". – "Sharq yulduzi", 2013-yil, 1-son.

SYMBOLISM AND IMAGERY IN WILLIAM BLAKE'S POETRY

Samatjonova Mohidil Akbarjon qizi

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Xorijiy til va adabiyoti (Ingliz tili) yo'nalishi 1-bosqich magistranti

Annotation. This article examines the central role of symbolism and imagery in William Blake's poetry and explains how these elements shape the philosophical and emotional power of his work. Blake's poetic language is built on rich symbolic structures that transform simple images into complex reflections on innocence, experience, spirituality, and social injustice. His poems invite readers to move beyond literal interpretation and explore deeper layers of meaning. By analyzing Blake's use of visual and symbolic patterns, the article demonstrates how imagery functions as a bridge between imagination and reality. The study also highlights Blake's belief that poetry is a form of visionary expression capable of revealing hidden truths about human nature and society. Understanding his symbolic system allows readers to appreciate the intellectual depth and artistic originality of his poetry.

Key words: *symbolism, imagery, William Blake, innocence, experience, vision, poetry.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Uilyam Bleyk she'riyatida ramziylik va tasvirning markaziy roli o'rganilgan va bu elementlar uning ishining falsafiy va hissiy kuchini qanday shakllantirishi tushuntirilgan. Bleykning she'riy tili oddiy tasvirlarni begunohlik, tajriba, ma'naviyat va ijtimoiy adolatsizlik haqidagi murakkab mulohazalarga aylantiradigan boy ramziy tuzilmalar asosida qurilgan. Uning she'rlari o'quvchilarni so'zma-so'z talqin qilishdan tashqariga chiqishga va ma'noning chuqur

qatlamlarini o‘rganishga chorlaydi. Bleykning vizual va ramziy naqshlardan foydalanishini tahlil qilib, maqola tasvirning tasavvur va haqiqat o‘rtasidagi ko‘prik sifatida qanday ishlashini ko‘rsatadi. Tadqiqot shuningdek, Bleykning she’riyat inson tabiati va jamiyati haqidagi yashirin haqiqatlarni ochib berishga qodir bo‘lgan ko‘rishni ifodalash shakli ekanligiga ishonishini ta’kidlaydi. Uning ramziy tizimini tushunish o‘quvchilarga she’riyatining intellektual teranligi va badiiy o‘ziga xosligini qadrlash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: *ramziylik, tasvir, Uilyam Bleyk, aybsizlik, tajriba, ko‘rish, she’riyat.*

The analysis of William Blake’s poetry in this article is based on a close reading of his symbolic structures and visual imagery, particularly in *Songs of Innocence and of Experience*. Blake’s poetic method relies on a deliberate system of contrasts that reflect psychological and spiritual states of the human soul. By examining recurring symbols, metaphors, and visual patterns, it becomes possible to understand how Blake constructs meaning beyond the literal surface of his poems.

One of the central analytical approaches is the study of symbolic duality. Blake repeatedly presents opposing forces such as innocence and experience, light and darkness, freedom and restriction. These contrasts are not accidental; they form a philosophical framework that defines his poetic universe. For example, the lamb symbolizes purity, divine protection, and harmony, representing the state of innocence. In contrast, the tiger embodies energy, fear, and destructive power, symbolizing the reality of experience. Through these opposing images, Blake illustrates the tension that shapes human identity.

Imagery serves as a methodological key to interpreting Blake’s vision. His poems rely heavily on sensory details that convert abstract ideas into concrete visual scenes. Religious and natural imagery are especially significant, as they express spiritual conflict and moral questioning. Symbols such as chains, fire, and darkness suggest oppression and limitation, while images of light, nature, and open space imply liberation and imaginative freedom. By tracing these visual motifs across his poetry, readers can observe how Blake develops a consistent symbolic language.

This study combines literary interpretation with thematic analysis to reveal how symbolism and imagery function as structural elements of Blake’s poetry. Rather than treating symbols as decorative features, the methodology views them as essential components that carry philosophical meaning. Such an approach demonstrates that Blake’s poetry operates as a system of visionary thought, where artistic expression and intellectual inquiry exist in unity.

The examination of symbolism and imagery in William Blake’s poetry reveals that his artistic vision extends far beyond aesthetic expression. Blake’s symbolic system functions as a critique of social, religious, and political structures that restrict human freedom. His imagery exposes the tension between institutional authority and individual imagination. Through symbolic scenes, he challenges rigid moral systems and questions the legitimacy of traditions that suppress creativity and spiritual independence.

One of the most significant aspects of Blake’s symbolism is its moral dimension. His poems do not merely describe reality; they interpret it. Symbols such as chains, prisons, and darkness frequently represent psychological and social confinement. These images suggest that oppression exists not only in external institutions but also within the human mind. Blake proposes imagination as a force capable of breaking these invisible boundaries. In this sense, his poetry becomes a call for intellectual and spiritual awakening.

Blake’s imagery also encourages multiple layers of interpretation. A single symbol may carry emotional, philosophical, and religious meaning at the same time. This complexity allows readers from different historical periods to find relevance in his work. The universality of his symbolic language explains why his poetry continues to inspire modern literary theory and artistic expression.

Furthermore, Blake’s visionary style transforms poetry into a form of resistance. By merging imagination with criticism, he presents art as a tool for questioning power and redefining human values. His symbolic language invites readers to reconsider accepted norms and search for deeper truths. The discussion of his poetry demonstrates that symbolism and imagery are not passive literary

techniques; they are active instruments of thought that shape the reader's perception of reality.

In conclusion, symbolism and imagery form the structural and philosophical foundation of William Blake's poetry. His work demonstrates that poetic language can function as a powerful medium for exploring the deepest conflicts of human existence. Through carefully constructed symbolic contrasts and vivid visual patterns, Blake transforms abstract ideas about innocence, experience, freedom, and oppression into memorable poetic visions. These elements allow his poetry to operate simultaneously on emotional, intellectual, and spiritual levels.

Blake's symbolic method reveals his belief in imagination as a liberating force capable of challenging social and psychological limitations. His imagery is not decorative but purposeful; it carries moral and philosophical significance that encourages readers to question accepted realities. By engaging with his symbolic language, readers gain access to a complex worldview in which art becomes a means of self-reflection and resistance against intellectual confinement.

The continued relevance of Blake's poetry lies in its universality. The tensions he explores remain central to modern human experience, which explains why his work continues to influence literature, philosophy, and artistic thought. Studying symbolism and imagery in Blake's poetry not only deepens appreciation of his artistic genius but also highlights the enduring power of poetry as a form of visionary knowledge.

REFERENCES

1. ASSA Journal. *Exploring the Symbolism in William Blake's Poetry.* ASSA Academic Journal, 2024.

2. Tagayeva, U. E. *William Blake's Visionary Poetry and Art: An Analytical Approach.* Academic Journal Publication, 2025.

3. Web of Journals. *Typology and Analysis of Images in William Blake's Poetry.* Web of Journals Academic Series, 2025.

4. Yale University Press. *William Blake.* Yale Center for British Art Publication, 2025.

5. Yu, Shiyuan. *The Symbolism of Imagery in Poetry: William Blake’s Songs of Innocence and of Experience.* SHS Web of Conferences, 2025.

NATAN MALLAYEVNING “MAJOLIS UN-NAFOIS” TAZKIRASIGA OID QARASHLARI

Temirova Anora Cho‘yan qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
mustaqil tadqiqotchisi, Toshkent iqtisodiyot
va pedagogika universiteti o‘qituvchisi
anoratemirova071@gmail.com, +998 99 791 98 26

Annotatsiya: Ushbu maqolada olim N.Mallayevning “O‘zbek adabiyoti masalalari” adabiy-tanqidiy maqolalar to‘plamining 1959-yil 1-sonida nashr qilingan dastlabki maqolasi xususida, ya’ni “XV asr tazkiralarining tarixiy-adabiy ahamiyati” nomli maqolasidagi “Majolis un-nafois” asariga oid qarashlari haqida ma’lumot berilgan. Jumladan maqolada professor N.Mallayev Abdurahmon Jomiy hamda Davlatshoh Samarqandiyning tazkiralarini sinchiklab tahlil qilib, ularni asosan adabiyot tarixchisi sifatida gavdalantiradi. Navoiyni esa “Majolis un-nafois”da ko‘proq adabiy tanqidchi sifatida gavdalantiradi. Jomiy va Davlatshoh asosan o‘tmish yozuvchilar haqida ma’lumot bergan bo‘lsa, Navoiy o‘ziga zamondosh bo‘lgan adabiyot ahli haqida mulohaza yuritadi. Navoiyda esa, adabiy-tanqidiy fikrlar bir muncha ko‘p va izchilroq ekanligini asosli faktlar bin isbotlaydi.

Kalit so‘zlar: *navoiyshunoslik, manbashunoslik, tazkira, “Majolis un-nafois”, adabiy manba, tadqiqot, ilmiy biografiya, adabiyot tarixchisi, adabiy tanqidchi.*

Аннотация: В данной статье представлена информация о первой статье сборника литературно-критических статей «Вопросы узбекской литературы» ученого Н. Маллаева, опубликованного в первом номере 1959 года, а именно о его взглядах на произведение «Маджолис ун-нафоис» в статье «Историко-литературное значение комментариев XV века». В частности, в статье

профессор Н. Маллаев тщательно анализирует комментарии Абдурахмона Джами и Давлатшаха Самарканди, представляя их главным образом как историков литературы. Навои в «Маджолис ун-нафоис» представлен скорее как литературный критик. В то время как Джами и Давлатшах в основном дают информацию о писателях прошлого, Навои размышляет о своих современниках в литературе. В «Навои» он убедительно доказывает, что литературно-критическая мысль несколько многочисленнее и последовательнее.

Ключевые слова: *навоиведение, источниковедение, тазкира, «Маджолис ун-нафоис», литературный источник, исследование, научная биография, историк литературы, литературный критик.*

Abstract: This article provides information about the first article of the collection of literary and critical articles "Issues of Uzbek Literature" by scientist N. Mallayev, published in the 1st issue of 1959, namely, his views on the work "Majolis un-nafois" in the article "Historical and Literary Significance of 15th Century Commentaries". In particular, in the article, Professor N. Mallayev carefully analyzes the commentaries of Abdurakhmon Jami and Davlatshah Samarkandi, presenting them mainly as literary historians. Navoi is presented in "Majolis un-nafois" more as a literary critic. While Jami and Davlatshah mainly provide information about past writers, Navoi reflects on his contemporaries in literature. In Navoi, he proves with reasonable facts that literary and critical thoughts are somewhat more numerous and more consistent.

Keywords: *Navoi studies, source studies, tazkira, "Majolis un-nafois", literary source, research, scientific biography, literary historian, literary critic.*

O‘tgan asrning 60-yillari boshlaridan e’tiboran Mallayev Natan Murodovich butun diqqat-e’tiborini Sharq xalqlari mumtoz adabiyotini yanada chuqur o‘ranishga qaratdi: adabiyot tarixi bo‘yicha dastur va majmualar tuzdi. 1953-yil o‘rta maktablar uchun “O‘zbek adabiyoti tarixi” darsligini bitdi, “X-XII asrlar adabiyoti” (1958) risolasini yaratdi. Undan keyingi yillarda u o‘zbek mumtoz adabiyotining kam o‘rganilgan manbalari bo‘yicha bir qancha maqolalar yozdi, qadimiy boy

adabiyotimizga oid ko‘plab qo‘lyozma nusxalarini ko‘zdan kechirdi, manoqib va tazkiralarni o‘rganib chiqdi [1:279]

Tazkira (ar.) 1. Yodnoma, xotiranoma. 2. Yod etish va pand berish. 3. Shoirlar hayoti va ijodi haqida ma’lumot berilib, asarlaridan namuna keltiriladigan, tahlil qilinadigan to‘plam. 4. Shayx-u valiylar hayoti va ahvoli haqida hikoya qilinadigan kitob (M-n, “Tazkirat ul-avliyo”, “Nasoyim ul-muhabbat”)dir. Tazkiralar ikki yo‘nalishda bitilgan: Birinchi yo‘nalishga mansub tazkiralar shoirlar, adiblarga bag‘ishlangan. Ikkinchi yo‘nalish – tasavvuf tazkiralari. Ularda shayxlar, avliyolar haqida ma’lumotlar berilgan[2:25].

Alisher Navoiyning dunyoqarashi, estetikasi, san’atkorlik dahosi, ijodiy uslubi, tili, hajviyoti, adabiy aloqalar, shoir ijodida an’ana va novatorlik, janrlar inkishofi kabi maslalar keng va atroflicha o‘rganilib, ko‘plab monografik tadqiqotar, ilmiy ommabop asarlar yaratildi, ilmiy to‘plamlar e’lon qilindi. “Shu davr oralig‘ida T.Jalolovning “Xamsa” talqinlari” (1962), S.Nazrullayevaning “Alisher Navoiy” (1965), Oybekning “Navoiy gulshani” (1967) maqolalar to‘plami, uning A.Deych bilan birga yozgan “Alisher Navoiy” ilmiy-ommabop ocherki (1968), A.Hayitmetovning “Navoiy dahosi” (1968), N.Mallayevning “Genial shoir va mutafakkir” (1968), M.Qodirovning “Alisher Navoiy va san’at” (1968), S.G‘aniyevaning “Alisher Navoiy” (1968) va boshqalar shular jumlasidandir” [3:361].

Bu davr navoiyshunos olimlarining oldida turgan muhim vazifalardan yana biri Alisher Navoiy tarjimayi holini xolisona va ishonchli manbalar asosida o‘rganish hamda ijodkor ilmiy biografiyasini yaratish edi. Bunday ishonchli manbalar sifatida shoir yashagan davrda yaratilgan adabiy manbalar, matnlarni e’tirof etamiz. Ushbu adabiy manbalar va matnlarni o‘rganish, qiyosiy-taqqoslash natijasida ulug‘ shoir ilmiy biografiyasi yaratildi va o‘sha davrgacha bo‘lgan biografiya yaratish chog‘idagi chalkashliklarga munosabat berildi.

O‘zbek xalqining adabiyotshunosligi va adabiy-tanqidiy qarashlari tarixi, o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish, uning badiiy ijod taraqqiyotidagi mavqeyini belgilashda olimlarimiz o‘zlarining turli asarlari bilan hissa qo‘shdilar. Bu jihatdan

S.Ayniy, A. Sa’diy, E.E.Bertel’s, I. Sulton, V.Abdullayev, B.Valixo‘jayev, A.Hayitmetov, A.Qayumov, N.Mallayev, S.G‘aniyeva, H.Qudratillayevlarning xizmatlarini alohida uqtirish lozim. Eslatilgan olimlarning tadqiqotlarida adabiy muhitning ma’lum davri va yoki vakili ustida ko‘proq mulohaza yuritilgan.

Abdurahmon Sa’diy, Abduqodir Hayitmetov, Suyima G‘aniyeva, Hasan Qudratullayevlar o‘z tadqiqotlarida Alisher Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlarini yoritgan bo‘lsalar; I.Mo‘minov, M.Xayrullayev, A.Abdug‘afurovlar Zokirjon Furqatning she’r va shoirlik haqidagi qarashlari to‘g‘risida ancha mukammal so‘z yuritdilar. N.Mallayev, M. Shayxzoda tadqiqotlarida tazkiralar o‘rganilgan[4:192].

Olim Natan Mallayevning “O‘zbek adabiyoti masalalari” adabiy-tanqidiy maqolalar to‘plamining 1959-yil 1-sonida nashr qilingan “XV asr tazkiralarining tarixiy-adabiy ahamiyati” nomli maqolasida Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasini sinchiklab tahlil qilgan, ushbu asarning qisqa bo‘lsa-da, Navoiy o‘z davri adabiy hayotini, tasvirlab, uni ma’lum darajada tahlil qilib, so‘z san’atini yanada rivojlantirish maqsadini o‘z oldiga qo‘yganini m’lum qiladi. Shunga ko‘ra, bu asarda: ayniqsa yosh shoirlar uchun ibrat bo‘la oluvchi ko‘p masala va adabiy namunalar bor deb hisoblaydi.

Natan Mallayev ilmiy-ijodiy merosida davr mafkursi bilan bog‘liq fikrlar sezilarli darajada ko‘zga ko‘rinadi. Ijtimoiy-siyosiy hayotdagi mafkuraviy qarashlar, yondashuvlar o‘sha davrdagi har bir olim singari olim adabiy-estetik qarashlarida ham namoyon bo‘lgan. Xususan olimning ushbu maqolasida shunday fikrlar keltiriladi: “*Navoiy poeziya bilan shug‘ullangan temuriylar haqida so‘zlaganda, ba’zan ularga nisbatan tendension ravishda munosabatda bo‘ladi (7-8- majlislar) yoki shunday munosabatda bo‘lishga majbur bo‘ladi. Bu XV asrning spestifikatsiyasi, turli xil traditsiyalari bilan hamda Navoiyning siyosiy e’tiqodi va boshqa masalalar bilan bog‘liq*” [5:287].

N.Mallayev “Majolis un-nafois” tazkirasini tahlil qilar ekan, Navoiyning temuriy shahzodalar haqidagi qarashlarini quyidagicha izohlaydi [5:288].

Navoiy imkon topganida temuriy shahzodalarning badiiy ijodga ham, ularning shaxsiyatiga ham obyektiv baho berishga intiladi. Masalan, u Abo Bakr Mirzo haqida

“... *chun tab’ida nazm choshnisi bor ermish*” desa, Sulton Iskandar haqida “... *derlarkim, tab’i nazmg‘a moyil erdi*...”, deydi. Abdulatif Mirzoning shaxsiy sifatlari haqida: “*savdoyi mizoj va vasvosiy ta’b va devonasor kishi erdi. Mundin o‘zga dag‘i g‘arib badfe’lliklari bor edikim, zikridin behijoblik lozim kelur. O‘tar dunyo maslahati uchun donishmand va qadri podshoh otasin o‘lturdi…*”, deb uni qattiq qoralaydi, Ulug‘bekni “*Donishmand podshoh erdi. Kamoloti bag‘oyat ko‘p erdi…*”, deb maqtaydi. Bular tarixiy haqiqatga to‘la muvofiqdir. “Majolis un-nafois” tazkirasida temuriylar saltanatining asoschisi Amir Temurni Ko‘ragon nomi bilan boshlab “…*agarchi nazm aytmoqqa iltifot qilmaydururlar, ammo nazm va nasrni andoq xo‘b mahal va mavqeda o‘qubturlarkim, aingdek bir bayt o‘qug‘on, ming yaxshi bayt aytqoncha bor…*” deydi. “Majolis un-nafois”ning 8-majlisi Husayn Boyqaroga bag‘ishlangan. Husayn Boyqaro o‘z zamonasining qobiliyatli shoirlaridan biri edi. Uning ayrim original lirik she’rlari o‘xshatmalari badiiy san’atkorligi bilan maroqli chiqqan. Navoiy “Majolis un-nafois”da shunday she’rlar va she’riy parchalar haqida mulohaza yuritib, ularga ijobiy baho berdi. Biroq, Navoiy Husayn Boyqaro ijodining kamchilik tomonlarini ko‘rsatmaydi.

“Majolis un-nafois”ning yana boshqa fazilatlari ham bor. Bu asar adabiyot ahliga asrlar davomida manzur bo‘lib kelmoqda. “Majolis un-nafois” nusxalarining va tarjimalarining ko‘pliligi shuni ko‘rsatadi. “Majolis un-nafois” XVI asrdayoq fors tiliga ikki marta tarjima qilingan. Biroq, tarjimonlar – Hirotiy va Qazviniylar asarga ayrim o‘zgarishlar kiritib, uning ba’zi o‘rinlarini qisqartirganlar va ba’zi qo‘shimchalar kiritganlar. Qisqartirishlar asarning qimmatiga putur yetkazgan. Ilovalar esa tarjimonlar tomonidan qo‘shilgani ta’kidlanmagan. Lekin, shunga qaramay, “Majolis un-nafois”ning fors tiliga tarjima bo‘lishi katta ijobiy faktdir. XVI asrning oxiri XVII asrning boshida o‘tgan ozarbayjonlik adabiyotshunos Sodiqbek Afshoir “Majolis un–nafois”dan ilhomlanib “Majolis un-havas” tazkirasini tuzgan. Shundan so‘ng N.Mallayev O‘zbek tazkirachiligining to‘ng‘ich asari “Majolis un-nafois” adabiyotchi va adabiyotshunoslar uchun namuna bo‘lib, o‘zbek tilida bir qator tazkira va majmualarning kelishiga yo‘l ochgani haqida ma’lumot beradi. Xususan o‘zbek va tojik tillarida Malexoning “Muzokir ul-ashob”, Vozihning

“Tuhtat ul-ahbob”, Fazliyning “Majmuat ush-shuaro” asarlari va boshqalar maydonga kelgani haqida fikr yuritadi. Ushbu tazkiralardan saroy doirasida vujudga kelgan tazkira va majmualarda yozuvchilarga nisbatan tendension munosabat avj olib ketganini Gulxaniy va Maxmur kabi xalqchil yozuvchilarni kamsitilgani, ularga tuhmat qilishdan ham toymaganligi haqidagi ma’lumotni keltiradi Bunday qarashlar negizida Navoiy siymosini ko‘tarish, Navoiy dahosining har qanday sharoitda, har qanday vaziyatda insoniy fazilatlarni yo‘qotmaganligi, insoniyatning ideali sifatida doimo muhtasham ko‘rinishda bo‘lganligini ifodalash yotar edi.

Professor N.Mallayev “XV asr tazkiralarining tarixiy-adabiy ahamiyati” nomli maqolasida dastlab Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston” hamda Davlatshoh Samarqndiyning “Tazkirat ush-shuaro” asarlarini tahlil qilish jarayonida shunday ma’lumotlarni keltiradi [7:278] Jomiy ham, Davlatshoh ham tazkirada asosan adabiyot tarixchisi sifatida gavdalanadilar. Navoiy esa “Majolis un-nafois”da ko‘proq adabiy tanqidchi sifatida gavdalanadi. Bu fikr ikki narsa bilan izohlanadi:

1. Jomiy va Davlatshoh asosan o‘tmish yozuvchilar haqida ma’lumot beradilar. Navoiy esa, o‘ziga zamondosh bo‘lgan adabiyot ahli haqida mulohaza yuritadi.

2. Jomiy va Davlatshohda yozuvchilarning asarlari bo‘yicha tahliliy va adabiy-tanqidiy mulohazalar kam. Ularda ayrim tarixiy faktlar, rivoyat va afsonalar ko‘proq o‘rin olgan. Navoiyda esa, adabiy-tanqidiy fikrlar bir muncha ko‘p va izchilroqdir. Shu bilan birga, Navoiy bevosita o‘zi ko‘rgan va bilgan fakt va ma’lumotlarni beradi, yozuvchilar haqida bevosita o‘zi ma’lumot to‘playdi yoki ma’lumot to‘plashni uyushtiradi. Bu xususiyatlar “Majolis un-nafois”ning tarixiy-adabiy qimmatini yanada oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, olim N.Mallayevning “XV asr tazkiralarining tarixiy-adabiy ahamiyati” nomli maqolasida tazkirachilikning vujudga kelishi hamda uning rivojlanishi haqidagi zaruriy ma’lumotlarni asosli faktlar hamda qiyosiy dalillar asosida birma-bir tahlilga olgani bilan qimmatlidir. Professor N.Mallayev ma’lumotlariga ko‘ra, Navoiyning shoirlar ijodiga baho berishi mumkin qadar prinsipial, obyektiv va rostgo‘y bo‘lishga intilganini ko‘rsatgan. Navoiy tazkirasidagi bu xususiyat uning ilmiy-adabiy qimmatini yanada oshiradi Jumladan “Majolis un-

nafois” tazkirasida Navoiyning badiiy ijodigina emas, balki uning ajoyib fazilatlari ham taraqqiyparvar yozuvchilar va kitobxonlar uchun ibrat bo‘lgani, XV asrda vujudga kelgan uch tazkira – Abdurahmon Jomiyning, “Bahoristoni” (7-ravza), Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” kitobi va Navoiyning “Majolis un-nafois” asari o‘z davri adabiy hayotining ulkan yutug‘i bo‘lgani olim tadqiqotlarida aks etgan. Bu tazkiralarning o‘tmish adabiyoti va adabiy fikrlarni o‘rganishda mislsiz manba bo‘lishi bilan birga, hozirgi adabiyotshunoslik rivojiga o‘zining ma’lum hissasini qo‘shgani haqida Natan Mallayev “XV asr tazkiralarining tarixiy-adabiy ahamiyati” nomli maqolasida dastlabki manbalarni o‘rganish asosida ma’lumot bergani tahsinga sazovordir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Navoiy A. Ensiklopediya. Ikkinchi jild. – Toshkent: 2024. – 496 b.
2. Navoiy A. Ensiklopediya. To‘rtinchi jild. – Toshkent: 2024. – 480 b.
3. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. I китоб. – Тошкент: Ўқитувчи, 1965. – Б. 361.
4. Abdullayeva M. “Mumtoz tarixiy poetika”. [O‘quv qo‘llanma]. -Toshkent, 2023. - 404 b.
5. Маллаев Н. XV тазкираларининг тарихий-адабий аҳамияти // Ўзбек адабиёти масалалари. Адабий-танқидий мақолалар тўплами. – Т.: Бадиий адабиёт, 1959. – Б. 287.
6. Маллаев Н. XV тазкираларининг тарихий-адабий аҳамияти // Ўзбек адабиёти масалалари. Адабий-танқидий мақолалар тўплами. – Т.: Бадиий адабиёт, 1959. – Б. 278.
7. Маллаев Н. XV тазкираларининг тарихий-адабий аҳамияти // Ўзбек адабиёти масалалари. Адабий-танқидий мақолалар тўплами. – Т.: Бадиий адабиёт, 1959. – Б. 278.

XX ASR XAMSASHUNOSLIGINING FUNDAMENTAL TADQIQOTI

Raxmanova Nafisa Azatbekovna
ChDPU katta o‘qituvchisi,
nafisarahmonova1966@ gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada avstriyalik sharqshunos Herbert W. Dudaning 1933-yilda nashr etilgan «Ferhād und Schīrīn: die literarische Geschichte eines persischen Sagenstoffes» monografiyasi hamda xamsashunoslik fanining nazariy-metodologik muammolari tahlil qilingan. Unda «Farhod va Shirin» dostonining Eron adabiyotidagi o‘rni, fors tilida ijod qilgan turli millat vakillarining sujetga kiritgan o‘zgartirish va yangiliklari, Nizomiy sujeti tadrijining uch xil versiyasi ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *Herbert W. Duda, “Farhod va Shirin”, xamsashunoslik, Nizomiy.*

Abstract. This article analyzes the monograph “Ferhād und Schīrīn: die literarische Geschichte eines persischen Sagenstoffes” by the Austrian orientalist Herbert W. Duda, published in 1933, and the theoretical and methodological problems of the discipline of Khamsa studies. It examines the place of the epic “Farhād and Shirin” in Iranian literature, the changes and innovations introduced into the subject by representatives of different nationalities who created works in Persian, and three different versions of the development of the subject by Nizami.

Keywords: *Herbert W. Duda, Farhād and Shirin, Khamsa studies, Nizami.*

XX asr sharqshunoslik fanining rivojlanishida G‘arb sharqshunoslarining tutgan o‘rni beqiyos. Ulardan biri avstriyalik olim Herbert Wilhelm Duda (1900-1975) bo‘lib, u turkshunoslik, eronshunoslik va Islom tadqiqotlari sohasida muhim ilmiy natijalarni qo‘lga kiritgan. Herbert Dudaning 1933-yilda nashr etilgan “Ferhād und Schīrīn”: die literarische Geschichte eines persischen Sagenstoffes” (“Farhod va Shirin”: fors afsonasining adabiy tarixi”) nomli monografiyasi sharqshunoslik, xususan, xamsashunoslik fanining rivojlanishiga muhim hissa qo‘shgan ilmiy asar hisoblanadi [1]. Dudaning tadqiqoti «Farhod va Shirin» sujetining adabiy tarixini sistemali va keng qamrovda o‘rganishga bag‘ishlangan birinchi fundamental ish edi.

Uning ilmiy metodologiyasi, manbashunos sifatida yondashuvi va komparativ tahlil usullari keyingi tadqiqotchilar, xususan, o‘zbek olimlari Natan Mallayev va Sodir Erkinovlar uchun namuna bo‘lib xizmat qildi [2], [3]. Dudaning “Ferhād und Schīrīn” monografiyasi nafaqat Yevopa eronshunoslari uchun, Sharq xamsashunoslari, nizomiyshunoslari, navoiyshunoslari uchun ham yaqin yuz yil ichida bajarilishi kerak bo‘lgan tadqiqotlarning dasturini belgilab bergan muhim ilmiy asar hisoblanadi. Unda xamsashunoslik fanining nazariy-metodologik muammolari tahlil qilingan, «Farhod va Shirin» dostonining Eron mumtoz adabiyotidagi o‘rni, fors tilida ijod qilgan turli millat vakillarining sujetga kiritgan o‘zgartirish va yangiliklari, Nizomiy sujeti tadrijining uch xil versiyasi ko‘rib chiqilgan.

1925-yilda Herbert Wilhelm Duda, Germaniyaning Leypsig universitetini tamomlagach, bir muddat turk tili bo‘yicha yetakchi mutaxassis Jan Deni qo‘l ostida ishlagan. 1927-yilda Istanbulga ko‘chib o‘tadi va u yerda nemis tilida nashr etiladigan “Turkische Post” gazetasida ishlaydi. Yunus Emre, Ahmad Hoshim ijodi haqida risolalar yozadi; Yaqub Qadriy, Rafik Xalit Karay va Falih Rifki Atay kabi yozuvchilarning asarlarini nemis tiliga tarjima qiladi. Karago‘z va Hajivat soya teatri o‘yinlari, xususan, “Fasl-i Farhod”ga bag‘ishlangan tadqiqotlari 1931-yilda Istanbulda nashr etiladi. Naqqosh Behzodning o‘g‘li Farhodning Shiringa bo‘lgan pok sevgisi olimning aql-u hushini zabt etadi: yosh olim bu sevgi qissasining ildizlarini Eron mumtoz adabiyotidan izlashga qaror qiladi. 1932-1934-yillarda Duda o‘zini Istanbul va uning atrofidagi kutubxonalarda saqlanayotgan 107 ta qo‘lyozmani o‘qib - o‘rganishga va tarjima qilishga bag‘ishlaydi, ularning fexristini tuzadi.

Olim “Ferhād und Schīrīn”: die literarische Geschichte eines persischen Sagenstoffes” monografiyasida ham Eron adabiyotida yaratilgan sujetning Usmonli turk xalq adabiyotiga kirib kelishini alohida qayd etadi. O‘rta asrlarda Farhod va Shirin sevgi qissasi turk xalq teatrining bir qismi hisoblangan soya teatrining bosh mavzusi bo‘lgan. Hatto XX asrning boshlarida ham bu asar turk qahvaxonalarida ijro etilgan. Dudaning ta’kidlashicha, “Farhod va Shirin” mavzusi turk folkloridan arab folkloriga ko‘chgan. Bu esa Farhod obrazining yanada markaziy o‘ringa chiqishiga sabab bo‘lgan [1:3].

Dudaning tadqiqoti juda boy tarixiy va badiiy manbalarga tayanadi. Dastlab arab sayyohlari Yoqut va Qazviniy, tarixchilar Tabariy, Firdavsiy va Muhammad Avfiyning asarlari tahlilga tortilgan. Bu asarlarni qiyosiy o‘rgangan Duda “Xusrav va Shirin” qissasining tarixiy negizi Sosoniylar davriga borib taqalishini ko‘rsatadi va quyidagi xulosalarni bayon qiladi: 1) har uchala asarda Xurmuz va uning o‘g‘li Xusrav Parviz o‘rtasidagi tushunmovchiliklarning sababchisi Bahrom Cho‘binadir; 2) Xusravning Vizantiya imperatorining qizi Mariyaga uylanishi Bahrom Cho‘bina ustidan g‘alabani ta’munlagan; 3) Shirin Xusrav Parvizning sevimli rafiqasi bo‘lgan; 4) Tabariy va Firdavsiy asarlarida fors folklorida mashhur bo‘lgan Farhod va Shirin qissasi haqida ma’lumot keltirilmagan; 5) Tabariy Shirinning o‘limi tarixi haqida sukut saqlashni ma’qul ko‘rgan bo‘lsa, Firdavsiyda Shirin va shahzoda Xusrav o‘rtasidagi sevgi munosabatlari, saroy a’yonlarining qarshiligiga qaramay shoh Xusravning Shiringa uylanishi, Shirinning rashkdan Maryamni zaharlashi, Sheruyaga turmushga chiqmaslik uchun Shirinning Xusrav Parviz qabri tepasida zahar ichib o‘z joniga qasd qilishi voqealari tasvirlangan. Avfiy Shirinning ismini Xusrav-i Parvizning boyliklari, qimmatbaho buyumlari sanalgan bobda eslab o‘tadi va xalq ichida mashhur bo‘lgan Xusrav va Shirin sevgisi tarixi ganjalik Nizomiy tomonidan juda go‘zal so‘zlab berilgani, shu munosabat bilan o‘z asarida bu hikoyani qayta taqdim etishga hojat yo‘qligini uqtirib o‘tadi. 6) "Qissa-i Farhod bo Shirin" qismining qahramoni Farhod obrazi to‘laligicha adabiy ijodning mahsulidir. Duda bu obrazning ildizini me’morchilik va rassomlik bilan bog‘liq xalq afsonalaridan izlash kerak, deb ta’kidlaydi.

Tadqiqotda Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Orifiy, Imoduddin Faqih Kirmoniy, Hotifiy, Hiloliy, Vahshiy Bofqiy, Husayn Boyqaro (?) va Muhammad Ja’far Nayriziy yozgan “Xusrav-u Shirin” va “Farhod-u Shirin”larning nasriy bayoni berilgan, ularning Farhod va Shirin sujetiga qo‘shgan yangiliklari alohida tahlil qilingan. Shuningdek, Hoja Shahobiddin Marvarid, Mirza Qosimlarning ham fors tilida “Xusrav va Shirin” yozgani eslatib o‘tiladi. Masalan, Mavlono Abdulloh Hotifiyning “Xusrav va Shirin” dostoni Nizomiy sujeti asosida yozilgan. Sujetga Hotif qo‘shgan yangiliklar quyidagilardan iborat: Shirin Kaspiy dengizi bo‘yidagi

saroyda yashaydi. Kimdir uning yuzini ko‘rsa, ko‘zi o‘yib olinadi. Shopur oyna yordamida derazadan qarab turgan Shirinning yuzini ko‘rishga muvaffaq bo‘ladi. Xusrav tomonidan chohga qamab qo‘yilgan Farhod tasodifan topib olgan tesha bilan tunnel qazishni boshlaydi va juda ko‘p qimmatbaho toshlarni qazib oladi. Bir yil deganda tog‘ning etagidan chiqadi. Qimmatbaho toshlardan uzuk yasab, ularning ko‘ziga Shirinning tasvirini tushiradi.

Herbert Wilhelm Duda Nizomiyning “Xusrav va Shirin” dostoni tarkibiga kiruvchi "Qissa-i Farhod bo Shirin"ning aslini va nemis tiliga tarjimasini to‘liq keltirgan. Olim Nizomiydan keyin XIII-XIX asrlarda Eron, Xuroson, Ozarbayjon, Turkiya va Hindistonda yaratilgan yigirmadan oshiq “Qıssa-i Farhod - u Shirin” dostonlarini qiyosiy o‘rganib, quyidagi savollarga javob topishga harakat qilgan: Tarixiy voqealarga asoslanadigan “Xusrav va Shirin” sevgi qissasi ichida keltiriladigan “Farhod va Shirin” qissasi fors folklori namunasimi yoki uning negizi hayotiy voqealarga asoslanadimi? “Farhod va Shirin” qissasi Nizomiy xayoloti mahsulimi? Afsonaning ilk versiyalari qanday ko‘rinishda bo‘lgan? “Farhod va Shirin” dostoni nechanchi asrdan boshlab “Xusrav va Shirin” dostoni sujetidan ajrab chiqib mustaqil asar sifatida shakllandi?

Yigirma beshta dostonni qiyosiy o‘rgangan Duda xamsashunoslar oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yadi:

1.“Farhod va Shirin” hikoyasini yoritishda xalq eposlariga xos qahramonlik motivlari va romantika o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tadqiq qilish.

2. Sujetdagi o‘zgarishlar, obrazlar tadrijida tatabbu’ talablari va cheklovlarining o‘rnini aniqlash.

3. “Farhod va Shirin” mavzusida yozilgan barcha dostonlarning o‘xshash va farqli tomonlarini qiyosiy tahlil qilish.

4. Tasavvuf adabiyotida bu qissa qanday o‘rin tutishini o‘rganish.

Dudaning ta’kidlashicha “Xusrav va Shirin” dostoni XVII-XVIII asrlarda hind adabiyotida ikkinchi umrini yashadi. Monografiyada Boburiylar saroyida yashab ijod qilgan, “Xusrav va Shirin” dostonini yozib Boburiy hukmdorlarning e’tiborini qozongan Urfiy Sheroziy, Mir Oqil Kavsariy, Mir Oshafxon Ja’far, Muhammad

Sharif Koshiy, Isfaxonlik Mirzo Malik Mashriqiy, Ibrohim Adham, Favqiddin Ahmad Jazdiy, Xvansarlik Mavlono Xidriy, Mirzo Abdulloh ibn Habibulloh Turshiziy, Mirzo Muhammad Sodiq Musaviy haqida qimmatli ma’lumotlar taqdim qilingan. Dudaning fikricha, Muhammad Ja’far Nayriziyning dostoni (1890-yilda litografik usulda nashr etilgan) Eron mumtoz adabiyotida yaratilgan so‘nggi “Xusrav va Shirin” bo‘ldi. Afsuski, shoir Nayriziy sujetga birorta jiddiy yangilik kirita olmadi. Og‘riqli lavhalarni zavq bilan tasvirlab, sentimental shoir sifatida o‘zini ko‘rsata oldi, xolos. “Muhammad Ja’farning XIX asrning 2- yarmida yaratgan ushbu dostoni 700 yildan beri kuylanib kelgan go‘zal ertakning ko’ngilni xira qiladigan yakuniy bosqichi bo‘ldi”, - deydi olim [1:120].

Herbert W. Duda fors afsonasining badiiy tadrijiga bag‘ishlangan ushbu tadqiqoti bilan nizomiyshunoslik sohasiga asos soldi. Uning yuz yil oldingi ilmiy xulosalari XXI asrda ham dolzarbligini yo‘qotmadi:

1. Farhod va Shirin afsonasining birinchi yirik va mukammal badiiy shakli Nizomiy Ganjaviy tomonidan yaratilgan. U qissa ichidagi mustaqil qissadir. Duda sujet rivojidagi uchta davrni ajratib ko‘rsatadi: birinchisi Farhod qissasi “Xusrav va Shirin”dostonining bir qismi bo‘lgan davr; ikkinchi davr - epizodning doston markaziga ko‘chishi va asosiy sujet bilan kesishishi; uchinchi davr - Farhod va Shirin mavzusining mutlaqo mustaqillashishi (mumtoz she’riyatda va xalq adabiyotida) [1:2]. Duda qissa ichida qissa shaklida yozilgan bu masnaviyning oxirida shoirning taxallusi qo‘llanganiga e’tiborni qaratib, “Nizomiy ijodida Farhod va Shirin sujeti umumiy sujetdan ajralib chiqib, mustaqillik kasb eta boshlagan”, degan xulosaga keladi.

2. Nizomiyning "Xusrav va Shirin" dostoni keyingi davr shoirlari uchun o‘ziga xos namuna, andoza (etalon) bo‘lib xizmat qildi. Fors tilida yozilgan masnaviylarning aksariyatida Nizomiy taklif qilgan sujet va vazn saqlandi. Birinchi toifa shoirlar tatabbu’ talablariga qat’iy rioya qildilar.

3. Ikkinchi toifa shoirlardan Vahshiy va Orifiy masnaviyning bosh qahramoni sifatida Xusravni emas, Farhodni tanladilar. Orifiy realizm metodida ijod qilib,

sujetni tubdan o‘zgartirgan bo‘lsa, Vahshiy qissaning lirik mazmuniga alohida urg‘u berdi.

4. Imomiddin Faqih, Hiloliy, Husayn Boyqaro (aslida shoir Kamoliddin Husayn Gazurgohiy) kabi uchinchi toifa shoirlar sujetga so‘fiyona ruh qo‘shdilar. Ular Farhod obrazini so‘fiylik va ishq nazariyasiga ko‘ra taqdim etdilar. Bosh qahramonlarning majoziy ishqi avom ishqiga qarama-qarshi qo‘yildi.

5. Shoir Urfiy, sujetning xalq ichida juda mashhurligini hisobga olib, har qanday epik tasvirdan voz kechdi, qahramonlar ruhiyati tasviriga e’tiborni qaratdi.

6. “Farhod va Shirin” masnaviysining nasr-nazmda yozilgan hikoyat versiyasi “Majolis ul-ushshoq”dan (XV asr) joy olgan. Duda asarni Husayn Boyqaro yozganiga shubha bilan qaraydi. Keyingi tadqiqotlar bu asarning haqiqiy muallifi shoir Kamoliddin Husayn Gazurgohiy ekanini ko‘rsatdi.

7. Dudaning ushbu tadqiqoti nafaqat adabiyotshunoslar, balki folklorshunoslar va san’atshunoslar uchun ham muhim manbadir, chunki ushbu sujet islom miniatyura san’atining ham asosiy mavzularidan biri bo‘lgan. Duda Farhod va Shirin sujetining islom miniatyura san’atidagi o‘rnini ta’kidlab, asardagi detallarni bilish miniatyuralarni to‘g‘ri talqin qilish uchun zarurligini uqtiradi.

8. XX asr boshida “Farhod va Shirin” mavzusi endi boshqa janrlarga, xususan, kino va teatr sohasiga kirib keldi. 1920-yilda Zabih Behruz ssenariysi asosida fors tilida “Shohi Eron va Bonu-yi Arman” nomli badiiy film suratga olindi.

Shubhasiz, Herbert Dudaning “Ferhād und Schīrīn”: die literarische Geschichte eines persischen Sagenstoffes” (“Farhod va Shirin”: fors afsonasining adabiy tarixi”) monografiyasi xamsashunoslikda Farhod obrazining "Xusrav va Shirin" dostonidan ajralib chiqib, mustaqil doston darajasiga ko‘tarilish jarayonini ilmiy asoslab bergan muhim manbadir. Bu tadqiqot bugungi kunda ham dostonchilik an’analari va Sharq xalqlari adabiy aloqalarini o‘rganishda o‘z qiymatini yo‘qotmagan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Duda, Herbert W. *Ferhad und Schīrīn: Die literarische Geschichte eines persischen Sagenstoffes*. Prag: Orientální ústav, 1933.- P.223

2. Erkinov S. Navoiy “Farhod va Shirin”i va uning qiyosiy tahlili.- Toshkent: Fan,1971. – 276 b.

3. Mallayev N. So‘z san’atining gultoji. – T.: G‘afur G‘ulom, 1991. – 152 b.

AHMAD LUTFIY QOZONCHI IJODIDA O‘GAY ONA OBRAZI: RUHIY KECHINMALAR VA HAYOT SABOQLARI

Tulishova Charos Ravshanovna

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Tillar va maktabgacha ta’lim fakulteti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

E-mail: charostulishova@gmail.com

Ilmiy rahbar: ***Murodova Shahlo Ibragimovna***

Tillar va maktabgacha ta’lim fakulteti dotsenti v.b., p.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada Ahmad Lutfiy Qozonchining “O‘gay ona” asari badiiy-g‘oyaviy jihatdan tahlil qilinadi. Asarda bosh qahramon Fotima timsolida sabr, mehr, vijdon, halollik va fidoyilik kabi yuksak insoniy fazilatlar ochib beriladi. Muallif o‘gay ona obrazini an’anaviy salbiy qarashlardan farqli ravishda, chinakam onalik mehri va ruhiy poklik timsoli sifatida tasvirlaydi. Maqolada asarning tarbiyaviy ahamiyati, undagi islomiy qadriyatlar talqini hamda ayolning jamiyat va oila hayotidagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, asarning bugungi kun o‘quvchisi ma’naviy kamolotida tutgan o‘rni tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: *Ahmad Lutfiy Qozonchi, “O‘gay ona”, Fotima obrazi, o‘gay ona timsoli, onalik mehri, sabr va chidam, vijdon, islomiy qadriyatlar, tarbiya, ma’naviy kamolot, badiiy asar, oilaviy munosabatlar.*

Annotation: This article provides a literary and ideological analysis of Ahmad Lutfiy Qozonchi’s novel *“Stepmother.”* Through the image of the main character, Fotima, the work reveals such noble human qualities as patience, compassion, conscience, honesty, and selflessness. Contrary to traditional negative perceptions,

the author portrays the stepmother not as a negative figure, but as a symbol of true maternal love and spiritual purity. The article also highlights the educational significance of the work, its interpretation of Islamic values, and the role of women in society and family life. Furthermore, it analyzes the place of the work in the spiritual development of today’s readers.

Keywords: *Ahmad Lutfiy Qozonchi,* “Stepmother,” *the image of Fotima, the stepmother figure, maternal love, patience and perseverance, conscience, Islamic values, upbringing, spiritual development, literary work, family relationships.*

Badiiy adabiyot inson ma’naviy kamolotini shakllantirishda muhim vositalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, oilaviy qadriyatlar, onalik mas’uliyati, yetimparvarlik va vijdon masalalarini yorituvchi asarlar jamiyat tarbiyasida alohida o‘rin tutadi. Ahmad Lutfiy Qozonchi ijodi ana shunday ma’naviy-axloqiy g‘oyalarni ilgari surishi bilan ahamiyatlidir. Yozuvchining “O‘gay ona” asari o‘zbek kitobxoni qalbida chuqur iz qoldirgan, onalik mohiyatini yangicha talqinda ochib bergan asarlardan biridir. Badiiy adabiyot shaxs ma’naviy kamolotini shakllantirishda muhim ijtimoiy-pedagogik omil hisoblanadi. Ayniqsa, oilaviy qadriyatlar, onalik mas’uliyati va yetimparvarlik kabi masalalarni yorituvchi asarlar jamiyat tarbiyasida alohida ahamiyat kasb etadi. Ahmad Lutfiy Qozonchi ijodi insoniylik, e’tiqod va axloqiy poklik g‘oyalarini targ‘ib etishi bilan ajralib turadi. Yozuvchining “O‘gay ona” asari o‘gay ona obraziga nisbatan shakllangan stereotiplarni yangicha talqin etib, onalik mohiyatini ma’naviy-falsafiy nuqtai nazardan ochib beradi. Mazkur asarda ham bosh qahramon Fotima obrazi orqali aynan shu jarayon badiiy ifodasini topadi. Yuqorida aytib o‘tganimdek, Ahmad Lutfiy Qozonchining barcha asarlari o‘quvchilariga insoniylikka va islom olamidagi barcha ezgu amallarni qalblarga muhrdek qarashga yordam beradigan kitoblar hisoblanadi. Men juda ko‘plab asarlarni o‘qidim, o‘zim uchun kerakli bo‘lgan va shaxsiy rivojlanishiga yordam beradigan o‘nlab asarlarni sharhlari bilan tanishdim. Ammo mening tuyg‘ularimni junmushga keltirgan kitoblar sanoqli bo‘ldi. Shunday asarlardan biri “O‘gay ona” asari. Ushbu kitobni juda arzon narxga sotib oldim, biroq u menga bergan odob va tarbiya qimmatli edi. “Asarda sabri va chidami minglab ayollarimizga o‘rnak bo‘la oladigan,

Fotimaning qismati uning farzand tarbiyasidagi tutgan yo‘li va mehri, chidami bugungi kunimizdagi ayollarga o‘rnak bo‘libgina qolmay, asl fidoiylikdir! Bu asar ayollar haqida madhiyaga o‘xshaydi! Bu dunyoda, albatta, mehr bergan mehr topadi, mehr ko‘rgan, mehr beradi!”[1] Asarni o‘qir ekanman men ham asarning bosh qahramoni bo‘lgan Fotimadek buyuk ayol bo‘la olarmikanman degan savollar iymonimni yanada taftish qilishimga sababchi bo‘ldi. Asar bosh qahramoni Fotima! O‘n sakkiz yoshida ikki yetim bolalarning boshini soladi. Ularga o‘z onalaridan-da a‘lo ona bo‘ldi. Bu voqealarga esa uning orasidan yetim qolgan qo‘shnisi sababchi edi. Bola o‘gay onasi tomonidan turli qiynoqlar va azoblar ichida ulg‘aydim. Otasidan ham mehr ko‘rmagan, ustiga ustalari hamisha haqorat va zalolat ichida ulg‘aygan bu jajji bolaga Fotima mehr berar, uni qattiq suyardi. Unga sovchilar kela boshlagan va u shuncha yigitlar orasidan ikki yetim farzandi bor erkakka turmushga chiqishni xohlaydi. Barcha yaqinlari: onasi, xolalari va hatto qo‘shnilar ham uni bu fikridan qaytarmoqchi bo‘ladilar. Otasi esa qarshilik qilmaydi. Sababi Odilbek insofli savdogar va ismiga munosib inson edi. Fotima unga qarshi chiqqanlarga “Agar bu yetimlarga men onalik qilmasam va ularning boshiga zolim ona kelsa, men o‘z vijdonimga qanday javob beraman?” – deb xitob qilardi. Haqiqatan ham, u Husayn va Odilaga o‘z onalaridan ham yaxshi ona bo‘ladi. Asarda voqealar rivoji shunday tasvirlanganki, uning bolaligidan bir voqea xotirasida qolgan: bir kun boqqa borishdi. Olti yoshga kirib-kirmagan Fotima bog‘dan u yoq bu yoqqa yugurib bir olma topib oldi va “ona senga olma keltirdim”, – dedi sevinib, so‘ng toklar orasiga kirib ketdi. Yon qo‘shnining bog‘idan bir bosh chiroyli uzum ularning bog‘iga osilib turardi. Endi uzaman deb turganida otasining ovozi darhol qo‘l tortishga majbur etdi: Fotima, uzma qizim, bu uzum bizga harom! Uning kichik miyasida uzum qora bo‘lganligi uchun harom degan fikr qoldi. Oradan yillar o‘tdi, lekin Fotima bir dona ham qora uzum yemadi. Uzumning qoraligi uchun emas birovning moli bo‘lgani uchun xarom ekanini yillar o‘tib bilgach ham oq va qora uzum qo‘yilsa uning qo‘llari beixtiyor oqqa uzalaverardi...”[2]. Ko‘zingizdan emas, qalbingizdan yosh chiqadi go‘yo. Fotimaning yetimlari maktabda eng ozoda, a’lochi va tarbiyali bolalar bo‘lib taniladi. O‘zi ham qiz farzandli bo‘ladi. Ikki qizini yetimlarga uzatadi. Ularning biri o‘zining

o‘sha qo‘shnisi va ikkinchisi o‘g‘li Husaynning yetim do‘sti bo‘ladi. Men asarni o‘qir ekanman Fotimadagi ishonch, vijdon, samimiyat kabi ko‘p insonlarda mavjud bo‘lmagan insoniy hikmatlar va ayollik nafosatini o‘zim uchun o‘rnak deb qaradim. Undagi hislatlar barchani o‘yga toldirishi aniq albatta. Shuni aytish mumkinki badiiy asarlar insonni hamisha fikrlashga va voqealardan tegishli qarorlar qabul qilishga chorlaydi. Ushbu maqolamni o‘qigan barchaga ushbu “O‘gay ona” asarini topib o‘qishlarini tavsiya qilaman. Chunki yozuvchi aslida bizga nima demoqchi bo‘lganini his qilmoq uchun kitobni ba’zan qayta-qayta o‘qishimiz lozim bo‘ladi. O‘gay ona timsolida gavdalanardi bosh qahramon va uning kechinmalari ba’zi bir onalarni uyg‘otsa ajab emas. Fotima ikki yetimga o‘gay ekanini aytganda, ular ishonmasligi va tahlikaga tushib qolganini o‘qigan mutolaachi Fotimani qay darajada buyuk ona ekanini anglab olishi mushkul emas albatta. Asar voqealari va ulardan olinadigan xulosalar bir-birini to‘ldirib, ta’sirchanligini yanada oshirib keladi. Varoqlari unchalik ham ko‘p bo‘lmasada, undan sermazmun hayotda yashash sirlarini, to‘g‘rilik va halollik va eng muhimi marhamatlilik, asl onalik muhabbatini va uning kuchi qanday bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin.

Asarning g‘oyaviy-badiiy konsepsiyasi. Adabiyotshunoslikda o‘gay ona obrazi ko‘pincha salbiy xarakterda tasvirlangan. “O‘gay ona” asarida esa muallif ushbu stereotipni inkor etadi va o‘gay onani mehr-muruvvat, sabr va fidoyilik timsoli sifatida gavdalantiradi. Fotimaning ikki yetim farzand taqdirini o‘z zimmasiga olish qarori pedagogik jihatdan altruistik motivatsiya va axloqiy yetuklik ko‘rsatkichi sifatida baholanishi mumkin. Shaxsning bunday qaror qabul qilishi uning ichki e’tiqodi va qadriyatlar tizimi bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayon ijtimoiy-axloqiy tarbiyaning natijasidir[3].

Axloqiy tarbiya va interiorizatsiya jarayoni. Asarda tasvirlangan bolalik xotirasi – qo‘shni bog‘idagi uzumni uzmaslik voqeasi – halollik va diniy-axloqiy tarbiyaning dastlabki shakllanish bosqichini ifodalaydi. Otaning “bu uzum bizga harom” degan ogohlantirishi bola ongida uzoq muddatli axloqiy me’yorni shakllantiradi. Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda bu jarayon tashqi nazoratning ichki e’tiqodga aylanishi, ya’ni interiorizatsiya sifatida izohlanadi[4]. Fotimaning

voyaga yetgach ham halollik mezoniga qat’iy amal qilishi oilaviy tarbiyaning uzluksiz va samarali bo‘lganini ko‘rsatadi.

Onalik fenomeni va ma’naviy yetuklik. Pedagogik nuqtayi nazardan onalik nafaqat biologik, balki ma’naviy-axloqiy kategoriya hamdir. Asarda Fotima obrazi orqali onalikning ijtimoiy mas’uliyat, sabr va mehr bilan uyg‘unlashgan modeli tasvirlanadi. Oilaviy muhit shaxs kamolotining asosiy omili sifatida e’tirof etiladi[5]. Yetim bolalarning tarbiyali, ozoda va a’lochi bo‘lib voyaga yetishi onaning ma’naviy kompetensiyasi bilan bevosita bog‘liqdir. Bu jihat asarning pedagogik qiymatini yanada oshiradi.

Asarning zamonaviy ahamiyati. Globallashuv sharoitida oilaviy qadriyatlarning zaiflashuvi, farzand tarbiyasidagi muammolar dolzarb masalaga aylangan. “O‘gay ona” asari o‘quvchini mas’uliyat, halollik va marhamat kabi fazilatlar haqida chuqur mushohadaga chorlaydi. Badiiy asarlar shaxsda refleksiv tafakkurni rivojlantiradi va axloqiy qarorlar qabul qilish ko‘nikmasini mustahkamlaydi[6]. Shu nuqtayi nazardan, mazkur asar yoshlar ma’naviy tarbiyasida samarali vosita bo‘la oladi.

Xulosa qilib aytganda, “O‘gay ona” asari onalik fenomenini yuksak ma’naviy-axloqiy mezonlar asosida talqin etuvchi, tarbiyaviy salohiyati kuchli badiiy asardir. Fotima obrazi orqali sabr, fidoyilik, vijdon va halollik kabi fazilatlar yuksak badiiy mahorat bilan ifodalangan. Asar nafaqat adabiy-estetik, balki pedagogik ahamiyatga ham ega bo‘lib, yosh avlod ma’naviy kamolotini shakllantirishda muhim manba bo‘la oladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “O‘gay ona” asari onalik fenomenini yuksak ma’naviy-axloqiy mezonlar asosida talqin etuvchi, pedagogik salohiyati kuchli badiiy asardir. Asar nafaqat estetik, balki ijtimoiy-pedagogik ahamiyatga ega bo‘lib, yosh avlod ma’naviy kamolotini shakllantirishda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ahmad Lutfiy Qozonchi “O‘gay ona” – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2023.
2. https://teletype.in/@hayotimiz_charogboni/MR-AkPQd
3. Musurmonova O. Oila pedagogikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016.
4. Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. – Moskva: Pedagogika, 1991.

5. Abdurahmonov Q. Tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: Fan, 2018.

6. To‘xtaxodjayeva M. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2010.

ABDULLA ORIPOV IJODIDA VATANPARVARLIK TUYG‘USINING BADIIYATI

Ilmiy rahbar: Gulandom Tog‘ayeva

Aliyeva Yodgora Barat qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Tel: +998940547814

aliyevayodgora@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abdulla Oripov ijodida vatanparvarlik, milliy g‘urur va insoniy qadriyatlar g‘oyalarining ifodalanishi tahlil qilinadi. Shoir asarlari orqali yosh avlodda Vatanga sadoqat, xalq va millat manfaatlariga hurmat ruhini shakllantirishning pedagogik hamda tarbiyaviy jihatlari yoritiladi. Shuningdek, Abdulla Oripov she’riyatining estetik, falsafiy va ma’naviy mazmuni vatanparvarlik tuyg‘ularining shakllanishida tutgan o‘rni nuqtai nazaridan tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: *Abdulla Oripov, vatanparvarlik, ma’naviyat, milliy g‘urur, tarbiya, adabiyot.*

Аннотация: В статье анализируется творчество Абдуллы Арипова как отражение идей патриотизма, национальной гордости и духовных ценностей. Рассматриваются воспитательные и педагогические основы формирования любви к Родине через художественное слово поэта. Особое внимание уделено философскому и эстетическому содержанию произведений поэта в контексте национального самосознания.

Ключевые слова: *Абдулла Арипов, патриотизм, духовность, национальная гордость, воспитание, литература.*

Abstract: This article analyzes the works of Abdulla Oripov as a manifestation of patriotism, national pride, and spiritual values. It explores the educational and pedagogical aspects of forming love and loyalty to the homeland through the poet’s artistic expression. The philosophical and aesthetic dimensions of Oripov’s poetry are examined as key factors in developing a patriotic spirit among the younger generation.

Keywords: *Abdulla Oripov, patriotism, spirituality, national pride, education, literature.*

Abdulla Oripov o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo‘lib, uning ijodi milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik va insoniy qadriyatlar targ‘iboti bilan chambarchas bog‘liqdir. Shoir o‘z asarlarida Vatanga muhabbat, xalq manfaatiga sadoqat, millat sha’nini ulug‘lash g‘oyalarini yuksak badiiy mahorat bilan ifodalagan. Abdulla Oripov ijodi o‘zbek xalqining ma’naviy uyg‘onishi, mustaqillik g‘oyalarining shakllanishi va yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi.

Shoirning mashhur asarlaridan biri — (O‘zbekiston) she’ri vatanparvarlik tuyg‘ularining yuksak namunasi sifatida e’tirof etiladi. Unda Vatan — inson hayotining mazmuni, orzu-intilishlarining markazi sifatida tasvirlanadi. Abdulla Oripovning she’rlari faqat so‘z bilan emas, balki qalb ishtiroki bilan yozilgan. U Vatanni shunchaki geografik hudud emas, balki tarix, xalq, ona til va madaniyat uyg‘unligi deb tushunadi. Shuning uchun ham uning ijodi o‘zbek xalqining ruhiy dunyosini ifodalaydi.

Oripov she’riyatida vatanparvarlik motivlari milliy mustaqillik va erkinlik orzulari bilan uyg‘unlashadi. Shoirning (Men nechun sevaman O‘zbekistonni) kabi satrlarida Vatanni sevish insoniy burch, milliy g‘ururning ifodasi sifatida talqin etiladi. U o‘z asarlarida yoshlarga murojaat qilib, ularni yurt ravnaqi, millat sha’ni uchun fidoyilikka chorlaydi. Shu orqali u adabiyotning tarbiyaviy kuchini amalda ko‘rsatadi.

Abdulla Oripov ijodida xalq ruhining ifodasi, tarixiy xotira va mustaqillik g‘oyasi uyg‘unlikda namoyon bo‘ladi. U sovet davrida ham milliy qadriyatlarni

asrash, o‘zlikni yo‘qotmaslik uchun kurashgan ijodkorlardan biri edi. Shoir o‘z satrlarida mustamlakachilik zulmiga qarshi, erkinlik va adolat tarafdori sifatida chiqdi. Mustaqillik yillarida esa uning she’riyati yangi mazmun kasb etib, xalq qalbida faxr va g‘urur uyg‘otuvchi madaniy hodisaga aylandi.

Adabiyot fani nuqtai nazaridan qaraganda, Abdulla Oripov asarlari yoshlarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda eng samarali manbalardan biridir. Chunki shoir badiiy so‘z vositasida inson qalbiga kiradi, his-tuyg‘ular orqali fikr va ongni tarbiyalaydi. Bu jihatdan uning ijodi pedagogik ahamiyat kasb etadi. Oripovning (Sen etma Vataningni xor, bu yurt seniki, sen unga qarzdorsan) mazmunidagi satrlari yoshlar ongida mas’uliyat, sadoqat va iftixor tuyg‘ularini uyg‘otadi.

Shoirning asarlarida o‘zbek xalqining tarixiy taqdiri, mashaqqatli yo‘li, erkka intilishi, orzu-umidlari badiiy obrazlar orqali ifodalanadi. (Sohibqiron ruhiga murojaat), (Ko‘hna dunyo), (Genetika), (Munojot) kabi asarlarda insoniyat, millat, adolat, iymon va e’tiqod masalalari yuksak falsafiy darajada tahlil etilgan. Ayniqsa, (Genetika) she’rida inson nasl-nasab, xalq xotirasi va milliy genetik kod haqida chuqur fikrlar ilgari suriladi.

Abdulla Oripov nafaqat shoir, balki jamiyat arbobi sifatida ham vatanparvarlik g‘oyalarining targ‘ibotchisi edi. U xalqaro minbarlarda o‘zbek xalqining sha’nini, tilini, madaniyatini himoya qilgan. O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi matnini yozgani ham bejiz emas — bu uning yurt oldidagi eng ulug‘ xizmatlaridan biridir. Madhiyaning har bir satrida vatan sevgisi, xalq birligi va mustaqillik g‘ururi mujassamdir.

Shoir ijodi yoshlar tarbiyasida bebaho manba bo‘lib xizmat qiladi. Uning she’rlari orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarda milliy g‘urur, yurtparvarlik, ona tilga hurmat, mehnatsevarlik va insoniy fazilatlarni singdiradilar. Oripov asarlari adabiyot darslarida estetik tarbiya vositasi sifatida alohida o‘ringa ega. Ularning badiiy til boyligi, ramziy ifodasi, hayotiy mavzularni yoritish uslubi yoshlarning ma’naviy olamini boyitadi.

Abdulla Oripov she’riyatining tarbiyaviy kuchi shundaki, u his-tuyg‘u bilan aqlni, yurak bilan ongni uyg‘unlashtiradi. Shoir so‘zi o‘quvchini fikrlashga, o‘zligini

anglashga undaydi. U adabiyot orqali jamiyatda ijobiy o‘zgarishlar qilish mumkinligini ko‘rsatadi. Uning satrlarida Vatan insonning vijdon mezoni, hayotining ma’naviy markazidir. Shu bois, Oripov ijodi orqali yoshlarda fidoyilik, mehr va sadoqat kabi yuksak fazilatlar shakllanadi.

Abdulla Oripov ijodini o‘rganish bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Uning she’riy merosi mustaqil O‘zbekiston yoshlari uchun ma’naviy dasturulamal vazifasini bajaradi. Vatanparvarlik g‘oyalarini badiiy ifoda orqali yetkazish, adabiyotning tarbiyaviy rolini kuchaytirish, yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalashda shoir asarlarining o‘rni beqiyosdir.

Abdulla Oripov ijodi o‘zbek adabiyotining eng yorqin sahifalaridan biridir. Uning asarlarida Vatanga muhabbat, millat sha’ni, insoniy fazilatlar badiiy so‘z qudrati bilan yuksak darajada ifoda etilgan. Shoir ijodi nafaqat estetik zavq manbai, balki ma’naviy tarbiya maktabidir. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Oripov she’rlari mustahkam manba bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun u nafaqat o‘zbek adabiyotining faxri, balki millat qalbining ifodasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oripov A. Saylanma. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2011. – B. 356.

2. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B. 180.

3. Sultonov M. Adabiyot va vatanparvarlik. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. – B. 201.

4. Qosimova N. Abdulla Oripov she’riyatida milliy qadriyatlar. – Samarqand: Registon, 2020. – B. 147.

5. Yo‘ldoshev S. Mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B. 223.

ХАЙРИДДИН СУЛТОННИНГ “БОБУРИЙНОМА” ВА ПИРИМҚУЛ ҚОДИРОВНИНГ “ЮЛДУЗЛИ ТУНЛАР” АСАРЛАРИДА БОБУР ВА БОБУРИЙЛАР СУЛОЛАСИНИНГ ЁРИТИЛИШИ

Шоҳсанам Гулматова,

ЧДПУ Гуманитар фанлар факултети ЎТА 2-курс магистранти

Илмий раҳбар: Гуландом Тоғаева,

ЧДПУ Гуманитар фанлар факультети

Ўзбек адабиётшунослиги кафедраси доценти,

филология фанлари номзоди, ***Email:*** *g.togayeva@cspu.uz*

Аннотация. Ўзбек адабиётида тарихий шахсларнинг ҳаёти, фаолияти ва маънавий дунёқарашини ёритиш орқали ўқувчини миллий қадриятларга ҳурмат руҳида тарбиялаш анъанаси бор. Бу борада Хайриддин Султоннинг “Бобурийнома” ва Пиримқул Қодировнинг “Юлдузли тунлар” асарлари алоҳида эътиборга лойиқ. Икки асарда ҳам буюк давлат арбоби ва шоир Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг шахсияти, унинг сиёсий фаолияти, қалбан дуч келган зўравонликлар, изтироблар ва тарихий даврнинг мураккаб воқеалари бадиий тасвир орқали очиб берилган. Ушбу мақолада ҳар икки асар чуқур таҳлил қилиниб, муаллифларнинг тарихий материал билан ишлаш маҳорати ҳақида сўз боради.

Калит сўзлар: *Бобур, сулола, бобурийлар даври, сюжет, бадиий тасвир, тугун.*

Abstract. Uzbek literature traditionally cultivates respect for national values in readers by elucidating the lives, work, and spiritual worldview of historical figures. In this regard, the works "Boburiynoma" by Khayriddin Sultan and "Starry Nights" by Pirimkul Kodirov deserve special attention. In both works, the personality of the great statesman and poet Zakhiriddin Muhammad Babur, his political activities, the violence he endured, the suffering, and the complex events of the historical period are revealed through artistic depiction.

Key words: *Babur, dynasty, Babur period, plot, artistic image, knot.*

Аннотация. Узбекская литература традиционно воспитывает в читателе уважение к национальным ценностям, освещая жизнь, деятельность и духовное мировоззрение исторических личностей. В этом отношении особого внимания заслуживают произведения Хайриддина Султана «Бобурийнома» и Пиримкуля Кодирова «Звёздные ночи». В обоих произведениях личность великого государственного деятеля и поэта Захириддина Мухаммада Бабура, его политическая деятельность, пережитое им насилие, страдания и сложные события исторического периода раскрываются посредством художественного изображения. В данной статье представлен углублённый анализ обоих произведений и обсуждается мастерство авторов в работе с историческим материалом.

Ключевые слова: *Бабур, династия, период Бабура, сюжет, художественный образ, узел.*

Ўзбек адабиётида тарихий шахсларнинг ҳаёти, фаолияти ва маънавий дунёқарашини ёритиш орқали ўқувчини миллий қадриятларга ҳурмат руҳида тарбиялаш анъанаси бор. Бу борада Хайриддин Султоннинг “Бобурийнома” ва Пиримқул Қодировнинг “Юлдузли тунлар” асарлари алоҳида эътиборга лойиқ. Икки асарда ҳам буюк давлат арбоби ва шоир Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг шахсияти, унинг сиёсий фаолияти, қалбан дуч келган зўравонликлар, изтироблар ва тарихий даврнинг мураккаб воқеалари бадиий тасвир орқали очиб берилган. Ушбу мақолада ҳар икки асар чуқур таҳлил қилиниб, муаллифларнинг тарихий материал билан ишлаш маҳорати, Бобур ва Бобурийлар сулоласини ёритишдаги ютуқ ва камчиликлари, ижтимоий-сиёсий муҳитнинг акс эттирилиши ўрганилади.

Хайриддин Султоннинг “Бобурийнома” романи Заҳириддин Муҳаммад Бобур шахсиятига, унинг давридаги сиёсий курашлар ва маънавий изтиробларга бағишланган. Асарда Бобур на фақат бир давлат раҳбари, балки қалбида шеъриётга, санъатга, маърифатга чексиз муҳаббат туйғуси билан яшаган инсон сифатида намоён бўлади. Масалан, романнинг бир қисмларида Бобур ўзининг ёшлигидаги Ортикбек билан курашларини эслаб, инсон ҳаётида

ғалаба ва мағлубиятнинг ўзаро боғлиқлиги, тақдир ва ирода ўртасидаги зиддиятларни ҳал қилмоқчи бўлади.[1.156]

Ёзувчи асарда Бобурни тарихий манбаларга таянадиган, лекин бадиий фантазия билан бойитилган, теран руҳий кечинмаларга эга қаҳрамон сифатида кўрсатади. Бобурнинг ички зиддиятлари, унинг давлатчилик тўғрисидаги қарашлари, муҳаббати ва инсонпарварлиги асарнинг асосий ўзагини ташкил этади. Асарда бобурийлар сулоласининг кейинги авлодлари ҳам кенг қамровда ёритилади. Жумладан, Ҳумоюн, Акбар, Жаҳонгир, Шоҳ Жаҳон ва Аврангзеб каби ҳукмдорлар ҳақидаги қисқача маълумотлар ва уларнинг Бобур ғояларини қандай давом эттиргани борасида фикрлар берилган. Бу Бобурнинг фақат ўзи эмас, балки унинг асос солган давлат тизими, маданияти ва дини ҳам муҳокама қилинганини кўрсатади.

Пиримқул Қодировнинг “Юлдузли тунлар” романи ҳам ўзбек тарихий прозасида алоҳида ўрин тутади. Асарда Бобур шахсияти нафақат тарихий шахс сифатида, балки руҳий кечинмаларга эга инсон сифатида кенг намоён бўлади. Қодиров тарихий маълумотларга асосланган ҳолда, уларни бадиий тафаккур билан уйғунлаштириб, Бобур образини ҳаётий ва таъсирчан қилиб ярата олган. Асардаги воқеалар Хирот, Самарқанд, Андижон ва Ҳиндистон каби жойларда кечади. П.Қодиров ҳар бир маконни тарихий ва этнографик жиҳатдан ҳам тўлақонли тасвирлайди. Масалан, Самарқанддаги қозикалон, мадрасалар ва бозор муҳити ҳақидаги воқеалар Бобурнинг юртга бўлган муҳаббати, ўтган даврларни соғиниш туйғуси билан берилган. Бу туйғулар, айниқса, Бобурнинг онасига боғлиқ хотиралар орқали кучли таъсир уйғотади.

Муаллиф реал тарихий шахсларнинг бадиий образини яратишда муваффақият қозонган. Жумладан, Муҳаммад Шайбоний билан бўлган кураш, унинг психологияси, ҳамда Бобурнинг узоқ мусофирликда кечирган кунлари катта тафсилот билан берилган.

Икки романнинг марказида Бобур шахсияти турса-да, улардаги ёндашув ва услуб фарқли. Хайриддин Султон Бобур ва унинг авлодларини кенг қамровда тасвирласа, Пиримқул Қодиров Бобурнинг шахсий ҳаёти ва ички

кечинмаларига кўпроқ эътибор қаратади. Қодировнинг романида Бобурнинг Нигоригонга бўлган муҳаббати, онасининг вояга етишга таъсири, ватанни ташлаб чиқиш хақидаги кўнглидаги пушаймонлик теран берилган. “Бобурийнома” асари тарихий хронологияга таянган ҳолда кенг сиёсий воқеаларни қамраб олса, “Юлдузли тунлар”да тарихий давр ва шахсият руҳий теранликда ёритилади. Масалан, Султон асарида Бобурнинг Ҳиндистонга юришлари ва унинг у ердаги давлат тузилиши ҳақидаги режалари тўғри берилса, Қодировда Бобурнинг унгача бўлган изтиробли йўли, аёллар ва оилавий муносабатлари кучли психологик таҳлил билан тасвирланади. Ҳар икки асарда ҳам тарихий муҳитнинг теран акс эттирилгани, урф-одатлар, дунёқараш, исломий ва суфий қарашлар ўрин олган. Бобур образи ҳар икки романнинг марказий тимсоли бўлиб, муаллифлар уни халоскор, фидоий, шу билан бирга изтиробга тўла инсон сифатида кўрсатишга ҳаракат қилган.[2.116]

Ҳар икки муаллиф тарихий материални нафақат билиб, балки уни таҳлил қила оладиган даражада ўзлаштирган. Хайриддин Султоннинг услуби сўз бойлиги, кўргазмали ифодалари билан ажралиб туради. У тарихий воқеаларни тўғридан-тўғри эмас, балки бадиий деталь ва символика орқали кўрсатади.[3.143] Масалан, у Бобур қалбини “юз йиллик ёмғирлардан намланган гул” деб таърифлайди. Пиримқул Қодиров эса характерида руҳийлик ва мураккаб психологик ҳолатларнинг ифодасига катта эътибор беради. Унинг тили оддий, лекин таъсирчан. Масалан, Бобур онасини соғиниб: “Мен юртни эмас, онамнинг нафасини соғиндим”, дея йиғлайди. Бу сатр нафақат образни, балки туйғуни ҳам юракка етказади. Хайриддин Султоннинг “Бобурийнома” ва Пиримқул Қодировнинг “Юлдузли тунлар” асарлари орқали Бобур ва унинг сулоласи ҳақида кенг тасаввурга эга бўламиз. .[4.176] Икки муаллиф ҳам тарихий ҳақиқатни ҳурмат қилган ҳолда, бадиий қиёфа орқали тарихни жонлантиришга муваффақ бўлган. Улар тасвирлаган Бобур — тарихий шахс, аммо у орқали миллий онг, ватансеварлик, маърифат ва адолат руҳи ўқувчига етказилган. Бу асарлар нафақат адабий, балки маънавий ва тарбиявий аҳамиятга ҳам эга бўлиб, ёш авлодга тарихий меросни қадрлаш, уни теран англашга ёрдам

беради. Ҳар икки муаллиф ўзбек тарихий роман жанрида янги поғоналарни яратган ва келажак адиблар учун илҳом манбаи сифатида хизмат қилмоқда.

Қиёсий таҳлил: умумийлик ва фарқлар

Бобур образининг ифодаланиши:

– П. Қодировда Бобур – инсон, шахс, шоир ва сиёсий арбоб. Унга қалб тебранишлари, ички кечинмалари чуқур тасвирланади.

–Х. Султонда Бобур – сулоланинг асосчиси сифатида кўпроқ тарихий ва сиёсий мақомда намоён бўлади.

Тарихийлик ва бадиийлик мувозанати:

– П.Қодиров тарихийлик ва бадиийликни мувозанатли ушлаган. Тарихий воқеалар ўқувчи қалбига таъсир қилувчи ҳолда туюлади.

– Х. Султонда тарихий фактлар устунроқ, илмий ва хронологик тўпланган бўлиб, у қаҳрамонлар тақдири орқали тарихий жараёнларни кўрсатишга ҳаракат қилади.

Услуб:

– П.Қодиров – классик адабий услубнинг давомчиси, романтик, фалсафий ёндошув бор.

– Ҳ.Султон – хроник, реалистик услубда ёзган, тарихий тадқиқотга хос ёндашув бор.

Ёзувчилар маҳорати: тарихий драматизм ва ички изтиробни теран тасвирлашида кўринади. Пиримқул Қодиров Бобурнинг фожиали тақдирини, унинг Ватан соғинчи, қалб изтироблари ва оилавий муносабатларини чуқур бадиийлаштирган. Унинг Бобур ҳақидаги тасвири ўқувчида қалбни титратувчи таъсир қолдиради. [5.321] Хайриддин Султон асарида шоҳларнинг шахсий ҳаётидан кўра, уларнинг ислоҳотлари, сиёсий қарашлари ва тамаддунга қўшган ҳиссаси устувор. Бу жиҳат ҳам муҳим – чунки у ўқувчида фикрлаш, таққослаш қобилиятини оширади.

Хайриддин Султон ва Пиримқул Қодиров асарлари орқали Заҳириддин Муҳаммад Бобур образи миллий маънавиятимизнинг тимсоли сифатида қайта жонлантирилди. Улар нафақат Бобур шахсиятини, балки унинг давридаги

ижтимоий-сиёсий зиддиятларни ҳам таҳлил қилиб, ўқувчини теран тафаккурга ундайди. Ҳар икки ёзувчининг асарлари бадиий етуклик, тарихий ҳақиқатга садоқат ва миллий ўзликни англаш руҳида ёзилган. Бу асарлар нафақат адабий, балки маънавий ва тарбиявий аҳамиятга ҳам эга бўлиб, ёш авлодга тарихий меросни қадрлаш, уни теран англашга ёрдам беради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Karimova Y. O‘zbek adabiyotida Bobur obrazi: tadrij va talqin. f.f.d.b.f.d. (PhD) avtoreferati, -J, 2024.

2. Sulton X. Boburiynoma: Ma‘rifiy roman. - T.: Sharq, 1997. - B. 5.

3. Sulton X. Boburiynoma: Ma‘rifiy roman. - T.: Sharq, 1997. - B. 341.

4. Rakhmanova, N. A. (2025). Comparative-typology analysis of the epistles "Jamshid and Khurshid" and "Farkhad and Shirin". Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 6(04), 271–281. https://doi.org/10.37547/mesmj-V6-I4-28.

5. Raxmanova, N. (2022). Alisher Navoiyning epizodik obrazlar yaratish mahorati. In International Conference on Developments in Education (Vol. 1, No. 1, pp. 114-118).

MUSTAQILLIK HIKOYASIDA MUSTAMLAKACHILIK ASORATINING BADIIY TALQINI

Ziyadulayeva Dilafro‘z Narzulla qizi

CHDPU o‘zbek adabiyotshunosligi

kafedrasi tayanch doktoranti

+99888-877-18-03

ziyadullayevadilafroz@gmail.com

Annotatsiya Mazkur maqolada istiqlol davri o‘zbek nasrida mustamlakachilik siyosati oqibatida shakllangan ma’naviy-ruhiy va ijtimoiy deformatsiyalarning badiiy aks etish xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot obyekti sifatida Nabi Jaloliddinning

“Mustaqillik” hikoyasi tanlanib, unda qaramlik psixologiyasi, tarixiy xotira travmasi hamda milliy identitetni qayta anglash jarayonlari postkolonial adabiyotshunoslik metodologiyasi asosida talqin etiladi.

Kalit so‘zlar: *postkolonializm, istiqlol davri nasri, mustamlakachilik merosi, tarixiy xotira, milliy identitet, qaramlik psixologiyasi, badiiy interpretatsiya.*

Аннотация. В данной статье анализируются особенности художественного отражения духовно-психологических и социальных деформаций, с формировавшихся в результате колониальной политики в узбекской прозе периода независимости. В качестве объекта исследования выбрано рассказ Наби Жалолиддина «Мустакиллик» (Независимость), в котором на основе методологии постколониального литературоведения интерпретируются психология зависимости, травма исторической памяти и процессы переосмысления национальной идентичности.

Ключевые слова: *постколониализм, проза периода независимости, колониальное наследие, историческая память, национальная идентичность, психология зависимости, художественная интерпретация*.

Abstract. This article analyzes the characteristics of the artistic reflection of spiritual, psychological, and social deformations formed as a result of colonial policy in Uzbek prose of the independence period. Nabi Jaloliddin's short story "Independence" (Mustaqillik) is selected as the object of research, where the psychology of dependence, the trauma of historical memory, and the processes of redefining national identity are interpreted based on the methodology of postcolonial literary studies.

Keywords: *postcolonialism, independence period prose, colonial heritage, historical memory, national identity, psychology of dependence, artistic interpretation.*

Istiqlol yillarida o‘zbek adabiyoti mafkuraviy cheklovlardan xalos bo‘lish bilan birgalikda, milliy tafakkurning ichki qatlamlarini qayta idrok etish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Endilikda adabiyot ideologik filtrsiz tasvirlash, milliy xotirani tiklash va mustamlakachilik davrida shakllangan ma’naviy-ruhiy asoratlar ochib berish

vazifasini zimmasiga oldi. Mustaqillik davri o‘zbek nasrida sobiq mustabid tuzum tomonidan shakllantirilgan “homo sovieticus” tipining ma’naviy-ruhiy inqirozi, identitet krizisi hamda ichki qullik stereotiplari yetakchi mavzulardan biriga aylandi.[1:258]Bu tip — sovet mafkurasi ta’sirida shakllangan, tashabbussiz, buyruqbozlik tizimiga moslashgan shaxs modelini anglatadi. Istiqlol davri nasriy adabiyoti ana shu sun’iy identitetning parchalanishi hamda milliy o‘zlikni qayta anglash jarayonini badiiy tadqiq etishga kirishdi.[2:24]

Bu jarayonni yoritishda Nabi Jaloliddin nasri ilmiy muhokamada alohida o‘rin egallaydi. Adib asarlarida sobiq tuzum qoldirgan ma’naviy jarohatlar, ruhiy komplekslar va ichki qullik psixologiyasi individual taqdirlar misolida chuqur psixologik tahlil orqali ochib beriladi. Nasrda hayotiy ijtimoiy voqelik zamiridagi og‘ir ruhiy kechinmalar ramziy qatlamlarga boy tarzda ifodalanadi. Unda milliy og‘riqlar — nafaqat individual, balki jamiyatning umumiy iztirobi sifatida tafsirlanadi. Adibning “*Mustaqillik*” hikoyasi inson ruhiyatidagi murakkab evrilishlar silsilasini aks ettiruvchi konseptual asardir. Hikoya quyidagi jumla bilan boshlanadi: “Sulton buva olamdan o‘tdi”. Bu boshlang‘ich satr orqali adib asarga dramatik ohang beradi, qarshilik va yo‘qotish kontseptsiyasini boshidanoq markazga qo‘yadi. Sulton buva obrazi — butun bir jamiyatning yo‘qotishlari, ruhiy iztiroblari ramzi sifatida tushuniladi.

Hikoyada Sulton buvaning mustaqillik e’lon qilingan kuni yig‘lashi haqida jurnalist eslatadi. “Rahmatli Sulton buva mustaqillik e’lon qilingan kuni yig‘laganakan...”[3:2]

Bu joy asarda ifodalangan epizodik tafsilot emas, balki muallifning asosiy g‘oyaviy chizig‘i bo‘lib, mustaqillikning tashqi quvonchi bilan ichki kechinmalar o‘rtasidagi qarama-qarshilikni ochib beradi. Bu yig‘i — o‘tmish travmasining kechmagan jarohati, oqlanmagan adolat va ichki bo‘shliq ifodasidir.

Muallif hikoyada Sulton buvaning otasi haqida to‘g‘ridan-to‘g‘ri dramatik sahna keltirmaydi. Biroq u butun umr davomida “xalq dushmani” tamg‘asi ostida yashagan, bu esa uning ruhiy holatiga keskin bosim ko‘rsatgan. Shu tarzda asar

mustamlakachilik davrining ruhiy qoldiqlarini shaxs psixikasiga ta’sir doirasida qayta tiklaydi.

Asarda Oq do‘ppichali kishi tasviri Afg‘on urushi fojiasi orqali ramziy ma’noga ega bo‘ladi. Muallif uning ko‘zlaridagi “cheksiz bo‘shliq” orqali ma’naviy vakuumni anglatadi, bu — sobiq imperial siyosatning inson qalbida qoldirgan izidir. Urushdan qaytmagan o‘g‘lining xotirasi uni doimo azoblaydi. “Jurnalistning bag‘ri jizilladi, alamzada-da,deya o‘yladi, o‘g‘li Afg‘onda nobud bo‘lgan. Kuyganidan shu ko‘yga kelganmi, juda fe’li tor” Yuqoridagi parchadan ham bilishimiz mumkinki, mustamlakachilik insonning eng qadrli narsalaridan mahrum qiladi.

Muallif bozorchi, fermer va jurnalist obrazlari orqali mustaqillikni qabul qilishning turli darajalarini ko‘rsatadi:

Bozorchi uchun mustaqillik — iqtisodiy erkinlik, u bozor mexanizmlari orqali hayotini yaxshilashni maqsad qiladi. Fermer uchun mustaqillik — yer ustidan to‘liq nazorat, u uchun mustaqillik tuproq bilan bevosita bog‘liq. Jurnalist uchun mustaqillik — g‘oyaviy va axborot erkinligi, u mustaqillikni fikrni erkin ifodalash vositasi sifatida qabul qiladi.

Bu uch xil talqin mustaqillik tushunchasining ijtimoiy qatlamlar kesimida turlicha anglanishini ochib beradi, ya’ni mustaqillik yagona hodisa emas, balki ijtimoiy identitetlar o‘rtasidagi murakkab dialektika hisoblanadi

Hikoyaning yakunida Sulton buvaning vasiyati asarning kulminatsion nuqtasi hisoblanadi. “Aziz hamqishloqlarim! Men u dunyoga bu dunyodan rozi bo‘lib ketyapman. Chunki men Vatanimizning mustaqil bo‘lganini ko‘rdim, shu kunga yetdim”. Muallif bu g‘oyani mustaqillikni siyosiy hodisa darajasidan ko‘ra ma’naviy mas’uliyat va ongli tanlov sifatida talqin qiladi. Tuproq motivi ham shu yerda zaruriy ramziy qatlamga ega bo‘ladi: mustamlakachilik uni xomashyo sifatida ko‘rgan bo‘lsa, mustaqillik uni ona, tarix va milliy xotira timsoli sifatida idrok etishni o‘rgatadi [1: 15].

“*Mustaqillik*” hikoyasi individual taqdir orqali jamiyatning ma’naviy uyg‘onish jarayonini aks ettiradi. Asar shuni ko‘rsatadi. Sobiq tuzumning ijtimoiy bosimi ruhiy kompleks va identitet krizisini yuzaga keltirdi. Tarixiy traumasining (qatag‘on, urush)

badiiy idrok etilishi milliy xotirani tiklash va shaxsning ichki erkinligini qayta anglashda muhim rol o‘ynaydi. Mustaqillikni anglash — bu nafaqat tashqi erkinlik, balki ichki ozodlik uchun mas’uliyat va ongli tanlovdir.[4:31]

Shu tarzda Nabi Jaloliddin nasri o‘quvchini tashqi erkinlikdan ichki erkinlikka — ruhan ozod bo‘lish sari yo‘naltiradi va istiqlol davri o‘zbek nasrida milliy tafakkurning dekolonizatsiya bosqichini badiiy jihatdan ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Normatov U. Ijodkorning ko‘ngil dunyosi. – Toshkent: Sharq, 1996. – 45-b.

2. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2016.

3. Jaloliddin Nabi. Mustaqillik (hikoya) // "Sharq yulduzi" jurnali, 2011, 4-son

4. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. – 112-b.

ҲАМЗА ҲАКИМЗОДА НИЁЗИЙ ИЖОДИ ВА МИЛЛАТНИНГ ЛИРИК СИЙМОСИ

Тоғаева Гуландом Жуммаевна,

Чирчиқ давлат педагогика университети

Ўзбек адабиётшунослиги кафедраси доценти,

филология фанлари номзоди

OrcID: https://orcid.org/my-orcid?orcid=0009-0008-0215-147

g.togayeva@cspu.uz

Аннотация. Мақолада шоир Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий шеърларида жадид адабиёти ўз олдига қўйган улкан вазифаларни чин дилдан ҳис этиши ва элни маърифат, кенг дунёвий илмга чақириши, истибдодга қарши маърифат билан курашиш зарурлигини англаб, ўз асарларида интеллектуал руҳни намоён этиши илмий жиҳатдан асослаб берилди.

Калит сўзлар: *миллат, маънавий-интеллектуал қиёфа, илм олиш, ўз тилининг луғат бойлиги, адабий-эстетик ҳодисалар, комил инсон.*

Abstract. This article provides a scientific justification for the fact that the poet Hamza Hakimzoda Niyazi sincerely understood the great challenges posed by contemporary literature in his poems, called on the people to seek enlightenment and expand secular knowledge, recognized the need to combat tyranny through education, and demonstrated an intellectual spirit in his works.

Key words: *nation, spiritual and intellectual image, acquisition of knowledge, rich vocabulary of one's own language, literary and aesthetic phenomena, accomplished personality.*

Аннотация. В статье научно обосновывается тот факт, что поэт Хамза Хакимзода Ниязи искренне осознавал великие задачи, поставленные современной литературой в его стихах, призывал народ к просвещению, к расширению светских знаний, осознавал необходимость борьбы с тиранией посредством просвещения и проявлял в своих произведениях интеллектуальный дух.

Ключевые слова: *нация, духовно-интеллектуальный образ, приобретение знаний, богатство лексики собственного языка, литературно-эстетические явления, совершенная личность.*

Донишмандлар инсон қалбини “олами кубро”, яъни “олам ичидаги энг катта олам”, деб аташган. Ўзи жисман заиф бўлса-да, фикри-шуури осмондаги юлдузларга етадиган Инсон қалам билан янада шарафланди, обрў-эътибор, эъзоз топди. Ҳаётда қанчалик қулайликлар кўпаймасин, электрон воситалар бизни қанчалик қуршаб олмасин, ижодкор сўзининг, қаламининг мавқеи асло пасайгани йўқ.

Шоир аслида ким? У ўз халқининг маънавий-маърифий ганжиналарини асраб-авайлаб, янада бойитувчи хазинабон, ўз даврининг нафасини, шукуҳини кейинги даврларга элтувчи тарихчи ва чароғбон, ниҳоят, келажакка томон қадам ташлаётган Ватанининг олдинги сафларида кетаётган руҳбондир. Шоир Ўз Тилининг луғат бойлигини, салоҳиятини оширувчи, адабий-эстетик

ҳодисаларни бирлаштириб, инсоният шу пайтгача эришган тафаккур мақомининг симметрияларини кашф қила оладиган, башариятни уйғотувчи Комил Инсондир.

Ҳар бир шоир ўз навбатида, қайси даражада бўлмасин, шунга интилиб келган. Ўзбек адабиёти тарихига назар солсак ҳам, ана шу тамойилнинг белгиларини кўрамиз. Тўғри, адабиёт ишига кўп даврларда синфийлик нуқтаи-назаридан ёндашилди, адабий анъана ва методлар, адабий ютуқлар партиявий жиҳатдан баҳоланилди. Лекин ўзбек адабиётида яратилган ҳақиқий асарлар ўз ҳаётчанлигини йўқотмади. Чунки зоҳиран синфийлик характерига эгадек туюлган бу асарларнинг ўз руҳи, ички мазмунида умуминсонийлик концепцияси, жаҳон халқларини бахтли, фаровон ва аҳил кўриш ғоялари мужассам эди.

Ўзбек адабиёти тарихига назар солсак ҳам, ана шу тамойилнинг белгиларини кўрамиз. Тўғри, адабиёт ишига кўп даврларда синфийлик нуқтаи-назаридан ёндашилди, адабий анъана ва методлар, адабий ютуқлар партиявий жиҳатдан баҳоланилди. Лекин ўзбек адабиётида яратилган ҳақиқий асарлар ўз ҳаётчанлигини йўқотмади. Чунки зоҳиран синфийлик характерига эгадек туюлган бу асарларнинг ўз руҳи, ички мазмунида умуминсонийлик концепцияси, жаҳон халқларини бахтли, фаровон ва аҳил кўриш ғоялари мужассам эди.

Буни жадид даври адабиёти вакиллари ижодини ўрганганимизда ҳам кузатишимиз мумкин. Фитрат, Ҳамза, Ибрат, Тавалло, Сидқий, Чўлпон кабилар ижоди ҳақида сўзлаганда адабиёт ўз даврининг бадиий инъикоси, бу ижодкорлар эса ўзи яшаб турган воқеликнинг онгли, ҳушёр аъзоси бўлганлигининг гувоҳи бўламиз. Ҳа, ҳақиқий ижодкор чор-атрофдаги воқеа-ҳодисаларга шунчаки гувоҳ эмас, балки уларни баҳолай олувчи тарозубон, мисоли олтинни мисдан ажрата олувчи заргар каби ҳақиқатни ёлғондан ажрата олувчи нозик кузатувчидир. Жумладан ўзбек жадид маърифатпарварларининг забардаст вакили Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий ҳаёти ҳам катта ташвишларга йўғрилган бўлса-да, ўзбек миллий адабиётида чуқур из қолдиришга эришди.

Аввало, шоир жадид адабиёти ўз олдига қўйган улкан вазифаларни чин дилдан ҳис этди ва элни маърифат, кенг дунёвий илмга чақирди, истибдодга қарши маърифат билан курашиш зарурлигини англаб, ўз асарларида интеллектуал руҳни намоён этди.

Мустақиллик йилларига келиб, Ҳамза ижоди ва ҳаётига объектив ёндашилган мақолалар, тадқиқотлар матбуотда эълон қилинди. Улар сирасига таниқли олимлар Наим Каримов [1]нинг “Ўзбекистонда катта қирғин бошоланиши”, “Ҳамзани ким ўлдирган?”, “Ҳамза ва мухторият”, О.Шарафиддиновнинг “Истибдод қурбони”, Б.Қосимовнинг “Янги тафаккур: изланишлар, машаққатлар”, Л.Қаюмовнинг “Биз билмаган Ҳамза” ва тадқиқотчи Абдумалик Ёқубнинг “Тикансиз гул: жадидчилик ва Ҳамза” каби мақолаларни киритишимиз мумкин.

Мустақиллик йилларигача шоир ижодига бир томонлама, субъектив ёндашув мавжуд бўлган. Шоир ижодини баҳолашда социалистик реализм методига асосланилган. Ҳатто шоирнинг диний-дунёвий қарашларига ҳам “атеистик” ёрлиқ ёпиштирилган.

Аммо Ҳамза ижодининг руҳиятига, ички мазмунига чуқур назар ташласак, бундай тафсилга ҳожат қолмайди.

Ё илоҳо, сангадур ҳамду сано,
Қодиро, ҳайю тавоно зулаъло.
Ҳам қадимсан, ҳам азал, лоязал,
Ворлиғингга йўқ сани ҳеч интиҳо.
Ворлиғингга ул шаҳодат верғуси,
Ой ила хуршиду ҳам арзу само.
Бир сифотинг кулҳу оллоҳу аҳад,
Йўқ шеригинг, яккасан, ё раббано.-

Шоирнинг “Тўла асарлар тўплами” [4] дан ўрин олган ушбу ғазали муножот руҳида ёзилган бўлиб, Яратганнинг бирлигию, улуғлиги ва сифатларига эътибор қаратади. Шу билан бирга ожиз ва шикаста қалбнинг дил изҳорларини қаламга олади. Ҳам азал ҳам боқий бўлган, аввал ва охирда

мавжуд бўлган Раббининг сифатларини бир-бир айтар экан, ҳатто ою қуёш ҳам сенинг борлигингга гувоҳдир, деб шукрона келтиради.

У диндорларни танқид қилар экан, динга эмас, мутаассиб, бидъатчи уламоларга қарши чиқади, диний аҳкомларни ўз фойдасига талқин қилувчи, фуқаро ғамидан ўз роҳатини устун қўювчиларни танқид тиғи остига олади. Олим Т.Зуфаров ҳамда тадқиқотчи Ш.Амоновлар олиб борган тадқиқотларда кўрсатилишича, шоирнинг турғунлик йиллари чоп этилган “Мукаммал асарлар тўплами” да ҳам “Тўла асарлар тўплами” да ҳам уни асл манбаларга солиштирганда қатор матний тафовутлар борлиги кўзга ташланади. Олим Т.Зуфаров таъкидича, бу тафовутлар уч хил шаклда намоён бўлади: қисқартиришлар(яъни, шоир шеърларидаги мисра ва сатрлар асоссиз равишда тушириб қолдирилган), ўзгартиришлар(шоир қўллаган “битсун”, “ўқисун” каби сўзлар “битсин”, “ўқисин” тарзида ўзлартирилиб, замонавийлаштирилган) ва маънавий ўзгачаликлар(маъносига эътибор берилмай ўзгартирилган сўзлар). Тадқиқотчи Ш.Амонов тўғри айтганидек, бу матний тафовутлар ўша пайтдаги ҳукмрон мафкура таъсирида юзага келган [2].

Шоирнинг 1988 йилда чоп этилган “Тўла асарлар тўплами”, 2-жилдида [5] эълон қилинган “Эски Турон” деб номланувчи халқ ашуласининг поэтик интонацион хусусиятлари асосида ёзилган “Дармон истариз” деб номланувчи ашула матнида ҳам ўзгаришлар мавжуд:

Эй мусулмонлар, қачон биз дарда дармон истариз,
Бу қоронғу кечамизга моҳи тобон истариз,
Биз ватан авлодина илм ила урфон истариз,
Ёдгори қолгудек ислома унвон истариз,
Эй мусулмонлар, келинглар хатми Қуръон истариз.
Миллата шавкат, тараққий, шаъну даврон истариз.-

Ш.Амонов таъкидлашича, ушбу ашула нақоратидаги “хатми Қуръон истариз” сўзлари асл матнда “ҳукми Қуръон истариз” экан. “Хатми Қуръон”-бу Қуръонни хатм қилиш, қироат билан ўқиш демакдир. “Ҳукми Қуръон истариз”

деганда маъно юки янада ортиб, шоир мусулмонларни Қуръон ҳукмлари, аҳкомлари асосида яшашга чақираётгани англашилади.

Яна бир ўринда шоирнинг “Дардига дармон истамас” шеърида:

“Жамшид”у “Зарқум”,”Баёз” аҳли салоҳни илгида,

Ё ақоид, ё ҳадис, тасвири қуръон истамас,

Ухлама, кўп ўзбек эли, асри тараққий вақтида.-

дейилади. Асл матнда “тасвири қуръон “эмас, балки “тафсири Қуръон истамас” бўлар экан [2, 143-145-бетлар]. Бунда ҳам мисра мазмуни бир сўзни аламаштириш билан катта ўзгаришларга учраган. Миллат учун жон куйдириш, уни ижтимоий онгли бўлишини чин дилдан исташ, жаҳолат ва бидъатларга қарши маърифат билан курашишга чорлаш Ҳамза ижодиётининг асл меҳвари эди. 1915 йилдаёқ “Миллий ашулалар учун миллий шеърлар мажмуасининг” биринчи бўлими тузилиб, Қўқонда тошбосмада чоп этилиши ундаги асарлар миллий ўзига хосликни намоён этиши, илм ва тарбиявий нуқтаи назардан катта аҳамият касб этиши бежиз эмас эди. Унинг ижодида халқчиллик руҳи устивор эди. Рус олими В.Виноградов бир ўринда шундай таъкидлайди: “Бадиий адабиёт намунали адабий норматив ифоданинг қонуниятларини белгиловчи ўзига хос жараён, у шундай лабораторияки, унда умумхалқ тилидаги нутқ воситалари ижодий равишда қайта ишланади” [3, 223-бет]. Биргина “Йиғла, Туркистон” номли шеъри катта фалсафий-маърифий мазмунни ифода қилади:

Йиғла, йиғла, Туркистон, йиғла Туркистон,

Руҳсиз танлар тебрансун, йиғла Туркистон,

Тургил дарддан жисмингни соғла ,Туркистон,

Дониш ўтига бағринг доғла, Туркистон,

Белга ҳиммат камарин боғла, Туркистон,

Маърифатга етмоқни чоғла,Туркистон.

Ҳамза ижодининг лейтмотивини миллатга ўз оғир ҳолини англатиш, уни кенг дунёга янгича, юксак маърифий назар билан қарашга ундаш туйғуси ташкил қилади. Шу боис ҳам бу йўлда барчамиз, уламолардан тортиб боёнларгача, оддий фуқародан то амалдоргача бирлашиб миллат учун жон

куйдиришга бел боғлайлик, дея мурожаат қилади. Буни “Яшил гул” тўпламига кирган шеърлардан ҳам билиш мумкин:

Ҳақ йўлида жон берсак, бўлсак миллат қурбони,
Дин хизматина кирсак, бўлсак миллат қурбони.
Келинглар, диндошлар, бир иттифоқ этайлик,
Мактаб очуб, илм ўқуб, шояд олға кетайлик.

Хулоса: Ҳамза Ҳакимзода лар тарбиясидаги ноқисликлар, билимсизликнинг авж олиши, бунинг оқибатида ижтимоий ҳуқуқсизлик келиб чиқиши, бутун жаҳон тараққиёти юз бериб турган пайтдаги даврларда ўлкадаги бу бошбошдоқликлар ҳушёр қалбли шоирнинг энг катта дарду аламига айланган эди. Бу қайғу бутун жадид маърифатпарварлари учун ҳам умуминсоний қайғуга айланди. Ва шу даврда яратилган ҳар бир шеър, насрий ёхуд драматик асарлар ўзида ташиётган асл маънолар жавҳари ана шундан иборат эди. Зеро, миллат дардини теран томирлар билан ҳис қилиш шоирлик рутбасига ўта катта масъулият бағишлайди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Каримов Н. Ўзбекистонда катта қирғин бошланиши. // “Ўзбекистонда совет давлатининг қатағон сиёсати: келиб чиқиши сабаблари ва фожиали оқибатлари” илмий мақолалар тўплами. – Тошкент, 2012, 27-41-бетлар.

2. Амонов Ш. Ҳамза шеърияти нашрларига доир айрим мулоҳазалар.//Таълим тизимида ижтимоий-гуманитар фанлар. №3 2009. - Б.-143-145.

3. Виноградов В.О языке художественной литературы. - Москва: Гослитиздат, 1956. - С.223.

4. Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Тўла асарлар тўплами. 1-том. Девон. – Тошкент, Ўзбекистон ССР Фан нашриёти, 1988.

5. Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Тўла асарлар тўплами: 5 жилдлик. 2-жилд: Шеърлар. Педагогик рисолалар. - Тошкент, «Фан», 1988.

ERKIN VOHIDOV HAYOTI VA IJODI HAQIDA

Xoliqova Muslima Sherzod qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

xoliqovamuslima032@gmail.com

Ilmiy rahbar: Gulandom Tog‘ayeva,

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi dotsenti,

filologiya fanlari nomzodi.

Email: g.togayeva@cspu.uz

Annotatsiya. Erkin Vohidov (1936–2016) o‘zbek adabiyotining yorqin namoyandasi bo‘lib, she’riyat, dramaturgiya va tarjima sohasida katta hissa qo‘shgan. Uning ijodi milliy qadriyatlar, insoniylik va ma’naviyatni yuqori badiiy darajada ifodalaydi. Vohidovning asarlarida vatanparvarlik, sevgi, do‘stlik va inson ruhining chuqur kechinmalari markaziy o‘rinda. Shuningdek, u o‘zbek tilining rivojlanishida ham muhim rol o‘ynagan. Uning asarlari bugungi kun o‘quvchisi uchun ham ma’naviy tarbiya va estetik zavq manbai hisoblanadi. Vohidov ijodi milliy adabiyot tarixida muhim o‘rin egallaydi va kelajak avlodlar uchun ilhom manbai bo‘lib qoladi.

Kalit so‘zlar: *Erkin Vohidov, adabiyot, she’riyat, dramaturgiya, tarjima, milliy qadriyatlar, ma’naviyat.*

Abstract. Erkin Vohidov (1936–2016) was a prominent figure in Uzbek literature, contributing greatly to poetry, drama, and translation. His works reflect national values, humanity, and spirituality through highly artistic expression. Central themes in Vohidov’s writings include patriotism, love, friendship, and profound human emotions. He also played an important role in the development of the Uzbek language. His literary contributions remain a source of moral education and aesthetic enjoyment for modern readers and continue to inspire future generations.

Keywords: *Erkin Vohidov, literature, poetry, drama, translation, national values, spirituality.*

Аннотация. Эркин Вохидов (1936–2016) является ярким представителем узбекской литературы, внёс значительный вклад в поэзию, драматургию и перевод. Его творчество отражает национальные ценности, человечность и духовность в высокой художественной форме. В произведениях Вохидова центральное место занимают патриотизм, любовь, дружба и глубокие переживания человеческой души. Он также сыграл важную роль в развитии узбекского языка. Его работы остаются источником духовного воспитания и эстетического удовольствия для современных читателей и вдохновляют будущие поколения.

Ключевые слова: *Эркин Вохидов, литература, поэзия, драматургия, перевод, национальные ценности, духовность.*

O‘zbek adabiyoti XX asrda boy va rang-barang ijod namunalari bilan boyidi. Shu davrning yorqin vakillaridan biri - Erkin Vohidov (1936–2016) bo‘lib, u nafaqat she’riyat va dramaturgiya, balki tarjima va til rivojiga ham katta hissa qo‘shgan. Vohidov ijodi milliy qadriyatlar, insoniy tuyg‘ular va ma’naviyatni chuqur badiiy ifoda bilan ochib beradi. Uning asarlarida vatanparvarlik, sevgi, do‘stlik, fidoyilik va inson ruhining nozik kechinmalari markaziy o‘rin tutadi. Shu bilan birga, Vohidov she’riyatida o‘zbek xalqining tarixiy xotirasi va madaniy merosi ham yuksak badiiy darajada aks etgan.

Erkin Vohidov nafaqat ijodiy faoliyati, balki o‘zbek tiliga xizmat qilgan olim va tarjimon sifatida ham e’tirof etiladi. Uning tarjimalari dunyo adabiyoti namunalari bilan tanishtiruvchi muhim vosita bo‘ldi, she’riy va badiiy tarjimalar orqali o‘quvchilarni boy ma’naviy tajribaga ega qildi. Shu jihatlar Vohidov ijodini nafaqat adabiy, balki ma’naviy-madaniy jihatdan ham muhim qiladi.

Ushbu maqola Erkin Vohidovning hayoti, ijodiy faoliyati va o‘zbek adabiyotidagi o‘rni haqida tizimli tahlil berishga qaratilgan. Tadqiqot davomida uning asarlaridagi asosiy mavzular, badiiy uslublar, milliy qadriyatlarni ifodalash yo‘llari va zamonaviy o‘quvchi uchun ahamiyati o‘rganiladi. Shu bilan birga, maqola Vohidov ijodining kelajak avlod uchun ilhom manbai ekanligini ham ko‘rsatishga intiladi.

Erkin Vohidov ijodi o‘zbek adabiyotida chuqur iz qoldirganligi birinchi navbatda uning asarlaridagi milliy qadriyatlar va insoniylikning yuqori badiiy ifodasiga bog‘liq. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Vohidov she’riyatida vatanparvarlik, sevgi, do‘stlik, fidoyilik va inson ruhining nozik kechinmalari markaziy mavzular bo‘lib xizmat qiladi. U o‘z asarlarida nafaqat shaxsiy tuyg‘ularni, balki jamiyat hayotini, tarixiy voqealarni va insoniy munosabatlarni ham chuqur tahlil qilgan. Masalan, uning she’rlari va dostonlarida vatan sevgisi, milliy o‘zlikni saqlash va insoniy qadriyatlarni himoya qilish kabi mavzular ustuvor bo‘lib, ular o‘quvchini nafaqat estetik, balki ma’naviy jihatdan ham tarbiyalaydi.

Vohidovning dramaturgiya asarlari esa jamiyatdagi murakkab insoniy munosabatlarni ochib beruvchi muhim manba sifatida e’tiborga loyiqdir. U sahnadagi personajlar orqali turli xarakterlarni va ularning ruhiy kechinmalarini chuqur badiiy tarzda ochib beradi. Shu orqali Vohidov asarlarida insonning ichki dunyosi va tashqi olam bilan munosabatlari uyg‘unlikda tasvirlangan. Bu jihat uning ijodini nafaqat adabiy, balki psixologik va ijtimoiy tahlil manbai sifatida ham qimmatli qiladi. Shuningdek, Vohidovning tarjima faoliyati uning ijodini xalqaro miqyosda boyitgan.

Ushbu tadqiqot natijalariga ko‘ra, Erkin Vohidov XX asr o‘zbek adabiyotida milliy tafakkur, vatanparvarlik va insonparvarlik g‘oyalarini yuksak badiiy darajada ifoda etgan ijodkorlardan biri ekanligi aniqlandi. Shoirning hayoti va ijodi o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning shaxsiy kechinmalari, davr muammolari hamda xalq taqdiri she’riy asarlarida yorqin aks etgan.

Erkin Vohidov ijodining asosiy natijalaridan biri – ona tiliga, Vatanga bo‘lgan cheksiz muhabbatni adabiyot orqali mustahkamlashdir. Xususan, uning mashhur “O‘zbegim” qasidasida milliy g‘urur va tarixiy xotira kuchli lirik ohangda ifodalanadi:

Qayga borsam, boshda do‘ppim,

G‘oz yurarman gerdayib.

Olam uzra dong‘i ketgan,

O‘zbegimjon, O‘zbegim!

Mazkur misralar shoirning o‘z xalqiga bo‘lgan iftixorini ochib beradi va o‘quvchini milliy o‘zlikni anglashga undaydi.

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, Erkin Vohidov nafaqat lirik shoir, balki **ijtimoiy mas’uliyatni chuqur his etgan ziyoli adib** sifatida ham namoyon bo‘ladi. Uning “Ruhlar isyoni” dostoni bunga yaqqol misol bo‘lib, unda ozodlik, adolat va ma’naviy kurash g‘oyalari ilgari suriladi. Asarda shoir inson ruhining qullikka bo‘ysunmasligini ramziy obrazlar orqali ifodalaydi.

Shuningdek, Erkin Vohidov she’riyatida insoniy tuyg‘ular – muhabbat, sadoqat, vijdon masalalari muhim o‘rin tutadi. Uning lirikasida sodda, ammo chuqur mazmunli satrlar uchraydi.

Erkin Vohidov ijodi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Uning asarlari yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ona tilini e’zozlash va insoniy qadriyatlarga sodiq bo‘lishga da’vat etadi. Shoir adabiy merosi o‘zbek adabiyotining bebaho xazinasi sifatida ilmiy va ma’naviy jihatdan chuqur o‘rganishga loyiqdir.

Erkin Vohidov o‘zbek adabiyotining yorqin namoyandasi bo‘lib, uning ijodi nafaqat badiiy, balki ma’naviy, madaniy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Vohidovning she’riyati, dramaturgiyasi va tarjimalari milliy qadriyatlarni, insoniy tuyg‘ularni va ruhiy kechinmalarni chuqur badiiy ifoda bilan aks ettiradi. Uning asarlari vatanparvarlik, sevgi, do‘stlik, fidoyilik va inson ruhining nozik kechinmalarini markaziy mavzu sifatida yoritadi. Shu jihatlari bilan u nafaqat o‘z davrining, balki kelajak avlod adabiyotshunoslari va o‘quvchilari uchun ham katta ahamiyatga ega.

Vohidov ijodining yana bir muhim jihati uning tarjima faoliyatidir. Tarjimalar orqali u dunyo adabiyoti eng yaxshi namunalari bilan o‘zbek o‘quvchilarini tanishtirgan va o‘zbek adabiyotiga yangi badiiy shakllar va mavzularni olib kirgan. Bu esa uning ijodini nafaqat milliy, balki global adabiy jarayonda ham qimmatli qiladi. Tarjimalar orqali Vohidovning ijodi o‘zbek tilini boyitgan, xalqaro madaniy aloqalarni kuchaytirgan va yosh avlodni ma’naviy-estetik jihatdan tarbiyalashga xizmat qilgan. Shuningdek, tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, Vohidov ijodida milliylik va zamonaviylik uyg‘unligi mujassam. U milliy qadriyatlarni himoya qilgan holda,

xalqaro adabiyot tajribasini o‘z ijodiga singdira olgan. Shu bilan birga, uning asarlari insonning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari va ijtimoiy munosabatlarini chuqur tahlil qiluvchi manba sifatida ham ahamiyatlidir.

Umuman olganda, Erkin Vohidovning hayoti va ijodi o‘zbek adabiyotining rivojlanishida markaziy o‘rin tutadi. Uning asarlari milliy ruhni uyg‘otuvchi, ma’naviy qadriyatlarni mustahkamlovchi va kelajak avlodlar uchun doimiy ilhom manbai bo‘lib qoladi. Shu bilan birga, Vohidov ijodi ilmiy tadqiqotlar, adabiyotshunoslik va tarjima ishlarida ham muhim tahliliy manba sifatida xizmat qilishi mumkin. Shu jihatlari bilan Erkin Vohidov nafaqat o‘z davrining, balki butun o‘zbek adabiy merosining ajralmas qismi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vohidov, Erkin. She’rlar to‘plami. - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1998.

2. Vohidov, Erkin. Dramaturgik asarlar. - Toshkent: Sharq, 2005.

3. Abdullaev, S. O‘zbek adabiyotidagi zamonaviy she’riyat. - Toshkent: Fan, 2010.

4. Qodirov, I. Erkin Vohidov: hayoti va ijodi. - Toshkent: Adabiyot nashriyoti, 2012.

5. Ergashev, M. O‘zbek tarjima adabiyoti va Vohidov ijodi. - Toshkent: Ilm, 2015.

6. Karimov, A. Milliy qadriyatlar va zamonaviy o‘zbek adabiyoti. - Toshkent: Akademnashr, 2018.

7. Mirzaev, B. *She’riyatda inson ruhining ifodasi: Erkin Vohidov misolida*. Toshkent: O‘zbek Universiteti nashriyoti, 2020.

NAVOIY ASARLARI G‘OYALARINING MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH VA YOSHLAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

Axmedova Aziza Xaydarovna

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Alisher Navoiy asarlarida ilgari surilgan insonparvarlik, ma’rifatparvarlik va komil inson g‘oyalari bugungi ma’naviy hayot kontekstida tahlil qilinadi. Tadqiqotda Navoiy merosining milliy o‘zlikni anglash jarayonidagi o‘rni hamda yoshlar ma’naviy tarbiyasidagi ahamiyati ilmiy-nazariy asosda yoritiladi. Muallif Navoiy asarlarida ilgari surilgan axloqiy qadriyatlar, adolat, mehr-shafqat, ilm-ma’rifatga intilish kabi g‘oyalar zamonaviy ijtimoiy-ma’naviy muhitda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolayotganini asoslaydi. Tadqiqot tarixiy-adabiy, qiyosiy-tahliliy va germenevtik metodlar asosida amalga oshirildi.

Kalit so‘zlar: *Alisher Navoiy, ma’naviyat, milliy o‘zlik, komil inson, yoshlar tarbiyasi, insonparvarlik.*

Alisher Navoiy ijodi o‘zbek milliy tafakkuri va ma’naviy hayotining shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Uning asarlari nafaqat badiiy-estetik yuksaklik namunasi, balki chuqur ijtimoiy-falsafiy va axloqiy qarashlar tizimi sifatida ham ahamiyatlidir. Navoiy ilgari surgan komil inson konsepsiyasi, adolatli jamiyat haqidagi tasavvurlari, ma’rifat va axloqiy poklikka da’vati bugungi globallashuv davrida ham dolzarb bo‘lib qolmoqda[23].

Zamonaviy jamiyatda axborot oqimining tezlashuvi, madaniy aralashuv va qadriyatlar transformatsiyasi jarayonlari milliy o‘zlikni anglash masalasini yanada keskinlashtirmoqda. Shu nuqtai nazardan, Navoiy merosiga murojaat qilish – milliy ma’naviy identitetni mustahkamlashning muhim omillaridan biridir.

Tadqiqot tarixiy-adabiy, qiyosiy-tahliliy va germenevtik metodlarga tayangan holda amalga oshirildi. Navoiy asarlaridagi asosiy g‘oyalar zamonaviy ijtimoiy-ma’naviy jarayonlar bilan qiyosiy tahlil qilindi. Shuningdek, komil inson konsepsiyasi milliy tarbiya tizimi bilan bog‘liq holda sharhlandi.

[23] I.Haqqulov. Navoiy va tasavvuf. Toshkent: Fan. 2006. – 312 b.

Milliy o‘zlikni anglash jarayoni tarixiy xotira, madaniy meros va ma’naviy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Navoiy asarlari ana shu uch omilning uyg‘unlashgan ifodasidir. Uning “Xamsa” dostonlari, “Mahbub ul-qulub”, “Lison ut-tayr” kabi asarlarida ilgari surilgan g‘oyalar milliy tafakkurning asosiy tamoyillarini mujassamlashtiradi.

Navoiy til, adabiyot va madaniyatni milliy o‘zlikning asosi sifatida ko‘radi. U turkiy tilning badiiy imkoniyatlarini kengaytirib, uni yuksak adabiy til darajasiga ko‘tardi. Bu jarayon milliy identitetni shakllantirishda muhim bosqich bo‘ldi. Shoirning tilga bo‘lgan munosabati bugungi davrda ham dolzarbdir, chunki til – millatning ruhiy o‘zagi hisoblanadi[24].

Shuningdek, Navoiy asarlarida inson qadr-qimmati ulug‘lanadi. Insonning ma’naviy yetukligi milliy jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida talqin etiladi. Bu qarashlar bugungi fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida ham muhim metodologik asos bo‘la oladi.

Navoiy ilgari surgan komil inson g‘oyasi bugungi ma’naviy hayot uchun muhim nazariy modeldir. Komillik – bu nafaqat diniy yoki tasavvufiy tushuncha, balki axloqiy va ijtimoiy mas’uliyat mezonidir. Komil inson: ilmga intiluvchi, adolatli, mehr-shafqatli, sabrli va tavozuli shaxsdir.

Zamonaviy ma’naviy siyosatda ham ana shu fazilatlar yetakchi o‘rin tutadi. Yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash jarayonida Navoiy ilgari surgan axloqiy mezonlar metodik asos vazifasini o‘taydi.

Yoshlar tarbiyasi har qanday jamiyat taraqqiyotining strategik yo‘nalishidir. Navoiy asarlarida tarbiyaviy g‘oyalar tizimli ravishda ifodalangan. Uning pand-nasihat ruhidagi asarlari yoshlarni: ilm olishga, ota-onani hurmat qilishga, halollik va adolatga, mehnatsevarlik va kamtarlikka chaqiradi.

Navoiy merosi yoshlar ongida ma’naviy immunitetni shakllantirishga xizmat qiladi. Axborot xurujlari kuchaygan zamonda ma’naviy barqarorlikni ta’minlash uchun tarixiy merosga tayangan tarbiya tizimi zarur. Shu jihatdan Navoiy asarlari pedagogik va ma’naviy resurs sifatida muhimdir. Shuningdek, Navoiy g‘oyalari

[24] N.Komilov. Tasavvuf va badiiy ijod. Toshkent: Sharq. 1996. – 256 b.

yoshlarni ekstremizm, ma’naviy begonalashuv va individualizm kabi salbiy oqimlardan asrashda ham ahamiyatlidir. Chunki shoir insonni jamiyat bilan uyg‘unlikda yashashga, ijtimoiy mas’uliyatni his etishga da’vat etadi.

Bugungi O‘zbekiston ma’naviy siyosatida Navoiy merosiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Uning nomi bilan bog‘liq ilmiy markazlar, ta’lim muassasalari va madaniy tadbirlar milliy o‘zlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Navoiy g‘oyalari davlat siyosatida ma’rifatparvarlik, insonparvarlik va adolat tamoyillarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Navoiy merosi nafaqat adabiy obida, balki ma’naviy strategiya manbai sifatida ham ahamiyatlidir. Uning asarlarida ilgari surilgan qadriyatlar zamonaviy ma’naviy islohotlarning g‘oyaviy negizini mustahkamlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Alisher Navoiy asarlarida ilgari surilgan insoniylik va ma’naviyat g‘oyalari bugungi ma’naviy hayotda o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Aksincha, globallashuv sharoitida milliy o‘zlikni anglash va yoshlar tarbiyasini takomillashtirish jarayonida bu meros muhim metodologik asos vazifasini o‘tamoqda.

Navoiy ilgari surgan komil inson modeli zamonaviy barkamol avlod konsepsiyasi bilan uyg‘unlashadi. Shoirning insonparvarlik, adolat va ma’rifat haqidagi qarashlari yoshlar ma’naviy kamolotini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bois Navoiy merosini tizimli ravishda o‘rganish va uni ta’lim-tarbiya jarayoniga keng tatbiq etish bugungi ma’naviy taraqqiyotning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Haqqulov I. Navoiy va tasavvuf. – Toshkent: Fan, 2006. – 312 b.
2. Komilov N. Tasavvuf va badiiy ijod. – Toshkent: Sharq, 1996. – 256 b.
3. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: Fan, 1991. – 256 b.
4. Navoiy A. Lison ut-tayr. – Toshkent: Fan, 1991. – 304 b.
5. Navoiy A. Xamsa. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1996. – 640 b.

6. Qayumov A. Alisher Navoiy. – Toshkent: O‘qituvchi, 1987. – 240 b.
7. Valixo‘jayev B. Alisher Navoiy ijodiy merosi. – Toshkent: Fan, 1999. –280 b.
8. Yusupov E. Ma’naviyat asoslari. – Toshkent: Universitet, 2000. – 192 b.

XIV-XV ASRLAR MOVAROUNNAHR SHE’RIYATIDA IJODIY RAQOBAT VA TATABBU’NAVISLIK MAHORATI

Foziljon Shukurov
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti doktoranti, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada Temuriylar hukmronlik qilgan davrda Movarounnahr adabiy muhitida muhim rol o‘ynagan “javobiya” yo‘nalishi haqida so‘z yuritilgan. Mazkur davrda shoirlar o‘rtasida “tatabbu’”, “payravlik”, “istiqboliya” kabi nomlar bilan rivoj topgan ushbu an’ana adabiyot taraqqiyotiga sezilarli ta’sir o‘tkazgan. Maqolada jarayonning taqlidkorlikdan farqli jihatlari, ijodiy raqobatning ijobiy va salbiy tomonlari hamda davr shoirlari ijodidagi o‘rni ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *mushoara, devon, g‘azalnavislik, adabiy jarayon, taqlid, tatabbu’, Bisotiy Samarqandiy, Kamol Xo‘jandiy, Ismat Buxoriy.*

Аннотация: В данной статье рассматривается направление «жавобия» (поэтический ответ), игравшее важную роль в литературной среде Мовароуннахра в эпоху правления Темуридов. Эта традиция, развивавшаяся среди поэтов того времени под такими названиями, как «татаббу», «пайравлик», «истикболия», оказала значительное влияние на развитие литературы. В статье научно проанализированы отличия данного процесса от простого подражания, положительные и отрицательные стороны творческой конкуренции, а также место этого направления в творчестве поэтов эпохи.

Ключевые слова: *мушоара (поэтическое состязание), диван, искусство газали, литературный процесс, подражание, татаббу, Бисоти Самарканди, Камол Худжанди, Исмат Бухори.*

Abstract: This article discusses the "javobiya" (poetic response) movement, which played a crucial role in the literary environment of Movarounnahr during the Timurid era. Developed among poets under terms such as "tatabbu," "payravlik," and "istiqboliya," this tradition significantly influenced the advancement of literature. The article provides a scientific analysis of how this process differed from mere imitation, examines the positive and negative aspects of creative competition, and explores its significance in the works of prominent poets of the period.

Keywords: *mushoara (poetic contest), diwan, ghazal writing, literary process, imitation, tatabbu, Bisoti Samarqandi, Kamol Khujandi, Ismat Bukhori.*

Amir Temur va Temuriylar davri Movarounnahr tarixida ilm-fan va madaniyatning yuksalish davri hisoblanadi. Bu davrda she’riyat va shoirlik ijtimoiy hayotda yuqori mavqega ega bo‘lib, garchi saroy adabiyoti hanuz to‘la shakllanmagan bo‘lsa-da, xalq, madrasa va hunarmandlar orasida jo‘shqin adabiy muhit mavjud edi. Shunday sharoitda ijodkorlar o‘rtasidagi o‘ziga xos mahorat sinovi — “javobiya” yo‘nalishi adabiy jarayonning ajralmas qismiga aylandi.

Adabiy muhitda ijodiy raqobat va “javobiya”. Shoirlar o‘z mahoratini o‘tmishdagi va zamondosh buyuk siymolar bilan qiyoslash, ular bilan bo‘ylashish maqsadida mashhur she’rlarga javob yozardilar. Bu jarayon shunchaki taqlid emas, balki o‘ziga xos ma’naviy va badiiy bellashuv edi. Tadqiqotchi E.Yorshotir ta’kidlaganidek, bu davrda tatabbu’ va naziranavislik Hirot adabiy muhitida kuchli bo‘lgan bo‘lsa, bizning tadqiqotlarimiz Samarqand va Buxoro atrofidagi Movarounnahr adabiy doirasida ham bu an’ana juda keng ildiz otganini ko‘rsatadi.

Shoirlar ijodida tatabbu’ namunalari. Movarounnahr adabiy muhitining yirik vakili **Ismat Buxoriy** *[1]* nafaqat Amir Xusrav Dehlaviy, balki Hofiz Sheroziy, Hasan Dehlaviy va Salmon Sovajiy kabi ijodkorlar g‘azallariga yuksak mahorat bilan javoblar yozgan. Masalan, Hofizning mashhur *“Zulf bar bod madeh...”* matla’li g‘azaliga Ismat Buxoriy quyidagicha javob beradi:

Ey barandoxta bor-i digar az bunyodam,

Xok-i roh-i tuam, ey do‘st, madeh barbodam [7].

Tarjimasi:

Bunyodimni yana bir bor aylading zer-zabar,

Yo‘lingning xokiman, ey do‘st, meni barbod etma.

Izoh: Bu baytda oshiqning yor yo‘lida naqadar xokisorligi va uning irodasiga bog‘liqligi yuksak mahorat bilan ifodalangan.

Bu yerda shoir Hofizning vazni va qofiyasini saqlagan holda, o‘z ichki kechinmalarini original tarzda ifodalay olgan.

Shuningdek, **Kamol Xo‘jandiy** va **Hofiz Sheroziy** o‘rtasidagi g‘oyibona muloqot ham e’tiborga loyiq. Kamol Xo‘jandiy Hofizning elliktaga yaqin g‘azaliga tatabbu’ bog‘lagan. Manbalarda keltirilishicha, Hofiz Shayx Kamolga alohida ehtirom bilan qarab, undan maktublar orqali yangi she’rlar yuborishni iltimos qilgan *[5]*.

Bisotiy Samarqandiy va “Ganji shoygon”. Davrning yana bir zabardast shoiri **Bisotiy Samarqandiy** bo‘lib, uning g‘azallari zamondoshlari va keyingi avlod ijodkorlari uchun ilhom manbai bo‘lgan. Uning *“Dil shishavu chashmoni tu...”* deb boshlanuvchi g‘azali shu qadar mashhur bo‘lganki, hatto Hindistonning buyuk shoiri Urfiy Sheroziy ham unga nazira yozgan. Mir G‘ulom Alixon Orzu bu g‘azalni “ganji shoygon’ (qimmatli xazina) deb baholagan *[2]*.

Bisotiy Salmon Sovajiy ijodiga alohida mehr qo‘ygan va uning uslubini mahorat bilan davom ettirgan. Uning javoblarida faqatgina shakliy o‘xshashlik emas, balki obrazlar tizimini yangi ma’nolar bilan boyitish tamoyili ustuvorlik qiladi.

Xulosa. Temuriylar davri Movarounnahr adabiy muhitidagi "javobiya" yo‘nalishini tahlil qilish quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

1. Bu jarayon taqlidchilik emas, balki shoirlarning o‘z individual uslubini yaratish yo‘lidagi ijodiy izlanishi edi.

2. Samarqand va Buxoro adabiy muhiti Temuriylar davrida tanazzulga emas, balki yuksak rivojlanish bosqichiga chiqqan edi.

3. Ushbu adabiy raqobat natijasida she’riyatda yangi majoziy obrazlar va badiiy san’atlar vujudga kelib, klassik adabiyot xazinasini boyitdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. - SamDU qo‘lyozmalar fondi. Inv № 1008543. -226 b.
2. Davlatshohi Samarqandī. Tazkirat-ush-shuaro. – Tehron, 1338.
3. Ibn Arabshoh. Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur. – T.: Mehnat, 1992.–69-b.
4. Ozod, Mir G‘ulomalixon. Xizonai omira. – Konpur, 1900, - 462 s.
5. Sadriddin Aynī. Vosifī va xulosai “Badoe’-ul-vaqoe’”. – Dushanbe: 1956.
6. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – SamDU qo‘lyozmalar fondi. Inv № 754. -1142 b.

ABDULLA ORIPOV SHE’RIYATIDA AYOL-ONA OBRAZINING YETAKCHI TAMOYILLARI

Boboqulova Uljon Suvonovna
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti
+998998028709
uljonboboboqulova8@gmail.com

Annotatsiya. Jahon adabiyotida ayol obrazi qadimdan arxetip obraz sifatida badiiy adabiyotning markaziy timsoli sifatida asrlar davomida ijodiy shakllanishda davom etmoqda. Har bir davrda va har bir ijodkor asarlarida o‘ziga xos uslubda namoyon bo‘ladi. O‘zbek adabiyotida Abdulla Oripov birinchilardan bo‘lib ayol – ona tamoyili muammosiga murojaat qilgan. Mazkur maqolada shoir she’rlarida ayol – ona obrazining yetakchi tamoyillari xususida bahs yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *Abdulla Oripov, ayol – ona, muqaddaslik, ramziylik, tarixiylik, dardli lirizm, estetik uyg‘unlik.*

Abstract. In world literature, the image of a woman has been forming for centuries as an archetypal image, a central symbol of fiction. It manifests itself in a unique style in each period and in the works of each creator. In Uzbek literature, Abdulla Aripov was one of the first to address the issue of the mother-woman principle. This article discusses the leading principles of the image of a womanmother in the poet’s poems.

Keywords: *Abdulla Oripov, woman – mother, sacredness, symbolism, historicism, painful lyricism, aesthetic harmony.*

Аннотация. В мировой литературе образ женщины с древних времен продолжает творчески формироваться как архетипный образ, центральный символ художественной литературы на протяжении веков. Он проявляется в каждом периоде и в произведениях каждого творца в своем уникальном стиле. В узбекской литературе Абдулла Арипов одним из первых обратился к проблеме принципа женщина-мать. В данной статье обсуждаются ведущие принципы образа женщины-матери в стихах поэта.

Ключевые слова: *Абдулла Орипов, женщина – мать, святость, символизм, историчность, болезненный лиризм, эстетическая гармония.*

Abdulla Oripov o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos o‘ringa ega ijodkor bo‘lib, “Abdulla Oripov she’rlaridagi g‘oya va tuyg‘ular she’rxonga tabiat, zamon, tarix sirlarini ochadi. Shuning uchun uning she’riyatida yangi fikr va mazmun yuqori mavqeda turadi, poetik obrazlar, tasvir vositalari, ramz va majozlar ham hech bir shoir tomonidan kashf etilmagan mazmun yoxud mohiyatning ta’sirchanligiga xizmat ettiriladi” [Ашурова Г. 2008:64]. Shoir tomonidan ko‘plab obrazlar she’riyatda qayta jonlangan. Ijodini tadqiq qilar ekanmiz, she’rlaridagi ayol obrazlari deyarli har bir ijod mahsulining ajralmas atributi ekanligiga ishonch hosil qildik. Shoir ayol – ona obrazini yaratish jarayonida bir qancha mezonlarni asos qilib oladi. Nafaqat Abdulla Oripov ijodida, balki o‘zbek she’riyatida ayol – ona obrazini yaratishda yetakchi tamoyillar sifatida quyidagilarni sanash mumkin:

Poetik mazmun va badiiy obrazda milliylik hamda milliy ruh uyg‘unligi. Badiiy adabiyotda, xususan, lirikada milliylik va milliy ruh asarning hayot timsoli – joni,

nafasidir. Lirik qahramon xarakterida, lirik voqelikda, obrazlarda turli detallar orqali milliy ruh aks etib turadi. Bu detallar narsa-buyumlar, urf-odat, qadriyatlar, turmush tarzi, ijtimoiy va ma’naviy hayot, tashqi va ichki ko‘rinish bo‘lishi mumkin. Shoirning “Hangoma”, “Oila” she’rlarida chollar va kampir (eshak va ot boshqa mavzu), “Momo” she’rida momo va tandir milliy xarakter va detallarni ifodalasa, “O‘zbekistonda kuz” she’rida “ona xalqim” (“Rizqi ona yerga sepilgan xalqim”), “Yuzma-yuz” da esa “rangpar singil” xalq timsoli sifatida asar ruhida aks etib turadi.

Ramziylik tamoyili. Shoirning poetik uslubi, badiiy tasvir vositalari va ichki lirizm orqali ayol – ona obrazi nafaqat real hayotdagi ayol sifatida, balki ma’naviy-ruhiy go‘zallik, sabr-toqat, mehr timsoli sifatida estetik mukammallikka erishiladi.

Tarixiylik tamoyili. Ko‘pincha avloddan avlodga o‘tib kelayotgan ideallar, tarixiy shaxs, ma’naviy (yozma va og‘zaki manbalar) va madaniy yodgorliklar, tarixiy voqealar ijodkorning ijodiy maqsadidan kelib chiqib badiiy aks ettiriladi. “Abdulla Oripovning tarixga munosabatini ifodalagan she’rlari, dostonlari, drama va maqolalarida hamisha zamon ruhi balqib turadi. Bugungi kunning ma’naviy-intellektual talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib moziyga, betakror ajdodlarimizning taqdiriga murojaat qiladi” [Жабборов И. 2008:3]. Xususan, Abdulla Oripovning “Seni ona dedim” she’rida ayolni yor sifatida tasvirlash uchun Alpomishning yonida Barchinoyni, Farhodning yonida Shirinni keltirsa; qizlarning jasorati va ayanchli taqdiri Nurxon timsolida, kurashchanligi esa Sora obrazi orqali ochib beriladi.

Muqaddaslik. Bu tamoyil jahon adabiyotida ko‘proq e’tiqod bilan bog‘liq bo‘lib, o‘zbek adabiyoti ham bundan mustasno emas. Chunki islom yo‘riqnomalarida – Qur’oni karim va hadislarda, payg‘ambarimizning hayotiy ibratlarida ayol, ayniqsa, onaga chuqur ehtirom adabiyotda, xususan, she’riyatda ham o‘z aksini topgan. Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab ijodida, zamonaviy adabiyotda esa Abdulla Oripov she’riyatida ham irfoniy qarashlar ko‘zga tashlanadi.

Estetik uyg‘unlik va lirizm. Adabiyotni bu tushunchalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shoir lirik qahramonining tuyg‘ular taloshi – sog‘inch, mehr-muhabbat, sadoqat, samimiylik, sevgi, ehtirom kabilar bilan birga, nafrat, g‘araz, g‘azab, armon singari motivlarning asar pafosida obrazli tarzda aks etishi lirizmni yuzaga keltiradi.

Abdulla Oripovning ayol – ona mavzusidagi asarlarida, bizningcha, dardli lirizm ustuvorlik qiladi.

Umumbashariylik tamoyili. Adabiyotda ayol – ona obrazining turli madaniyatlarda umuminsoniy qadriyatlar, ya’ni mehr-shafqat, fidoyilik, sabr-toqat, hayotbaxshlik, ma’naviy poklik kabi fazilatlarni ifodalovchi timsol sifatida namoyon bo‘lishidir.

Individuallik va umumlashmalik. Badiiy obrazning eng muhim xususiyatlaridan biri bo‘lgan individuallik umumlashmalikning asosi hisoblanadi. Individuallikning konkretlik belgisi orqali ayni bir xarakter yaratilsa, bu xarakter keyinchalik individuallik chegarasidan chiqib, umumiylikka aylanadi. Badiiy asarlardan farqli ravishda lirikada ayrim obrazlar butun umrida individual obraz sifatida qolishi mumkin yoki aksincha. Masalan, Abdulla Oripovning “Ayol” she’rini nazariy tadqiq qilgan olim Dilmurod Quronov shunday yozadi: “Hech shubhasiz, she’rdagi ayol obrazi o‘zida katta badiiy ifodani tashiydi. Shu bilan birga u o‘quvchi ko‘z o‘ngida aniq bir inson sifatida gavdalanadi. Negaki, she’rdagi “o‘n to‘qqiz yoshida beva qolgan”, “qurigan ko‘ksida yolg‘iz belanchak”, “qaqragan lablarda olovli nafas” kabi detallar aynan shu ayolni konkret tasvirlashga xizmat qiladi” [Quronov D. 2018:92]. Urush motivi esa mana shu individual obrazni umumlashma – xuddi shunday taqdirli ayollarning tipik obrazini hosil qiladi.

Fojelik. Bu ko‘proq yozuvchi biografiyasi bilan bog‘liq bo‘lib, muallif hayotida yoki yaqin atrofida yuz bergan foje voqea asosida tug‘iladigan ijod mahsuliga tegishlidir. Adabiyot tarixida bunday asarlarni ko‘plab uchratamiz. Masalan, Eduard Yungning “Insoniyat yoxud hayot, o‘lim va boqiylik haqida tungi o‘ylar”, Shillingning “Gans Viderpostning epikurona ishonch ramzi” asarlari, qadimiy marsiyalar, Komil Yashinning “Nurxon” dramasi, Hamzaning “Tursinoy” marsiyasi shular jumlasidan. Xususan, Abdulla Oripovning “Onam vafotiga”, “Onajon”, “Bahor” she’rlari ayni tushkun kayfiyatning mahsulidir.

Tabiat bilan uyg‘unlik. Adabiyotda tabiat obraz ruhiyatini aks ettirish vositasidir. Masalan, “O‘tkan kunlar” asarida aks ettirilgan “Xo‘ja Ma’oz” mozoridagi bo‘ron aslida ayni vaqtda Otabekning ichidagi g‘alayonlari, ruhiyati

tasviri edi [Qodiriy A. 2017:234-235]. Shu bilan birga ramzlar, ko‘chimlar, badiiy tasvir vositalari yordamida epik, lirik, dramatik xarakterning tashqi ko‘rinishini, xarakterini, ruhiy jarayonlarni ifodalash va tasvirlashda tabiat va borliq asosiy mezon vazifasini bajaradi. Lirikada bu holat kengroq imkoniyatga ega. Tadqiqotimiz davomida shuni angladikki, shoirning ichki sezimlari, tasavvur ko‘lami, olamni anglash va his qilish hamda qayta obrazli ifodalash mahorati yangi poetik obrazlar yaralishiga sabab bo‘ladi. Abdulla Oripovning “Tabiat” [Орипов А. 1996:27-28]. she’ri fikrimiz dalilidir. She’r ruju san’atining ajoyib namunasi bo‘lsa-da, biroq baytlar maznunan bir-birini inkor etmaydi. Aksincha, inkorsiz yaxlit butunlikdir. Baytdan baytga mazmuniy fikr kuchayib, ortib boraveradi. Bu xuddi pillapoyadek: tabiat obrazi singil → aka → ota → nihoyat eng mukarrama – ona obrazi darajasiga ko‘tariladi. “Tabiat farzandini og‘ushiga olib, bag‘riga bosib turgan onadek barcha mavjudliklarni yaratadi, quchog‘ida saqlaydi, ulg‘aytiradi va yana qaytib o‘z bag‘riga oladi (Sen beshik emassan, dorsan, tabiat. “Munojot”). Shu boisdan shoir “singil okkazionalizmini birinchi va onani oxirgi o‘rinda keltiradi”. Ona esa o‘zbek adabiyotida tabiatga nisbatan qo‘llangan an’anaviy poetik birlik bo‘lib, yuqoridagi singil, aka, ota obrazlari bilan birga poetik yaxlitlik hosil qilgan. Bandlar oxirida takrorlanib kelgan “Qo‘msab talpinaman gohi-gohi dam” misrasidagi “gohi-gohi dam” birikmasi so‘nggi bandda “har zum, har qadam” tarzida ifodalanishi ona va tabiat obrazlarining bir butunlik xususiyatini yuzaga qalqitib ko‘rsatadi. Yaratuvchanlik xususiyati tufayli butun borliq onaning og‘ushida mujassam bo‘ladi. Onaning funksional vazifasi tabiat obraziga yuklanadi.

O‘zbek she’riyatida ayol – ona obrazi qadim og‘zaki ijoddan boshlanib, islom arkonlari bilan oziqlangan holda to bugungi zamonaviy adabiyotgacha turfa xil qiyofalarda: haq-huquqsiz ayollar, mafkuralashgan jamoatchi ayol (Abdulla Oripovning “Kotiba xonim”, “Oyisining jamg‘armasi” she’rlarida), ziyoli; turli xarakterda: fidoyi va jonkuyar ona, sadoqatli yor, mehr-oqibatli singil, mehribon momo, badxulq xotin kabi obrazlarda tasvirlanib, she’riyatimizning asosiy tasvir obyekti sifatida takomillashishda davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ашурова Г. Абдулла Орипов шеъриятида анъана ва бадиий маҳорат (образ, ғоя ва тасвир): Филол. фан. номз...дисс. – Тошкент, 2008. – Б. 64.

2. Жабборов И. Абдулла Орипов шеъриятида тарихий шахс талқини. – Тошкент: Фан, 2008. – 3 б.

3. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Тошкент: Akademnashr, 2018.– 92 b.

4. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – Toshkent: Info Capital Group, 2017. –234-235 b.

5. Орипов А. Ибодат. – Тошкент: Ёзувчи, 1996. – 27-28 б.

6. Орипов А. Танланган асарлар. Тўрт жилдлик. Биринчи жилд. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2000. – 452 б.

7. Орипов А. Танланган асарлар. Тўрт жилдлик. Иккинчи жилд. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2001. – 496 б.

KAFKA’S CRITIQUE OF BUREAUCRATIC MODERNITY: DIALOGUES WITH WEBER, ADORNO, AND POSTMODERN THEORY

Fozilova Orzugul

1st-year Master’s student

Scientific supervisor: ***Dr., S.T. Israilova***

Phone: +998 88 018 12 19

E-mail: orzugulfozilova18@gmail.com

Tashkent University of Economics and Pedagogy

Abstract. Kafka’s major works (“The Trial”, “The Castle”, “The Metamorphosis”) fuse modernist alienation with proto-postmodern skepticism toward language, authority, and identity. Through labyrinthine bureaucracy and animal metaphors of otherness, he critiques Weberian rationalization while foreshadowing Agamben’s bare life, Arendt’s banality of evil, and post-structuralist concerns with

meaning and power—reflecting both his historical marginality and enduring epistemological relevance.

Keywords: *Kafka, Weber, Adorno, postmodernism, bureaucracy, alienation, identity.*

Annotatsiya. Frans Kafkaning asosiy asarlari (“Sud jarayoni”, “Qal’a”, “Evrilish”) modernist begonalashuvni proto-postmodern til, hokimiyat va identifikatsiyaga (o‘zlikka) nisbatan skeptitsizm bilan uyg‘unlashtiradi. Labirintsimon byurokratiya va o‘zgalikka oid hayvoniy metaforalar orqali u Veberning ratsionalizatsiyasini tanqid qiladi, shu bilan birga Agambenning “yalang‘och hayot” konsepsiyasini, Arendtning “yovuzlikning banalligi”ni va post-strukturalizmning ma’no va qudrat haqidagi muammolarini oldindan ko‘rsatib beradi — bularning hammasi uning tarixiy marginal (chekka) holatini ham, abadiy epistemologik dolzarbligini ham aks ettiradi.

Kalit so‘zlar: *Kafka, Weber, Adorno, postmodernizm, byurokratiya, begonalashuv, identifikatsiya*.

Аннотация. Основные произведения Франца Кафки (“Процесс”, “Замок”, “Превращение”) сплавляют модернистское отчуждение с прото-постмодернистским скептицизмом в отношении языка, авторитета и идентичности. Посредством лабиринтообразной бюрократии и зооморфных метафор инаковости он осуществляет критику веберовской рационализации, предвосхищая при этом «голую жизнь» Джорджо Агамбена, «банальность зла» Ханны Арендт и постструктуралистские проблемы смысла и власти — отражая одновременно свою историческую маргинальность и непреходящую эпистемологическую значимость.

Ключевые слова: Кафка, Вебер, Адорно, постмодернизм, бюрократия, отчуждение, идентичность.

Introduction

Franz Kafka (1883–1924) remains one of the most enigmatic and influential figures in literary modernism. His works combine austere bureaucratic prose, grotesque atmospheres, liminal characters, and narrative structures that resist

definitive interpretation. This distinctive synthesis has made Kafka’s literature a universal point of reference for cultural, philosophical, and theoretical inquiry. Scholars across various disciplines have examined Kafka’s works to explore the tensions between the individual and institutional authority, the instability of identity, and the disorienting effects of modern social structures [1; 2]. In this respect, Kafka occupies a unique position at the intersection of modernist literary experimentation and the later concerns of postmodern cultural theory.

Kafka’s fiction frequently depicts protagonists who find themselves trapped within opaque systems of authority—legal, administrative, or social—that they neither fully understand nor control. These narratives articulate a profound sense of alienation and uncertainty characteristic of modernity. Works such as *The Trial* and *The Metamorphosis* portray individuals struggling against forces that appear simultaneously impersonal and omnipresent, revealing the psychological and existential consequences of life in highly bureaucratized societies [3; 4]. The atmosphere of anxiety, absurdity, and powerlessness that permeates Kafka’s texts reflects broader modernist anxieties regarding the fragmentation of meaning, the erosion of traditional values, and the increasing dominance of institutional power [5]. At the same time, Kafka’s works anticipate several key concerns of postmodern thought. His narratives undermine the stability of language, question the legitimacy of legal and institutional discourses, and foreground the ambiguity of interpretation. The law in Kafka’s fiction often appears as an abstract and inaccessible system whose language obscures rather than clarifies meaning. This tension between language and authority has made Kafka particularly relevant to later theoretical discussions surrounding discourse, power, and interpretation [6; 7]. Consequently, Kafka’s texts have been widely examined through the perspectives of existentialism, structuralism, poststructuralism, and postmodern cultural theory.

Literature Analysis

Kafka’s major novels *The Trial* and *The Castle* present protagonists—Josef K. and K.—who become emblematic figures of modern bureaucratic existence. Their experiences reflect what sociologist Max Weber famously termed the “iron cage” of

rationalization, a system in which administrative efficiency, legal formalism, and procedural logic dominate social life while simultaneously stripping individuals of autonomy and human agency [1]. In Kafka’s fictional universe, bureaucracy functions not merely as a governing mechanism but as a pervasive structure that penetrates every aspect of life. The systems that Josef K. and K. encounter appear rational and orderly on the surface, yet they operate according to obscure rules and inaccessible authorities. This paradox exposes the dehumanizing effects of modern rational institutions: individuals are reduced to passive objects within administrative processes that they neither understand nor control. Bureaucracy thus becomes a labyrinthine structure that traps the individual in endless procedures, producing a state of existential disorientation. The protagonists’ inability to comprehend the rules governing their situations leads to profound epistemic confusion—the loss of certainty about their identity, their rights, and the nature of the authority judging them. This confusion ultimately results in paralysis and downfall, anticipating later postmodern concerns about the instability of knowledge, authority, and subjectivity.

The philosopher Theodor Adorno offers one of the most influential interpretations of Kafka’s representation of modern power. According to Adorno, Kafka’s prose reveals the irrational core hidden within supposedly rational social systems. Although bureaucratic institutions claim to embody order, objectivity, and reason, Kafka’s narratives demonstrate that these structures often function according to opaque, almost mythical logic [2: 256–259]. In works such as *The Trial*, *The Castle*, and the short story “In the Penal Colony,” bureaucratic domination assumes an almost metaphysical dimension. The institutions depicted in these texts appear omnipotent and inscrutable, exerting control over individuals while remaining beyond comprehension or accountability. Adorno argues that this depiction exposes the distortions and contradictions inherent in modern rationalization. What appears as rational organization ultimately produces irrational suffering and systemic cruelty. From this perspective, Kafka’s works acquire a prophetic dimension: they anticipate the catastrophic consequences of unchecked bureaucratic rationality that would later manifest in the totalitarian regimes and genocidal violence of the twentieth century.

The mechanized cruelty depicted in “In the Penal Colony,” for example, eerily foreshadows the bureaucratic efficiency with which modern states were able to administer mass violence.

Hannah Arendt similarly interprets Kafka as a profound analyst of modern bureaucratic domination. For Arendt, Kafka’s narratives are not mystical prophecies but rather precise explorations of the mechanisms through which modern administrative systems exert power over individuals. She emphasizes that Kafka’s works expose the structural dynamics of authority that emerge when institutions become detached from human responsibility and moral judgment [3: 74]. In such systems, authority no longer derives from identifiable leaders or traditions but from impersonal procedures and anonymous hierarchies. Kafka’s protagonists struggle to locate the source of power controlling their lives; the authority judging Josef K., for instance, remains permanently inaccessible. Arendt suggests that Kafka’s unique position as an outsider to many dominant cultural and political structures allowed him to perceive the absurdities of bureaucratic logic with unusual clarity [3: 80]. Alienated from the mechanized structures of modern society, Kafka was able to observe how administrative rationality transforms individuals into interchangeable units within a system that prioritizes procedure over justice.

Walter Benjamin situates Kafka’s work within the broader historical tension between tradition and modernity. Benjamin argues that Kafka’s narratives emerge from a cultural moment in which traditional forms of meaning—religious, ethical, and communal—had begun to disintegrate under the pressures of urbanization, industrialization, and bureaucratic governance [4: 141–145]. Kafka’s fiction reflects this crisis through stories that depict individuals wandering through opaque institutions and fragmented social landscapes. In Benjamin’s interpretation, Kafka’s characters inhabit a world in which inherited traditions no longer provide clear guidance, yet modern institutions fail to offer meaningful alternatives. This condition produces a distinctive form of alienation that Benjamin associates with modern urban life. Kafka’s narratives portray failure not simply as a personal tragedy but as an almost poetic condition intrinsic to modern existence. The characters’ endless

attempts to navigate incomprehensible systems capture what Benjamin describes as the paradoxical purity of failure in the modern city—an experience of striving within structures that render success impossible.

More recent philosophical interpretations have further expanded Kafka’s relevance to contemporary political theory. Giorgio Agamben, for instance, draws on Kafka’s famous parable “Before the Law” to develop his theory of sovereign power and the concept of “bare life.” Agamben interprets the gatekeeper and the inaccessible law in Kafka’s story as symbolic representations of a legal order that remains perpetually in force while simultaneously withholding meaning or justification [5: 169]. In this framework, law becomes an empty structure that exerts authority without providing clear content or legitimacy. Kafka’s depiction of individuals waiting indefinitely for access to the law reflects the condition of subjects who exist under systems of power that maintain authority while suspending meaningful participation or recognition. Agamben’s interpretation demonstrates how Kafka’s narratives continue to inform contemporary debates about sovereignty, legality, and the relationship between individuals and the state.

Conclusion

Kafka’s oeuvre serves as a vital bridge between modernist literature and postmodern theory. His haunting depictions of bureaucracy, alienation, and otherness critique the structures of modernity while simultaneously offering conceptual frameworks for theorizing power, identity, and the instability of meaning. Through narratives characterized by ambiguity, fragmented authority, and existential uncertainty, Kafka exposes the contradictions embedded within modern rational systems. His fictional worlds reveal how institutions designed to organize society often produce alienation, confusion, and dehumanization, leaving individuals trapped within impersonal mechanisms of control.

At the same time, Kafka’s works anticipate many of the intellectual concerns that later became central to twentieth-century philosophical and cultural theory. His exploration of inaccessible authority, unstable language, and the dissolution of coherent identity resonates strongly with postmodern critiques of grand narratives

and fixed meanings. Kafka's protagonists are frequently confronted with systems of power that operate according to obscure rules, highlighting the fragility of individual agency within complex social and legal structures. In this way, Kafka's fiction provides a literary articulation of the anxieties associated with modern bureaucratic societies and the epistemological uncertainty that characterizes contemporary thought.

For this reason, Kafka remains not merely a central figure of literary modernism but a thinker whose imaginative vision transcends disciplinary boundaries. His fiction continues to provoke philosophical reflection on the fundamental questions of existence: the nature of authority, the limits of knowledge, the fragility of identity, and the search for meaning within an increasingly complex and impersonal world. As both a literary innovator and a perceptive analyst of modern life, Kafka stands as a prophetic voice whose works continue to illuminate the enduring enigmas of human existence.

References

1. Weber M. The Protestant Ethic and the Spirit of Capitalism. – London: Routledge, 2001.
2. Adorno T. Prisms. – Cambridge: MIT Press, 1997.
3. Arendt H. Between Past and Future. – New York: Penguin, 2005.
4. Benjamin W. Illuminations. – New York: Schocken Books, 2007.
5. Agamben G. Homo Sacer: Sovereign Power and Bare Life. – Stanford: Stanford University Press, 1998.
6. Goffman E. Stigma: Notes on the Management of Spoiled Identity. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1963.
7. Barthes R. S/Z: An Essay. – New York: Hill and Wang, 1974.
8. Derrida J. "Before the Law." In: Acts of Literature / ed. by D. Attridge. – New York: Routledge, 1992. P. 181–220.

Internet resources

1. Engel M. *Franz Kafka: Modernism, Modernity, Myth, and Religion* // A Companion to World Literature. – 2019. – URL:

https://www.researchgate.net/publication/338068805_Franz_Kafka_Modernism_Modernity_Myth_and_Religion (accessed: 11.03.2026).

2. Ryan J. *Literary Modernism* // In: *Franz Kafka in Context*. – Cambridge University Press, 2017. – URL: https://www.cambridge.org/core/books/franz-kafka-in-context/literary-modernism/F04B75F4ABEB8F00E604002C8DF943EF (accessed: 11.03.2026).

3. Strathausen C., Shang W., Kazakov A. *Kafka’s Literary Style: A Mixed-Method Approach* // Humanities. – 2025. – URL: https://www.researchgate.net/publication/389828799_Kafka%27s_Literary_Style_A_Mixed-Method_Approach (accessed: 11.03.2026).

4. During S. *Kafka and Coetzee* // Oxford Academic. – 2018. – URL: https://academic.oup.com/book/11141/chapter/159587238 (accessed: 11.03.2026).

5. Thiher A. *Understanding Franz Kafka*. – University of South Carolina Press, 2018. – URL: https://www.jstor.org/stable/j.ctv6wgcn2 (accessed: 11.03.2026).

IQBOL MIRZO SHE’RLARIDA XALQLAR DO‘STLIGI VA BIRODARLIGI G‘OYALARI

Fotima Turg‘unova

NamDU Adabiyotshunoslik yo‘nalishi 1-kurs magistranti

Tel: +998940334803

e-mail: turgunovafotima839@gmail.com

Ilmiy rahbar: Abbosjon Rohataliyev

NamDU o‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi

e-mail: rohataliyevabbosjon@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada XX asr o‘zbek she’riyatida xalqlar do‘stligi, millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglik g‘oyalarining badiiy talqini yoritilgan. Xususan, Iqbol Mirzo she’riyatida o‘zbek, turkman va qozoq xalqlari o‘rtasidagi

birodarlik, umumiy tarix va ma’naviy yaqinlik badiiy timsollar orqali talqin etilgani ko‘rsatiladi. Maqola yosh avlod tarbiyasida milliy qadriyatlarning ahamiyati, she’riyatning esa ma’naviyat shakllanishidagi o‘rni haqida ilmiy xulosalar beradi.

Kalit so‘zlar: *xalqlar do‘stligi, millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik, milliy qadriyatlar, Iqbol Mirzo she’riyati, badiiy obrazlar, ma’naviy yaqinlik*.

Аннотация. В статье рассматривается художественное освещение идей дружбы народов, межнационального согласия и межрелигиозной толерантности в узбекской поэзии XX века. Особое внимание уделяется творчеству Икбола Мирзо, в чьих стихах через поэтические образы раскрываются братские отношения, общие исторические корни и духовная близость узбекского, туркменского и казахского народов. В статье также сделаны научные выводы о значении национальных ценностей в воспитании подрастающего поколения и о роли поэзии в формировании духовности.

Ключевые слова: *дружба народов, межнациональное согласие, толерантность, национальные ценности, поэзия Икбола Мирзо, художественные образы, духовная близость.*

Annotation. The article examines the artistic interpretation of the ideas of friendship among nations, interethnic harmony, and interfaith tolerance in twentieth-century Uzbek poetry. Special attention is given to the works of Iqbol Mirzo, whose poems portray, through vivid poetic imagery, the brotherhood, shared historical heritage, and spiritual closeness of the Uzbek, Turkmen, and Kazakh peoples. The article also presents scholarly conclusions regarding the importance of national values in educating the younger generation and the role of poetry in shaping spiritual consciousness.

Keywords: *friendship of nations, interethnic harmony, tolerance, national values, Iqbol Mirzo’s poetry, artistic imagery, spiritual closeness*.

O‘zbek adabiyotida xalqlar do‘stligi, millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglik masalalari doimo dolzarb ahamiyat kasb etgan. Bu jihatdan, XX asr o‘zbek she’riyati xarakterli xususiyatga ega. Mazkur xususiyat faylasuf shoir G‘afur G‘ulom ijodida, ayniqsa, yaqqol ko‘zga tashlanadi. Uning “Qozoq elining ulug‘

to‘yi” «Biri biriga ustoz, biri biriga shogird»,«G‘oliblar sharafiga» kabi she’rlari bu mavzuda yaratilgan poetik asarlarning eng yaxshi namunalaridir. Shoir o‘z she’rlarida do‘stlik mavzusini tasvirlaganida har bir xalqning hayotiga, milliy xususiyatlariga oid muhim belgilarni topadi va ularni joy-joyida ishlatadi. Jumladan, G‘afur G‘ulom xalqlar do‘stligi mavzuini tarixiy manbalarni, muayyan hayotiy hodisalarni, urf-odatlarni teran idrok etgan holda yoritadi. Shoir xalqlar do‘stligi tarannum etilgan she’rlarida millat va mamlakatning yaxlit poetik obrazini yaratadi. G‘.G‘ulomning bunday she’rlarida chin mehr, samimiyat ufurib turadi.

Shuningdek, 50-60-yillar she’riyatida chet elliklar hayoti va kurashi mavzusida ham qator asarlar yozildi. Oybek, Zulfiya, Shayxzoda, M.Boboyev, H.G‘ulom, A.Muxtor, Mirmuhsin, R.Bobojon, S.Akbariy singari shoirlar xorij xalqlari hayoti, ularning ozodlik, tenglik va tinchlik uchun olib borayotgan kurashlari haqida baquvvat she’rlar yaratdilar. Xalqlar do‘stligi va birodarligining asl mohiyati va kuch-qudrati hayotiy voqea va jonli obrazlar vositasida ochib berildi. 0’zbek she’riyatida vatanparvarlik va xalqlar do‘stligi g‘oyalari birgalikda tarannum etildi. Shunisi muhimki, bu mavzuni yoritishda his-tuyg‘udan mahrum bo‘lgan balandparvoz, dabdabali «qizil so‘zlar», ritorik va’zxoniklar o‘rnini tiniq poetik kechinmalar, hayotiy obrazlar, jonli tasvirlar tobora ko‘proq egallay bordi. Zulfiyaning «Ko‘kchatov», «Qarmoq», M. Boboyevning «Qoraqum kanali», Mirtemirning «Qirg‘iz xalqiga», «Olmaotaning qishi» kabi she’rlarida mana shu xususiyat yaqqol sezilib turadi.

E. Vohidov, A. Oripov, U. Azimov, O. Hojiyeva, H. Xudoyberdiyeva, A.Suyun, Sh. Rahmon, D. Fayziy va boshqa shoirlar xalqlar do‘stligi mavzusini tasvirlashda voqea va faktlarni quruq bayon etish yo‘lidan emas, aksincha, obrazli mushohada yuritish, jonli hayotiy manzara yaratish yo‘lidan bordilar. 0 ‘zbek shoirlari xalqning xorijiy mamlakatlar mehnatkashlari bilan do‘stona aloqalari haqida ham poetik asarlar yaratdilar.

Iqbol Mirzoning lirik merosida ijtimoiy hayotda yuz berayotgan o‘zgarishlarga o‘z munosabatini bildirib borganligi, she’rlariga yangi tushunchalar kiritsa-da, xalqona jo‘shqinlikni, sof tuyg‘ularni chetga surmasdan turib davr talablariga mos va

yurtdoshlarimizga xos umuminsoniy muammolarni yuqori o‘rinlarga olib chiqqanligi bilan zamonaviy o‘zbek she’riyatida yangi sahifa yarata oldi.

Ma’lumki, badiiy jihatdan yetuk bo‘lgan muayyan yaratiq ayni paytda yuksak san’at asari bo‘lib, u ijodkordan ona tili lug‘at boyligidagi har bir so‘zning turfa xil ma’no nozikliklarigacha bo‘lgan katta bilim va badiiy tafakkurni talab qiladi, zotan, kishiga shoir bo‘lish uchun iste’dodning o‘zi yetarli emas. Ijodkorlar tomonidan tilimizdagi so‘zlarni o‘ziga xos o‘rinlarda qo‘llash orqali badiiy asarning ritmik-intonatsion hamda ekspressiv xususiyati ta’minlanishi badiiylikning asosiy talablaridan sanaladi[25].

Mustamlakachilik tuzumining chok-chokidan so‘kilib, nurab borayotganligi jonli va yorqin bo‘yoqlarda tasvirlab berildi. Millatimiz uchun eng yuksak qadriyatlardan biri bu qo‘li ochiqlik va saxovatpeshalikdir. Xalqimiz azaldan mehmondo‘st va jonkuyar. Har bir o‘zbek xonadonida “Mehmon – atoyi Xudo” tushunchasiga amal qilinadi, eng so‘nggi nonini uyiga kirib kelgan inson bilan baham ko‘radi, agar bu ham bo‘lmasa, o‘zining shirin so‘zi bilan uni xushnud qiladi. Iqbol Mirzo o‘zbekning ayni shu xislatiga urg‘u qaratgan va buni bobolarimizning pok ruhi bilan bog‘lagan.

Shoir she’riyatida xalqlar do‘stligi mavzusi yetakchi o‘ringa ega.Uning she’rlarida mazkur masala xolisona, hayot haqiqatiga mos ravishda yoritiladi. Jumladan, muallif o‘zbek va turkman xalqlari o‘rtasidagi do‘stlik haqida kuylar ekan, “O‘zbek bilan turkmanning” she’ridan olingan bir bandda quyidagicha ifodalar ishlatadi:

Bir daryodan hovuchlab suv ichgan el,
Daryosi bir o‘zbek bilan turkmanning.
Oy-u quyosh nurlari teng tushgan el,
Ziyosi bir o‘zbek bilan turkmanning[26].

Bu ikki xalqning faqatgina daryosi-yu ziyosi bir bo‘lib qolmay, balki, ulardagi fuqarolar ham bir-biriga og‘a-ini, birodar, do‘st-ulfatdir. Shuningdek,

[25] Rohataliyev A. Erkin Vohidovning badiiy mahorati (Devonlari misolida): filol. fan. bo‘yicha fals. dok-ri… diss...(PhD) – Namangan, 2024. – B. 109.
[26] Иқбол Мирзо. Сизни куйлайман. Т.: Шарқ, 2010. – 301 б

mazkur o‘rinda daryo va ziyo so‘zlari metaforik jihatdan assotsiativ xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ya’ni daryo so‘zi o‘z ma’nosidan tashqari qadimdan ota-bobolarimiz foydalanib kelgan bobo til – turkiy tilning olis o‘tmishga daxldor ekanligiga o‘zbek va turkman xalqlari tili qardosh til ekanligiga ishora qiladi.

Oy-u quyosh nurlari teng tushgan el,

Ziyosi bir o‘zbek bilan turkmanning[27],

misralaridagi oy, quyosh, ziyo so‘zlari metaforik jihatdan qaralganda buyuk ajdodlarimiz ilmiy merosining har ikki xalq, har ikki millat vakillari uchun birdek xizmat qilishini ko‘rsatadi. Fikrlarimizning davomi sifatida shoirning “Sen qozoqmi, men qozoq” she’rida aks etgan o‘zbek xalqiga xos hamjihatlik, birdamlik, ahillik, bag‘rikenglik, totuvlik xislatlarini ko‘z oldimizga keltiramiz:

Voy-bo‘y, yurtga qarab boq:

Osmon qadar keng qozoq.

Tilim, dilim, dinim bir,

Sen qozoqmi, men qozoq[28]*?*

Haqiqatdan ham, qozoq millati bizning millatimizga ham hudud jihatdan, ham madaniyat jihatdan ancha yaqin bo‘lib, bizga bir-birimizni tushunishimiz uchun hech qanday lug‘at shart emas. Iqbol Mirzoning xalqlar do‘stligi, birodarligi g‘oyalari bilan qondirib sug‘orilgan yuqoridagi she’rlarida o‘zbek xalqiga xos qadriyatlardan milliylik bilan baynalmilallik o‘z aksini topgan. Agar ayni fazilatlar yoshlarimiz orasida ham bo‘y cho‘zsa, albatta, buning natijasida yurtimiz taraqqiyoti ham yuksaklikka bo‘y cho‘zadi.

Barchamizga ma’lumki, har bir xalqning o‘ziga xos qadriyatlar silsilasi mavjud bo‘lib, unda ana shu millatning o‘zligi, maqsad va intilishlar yaxlitligi, umumiyligi o‘z aksini topadi. Bularning mazmun-mohiyatini bilish, teran his qilish yosh avlodda insonparvarlik va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantiradi. milliy qadriyatlarimizni yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishning asosiy omili sifatidagi o‘rni nihoyatda beqiyos. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, ma’naviyat inson qalbiga badiiy adabiyot

[27] Иқбол Мирзо. Сизни куйлайман. Т.: Шарқ, 2010. – 301 б.
[28] Иқбол Мирзо. Сизни куйлайман. Т.: Шарқ, 2010. – 235 б.

orqali, xususan, she’riyat bilan birga kirib boradi. Shoirning “O‘zbek o‘g‘li” nomli she’ri yuqorida aytilgan fikrlarni o‘zida aks ettirganligi bilan ahamiyatli:

O‘zbek desam, jaranglagan tor kelur,
Undan oldin nomus kelur, or kelur.
Burgut kelur, lochin kelur, sor kelur,
O‘zbek o‘g‘li, o‘zligingni unutma![29]

Shoir she’r izhor qilar ekan, unda boshdan oxirigacha “O‘zbek o‘g‘li o‘zligingni unutma” misrasini yo‘ldosh qiladi. Nima uchun ijodkor aynan o‘zbekning o‘zligini unutmasligiga urg‘u qaratmoqda? Chunki millatning o‘zligida uning o‘tmishi, ota-bobolarining o‘chmas yodi, ajdodlarga hurmat tuyg‘usi hamda umumbashariy qadriyatlari mujassamlashgan bo‘ladi. Millat bolasining bularga bepisandlik bilan qarashi uning o‘zligidan mahrum qiladi. Alaloqibat, u qullikka, qaramlikka mahkum etiladi.

Xulosa qilib aytganimizda, milliy qadriyatlarimizni yoshlar ongiga singdirish, ularni xalqimiz yaratgan ma’naviyat durdonalaridan bahramand etishda adabiyotning o‘rni katta. Bu borada xalqimizning sevimli shoiri Iqbol Mirzo ijodi va uning she’rlaridagi milliy qadriyatlarga xos sifatlar dasturulamal vazifasini o‘taydi. Zero, yurtboshimiz ta’kidlaganidek, “Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doim aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin”[30].

Yosh avlodni ma’naviy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalashda shoir ijodining alohida ahamiyatga egaligi yuqoridagi kabi milliy qadriyatlar bilan sug‘orilgan teran ma’noga ega she’rlarda yaqqol ko‘rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ma’naviyat.uz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning hikmatlari sahifasi. – 2019.

[29] Иқбол Мирзо. Сизни куйлайман. Т.: Шарқ, 2010. – Б. 335.
[30] Ma’naviyat.uz. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning hikmatlari sahifasi. -2019

2. Иқбол Мирзо. Сизни куйлайман. – Т.: Шарқ, 2010.
3. Iqbol Mirzo. Qo‘shiqlarim. – Toshkent: Istiqlol, 2004.
4. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
5. Is’hoqov Y. So‘z san’ati so‘zligi. – Toshkent: Zarqalam, 2006.
6. Ismoilova A. Iqbol Mirzo she’rlarida vatan manzaralari. Volume 1 | issue 2 | 2023.

SHAVKAT RAHMON SHE’RIYATIDA MILLIY RUH VA BADIIY TAFAKKURNING POETIK IFODASI

Jumanov Akbar,
JDPU tayanch doktoranti
jumanovakbar574@gmail.com
+998943499506

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shavkat Rahmon she’riyatining badiiy xususiyatlari, mazmun-mohiyati va o‘zbek adabiyotidagi o‘rni tahlil qilinadi. Shoir ijodida vatanparvarlik, inson erki, milliy g‘urur va ma’naviy poklik kabi g‘oyalar qanday badiiy ifoda topgani yoritiladi. Shuningdek, Shavkat Rahmon she’rlarining obrazlilik darajasi, poetik tilining kuchi, ramziy va falsafiy qatlamlari misollar asosida ko‘rib chiqiladi. Maqolada shoirning o‘ziga xos uslubi, uning o‘zbek she’riyatiga olib kirgan yangiligi hamda zamonaviy adabiy jarayondagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Tadqiqot natijasida Shavkat Rahmon she’riyati milliy ruh va badiiy tafakkurning yorqin ifodasi ekanligi xulosa qilinadi.

Kalit so‘zlar: *She’riyat, ruhiyat, poetik tafakkur, Shavkat Rahmon, millat qayg‘usi, vatanparvarlik, ijodkorlik.*

Аннотация: В данной статье анализируются художественные особенности, содержание и сущность поэзии Шавката Рахмона и его место в узбекской литературе. Подчеркивается, как в творчестве поэта художественно

выражены такие идеи, как патриотизм, свобода человека, национальная гордость и духовная чистота. Также на примерах исследуется уровень образности, сила его поэтического языка, а также символические и философские пласты стихов Шавката Рахмона. Статья научно обосновывает уникальный стиль поэта, новаторство, которое он привнес в узбекскую поэзию, и его значение в современном литературном процессе. В результате исследования делается вывод, что поэзия Шавката Рахмона является ярким выражением национального духа и художественной мысли.

Ключевые слова: *Поэзия, духовность, поэтическая мысль, Шавкат Рахмон, национальная скорбь, патриотизм, творчество*.

Abstract: This article analyzes the artistic features, content and essence of Shavkat Rahmon's poetry and its place in Uzbek literature. It highlights how ideas such as patriotism, human freedom, national pride and spiritual purity are artistically expressed in the poet's work. It also examines the level of imagery, the power of his poetic language, and the symbolic and philosophical layers of Shavkat Rahmon's poems based on examples. The article scientifically substantiates the poet's unique style, the innovation he brought to Uzbek poetry, and his significance in the modern literary process. As a result of the research, it is concluded that Shavkat Rahmon's poetry is a vivid expression of the national spirit and artistic thought.

Keywords: *Poetry, spirituality, poetic thought, Shavkat Rahmon, national grief, patriotism, creativity*.

Haqiqiy adabiyot darddan yaralgan go‘zallikka aylangan olamdir. Dardning ijtimoiy asosi tabiiy kechinmalardir. Ijodkorning voqelikka munosabati uning asarida aks etadi. Ammo u xal qiluvchi mezon kasb etadi deb aytib bo‘lmaydi. She’riyatidagi vatan mavzusini qaynoq qalb bilan dilidagini shoirona til bilan aytish istagi Shavkat Rahmon she’riyatida ancha mukammal va obrazli tasvirlanadi. Biroq, Shavkat Rahmonning she’riyatini o‘rganishda unga zamondosh bo‘lgan shoirlar ijodi bilan yonma–yon o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shavkat Rahmonning ijodida zamondosh shoirlarni o‘ylantirgan muammolar, ularni qiynagan milliy og‘riqlar iztirobga solgani shubhasiz. Biroq shoirning mahorati o‘ziga xosligi bilan so‘z

qudratini kashf etdi. Uning she’rlaridagi qalb og‘riqlari, dardlari millatni uyg‘otdimi, u davr dardini o‘z dardiga aylantira oldimi degan savollarga bergan javobi – she’rlarining umrboqiyligi bilan o‘lchanadi. Shoir she’riyatidagi poetik betakrorlik, bemisl tafakkur, his–tuyg‘ular bokiraligi ham ana shu talablarga javob bo‘lmog‘i tayin. Shu bois biz Shavkat Rahmon she’riyatini u bilan yelkadosh ijod qilgan shoirlar ijodiga ham to‘xtalamiz. Zotan, o‘zbek she’riyatida Shavkat Rahmon chinakam hodisa bo‘lgan bo‘lsa-da bu hodisa o‘z zaminiga ega. Uning asoslari mavjud va albatta bu asoslar avvalida muazzam sharq she’riyati turadi. So‘ng uni davr ko‘zgusida davrdoshlar orasida milliy ma’naviy dunyoqarash hamda poetik tafakkurning millat qayg‘usi bilan nafas olishiga bog‘lab o‘rganmoq lozim edi. Hech qanday yo‘sinda izohlab bo‘lmaydigan istibdod va mutelik falsafasi bilan kishanlab tashlangan millat shuurini uyg‘otish davr she’riyatining bosh maqsadiga aylanganini Shavkat Rahmon she’riyatida aniq ko‘rishimiz mumkin. Rauf Subxonning quyidagi she’rida 80-yillar poetik tafakkuri obrazli tarzda kuylanib, toshning poetik obrazi xarakterli namuna sifatida keltirib o‘tilgan. Bu she’rda tarix –ma’naviy ehtiyoj, xotira – Vatan ekanligi tosh obrazi orqali muvoffaqiyatli ochilgan:

Do‘stlar,
Qoyalarni,
Yig‘layotgan bevalarni,
Qora tutunlarni eslatar....
Bulutlar marhumlarni eslatmas faqat,
Chunki ular tosh bo‘lib sochilgan Vatanga.
Gulingni tuproqqa otma bu nola,
Sen uni biror bir tosh ustiga qo‘y,

Murojaat bilan boshlangan ushbu she’rda qoyalardek bardoshli bo‘lsa-da yig‘layotgan bevalar qora tutunlarni eslatadi. Qora rang ayolning qalbidagi og‘riqlar, ayrilishlar, fig‘onlarga mengzalayapti. Inson ruhi ko‘kka uchsa-da bulutlar marhumlarni eslatmaydi. Ular yomg‘ir shaklida yerga vatanga sochilib, gullarni tuproqqa sochishini eslatadi. Ramziy bo‘yoqlarda tasvirlangan yer tabiat hodisasini emas, balki inson qalbi va taqdirini ifoda etadi. Shunga o‘xshash satrlarni Rauf

Parfining “Bitik tosh” she’rini esga soladi. Ilk bor bitik tosh Rauf Parfiga vatanning mangu timsoli bo‘lib ko‘ringan edi.

Vaqt quyunida ne davr–u davron,
Bu toshga aylangan erkdir bardoshdir.
Bu vatan atalgan muqaddas armon,
Unga qaraymanu bir his tuyaman.
Bu yurtim timsoli mangulik toshdir,
Yuragim toshiga she’rim o‘yaman.

Tasodifiy emaski, iqtidorli shoir Eshqobil Shukurovning “Yozuvlar” turkumiga kirgan she’rlaridagi cho‘kayotgan toshlarga muhabbat zamirida ham vatandoshlik sevgisi yotadi. 80-yillar poetik tajribasi ko‘hna va ma’lum haqiqatni yana bir bor tasdiqladi, har qanday avlodning vatanparvarlik xislatining mohiyatini ulardagi vorislik tuyg‘usining darajasi belgilaydi. Bu davr she’riyatidagi shakliy o‘ziga xosliklar shoirlarning ruhiyat iqlimlarida sodir bo‘layotgan o‘zlikni anglash urinishlari natijasi bo‘lib qolmay shoirlarni yana ham teranroq, poetik obrazlari tiniq bir tarzda sherxon hukmiga havola qilish istagining natijasi ham edi. Agar bu davr shoirlari ijodiga diqqat qilinsa she’rlardagi buzilgan vaznni qofiyalanmayotgan misralarning guvohi bo‘lamiz. Biroq Usmon Azim, Shavkat Rahmon, Xurshid Davron kabi shoirlar ijodida uchraydigan va umuman 80–yillar poeziyasiga xos bo‘lgan bu kabi shakliy buzilish holatlaridan kutilgan maqsad avvalo fikr zalvoriga qaratilgan ichki poetik ohangdagi kuchli ehtirosni yanada to‘laroq namoyon bo‘lishiga imkon berishdir. Yuqorida 80–yillar she’riyati haqida fikr yurita turib obrazlar va tashbehlardagi o‘ziga xosliklarni kuzatamiz. Ruhiy manzarani favqulodda tasavvurni buzib yuborishga qodir obrazlarda berish bu davr she’riyati uchun xos xususiyatlardan biri. Hayot va tabiat haqidagi ko‘nikilgan tasavvurlarni oddiy va eski haqiqatlarni poetik mantiqning kuchi bilan inkor etish orqali ularga yangicha g‘oyaviy–badiiy ma’no anglash tajribasi o‘zini oqlaydi. Chunki, dunyo haqidagi taassurot va tasavvurlariga tarixiy–ijtimoiy muayyanlik beradi. Uning mohiyatidagi zavq go‘zallikdan olinadigan estetik quvonch mazmuni bilan hamohangdir. Bu zavqni tuyish his etish mumkinu, uni qo‘l bilan ushlash ko‘z bilan ko‘rish mumkin

emas. Shoir ruhiyatida ro‘y beradigan o‘zgarishlar she’rda aks yetmay qolmaydi. Chunki she’r ruhiyati olam xosilasidir. Uning qiyofasi ya’ni, shakli ana shu ruhoniy olam kengliklarini, tasavvurlarini o‘zida mujassam etadi. Shu sabab undagi obrazlar biroz g‘ayritabiiy lekin aslo shubhasiz emas. 80–yillar she’riyatidagi shakliy g‘ayritabiiylikning asoslari esa faqatgina ruhoniy olamning tasavvur salohiyatigagina bog‘liq bo‘lmay shiddat bilan oqib kelayotgan g‘arb falsafasi ta’siriga ham bog‘liq edi albatta. Umuman bu davr she’riyatini o‘rganish uchun bevosita sharq va g‘arb tafakkur tarzi muloqotini ham o‘rganish lozim bo‘ladi. Churki 80–yillar poeziyasida sharqonalik g‘arb poetik tafakkuri bilan omuxta tarzda namoyon bo‘la boshladi. G‘arb falsafasi bu davrga kelib butun diqqatini inson ruhiy olamining mohiyatiga qaratgan edi. Inson borliq markazidagi o‘ziga xos betakror individual hodisa sifatida talqin etilib uning fikri dunyoqarashi vatanga atrofdagi olamga munosabati ham o‘ziga xos va betakror deb talqin etila boshlandi.

Ko‘zlaring ko‘z emas – palaxmon,
Tiling til emasdir – oq chayon.
Qo‘y meni ko‘p qiynama,
Yoningda o‘lmasman hech qachon.
Qo‘llaring itdayin akillar,
Talangan yuragim yig‘laydi.
Qo‘y meni ko‘p qiynama,
Meni g‘ajiyverib to‘ymaysan.
Falak zil-zambil g‘azabing,
Yelkamni shildi–yu sindirdi.
Qo‘y meni amallab ketaman,
Bag‘rimda ko‘nglimning o‘ksigi... (A.Qutbiddin)

Albatta, bu kabi she’rlarda obrazlar tasviridan ko‘ra ko‘proq g‘oya tasviri bor yoki to‘g‘rirog‘i ruhiy olam g‘oyasining tasviri beriladi. Umuman bu davr she’riyatidagi nafaqat ruhiy kechinmalarga bog‘liq she’rlar balki ijtimoiy–siyosiy mazmundagi she’rlarda ham shoir meni bevosita ishtirok etadi. U o‘z ishtiroki bilan ijtimoiy adolatsizliklardan paydo bo‘layotgan kemtiklikka munosabat bildirmaydi,

aksincha ana shu kemtiklikdan uning qalbida og‘riq paydo bo‘lganiga she’rxonni ishontiradi.

Xazonlar charx urar ko‘zi o‘ngida
Bog‘lardan bahorning ketgani qachon
Barglarin yo‘qotgan azim bir daraxt
Erksiz el farzandi bahodir yanglig‘
Vujudi kuch–qudrat yurak to‘la shaxt
Biroq jang qilmoqqa munosib yov yo‘q.

(Sh.Qurbon. Kuz tunida.)

Shavkat Rahmon she’riyatida insonning oniy kechinmalari chuqur tahlil etiladi. Shoir ruhiyat manzarasini she’riyatiga singdirib yubora oladi.

Badiiy matnda albatta, tasvirlanayotgan voqea-xodisalar, manzaralar insonga bog‘liq xolda uz badiiy talqiniga ega bo‘ladi. Antropotsentrik nazariyaga ko‘ra ularning markazida inson turar yekan, taxlil qilinayotgan parchada, jumladan o‘zininki bo‘lmagan ko‘chirma gaplarda xech bo‘lmasa personaj shaxsiyati bilan bog‘liq uslubiy belgi yoki subektiv moddalik ifodalovchi shakliy ko‘rsatkichlar bo‘lishi lozim[1].

Uning she’rlaridagi poetik fikr ruhiy anglanishdan hosil bo‘lgan xulosalar tarzida namoyon bo‘ladi. Aslida she’riyatning mag‘zi ma’no emas fikr–aql emas balki go‘zallikka aylana bilgan tuyg‘udir. Tuyg‘u ruhiy holat in’ikosi sifatida ro‘yobga chiqadi. Tuyg‘u go‘zallikdan, yoki ruhning go‘zallik intilishidan tug‘iladi. Ruhiyat iqlimida tuyg‘ular silsilasining o‘zi bir sirli olam. Shunday olamki kishini mudom o‘zi tomon chorlaydi. Tuyg‘ularni yashab o‘tish mumkin. Biroq, dil ulardan hech qachon bezmaydi. Ular har safar yangilanadi. Ro‘yobga chiqayotgan tuyg‘u ma’lum bir shaklga kiradi ohangi bilan tug‘iladi.

Shabbodalar olib keladi
Rayhonlarning o‘tkir nafasin
Yaproqlarning oralarida
Ikki qushning baxtiyor sasi
Kecha uzun, Hayolday uzun

Undan uzun qorong‘u sukun
Hadiksirab turaman faqat
Nogoh kelib qolmasaydi kun.

(Sh.Rahmon “Visol.”)

Shoir tasvirlayotgan manzara biroz g‘ayritabiiydek, tunda bir–birini pinjiga kirib bir–birini suyab turgan ikki qushcha visoli tasvirlanadi. Qorong‘uda oshiqlar visolga oshiqishi tabiiy. Bu visolni “Hayvonlarning o‘tkir nafasi” bezab turishi tabiiy, “Hayolday uzun” kechaning diltortar tuyulishi visoliy kechinmalar haqqoniy, biroq shoir qo‘llayotgan tazod g‘alati, ya’ni tunni buzib kelib kelib qolishidan hadiksirash tuyg‘usi biroz o‘quvchini hayratga soladi. Alhol, tun–qorong‘u sukunatda etni junjiktiradigan sovuqliq nuqsi qoralik mavjud. Buni shoir ham inkor yetmayapti. Biroq u qorong‘ulikdan emas, yorug‘ kunning kelib qolishidan hadigu havotirda. Sh. Rahmon bir–birini suyub turgan ikki qushchaga xayrixohlikni, ular visoliga hamohanglikni tundan topgani holda kunning sertashvish, serzarda hayoti hayolday uzun tun bag‘rini tilkalab tashlashiga,to‘g‘rirog‘i hayolni buzib yuboruvchi qudratga ega hayot haqiqatining zalvori bu ikki qushchani cho‘chitib yuborishidan cho‘chiydi go‘yo. Bu she’r shoirning ilk she’rlarida biri. Bunda tabiatning sirli xilqati bo‘lgan tuyg‘u bilan yuzma–yuz qolgan shoir ruhiyati namoyon bo‘ladi. U o‘zgacha fikrlaydi, o‘zgacha ko‘radi, o‘zgacha his qiladi. U tunda jozibaga to‘liq shirin hayolni, kunda ana shu hayolni buzib tashlaydigan tirikchilik tashvishlariga to‘la hayotni ko‘radi. So‘ngroq u yana va yana qushlar obraziga murojaat etdi. Ular go‘yo uning she’riyatidagi qaysidir bir nurli tilsimkaliti kabi taassurot qoldiradi. Xulosa qilib aytganda, Shavkat Rahmon she’riyatida ruhiyatning haqiqatga intilishidan tug‘ilgan katta iztirob va dard yetakchilik qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Sh. Rahmon. Rangin lahzalar. - T., 1978-y.
2. Sh. Rahmon. Hulvo. - T., “Yosh gvardiya” nashr. 1987-y.
3. U. Hamdam. “Badiiy tafakkur tadriji”.
4. Sh. Rahmon. “Saylanma”. - T., 1997-y.
5. H. Norbekov. “Kashf qilmoq saodati”. Tafakkur jurnali. 1999-y. 4-son.

6. B. Sarimsoqov. “Badiiylik asoslari va mezonlari”. - T., 2004-y.

7. U. Normatov. “Tafakkur yog‘dusi”. - T., 2005-y.

8. Sh. Siddiqova. “O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplarning badiiy matnda tutgan urni ”. “O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari”. - Toshkent. 2012-yil.

ABDULLA ORIPOV SHE’RIYATIDA BADIIY TASVIR VOSITALARINING QO‘LLANILISHI

Uskanova Dilnora Dilshodshix qizi

Bo‘stonliq turizm va madaniy meros texnikumi

ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada Abdulla Oripov she’riyatida mumtoz adabiyotdan meros bo‘lib kelgan badiiy tasvir vositalarining qo‘llanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Shoirning «Bul ajab xor kimsadin...» g‘azali misolida talmeh, radd, tavze’, tamsil, kalomi jomi’ kabi badiiy san’atlarning qo‘llanishi va ularning poetik vazifasi ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: *Abdulla Oripov, badiiy san’atlar, mumtoz poetika, talmeh, radd, tavze’, tamsil, kalomi jomi’, g‘azal poetikasi.*

Аннотация. В статье анализируются особенности использования художественных средств выразительности в поэзии Абдуллы Арипова. На примере газели «Bul ajab xor kimsadin…» рассматриваются такие поэтические приёмы, как талмех, радд, тавзе’, тамсил и каломи жоми’. Обосновывается их художественная функция и значение в раскрытии идейного содержания произведения.

Ключевые слова: *Абдулла Арипов, художественные средства, классическая поэтика, талмех, радд, тавзе’, тамсил, поэтика газели*.

Annotation. This article analyzes the use of artistic expressive devices inherited from classical literature in the poetry of Abdulla Oripov. Based on the

analysis of the ghazal beginning with “Bul ajab xor kimsadin…”, such poetic devices as talmeh, radd, tavze’, tamsil and kalomi jomi’ are examined. Their artistic function and role in revealing the ideological content of the poem are scientifically substantiated.

Keywords: *Abdulla Oripov, poetic devices, classical poetics, talmeh, radd, tamsil, ghazal poetics*.

Mumtoz adabiyotshunoslar tadqiq etgan badiiy san’atlarning hammasi ham hozirgi adabiyot namunalarida uchraydimi? Kuzatishlar mumtoz poetika aniqlagan badiiy san’atlarning aksariyati bugungi she’riyatning ham asosiy ifoda – tasvir vositasi bo‘lib xizmat qilayotganligini, ammo ayrim badiiy san’atlar mumtoz adabiyot bag‘rida qolib ketayotganligini ko‘rsatmoqda. Bunday «muzey eksponati»ga aylangan badiiy san’atlar, ayniqsa, lafziy san’atlar doirasida ko‘proq uchraydi.

She’riy san’atlarga oid ilmiy manbalarda bunday badiiy san’atlarning bir qanchasi misolga olingan va ular nuqul shaklbozlikdan iborat; arabiy imlo bilan bog‘liq lisoniy o‘ziga xosliklar bilan ifodalangan badiiy san’atlar guruhlariga ajratilgan. Badiiy san’atlarning ba’zan faqat shaklbozlikdan iborat bo‘lib, asosiy maqsadga aylanib qolish hodisasini o‘z vaqtida nuktadon adabiyotshunos Abdurauf Fitrat ham qayd qilgan edi. Chunonchi, u tabiiy ravishda qo‘llanadigan badiiy san’atlarni «uslubning xususiy hollari», ko‘proq shakl bilan bog‘liq bo‘lganlarini esa «so‘z o‘yinlari» deb atagan edi.

Ilmiy tadqiqot manbalarida muayyan badiiy san’atlarning o‘tmish adabiyoti bag‘rida qolib ketishi sabablari ham ko‘rsatilgan. Bunday sabablar, birinchidan, ayrim badiiy san’atlarning nuqul shaklbozlikdan iborat ekanligida; ikkinchidan, mumtoz poetika va zamonaviy adabiyotshunoslikning badiiy asarni tahlil qilish tamoyillari bir-biridan ancha tafovut qilinishida; uchinchidan, aksariyat ijodkorlar, adabiyot ahlining mumtoz poetikadan bir qadar bexabarligida; to‘rtinchidan esa, 1929-yilgi imlo islohoti bilan bog‘liqdir.

Biroq bugungi adabiyot tasarrufidagi deyarli jami badiiy san’atlar mumtoz poetikaning mulkidir. Ushbu maqolada mumtoz adabiyotdan meros sifatida o‘tgan badiiy san’atlarni qo‘llashda an’ana va ijodiylik, badiiy san’atlarni qo‘llashda

Abdulla Oripov uslubining o‘ziga xosligi ***talmeh, tarse’, husni ta’lil*** singari san’atlar misolida asoslab berilgan.

Ushbu maqolada Abdulla Oripovning mumtoz badiiy san’atlarni qo‘llash mahoratini «Bul ajab xor kimsadan...» deb boshlanuvchi g‘azali tahlili orqali ochib berishga harakat qilindi. Adabiyotshunos olim Yoqubjon Is’hoqov «Qaytarish san’ati» nomli maqolasida «radd» san’atining tarmoqlari ellikdan oshishini ta’kidlaydi. A. Oripovning yuqorida tilga olingan g‘azalida ham mazkur lafziy san’atning bir necha ko‘rinishlari qo‘llangan:

Bul ajab, xor kimsadin imdod so‘raydi xorlar,

Siz bemor ko‘ksiga bosh urmangiz, ey bemorlar.

Bu baytda radd: «xor» – «xor» va «bemor» – «bemor». ***Radd ul-hashv il-al ajuz*** (ya’ni misra ichidagi so‘zning bayt oxirida kelishi) san’ati «bemor–bemor» takrori orqali amalga oshirilgan. Parallel takrorlar, ya’ni har ikki misra hashvidagi «xor kimsa» – «bemor» hamda a’ruz va ajuzdagi «xorlar» – «bemorlar» sinonimlardir. Baytdagi qaytariqlar ***tajnis*** xarakteriga ega, ya’ni birinchi misradagi «xor» so‘zi «kimsa» so‘zining aniqlovchisi bo‘lib, «notavon, pastkash, razil, nojins» degan ma’nolarni bildiradi.

Xuddi ana shu ma’nolari bilan bu so‘z “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”da berilgan «xor» so‘ziga emas, balki «dun» so‘ziga sinonimdir. Xususan, aniqlanmish sifatida «kimsa», ***tanziq us-sifat*** (bir necha sifatlarning ketma-ket kelishi) san’atini yuzaga chiqarayotgan «bul ajab» so‘zlarining keltirilishi kinoyaviylikni kuchaytirmoqda.

Demak, «bul ajab xor kimsa» shoir nazarida bechora, ammo o‘z bechoraligidan bexabar pastkash bir kimsa. Shunga parallel «bemor» so‘zi ham ma’naviy majruh kishilarga ishoradir. Misralar oxiridagi «xorlar» – «bemorlar» esa ma’naviy jihatdan ezilgan, ma’naviy yordamga muhtoj kishilarni anglatadi.

Butun g‘azal davomida ana shu ikki qarama-qarshi obrazga parallel obrazlar silsilasi vujudga keltirilgan:

xor kimsa – bemor – sayyorlar – ag‘yorlar – shayx xunxorlar – fosqlar – kimsalar bir zanjirni; xorlar – bemorlar – shams – rafiq – fozil-u donish eli – Yassaviy – Abdulla (lirik qahramon) ikkinchi zanjirni tashkil qiladi.

Shoir g‘azal boshida tilga olingan «kimsa» so‘zini maqta’da «kimsalar» shaklida takrorlaydi. Bu «kimsalar» hamisha pok qalbli insonlarga ta’na-malomot toshlarini otib turadigan, yaxshilikka shubha bilan qaraydigan kishilarni anglatadi. Bunday tadrijiy takror raddning yana bir ko‘rinishidir.

G‘azalning ikkinchi bayti to‘laligicha ***tamsil*** san’ati namunasi hisoblanadi. G‘azalda raddning yana bir turi – ***radd us-sadr il-al ibtido*** (ya’ni bayt boshidagi so‘zning keyingi misra boshida takrorlanishi)dan «Kim berib dunyoga zar…» deb boshlanuvchi baytda foydalanilgan.

She’r 1968-yilda yozilgan. Bu davrda Ahmad Yassaviy nomini ijobiy ma’noda tilga olish ham jasorat edi. Shuning uchun shoir keyingi baytda buni izohlaydi:

Kim berar dunyoga zar, abgor o‘lib qolgay o‘zi,

Kimki dorni buzsa gar, anga qurilgay dorlar.

Bu bayt ayrim jihatlari bilan aforizm darajasiga yaqinlashadi. Shu sababli u ***kalomi jomi’*** san’atining yorqin namunasidir. Shu bilan birga Yassaviy nomi orqali ***talmeh*** san’ati ham yuzaga kelgan.

Misralar boshlarida takrorlangan “kim” va “kimki” so‘zlaridagi ***k*** tovushi esa ***alliteratsiya*** **(tavze’)** san’ati orqali she’r ohangdorligini oshirmoqda. G‘azalda bundan tashqari ***b, d*** tovushlari ham ***tavze’*** san’atini mahorat bilan qo‘llashga asos bo‘lgan:

*Kimsalar, **b**a**d**b**i**n **d**eya **b**oqmang **b**u kun A**bd**ullaga.*

Shoir maqta’dan oldingi baytda ifodalangan tasvirlarni “moziy elidan zorlar” deb ataydi. Aslida esa shoir o‘z davri fojealarini, jamiyatdagi ma’naviy illatlarni fosh etishga intiladi. Bunday murakkab davrda ham shoir haqiqatni ayta olish yo‘lini topadi. Bu esa ***ta’viz*** san’atining namunasidir.

Biz ulug‘ shoirning bir g‘azalidagi ayrim bayt va misralar misolida mumtoz adabiyotdan bugungi davrgacha yetib kelgan badiiy san’atlarning qo‘llanishini, shoir mahoratini ko‘rsatishga harakat qildik. Ammo shuni alohida ta’kidlash lozimki, shoir

badiiy san’atlarni qo‘llashni bosh maqsad qilib olmagan, balki ular orqali fikr va g‘oyaning mukammal ifodalanishiga erishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. А-З. Э.И.Фозилов таҳрири остида. – Т.: Фан, 1983– 656 б.

2. Oripov A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2019. – 520 b.

3. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: O‘zbekiston, 2014. – 320 б.

4. Fitrat A. Adabiyot qoidalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – 160 b.

5. Hojiahmedov A. She’riy san’atlar va badiiy mahorat. – Toshkent: Sharq, 2002. – 240 b.

6. Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 160 b.

3-SHO‘BA: “ONOMASTIKA, TURKOLOGIYA VA LEKSIKOGRAFIYANING NAZARIY VA AMALIY MASALALARI” (NOMSHUNOSLIK, TURKIY TILLAR TADQIQI, LUG‘ATSHUNOSLIK)

JOZIBALI BAYON XOTIRADA BILIMLARNING MUSTAHKAM SAQLANIB QOLINISHINING OMILI SIFATIDA

Baxtiyor Xudoyberdiyevich Daniyarov

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti professori,

filologiya fanlari doktori

e-mail: bxdaniyarov@gmail.com

Annotatsiya: maqolada oliy ta’lim tizimida talabalarni o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar, innovatsion metodlar, usul va uslublar haqida fikr-mulohazalar yoritilgan. Fanlarga oid yangi atamalarga ilmiy terminologiyada berilayotgan ta’riflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *jozibali bayon; xotirada bilimlarning mustahkam saqlanib qolinishi; yangi tutum (prinsih), usul va uslublar.*

Abstract: The article discusses modern approaches, innovative methods, methods and techniques in teaching students in the higher education system. The definitions of new terms in scientific terminology are presented.

Keywords: *Engaging presentation; long-term retention of knowledge; New approaches (principles), methods, and styles.*

Аннотация: В статье рассматриваются современные подходы, инновационные методы и методики обучения студентов в системе высшего образования. Приводятся определения новых профильных понятий, представленных в научной терминологии.

Ключевые слова: *Привлекательное изложение; Прочное сохранение знаний в памяти; Новые подходы (принципы), методы и стили.*

XXI asr – raqamli texnologiyalar mislsiz darajada shiddat bilan rivojlanayotgan, xususan, sun’iy intellekt yaratilinib va takomillashtirilib borilayotgan, usbu texnologiyalar inson faoliyati va jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab

olayotgan, моҳиятан zamonaviy yangi davr бўлиб, kishilik jamiyati barcha sohalarining taraqqiyoti bilan birga fanlar mazmuni, bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash yo‘llarining ham tubdan yangilanib borilishini taqozo etmoqda [5: 135].

Shu bois, axborot texnologiyalari, texnika, qurilish-muhandislik kabi universitetlarda gumanitar-ijtimoiy, xususan filologik fanlarning sifatli o‘tilishini ta’minlashning eng yaxshi omillaridan biri bu – talaba yoshlarning ta’lim va tarbiyasi uchun dars va mashg‘ulotlarni maroqli tarzda zamonaviy texnologiyalar va an’anaviy milliy qadriyatlarni o‘zida qamrab olgan o‘quv adabiyotlari hamda ushbu maqola muallifi tomonidan ishlab chiqilgan yangi kompleks metodika va uslublar jamlanmasi asosida oqilona hamda maqsadli tashkil etish yangi davr talabidir [3-95].

Jumladan, kamina qalamiga mansub quyidagi qofiyali qoidalar uslubida:

Jozibali bayon qil/ Aniq, tiniq ayon qil.

Oddiy, sodda va ravon/ Tushunarli va oson.

Mantiqiy izchil, ixcham/ Qiziqarli ta’sirchan [4: 15].

Ushbu qofiyali qoidalarda Jozibali bayon nima? degan savolga mantiqiy ketma-ketma ketlikda aniq, javoblar berilgan:

Jozibali bayon talabani (tinglovchini, suhbatdoshni, adresatni va hokazo) darsga faol jalb qila olishdir. Buning uchun domla talabaga yangi mavzuni, dars mazmunini “oddiy, sodda va ravon, tushunarli va oson, aniq, tiniq – ochiq oydin, mantiqiy ketma-ketlikda, ixcham, yaxlit ayon qiladigan uslubda anglatishi lozim. Shundagina domla darsning maqsadiga erishib, mashg‘ulotlarning talabalar uchun ham tushunarli, ham qiziqarli va ta’sirchanligini ta’minlaydi [8: 16].

Shungdek, ushbu qofiyali qoidalar jamlanmasidan iborat jozibali bayon uslubi talabalarga nutqiy vaziyat va muloqot maqsadidan hamda adresat (tinglovchi, suhbatdosh va hokazo)ning bilim darajasi, ularning tanlagan kasb sohasidan kelib chiqqan holda nihoyatda boy bo‘lgan adabiy tilimizdan so‘zlarni саралаб олишни, фикр ва ҳис-туйғуларни aniq, содда ва ravon, tushunarli va oson, o‘rinli va ихчам қилиб ифодалашni o‘rgatadi.

Savol berib qiziqtir,/ javob izlab miriqsin qoidasi talabalarga qiziqarli savol berishni va unga ilmi toliblarning maroq bilan izlanib, mantiqiy izchil, ixcham javob berishlarini o‘rgatadi.

Mantiqiy ketma-ketlikda berilgan savollar assotsiativ bog‘lanishlarni faollashtiradi, qidirilmishlarning – xotiradan izlanilayotgan narsalarning yodda tushishini tezlashtiradi. Kalit so‘zlar matndagi eng asosiy so‘zlar bo‘lib, matnning mazmun mohiyatini yodga soladi. Yana ham oddiyroq qilib aytganda, kalit so‘zlar esga tushadigan va boshqa izlanilayotgan so‘zlarni ham tez esga tushiradigan asosiy so‘zlardir.

O‘rgan – o‘rgat. O‘rgansa shaxdam/ Tez olar mahkam. Varianti: O‘rgansa, shaxdam, yodda qolar mahkam.

Qofiyali qoidalardagi har bir so‘zning ma’nosini bolalarga aniq, sodda qilib tahlil qilib berish kerak. Masalan,

Shaxdam so‘zining ma’nosi nima? Javob: Shaxdam – tez va dadillik bilan; tetik va dadil.

Quyidagi iboralarining qaysi biri so‘zlashuv uslubiga xos:

Eslab qoldi, yodlab qoldi, xotirasida qoldi, xotirasida saqlab qoldi, “bittada oldi”

O‘rgansa, o‘rgata oladi. / O‘rgatsa, yodida qoladi qofiyali qoida bo‘lib, uning mazmun-mohiyatini tushunib olishlaring uchun quyidagi matnni diqqat bilan o‘qib chiqing. Matnni o‘qish jarayonida savol tug‘ilsa, qo‘l ko‘tarib murojaat qilsangiz javobini birgalikda topamiz.

Xotirada saqlab qolishning samarali usuli. Xotirada mustahkam saqlab qolishning eng samarali usullaridan biri qiziqib o‘rganish bo‘lsa, yana biri o‘rganganini qiziqtirib o‘rgata olishdir. Kompyuter texnologiyalarining asos algorim – amallarni ketma-ketlikda bajarish. Buning uchun ularni eslab qolish kerak. Eslab qolish uchun esa, masalan, zamonaviy gajet – qurilmalar funksiyalarini bilish va ularni qo‘llay olish uchun bu qurilmalar bajaradigan amallarning bajarilishi ketma-ketligini o‘rganib, ularni amalda takror va takror qo‘llash kerak. “O‘rgan – o‘rgat” qodiasining asosiy mazmuni: O‘rgan – o‘zing o‘rgan, o‘rgat – o‘zingga va boshqalarga ham o‘rgat, degani – o‘rganganlariningni amalda, o‘rganish jarayonida

ham, o‘rgatish jarayonida ham mantiqiy ketma-ketlikda, izchil qayta va qayta takrorlab borib amaliy ko‘nikma hosil qilish. Shundagina o‘rganganlaring avtomatlashganlik darajasiga yetadi. Qiyoslang “toy-toy”lab endigina yurishni o‘rganiyotgan chaqaloqning, ulg‘ayganida bosayotgan shaxdam qadamlarini, yoki moshina ruliga birinchi marta o‘tirgan o‘rganuvchining moshina haydashini uning tajribali bo‘lib, rulda atrofni tomosha qilib, yoki hamrohi bilan bemalol suhbat qilib, moshinani malakali boshqarishini. Takror va takror bajariladigan amallar jozibali va maroqli, foydali va kerakli bo‘lsagina, inson (domla, talaba, o‘rgatuvchi, o‘rganuvchi va hokaz) zerikmay o‘rganadi va zerikmay o‘rgatadi.

Xotirada saqlab qolishning samarali usullari ushbu qofiyali qoidalarda ham mujassamlashgan:

1) Jozibali bayon qil, / Aniq, tiniq ayon.

Oddiy, sodda va ravon, / Tushunarli va oson.

Mantiqiy izchil, ixcham, / Qiziqarli ta’sirchan.

Ushbu qoidalarning qaysi biri sizga ko‘proy yoqdi. Nima uchun?

2) *Ilm olish – mashaqqat, / Qiziqsang – yengil. Rohat!* Ushbu qofiyali qoidani qanday tushundingiz. Asoslab bersangiz.

Endi yoshlarga motivatsiya beradigan, ularni maqsadlari sari yetaklaydigan quyidagi qofiyali to‘rtlikka e’tiborni qaratamiz:

Qalamlaring o‘tkir bo‘lib,

Yuraklaring baxtga to‘lib,

Eng zo‘r ilmi tolib bo‘lib,

Mashhur bo‘lgin g‘olib bo‘lib!

Uchinchi misraga diqqat bilan e’tibor bering. Ushbu misraning quyida keltirilganday variantlari ko‘p bo‘lgan:

Olamshumul olim bo‘lib;

Sohada zo‘r olim bo‘lib;

O‘z sohangda olim bo‘lib;

“Nomer odin” olim bo‘lib.

Diqqat bilan o‘rganib chiqib, aytingchi, ushbu uchinchi misraning variantlaridan qaysi biri sizga ko‘proq yoqdi, qaysi birini tanlagan bo‘lar edingiz. Ushbu to‘rtlikning muallifi nima uchun “Eng zo‘r ilmi tolib bo‘lib”da to‘xtagan?

Talabalarning javoblari eshitiladi. Domla talabalarning ushbu qiziqarli bahs-munozarasida moderator vazifasini bajaradi. Yuqorida berilgan savolga quyidagi umumlashgan javob tayyorlanadi:

Mazkur to‘rtlik muallifining “Eng zo‘r ilmi tolib bo‘lib”da to‘xtaganligining sababi shundaki, 3-misraning qolgan barcha variantlarida “olim bo‘lib” jumlasi qo‘llangan. Vaholanki, raqamli texnologiyalar davrida, xususan, kompyuter yoki dasturiy injiniring sohalarini tanlagan talabalarning kamdan-kami kelajagini ilmiy faoliyat bilan bog‘laydi, ularning aksariyati qiziqqan yo‘nalishlari bo‘yicha bilim, ayniqsa, amaliy ko‘nikmalarni puxta egallab, hayotda katta daromad keltiradigan ishlar bilan shug‘ullanishni orzu qiladi.

Muallif uzil-kesil tanlagan “Eng zo‘r ilmi tolib bo‘lib”ning zamirida “o‘rgan-o‘rgat” tutumi yotibdi. Bu degani zamon bilan hamnafas va hamqadam bo‘lib, kun sayin yangilanib borayotgan zamonaviy texnologiyalardan boxabar bo‘lib, ularni puxta o‘rganib, maslakdoshlaringga o‘rgatib borsang, o‘rganishdan, mehnat qilishdan charchamasang, sen albatta orzu qilgan kasbingga, yezgu maqsadingga erishasan, qiyinchiliklarni yengib g‘olib va mashhur bo‘lasan. “Nomer odin olim bo‘lib” o‘zbek adabiy tili me’yoriga zid. Bu jumla ma’lum uslubiy maqsadni ko‘zlab, jumladan, talabalarning o‘z nutqlariga e’tiborli bo‘lishga, o‘zbek tilida so‘zlashayotganlarida, xorijiy so‘zlarni noo‘rin qo‘llashdan qochishga chorlab tuzilgan. O‘zbek tili juda boy, borliqda, atrof-olamda mavjud va ro‘y berayotan hamda inson miyasi tomonidan qabul bo‘lib anglaniyotgan, ko‘nglida kechayotgan har qanday narsani, voqea, hodisa, jarayonni, fikr, sezim, his-tuyg‘ularni ona tilimizda ifoda etish mumkin. “Tilga e’tibor, elga e’tibor”, deb Navoiy bobomiz bejiz aytmaganlar.

Endi ushbu to‘rtlikning boshqacharoq ko‘rinishini o‘rgananish jarayonida so‘zlarning ma’no va uslubga ta’sirini aniqlaymiz:

Qalamlaring o‘tkir bo‘lsin,

Uslubing tez, keskir bo‘lsin,

Bo‘l sohangda ilmi tolib,

Elda mashhur, aziz g‘olib!

Variantlar: Sohangda bo‘l eng zo‘r tolib, (3-misra); Elga mashhur, asil g‘olib (4-misra); Elga manzur, mashhur g‘olib! (4-misra).

Har ikki to‘rtlikning birinchi misrasi deyarli bir xil ko‘rinishga va umumiy ma’noga ega. Qiyoslang:

Qalamlaring o‘tkir bo‘lib va Qalamlaring o‘tkir bo‘lsin

Ammo ularning konmatn ma’nosi (kontekst semantikasi) farqli xususiyatlarga ega. Xususan, birinchi to‘rtlikda birinchi misra asosan o‘zini kelajakda mashhur filolog, jurnalist, so‘z ustasi, el tanigan adib, yetuk tilshunos, keng ommaga manzur bo‘lgan qalam sohibi sifatida ko‘rayotgan talabalarga bag‘ishlangan bo‘lsa (*Qalamlaring o‘tkir bo‘lib*), ikkinchi to‘rlikning birinchi misrasi esa yangi zamonaviy ma’noda qo‘llangan bo‘lib, universitet, institutlarda ta’lim olayotgan barcha talabalarga bag‘ishlangan: *Qalamlaring o‘tkir bo‘lsin,/ Uslubing tez, keskir bo‘lsin*.

Ushbu misralarning ma’nolari raqamli texnologiyalar davrida kengayib, an’anaviy ma’nolariga yangi ma’no noziklari qo‘shilgan. Jumladan, ayti sohasi mutaxassislari uchun: *Qalamlaring o‘tkir bo‘lsin,/ Uslubing tez, keskir bo‘lsin* jumlalari kompyuterda, internetda, dasturiy ilovalarni mukammal o‘rganib, o‘z sohangning ustasi bo‘lib, o‘ziga xos tezkor uslubni egallab, shiddat bilan o‘z sohangda yangiliklar yaratib, ixtiro qilib, mashhur bo‘lib g‘olib bo‘l ma’nosini ham anglatadi [6: 19].

Mazkur to‘rtliklarni qiyoslab tahlil qiling:

Qalamlaring o‘tkir bo‘lib,
Yuraklaring baxtga to‘lib,
Eng zo‘r ilmi tolib bo‘lib,
Mashhur bo‘lgin g‘olib bo‘lib!

2) *Qalamlaring o‘tkir bo‘lsin,*
Uslubing tez, keskir bo‘lsin,

Bo‘l sohangda ilmi tolib,

Elda mashhur, aziz g‘olib!

Mazkur ikki to‘rtlikdan qaysi biri sizga ko‘proq manzur bo‘ldi. Sizga ma’qulini yodlab olishingiz mumkin. She’r yodlashni yomon ko‘rsangiz, mayli yodlamay qoya qoling, lekin uning mazmun-mohiyatini darsda qiziqish bilan yaxshi anglab, tushunib olganingiz uchun xotirangizda muhrlanib qolib, sizga bir umr asqotadi. Buning uchun biz sinonimlar – ma’nodosh so‘zlarni nutqimizda to‘g‘ri tanlab, to‘g‘ri qo‘llashni o‘rganishimiz kerak.

Masalan, “sizga bir umr asqotadi” jumlasidagi asqotadi so‘zining ma’nodoshlarini, so‘z birikmalari shaklida bo‘lsa ham mayli, toping:

Asqotadi, foyda beradi, nafi tegadi, em bo‘ladi...va hokazo.

Eng muhimi hozirgi zamonda hushyor va ogoh bo‘lib yurish juda katta ahamiyatga ega. Metroga tushasizmi, avtobus bekatida bo‘lasizmi, ijtimoiy tarmoqlardami, jumladan, telegram mesenjeridami, rasmiy kanallardami “Ogohlik davr talabi” mavzusiga oid, sizni yomon niyatli insonlardan, zararli, xavfli xatti-harakatlardan, kiber jinoyatchilarning nishoni bo‘lishdan ehtiyot bo‘lishga chorlovchi xabarlarga ko‘zingiz tushadi.

Bo‘l omadli, doim omon,

Hushyor, sergak, ogoh sog‘lom!

Var. Bo‘l ishonchli, doim omon.

Talabalar lug‘atida “ishonchli so‘zi omadliga qaraganda ancha kam uchranligi, omad so‘zini esa ular o‘z nutqlarida juda faol qo‘llanganligi bois “Bo‘l omadli, doim omon” jumlasiga to‘xtaganmiz. Shu bilan birga domla ilmi toliblarga ijtimoiy va shaxsiy hayotda, ularning kasbiy faoliyatlarida, halol biznes olamida ishonchli bo‘lish fazilati juda muhim ekanligini aniq, hayotiy misollarda tushuntirib, isbotlab beradi.

Savol: Hushyor, sergak, ogoh, so‘zlarining yana qanday ma’nodoshini ayta olasiz, o‘zbek shevalarida uchraydigani bo‘lsa ham mayli: ziyrak, tetik, tirik, jonli...

Quyidagi qofiyali to‘rtlikka e’tiborni qarating. Domlalari tomonidan talabalarga ushbu sinonim so‘zlarning umumiy – o‘xshash ma’nolari hamda ularni

nutqda bir-biridan farqlovchi ma’no nozikliklari oddiy, sodda va ravon uslubda tushuntiriladi [1: 200].

Sinonim ko‘p, bilmoq kerak:

hushyor, sergak, ogoh, ziyrak.

Hushyor,Sergak hushyor tortdi.

Ogoh, Ziyrak - jimjit. – Qotdi.

Ushbu hazil-mutoyiba tarzida qofiyali qilib tuzilgan misollar orqali talabalarga ma’nodosh so‘larning o ‘ziga xos jihatlari qiziqarli tushuntiriladi: Ma’lum nutqiy vaziyatlarda *hushyor tortdi*, *sergak tortdi* jumlalarini qo‘llash – odatiy hol, lekin *ogoh tortdi*, *ziyrak tortdi* deyilmaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Данияров Б. Х. Ўзбек тили лексик синонимларининг лисоний ва нутқий муносабати, лексикографик тадқиқи. Монография.- Тошкент: “Sano-Standart” нашриёти, 2019.- 200 б.

2. Данияров Б.Х. Комплексный анализ семантической структуры и функционирования лексических синонимов. Монография / Б.Х. Данияров. – Ташкент: Издательство Bookmany print, 2022. – 156 с. – С. 120-121.

3. Данияров Б.Х. Инновацион технологиялар асосида таълим жараёнлари сифат ва самарадорлигини ошириш. Монография. -“Sano-Standart” нашриёти, 2014.- 160 б. - Б. 95

4. Данияров Б.Х. Жозибали дарс – ҳам қарз, ҳам фарз. // Тошкент иқтисодиёт ва педагогика институти илмий-методик журнали, №1 (2024 йил, сентябрь): – Т.: ТИПИ,2024, Б. 15.

5. Данияров Б.Х. Академик ёзув дарсларида замонавий смартфонлардан самарали фойдаланиш. - Компьютер лингвистикасининг замонавий технологиялари. Вазирлик миқёсидаги илмий-назарий анжумани илмий мақолалари ва тезислари тўплами (2023-yil 14 апрель). –Т.: ЎзМУ, 2023. – 135-бет.

6. Данияров Б.Х. Иследование лексической синонимии, возникшей на базе заимствований в современном узбекском языке. Автореферат диссертации... канд. филол. н. - Москва: Институт языкознания РАН, 1993.

7. Данияров Б.Х. Dars sifati va jozibadorligini oshirishga zamonaviy yondashuvlar // “Ilm-fan, ta‘lim-tarbiya, innovatsiya: zamonaviy vazifalari va istiqbollari” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman (2024-yil 3-may). –Toshkent: TIPI, 2024. - Б. 111.

8. Данияров Б.Х. Talabalarda professional ko‘nikmalarni rivojlantirishda nomutaxassislik fanlarini jozibali o‘qitishning ahamiyati. - Lomonosov Moscow State University Branch in Tashkent and the International Scientific Journal “Science and Innovation” for participation in the VIII International Scientific and Practical Conference titled “Professional Development of Personality: Global Trends in the Formation of 21st Century Competencies” held on December 19, 2025. P.16.

9. Данияров Б.Х. Yangi fanlarni o‘qitishning yangi tutum, usul va uslublari xususida // - “Umumfilologik tadqiqotlar: muammolar va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. – Chirchiq, 2025. - B. 14.

O‘TUKAN UYG‘UR XOQONLIGI BITIGTOSHLARIDAGI “SHAXSDAN KICHIKLIK” SEMASINI IFODALOVCHI LEKSEMALAR

Dustmurodov Ma’rufjon Mansur o‘g‘li[31]

Annotatsiya. Mazkur maqola O‘tukan Uyg‘ur Xoqonligi bitigtoshlarida shaxsdan kichiklik semasini ifodalovchi qadimgi turkiy leksemalarni tahlil qiladi. Tadqiqotda qarindoshlik va ijtimoiy maqomga asoslangan leksik birliklar, xususan, “qiz”, “ini”, “oγul”, “uluγ oγul”, “urï / uru”, “atï” kabi leksemalar o‘rganilgan. Maqola shuni ko‘rsatadiki, “qiz” leksemasi dastlab biologik jinsni bildirgan bo‘lsa,

[31] Dustmurodov Ma’rufjon Mansur o‘g‘li – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent. TDSHU.
E-mail: maruf_dust@mail.ru
ORCID: 0009-0003-4954-9504

keyinchalik ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy kontekstlarda semantik kengayishga uchragan. “Ini” so‘zi dastlab xoqon oilasidagi ukalarni bildirgan bo‘lib, keyinchalik nikoh orqali vujudga kelgan qarindoshlik va unvonlarni ifodalash imkonini ham kasb etgan. “Oγul” va “urï” leksemalari erkak farzand va yigit ma’nosida ishlatilgan, “uluγ oγul” birikmasi esa harbiy unvon va ijtimoiy maqom qatlamlarini aks ettirgan. Shuningdek, “atï” leksemasi jiyan yoki nabira ma’nosida ishlatilgani qayd etilgan. Tadqiqot qadimgi turkiy leksik sistemaning semantik, morfologik va ijtimoiy qatlamlarini ochib beradi va ularning zamonaviy turkiy tillarga ta’sirini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar. *tarixiy turkiy leksemalar, qarindoshlik leksemalari, qiz, ini, oγul, uluγ oγul, atï.*

Abstract. This article analyzes the lexemes expressing the semantic category of “younger kinship” in the Ötüken Uygur Khaganate inscriptions. It examines lexical units based on kinship and social status, including “qiz” (girl/daughter), “ini” (younger brother), “oγul” (son/child), “uluγ oγul” (eldest son/young man), “urï/uru” (male child), and “atï” (nephew/grandchild). The study demonstrates that the lexeme “qiz” initially denoted biological gender but later underwent semantic expansion in social, economic, and political contexts. The lexeme “ini” originally referred to younger brothers in the Khagan’s family and later acquired meanings related to in-laws and official titles. “Oγul” and “urï” were used for male children and young men, while “uluγ oγul” also conveyed military rank and social status. Additionally, “atï” was used for nephews or grandchildren. The research highlights the semantic, morphological, and social layers of the Old Turkic lexicon and traces their influence on modern Turkic languages. By analyzing these inscriptions, the article sheds light on the interplay between kinship terminology and political-hierarchical structures in early Turkic society.

Keywords. *historical Turkic lexicos, kinship lexicos, qiz, ini, oγul, uluγ oγul, atï.*

Qadimgi turkiy bitigtoshlar nomenklaturasidagi eng salmoqli sig‘imlardan birini shaxsga qarindoshlik va yaqinlik tushunchasini anglatuvchi leksik birliklar tashkil etadi. chunki bir tomondan, hokimiyat va ma’muriyatchilik urug‘-qavmchilikka tayanilib boshqarilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan qarindoshchilikka tarixiy va uzib

bo‘lmas qadriyat sifatida qaralgan. ushbu guruhni quyidagicha ichki guruhchalarga ajratish mumkin. o‘tukan uyg‘ur xoqonligi bitigtoshlaridagi “shaxsdan kichiklik” semasini ifodalovchi so‘zlar guruhiga *yägän* – “jiyan; unvon” (mch $_{g‘\ 8;}$ su $_{8;}$ ar $_{1;}$ xt $_{vii\ 3}$); *atï* – “jiyan; nabira?” (qch $_{7;}$ su $_{8}$); *oγlan* – “o‘g‘il-ini, avlodlar” (su $_{9}$); *oγul* – “farzand; kishi, odam; o‘g‘il (bola)” (mch $_{g‘\ 3;\ sha\ 7;}$ tar $_{shi\ 3,\ 4;}$ tes $_{g‘\ 5,\ 6,\ 7;}$ su $_{2,\ 10,\ 11;}$ qch $_{5;}$ qb $_{ii\ 12;}$ su $_{6}$); *uluγ oγul* – “katta frazand; o‘g‘il” (su $_{10}$); *ini* – “ini, uka” (su $_{6;}$ qch $_{10;}$ xt $_{xiv\ 1;\ xvi\ 2}$); *urï / uru* – “o‘g‘il” (mch $_{g‘\ 3;}$ su $_{6}$); *qïz* – “qiz” (mch $_{g‘\ 3,\ 4;\ sha\ 3;}$ su $_{6,\ 7}$) kabi leksemalarni kiritish mumkin.

Bitigtoshlarda dastlab “turmushga chiqmagan ayol” [32] ma’nosini ifodalagan *qïz* – “qiz” leksemasi keyingi tarixiy davrlarda bir qancha semantik o‘zgarishlarni boshdan kechirgan. ushbu leksema suji bitigida bevosita “qiz farzand” ma’nosida tilga olingan: “*inim: yäti:urum: üč: qïzïm: üč: ärti: äblädim: oγulïmïn: qïzïmïn: qalïŋsïz bärtim* – inim yettita, o‘g‘lim uchta, qizlarim uchta edi. (ularni) uyladim. bolalarimni qizimni qalinsiz berdim”. (su $_{6,\ 7}$). ushbu parcha nafaqat so‘zning qadimgi turkcha ma’nosi ochib berishga xizmat qilmoqda, balki qizning ijtimoiy munosabatlar va jamiyatdagi maqomi bilan bog‘liq qirralarni oydinlashtirmoqda. chunonchi qiz uzatganda evaziga qalin olish an’anasining qadimgi turkiy jamiyatda ham mavjudligi uning *urï / uru* – “o‘g‘il”dan kam bo‘lmagan mavqeyini bildirmoqda.

Bitigtoshlardagi ba’zi o‘rinlar “qiz” ma’nosida qo‘llangan leksemaning semantik kengayishga uchrab, “qimmatbaho tovar; kanizak; qul; asira” kabi qo‘shimcha ma’nolarni ham o‘zlashtirganini ko‘rsatadi. xususan, shine usu bitigidagi quyidagi jumlalar bu fikrimizni dalillaydi: *“... süŋüsdim: šančdïm: yïlqïšïn: barïmïn: qïzïn: quduzïn: kälirtim* – sanchdim (o‘ldirdim). otlarini, boyliklarini, qizlarini, xotinlarini olib keldim” (shu $_{sha\ 3}$); *“...yayladïm: ...tabγač qanï: qaγan ... bärmiš:... si bir qïz säkiz urï oγlïn* – ... yozni o‘tkazdim. ...mish tabg‘ach xoqoni ... ketibdi. ... bir qiz (va) sakkiz o‘g‘ilni qo‘lga oldim” (shu $_{g‘3}$); *“taqïγu yïlqa: ...bärmiš: ... yoq qïlmïš: ančïp:kälti äki qïzïn* – ... u yerda ... xalqi ... – tovuq yilida (757) ... -dim ... berdi ...yo‘q qildi. shunday keldi. ikki qizi bilan” (shu $_{g‘\ 4}$). mazkur misollar shuni ko‘rsatadiki, bitigtoshlardagi “qiz” leksemasi dastlab biologik jinsni bildirgan bo‘lsa,

[32] Aydın E. Orhon Yazıtları. Kömen; Caferoğlu, A. (2015). Eski Uygur Türkçesi Sözlüğü. Türk Dil Kurumu. 2014.

keyinchalik iqtisodiy va ijtimoiy kontekstlarda semantik kengayishga uchragan. bu leksemaning kontekstga qarab ishlatilishi qadimgi turkiy jamiyatda inson va mol-mulk tushunchalarining ijtimoiy va siyosiy jihatdan bog‘liqligini, shuningdek, urush va siyosiy ekspluatatsiya sharoitida shaxs qadri bilan bog‘liq holda leksik birliklarning metaforik kengayishini aks ettiradi.

So‘zning bunday ma’nosi qoraxoniylar davrida ham davom etib, “qimmatbaho, qimmatli narsa” ma’nosidan tashqari, “kanizak; cho‘ri; qiz” kabi ma’nolarda ham ishlatilgan (dlt i 315). ayniqsa, leksemaning bevosita “qimmatli” ma’nosida ishlatilishi “qutadg‘u bilig”dagi quyida berilgan misolda yaqqol gavdalanadi: “*qïz ermäs bu jalŋuq kišilik qïz ol, az ermäs bu jalŋuq könilik az ol* – odam qimmatli emas – odamgarchilik qimmatli, odam oz emas – to‘g‘rilik oz” (qbn, 73_2; qbn, 851). So‘z keyingi davrlarda fonologik tizimidagi almashinuvlar va ayrim lahjaviy xususiyatlarga bog‘liq *qïz, ħïz, Ĥïr* va *hįr* shakllarida[33], xususan, chuvash tilida *hir*, o‘rta turkiy va qirg‘iz tillarida *qïrqïn* (*-qïn* qo‘shimchasi bilan) “ayol qullar” ma’nosida[34], qozoq, o‘zbek, qozon-tatar va uyg‘ur turk tillarida *qiz*, yakut tilida esa *kiz* shakllarida saqlanib qolgan. bu holat so‘zning umumturkiy ildizga ega ekanini va tarixiy jarayonda turli fonetik hamda semantik o‘zgarishlarga uchraganini ko‘rsatadi. Zamonaviy turkiy tillarda so‘z dastlabki semantik yadrosi saqlanib, “yosh qiz, qiz, bokira” kabi ijobiy va neytral ma’nolarda qo‘llanib kelmoqda. Bu holat so‘zning umumturkiy ildizga ega ekanini va tarixiy rivojlanish davomida fonetik hamda semantik qatlamlarini saqlab kelganini ko‘rsatadi. Shuningdek, uning ibtidoiy “asira, qul” kabi eng quyi darajali semalardan hozirgi turkiy tillarda “umuman qiz farzand” kabi neytral ma’no kasb etishi, qolaversa, *qizi borning nozi bor, qizi bor uy – jannat, qiz – jannat kaliti* kabi paremiologik birliklardagi yuksak semantikasi ushbu leksema ishora qiluvchi shaxsning jamiyatdagi maqomi va ahamiyatining oshishi bilan asoslanadi.

Bitigtoshlarda asosan “uka” ma’nosida uchrovchi *ini* birligi suji bitigida “kichik uka” ma’nosida tilga olingan: “*inim: yäti: urum: üč: qïzïm: üč: ärti: äblädim:*

[33] Sŏng Lı. Y. Türk Dillerinde Akrabalık Adları. Simurg yayınları. 1999 – S. 131.
[34] Gülensoy T. Türkiye Türkçesindeki Türkçe sözcüklerin Köken Bilgisi Sözlüğü. Türk Dil Kurumu. 2007 – S. 522.

oγulïmïn: qïzïmïn: qalïŋsïz bärtim – inim yettita, o‘g‘lim uchta, qizlarim uchta edi. (ularni) uyladim. bolalarimni qizimni qalinsiz berdim”. (su $_{6,\ 7}$). Leksema dastlab xoqon oilasiga mansub qarindoshlar uchun ishlatilib, bu xoqonzoda qari chor teginning bo‘gu bilga tangri xonning ukasi ekanligini eslatish borasida tilga olinadi: *“bögü bilgä täŋri qan inisi qarï čor tigin* – bo‘gu bilga tangri xonning ukasi qari chor tegin” (qch $_{8\text{-}12}$). Bir qancha tadqiqotchilar tomonidan “kichik uka” ma’nosi tasdiqlangan[35] ushbu so‘zni T.Gulensoy “qaynog‘a” ma’nosida izohlaydi[36]. Bunday talqinga so‘zning tarixiy matnlarda pochcha tomonidan “xotinning ukasi”ga nisbatan qo‘llanilgan holatlar sabab bo‘lgan bo‘lishi kerak. Aytish lozimki, leksema yenisey yodnomalarida “aka” ma’nosida ham ishlatilgani aniqlangan. Qolaversa, mazkur bitiklarda *ini*’dan yasalgan *inilig* leksik birligi uchraydiki, mazkur so‘z morfologik jihatdan *ini* asosiga *-lig* affiksi qo‘shilishi orqali hosil bo‘lib, ko‘plik va umumlashtiruvchi ma’no ifodalagan holda “kichik erkak birodarlar” tushunchasini anglatgan. Bu holat qadimgi turkiy til tizimida qarindoshlik terminlarining derivatsion imkoniyatlari keng bo‘lganini ko‘rsatadi. Keyingi davr hujjatlarida so‘zning affiksal kengayishli *ini, inäk, inäkä*[37] kabi turli fonetik shakllari uchraydi. shuningdek, zamonaviy turkiy tillarda leksema sezilarli semantik kengayishga uchrab, nafaqat biologik qarindoshlikni, balki nikoh orqali vujudga kelgan qarindoshlik munosabatlarini ham ifodalab, “kichik ukasi, erining ukasi, qaynog‘asi, otasining ukasi (amaki), opasi, erining singlisi, qaynog‘asi[38], murojaat shakli, kichik qiz farzand” kabi juda keng va murakkab ma’nolarni kasb etgan. Bitigtoshlardagi *ini* leksemasi dastlab xoqon oilasidagi ukalarni bildirgan bo‘lsa, keyinchalik “kichik uka”, “qaynog‘a”, “aka” va nikoh orqali vujudga kelgan qarindoshlik shakllarini ham ifodalovchi keng semantik diapazon kasb etgan. Shuningdek, *inilig* kabi derivatsiyalar morfologik jihatdan ko‘plik va umumlashtiruvchi ma’nolarni bildirgan, bu qadimgi turkiy tilda qarindoshlik terminlarining semantik va derivatsion imkoniyatlari keng bo‘lganini ko‘rsatadi.

[35] Caferoğlu A. Eski Uygur Türkçesi Sözlüğü. Türk Dil Kurumu. 2015 – S. 95.
[36] Gülensoy T. Türkiye Türkçesindeki Türkçe sözcüklerin Köken Bilgisi Sözlüğü. Türk Dil Kurumu. 2007 – S. 437.
[37] Sŏng Lı. Y. Türk Dillerinde Akrabalık Adları. Simurg yayınları. 1999 – S. 154.
[38] Çağbayır Y. Ötüken Türkçe Sözlük. Ötüken yayınları. 2007 – S. 2183.


Kezi kelganda shuni ham ta’kidlash lozimki, *ini* so‘zi Xoyto Tamir bitigida unvon nomi tarkibida gavdalanadi: “*ini öz inänčü yïlan yïl öz inänčü tarduš küli čor bäš balïqa barïr* – ini o‘z inanchu ilon yilida o‘z inanchu (bilan?) tardush kuli chor beshbaliqqa boradi” (xt $_{xiv\ 1-4}$); *“yïlan yïl onunč ayqa ini öz inänčü bäš balïqa barïr män* – ilon yilining o‘ninchi oyida ini o‘z inanchu beshbaliqqa boraman” (xt $_{xvi\ 1-3}$). bu o‘rinda *ini* so‘zining unvon vazifasida qo‘llanishi qadimgi turkiy jamiyatda qarindoshlik terminlarining ijtimoiy-siyosiy iyerarxiyani ham ifodalaganini ko‘rsatadi. dastlab “kichik uka” ma’nosini bildirgan *ini* leksemasi semantik kengayish natijasida hukmron sulolaga mansub, lekin oliy hokimiyat egasidan quyi turuvchi, ma’lum vakolat va mustaqil harakat imkoniga ega shaxsni anglatgan. ayniqsa, *ini öz inänčü’*ning yil-oy bilan aniq sanalib, beshbaliq singari muhim siyosiy markazga borishi uning oddiy qarindosh emas, balki rasmiy maqomga ega shaxs ekanini tasdiqlaydi. bu esa, qadimgi turkiy jamiyatda qarindoshlik hamda hokimiyat iyerarxiyasi uzviy bog‘liq bo‘lganini aks ettiradi. Bunday atalish hozirgi o‘zbek jonli so‘zlashuv tilida ham uchraydi. xususan, *opasi, ukasi, kuyov* shakli orqali ushbu qarindoshlik darajasi tegishli shaxslar (ya’ni ular)ning jamiyat va davlat boshqaruvida tutgan o‘rni muhimligiga ishora qilinadi.

Qadimgi turkiy davrda “erkak bola” tushunchasini ifodalovchi muhim birliklardan biri bo‘lgan *urï / uru* so‘zi har ikki jins uchun qo‘llangan *oγul* so‘zidan farqli ravishda faqat “erkak bola, erkak farzand” ma’nosini ifodalash uchun ishlatilgan[39]. Leksema quyidagi bitiglarda uchraydi: “*inim: yäti: urum: üč: qïzïm: üč: ärti: äblädim: oγulïmïn: qïzïmïn: qalïŋsïz bärtim* – inim yettita, o‘g‘lim uchta, qizlarim uchta edi. (Ularni) uyladim. Bolalarimni qizimni qalinsiz berdim”. (Su $_{6,\ 7}$); *“... bir qïz säkiz urï oγlïn: ... äki bodunuγ alïp* – ... bir qiz (va) sakkiz o‘g‘il farzandini qo‘lga oldim. ... yana ... ikki qabilani (qo‘lga) olib” (MCh $_{G‘\ 3}$). Leksema uyg‘ur davri turkiycha matnlarida “erkak farzand” ma’nosi bilan birga yosh va ijtimoiy mavqe, unvonni ham ifodalagani ko‘zga tashlansa[40], Qoraxoniylar davrida ham “erkak farzand” ma’nosida ishlatilib, ushbu davrdan keyingi tarixiy matnlarda

[39] Erdal M. Old Turkic Word Formation. A Functional Approach to the Lexion I-II. Wiesbaden. 1991 – P. 197.
[40] Caferoğlu A. Eski Uygur Türkçesi Sözlüğü. Türk Dil Kurumu. 2015 – S. 266.

uchramaydi[41]. Bu holat so‘zning boshqa sinonimik birliklar tomonidan siqib chiqarilganini ko‘rsatadi. Umuman olganda, mazkur so‘z qadimgi turkiy davrda “erkak bola” tushunchasini ifodalovchi muhim terminlardan biri bo‘lib, ayrim tarixiy bosqichlarda semantik kengayishga uchragan bo‘lsa-da, keyingi davrlarda faol qo‘llanishdan chiqib ketgan leksik birlik sifatida baholanadi.

Qarindoshlik uyasiga mansub *atï* leksemasi bilan bog‘liq quyidagi parcha e’tiborlidir: “(8.) *yäginmin: atïmïn: körtim: ïmtï: öltüm:…* – jiyanlarimni, (nabiralarimni?) ko‘rdim. Endi o‘ldim” (Su $_{8}$). Ushbu satr boshqa tadqiqotlarda “Jiyanlarimning shon-shuhratini ko‘rdim”[42] shaklida o‘girilgan. Ya’ni *atïmïn* so‘zi “shon-shuhrat” ma’nosida tushunilgan: *at* – qadimgi turkcha “ot, nom, unvon” ma’nosidan, ya’ni “nomi chiqdi, ya’ni men buni ko‘rdim” mazmunida. Agar shunday bo‘lsa, bu so‘z *atï(mïn)* shaklida emas, *atïsïn,* ya’ni *yäginmin atïsïn* – “jiyan(lar)imning nomi, shon-shuhrati” shaklida yozilish kerak edi. Lekin satr *y(ä)g(i)nm(i)n (a)t(ï)m(ï)n* shaklidadir (1-rasm).



*y(ä)g(i)nm(i)n (a)t(ï)m(ï)**n***

Yana bir manbaga ko‘ra, satrdagi *atï(mïn)* so‘zini qadimgi turkiy tilda “jiyan” ma’nosini bildirishi allaqachon asoslangan[43] *atï* leksemasining aynan o‘zi deyishadi. Shuningdek, ba’zi tadqiqotchilar mazkur so‘zni “nabira” ma’nosida talqin qilishga harakat qilishgan.

“Uluγ oγulïm: s(ükä) bardï – Katta o‘g‘lim urushga (erta?) ketdi” (Su $_{10}$). Qadimgi turkiy bitiklarda *oγul* so‘zi jinsi ko‘rsatilmagan holda “bola, o‘g‘il” uchun qo‘llanganligi sababli *oγulïmïn* o‘qishi o‘z kuchini yo‘qotadi. Bitigtosh yaratilgan davr turkchasida “o‘g‘il” ma’nosida ishlatilganda *oγul* so‘zi doimo yuqorida biz tilga

[41] Sŏng Lı Y. Türk Dillerinde Akrabalık Adları. Simurg yayınları. 1999 – S. 201.
[42] Сарткожаулы К. Суджинские надписи (новый перевод и толкавние). Турк жазба ескерткіштері. – Астана. 2015 – С. 11.
[43] Clauson G. *An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish*. Oxford: Oxford University. 1972. – P. 40.

olgan *urï* (erkak) so‘zi bilan sifatlangan. Bu Kultegin bitigida yaqqol ko‘zga tashlanadi: *“Tabγač bodunqa bäglik urï oγlïn qul boltï* – Tabg‘ach xalqiga bek bo‘ladigan (beklikka loyiq) o‘g‘il bolasi bilan qul bo‘ldi” (KT $_{7}$). *urï’*ning aynan o‘g‘il bolani anglatishi keyingi asrlarda ham davom etgan. Xususan, bu so‘z XI-XII asr matnlarida yakka holda kelib, “o‘g‘il, yigit” ma’nolarini anglatadi: *“Talïm urï yarïnča yasïčın, yalïm qayay yara urupan, yalïŋusun yorïyur, tir* – yassi o‘q bilan yalang‘och toshlarni ikkiga bo‘lgan jasur yigit aylanib yuradi, deydi” (IB, 40); *“Yana yandru kälmä ay ärsig urï* – Endi boshqa kelma, ey mard yigit” (QBN, 2777; QBN, 3749). *urï* “Devoni lug‘otit turk”da ham yakka holda “o‘g‘il bola” deb izohlangan (DLT I, 115): Bitigning 6-qatoridagi *“inim: yäti: urum: üč: qïzïm: üč: ärti* (inim yettita, o‘g‘lim uchta, qizlarim uchta edi) jumlasi *uru* so‘zining “erkak bola” uchun ataylab tanlash bilan qo‘llanganligini ko‘rsatadi. H.Shiringa ko‘ra, 10-qatordagi *“uluγ oγulïm: s(ükä) bardï”* (katta o‘g‘lim urushga (erta?) ketdi) jumlasidagi *oγul* so‘zi “o‘g‘il bola” ma’nosida qo‘llanganiga aniq dalil yo‘q. Bu gapni “Mening (katta) bolam” deb talqin qilish kerak[44]. Bu fikrda asos bordek, chunki Mahmud Koshg‘ariy ham bu so‘zni “ulug‘, har narsaning ulug‘i” tarzida izohlagan (DLT I, 95). Shu o‘rinda ushbu fikrga qo‘shimcha talqin: e’tiborli jihati *uluγ* so‘zi hozirgi o‘zbek turkchasida “to‘ng‘ich; yigit” ma’nolarini yo‘qotmagan. Jumladan, O‘TILda ulug‘ leksemasi “kuchli, buyuk, ustun, o‘z ishida muvaffaqiyatga erishgan, rahbar, yo‘lboshlovchi, bek, yigit” deya izohlangan (O‘TIL IV, 280-81). Tahmin qilish mumkinki, satrning *uluγ oγulïm* birikmasini “katta bolam” yoki eng to‘g‘rirog‘i “yigit bolam” ma’nosida tushunish maqsadga muvofiqroq bo‘ladi. Yana bir talqin: bitigtoshlar davri matnlarida *uluγ* so‘zining harbiy unvon darajasini ham bildirganini e’tibordan chetda qoldirmalik kerak. Jumladan, “buyuk, oliy, yuksak” ma’nolaridagi *uluγ* ramziy unvoni ko‘k turk va uyg‘ur yozuvlaridan Kul Tegin bitigida quyidagicha tilga olinadi: *“Anta kisrä Yär Bayïrqu Uluγ Ärkin yayï boltï* – undan keyin Yer Bayirqu (li) Ulug‘ Erkin dushman bo‘ldi” (KT $_{34}$). II Sharqiy Turk Xoqonligi asoschisi *Qutluγ Ältäriš’*ning (682-691) inisi *Bögü čör Qapγan qayan* (691-716) Tan

[44] Hatice ŞİRİN USER. Kan Ağla- Ve Baş Bağla- Deyimlerinin Bilge Kağan Ve Suci Yazitlari Temelinde Açiklamasi. Türkbilig, 2008/16. – P. 137-145.

imperiyasi tomonidan El-tarish ulug‘ shanyuy (xit. *sye-tye-li-shi da shan-yuy*)[45] unvoniga loyiq ko‘rilgani yilnomalarda zikr qilinadi[46]. Demak, *uluγ oγulïm* birikmasidagi birinchi so‘z harbiy unvon ma’nosida ham qo‘llangan bo‘lsa, ne ajab. Bitig muallifi o‘g‘lining harbiy jasoratini ko‘ra olmaganidan pushaymonligi haqida *“körmädim: ïr…: oγul* – ko‘rmadim ... o‘g‘l(im)” (Su $_{11}$) deb yozib qoldirgan.

Xullas,O‘tukan Uyg‘ur Xoqonligi bitigtoshlarida shaxsdan kichiklik semasini ifodalovchi qadimgi turkiy leksemalar tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, *qiz, ini, oγul, “uluγ oγul, urï/uru* va *atï* kabi leksemalar dastlab biologik yoki qarindoshlik ma’nosini bildirgan bo‘lsa, keyinchalik ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy kontekstlarda semantik kengayishga uchragan. Tadqiqot qadimgi turkiy tilning semantik va morfologik qatlamlari, shuningdek, qarindoshlik va hokimiyat iyerarxiyasining o‘zaro bog‘liqligini ochib beradi. Shu bilan birga, ushbu leksemalarning fonetik, semantik va derivatsion o‘zgarishlari zamonaviy turkiy tillardagi qarindoshlik va ijtimoiy unvonlar tizimiga ta’sir ko‘rsatganini tasdiqlaydi.

Adabiyotlar.

1. Aydın E. Orhon Yazıtları. Kömen; Caferoğlu, A. (2015). Eski Uygur Türkçesi Sözlüğü. Türk Dil Kurumu. 2014.
2. Caferoğlu A. Eski Uygur Türkçesi Sözlüğü. Türk Dil Kurumu. 2015 – S. 95.
3. Çağbayır Y. Ötüken Türkçe Sözlük. Ötüken yayınları. 2007 – S. 2183.
4. Clauson G. *An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish*. Oxford: Oxford University. 1972. – P. 40.
5. Erdal M. Old Turkic Word Formation. A Functional Approach to the Lexion I-II. Wiesbaden. 1991 – P. 197.
6. Gülensoy T. Türkiye Türkçesindeki Türkçe sözcüklerin Köken Bilgisi Sözlüğü. Türk Dil Kurumu. 2007 – S. 522.
7. Gülensoy T. Türkiye Türkçesindeki Türkçe sözcüklerin Köken Bilgisi Sözlüğü. Türk Dil Kurumu. 2007 – S. 437.

[45] Бобоёров. Ғ. Ғарбий Турк хоқонлиги давлат тузуми. – Т.: Янги нашр, 2018. – *Б. 176.*
[46] Togan İ., Kara G., Baysal C. Çin kaynaklarında Türkler. Eski T’ang Tarihi. – Ankara: TTK, 2006. – S. 240.

8. Hatice ŞİRİN USER. Kan Ağla- Ve Baş Bağla- Deyimlerinin Bilge Kağan Ve Suci Yazitlari Temelinde Açiklamasi. Türkbilig, 2008/16. – P. 137-145.

9. Sŏng Lı. Y. Türk Dillerinde Akrabalık Adları. Simurg yayınları. 1999 – S. 154.

10. Togan İ., Kara G., Baysal C. Çin kaynaklarında Türkler. Eski T’ang Tarihi. – Ankara: TTK, 2006. – S. 240.

11. Бобоёров. Ғ. Ғарбий Турк хоқонлиги давлат тузуми. – Т.: Янги нашр, 2018. – *Б. 176.*

12. Сарткожаулы К. Суджинские надписи (новый перевод и толкавние). Турк жазба ескерткіштері. – Астана. 2015 – С. 11.

O‘ZBEK TOPONIMLARINING LINGVOKULTUROLOGIK VA KOGNITIV XUSUSIYATLARI

Nuniyazova Shaxlo Ulugbekovna[47]

https://orcid.org/0009-0009-4432-9733

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek toponimik tizimi lingvokulturologik va kognitiv-lingvistik yondashuvlar asosida tadqiq etiladi. Joy nomlarining til birliklari sifatida emas, balki xalqning tarixiy xotirasi, madaniy qadriyatlari va mental dunyo manzarasini saqlovchi “madaniy matnlar” sifatidagi o‘rni yoritiladi. Tadqiqotda umumiy onomastika, kognitiv lingvistika va madaniy semantika nazariyalariga tayanilgan holda, o‘zbek toponimlarida konseptual metafora, tarixiy qatlamlar va milliy mentalitetning aks etishi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *o‘zbek tili, toponimiya, onomastika, lingvokulturologiya, kognitiv lingvistika, madaniy semantika, konsept, mentalitet*.

[47] *Nuniyazova Shaxlo Ulugbekovna* - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
E-pochta: nuniyazovashahlo@gmail.com

Abstract. This article examines Uzbek toponyms within the frameworks of linguoculturology and cognitive linguistics. Place names are viewed not merely as geographical labels but as “cultural texts” that preserve historical memory, cultural values and the national worldview of the speech community. Drawing on general onomastic theory, cognitive linguistics and cultural semantics, the study analyses how Uzbek place names encode conceptual metaphors, historical strata and elements of national mentality.

Keywords: *Uzbek language, toponymy, onomastics, linguoculturology, cognitive linguistics, cultural semantics, concept, mentality.*

Аннотация. В статье узбекская топонимическая система рассматривается в рамках лингвокультурологического и когнитивно-лингвистического подходов. Топонимы трактуются не только как географические обозначения, но и как «культурные тексты», в которых закрепляются историческая память, культурные ценности и национальная картина мира. Опираясь на общую теорию имени собственного, когнитивную лингвистику и культурную семантику, автор анализирует, каким образом узбекские географические названия кодируют концептуальные метафоры, исторические пласты и элементы национального менталитета.

Ключевые слова: *узбекский язык, топонимия, ономастика, лингвокультурология, когнитивная лингвистика, культурная семантика, концепт, менталитет.*

Kirish. Toponimlar zamonaviy antropotsentrik tilshunoslikda til, madaniyat va tafakkur chorrahasida joylashgan murakkab birliklar sifatida qaralmoqda. A.V. Superanskaya joy nomlarini “xalq tajribasi va tarixiy xotirasining ixcham kodlari” sifatida talqin etib, ular orqali jamiyatning qadriyatlari, e’tiqodlari va atrof-muhitni idrok etish usullari aks etishini ta’kidlaydi [4, 266-b.]. V.A. Nikonov ham toponimlarni “ko‘p qatlamli tarixiy palimpsest” deb atab, har bir nom ostida bir necha davr va madaniy qatlamlar yashiringanini ko‘rsatadi [3, 122-b.].

Kognitiv lingvistika va lingvokulturologiya yutuqlari shuni ko‘rsatadiki, toponimlar tildagi oddiy nominativ birlik bo‘lib qolmay, xalqning lisoniy dunyo

manzarasi, mental modellari va madaniy konseptlarini yorituvchi muhim manbadir [5, p. 63]. O‘zbek tili toponimik tizimi ham ana shunday madaniy-kognitiv yuklama bilan ajralib turadi. Maqolaning maqsadi — o‘zbek toponimlarining lingvokulturologik va kognitiv xususiyatlarini mavjud onomastik va kognitiv-lingvistik nazariyalar asosida yoritish, ularning semantik tuzilishida aks etgan milliy mentalitetni tahlil qilishdan iborat.

Nazariy-metodologik asoslar. Toponimlarni lingvokulturologik va kognitiv nuqtayi nazardan o‘rganish uchun bir qator klassik manbalar tayanch bo‘lib xizmat qiladi. A.V. Superanskayaning “Общая теория имени собственного” asarida toponimlar tizimi til tizimining alohida ostsistemi sifatida talqin qilinadi [4]. Kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan esa, A. Wierzbicka madaniy semantika doirasida “kalit so‘zlar” konsepsiyasini ilgari surib, ayrim leksik birliklarni ma’lum xalq madaniyati va dunyoqarashini tushunish uchun ochqich sifatida ko‘radi [5].

O‘zbek toponimlarini tahlil qilishda metafora, freym, ssenariy va konsept kabi tushunchalar markaziy o‘rinni egallaydi. Bu tushunchalar joy nomining ortidagi konseptual modelni va madaniy freymni aniqlash imkonini beradi.

2. O‘zbek toponimlarining lingvokulturologik tasnifi

O‘zbek toponimik tizimida bir necha asosiy lingvokulturologik qatlamlarni ajratish mumkin. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan quyidagi jadval ushbu tizimni kognitiv-semantik jihatdan tasniflaydi:

1-jadval. O‘zbek toponimlarining kognitiv-semantik tasnifi

Toponim turi	Kognitiv model (Freym)	Madaniy konsept	Misollar
Gidronimlar	"Hayot manbai" ssenariysi	Suvning tabarrukligi, poklik	Oqsuv, Qorasuv, Sardoba
Oronimlar	"Himoya va balandlik" metaforasi	Kuch, salobat, chegara	Chimyon, Mug‘tog‘, Qoratepa
Agroonimlar	"Mehnat va baraka" freymi	Dehqonchilik madaniyati	Bog‘ishamol, Dehqonobod
Antrotoponimlar	"Tarixiy shaxs" arxetipi	Ajdodlar xotirasi, e’tiqod	Zangiota, Mirzo Ulug‘bek

O‘zbek toponimik tizimida so‘nggi o‘n yilliklarda “identifikatsiya transformatsiyasi” hodisasi kuzatilmoqda. Tarixiy nomlarning qaytarilishi nafaqat tilning lug‘at tarkibini boyitadi, balki jamiyatning kognitiv dunyo manzarasida “o‘zlikni anglash” (self-identification) freymini faollashtiradi. Bu jarayonda toponim shunchaki manzil emas, balki milliy g‘urur va tarixiy adolat konseptining lisoniy timsoliga aylanadi.

3. Kognitiv-lingvistik talqin va metaforizatsiya

Kognitiv yondashuvda toponimlar konseptual metaforalar orqali talqin qilinadi. Masalan, o‘zbek tilidagi “suv” bilan bog‘liq toponimlarda suvning hayot manbai sifatidagi konsepti muntazam uchraydi. “O‘zbek madaniyatida suv” monografiyasida qayd etilishicha, suvning “hayot manbai”, “qut-baraka” va “poklik” konseptlari asosiy semantik o‘zaklarni tashkil etadi [6, 22-b.].

O‘zbek gidronimiyasida “Oq” va “Qora” determinantlari shunchaki rangni ifodalamaydi. Kognitiv nuqtayi nazardan “Oqsuv” — muzliklardan keladigan tiniq suv (ijobiy konsept), “Qorasuv” esa yer ostidan sizib chiquvchi turg‘unroq suv (neytral-deskriptiv konsept) ma’nosini yuklaydi. Bu A. Wierzbicka ta’kidlagan “madaniy kalit so‘zlar”ning toponimik tizimdagi in’ikosidir [5, p. 63].

Toponimik metaforalar (masalan, “Tuyatortar”, “Ilono‘tti”) landshaftni inson tanasi yoki hayvonot olami bilan qiyoslash orqali kognitiv metamorfoza hosil qiladi. Bu jarayon V.A. Nikonov aytganidek, insonning notanish makonni o‘zlashtirish va uni “o‘ziniki” qilish (domestication) instinkti bilan bog‘liq [3, 45-b.].

4. Statistik tahlil va diagramma modeli

O‘zbek toponimlarining shakllanishida kognitiv omillarning ulushini quyidagi shartli model orqali ifodalash mumkin (1-rasm):

1-rasm. Toponimlar shakllanishidagi kognitiv omillar ulushi

- Tabiiy-geografik xususiyatlar (Deskriptiv): 40%
- Tarixiy xotira va shaxslar (Antrotoponimlar): 30%
- Diniy-sakral tasavvurlar: 15%
- Xo‘jalik va ijtimoiy faoliyat: 15%

Ushbu diagramma toponimlar bazasini tahlil qilish natijasida olingan xulosalarni vizuallashtirishga xizmat qiladi va o‘zbek toponimikasida tabiat hamda tarixiy shaxslar konsepti yetakchi ekanini ko‘rsatadi.

Xulosa. O‘zbek toponimlari til tizimining o‘ziga xos ostsistemi bo‘lib, unda lingvokulturologik va kognitiv-lingvistik xususiyatlar uzviy tarzda mujassamdir. Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. O‘zbek toponimik tizimi tarixiy-madaniy va diniy-ma’naviy qatlamlarni o‘z ichiga olib, xalqning dunyoqarashini aks ettiradi.
2. Kognitiv nuqtayi nazardan, toponimlarda konseptual metafora va freymlar faol ishlaydi. Suv, tog‘ va ziyorat konseptlari lisoniy dunyo manzarasining tayanch nuqtalaridir.
3. Toponimlar nafaqat geografik orientatsiya vositasi, balki jamoviy madaniy xotira ombori hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Голомидова, М. В. Искусственная номинация в русской ономастике. – Екатеринбург: Уральский гос. пед. университет, 2003. – 210 с.
2. Lucy, J. A. Language Diversity and Thought: A Reformulation of the Linguistic Relativity Hypothesis. – Cambridge: Cambridge University Press, 1992. – 304 p.
3. Никонов, В. А. Введение в топонимику. – Москва: Наука, 1965. – 256 с.
4. Суперанская, А. В. Общая теория имени собственного. – Москва: Наука, 1973. – 367 с.
5. Wierzbicka, A. Understanding Cultures through Their Key Words: English, Russian, Polish, German, and Japanese. – New York–Oxford: Oxford University Press, 1997. – 352 p.
6. Аширов, А. Ўзбек маданиятида сув. – Тошкент: Akademnashr, 2020. – 240 б.

MUSTAQILLIK DAVRI O‘ZBEK ADABIYOTIDA FRAZEOLOGIZMLARNING OBRAZ YARATISHDAGI ROLI

Abdukayumova Zilola Gayratjanovna

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu tezis mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida frazeologizmlarning lingvistik va badiiy xususiyatlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqot jarayonida frazeologik birliklarning badiiy matndagi semantik tuzilishi, kontekstual talqini hamda obraz yaratishdagi o‘rni o‘rganildi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, frazeologizmlar zamonaviy o‘zbek nasrida oddiy nutq vositasi sifatida emas, balki qahramon ruhiy holatini ochib berish, muallif munosabatini ifodalash va milliy mentalitetni aks ettirishda muhim badiiy unsur sifatida namoyon bo‘ladi. Mustaqillik davriga xos ijtimoiy va ma’naviy o‘zgarishlar fonida frazeologik birliklar yangi mazmun bilan boyib, kontekstual jihatdan kengroq talqin qilinmoqda.

Kalit so‘zlar: *frazeologizm, badiiy matn, lingvistik tahlil, kontekstual talqin, obrazlilik, estetik yuklama, zamonaviy o‘zbek nasri, mustaqillik davri adabiyoti, milliy mentalitet, lingvopoetika.*

Mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti milliy tafakkur, estetik qarashlar va til imkoniyatlarining yangicha bosqichini boshlab berdi va bu davr adabiyotida nafaqat mavzu va g‘oyalar kengaydi, balki badiiy tilning ichki qatlamlari ham faol harakatga keldi. Ayniqsa, frazeologik birliklarning badiiy nutqda qo‘llanilishi yanada jonlandi. Negaki, frazeologizmlar xalqning ko‘p asrlik tajribasi, dunyoqarashi va hissiy munosabatini ixcham va ta’sirchan shaklda ifodalay oladigan til birliklaridir. Ular qahramonning ichki kechinmalari, ruhiy holati, ijtimoiy mavqei va hayotga munosabatini ochib berishda asosiy vositalardan biriga aylanadi. Shu bilan birga, frazeologik birliklar orqali milliy mentalitet, tarixiy xotira va ma’naviy qadriyatlar badiiy shaklda namoyon bo‘ladi va bu holat mustaqillik davri adabiyotining o‘ziga xos jihatlaridan biri sifatida e’tiborni tortadi. Bugungi kunda frazeologizmlarni faqat tilshunoslik doirasida emas, balki adabiy matn kontekstida o‘rganish zarurati tobora ortib bormoqda. Chunki badiiy asarda frazeologik birlik o‘zining lug‘aviy ma’nosidan tashqari, muallif niyati, kontekst va obrazlar tizimi bilan bog‘liq holda

yangi ma’no qatlamlarini hosil qiladi. Shu sababli ularni lingvistik va badiiy jihatdan birgalikda tahlil qilish ilmiy jihatdan muhim hisoblanadi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida qo‘llanilgan frazeologizmlarning lingvistik xususiyatlari va badiiy funksiyalarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonida frazeologizmlarning semantik tuzilishi, kontekstual ma’nosi hamda obraz yaratishdagi roli tahlil qilinadi. Shuningdek, ularning muallif uslubini shakllantirishdagi ahamiyati ham yoritib beriladi.

Mazkur tadqiqotda mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida frazeologizmlarning lingvistik va badiiy xususiyatlarini aniqlash maqsadida kompleks va tizimli yondashuv tanlandi va tadqiqot metodologiyasi tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlari kesishmasida olib borildi, chunki badiiy matnda qo‘llangan frazeologik birliklar faqat til hodisasi sifatida emas, balki estetik va ma’naviy mazmun tashuvchi birliklar sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois tahlil jarayonida frazeologizmlarning shakli, mazmuni va funksiyasi bir butun holda ko‘rib chiqildi. Tadqiqot materiali sifatida mustaqillik davrida yaratilgan badiiy nasr namunalaridan olingan matnlar asos qilib olindi. Ushbu matnlarda uchraydigan frazeologik birliklar tanlab olinib, ularning qo‘llanish doirasi va nutqiy vazifasi aniqlashtirildi.

Avvalo, frazeologizmlar matndan ajratib olinib, ularning kontekst bilan bog‘liqligi tahlil qilindi.Tadqiqotda lingvistik tahlil usuli yetakchi o‘rin egalladi. Bu usul orqali frazeologizmlarning semantik tuzilishi, barqarorlik darajasi va ichki ma’no qatlamlari aniqlandi. Shu bilan birga, kontekstual tahlil yordamida frazeologik birliklarning qahramon nutqidagi, muallif bayonidagi hamda tasviriy vosita sifatidagi o‘rni yoritildi. Ayrim holatlarda birgina frazeologizm butun epizodning ruhiy ohangini belgilab berishi kuzatildi. Shuningdek, funksional tahlil usulidan foydalanilib, frazeologizmlarning badiiy-estetik vazifalari aniqlashtirildi. Ular orqali obrazlilikni kuchaytirish, ruhiy holatni ifodalash, muallif munosabatini bilvosita yetkazish kabi jihatlar alohida ko‘rib chiqildi. Qiyosiy tahlil usuli esa frazeologik birliklarning mustaqillik davriga xos yangicha mazmun va talqinini aniqlashga xizmat qildi. Bu jarayonda an’anaviy frazeologik birliklarning yangi ijtimoiy va ma’naviy mazmun bilan boyigani e’tiborga olindi. Tadqiqot davomida kuzatuv va

tavsiflash usullari ham qo‘llanildi. Har bir frazeologik birlik real matn asosida tahlil qilinib, umumiy xulosalar individual misollar orqali asoslandi. Ushbu metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining izchil, asosli va ilmiy jihatdan ishonchli bo‘lishini ta’minladi hamda mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida frazeologizmlarning lingvistik va badiiy ahamiyatini chuqurroq anglash imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida frazeologizmlar badiiy nutqning eng faol va ta’sirchan qatlamlaridan biriga aylangan. Xususan, Normurod Norqobilov va Isajon Sulton ijodida frazeologik birliklar oddiy til hodisasi sifatida emas, balki obraz yaratishning muhim vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning asarlarida frazeologizmlar qahramonning ichki kechinmalarini ochish, hayotiy vaziyatlarga munosabatini ifodalash hamda muallif pozitsiyasini bilvosita yetkazishda faol ishtirok etadi. Tahlil jarayonida aniqlanishicha, Normurod Norqobilov asarlarida frazeologizmlar ko‘pincha ruhiy holat va psixologik ziddiyatlarni ifodalashga xizmat qiladi. Qahramonning ichki iztirobi, ikkilanishi yoki umidsizligi ko‘pincha frazeologik birliklar orqali lo‘nda, ammo kuchli ta’sir bilan ifodalanadi. Bu holat matnning hissiy yukini oshiradi va o‘quvchini qahramon ruhiy dunyosiga yaqinlashtiradi. Natijada frazeologizm matnda shunchaki bezak emas, balki mazmunni chuqurlashtiruvchi asosiy unsurlardan biriga aylanadi. Isajon Sulton ijodida esa frazeologizmlarning badiiy vazifasi biroz boshqacha tus oladi. Uning asarlarida frazeologik birliklar ko‘proq falsafiy mushohada, ramziy ma’no va umumlashma fikrlarni ifodalashga yo‘naltirilgan.

Frazeologizmlar orqali hayot, vaqt, inson va taqdir haqidagi mulohazalar badiiy shaklga solinadi. Bu esa matnga chuqur ma’naviy qatlam qo‘shadi va frazeologik birliklarning semantik imkoniyatlarini kengaytiradi. Tadqiqot natijalari shuni ham ko‘rsatdiki, mustaqillik davri adabiyotida an’anaviy frazeologizmlar yangi ijtimoiy va ma’naviy mazmun bilan boyigan. Ular zamonaviy hayot manzaralariga moslashib, yangi kontekstda qayta talqin qilinadi. Shu orqali milliy mentalitet, xalqona tafakkur va zamonaviy dunyoqarash o‘zaro uyg‘unlashadi. Har ikki yozuvchi ijodida frazeologizmlar muallif uslubini individuallashtiruvchi muhim omil sifatida

namoyon bo‘lib, mustaqillik davri o‘zbek adabiyotining til boyligini yaqqol ko‘rsatadi.

Olingan natijalar mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida frazeologizmlarning faqat til birligi sifatida emas, balki badiiy tafakkurning muhim ifoda vositasi sifatida shakllanganini ko‘rsatadi. Tadqiqot davomida kuzatilgan holatlar shuni tasdiqlaydiki, frazeologik birliklar yozuvchi va o‘quvchi o‘rtasida emotsional va ma’naviy bog‘lanishni kuchaytiruvchi ko‘prik vazifasini bajaradi. Ayniqsa, mustaqillik davriga xos ijtimoiy o‘zgarishlar, ruhiy izlanishlar va qadriyatlar yangilanishi fonida frazeologizmlar badiiy matnda yanada faol va mazmunan boy holda namoyon bo‘ladi. Normurod Norqobilov ijodi misolida qaralganda, frazeologizmlar qahramon ruhiy holatini ochib berishda yetakchi vositalardan biri ekanligi ayon bo‘ladi. Ularning qo‘llanishi ko‘pincha ichki monologlar, hayotiy tanlovlar va ruhiy ziddiyatlar bilan chambarchas bog‘liq. Bu esa frazeologik birliklarning psixologik yukini oshiradi. Natijada badiiy matn soddalashmaydi, aksincha, ichki ma’no qatlamlari bilan boyiydi. Bu holat frazeologizmlarning lingvistik chegaradan chiqib, badiiy-estetik hodisaga aylanganini ko‘rsatadi.

Isajon Sulton ijodida esa frazeologizmlar ko‘proq falsafiy umumlashmalarni ifodalashga xizmat qiladi. Uning asarlarida frazeologik birliklar vaqt, taqdir, inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni ramziy tarzda ochib berishga yordam beradi. Bu jihat frazeologizmlarning semantik imkoniyatlari qanchalik keng ekanini namoyish etadi. Bunday yondashuv natijasida frazeologizm o‘zining an’anaviy ma’nosini saqlagan holda, yangi badiiy kontekstda yangicha talqin kasb etadi. Muhokama jarayonida aniqlangan yana bir muhim jihat shundaki, mustaqillik davri adabiyotida frazeologizmlar milliy mentalitetni aks ettirish bilan birga, zamonaviy dunyoqarashni ham ifodalashga xizmat qiladi. Bu holat frazeologik birliklarning tirik va harakatchan til hodisasi ekanini tasdiqlaydi. Ular davr ruhiga mos ravishda yangilanadi, mazmunan boyiydi va badiiy nutqning ajralmas qismiga aylanadi. Shunday qilib, frazeologizmlarni lingvistik va badiiy jihatdan birgalikda tahlil qilish mustaqillik davri o‘zbek adabiyotini chuqurroq anglash uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot natijalari mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida frazeologizmlarning lingvistik va badiiy ahamiyati nihoyatda yuqori ekanini ko‘rsatdi. Frazeologik birliklar bu davr badiiy asarlarida oddiy nutq vositasi sifatida emas, balki obraz yaratish, ruhiy holatni ochish va muallif munosabatini ifodalashda muhim badiiy unsurga aylangan. Ular orqali qahramonning ichki kechinmalari, hayotga munosabati hamda davr ruhiga xos ijtimoiy va ma’naviy jarayonlar ta’sirchan tarzda yoritiladi. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, frazeologizmlar mustaqillik davri adabiyotida yangi mazmun va kontekst bilan boyib, milliy mentalitet va zamonaviy tafakkur uyg‘unligini aks ettiradi. Bu holat frazeologik birliklarning til tizimidagi barqarorligi bilan birga, ularning mazmunan harakatchan va moslashuvchan ekanini tasdiqlaydi. Yozuvchilar ijodida frazeologizmlarning turlicha talqin qilinishi muallif uslubining individualligini belgilashga xizmat qiladi. Umuman olganda, frazeologizmlarni lingvistik va badiiy jihatdan birgalikda tahlil qilish mustaqillik davri o‘zbek adabiyotining til boyligi va estetik imkoniyatlarini chuqurroq anglashga imkon beradi. Mazkur tadqiqot natijalari kelgusida frazeologiya va badiiy nutq masalalarini yanada kengroq va chuqurroq o‘rganish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Normurod Norqobilov. Tanlangan asarlar to‘plami. – Toshkent: O‘zbekiston, 2005.

2. Isajon Sulton. Hikoyalar va qissalar. – Toshkent: Sharq, 2008.

3. Yo‘ldoshev B. O‘zbek frazeologiyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 1999.

4. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 2006.

5. Qo‘ng‘irov R., Begmatov E. Badiiy nutq va uslub masalalari. – Toshkent: Fan, 2004.

XALQ DOSTONLARIGA XOS PAREMALAR

N.N.Xadjimusayeva

JDPU dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

tel: 94 576-79-28

nxadjimusayeva@mail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada «Orzigul» dostonidagi paremalar, ya’ni frazeologizmlarning tarkibining ma’lum bir qismi tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: *Dostonlar tiliga xoslangan iboralar, leksik-frazeologik tarkibi, sinonim, adabiy til, xalq dostonlari matnidagi iboralarning semantikasi.*

Аннотация: В данной статье анализируется определённая часть композиции парем, то есть фразеологизмов, в эпической поэме «Орзигуль».

Ключевые слова: *Фразеологические единицы, характерные для языка эпосов, лексико-фразеологическая композиция, синоним, литературный язык, семантика фраз в тексте народных эпосов.*

Abstract: This article analyzes a certain part of the composition of the paremas, that is, phraseologisms, in the epic poem "Orzigul".

Keywords: *Phraseological units characteristic of the language of epics, lexical and phraseological composition, synonym, literary language, semantics of phrases in the text of folk epics.*

Folklor asarlar tilidagi, ya’ni xalq dostonlari matnidagi iboralarning semantikasi bir qancha lug‘atlarda izohlangan. Biz tadqiqotimizda buning hammasiga to‘xtalib o‘tmoqchi emasmiz, balki faqatgina «Orzigul» dostonining leksik-frazeologik tarkibining ma’lum bir qismini tahlilga tortmoqchimiz, xolos. Dostonda iboralar miqdor jihatdan ko‘p va asar badiiyatini ta’minlovchi asosiy lingvistik birliklardir. Bu FBlarni ikki guruhga ajratishimiz mumkin. Tilimizda hozirda ham faol qo‘llanib kelinayotgan FBlar ularning birinchi qismini tashkil etsa, bu imkoniyatlari chegaralanganlarini ikkinchi guruhga kiritishimiz to‘g‘ri bo‘ladi.

Bizni bu o‘rinda FBlarning ikkinchi guruhi qiziqtiradi va buning sabablari bor. «Muayyan etnik birliklarning tafakkur va ruhiyati darajasini namoyon etishda vaqtida va joyida topib aytilgan, teran tagma’noga ega bo‘lgan va ko‘p qo‘llangani uchun

qat’iy shaklga tushib qolgan» bu iboralar doston tasvir tizimi va Islom shoir ijodiy manerasining tarkibiy qismini tashkil etadi va uning bayon uslubini belgilashdagi etakchi omillardan sanaladi. Tasvir uslubidagi bu yetakchilik quyidagi holatlarda ko‘zga tashlanadi:

Birinchidan, dostondagi FBlarning ma’lum qismi adabiy tilimizda kam qo‘llanadi va ular o‘z o‘rnini shu mazmundagi boshqa iboraga bo‘shatib bergan. Masalan: *Bino bo‘lmoq.* Ibora dostonlar tiliga *tug‘ilmoq* ma’nosi bilan xoslangan. «Orzigul»da 4 marta uchraydi: *Bir dahmarda cho‘pon sizdan sadag‘a, To‘ram, bino bo‘ldingiz qaysi qalaga (284); Bino bo‘ldim men Oqtosh shahringda, Momam buyurgandi hakim kishiga (371); Ko‘zim tushdi senday dono to‘raga, Bino bo‘lding, jonim, qanday o‘lkada (302).* SHu ma’noda boshqa dostonlarda ham qo‘llanilgan: *Sen qadarli qaysar bino bo‘lmagan, Xabar bergin, qo‘zim, qaydan bo‘lasan? («Bahrom va Gulandom»).* Hatto bu ibora stilistik formulalarning tarkibiy qismiga aylangan: *Bino bo‘lding qaysi gavhar donadan, Senday yigit bino bo‘lmas enadan, Parvoz qilding qaysi mazgilxonadan, Baland parvoz xonim, qaydin kelasan? («Alpomish»); Bino bo‘lding qaysi gavhar donadan, Parvo qilding qaysi manzil xonadan? («Bahrom va Gulandom»)* kabi.

Xalq dostonlari tilida *chiyasi chiqmoq* iborasi uchraydi. Ibora B.Yo‘ldoshev va D.O‘rinboyevalarning «O‘zbek xalq dostonlarining chastotali izohli frazeologik lug‘ati»da (Toshkent, 2008) keltirilmagan. O‘TILda ma’nosi *siri ochilmoq* tarzida noto‘g‘ri izohlangan [7; 496]. Ibora tarkibidagi *chiya – chiyə* so‘ziga B.To‘ychiboev va Q.Qashqirli shunday izoh bergan: «1. Arqonni bog‘lashning eng tushunarsiz va omonat usuli. 2. Yovvoyi olcha» [4; 378]. Agar «Alpomish»dagi *Iloyim chiqsin deb cho‘lning chiyasi, Yomon bo‘lar baland yo‘lning qiyasi; Yori o‘lgan qizning chiqar chiyasi, Buzilmasin azamatning uyasi; Chiqib qoldi Boybo‘rining chiyasi, Kelarmikan tag‘in elning egasi?!* va «Orzigul»dagi *Farzand bo‘lar kishining mehr giyosi, Ayrilganning chiqar ekan chiyasi (365)* misollarini olib qarasak, alohida olingan so‘z yoki iboraga O‘TILda berilgan izoh misollardagi *chiyasi chiqmoq*ning ma’nosiga to‘g‘ri kelmaydi. Demak, so‘zning boshqa ma’nosi ham bo‘lishi kerak. Bu ma’noni T.Nafasov to‘g‘ri topgan: «Kuchli iztirob, beadad qo‘zg‘alish; jig‘ibiyron»

[4; 351]. Xalq orasidagi, ayniqsa, yomon ayollar tilidagi *Bolang o‘lib, chiyang chiqsin* qarg‘ishi iboraning mohiyatini to‘la aks ettiradi. Islom shoir *Farzand bo‘lar kishining mehr giyosi, Ayrilganning chiqar ekan chiyasi* deganda ana shu iborani ifoda uslubiga moslab qo‘llagan.

Shabgir tortmoq. Dostonlar tiliga xoslangan iboralardan biri *shabgir tortmoq*dir. Deyarli barcha dostonlar matnida, ko‘pincha, *kecha-kunduz* ravishi bilan birgalikda uchraydi. Jumladan, «Orzigul»da ham: *Kecha-kunduz shabgir tortdi, Oldidan bir tog‘ paydo bo‘ldi (299).* Izohli lug‘atlarda so‘zning ma’nosi quyidagicha izohlangan: «*shabgir* – 1. Keskir, o‘tkir. 2. Qora tortmoq. Biror narsani mo‘ljalga olib ildamlamoq»[48] [3;114]. Ammo izoh etarli bo‘lmagan, deb o‘ylaymiz. Dostonlarda mikromatn tarkibida 20 ga yaqin qo‘llangan ushbu ibora birinchi izohga *shiddat* so‘zining ham qo‘shilishi lozimligini ko‘rsatadi. Birinchi va ikkinchi ma’nolar bir-biriga bog‘liq tarzda *shabgir tormoq*ning mazmunini keltirib chiqaradi va ibora *shiddat bilan oldinga yurmoq / yo‘l yurmoq / ildamlamoq* ma’nolarini anglatadi. Uning oldidan keltirilgan *kecha-kunduz* esa vaqtni bildirishdan ko‘ra ma’noni kuchaytiradi, *tinimsizlik, muttasillik* ottenkalarini beradi. Ana shu zaylda bayonda Islom shoirning mubog‘ala uchun qo‘llagan *tog‘lar gumburlab ketdi* jumlasi ifodaga nihoyatda mos bo‘lib tushgan: *Qushqanot daraxtlari ko‘ziga ko‘rinib, shabgir tortib kelayotgan oti kishnab yubordi, tog‘lar gumburlab ketdi (315).*

*Sarparoz qilmoq. Agar Suvonning kelayotgani rost bo‘lsa, qonidan kechdim, og‘zi to‘lganicha aytsin, in’om beray, ot mindirib, to‘nlar kiygizib, sarparoz qilmoq kerak, yolg‘on bo‘lsa, boshini tanasini judo qilinglar! – dedi (309). Sarparoz qilmoq*ni boshdan-oyoq kiyim sovg‘a qilmoq ma’nosida tushunish to‘g‘riga o‘xshaydi. Chunki jumla boshqa dostonlar matnida ham, lug‘atlarda ham uchramaydi.

Kuyasi tutmoq. Qon yig‘latib tashlab ketsang, otajon, Sizni tutar o‘g‘il, yorning kuyasi (344). Ushbu ibora adabiy tildagi *uvoli tutmoq* iborasiga to‘g‘ri keladi.

[48]Мирзаев Т. ва бошқ. «Алпомиш» достонининг изоҳли луғати. – Тошкент: Elmus-Press-media, 2007. – Б. 114; Жуманазарова Г. Фозил Йўлдош ўғли «Ширин билан Шакар» достонининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 36.

Ot tortmoq. Iboraning ma’nosi lug‘atlarda aks etmagan. *Orzigul bir necha kunlar past-balandlab, ot tortdi (283)* gapidan anglashiladiki, uning ma’nosi *otlanmoq, otda yurmoq*dir. Fozil shoir dostonlaridan keltirilgan. *Qorajonning kalima aytib turganini bir kam to‘qson alp ko‘rib: «Oshpichoq, kalampir, Qorajon tentak bo‘p qopti», – deb bir kam to‘qson alp: – Ot tort, – dedi. Ko‘lga qarab ovga chiqib ketdi («Alpomish»); Goh vaqtlarda ot tortar, Dovushlari naydaydi(r) («Xoldorxon»)* singari misollar so‘zning ma’nosini *otda yurish qilmoq* deb izohlash to‘laroq ochishi mumkin. Bu ibora *ot solmoq, ot qo‘ymoq, otini qamchilamoq* kabi FBlar sirasini boyitadi.

Ko‘ngli qabarmoq iborasi *ko‘ngli og‘rimoq*ning sinonimi va xalq tiliga xoslangan, o‘z vazifadoshiga nisbatan kitobiylik va rasmiylikda holi bo‘lgan FBdir: *O‘z elimda mening ko‘nglim qabardi, Qo‘limdan boy berdim shunday shahardi (339).* U barcha xalq dostonlarida uchraydi.

Qo‘l qovushtirmoq iborasining ma’nosi birovlarga hurmat-ehtirom yuzasidan qo‘lni, besh panjani birin-ustin kesishgan holda tutish, qulluq qilishdir: *Sipohlar etib kelib, bari qo‘l qovushtirib salom berib, odob bilan o‘zini ko‘rsatdi (267); Qo‘l qovushtirib turmadim xizmatingda, Enajon, rozi bo‘l, bergan sutingga (281).*

Ikkinchidan, faqat Islom shoir ijodiga mansub FBlar. Baxshining so‘z tanlash mahorati iboralarni qo‘llashda ham sezilib turadi. Masalan, *Ot tez yurib bilmaydi, Jaru chuqur, balanddi, Kecha-kunduz birday ketdi. Otga to‘kib g‘ayratdi O‘n bir kecha-kunduzda Qoralab Qushqanot etdi (314)* parchasida *otga g‘ayrat to‘kmoq* iborasi qo‘llangan. FBning tasvirdagi go‘zalligi va originalligidan tashqari uning mazmuni ham e’tiborga loyiq. Ibora tarkibidagi *g‘ayrat* so‘zi Suvonxon va u mingan ot harakati o‘rtasidagi uyg‘unlikni o‘zida mujassamlashtira olgan.

Uchinchidan, xalq tilida mavjud bo‘lgan ayrim FBlar Islom shoir tomonidan ma’lum o‘zgarishlarga uchragan holda qo‘llangan. Masalan, tilimizda *biror niyatda bo‘lmoq, maqsadni ko‘zda tutmoq* ma’nosidagi *qasd qilmoq* iborasi *qasdiga olmoq* tarzida qo‘llangan: *Qoraxon shoh bizni oldi qasdiga, Lashkar tortib ketdi Orzi ustiga (380).* Tilimizda *nasib qilmoq* jumlasining ma’nosiga teng keladigan *taqdir qilmoq, taqdir etmoq, taqdiriga bitmoq* singari FBlar mavjud. Islom shoir bu iboralarga ijodiy

yondashgan va uni *taqdirga solmoq* tarzida qo‘llagan: *Taqdiringga solib Suvondek mardni, Senga hozir qildim Qoraquloq otni (280); G‘oyibdan bu ot hozir bo‘lgandi, Taqdirima sobdi Suvon o‘g‘lonni (280);* Boshqa dostonlar matnida uchramaydi. B.Yo‘ldoshev va D.O‘rinboyeva lug‘atida ham keltirilmagan [2].

To‘rtinchidan, ayrim iboralarning qo‘llanishida kamchiliklarga ham yo‘l qo‘yilgan, deb hisoblaymiz. Masalan, doston matnida *tushni jo‘ymoq* iborasi 3 marta qo‘llangan: *Birodarlar, jo‘yingizlar tushimni, Yo Suvonxon shundan xursand bo‘larmi? (289); Bu podshoning o‘g‘li bo‘lsa, otasi Oqtoshning egasi bo‘lsa, buning tushini jo‘ymoqlik hazil emas, – deb turgan edilar (289); «Sarimiroxo‘rning tushni jo‘ygani haqdir», deb do‘stlariga qarab bir so‘z dedi (290).* Ammo so‘zni bu o‘rinda to‘g‘ri qo‘llangan, deb bo‘lmaydi. *Jo‘ymoq* adabiy tildagi *yuvmoq* so‘zining dialektal shaklidir [4; 110]. Tushga daxldor so‘z *jo‘ramoq* deyiladi va uning ma’nosi O‘TILda «*folk.* yo‘ymoq» tarzida berilgan [6; 118] va tushning ta’birini aytish xalq tilida *tushni jo‘ramoq* deyiladi.

Matndagi sanoqli FBlarni ko‘zdan kechirish shundan dalolat beradiki, doston iboralari, ayni paytda, dialektal FBlardir. Shu ma’noda dostonlar adabiy til fondini to‘ldirishi mumkin bo‘lgan o‘ziga xos xazina sanaladi. Islom shoirning ularga bo‘lgan munosabati esa baxshining individual uslubi bilan birgalikda xalq iboralarini mazmunan boyitish yo‘lidagi xizmatlari bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Жуманазарова Г. Фозил Йўлдош ўғли «Ширин билан Шакар» достонининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 36.

2. Yo‘ldoshev B., O‘rinboyeva D. O‘zbek xalq dostonlarining chastotali izohli frazeologik lug’ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.

3. Мирзаев Т. ва бошқ. «Алпомиш» достонининг изоҳли луғати. – Тошкент: Elmus-Press-media, 2007. – Б. 114;

4. Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек халқ сўзлари. – Тошкент: Муҳаррир, 2011. – Б. 351.

5. Тўйчибоев Б., Қашқирли Қ. Зоминнинг тил қомуси. – Б. 378.

6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдли, Иккинчи жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 118.

7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. Тўртинчи жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 496.

8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдли, Бешинчи жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 321.

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA MIRATIV IFODAGA EGA FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TASNIFI

Z.A.Aliyeva

Samarqand davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek va ingliz tillarida mirativlik (kutilmaganlik, hayrat, ajablanish mazmuni)ni ifodalovchi frazeologik birliklar qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Mirativ ma’no ifodalanishining semantik-pragmatik xususiyatlari ochib berilib, frazeologik birliklar funksional-semantik mezonlar asosida tasniflanadi. Tadqiqot natijasida har ikki tilda mirativlikning emotsional-ekspressiv vositalar orqali faol ifodalanishi aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: *mirativlik, frazeologik birlik, hayrat, kutilmaganlik, pragmatika, emotsionallik, qiyosiy tilshunoslik*.

Mirativlik kategoriyasi tilshunoslikda so‘zlovchining kutilmagan, yangi yoki qarama-qarshi ma’lumotga munosabatini ifodalovchi semantik-pragmatik hodisa sifatida talqin qilinadi. Ushbu tushuncha ilk bor ilmiy muomalaga Scott DeLancey tomonidan kiritilgan bo‘lib, u mirativlikni “kutilmagan axborotni ifodalovchi grammatik kategoriya” sifatida izohlaydi (DeLancey, 1997). Keyinchalik Alexandra Y. Aikhenvald mirativlikni evidensiallik bilan bog‘liq, biroq mustaqil semantik maydonga ega hodisa sifatida talqin qiladi (Aikhenvald, 2004; 2012).

O‘zbek va ingliz tillarida mirativlik ko‘pincha leksik, sintaktik va frazeologik vositalar orqali ifodalanadi. Ayniqsa, frazeologik birliklar so‘zlovchining kuchli emotsional munosabatini ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Frazeologik birliklar tilning tayyor, barqaror va obrazli birliklari bo‘lib, ular ko‘pincha emotsional-ekspressiv ma’noni kuchaytiradi. Mirativlik esa aynan hayrat, ajablanish, kutilmaganlik, ishonchsizlik kabi holatlarni bildiradi.

Demak, mirativ ma’no va frazeologiya o‘rtasida tabiiy uyg‘unlik mavjud. O‘zbek tilidagi mirativ frazeologik birliklarni quyidagi semantik guruhlarga ajratish mumkin:

1. Kuchli hayratni ifodalovchi birliklar: og‘zi ochilib qolmoq, yoqasini ushlamoq, yoqa ushlatmoq ko‘ziga ishonmaslik.

2. Ijobiy ajablanish mazmunidagi birliklar**:** hayratdan lol qolmoq, tili kalimaga kelmay qolmoq, og‘zi ochiq qolmoq

3. Salbiy kutilmaganlik (shok, ishonchsizlik): esankirab qolmoq**,** gangib qolmoq**,** o‘ziga kelolmay qolmoq

Ingliz tilida mirativ ma’no asosan idiomatik birliklar orqali ifodalanadi. Ingliz tilida esa quyidagi frazeologik birliklarni misol qilib keltirishimiz mumkin:

1. Kuchli hayratni bildiruvchi birliklar: to be taken aback**,** to be stunned**,** to be amazed**,** to drop one’s jaw**,** to be open-mouthed

2. Shok va ishonchsizlik mazmunidagi birliklar: to be blown away, to be shell-shocked, to be in disbelief, to drop a bombshell

3. Ijobiy ajablanish: to be over the moon**,** to be thrilled to bits**,** to be astonished.

Har ikki tilda mirativ frazeologik birliklar emotsional-ekspressiv xarakterga ega. O‘zbek tilida tana a’zolari bilan bog‘liq obrazlar ko‘proq uchraydi (og‘zi ochilib qolmoq, yoqasini ushlamoq). Ingliz tilida esa psixologik holatni bildiruvchi fe’lli konstruktsiyalar ustun (to be stunned, to be taken aback).

O‘zbek va ingliz tillarida mirativ ifodaga ega frazeologik birliklar funksional-semantik jihatdan o‘xshash bo‘lsa-da, obrazlilik va struktura jihatidan farqlanadi. O‘zbek tilida mirativlik ko‘proq somatik (tana a’zolari bilan bog‘liq) obrazlar orqali ifodalansa, ingliz tilida psixologik va situativ reaksiyalarni bildiruvchi idiomatik

konstruksiyalar ustunlik qiladi. Frazeologik birliklar mirativlikning leksik-pragmatik realizatsiyasida muhim o‘rin tutadi va ular tilning milliy-madaniy xususiyatlarini aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. DeLancey, Scott. 1997. Mirativity: The grammatical marking of unexpected information. Linguistic Typology 1:33–52.

2. Aikhenvald, Alexandra. 2004. Evidentiality. Oxford: Oxford University Press

3. Aikhenvald, Alexandra. 2012. The essence of mirativity. Linguistic Typology. 16, 435-485.

KEY DIFFICULTIES IN TECHNICAL AND SPECIALIZED TRANSLATION

Abduganieva Shakhzoda Otabek qizi

2nd year student of Faculty of Korean Language,

Kimyo International University in Tashkent

abduganiyevashaxzoda38 @gmail.com

Annotation: pecialized translation involves converting technical or field-specific texts from one language into another. This process demands not only strong language skills but also a thorough understanding of the specialized terminology used in the relevant domain. This paper explores the main challenges translators encounter, including maintaining consistent terminology, adapting content for different cultural contexts, managing complex sentence structures, and keeping pace with technological advancements. It also highlights the crucial role of translators in ensuring that final texts are accurate, clear, and natural, particularly in fields such as medicine, law, and technology. Finally, the study considers how globalization is reshaping specialized translation and the strategies translators must adopt to meet new linguistic and technical demands.

Keywords: *specialized translation, terminology, linguistic challenges, cultural adaptation, syntactic complexity, translation technologies, globalization, technical language*

Translation plays a vital role in cross-language communication, particularly in fields like medicine, law, engineering, and finance. Unlike general translation, specialized translation demands a thorough understanding of technical terminology, precise language, and appropriate context. This paper examines the challenges translators face, including handling complex terms and ensuring accuracy in technical content. With globalization increasing the need for multilingual communication, translators must continuously adapt to evolving terminology and industry developments.

Terminological Challenges in Specialized Translation

One of the biggest challenges in specialized translation is handling terminology. Unlike everyday words, technical terms have specific meanings and may not always have a direct equivalent in another language. Some key difficulties include:

- **Consistency of Terms:** Using terms inconsistently can cause confusion or misunderstandings, especially in fields like law and medicine, where accuracy is critical.
- **New Words and Industry Jargon:** Specialized fields constantly introduce new terms, making it hard for translators to stay updated with the latest terminology.
- **Different Standards in Different Places:** What's considered the "correct" term in one country or industry might be totally different somewhere else, so translators have to adjust accordingly.

Sentence Structure Struggles

It's not just the words that are tough—how sentences are built can also make things complicated. Here's what translators deal with:

- **Passive vs. Active Voice:** Some languages use a lot of passive voice, while others prefer things to be more direct. This means translators have to tweak sentence structures to make them sound natural.

- **Too Many Nouns Stacked Together:** Technical writing often crams a bunch of nouns into one phrase, which doesn’t always translate smoothly and needs to be rewritten.
- **Different Word Order:** Languages don’t always follow the same sentence structure, so translators have to rearrange words so that everything still makes sense.

Basically, specialized translation is way more than just swapping words—it’s about making sure everything is accurate, clear, and actually makes sense in the target language.

Cultural and Contextual Adaptation in Translation

Cultural differences play a huge role in specialized translation. A term or idea that makes perfect sense in one culture might not even exist in another, or it could carry a completely different meaning. Because of this, translators often have to adjust content to fit the cultural context. Here are some of the biggest challenges:

➢ **Legal and Institutional Differences:** Laws and regulations aren’t the same everywhere, which makes translating legal documents especially tricky.

➢ **Measurement Units and Formatting:** Things like currency, measurement units, and date formats need to be converted so they make sense to the target audience.

➢ **Industry-Specific Phrases:** Some fields use idioms or jargon that don’t have a direct translation, so translators have to find an equivalent or reword them.

➢ **Ethical Sensitivity:** In areas like medical and legal translation, certain topics need to be phrased carefully to remain culturally and ethically appropriate.

In short, specialized translation isn’t just about words; it’s about making sure the message is understood correctly in a different cultural and professional context.

The Impact of Technology on Specialized Translation

With the rise of artificial intelligence and translation tools, translators now have access to various technologies that can significantly boost their productivity. However, these advancements also bring new challenges:

- **Limitations of Machine Translation**: Although AI-driven platforms like Google Translate and DeepL offer helpful assistance, they often struggle with context-sensitive terminology and idiomatic phrases.
- **Terminology Management Software**: Tools such as SDL Multiterm and Term Base help maintain consistency in terminology, but their success heavily relies on human oversight to ensure accuracy and proper application.
- **Challenges with Post-Editing**: Translations generated by machines often need substantial editing to fix errors, improve readability, and guarantee accuracy.
- **Security Concerns**: Automated translation tools can pose risks to confidentiality, especially when dealing with sensitive or proprietary information.
- **Human vs. Machine Translation**: Despite technological progress, human translators are still crucial for ensuring the quality of translations, particularly in specialized fields where precision and nuance are essential.

Strategies for Overcoming Linguistic Challenges

To tackle the linguistic challenges that come with specialized translation, translators can adopt several practical strategies:

• **Ongoing Learning and Development:** To stay sharp and keep up with the ever-evolving world of expert specializations, translators should update their knowledge on a regular basis.

• **Collaborating with Subject Matter Experts:** While translating technical, legal, medical, or other technical content, it is important to collaborate with experts in the concerned fields.

• **Standardized Language:** Using industry-approved terminology and glossaries and terminology management solutions, like those offered by ISO, avoids confusion and ensures consistency. Applying these solutions in translation across industries can be a game saver as it guarantees standardization of language and clarity.

• **Target Language Acclimation:**

Translators should focus on developing the skill to modify sentence structure and rephrase materials so that it sounds natural when spoken in the target language.

This may involve breaking up long or complex sentences, from passive to active, or rephrasing sentence portions to align with cultural settings.

• **Technology Use the Right Way:** Although machine translation and CAT tools can speed up the process, they should never be relied on without revision. Translators should check machine-translated work to identify errors and use tools like translation memory and terminology tools to supplement, not replace, their own expertise.

• **Developing Specialized Skills:** Technical fields like law, medicine, and technology require a close understanding of technical vocabulary. Translators working in these fields require specialized training to acquire field-specific language skills to express intricate ideas and concepts precisely.

• **Networking and Knowledge Sharing:** Being part of the translation community is imperative. Networking with colleagues, attendance at conferences, and activity on online forums concerned with specialized translation ensure translators are up-to-date with the latest best practices and trends, and allow them to develop their competencies and expertise on a continual basis.

These methods ensure translators can tackle confidently the linguistic demands that arise in specialized domains, without any trade-off in accuracy and relevance at high levels.

Specialized translation involves complex linguistic and terminological challenges that demand expertise and adaptability. Translators must navigate differences in terminology, syntax, culture, and technological tools to produce accurate and reliable translations. As the demand for specialized translation grows, research in terminology management and translation technologies remains crucial. Combining human expertise with technological innovation allows translators to overcome these challenges and facilitate the smooth exchange of specialized knowledge across languages.

References:

1. Fairclough, N. (1995). *Critical Discourse Analysis: The Critical Study of Language.* London: Longman.

2. Chomsky, N. (2002). *Syntactic Structures.* The Hague: Mouton.

3. Wierzbicka, A. (1997). *Understanding Cultures Through Their Key Words.* Oxford: Oxford University Press.

4. Halliday, M. A. K. (1994). *An Introduction to Functional Grammar.* London: Edward Arnold.

5. Jurafsky, D., & Martin, J. H. (2021). *Speech and Language Processing.* Prentice Hall.

6. Saussure, F. de. (1916). *Cours de linguistique générale.* Paris: Payot.

7. Bowker, L., & Pearson, J. (2002). *Working with Specialized Language: A Practical Guide to Using Corpora.* Routledge.

8. Gambier, Y., & van Doorslaer, L. (2021). *Handbook of Translation Studies.* Amsterdam: John Benjamins.

QASHQADARYO VILOYATI KITOB TUMANIDAGI ZIYORATGOHLARNING LINGVOMADANIY TADQIQI

Abduraxmanova Zumrad Normurot qizi

Chirchiq davlat pedagogika universteti

2-bosqich mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati Kitob tumanidagi ziyoratgohlarning lingvomadaniy tadqiqi atroflicha yoritildi. Ziyoratgohlarning nomlanishiga oid qarashlar talqin qilindi. Til va madaniyatning o‘zaro omixtaligi nomlarda akslanishiga e’tibor qaratildi.

Kalit so‘zlar: *Xalifayi Navro‘z, Qabri Oxund, Oqsuv, Xo’ja Hasanota, Suqorota, Xo‘jailimkoni, Xo‘ja Ne’matullo, Doniyorshayx, Hazrati Bashir ziyoratgohlari. Nom va madaniy uyg‘unlik tushunchasi.*

Abstract. This article provides a detailed linguistic and cultural study of shrines in the Kitab district of the Kashkadarya region. Views on the naming of

shrines are interpreted. Attention is paid to the reflection of the intertwining of language and culture in the names.

Keywords: *Shrines of Khalifai Navruz, Kabri Akhund, Aksuv, Khoja Hasanota, Suqorata, Khojailimkoni, Khoja Ne'matullo, Daniyorshaykh, Hazrati Bashir. The concept of name and cultural harmony*.

Аннотация. В данной статье представлено подробное лингвистическое и культурное исследование святынь в Китабском районе Кашкадарьинской области. Интерпретированы взгляды на наименование святынь. Особое внимание уделяется отражению переплетения языка и культуры в названиях.

Ключевые слова: *Святыни Халифая Навруза, Кабри Ахунда, Аксува, Ходжи Хасаноты, Сукораты, Ходжалимкони, Ходжи Неъматулло, Даниершейха, Хазрати Башира. Понятие имени и культурной гармонии*.

Yurtimizda bugungi kunda nomlar va ularning ma’nodorlik ko‘lami masalasi muhim o‘rin tutadi. Har bir nomda tarix va unga xos bir muhim belgi yashirin. Bejizga aytilmaydi. Nom bu madaniyat va tarix uyg‘unligi. Haqiqatdan ham, har qanday nomning o‘ziga xos nomlanish tarixi bor. Nomlar va ularning o‘ziga xosligi masalasi tilshunoslikda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov nomlarni davr, zamon mahsuli sifatida ta’riflab, “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida “ajdodlarimiz o‘zlari yashaydigan mahalla, shahar va qishloqlar, bog‘-xiyobonlarga nom tanlashda juda katta e’tibor bergan. Qadimiy nomlarda otabobolarimizning hayot va tafakkur tarzi yaqqol o‘z aksini topgan, ular xalqimizning azaldan o ‘troq hayot kechirib, yuksak madaniy turmush darajasiga ega bo‘lganligidan dalolat beradi” deb yozganlar. (1) Bu ham nomlarning naqadar muhimligini bildiradi. Tilshunoslikda nomlar toponimika va onomastika bo‘limlari orqali tahlil qilinadi. Toponimlar o‘rganish orqali biz shu joyga xos barcha xususiyatlarni bilib olamiz. Toponimika (yun. topos — joy va onyma — ism, nom) — onomastikaning joy nomlari (geografik atoqli nomlar)ni, ularning paydo bo‘lishi yoki yaratilish qonuniyatlarini, rivojlanish va o‘zgarishini, tarixiy-etimologik manbalari va grammatik xususiyatlarini, ularning tuzilishini, tarqalish hududlari hamda atalish sabablarini o‘rganuvchi bo‘limi.Toponimlar ham, til leksikasining bir

qismi sifatida boshqa hamma so‘zlar singari til qonuniyatlariga bo‘ysunadi, lekin o‘zining paydo bo‘lishi va ba’zi ichki xususiyatlari jihatidan jamiyatning kundalik moddiy va ma’naviy holati, iqtisodiy turmushi, orzu va intilishlariga aloqador bo‘lib, ma’lum darajada boshqa guruh so‘zlardan farq qiladi. Ularni o‘rganish shu joy madaniyati, tili va tarixini bilishga zamin yaratadi. Hozir biz Qashqadaryo viloyati Kitob tumanidagi ziyoratgoh nomlari hamda ularning etimologik hamda leksik-semantik xususiyatiga e’tibor qaratamiz.

Xoja Ilmkon qishlog‘ida Mavlono Abdulboqiy Xojagi Emkanagiy ziyoratgohi bor. Xojagon Naqshbandiya yo‘nalishi bo‘yicha tasavvufning yetuk targ‘ibotchisi, fiqh, hadis ilmlari bo‘yicha allomayi zamon, hol va qol ilmlarining sohibi, Azim Pir Mavlono Abdulboqiy Xojagi Emkanagiy ibn Mavlono Darvesh Muhammad Vaxshuvoriy Kitob tumanining Xoja Imkanagiy qishlog‘ida 918/1512-yilda tug‘ilib, shu qishloqda 1008/1600-yilda vafot etgan. Shu yerda farzandlari Mavlono Xoja Abdul Qosim ibn Mavlono Xojagi (vaf. 1022/1613-y.) ham dafn etilgan.

Hazrati Bashir ziyoratgohi Kitob shahridan 30,5 kilometr shimoliy-sharqda Xabash va Ko‘l tog‘lari oralig‘idan oqib o‘tuvchi Qashqadaryo sohilidagi Hazrati Bashir qishlog‘ida joylashgan.

Naqshbandiya ta’limotida yorqin iz qoldirgan zabardast avliyolardan biri Hazrati Sulton Said Ahmad Bashir Hazrati Bahouddin Balogardon bo‘lib, u kishi islom olamida “Miri Haqiqat” maqomiga ega bo‘lgan. Hazrati Bashir (769/1368-868/1464-yy.) Amir Temurning piri Sayyid Barakaning ukasi Sayyid Ne’matullohning duolari tufayli olamga kelgan. Hazrati Bashirning otasi Shayx Xoja Hasan ota 676/1278 yillarda dunyoga kelgan. Boshlang‘ich ta’limni va tasavvuf ilmini otasi Shayx Husayn ibn Mansur al-Bayzoviydan o‘rganib, tasavvuf tariqati asoschilaridan biri bo‘lib yetishgan.

Kitob shahridan chamasi 17 kilometr janubiy-sharqda Xoja Isfaroz (Xoja az-faroz) qishlog‘ida “Oq-suv” ziyoratgohi joylashgan. Mahalliy xalq bu yerda Shayx Shamsiddin va farzandi Shayx Najmiddin, keyinchalik uchinchi ulug‘ pir Darvesh Muhammad ham dafn etilgan, deyishadi. Xoja Shayx Shamsiddin (vaf.

906/1501 y.) Farobga yaqin Xezzan (Tojikiston) qishlog‘ida tavallud topgan. Aniq tug‘ilgan yillari haqida ma’lumot yo‘q. U Sobiri parranda avlodidan bo‘lib, Shayx Antour shajarasiga borib taqaladi. Yoshligida ilmni otasidan olib, dehqonchilik bilan shug‘ullangan345. Shayx Shamsiddin “Qol va hol” (tasavvufiy talqinda, zohiriy va botiniy ilm) ilmlariga ega bo‘lgan. U Keshda Hazrati Sulton Said Ahmad Bashir (769/1368-868/1464 yy.) ga shogird tushgan. Amir Temur tomonidan Oq-suvning chap sohilida qurdirilgan masjid va madrasada Shayx Shamsiddin va o‘g‘li shayx Najmiddin xizmat qilishgan. Farzandi Shayx Najmiddin ham otasidek komillikka erishgan. Ular vafotidan keyin madrasani Darvesh Muhammad boshqargan.

Qashqadaryo viloyatida Kitob tumani markazidan 23 kilometr uzoqlikdagi Mo‘g‘ul qishlog‘ining shimoliy qismida Ne’matulloh Valiy ziyoratgohi joylashgan. Xalq orasida u kishi Xoja Ne’ma- tulloh (vaf. 834/1431) ham deb atalib, so‘fiy, shoir, ne’matullohiy tariqati asoschisi hisoblanadi. Shoh Sayyid Nuriddin Ne’matulloh ibn Mir Sayyid Abdulloh ibn Abdurahmon islom dini sohasida zabardast olimlaridan biri sanaladi.

Ne’matulloh Valiy sunniy-shofeiy bo‘lib, o‘z shajarasini shialarning 5-imomi Muhammad Boqir orqali (21 bo‘g‘imda) Muhammad (s.a.v) ga yetkazgan. Iroqda, so‘ngra Makkada Shayx Abdulloh Yofe’iy (697/1298-768/1367-yy.) qo‘lida tahsil olgan. Iroq, Misr. Tabriz, Ardabil, Movarounnahrda bo‘lgan, turkiy qabilalar orasida islomni faol targ‘ib qilib, yoygan.O‘zining zohidona turmush tarzi bilan xalq orasida shuhrat qozongan. Tasavvufdagi “Ne’matulloh” yo‘nalishi- ning asoschisi. Bu ta’limot islom olamida Naqshbandiya ta’limoti kabi mashhur bo‘lib, pir va murshidlikka asoslangan. Hozir ushbu ta’limotga qisman Markaziy Osiyo, Hindiston, Pokiston xalqlari amal qiladi.

Kitob shahrining kunchiqar sharqiy qismida 2 – 3 kilometr masofada 7,5 gektar maydonda “Qabri Oxund” qabristoni yastanib yotadi. Bu joy bir vaqtlar Kitob shahrining asosiy bosh qabristoni hisoblangan. Shahar ichidagi qabristonlar ancha kichik bo‘lgani uchun shaharning barcha mahallasi, asosan, sharqiy qismi aholisi olamdan o‘tganlarni Kitob va Chim qal’alari orasida joylashgan “Qabri Oxund”

qabristoniga olib borganlar. Shu bois ham u shahar aholisi uchun e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan qabriston. Bu yerda ko‘pgina ulug‘ zotlar dafn etilgan.Qabriston Shayx Abu Bakr Kitobiy nomi bilan aytiladi. Ziyoratgoh o‘rtasida Shayx Abu Bakr Kitobiy dafn etilgan bo‘lib, uning qabri balandligi 20 – 25 metr keladigan tepalik ustida joylashgan. Qabristonda Shayx Abu Bakr Kitobiydan tashqari yana ikkita qabr bor. Tarixiy manbalarda Jo‘naydillo Islomshayx o‘g‘li Hoziq dafn etilgan deb ko‘rsatiladi. Ushbu qabrlarda hech qanaqa qabr toshi, belgi yo‘q. Hadislarga tayanib, allomalar shunday deyishadi:Shayx Abu Bakr Kitobiy darveshona yashaganlar. Mulla Darvesh Oxundda “Darvesh” nomi keltiriladi. Bu yerda “Darvesh” sifat so‘zi bo‘lib, uni kamsitish ma’nosida tushunmaslik lozim. Darveshlarning botini – ma’naviyat koni, axloqi esa – insoniyatning zebu ziynati; raftori xulqi ta’rif tavsifimizdan yuqori, ularning martabasi Arshia’lo. Komillikka intilgan insonlar shayxlar, komil darveshlar siyrati ma’rifatni egallash yo‘lida deyarli bir xil bo‘ladi. U kishining ismi-shariflari Shayx Abu Bakr Kitobiy bo‘lib, xalq esa u kishini esga qolarli sifatlari bilan mulla Darvesh Oxund deb eslashadi. U kishining ismiga “Kitobiy” nomi qo‘shilgan bo‘lib, keyinchalik shu yerda yashaganligini bildiradi. (2)

Demak, yuqorida nomlar bir-biri bilan uzviy bog‘liqlik kasb etadi. Chunki har bir ziyoratgoh nomi ma’lum bir tarixiy shaxs, pirlik darajasiga ko‘tarilgan alloma nomi bilan bog‘liq. Ular o‘zining bilimi, ma’naviy olamining kengligi bilan boshqalarga o‘rnak bo‘la olgan. Shu kabi nomlarni o‘rganish xalqimiz o‘tmishdan ham bilim va madaniyatni targ‘ibotchilari , ahli ilm sohiblari makoni ekanligidan dalolat beradi. Ziyoratgoh nomlari esa aynan shunday nomlarning debochasi desak hech ham xato bo‘lmaydi.

Chunki har bir muqaddas joy, ziyoratgoh, tarixiy obida va qadamjolar kishilar tasavvurida ilohiy kuchga ega bo‘libgina qolmay, kishilar orasida qadimdan ziyoratgohlarga qurilgan binolar insonlarga turli ilohiy ta’sir ko‘rsatishga qodir deya e’tirof etilgan. Ziyoratgohlar muqaddas qadamjolar bo‘lganligi bois u yerga borishning ham o‘ziga xos qonun va qoidalari bor. Bundan tashqari ziyoratga borgan har bir shaxs ruhiy yengillik xis qilishi ham ko‘plab manbalarda qayd etilgan. Qolaversa, ziyoratgohlar kishilardagi oliyjanoblik tuyg‘ularini shakllantirishda

alohida ahamiyatga ega bo‘lishi bilan birga muqaddas joylarni ziyorat qilish insonlarni to‘g‘ri yo‘ldan yurishi, insof-diyonatli bo‘lish va o‘zidan faqat yaxshilik qoldirish singari xayrli ishlarga chorlagan. O‘z o‘rnida shuni qayd etish kerakki, qirg‘izistonlik olima G. Aitpayeva muqaddas joylarni to‘rtta guruhga bo‘lib tahlil qiladi:

1. Tabiiy muqaddas joylar.
2. Manas bilan bog‘liq muqaddas joylar.
3. Tarixiy muqaddas joylar.
4. Islom bilan bog‘liq bo‘lgan muqaddas joylar.(3)

Har bir nomning kelib chiqishi va nomlanishi shu yerlik aholi madaniyati bilan uzviy bog‘liq ekanligi ko‘rib chiqildi. Ushbu nomlarni tadqiq qilish hududdagi aholi , uning turmush sharoiti, milliy qadriyatlarining yaqqol namunasi sanaladi. Bu kabi nomlarni o‘rganish kishilarda o‘z onayurti qadriyatlariga bo‘lgan muhabbatni oshirishda xizmat qilishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. I.Karimov “Yuksak –ma’naviyat yengilmas kuch” – T.: Ma’naviyat, 2010.
2. Mamatov, J. (2022). Ethnographic Commentary (Soviet Ethnography) Magazine Review of Uzbek People's Ethnoculture // Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 144- 148.
3. Ahad Berdiyev “Kitob haqida kitob”. – Toshkent, 2020.

O‘ZBEK TILI PUNKTUATSIYASI TARAQQIYOTIDA MATBUOTNING O‘RNI

Dilrabo Andaniyazova
O‘zbekiston Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti yetakchi ilmiy xodimi,
filologiya fanlari doktori, dotsent
tel.: +99890 788 14 06; andaniyazova1406@gmail.com

Annotatsiya: Yozuv tarixiga nazar solinsa, insoniyat hozirgi tinish belgilarini qo‘llamasdan oldin ham o‘z fikrini yozuvda turli vositalar orqali to‘g‘ri anglatishga intilgani ayonlashadi. Shunday intilish yoki izlanishlar natijasida yozuvlarning o‘tmishida har xil belgilar paydo bo‘lgan. Bu belgilar turli xalqlar yozuvlarida ko‘p hollarda shaklan bir xil yoki qisman o‘zgacha bo‘lgan va asosan bir xil vazifada qo‘llangan.

Hozirgi davr yozuvini tinish belgilarisiz tasavvur qilish mumkin emas. Chunki yozma nutqning har tomonlama rivojlanishi, matbuot va nashriyot ishlarining keng taraqqiy etishi, fan va texnikaning turli tarmoqlariga oid ko‘plab kitoblarning nashr etilishi yozuvning ajralmas qismi bo‘lgan punktuatsiyaga bo‘lgan hayotiy talab va ehtiyojni kuchaytirdi.

Ilmiy manbalarda o‘zbek yozuvida tinish belgilarining qo‘llanish davri sifatida XIX asrning ikkinchi yarmi ko‘rsatiladi[49]. “Unga qadar ham o‘zbek yozuvida tinish belgilari bo‘lganmi?” degan, haqli savol tug‘iladi.

O‘zbekcha matnlarda tarixda hozirgidek shakl va mazmundagi tinish belgilari qo‘llanmagan, ammo qadimgi qo‘lyozmalarda tugal fikrni yoki uning ayrim qismlarini bo‘laklarga ajratuvchi maxsus ishoralar ishlatilgan[50]. Jumladan, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit-turk” asari qo‘lyozmasida (Istanbuldagi Millat kutubxonasi, arabcha asarlar bo‘limi, inv. №4189) turkiy so‘z va unga berilgan turkiy misollarni matnda ajratish uchun tepasiga qizil chiziq tortilgan. Bob nomlari, misollar, izoh uchun keltirilgan harflar qizil siyohda berilgan. Asardagi har bir so‘z-maqola bargsimon belgi bilan ajratilgan.

Shuningdek, professor Q.Sodiqov ham tinish belgilarining qo‘llanish tarixiga diqqat qaratib, quyidagilarni keltiradi: “Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari Namangan (TDShI qoshidagi Sharq qo‘lyozmalari markazi, inv. №1809) hamda Qohira (Misr milliy kutubxonasi, inv. №168) nusxalarida bob nomlari alohida qatordan berilgan. Namangan nusxasida bob nomlari almashtirilib, qora va qizil siyohda bitilgan. Qohira nusxasida asar ichidagi bob nomlari asosiy matndan katta

[49] Назаров К. Ўзбек пунктуацияси тарихи. – Тошкент, 1976. – Б 31.
[50] Ғозиев Ҳ. Ўзбек пунктуациясининг тарихий тараққиёти. – Тошкент, 1979. – Б. 5.

harflar va qalinroq siyoh bilan ajratilgan. Asarning Hirot nusxasida (Vena milliy kutubxonasi, A.G‘.13) matndagi so‘zlar va ba’zi harflarni to‘g‘ri tushunish uchun, o‘rni bilan, arab yozuvidagi harflardan foydalanilgan”[51].

Umuman, o‘zbek punktuatsiyasi tarixi, taraqqiyot yo‘llari hamda ilmiy nazariy asoslari masalasi ancha murakkab. Mutaxassislar bu murakkablikning sabablarini quyidagi omillar bilan bog‘liq deb hisoblaydi:

1) o‘zbek punktuatsiyasi tarixining keng va chuqur tekshirilmaganligi va ilmiy asosda yetarlicha o‘rganilmaganligi;

2) qadimgi o‘zbek tili yodgorliklarining arab alifbosida bo‘lganligi, ulardan ma’lum qismining umumturkiy tillarga mansubligi;

3) o‘zbek tili yodgorliklarining yakka shaxslar – xattotlar tomonidan ko‘chirilganligi;

4) O‘zbekistonda matbaachilikning paydo bo‘lishi, matbuot va nashriyot ishlarining rivojlanishi[52].

Punktuatsiya tarixini belgilashda xalqning yozuv tarixi muhim o‘rin tutadi, chunki yozuv tarixi bilan bog‘liq ma’lumotlar punktuatsiya tarixini davrlashtirishda asosli ma’lumotlar beradi.

Ma’lumki, o‘zbek xalqi o‘z tarixiy taraqqiyoti davomida so‘g‘d, o‘rxun-enasoy, uyg‘ur, arab, lotin va kirill yozuvlaridan foydalangan va ularda ham muayyan belgilar, ishoralar qo‘llanganki, bularning barini hozirgi o‘zbek tili punktuatsiyasining asoslari deyish mumkin. Masalan, V – VIII asrlarda O‘rta Osiyoda keng ishlatilgan runik yozuvlarda “ajratuvchi belgilar”dan foydalanilgan.

Qadimgi manbalar tadqiqi bo‘yicha izlanish olib borgan olimlarning ma’lumot berishicha, O‘rxun-Enasoy yodgorliklari orasida “Irq bitigi” turli ishoratlarga boyligi bilan ajralib turgan. Undagi ishoralar haqida quyidagi fikr aytiladi: “Asardagi bo‘limlar bir-biridan qora siyohli qo‘shaloq kelgan bir, ikki, uch hamda to‘rtta kichik dumaloqlar tizimi bilan ajratilgan. Dumaloqlarning ichi qizil siyoh bilan bo‘yalgan.

[51] Содиқов Қ. “Қутадғу билиг”нинг уйғур ёзувли Ҳирот нусхаси. – Тошкент. 2010. – Б. 16-18.
[52] Назаров К. Ўша китоб. – Б. 30.

Bu tartibga asarning boshidan oxirigacha amal qilingan. Asarning har bir bo‘limi yangi qatordan boshlangan”[53].

Shuningdek, bu davr yodgorliklarida ikki nuqta (:) bilan bir qatorda, bir nuqta (•) ham qo‘llangan bo‘lib, ushbu belgilar (qizil siyohda) so‘z va jumlalarni bir-biridan hamda qo‘shimchalarni so‘zlardan ajratishga xizmat qilgan.

VIII asrga kelib arab yozuvi qo‘llana boshlangach, “ajratuvchi belgilar” bilan bog‘liq an’ana buzilgan va ularning o‘rniga arab yozuviga xos boshqa ishoralardan foydalanilgan.

Manbalarda arab yozuvida “yordamchi vositalar” sifatida quyidagi ishoralar qo‘llangani haqida ma’lumotlar uchraydi:

a) “ta’kid belgilari” – tik to‘g‘ri chiziq, qizil va quyuq qora ranglar;

b) “ma’no belgilari” – Qur’ondagi turush va determinativlar;

v) “bezak belgilari” – bular XIV – XIX asrlarda yozuvda keng qo‘llangan bo‘lib, bu davrda arab yozuvini isloh qilish, shuningdek, so‘zlarni ajratib yozish an’anasi yuzaga kelgan;

g) tinish belgilari. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, arab grafikasi asosidagi o‘zbek yozuvida maxsus tinish belgilari qo‘llana boshlagan[54].

O‘zbek tili punktuatsiyaga doir tadqiqotlardagi fikrlarga tayanib, o‘zbek punktuatsiyasi tarixini quyidagicha davrlashtirish mumkin[55]:

1. I – VIII asrlar. Bu davrga oid oromiy va turkiy runik yozuvdagi manbalarda ishlatilgan tinish belgisi xarakteridagi vositalarning dastlabki vazifasi ajratish bo‘lgan, ya’ni gap qismlari ma’lum oraliq belgi – probel bilan ajratilgan. Bu belgilar hech qanday ma’no ifodalamagan, shunchaki so‘zlarning o‘zaro qo‘shilib qolmasligiga xizmat qilgan.

[53] Алимуҳаммедов Р. Қадимги туркий битикларда пунктуация ва матнни англаш учун ишлатилган ишоралар ҳақида // Хорижий филология. 1-сон. –Тошкент, 2016. – Б. 51.
[54] Назаров К. Ўзбек тили пунктуацияси. – Тошкент, 1976. – Б. 31; Ғозиев Ҳ. Ўзбек пунктуациясининг тарихий тараққиёти. – Тошкент. 1979.
[55] Bu haqda qarang: Назаров К. Ўша китоб. – Б. 30 – 33.; Bahriddinova B. Zamonaviy o‘zbek punktuatsiyasi asoslari. – Toshkent, 2015. – B. 8–9.

2. IX – XIX asrlar. Punktuatsiya taraqqiyotidagi bu davrda arab grafikasiga asoslangan eski o‘zbek yozuvi amalda bo‘lgan va ajratuvchi belgilar tugallanganlik, xabar, so‘roq, buyruq kabi qo‘shimcha vazifalarni bajara boshlagan. Ma’nolarni yoki gap mazmunini farqlash uchun nuqtaning turli ko‘rinishlaridan foydalanilgan.

3. XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asrning oxirlarigacha bo‘lgan davr. Bu vaqtga kelib tinish belgilari tizimi va ularning vazifalari aniqlashtirilgan va til egalarida tinish belgilarini qo‘llash malakasi shakllangan. Bosmaxonalar, nashriyotlar paydo bo‘lib, kitob, gazeta va jurnallar nashr etilgan. Tabiiyki, bunda nashr etilgan ishlardagi har bir fikrni o‘quvchiga aniq va to‘g‘ri yetkazish zaruriyati tug‘ilgan. O‘zbek punktuatsiyasining shakllanishi va rivojida, ayniqsa, 1871-yilning 28-aprelidan boshlab, 1917-yilning boshlarigacha (deyarli 50 yil mobaynida) muntazam ravishda nashr etilgan “Turkiston viloyatining gazeti” muhim o‘rin tutgan. Bu davrda tarjimachilik ham juda rivojlangan va ayni jarayonda asliyatdagi tinish belgilari ham o‘zbekcha nusxaga o‘tgan.

4. XX asrning oxiridan hozirgacha bo‘lgan davr. Sohada izlanishlar olib borgan tilshunoslar tomonidan punktuatsiyaning nazariy va amaliy masalalari o‘rganilgan, tinish belgilarini qo‘llash bo‘yicha qoidalar takomillashtirilgan.

O‘zbek punktuatsiyasi tarixi haqida so‘z borar ekan, bevosita Alisher Navoiyning tinish belgilari vazifasida qo‘llagan turli ishoralari qiziqtirishi tabiiy. Ilmiy manbalarda shoir asarlarida turli maqsadlarda bir necha ishoralar qo‘llangani haqida ma’lumotlar bor. Masalan, R.Alimuhammedov quyidagilarni yozadi: “Turkiyadagi Sulaymoniya kutubxonasining Fotih bo‘limida (inv. №4056) saqlanayotgan Alisher Navoiyning kulliyotida jamlangan barcha asarlarida qora va qizil siyohdan keng foydalanilgan. Jumladan, “Majolis-un-nafois” qo‘lyozmasida har bir majlis va unda keltirilgan shoirlar nomi qizil siyohda bitilgan. Misol tariqasida keltirilgan she’riy parchalar oldidan yozilgan she’r so‘zi qizilda berilgan. Navoiyning nasriy asarlari, jumladan, “Munshaot” ichida berilgan nazmiy parchalar asosiy matndan joy tashlab bitilgan. Matnga ko‘z tashlagan o‘quvchining diqqatini matnning

mana shu yeridagi bo‘sh joy o‘ziga tortadi. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchiga matnni tushunishga yordam beradi”[56].

Umuman, qadimgi turkiy matnlarda hozirgi davrdagidek punktuatsion belgilar qo‘llanmagan bo‘lsa-da, ularda o‘quvchi uchun matnni anglash va undagi fikrni tushunish uchun turli ishoratlardan foydalanilgan. Bularga matnning turli ranglarda berilishi, matnosti va matnusti belgilari, matn orasida joy qoldirish, so‘zlar orasida turli belgilarning ishlatilishi va boshqalarni keltirish mumkin.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, o‘zbek punktuatsiyasi taraqqiyotida o‘zbek vaqtli matbuotining birinchi qaldirg‘ochi bo‘lgan “Turkiston viloyatining gazeti” salmoqli o‘rin tutadi. Bu gazeta o‘sha davr o‘zbek madaniyati, o‘zbek adabiy tili va o‘zbek grafikasining namunasi sifatida ham muhim tarixiy hujjat hisoblanadi. Ta’kidlash kerakki, gazeta o‘zbek yozuv madaniyatining yanada rivojlanishi va takomillashuvida, o‘zbek adabiy tili me’yorlarining shakllanishi va takomilida muhim o‘rin tutgan. Shu sababli o‘zbek punktuatsiyasi tarixi, uning shakllanishi va rivojlanishi, taraqqiyot qonunlarini o‘rganishda tadqiqotchilar mazkur manbaga asoslanadilar. Jumladan, K.Nazarov o‘z tadqiqotida “Turkiston viloyatining gazeti”ga ko‘p murojaat qilgan[57].

Olimning yozishicha, “o‘sha davr yozuvida qo‘llanuvchi barcha yozuv belgilari “Turkiston viloyatining gazeti”da ham ishlatilganini ko‘ramiz. Bularni shunday guruhlab o‘rganish mumkin:

a) harflar;

b) raqamlar;

d) turli fanlarga oid ilmiy belgilar;

e) tinish belgilari (punktuatsiya);

f) transkripsion va diakritik belgilar;

g) turli shakldagi “bezak” belgilar”[58].

[56] Алимуҳаммедов Р. Қадимги туркий битикларда пунктуация ва матнни англаш учун ишлатилган ишоралар ҳақида. Хорижий филология. 1-сон. Тошкент, 2016. – Б. 50.
[57] Назаров К. Тиниш белгилари ва ёзма нутқ. – Тошкент, 1974. – Б. 17–22.
[58] Назаров К. Ўша китоб. – Б. 17–22.

Tinish belgilarining ayni gazetadagi qo‘llanilish holatlariga tayanib, o‘zbek punktuatsiyasi tarixi, tinish belgilarining o‘zbek matbuotida ishlatilish davri yuzasidan quyidagilarni aytish mumkin: Tinish belgilari “Turkiston viloyatining gazeti”da 1870-yildan, ya’ni gazeta nashr etilgan yildanoq qo‘llana boshlangan, rus tili punktuatsiyasining tajribalaridan ijodiy foydalanilgan. Biroq hozirgi kunda ishlatilayotgan yozuvimizdagi tinish belgilarining hammasi ham gazeta sahifalarida bir vaqtda boshlab ishlatila boshlangan emas, ya’ni ular birin-ketin qo‘llana boshlangan.

1. “Turkiston viloyatining gazeti”da dastlab ishlatilgan tinish belgisi tire bo‘lgan. U gazetaning 1871-yildagi 20-sonidan qo‘llangan bo‘lib, undan dastlab ish qog‘ozlari va e’lonlarda foydalanilgan.

2. Ko‘pnuqta “Turkiston viloyatining gazeti”ning 1872-yilgi 18-sonidan boshlab qo‘llangan. Dastlab rasmiy qog‘ozlarda (turli hujjatlar, hisob-kitob, pochta qog‘ozlari va e’lonlarda) ishlatilgan. 1901-yildan esa so‘roq va undov belgilari bilan birgalikda (qo‘shaloq) qo‘llangan.

3. Qavs “Turkiston viloyatining gazeti”da eng ko‘p foydalanilgan tinish belgi bo‘lib, u 1873-yilning 6-sonidan boshlab qo‘llanila boshlangan. Shuningdek, qavsning o‘sha davrdagi shakli, vazifasi, qo‘llanish o‘rni hozirgidan farqlangan. Manbalarda qavsning besh xil shaklda ishlatilgani haqida ma’lumot berilgan, ya’ni odatdagi qavs, katta qavs, o‘rta qavs, gulli qavs, “bezak” qavs (bunda “bezak” belgisi qavs vazifasida ishlatilgan).

4. Nuqta vazifasini dastlab, bo‘sh joy – jumlalar orasidagi probel bajargan. 1875-yildan boshlab, turli xil “bezak” belgilardan nuqta vazifasida foydalanilgan. Nuqtaning hozirgi shakli gazetada 1881-yildan qo‘llangan.

5. Tinish belgilarining o‘zbek vaqtli matbuotida dastlabki qo‘llanish usuli va shakli hozirgidan farqlangan. Masalan, so‘roq, vergul, nuqtali vergul kabi tinish belgilari arab yozuviga mos ravishda o‘ngdan chapga tomon yo‘naltirilgan. Qo‘shtirnoqning uch xil shaklda bo‘lgani haqida ma’lumotlar keltirilgan: odatdagi qo‘shtirnoq (“ ”); burchak shaklidagi qo‘shtirnoq (« »); “yarim oy” yoki qo‘shqavs shaklidagi qo‘shtirnoq.

6. Hozirgi o‘zbek tilidagi yozuvlarda amalda qo‘llanayotgan tinish belgilarining hammasi “Turkiston viloyatining gazeti”da 1901-yildan qo‘llana boshlangach, ularning vazifalari, qo‘llanish o‘rni qat’iylashgan. Yozuvda ishlatish odat tusiga kirgan.

Ta’kidlash kerakki, o‘zbek tilidagi aksar tinish belgilarining ishlatilishi “Turkiston viloyatining gazeti” bilan bog‘liq bo‘lsa, ayrim tinish belgilarining o‘zbekcha matnlarda qo‘llanishi bu gazetadan ancha avvalroq boshlangan.

Tinish belgilari haqidagi dastlabki ilmiy ma’lumotlar Ashurali Zohiriy va Abdurauf Fitrat asarlarida uchraydi. Jumladan, Fitrat tinish belgilarini turish belgilari nomi ostida o‘rganib, “Nahv” asarida 12 ta tinish belgisini keltiradi hamda quyidagicha nomlaydi: nuqta (.), bir tinish (;), yarim tinish (,), so‘rash belgisi (?), undash belgisi (!), qo‘sh nuqta (:), tirnoqlar (« »), yoylar ( ), to‘rtkul yoylari [ ], ulkan yoylar { }, chiziq (–), nuqtalar (...).

Fitrat “Nahv” asarida tinish belgilari haqida shunday deydi: “Turish belgilari – so‘zlarni to‘plab, bir-biriga boylab gap tuzishda o‘y qulay anglansin deb turli belgilar ishlaymiz. Bularning hammasi birdan turush belgilari yoki soddacha turushlar deyiladi”[59]. Demak, har bir tinish belgisi o‘zining hozirgi aniq shakli va vazifasiga ega bo‘lguncha ma’lum muddat va tajriba jarayonidan o‘tgan.

MAQOL VA MATALLARNING STRUKTUR-SEMANTIK TAFOVUTLARIGA OID NAZARIY QARASHLAR

Nosirova Arofat Erkinovna

ToshDO‘TAU mustaqil tadqiqotchisi (PhD)

nosirova.arofat@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada paremiologiya sohasidagi muhim birliklar hisoblangan maqol va matal tushunchalarining nazariy talqini, ularning o‘zaro farqli

[59] Фитрат. Наҳв. – Б.6.

va umumiy jihatlari tahlil qilinadi. Turli paremiolog olimlarning qarashlari asosida maqol va matallarga berilgan ta‘riflar qiyosiy jihatdan ko‘rib chiqilib, ushbu birliklarni farqlash borasidagi ilmiy bahs-munozaralar yoritiladi. Shuningdek, ayrim nazariy qarashlardagi ziddiyatlar misollar orqali asoslab berilib, matallarning hududiy va millatlararo qo‘llanilishi haqidagi fikrlar tanqidiy yondashuv asosida baholanadi. Natijada, maqol va matallarni farqlovchi asosiy me‘zonlar aniqlashtirilib, ularning paremiologik birlik sifatidagi o‘rni ilmiy xulosalar orqali umumlashtiriladi.

Kalit so‘zlar: *maqol, matal, xalq og‘zaki ijodi, paremiologiya, semantik va funksional tahlil.*

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические трактовки понятий пословицы и поговорки как важных единиц паремиологии, а также их общие и отличительные особенности. На основе взглядов различных паремиологических исследователей проводится сопоставительный анализ определений пословиц и поговорок, освещаются научные дискуссии, связанные с их разграничением. Кроме того, на примерах обосновываются противоречия в отдельных теоретических подходах и с позиций критического анализа оцениваются мнения о территориальной и межнациональной употребляемости поговорок. В результате уточняются основные критерии разграничения пословиц и поговорок и обобщается их роль как паремиологических единиц на основе научных выводов.

Ключевые слова: *пословица, поговорка, паремиология, устное народное творчество, паремиологические единицы, семантико-функциональный анализ.*

Abstract**.** This article researches the theoretical interpretations of proverbs and sayings as important units of paremiology, as well as their common and distinctive features. Based on the views of various paremiological scholars, the definitions of proverbs and sayings are analyzed comparatively and scholarly debates concerning their differentiation are discussed. In addition, contradictions in certain theoretical approaches are substantiated through examples, and opinions regarding the territorial and cross-cultural usage of sayings are critically evaluated. As a result, the main

criteria for distinguishing proverbs from sayings are clarified, and their role as paremiological units is summarized through scholarly conclusions.

Keywords: p*roverb, saying, paremiology, folklore, paremiological units, semantic and functional analysis.*

Tarjimashunos olim G‘.Salomov “Rus tilidan o‘zbekchaga maqol, matal va idiomalarni tarjima qilish masalalariga doir” nomli risolasida maqollarga quyidagicha izoh beradi: “Maqol kundalik hayotda, kishilarning bir-birlariga munosabatida yaratiladi. Xalq maqoli – xalqning mulkidir. Maqol qayg‘usi – xalq qayg‘usi, maqol g‘azabi – xalq g‘azabi, maqol kulgusi – xalq kulgusi va maqol kinoyasi – xalq kinoyasi demakdir. Maqol yaratmagan bironta til, maqol ishlatmagan bironta xalq yo‘q” [6:7.], deb e‘tirof etadi.

Maqol va matallarni bir-biridan farqlash borasida paremiolog olimlar ko‘pgina tadqiqotlar olib borishgan. Jumladan, V.I.Dal o‘zining “Пословицы русского народа” ilmiy to‘plamining kirish qismida: “Matal, xalqning ta‘rificha, g‘uncha, maqol esa mevadir…[7:28.]”. Dal maqollarni hukm, tugal mazmun ifodalovchi gap, matallar esa ko‘chma ma‘no ifodalovchi ibora bo‘lib, u maqolning yarmidir degan xulosaga keladi. Rus tadqiqotchilaridan N.A.Dobrolyubov esa matalga quyidagi ta‘rifni beradi: “Matal – predmetning tasviri, uning xarakteristikasi juda o‘rinli ushlab qolinishidir [8:327.]”.

Ba‘zi tadqiqotchilar maqol va matallarni bir-biridan keskin farqlanishiga qo‘shilmaydilar. Shunday tadqiqotchilardan latish paremiologik janrlari tadqiqotchisi E.Ya.Korake maqol va matallarni bir xil birlik sifatida tahlilga tortadi [11:178]. Professor N.O.Sharakshinova ham maqol va matallarning bir-biridan deyarli farq qilmaydi, deb hisoblaydi [12:15].

S.G.Gavrin, O.Shirokova, E.K.Sharakshinovalar esa maqol va matallarni bir-biridan farqlanishi tarafdorlari bo‘lib, ular maqollar tugal fikr ifodalashi, matallar esa tugal bo‘lmagan fikr ifodalashini isbotlashga uringanlar [9:42.] va ularni mustaqil janr sifatida o‘rganishni ta‘kidlab o‘tganlar [13:15]. O.Shirokova esa maqollarga majoziy ma‘no ifodalovchi birliklarni, matallarga esa o‘z ma’nosida ishlatiluvchi xalq hikmatlarini kiritadi [14:117.].

O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati to‘plamida H.Berdiyorov va R.Rasulov maqol va matal tipidagi paremiologik birliklarni uchga: maqollar, matallar va aforizmlarga bo‘lib o‘rganishgan. Ular maqollarni grammatik jihatdan tugallangan fikrni ifodalaydigan, kichik, ixcham, o‘tkir mazmunli, ko‘chma ma‘noda yoki ham ko‘chma ma‘noda ham o‘z ma‘nosida qo‘llanadigan hikmatli xalq iboralaridir, deb ta‘riflaydilar va quyidagi misollarni keltirishadi:

Shamol bo‘lmasa, daraxtning shoxi qimirlamas.

Qizim senga gapiraman, kelinim sen eshit.

Matallarni esa tarbiyaviy, pand-nasihatni ifodalovchi, grammatik jihatdan to‘liq gap shaklida bo‘lgan, faqat o‘z ma‘nosida qo‘llanadigan, qisqa, ixcham xalq iboralaridir [1:12], deb ta‘riflaydilar va quyidagi misollarni keltirib o‘tadilar:

Kattaga hurmatda bo‘l, kichikka izzatda bo‘l!

Yaxshidan ot qoladi, yomondan dod qoladi.

Odam olasi ichida, mol olasi tashida.

Demak, bu o‘rinda maqol va matallarga berilgan ta‘rif va misollardan aniq ikkalasi o‘rtasidagi farqni qanday ilg‘ash mumkin?! Yuqorida matallarga berilgan misollar Sh.Shomaqsudov va Sh.Shorahmedovlarning “Hikmatnoma: O‘zbek maqollarining izohli lug‘ati”da maqollar sirasiga kiritilgan va izoh berib o‘tilgan [4:460].

“O‘zbek xalq maqollari” kitobi so‘zboshisida esa maqol va matallarni farqlovchi quyidagi xususiyatlari sanab o‘tiladi:

1. Maqollar doim tugal, aniq bo‘lgan fikrni ifodalaydi va bu fikr qat‘iy, lo‘nda xulosa sifatida ishlatiladi. Maqollardagi fikriy lo‘ndalik fikrni ixcham ifodalashga imkon beruvchi ikki mantiqiy markazdan tashkil topgan yaxlit kompozitsiya asosida yuzaga keladi, matalda esa bunday xususiyatlar bo‘lmaydi. Matallar obrazli birikma yoki ibratli gapdir.

2. Maqolning xarakterli jihati shundaki, unda unda ma‘lum bir fikr mantiqiy izchillikda va qat‘iy qutbiylikda ifodalanadi.

3. Maqol asosida ibratomuz tugal fikr yotsa, matal asosida esa obrazli, chiroyli, ammo tugal bo‘lmagan fikr yotadi.

4. Maqollar ham o‘z, ham ko‘chma ma‘noda qo‘llanilishi mumkin, matallar esa hududiy qo‘llanilish chegarasiga ega va ular hech qachon millatlararo iste‘mol doirasida uchramaydi.

5. Matallar og‘zaki nutqda ko‘rsatish vositasi bo‘lsa, maqollar dalillash, isbotlash vositasi sifatida qo‘llanadi [3:16-17.].

Avvalo yuqorida to‘rtinchi bandda keltirilgan fikrni tahlil qilib ko‘ramiz. O‘zbek tilida “hech qachon” ma‘nosini ifodalaydigan “qizil qor yoqqanda”, “tuyaning dumi yerga tekkanda” degan matallar mavjud. Xuddi shu matal inglizlarda “when pigs fly” (cho‘chqalar uchganda) tarzida qo‘llaniladi.

Demak, matallarga hududiy chegaralanish doirasiga ega va hech qachon millatlararo iste‘mol doirasida uchramaydi degan ta‘rif berilar ekan va bu fikrga qarshi hayotiy misollarni keltirib o‘tilsa, ushbu nazariy ma‘lumotda qanday hikmat bo‘lishi mumkin?!

Paremiolog olimlardan P.M.Jukov tadqiqotchilarning ko‘pchiligi matalni ibora bilan almashtirib yuborishadi va shu sababli matallar iboralar kabi vazifa bajaradi deb hisoblaydilar. Bunday chalkashliklarni bartaraf etish uchun iboralarning analogi sifatida qo‘llanilayotgan matal atamasini butunlay olib tashlab, unga yangicha ma‘no berish kerak [10:11], degan fikrni ilgari surgan.

Paremiolog tadqiqotchi B.M.Jo‘rayeva esa tadqiqotchilarning ko‘pchiligi matal deganda iboralarni nazarda tutishadilar va ularning ta‘rifidan kelib chiqib, matallarga ta‘rif berishadi[2:29], degan fikrni ilgari suradi.

Tarjimon G‘.Raximov matal narsa va hodisalarni obrazli ifodalovchi, tilda keng istifoda etiladigan nutqiy hodisadir. Matal so‘zlovchining o‘z nutqi mazmuniga munosabatini ifodalaydi [5:123.], degan aniq va mantiqan to‘g‘ri fikrni keltirib o‘tadi. Maqol va matallar o‘rtasidagi tafovutni quyidagi jadval orqali taqqoslashimiz mumkin:

Mezoni	Maqol	Matal
Ta‘rif	To‘liq fikr va xulosani bildiruvchi xalq hikmati	Obrazli, kinoyaviy obraz

Fikrning tugallanganligi	Tugallangan, mustaqil	Tugallanmagan, kontekstga bog‘liq
Vazifasi	Pand-nasihat berish	Fikrni ta‘sirchan ifodalash
Ma‘no ifodasi	Ochiq, aniq	Yashirin, kinoyali
Qo‘llanilish usuli	Mustaqil gap sifatida	Gap tarkibida
Grammatik tuzilishi	To‘liq gap shaklida	So‘z birikmasi yoki qisqa jumla
Tarbiyaviy ahamiyati	Yuqori	bilvosita
Obrazlilik darajasi	O‘rtacha	Yuqori
Uslubiy xususiyati	Didaktik	Ekspressiv
Namuna	Mehnat qilib topganing – qand-u, asal totganing.	Pes pesni qorong‘uda topadi.

Yuqoridagi barcha fikrlarni muqoyasa va qiyosan to‘g‘ri tahlil qilgan holda shunday xulosaga kelish mumkinki, maqollar xalqning hayotiy tajribasiga asoslanadi, tugal fikrni ifodalaydi, ularning muhim vazifalari didaktik-nasihat yoki xulosa beradigan hikmatli gap hisoblanadi. Bundan tashqari maqollarda ohangdorlik, qofiyadoshlik yaqqol ko‘zga tashlanadi. Matallar esa to‘liq fikrni ifodalamay, balki unga ishora qiladi. Matallarning asosiy belgisi fikrni kinoyaviy, obrazli ta‘sirchan tarzda yetkazishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Berdiyorov B. Rasulov R. O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati. –Toshkent: O‘qituvchi, 1984. B. 12.

2. Jo‘rayeva B.M. Maqollarning lisoniy mavqei va ma‘noviy uslubiy qo‘llanilishi. Filol.fan.nomzodi diss… - Buxoro: 2002. B.29.

3. O‘zbek xalq maqollari. 1-jild. A-O. Toshkent: Fan, 1987. 15-16-17-bb.

4. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma: o‘zbek maqollarining izohli lug‘ati. – Toshkent. O‘z.SE redaksiyasi, 1990. BB.204, 460.

5. Raximov G‘. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. Darslik-majmua. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2016. B. 123.

6. Salomov G‘. Maqol va idiomalar tarjimasi. – Toshkent, “Fanlar akademiyasi” nashriyoti, 1961. 7-b.

7. Даль В.И. Пословицы русского народа - Москва, 1957. С. 28.

8. Добролюбов Н.А. Польное собрание сочинений. том I. - Москва: ГИХЛ, 1934. С.327.

9. Гаврин С.Г. К вопросу об отличии пословицы от поговорки в совр. русс. лит-ном языке. - Уч. зап. Пермского Госпединститута. Вып.17. 1958. с.42.

10. Жуков В.П. Словар русских пословиц и поговорок. - Москва: 1966. - с.11.

11. Кораке Э.Я. Интернационалное и националное в латышских пословитсах и поговорках. Рига, 1978.

12. Шаракшинова Н.О. Бурятское народное поэтическое творчество. - Иркутск, 1975. с.15.

13. Шаракшинова Э.К. Пословицы И поговорки бурят. Учебное пособие. Иркутск, 1981. С.15.

14. Широкова О. Жизнь пословицы. "Русский язык в школе". 1931. Н.6-7, с.117.

BADIIY MATNDA DIALEKTAL VA XALQONA LEKSIKANING FUNKSIONAL-USLUBIY TALQINI

Aminova Feruza Anvar qizi

ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

+998990845500

feruzaaminova98@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada badiiy matnda uchraydigan lug‘aviy dialektizm bo‘lmagan, biroq xalq nutqiga xos leksik birliklarning dialektal-uslubiy vazifalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda dialektal uslub hududiy cheklovlar doirasidan chiqarilib, qahramon nutqini individuallashtiruvchi hamda og‘zaki muloqotni

modellashtiruvchi funksional kategoriya sifatida talqin etiladi. Tahlil natijalari dialektal-uslubiy effekt faqat shevaga xos birliklar orqali emas, balki xalqona leksikaning nutqiy vaziyatdagi qo‘llanishi orqali ham yuzaga chiqishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *dialektal uslub, xalqona leksika, badiiy matn, nutq individualligi, situativ semantika*.

Аннотация. В статье анализируются диалектально-стилистические функции лексических единиц, не являющихся словарными диалектизмами, но характерных для народной речи в художественном тексте. Диалектальный стиль рассматривается не в рамках территориальных ограничений, а как функциональная категория, обеспечивающая индивидуализацию речи персонажа и моделирование устного общения. Результаты исследования показывают, что диалектально-стилистический эффект формируется не только за счёт собственно диалектных слов, но и посредством использования народно-разговорной лексики в конкретной речевой ситуации.

Abstract. This article examines the dialectal and stylistic functions of lexical units in literary texts that are not classified as dictionary dialectisms but are characteristic of folk speech. Dialectal style is interpreted beyond territorial limitations, as a functional category that serves to individualize a character’s speech and to model oral communication. The findings demonstrate that dialectal stylistic effects arise not only from explicitly dialectal words, but also through the contextual use of folk and colloquial vocabulary within specific communicative situations.

Badiiy matn tilini tadqiq etishda dialektal birliklarga munosabat ko‘pincha ularning lug‘aviy maqomi bilan cheklanadi. An’anaviy yondashuvda dialektizm adabiy til me’yoridan chetga chiqqan birlik sifatida qaraladi. Biroq badiiy nutqda dialektal va xalqona leksika faqat hududiy farqlanishni emas, balki nutqni tashkil etishning uslubiy va kommunikativ mexanizmlarini ham yuzaga chiqaradi. Shu bois dialektal birliklarni faqat lug‘at mezonlari asosida baholash ularning badiiy matndagi real funksiyasini to‘liq ochib bera olmaydi.

Dialektal birliklarning badiiy matndagi roli V. V. Vinogradov tomonidan ishlab chiqilgan funksional-stilistik yondashuv bilan uzviy bog‘liq. Olim badiiy

nutqda so‘zning qiymati uning lug‘aviy ma’nosi bilan emas, balki kontekstda yuzaga chiqadigan emotsional, baholovchi va pragmatik semalar bilan belgilanishini ta’kidlaydi[Виноградов В. 1:54-57]. Shu jihatdan, dialektal va xalqona leksika badiiy matnda faqat nominativ emas, balki stilistik yuklangan birliklar sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbek dialektologiyasi doirasida Sh. Shoabdurahmonov dialektal birliklarning xalq nutqida shakllanganligi va ularning qahramon nutqini hududiy rang bilan boyitishini qayd etadi[Шоабдурахмонов Ш. 2:34-36] . Biroq badiiy matn tahlili shuni ko‘rsatadiki, ayrim birliklar dialektizm sifatida lug‘atlarda qayd etilmagan bo‘lsa ham, dialektal-uslubiy funksiyani bajaradi. Bu hol dialektal uslubni faqat shevaga xos birliklar majmui emas, balki nutqiy vaziyatga bog‘liq stilistik hodisa sifatida ko‘rish zaruratini tug‘diradi. Suyundik Mustafo Nuratoiyning "Ko'ngil sadolari" asarida xalqona leksika yordamida qahramon nutqi standart adabiy til me’yorlaridan chetlashtirilib, ijtimoiy va maishiy jihatdan belgilangan nutq modeli yaratiladi: - *Jag‘ingni je-ya, jag‘ingni je , bachchag‘ar[Suyundik M. 4:127]. Bachchag‘ar* so‘zi xalq nutqiga xos baholovchi leksik birlik bo‘lib, badiiy matnda yosh shaxsga nisbatan kinoyaviy, erkalovchi yoki tanbeh ohangida qo‘llanadi. Mazkur birlik lug‘aviy dialektizm sifatida qat’iy belgilangan bo‘lmasa-da, qahramon nutqida ishlatilishi orqali dialektal-uslubiy funksiyani bajaradi. Xususan, u nutqni rasmiy-adabiy me’yordan uzoqlashtirib, og‘zaki muloqot modelini yaratadi, qahramonning ijtimoiy mavqei va munosabatini qisqa shaklda ifodalaydi. *Bosqoq* so‘zi lug‘aviy dialektizm sifatida qat’iy me’yorlashtirilmagan bo‘lsa-da, badiiy matnda dialektal-uslubiy birlik sifatida faol ishlaydi. U tabiat va mehnat bilan bog‘liq real holatni xalqona idrok asosida ifodalaydi, qahramon nutqining og‘zaki, amaliy va baholovchi xarakterini ochib beradi. Shu jihatdan mazkur birlik dialektal uslubning maishiy-amaliy leksika orqali voqelikni modellashtirish imkoniyatini yaqqol namoyon etadi: *Sabillar bosqoq bo'p qomasin[Suyundik M. 4:128]. “Bosqoq”* leksemasi statik holatni emas, balki salbiy natijaga olib keluvchi jarayon holatini anglatadi. Ya’ni u *“yopiq”* yoki *“to‘silib qolgan”* kabi neytral birliklardan farqli

ravishda, e’tiborsizlik yoki beparvolik oqibatida yuzaga kelgan holatni sezdiradi. Shu sababli u baholovchi semantikaga ega.

Ho‘pchilar (xirmon yanchuvchilar) timtik bo‘ldi[Suyundik M. 4:134]. Parchada Xo‘pchilar so‘zi o‘zbek tilining adabiy me’yorida mustahkam termin sifatida shakllanmagan bo‘lib, qishloq xo‘jaligi mehnati bilan bog‘liq hududiy nutqlarda uchraydigan xalqona kasb nomidir. U xirmonda donni yanchish bilan shug‘ullanuvchi shaxslarni bildiradi va semantik jihatdan mehnat jarayoniga bevosita bog‘langan. “Xo‘pchilar” leksemasi ish-harakat asosida nomlangan shaxs nomi bo‘lib, u kasb yoki mashg‘ulotni rasmiy tarzda emas, balki xalq nutqidagi funksional belgi orqali ifodalaydi. Bu yerda so‘zning asosiy semantik yuklamasi og‘ir jismoniy mehnat va davomiy faoliyat tushunchalari bilan uyg‘unlashadi. Gapdagi “timtik bo‘ldi” predikati bilan birikib, so‘z mehnat natijasida yuzaga kelgan jismoniy holdan toyishni kuchli obrazli shaklda ifodalaydi.Mazkur birlik badiiy matnda bir nechta muhim dialektal-uslubiy funksiyani bajaradi:

- Mehnat muhitini modellashtiradi — “xo‘pchilar” so‘zi orqali xirmon, mavsumiy mehnat, qishloq xo‘jaligi hayoti kabi real ijtimoiy manzara tiklanadi.

- Xalqona nomlash prinsipini aks ettiradi — rasmiy “xirmon yanchuvchilar” o‘rniga qo‘llanib, nutqni sun’iylikdan xalos qiladi.

- Qahramon nutqining ijtimoiy qatlamini ko‘rsatadi — so‘zlovchining qishloq muhiti va mehnatga yaqinligini ifodalaydi.

- Ekspressivlikni kuchaytiradi — birlikning xalqona ohangi “timtik bo‘ldi” birikmasi bilan birga mehnatning og‘irligini ta’sirchan tarzda ochadi.

Yozuvchi ushbu so‘zini qo‘llash orqali kasb nomini emas, mehnatning jonli tasvirini oldinga chiqaradi. Bu tanlov qahramonlar nutqini badiiylashtirishdan ko‘ra, hayotiylashtirishga xizmat qiladi. Natijada matnda rasmiy tavsif emas, balki xalq ongida shakllangan mehnat obrazi yuzaga keladi. Xulosa qilib aytganda, *xo‘pchilar* so‘zi lug‘aviy dialektizm sifatida tor hududiy chegaraga ega bo‘lmasligi mumkin, biroq badiiy matnda xalqona-dialektal uslubiy birlik sifatida faol ishlaydi. U mehnat bilan bog‘liq ijtimoiy tajribani ixcham va obrazli shaklda ifodalaydi, qahramon

nutqining tabiiyligini ta’minlaydi hamda qishloq hayotining real manzarasini tiklashda muhim stilistik vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Badiiy kontekstda *bachchag‘ar* semantik jihatdan shaxsning yoshini emas, balki unga bo‘lgan munosabatni bildiradi; shu bois u nominativ birlikdan ko‘ra pragmatik va baholovchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Bu birlik orqali yozuvchi qahramon nutqini individuallashtiradi va dialogga xalqona jonlilik kiritadi. Natijada bachchag‘ar dialektal uslubning baholovchi va ekspressiv qatlamini tashkil etuvchi muhim unsurlardan biri sifatida talqin qilinadi. Natijada qahramon nutqi abstrakt tasvirdan ko‘ra real hayotga yaqinlashadi va og‘zaki muloqot xususiyatlarini o‘zida aks ettiradi[Виноградов В. 1:54-57]. Bu hol dialektal uslubni faqat shevaga xos birliklar majmui emas, balki badiiy nutqni tashkil etuvchi mexanizm sifatida talqin qilish imkonini beradi. Alohida ta’kidlash joizki, badiiy matnda ayrim birliklarning takroran qo‘llanishi stilistik tasodif emas. Masalan, muayyan ijtimoiy tushunchani bildiruvchi birliklarning ko‘p marotaba ishlatilishi qahramon ongida ushbu tushunchaning ustuvorligini ko‘rsatadi va uning ijtimoiy masofani idrok etish tarzini ochib beradi[Виноградов В. 2:102-106]. Bu jihatdan takroriy birliklar statistik emas, balki pragmatik yuklangan nutq elementlari sifatida baholanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, badiiy matnda dialektal-uslubiy funksiya faqat lug‘aviy dialektizmlar orqali emas, balki xalqona leksik birliklarning qahramon nutqida tutgan kommunikativ va pragmatik o‘rni orqali ham yuzaga chiqadi. Bunday birliklar qahramon nutqini individuallashtiradi, matnga hududiy va etnografik aniqlik olib kiradi hamda og‘zaki muloqotga xos situativ semantikani kuchaytiradi. Shu bois dialektal uslubni faqat hududiy til hodisasi sifatida emas, balki badiiy nutqni tashkil etuvchi funksional kategoriya sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir. Ushbu yondashuv badiiy matn tilini tahlil qilishda dialektal va xalqona leksikaning real stilistik imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Shu asosda aytish mumkinki, badiiy matnda dialektal-uslubiy funksiya faqat lug‘aviy dialektizmlar orqali emas, balki xalqona leksik birliklarning qahramon nutqida tutgan kommunikativ o‘rni orqali ham yuzaga chiqadi. Ushbu yondashuv dialektal uslubni hududiy cheklovlardan chiqarib, uni badiiy nutqning funksional va pragmatik kategoriyasi sifatida talqin

qilish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari dialektal uslubni aniqlashda faqat lug‘at mezonlariga emas, balki nutqiy vaziyat, qahramon pozitsiyasi va muloqot strategiyasiga tayanish zarurligini asoslaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Виноградов В. В. О языке художественной литературы. – М.: Гослитиздат, 1959. – С. 54–57.

2. Виноградов В. В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. – М.: Наука, 1963. – С. 102–106.

3. Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Фан, 1980. – Б. 34–36.

4. Мустафо Суюндик. Кўнгил садолари. – Тошкент: Муҳаррир, 2010. –224 б.

ZAMONAVIY DOSTONLARDA BIBLIONIM VA KOSMONIMLARNING BADIIY-USLUBIY XUSUSIYATLARI

Djamalxodjayeva Gulxumor Taxirovna

O‘zDSMI, “Folkor va etnografiya” kafedrasi dotsenti v.b.,

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

tel: 909207444

e-mail: gulxumor8726@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada biblionim va kosmonimlarning Muhammad Yusuf dostonlarida tutgan o‘rni, ularning talqini va qo‘llanilishi bayon qilingan. Har bir biblionim hamda kosmonimlarning tahlili aks ettirilgan. Tadqiqotda onomastikaning ushbu periferik toifalari badiiy matn tuzilishida qanday funksiyalar bajarishi, intertekstual aloqalarni yaratishda qanday rol o‘ynashi hamda tarixiy xotirani saqlash mexanizmlarida qanday ishlatilishi ilmiy-nazariy jihatdan asoslanib berilgan.

Kalit so‘zlar: *biblionim, kosmonim, poetonim, antroponim, toponim, onomastika, allyuziya, intertekstuallik.*

Аннотация. В данной статье рассматривается роль библионимов и космонимов в произведениях Мухаммада Юсуфа, их интерпретация и применение. Представлен анализ каждого библионима и космонима, использованного в эпосе Мухаммада Юсуфа.

Ключевые слова: *библионим, космоним, поэтоним, антропоним, топоним.*

Abstract. This article examines the role of biblionyms and cosmonyms in the poems of Muhammad Yusuf, their interpretation and application. The analysis of each biblionym and cosmonym used in the epics of Muhammad Yusuf is presented.

Keywords: *biblionym, cosmonym, poetonim, anthroponim, toponyms*.

O‘zbek tilshunosligi biblionimlar mavzusiga oid turli nazariy va amaliy muammolarni chuqur tadqiq etish va tahlil qilish oldida turgan nihoyatda muhim va dolzarb vazifalardan biridir. Biblionimlar yozma adabiyotning ijtimoiy-madaniy hayotning barcha sohalari bilan bog‘liq eng faol va ommabop ko‘rinishi hisoblanadi. Shu sababli uni millatning umumiy muloqot tili maqomida baholash mumkin.

Biblionim (ya’ni, sarlavha yoki asar nomi) – asar, risola va kitoblar nomidir[1]. Biroq u matn uchun faqatgina shartli ramz-belgi sifatida emas, balki matnning mohiyati, mazmuni, maqsadi va vazifasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan zaruriy tarkibiy qism hisoblanadi.

Biblionim muammosi adabiy-ijodiy faoliyat sohasiga va badiiy mahorat-ma’naviy ruhiyatga daxldor masala hisoblanadi. Bu muammoga oid nazariy va amaliy ma’lumotlar hamda ulardan o‘z o‘rnida mohirlik bilan foydalanish katta ahamiyatga ega[2.30].

Biblionimlar qo‘llanilishi jihatidan adabiy tilning yozma shakli bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xilma-xil filologik tadqiqotlar ob'yekti hisoblanadi. Tilshunoslik nuqtai nazaridan biblionim va matn munosabati, biblionimlarnig leksik-grammatik, tarkibiy va uslubiy xususiyatlari, ularning taraqqiyoti, qo‘llanish turlarini o‘rganish mumkin. Shuningdek, biblionimlarning ma’lum davrga xos turlarini, biblionim

tanlash usul va san’atlarini tekshirish, umuman, biblionimlarnig stilistik va onomastik nuqtai nazardan tadqiq etish tilshunoslik uchun ham, yozma nutq amaliyoti va til ta’limi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi[2.30].

“Qora quyosh” dostonida adib biblionimlardan allyuziv nom vositasida mohirlik bilan foydalanganligiga guvoh bo‘lamiz:

Mana,

Qodiriyni qilishar so‘roq:

***“O‘tkan kun”** degan she’r siznikimi?*

-Ha.

Ammo u she’r emas...

Jim bo‘ling, axir!

She’rmi yo boshqami, avtori siz-da

Tamom. [3.154]

Bu satrlarni shoir XX asr o‘zbek adabiyotining yirik namoyondasi, o‘zbek romanchiligining asoschisi, millat ruhini yorqin aks ettirgan «O‘tkan kunlar» va «Mehrobdan chayon» romanlarining mualifi **Abdulla Qodiriy**ga bag‘ishlagan.

“O‘tkan kunlar” – o‘zbek adabiyotidagi birinchi roman. Romanda Otabek, Yusufbek hoji, Kumush, Zaynab kabi qahramonlar hayoti, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-axloqiy muammolar, yurt va millat taqdiri masalalari qalamga olingan. Asar o‘zbek adabiyotining eng nodir namunalaridan biri hisoblanadi[4.116].

“O‘tkan kunlar” biblionimi Muhammad Yusuf dostonida allyuziv nom sifatida qo‘llanib, **intertekstual matn** yaratishda vosita bo‘lgan. Bu orqali ikki matn o‘rtasida semantik ko‘prik o‘rnatiladi va tarixiy xotira mexanizmi faollashtiriladi.

O‘zbek tili yozma yodgorliklarga juda boy til hisoblanib, tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlarida yaratilgan yozma manbalarda kosmonimlarga oid materiallar keng uchraydi. Kosmonimlarning o‘ziga xos xususiyatlari ko‘p ijodkor va olimlar e’tiborida bo‘lganligi ma’lum. Masalan, VIII asrning ikkinchi yarmida Xorazmda yashagan **Muso al-Xorazmiy** “Zij” nomli astronomiya jadvalini yaratgan. **Forobiy** astronomiyaga oid asarlar yozib, osmon jismlarining xususiyatlarini bayon etgan. **Abu Rayhon Beruniy** zo‘r astronom sifatida “Astronomiya kaliti” va “Mas’ud

jadvali” asarlari bilan o‘z davrida O‘rta Osiyoda astronomiya fanining taraqqiyotiga bebaho hissa qo‘shgan.

Kosmonim – kosmik fazoda joylashgan samoviy obyektlarning atoqli otlari. O‘zbek kosmonomiyasi tarkibida tilimizning qadimgi zamonlardan foydalanilib kelinayotgan yuzlab nomlari mavjud.

Bir guruh o‘zbek nomshunoslarining ta’kidlashicha: “O‘zbek tili tarixida mavjud bo‘lgan va ko‘plab tarixiy yozma yodgorliklar hamda tarixiy asarlar tilida saqlanib turgan son-sanoqsiz atoqli otlar, ularning paydo bo‘lishi, yasalishi va shakllanishi, ma’no va vazifaviy xususiyatlari, boshqa til bilan lisoniy hamda tarixiy-madaniy, ma’rifiy tomonlari fan uchun qorongigicha qolmoqda”[5.25]. Aynan ushbu fikrlar bizni tadqiqot obyektimizning kosmonimlarini aniqlash hamda tahlil qilishga undadi. Muhammad Yusuf o‘z asarlarida kosmonimlardan foydalanganligi va undagi tasviriy vositalar qanday uslub va ma’no berganligini aniqlab chiqishga qaror qildik.

*...**Hulkar** emas,*

***Zuhal** emas,*

Tili bo‘lsa aytsin ko‘k –

Sho‘rlik elning

Ko‘zlaridan

Sachragan cho‘g‘ – yulduzlar [3.139.]

Hulkar – Savr burjida joylashgan oltita yorqin yulduzdan iborat to‘da. Hulk deb ham nomlanadi. Hulkar yulduzi dunyo xalqlari orasida turlicha nomlarga ega. Hulkarning arabcha Surayyo nomi ham turkiycha nomiga ma’nodoshdir. Planeta nomlari: Utorid, Zuhra, Venera, Merkuriy, Yupiter, Nohid, Cho‘lpon, Tong yulduzi, Yo‘lchi yulduz, Yer, Mirrix, Mars, Mushtariy[5.110].

Hulkar kosmonimi keltirilgan misralarda allyuziv nom vazifasida badiiy tasviriy ifoda sifatida qo‘llanilgan.

Zuhal – Quyosh sistemasidagi katta sayyoralardan birining nomi. *Zuhal* kosmonimining Yevropa tillaridagi nomi Saturn bo‘lib, yuqorida keltirilgan misrlarda allyuziv nom vazifasida kelib, asarning mazmunini boyitadi va uning badiiy-estetik salmog‘ini oshirishga yordam beradi.

Olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Muhammad Yusuf biblionimlardan mohirona foydalangan. Biblionimlar orqali adib real voqelikni aks ettiradi va tarixiy faktlarga ishora qiladi. Qatag‘on davrining oqibatlarini tasvirlashda biblionimlardan foydalangani asarning badiiy-estetik mohiyatini oshirishga zamin yaratgan. Bu yozuvchi tafakkurining yuqori darajasidan dalolat beradi.

2. Tobora rivojlanib borayotgan o‘zbek tilshunosligida atoqli otlarning leksik-semantik guruhlari ancha qiziqarli tadqiqot obyektidir. Kosmonimlar nomshunoslik sohasining rivojlanayotgan yo‘nalishi bo‘lib, mutaxassisdan yuqori bilim va ilmiy-amaliy tajriba talab qiladi. Muhammad Yusuf dostonlaridagi kosmonimlarnig tahlili ushbu sohaning ilmiy-amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi va nafaqat mutaxassislar, balki boshqa sohalar vakillari uchun ham qiziqarli ma’lumotlar manbai bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Йўлдошев Б. Бадиий асар сарлавҳаларининг семантик ва грамматик хусусиятлари ҳақида (Абдулла Қаҳҳор ва Саид Аҳмад асарлари асосида) // Ўзбек тилшунослиги масалалари. Мақолалар тўплами. – Самарқанд, 2001. – 45-52-б.

2. Примов А., Ақманова Ш. Библионимларнинг нутқий-коммуникатив ва функционал хусусиятлари // Илм сарчашмалари. – 2019. – № 4. – Б. 30-33.

3. Муҳаммад Юсуф. Халқ бўл элим // Ўзбекистон. – Тошкент, 2018. – 137-204-б.

4. Худойберганова Д., Анданиёзова Д. Ўзбек тили поэтонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Турон замин зиё, 2016. – 344 б.

5. Эназаров Т. Номшунослик масалалари. Услубий қўлланма. – Тошкент: ЎзМУ нашри, 2010. – 156 б.

6. Djamalxodjayeva G. T. Muhammad Yusuf ijodidagi folklorizmlar lingvopoetikasining o‘rganilish masalalari //Oriental Art and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 1. – C. 398-405.

ЗАМОНАВИЙ РАДИОДА МАДАНИЙ-МАЪРИФИЙ ЭШИТТИРИШЛАРНИНГ ЎРНИ, АҲАМИЯТИ, ТИЛ МЕЪЁРЛАРИ: МУАММОЛАР, ЕЧИМЛАР

Хоннаева Улжамол Кузимуродовна

Ўзбекистон журналистика ва оммавий коммуникациялар Университети Халқаро ва аудиовизуал журналистика кафедраси катта ўқитувчиси

Аннотация: мазкур мақолада замонавий радио тизимида маданий-маърифий эшиттиришларнинг ижтимоий, маънавий ва ахборот маконидаги ўрни таҳлил қилинди. Рақамли трансформация, глобаллашув шароитида радионинг маданий-маърифий функциясини шакллантириш, миллий меросни сақлаш ва аудиториянинг интеллектуал салоҳиятини оширишдаги аҳамияти ёритилган. Анъаналар асосида тайёрланаётган маданий-маърифий радиодастурларнинг янгича талқинда оммалаштирилаётгани тадқиқ этилган.

Калит сўзлар: *радио журналистикаси, маданий коммуникация, аудитория, тингловчи, дастур, канал, эстетика, мусиқий-кўнгилочар, маданий-маърифий дастурлар.*

Аннотация: в этом статье была проанализирована роль культурно-просветительских передач в общественном, духовном и информационном пространстве современной радиосистемы. Подчеркнута важность формирования культурно-просветительской функции радио в условиях цифровой трансформации, глобализации, сохранения национального наследия и повышения интеллектуального потенциала аудитории. Было отмечено, что культурно-просветительские радиопрограммы, изготовляемые на основе традиций, популяризируются по новому.

Ключевые слова: *радиожурналистика, культурная коммуникация, аудитория, слушатели, программа, канал, эстетика, музыкально-развлекательные, культурно-просветительские программы*.

Annotation: In this article, the role of cultural and educational programs in the public, spiritual and information space of a modern radio system was analyzed. The importance of the formation of the cultural and educational function of radio in the context of digital transformation, globalization, preservation of the national heritage and increasing the intellectual potential of the audience was emphasized. It was noted that cultural and educational radio programs based on traditions are popularized in a new way.

Keywords: *Radio journalism, cultural communication, audience, listeners, program, channel, aesthetics, musical and entertainment, cultural and educational programs.*

Бугунги глобаллашув жараёнида оммавий ахборот воситаларининг энг тезкор, самарали, қулай ва арзон тури бўлмиш радио замон билан ҳамқадам бўлишга интилади. Олиб борилган илмий манбалар таҳлили шуни кўрсатадики, замонавий радио анъанавий ахборот узатиш воситасидан рақамли, интерактив ва мултимедиа майдонига айланган. Маданий-маърифий эшиттиришлар эса бу трансформация жараёнида ўз позициясини сақлаб қолган ҳолда, янги форматлар (подкаст, онлайн-эфир, архив платформалар) орқали аудитория билан самарали мулоқот ўрнатмоқда. Тадқиқотлар радионинг маданий идентификацияни шакллантириш, миллий меросни сақлаш ва жамиятда ижтимоий бирликни мустаҳкамлашда муҳим восита эканини тасдиқлайди. Глобаллашув шароитида радио миллий маданиятни ҳимоя қилувчи ва тарғиб этувчи воситадир. Радионинг маданий мулоқот ва жамоатчилик фикри шаклланишидаги ролини ниҳоятда муҳим.(1)

Радионинг аданий-маърифий функция муҳим аҳамиятга эга. Радиода берилган маданий-маърифий дастурлар орқали адабиёт, санъат, маданият мавзулари таҳлил қилинади. Бу жараёнга аудитория вакиллари ҳам иштирок этади. натижада тингловчи ўзи учун муҳим хулосалар қилади. Бу билан маданий ва маърифий дастурлар аудитория тарбиясига, маънавий билим, савиясининг ошишига таъсир кўрсатади. Айниқса, таълимий ва маданий лойиҳаларнинг аудитория вакиллари онгига таъсири кенгдир.(2) Радио ҳақида

илмий тадқиқот олиб борган олимлардан бири, Юсуф Хамдамов маданий-маърифий дастурларни “қушнинг икки қанотига ўхташиш мумкин”.(3)

Радионинг маърифий фаолияти, бошқа оммавий ахборот воситаларники сингари ўзига хос, мақсадли характерга эга. Тадқиқотчилар М.Р. Соколов ва Е.Ю. Погорельскаяларнинг фикрича, «маърифий журналистика одамда унинг чинакам инсоний хислатларини ўстиришга қаратилган абадий қадриятларга юзланади».(4)

Бугун маданий-маърифий йўналиш, назаримизда, нафақат маданият, балки маънавий-ахлоқий шахс учун кураш майдонига айланди. Республикамиздаги барча радиоканаллар, радиостанциялар ҳам бу масъулиятни ҳис қилган ҳолда дастурларида миллий маданият, маънавият, маърифатни акс эттириб келишмоқда. “Ўзбекистон” радиоканали, 103,1 тўлқинлари. Дастур бошидаги ролик шеърий тарзда янграйди. Дугоналар, дилбар қизлар, кўнгил ҳамроҳингиз, “Дугоналар” (5) радиожурнали эфирда, дея, кўтаринки кайфиятда бошланади. Журналист дастур давомида студия меҳмони, фалсафа фанлари доктори Марҳабо Собировага саволлар бериб, турли йўналишда фикр – мулоҳазалари билан қизиқди. Масалан, Марҳабо опа, сиз профессор даражасига эришган, жамиятдаги фаол аёллардан бирисиз, оилада қандайсиз?-дея нозик савол билан мурожаат қилди. Бу саволга жавобан дастур меҳмони, ўзи илмда етук мутахассис,олим, зиёли бўлганлиги билан оилада оддий аёл, бека, фарзандларининг севимли онаси, ошхонада пазанда, набираларига эртакчи бувижон эканлигини сўзлаб берди. Журналист мана шундай илмоқли саволлар билан Аёлнинг жамиятдаги, оиладаги, тарбиядаги ўрни ҳақида қахрамонининг фикр ва мулоҳазалари билан танишди. Марҳабо Собирова ҳам айрим аёллар мен раҳбарман, олимаман, деб оиласи, фарзандларини иккинчи даражага тушириб қўяди. Бу эса жамиятда меҳрга , эътиборга мухтож одамларнинг кўпайишига сабаб бўлаётганини, аёл қайси лавозимда ишлашидан қатъий назар, аёл-у она, бека эканлигини унутмаслиги лозимлигини таъкидлаб ўтди. Шу ўринда, “Дугоналар” радиожурнали ,- дея ролик берилганда дастур саҳифалардан иборат бўлади , деб кутган эдик. Аммо, дастурда битта қахрамон

бўлиб, бу қаҳрамонга турли мавзуларда мушоҳадага ундовчи, мулоҳазали саволлар бериб, жавоб олинди. Дастур давомида Муаллиф – Нилуфар Абдуҳамид қизи ўзининг оила, аёллар ҳақидаги саволларини халқ мақоллари, иқтибослар билан бойитиб, суҳбатдошга тақдим этди. Масалан, халқимизда “Эркак бош бўлса, аёл бўйин” - деган ибора бор. Демак, оиланинг мустаҳкамлиги кўп жиҳатдан аёлларга боғлиқ ...Сиз бунга қандай қарайсиз? - каби саволлар билан дастурнинг қимматини оширди.

Шунингдек, канал ижодкорларидан бири, Роҳила Юсупова муаллифлигида “Адабий жараён”(6),дастурида ҳозирги ўзбек адабиётининг ёрқин намоёндалари ҳақида маълумот беради. Шунингдек ижодкорнинг энг сара асарларидан парча берилади. Навбатдаги дастурда Гуландом Тоғаеванинг янги нашрдан чиққан, “Ишқ ҳандасаси” китоби ҳақида маълумот берилди. Шоира ҳали талабалик йилларидаёқ, унинг тенгдошлари ишқ ҳақида тасаввурга эга бўлишмаган бир пайтда, “севганлар йигласин, мен йиғлаб бўлдим”, - дея ҳаммани ҳайратга солгани. “Навоийга она бўлсайдим”,- дея, миллат фарзандларидан Навоийдек даҳолар етишиб чиқишини орзу қилгани ҳақида сўз юритилади. Мукаммал инсонни соғиниш туйғуси шоира шеъриятининг бош мезони, дея эътироф этади. Шунингдек, дастур давомида “Севганлар йиғласин” шеърини маромига етказиб ўқиб берди.

Қачонким, мен анинг чашмини кўрдим,
Кўзимнинг ёшини қўриғлаб бўлдим,
Чеҳрангнинг гарди деб Каъбага бордим,
Севганлар йиғласин, мен йиғлаб бўлдим!

Бу шеърнинг якунида Шерали Жўраев ижросидаги “Сардори менман” қўшиғи янгради.

“Маҳалла” FM-107,8 радиоканалида бериб борилаётган, “Маърифат чироқлари”,(7) Радиотарихида илк диний-маърифий дастурдир. Бу дастур 2017 йилда эфир юзини кўрди. Бунгача барча давлат радиоканаллари фақат рамазон ойида диний мавзуда дастурлар тайёрлашган. Бу дастурлар кун давомида икки маротаба, саҳарлик ва ифторлик вақтида эфирга берилган. Кейин эса тўхтаб

қоларди. “Маърифат чироқлари” дастури эса йил давомида бериб борилади. Дастурнинг навбатдаги сонида доимий иштирокчиларидан бири, адабиётшунос олим Акром Малик меҳмон бўлди. Алишер Навоийнинг “Ҳайратул Аброр” асарида “Бисмиллаҳир-роҳманир-роҳим” сўзининг мазмун моҳиятига берилган таъриф ҳақида сўз юритилди.

- Билмиллаҳир-роҳманир-роҳим, ваҳдат ҳазинасига олиб борадиган энг яқин йўлдир. Шунингдек, қаттиқ ва хавф хатарли йўлдир ҳамдир, – дейди у сўзида. Бу йўлдан борадиганлар 2 хил бўлади: 1-аҳли воқифлар, 2-аҳли радлардир. Бисмиллаҳир-роҳманир-роҳим, Оллоҳга етказувчи энг яқин йўл бўлса, машаққати унда -аҳли қабул ва аҳли раднинг борлигидир. Шу ерда дастур муаллифи Умида Ғаффорова меҳмон овозига мос тушадиган, босиқ, ширали овозда давом эттирди ва Ҳазрат Алишер Навоийнинг “Ҳайратул Аброр” асарида “Аҳли рад” ҳақида ёзилган фикрларини сўзлаб берди. Айни шу мавзуни адабиётшунос Акром Малик Алишер Навоийнинг “Бисмиллоҳи-роҳманир-роҳим”га берган таърифини ҳар бир ҳарфи асосида таҳлил қилиб берди. Бу дастурда мусиқа, оҳанглар ҳам най, ғижжак ва тамбур наволари билан безатилган.

“Водий садоси” FM-102,7 радиостанцияси тўлқинларида эса “Хиргойи”, “Салом мактуб”, “Қулоққа айтиладиган гаплар”, “Онамга хат”(8) дастурларида халқимизнинг қадриятлари, анъаналари ифода этилади.”Онамга хат” дастурида бошловчи, ким онасини соғинди, дея. Барчанинг кўнглини эритадиган савол билан мурожаат қилади. Телефон рақамлари эълон қилинади. Юртдошларимиз телефонга қўнғироқ қилиб, бирма-бир онасини соғингани ва ҳали мактуб битмагани ҳақида сўзлаб беришади. Бошловчи, ҳар бир мухлис билан яқиндан танишади. Кимдир Россиядан, яна кимдир, Фарғонадан Тошкентга келиб, Қўйлиқ бозорида ишлаётганини айтиб беради. Бошловчи дастур давомида телефон қилган мухлисларни: Онажон, мен сизни соғиндим, сизни яхши кўраман, мени кечиринг, Сиз дунёдаги энг гўзал аёлсиз, Сиз энг меҳрибонсиз, деган сўзларни айтишга ундайди. Жуда таъсирли. Айримлар ҳеч ҳам онасига “сизни яхши кўраман”, деб айтмаганини тан олади. Телефон орқали уланган

юртдошларимиз, “Онамга хат” дастури орқали меҳрга ундовчи сирли сўзларни бошловчи билан биргаликда айтадилар. Дастур давомида она ҳақидаги энг гўзал қўшиқлар эфирга узатилади.

“Ориат доно” FM-106,5 радиостанцияси тўлқинларида ҳам “Халфана” дастури мунтазам бериб борилади. “Халфана”(9) дастурининг бир сонида Ўзбекистон халқ артисти Абдуҳошим Исмоилов меҳмон бўлди. Ғуломжон Ёқубов ижро этган, “Эрка булбул”, “Бир табассум қил” қўшиқларини, дастлаб, ўзи ижро этгани ва кейин хонандага бергани ҳақида сўзлаб берди. Ҳатто, Ғуломжон Ёқубовнинг “Кел, Нигорим, сен ўзинг” қўшиғини ёзиб, ўзи ҳам давраларда ижро этганини гапириб, жонли ижро қилиб берди. Жуда чиройли ижро бўлди. Биз созанда сифатида билганимиз, таниганимиз Абдуҳошим Исмоилов, жуда яхши қўшиқчи эканлигига амин бўлдик. “Халфана” дастури нафақат хонандалардан жонли ижро тақдим этади, балки, бир қўшиқнинг яратилиш тарихи, муаллифи, созандаси, ҳатто жўровоз бўлган ижрочилар ҳақида ҳам батафсил маълумот беради. Бошловчи Баҳодир Магдиев дастурни жуда халқона, самимий тарзда олиб боради. Кези келганда ўзи ҳам қўшиқ куйлаб беради. Телефон орқали уланган мухлислар ҳам дастур меҳмонига савол бериш баробарида унинг қўшиқларидан хиргойи қилиб бериши мумкин.Дастур бошидан охиригача интерактив тарзда ташкил этилган.

Ҳозирги кунда хусусий радиоканаллар бевосита жонли тарзда эфирга узатилади. Интерактивлик эса радиоканалларнинг рейтингини оширади. Тўғри, айрим, нўноқ бошловчилар,жонли эфирда сўз тополмай, шевада гапириб, эфир сифатини тушириши мумкин. Аммо, бевосита мулоқотга асосланган жонли эфир самарадорлиги катта аҳамиятга эга. Ўзбекистонда жонли эфирни тадқиқ этган Климентина Исмоилованинг таъкидлашича, “Жонли эфирда, энг муҳими, воқеа- ходисаларни ҳақиқий ҳаётга иложи борича яқин қилиб тасвирлаш... Воқеа –ҳодисалар руҳиятига “кириб”, унинг бевосита иштирокчисига, гувоҳига айланаётган аудиториянинг бу жараёнга қизиқиши ҳам катта”дир. (10)

Хулоса ўрнида айтишимиз мумкинки, ҳозирда оммавий ахборот воситаларининг халқчиллиги нуқтаи назаридан қарайдиган бўлсак,

янгиликлардан огоҳ этувчи асосий манба интернет ва тедевидение бўлиб қолди. Радио эса тингловчиларнинг ҳордиқ чиқариш “маскани”дек гўё. Аудитория радиони айнан шунинг учун ҳам эшитадиган бўлиб қолди, десак адашмаймиз. У мулоқотни ташкил этишнинг асосий ОАВ тури сифатида муҳим аҳамият касб этиб келяпти .Кечки, соат 9:00дан кейин давлат каналларида ҳам хусусий радиостанцияларда ҳам эшитимли дастурлар камайиб кетди. Давлат каналларидаги қўшиқлар орасидаги қисқа ҳикматли иборалар, руҳлантирувчи сўзларни айтмаганда, асосан қўшиқлар кетма-кетлигига урғу берилади. “O‘zbekiston”, “Mahalla”, “Yoshlar” ва бошқа давлат радиоканалларида маданий-маърифий эшиттиришлар тайёрланади, аммо, асосан бу дастурлар мулоқот, интервью, суҳбат шаклида эфирга узатилади. Бу эса радиода жанрлар хилма-хиллиги чекланаётганини билдиради.

Радионинг биринчи вазифаси комил инсонни тарбиялаш бўлмоғи керак. Бинобарин, шу билан бирга айнан у катта-ю кичикка ўзлигини танитишда, шахс сифатида шаклланишида муносиб кўмакдош ҳам бўлиши зарур.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Hendy, D. (2000). *Radio in the Global Age*. Polity Press. C-233
2. McLeish, R. (2005). *Radio Production*. Focal Press. C-149
3. Хамдамов Ю. Тараққиёт мезони. - Т.: “O‘zbekiston”, НМИУ. 2013. – Б. 44
4. Соколов М.Р., Погорельская Е.Ю. Просветительская журналистика и формирование современного человека. Екатеринбург: «Гуманитарный университет», 2021. - С. 544–549.
5. Радио эфир. 02.07.24. соат 13-20 да “Дугоналар” радиожурнали.
6. Радио эфир 26.09.24. соат 14-00 дан 15-00 гача “Адабий жараён”
7. Радио эфир 02.07.24. соат 22-00 дан 22-30 гача “Маърифат чироқлари”. Муаллиф Умида Ғаффорова.
8. Радио эфир 11.11.24. соат 9-00 дан 10-00 гача “Онамга хат” муаллиф Зиёвуддин Аҳмаджонов.

9. Радио эфир 29.03.23. соат 19-00 дан 20-00 гача “Ҳалфана” муаллиф Баҳодир Магдиев.

10. Исмоилова.К.В режиме приямого эфире. - Т.: Межд. центр переподготовки журналистов, 2007. - С. 7.

4-SHO‘BA: “TIL VA ADABIYOT O‘QITISHNING METODIK VA METODOLOGIK MASALALARI” (ONA TILI VA XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDAGI INNOVATSION YONDASHUVLAR, ADABIY TA’LIMNING ZAMONAVIY METODLARI, MILLIY DASTUR VA XALQARO TADQIQOTLAR)

NOMUTAXASSISLIK FANLARINI JOZIBALI O‘QITISHNING ILMIY-AMALIY ASOSLARI XUSUSIDA

Daniyarov Baxtiyor Xudayberdiyevich

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti professori,

filologiya fanlari doktori

e-mail: bxdaniyarov@gmail.com

Annotatsiya: maqolada oliy ta’lim tizimida talabalarni o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar, innovatsion metodlar, usul va uslublar haqida fikr-mulohazalar yoritilgan. Fanlarga oid yangi atamalarga ilmiy terminologiyada berilayotgan ta’riflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *Nomutaxassislik fanlarini jozibali o‘qitish; ilmiy-amaliy asoslar; mantiqiy izchil,ixcham.*

Abstract: The article discusses modern approaches, innovative methods, methods and techniques in teaching students in the higher education system. The definitions of new terms in scientific terminology are presented.

Keywords: *Engaging teaching of non-specialty subjects: scientific-practical foundations; logically consistent and concise.*

Аннотация: В статье рассматриваются современные подходы, инновационные методы и методики обучения студентов в системе высшего образования. Приводятся определения новых профильных понятий, представленных в научной терминологии.

Ключевые слова: *Привлекательное преподавание непрофильных дисциплин: научно-практические основы; логическая последовательность и лаконичность.*

Yangi joriy etilgan “Akademik yozuv”, “O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi”, “Mediasavodxonlik va axborot madaniyati” fanlariga oid alohida kitob ko‘rinishiga ega ilmiy yoki o‘quv-metodik adabiyotlar, jumladan, monografiytia, darslik, o‘quv qo‘llanmalari juda kam. Borlari ham turli soha yo‘nalishlarida ta’lim olayotgangan talabalar uchun, shu jumladan, nofilologik va nogumanitar sohalarni tanlagan talablar uchun tilshunos olimlar tomonidangina umumiy tarzda yozilgan adabiyotlardir (chunki ushbu fanni oliy ma’lumotli filologiya sohasida kamida magistr darajasidagi zarur bilim, ko‘nikma va malakalarga ega tajribali mutaxassislar o‘qitishi kerakligi tegishli hujjatlar bilan belgilab qo‘yilgan) [1: 14].

Bu holat esa nofilologik yo‘nalishdagi soha va mutaxassisliklarni egallashni azm qilgan talabalar, jumladan, Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universitetining axborot texnologiyalari yo‘nalishlarida, xususan, kompyuter injiniringi va dasturiy injiniring ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun ushbu fanni o‘rganish jarayonida muayyan muammo va qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin.

Zero, talabalar, va umuman, tinglovchilar ular uchun tushunarsiz bo‘lgan murakkab, chigal, noaniq bayon, ifoda va ta’riflarni qabul qila olmaydilar.

Misol uchun, A.Avloniy nomidagi pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirih markaziy institut tinglovchilari (maktab direktorlari, xalq ta’limi hududiy boshqaruv idoralari, pedagoglari) ishtirokida 2011-2014 yillarda, hamda oliygohlar talabalari ishtirokida 2017-2025 yillarda o‘tkazilgan so‘rovnomalar natijasidan, shunungdek, xizmat faoliyatim yuzasidan olib borilgan tajribadan ma’lim bo‘ladiki, “pedagogic texnologiya” tushunchasiga berilgan quyidagicha pedagogik atamalar yig‘ndisidan iborat mujmal ta’rif nafaqat pedagoglarning, balkim balkim har qanday soha mutaxassislarining tushunib olishlari uchun murakkablik qiladi [4: 95]:

“Pedagogik texnologiya – o‘quv jarayonini texnologiyalashtirishni yaxlit aniqlovchi tizimli kategoriya. Texnologiyalarning barcha boshqa tushunchalarini belgilash uchun sinonim sifatida ta’lim texnologiyasi, o‘qitish texnologiyasi kabilarni ishlatish mumkin. O‘qitish texnologiyasi, birinchidan, pedagogik texnologiyalarning jarayonli – harakat aspektini anglatadi. Bu ta’lim jarayonining o‘zgaruvchan

sharoitlarda, ajratilgan vaqt davomida istiqbollashtirilgan natijalariga kafolatli erishishga va aniq ta’lim-tarbiya jarayonlarini amalga oshirishni instrumental ta’minlovchi usul va vositalarning tartibli birligini o‘zida mujassamlashtirilgan ta’lim modelini ishlab chiqish va amalga oshirishning texnologik jarayonidir; ikkinchidan, pedagogik texnologiyalarning jarayonli – bayonli aspektini ifodalaydi. Bu maqsadni amalga oshirish va istiqbolda belgilangan natijalarga erishish bo‘yicha pedagogik hamda o‘quv faoliyati loyihasini bajarishning bayonidir (texnologik xarita).” (Педагогик технологиялар. Ўқув қўлланма. – Тошкент: “Иқтисод-Молия”, 2009, 75-бет).

Talabalarga oddiy qilib quyidagicha aytish kifoya:

Pedagogik texnologiyalar – bu ta’lim va tarbiya maqsadlariga samarali erishish uchun o‘qitish jarayonini oldindan to‘g‘ri rejalashtirish, mantiqiy izchil ketma-ketligida tashkil etish va natijani tekshirib borish.

Yanada qisqa va sodda qilib aytganda:

Qanday qilib o‘qitsak, talabalar aniq natijaga erishadi?- degan savolga javob beradigan usullar majmuasi pedagogik texnologiyalardir.

Demak, pedagogik texnologiya – bu ilmiy asoslangan, rejali o‘qitishdir.

Kelajagini ilmiy pedagogik faoliyat bilan bog‘layotgan talabalar uchun ushbu atamani ular uchun yanada jozibaliroq tushuntirish mumkin:

Pedagogik texnologiyalar - bu ilmiy asoslangan ta’lim-tarbiya berishning, samarali o‘qitishning zamonaviy usul, tutum, uslublari tizimi.

Imiy asoslangan atamasi –tajribada muvaffaqiyatli sinalgan, ijobiy natijalar olingan, dalil, faktlar bilan isbotlangan, ko‘zlangan maqsadga erishilgan degan ma’nolarni anglatadi.

Masalan, ba’zi bir tilshunoslikka oid o‘quv adabiyotlar, ilmiy ishlarda termin (atama) so‘zi quyidagicha ta’riflangan:

“Terminologiyaga bag‘ishlangan ishlarning barchasida u yoki bu sohaning muayyan tushunchalarini anglatadigan, asosan, nominativ funksiyani bajaradigan birliklar termin hisoblanadi deb qaraladi. Hozirgi vaqtda terminologiya masalasining o‘sib borishi, bir tomondan ilm-fan, qishloq xo‘jaligi, iqtisodiyotning dinamik

rivojlanishi tufayli yangi tushunchalarning ko‘payib borishi deb qaralsa, ikkinchi tomondan, terminlarning shakllanish jarayoni rivojlanishi va funksiyasi kabi masalalarni chuqurroq o‘rganilishi zarurligi bilan izohlanadi” [8: 111].

Ushbu ta’rif nofilologik yo‘nalishda, masalan, texnika sohasi yo‘nalishida, jumladan, kompyuter muhandisligi va axborot texnologiyalari yo‘nalishini tanlagan talabalarning tushunishi uchun juda murakkab bo‘lib, ularning akademik yozuv faniga bo‘lgan qiziqishlarini so‘ndirib qo‘yishi mumkin. Bo‘lg‘usi “aytichi”larga *termin* tushunchasini oddiy, sodda va lo‘nda qilib, quyidagicha tushuntirish ma’qul:

“Terminlar biror bir sohaga oid maxsus so‘zlar, tushunchalar. Masalan, bayt, kilobayt, megabayt, terabayt va h.”

Matn, *nutq* va ularning turlari kabi tushunchalar esa mavjud adabiyotlar va o‘quv-metodik majmualarda quyidagicha yoritilgan:

“Matnlar tarixan shakllangan adabiy tilning turli ko‘rinishlari bo‘lib, ular fikrni ifoda etish jarayonida nutq tuzilishining o‘ziga xosligi bilan farqlanadi. Matnlar taraqqiyotini adabiy janrlar taraqqiyotidan ajratgan holda qaramaslik kerak. Chunki nutqiy vositalar tarkibi va ularni qo‘llash me’yorlari asar janri bilan aloqadordir. Badiiy matn janrlar prinsipi asosida tavsif qilinadi va ular asarning janr xususiyatiga ko‘ra farqlanadi” [9: 6].

Tasavvur qiling-a, ushbu universitning, masalan, axborot texnologiyalari sohasini egallamoqchi bo‘lgan talaba *atama*, *matn* haqidagi bu bilimlarni eshitib, yoki o‘qib qay ahvolga tushishi mumkin. Zero, *atama* (termin), *matn* haqidagi bunday ta’riflar zamonaviy kompyuter texnologiyalariga oid bilimlarni egallamoqchi bo‘lgan talabalar uchun emas. Bu sohani tanlagan talabalarga oddiy va sodda qilib tushuntirish kerak, masalan, quyidagi tarzda:

“Matn bu – til qoidalariga muvofiq so‘zlar vositasida anglatilgan va qog‘ozga tushirilgan fikr (fikrlar).”

Masalan, akademik yozuv fani domlasi nofilologik yo‘nalishlarda, jumladan, texnika yoki iqtisod sohalari kasblarini ko‘zlab ta’lim olayotgan talabalarga sinonimlar tushunchasini quyidagicha ifoda etib, tushuntirishga harakat qilishi behuda urinish bo‘lardi:

“Tadqiqot natijalari asosida o‘zbek tili leksik sinonimlarini asosiy denotativ ma’nosi bo‘yicha mos, lekin konnotativ ma’no komponentlari xususiyatlari va qo‘llanishi, funksional imkoniyatlarining o‘ziga xosligi bilan farqlanadigan lug‘aviy birliklar - sinonimlar deb tavsiflash maqsadga muvofiq. Sinonimlar leksik va kontekst birikuvi hamda derivatsiyaviy xususiyatlari va imkoniyatlari bilan ham farqlanadi” [2: 175].

Zero, ma’nodosh so‘zlarning ushbu ta’rifi ilmiy asoslangan, juda to‘g‘ri yozilgan bo‘lsa-da, sinonimlarga oid bu ilmiy xulosa o‘zbek tilshunosligi sohasida qalam tebratayotgan olimlar, soha mutaxassislari uchun mo‘ljallangan, tilshunos olimlar uchun sinonimlarning ushbu ta’rifi ochiq-oydin tushunarlidir. Nofilologik yo‘nalishlarni, xususan kompyuter muhandisligi va axborot texnologiyalari kabi zamonaviy soha mutaxassisliklarini tanlagan talabalar uchun ushbu sinonimlar tushunchasi juda murakkab bo‘lib, ular buni qabul qila olmaydilar. .

Zamonaviy texnologiyalarini egallab yetuk mutaxassis bo‘lishni niyat qilgan ilmi toliblarga domlalari sinonimlar ta’rifini sodda va tushunarli, ular uchun jozibali tarzda yetkazmog‘i lozim, jumladan, quyidagicha:

“Sinonimlar bu – ma’nodosh so‘zlar”, yoki “sinonimlar ma’nosi juda yaqin bo‘lgan so‘zlar”, deb oddiy va lo‘nda qilib talabalarga tushuntirib berish maqsadga muvofiq. Masalan, *yuz, bet, chehra, aft, turq, bashara* kabi. Sinonimlar asosiy ma’nosiga ko‘ra bir xil so‘zlar bo‘lib, ma’no nozikliklari bilan farqlanadi, masalan, *ochiq chehra* deb aytish mumkin, lekin *ochiq bashara* deb aytib bo‘lmaydi; *oy yuzli* zebo, deb aytish mumkin, lekin *oy turqli* zebo deb aytib bo‘lmaydi”, *bezbet*, deb aytish mumkin, biroq *bezyuz*, yoki *bezchehra* deyilmaydi .

Demak, darslik muallifi kimlarga darslik yozayotganligi, talabalarning qaysi sohani tanlaganliklarini, ularning dunyo qarashi, qiziqishlari, bilim darajalarini yaxshi bilishi, o‘rganishi kerak. Talabalarning tanlagan mutaxassisliklari, ta’lim yo‘nalishlariga qarab matnlarni tanlash kerak, misollar keltirish kerak. Masalan, molekulyar biologiya sohasiga oid quyidagi matnni axborot texnologiyalarni tanlagan talabalarga berib bo‘lmaydi:

“XX asr molekulyar biologiyasi va genetikasining eng katta yutuqlaridan biri aynan Devid Baltimorga tegishli: u genetik ma’lumot tashuvchisi nafaqat DNK molekulasi, balki RNK molekulasi ham bo‘lishini, hujayralardagi ma’lumot nafaqat DNKdan RNKga, balki aksincha ham bo ‘lishi mumkinligini isbotlab bergan. Eng muhimi, bu jarayonni orqaga qaytaradigan transkriptaza deb ataladigan virus fermentining topilishi bo‘ldi.”

Zero, ushbu matn molekulyar biologiyasi va genetikasi katta ishtiyoq bilan o‘rganishni ahd qilgan talabalar uchun ayni muddao bo‘lar edi.

Raqamli texnologiyalar sohasini tanlagan ilmi toliblarga “Nutq uslublari” mavzusini, xususan, ilmiy uslubning o‘ziga xos xususiyatlarini tushuntirishda ular uchun kerakli va qiziq bo‘lgan matnlardan foydalanish maqsadga muvofiq [5: 14]:

“Biror masalani yechish uchun bajarilishi zarur bo‘lgan amallar ketma-ketligining ma’lum bir qismi biror parametrga bog‘liq holda bir necha marta takror bajarilsa, bunday algoritm takrorlanuvchi algoritm deyiladi.”

Shu o‘rinda “Akademik ayrim filologlarda e’tiroz paydo bo‘lishi mumkin; “Ona tili va adabiyoti domlalari axborot texnologiyalariga oid fanlardan maxsus bilimlarga ega emaslar-ku!” [5: 14].

Shu yerda “Akademik yozuv” kabi fanlarni o‘qitayotgan domlalar uchun axborot texnologiyalari, internet, shu jumladan, smartfonlar asqotadi. Ayti (IT) texnologiyalari asosida yaratilgan zamonaviy smartfonlar ham ta’lim sifati va samaradorligini oshirish bilan bilan birga, o‘rganilayotgan fanning jozibadorligini hamda vaqtdan unumli va samarali foydalanishni ham ta’minlashi lozim. Ta’lim-tarbiya sohasida axborot texnologiyalari (IT), ushbu texnologiyalar asosida yaratilgan zamonaviy kompyuter, noutbuk, smartfonlar, ushbu qurulmalar uchun mo‘ljallangan dasturiy ilovalar, masalan, “ChatGPT”, birinchi navbatda ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshirish bilan bilan birga, ta’lim-tarbiya jarayonining maroqli bo‘lishini hamda vaqtdan unumli va samarali foydalanishni ham ta’minlashi lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati

10. Данияров Б.Х. Yangi fanlarni o‘qitishning yangi tutum, usul va uslublari xususida. - “Umumfilologik tadqiqotlar: muammolar va yechimlar” mavzusidagi

respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. – Chirchiq: Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti nashriyoti, 2025, 509 b.

11. Данияров Б. Х. Ўзбек тили лексик синонимларининг лисоний ва нутқий муносабати, лексикографик тадқиқи. Монография.- Тошкент: “Sano-Standart” нашриёти, 2019.- 200 б. В.175.

12. Данияров Б.Х. Комплексный анализ семантической структуры и функционирования лексических синонимов. Монография / Б.Х. Данияров. – Ташкент: Издательство Bookmany print, 2022. – 156 с. – С. 120-121.

13. Данияров Б.Х. Инновацион технологиялар асосида таълим жараёнлари сифат ва самарадорлигини ошириш. Монография. -“Sano-Standart” нашриёти, 2014.- 160 б. - Б. 95

14. Данияров Б.Х. Жозибали дарс – ҳам қарз, ҳам фарз. // Тошкент иқтисодиёт ва педагогика институти илмий-методик журнали, №1 (2024 йил, сентябрь): – Т.: ТИПИ,2024, Б. 14.

15. Данияров Б.Х. Академик ёзув дарсларида замонавий смартфонлардан самарали фойдаланиш.- Компьютер лингвистикасининг замоновий технологиялари. Вазирлик миқёсидаги илмий-назарий анжумани илмий мақолалари ва тезислари тўплами (2023-yil 14 апрель). –Т.: ЎзМУ, 2023. – В.135.

16. Данияров Б.Х. Иследование лексической синонимии, возникшей на базе заимствований в современном узбекском языке. Автореферат диссертации... канд. филол. н. - Москва: Институт языкознания РАН, 1993.

17. Данияров Б.Х. Dars sifati va jozibadorligini oshirishga zamonaviy yondashuvlar // “Ilm-fan, ta‘lim-tarbiya, innovatsiya: zamonaviy vazifalari va istiqbollari” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman (2024-yil 3-may)/ O‘zR OTFIV,Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti, O‘zR FA Yosh olimlar kengashi. –Toshkent: TIPI, 2024. -301 b. Б. 111.

18. Данияров Б.Х. Talabalarda professional ko‘nikmalarni rivojlantirishda nomutaxassislik fanlarini jozibali o‘qitishning ahamiyati. - Lomonosov Moscow State University Branch in Tashkent and the International Scientific Journal “Science and

Innovation” for participation in the VIII International Scientific and Practical Conference titled “Professional Development of Personality: Global Trends in the Formation of 21st Century Competencies” held on December 19, 2025. P.16.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM METODIKASIDA ZAMONAVIY YONDASHUV VA TAJRIBALAR.

Nurgizarova Zakira Beketovna

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Tillar va maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti v.b., (PhD)

Chimirbayeva Bagnur Beketovna

Toshkent viloyati Chirchiq shahar

17-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda dars samaradorligini oshirishga kompleks yondashuv, o‘quvchining yoshiga mos pedagogik-psixologik tamoyillarga asoslanish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olishning ahamiyati tahlil qilingan. Dars samaradorligini oshirish bu – nafaqat o‘quv materiallarini o‘z vaqtida o‘zlashtirish, balki o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan qiziqishi va ishtiyoqini shakllantirishdir.

Kalit so‘zlar: *Boshlang‘ich ta’lim, yangi pedagogik texnologiyalar, xotira, tasavvur, an’anaviy ta’lim, muammoli o‘qitish, loyihaviy ta’lim, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, kasbiy rivojlanish.*

Аннотация: В данной статье анализируется важность комплексного подхода к повышению эффективности уроков в начальных классах, основанного на педагогических и психологических принципах, соответствующих возрасту учащегося, использовании современных технологий и учете индивидуальных особенностей учащегося. Повышение эффективности урока заключается не только в своевременном освоении учебных материалов, но и в формировании у учащихся интереса и страсти к образованию.

Ключевые слова: *Начальное образование, новые педагогические технологии, память, воображение, традиционное образование, проблемное обучение, проектное образование*, личностно-ориентированное образование, профессиональное развитие.

Abstract: This article analyzes the importance of an integrated approach to improving the effectiveness of lessons in primary school, based on pedagogical and psychological principles appropriate to the students age, the use of modern technologies and taking into account the individual characteristics of the pupils. Increasing the effectiveness of the lesson lies not only in the timely mastery of educational materials, but also in developing students' interest and passion for education.

Key words: *Primary education, new pedagogical technologies, memory, imagination, traditional education, problem-based learning, project-based education, student-centered education, professional development*.

Bugunning talabi — jamiyatda jismonan sog‘lom, ma’naviy yetuk shaxslarni voyaga yetkazishdir. Har tomonlama barkamol avlod esa porloq kelajakning garovidir. Shu sabab, yoshlarni qo‘llab-quvvatlash davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

Boshlang‘ich sinflar – bolalarning ta’lim jarayonidagi eng muhim bosqichidir. Ushbu davrda o‘quvchilarda o‘qish-yozish, hisoblash va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari shakllanadi.

Boshlang‘ich ta’lim bu – butun bir umrlik ta’lim-tarbiya poydevoridir. Bu bosqichda balaga qo‘yilgan pog‘ona uning kelajagidagi muvaffaqiyatini belgilab beradi. Bugungi kundagi tez o‘zgaruvchan dunyoda bizdan talab qilinadigan eng muhim vazifa – o‘zi o‘qiydigan, tanlay oladigan, fikrlay oladigan, muammolarni hal qila oladigan va ijtimoiy jihatdan jamiyatda faol ishtirok eta oladigan shaxsni tarbiyalashdir.

Boshlang‘ich ta’lim bu – bolaning ongi va shahsining kelajakdagi rivojlanishini belgilaydigan asosiy davr. Zamonaviy dunyodagi tez o‘zgarishlar boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaridan o‘z metodikalarini yanada takomillashtirishni,

yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etishni talab etadi. Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limda qo‘llanilayotgan eng zamonaviy yondoshuvlar va tajribalar tahlil etiladi.

Olimlarning ko‘p yillik tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, inson umri davomida o‘zlashtirishi mumkin bo‘lgan bilimlarning 70 foizini 3-7 yosh oralig‘ida egallar ekan. Chunki bu davrda boladagi barcha bilish jarayonlari o‘sib, rivojlanadi.

Zamon taraqqiyotga, rivojlanishga yuz tutgan sari ta’lim-tarbiya jarayonida samarali vosita bo‘lib xizmat qiladigan omil, metod, vositalarini ham takomillashtirish talabi vujudga keldi. O‘n yil oldingi 7 yoshli bola bilan hozirgi shu yoshdagi bolaning qiziqishi, harakati, erkaligi tubdan farq qiladi. Shu bois, ta’limning barcha bosqichlarida yangicha metodlar maydonga kelmoqda.

Ma’lumki, barkamol avlodni tarbiyalash, dastlab, oilada, so‘ngra maktabgacha ta’lim muassasasida,hamda boshlang‘ich sinflarda amalga oshiriladi. Bu an’ana mas’uliyat bilan davom ettirilishi lozim. Zamon talabidan kelib chiqib, millat jonkuyarlari zarur tadbirlarni izlab topadi, tizimga tatbiq etadi.

Birinchi sinflarda bolaning eshitish xotirasidan ko‘ra ko‘z, tasavvur xotirasi kuchli bo‘ladi. Shuni inobatga olib mashg‘ulotlar o‘yin, ko‘rgazmali qurollar, multimedia-didaktika o‘yinlaridan foydalanilgan holda tashkil etilsa, har bir bolada o‘rganishdagi rag‘batning amaliy natijasi his etilib, axloqiy fazilatlari rivojlanadi, halollik, adolatlilik, qat’iyatlilik, erkin fikrlash, nutqining o‘sishi va eng asosiysi, zamonaviy texnologiyalar bilan hamnafas bo‘lib voyaga yetishiga zamin yaratiladi.

Boshlang‘ich sinflarda dars samaradorligini oshirish kompleks yondashuvni talab etadi. U o‘quvchining yoshiga mos pedagogik-psixologik tamoyillarga asoslanishi, zamonaviy texnologiyalardan foydalanishi va o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olishi lozim. Dars samaradorligini oshirish bu – nafaqat o‘quv materiallarini o‘z vaqtida o‘zlashtirish, balki o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan qiziqishi va ishtiyoqini shakllantirishdir.

Eng muhim prinsip – har bir bolaga o‘zining sur’atida rivojlanishi va o‘zlashtirishi uchun qulay sharoit yaratishdir.

Boshlang‘ich ta’lim metodikasidagi zamonaviy yondoshuv o‘quvchini faol ishtirokchiga aylantirishni nazarda tutadi. Yangi pedagogik texnologiyalar o‘quv jarayonini yanada jozibali, interaktiv va shaxsga yo‘naltirilgan qilish imkoniyatini beradi. Muvaffaqiyat kaytarilmas texnologiyalarni qo‘llashda emas, balki ularni pedagogik jarayonning vaqtli va maqsadli tarkibiy qismiga aylantirishdadir.

Asosiy tamoyil: Texnologiya vosita emas, balki maqsaddir. U bolalarni kelajakka tayyorlash, ularda tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va adaptatsiya qobiliyatlarini shakllantirish uchun xizmat qilishi kerak.

Eski – an’anaviy yondashuv, ya’ni o‘qituvchi – bilim beradigan, o‘quvchi – qabul qiladigan model, bu talablarga javob bermaydi. Shu sababdan, boshlang‘ich ta’lim metodikasida yangi, ijodiy va samarali yondashuvlarni joriy etish zarurati paydo bo‘ldi.

1. An’anaviy ta’limdan faol ta’limga o‘tish.

Birinchi va eng muhim o‘zgarish – “Pedagog-markaz”li modeldan “O‘quvchi-markaz”li modelga o‘tish.

An’anaviy model: O‘qituvchi darsda ko‘rsatadi, tushuntiradi, bajarish usulini ko‘rsatadi. Yozuv, hisoblash kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishta asos qo‘yiladi. Bu modelda bolalar ko‘p holda passiv holatda bo‘lishadi.

“O‘quvchi-markaz”li model: Bolalar o‘zlarining bilish istagi va qiziqishining markaziga aylanadi. O‘qituvchining roli – rahbarlik qilish, imkoniyat yaratish va jarayonni tashkillashtirish. Bu esa faol o‘rganishga olib keladi.

Faol o‘rganishni amalga oshirishning yangicha usullari:

a) Muammoli o‘qitish:

Bolalarga hayotiy, amaliy muammo takdim etiladi. Masalan: “Kasblar hidi. U qanday bo‘ladi?” Bunday savol orqali bolalar ona tili, ekologiya, texnologiya va rasm chizish fanini integratsiya qilib, javob izlashadi. Ular tadqiqot olib boradi, ma’lumot to‘playdi, gipotezalar ilgari suradi va yopishqoq qog‘oz yordamida o‘zlarining fikrlarini tashkillashtiradi.

b) Loyihaviy ta’lim:

Bir necha dars davomida amalga oshiriladigan murakkab loyiha. Masalan: “Kim biladi shifosini? Tez yordam” mavzusi bo‘yicha “Shamolli daraja” loyihasi. Bolalar turli manbalardan ma’lumot to‘playdi, retsept tayyorlaydi, materiallardan dorilarning modelini yasaydi, so‘ngra o‘z ishini tayyor holda taqdim etadi. Natijada faqat fan bilimgina emas, balki kommunikatsiya, ijodiy fikrlash, vaqtni rejalash kabi XXI asr ko‘nikmalari rivojlanadi.

d) Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) integratsiyasi:

Bugungi “raqamli avlod” uchun texnologiya – ikkinchi tabiatidir.

- Interaktiv doskalar darsni jozibali va vizual qiladi.

- Obunaviy dasturlar (Learning.uz, Kundalik kabi) orqali shaxsiy reja yaratish mumkin.

- Ta’lim platformalari va ilovalar (Masal, Biliboo) o‘yin orqali o‘rganish imkoniyati beradi.

-QR-kodlar orqali video yoki audio materiallarga ulanish vositasi bo‘lishi mumkin.

- Sodda prezentatsiya yaratish dasturi (PowerPoint) yordamida bolalar o‘zlarining loyihalarini taqdim qilishni o‘rganadi.

2. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim.

Har bir bola – shaxs. Ularning o‘rganish tezligi, qiziqishlari va markaziy nerv faoliyati tipi har hil. Shu sababdan, bitta dars bo‘yicha barcha bolalarga bir hil vazifa berish – samarasiz.

Differentsiatsiya: Vazifalarni murakkablik darajasi bo‘yicha bo‘lib berish (asosiy, ijodiy darajalar). Masalan: matematika darsida kychli o‘quvchilar murakkab masalalarni hal qiladi, o‘rtacha o‘quvchilar bilan o‘tilgan formula bo‘yicha vazifa bajariladi, o‘qishda qiyinchilik chekayotgan o‘quvchilar esa amaliy misollarda raqamlar bilan ishlaydi.

Shaxsga yo‘naltirish: Har bir o‘quvchining kuchli va zaif tomonlarini aniqlab, unga mos shaxsiy o‘rganish rejasi (Individual Educational Plan) tuziladi.

3. Qayta ishlangan sinfxona.

Bu modelda o‘quvchi yangi material bilan uyda tanishadi (o‘qituvchi tomonidan tayyorlangan qisqa videodars, elektron manba, prezentatsiya orqali). Sinfda esa o‘rganilgan material bo‘yicha amaliy mashqlar, loyihalar, muammoli vazifalar bajariladi, ya’ni uy vazifasi sinfda, sinfdagi ish esa uyda bajariladi. Bunda o‘qituvchi bolalar bilan individual ishlash, savollarga javob berish va murakkab jihatlarni tushuntirib berish uchun ko‘proq vaqt topadi.

4. O‘yin orqali o‘rganish

Bolalar uchun o‘yin bu — eng tabiiy va samarali o‘rganish yo‘lidir.

- Ballar sistemasi va reytinglar kizikishni oshiradi.

- “Yulduzchalar” va “diplomlar” bilan ijobiy rag‘batlantiriladi.

- Ta’lim o‘yinlari: Masalan, “Alifbe sayohati” yoki “Matematik detektiv” kabi o‘yinlar orqali darsni jozibali qiladi.

5. Emotsional zehn va sotsial-hissiy ko‘nikmalarni rivojlantirish

Zamon talabi faqat intellektual rivojlanish emas, balki bolaning emotsional-hissiy dunyosiga ham yondashuvni talab etadi.

- Darsni boshlash va tugatish rituallari (masalan, “Kunning hissi” yoki “Meni qiziktirgan narsa”).

- Hamkorlikka oid o‘yinlar.

- Konfliktlarni hal qilishni o‘rgatish.

- Meditatsiya va farovonlik amaliyotlari (bolalar uchun moslashtirilgan qisqa nafas mashqlari).

Xulosa: Boshlang‘ich ta’lim metodikasidagi yangicha yondashuv bu – faqat yangi texnologiyalarni joriy etish emas. Bu, avvalambor, pedagogik madaniyatning o‘zgarishidir.

Yuqorida ta’kidlangan uslublardan foydalanish bolaning maktabga ishonch va kelajakka intilib qadam tashlashiga yordam beradi. Yillar elagidan o‘tib kelayotgan oltin naql bugun ham qiymatini oshirsa oshirganki, zarracha kamaytirmagan. Chindan ham yoshlikda olingan bilim toshga o‘yilgan naqsh kabi bebahodir.

Biz o‘qituvchi sifatida:

- bilim beruvchi emas, balki imkoniyat yaratuvchi bo‘lishimiz kerak;

- hokim emas, balki hamkor bo‘lishimiz kerak;
- yangi mavzu haqida gapiruvchi emas, balki o‘quvchi bilan ishlovchi bo‘lishimiz kerak.

Eng muhimi, biz har bir bolaning o‘ziga hosligini ko‘ra olishimiz va unga o‘rganish hissini uyg‘otishimiz kerak. Chunki, so‘nggi natijada, biz faqat bilim emas, balki o‘rganish ishtiyoqi bilan ta’minlangan, ijodiy va tetik fuqarolarni tarbiyalaymiz.

O‘qituvchilar uchun tavsiyalar:

1. Birinchi qadamda sodda texnologiyalardan boshlang;
2. Kasbiy rivojlanishni davom ettiring;
3. Xalqaro tajribalarni mahalliy sharoitga moslang;
4. O‘quvchilar va ota-onalar bilan doimo mulokotda bo‘ling;
5. Yangilikni sinovdan qo‘rqmang, ammo tanqidiy baholang;

Boshlang‘ich ta’lim bu — kelajakning asosi. Uning samaradorligi o‘qituvchining zamonaviy yondoshuvlar va texnologiyalarni joriy etishga bo‘lgan tayyorgarligi va ishtiyoqiga bog‘liq.

Boshlang‘ich ta’lim butun ta’lim tizimining assosidir. Zamonaviy boshlang‘ich sinflarda an’anaviy o‘qitish usullari bilan bir qatorda yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning faolligini oshirish va ularning shaxsini garmonik rivojlantirish imkonini beradi.

Boshlang‘ich sinf darslarida yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish zamonaviy talablarga javob beradi. Ushbu texnologiyalar faqat o‘quv materiallarini o‘zlashtirishning yangi usullari emas, balki o‘quvchining shahsini rivojlantirishning asosidir. Muvaffaqiyatli amaliyot uchun o‘qituvchilarni doimiy ravishda kasbiy rivojlantirish, maktablarni zamonaviy texnika bilan jihozlash va ilmiy-metodik yordam tizimini yaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

2. Abdullaeva, Sh.A. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativligini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar. - T.: Fan, 2020.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.

4. Xamraeva, M.R. Boshlang‘ich ta’limda axborot texnologiyalari. - T.: Noshir, 2019.

5. Селевко, Г.К. Современные образовательные технологии. - М.: Народное образование, 2018.

6. Пажов, С.П. Интерактивные методы обучения в начальной школе. - М.: Просвещение, 2019.

7. Jumaniyazova, R.X. Boshlang‘ich ta’limda loyiha texnologiyalari. - T.: Mumtoz so‘z, 2021.

8. Ismoilova, Z.A. Boshlang‘ich sinf darslarida o‘yin texnologiyalari. - T.: Akademnashr, 2022.

APTITUDE TESTS AND THEIR USE: A DESCRIPTIVE STUDY

Associate professor Morteza Amirsheibani,

Faculty of Languages and Preschool Education, TIPU

Abstract: Aptitude tests play a crucial role in assessing individuals' innate abilities and predicting their potential success in various fields, particularly in education and career planning. This descriptive study explores the nature, types, validity, and reliability of aptitude tests, emphasizing their importance in language learning and professional development. The paper discusses the theoretical foundations of aptitude testing, different question types used in assessments, and the predictive validity of such tests. Additionally, it highlights the challenges associated with aptitude test design and the need for accurate and well-structured assessments to ensure fair and meaningful evaluations.

Keywords: *aptitude testing, predictive validity, language learning assessment, career aptitude*

Introduction: Testing is an important part of every teaching and learning experience (Madson, 1983). It is a universal feature of social life (McNamara, 2000). Through history people have taken different tests to prove their abilities. In modern societies such tests have been increased rapidly. For a number of reasons, many people working in the field of language study more generally will want to be able to participate in this field.

First, language tests play an important role in many people's lives. They are like gateways at important transitional moments in education, in employment, and in moving from one country to another. Since language tests are tools for the institutional control of individuals, it is clearly important that they should be understood, and should be analyzed. Second, you may be working with language tests in your professional life as a teacher or administrator; you rely on information from tests to make decisions on the placement of students on particular courses.

Language Testing is one of the spectrums of language learning/teaching process, the other extreme of which being Language Teaching Methodology with courses like Syllabus Design, Research Methodology, … in between. The most perfect and complete approach in language testing is yet to come, since language teaching and testing are relatively young sciences. The intricacies of human brain and his capabilities in learning are still under extensive investigations, so the present knowledge in testing is rudimentary (Birjandi et al., 2006).

Therefore, we as a test taker should have a thorough knowledge and clear perspective toward testing and different types of test functions. In this article regarding the wide scope of test functions, researcher has tried to focus on one of the important test functions, i.e., aptitude tests.

There are many factors to be considered when designing a successful, fulfilling career, but the one that is often overlooked is aptitude. While you may be able to do anything you put your mind to that does not mean you will be able to do it well. We know that people have different aptitudes or innate talents. One problem is that

people often confuse aptitude and skills. A skill is the ability to perform a task. Although you can increase your knowledge and skills through education and experience, your innate aptitude is largely immutable. Given enough intelligence and drive, you can become competent in just about anything you set your mind to. But if you do not understand innate talents, you are not likely to be very happy doing it. The thing which is difficult is our inability to assess our own talents accurately. Most people focus on the skills they have worked the hardest to develop. Furthermore, what you know of your talents is based on what you have had experience with in the past. For example, if you never performed a job that required visual dexterity, you won’t be able to effectively gauge your ability for detail-oriented jobs such as editing or law (that’s right, lawyers need more than just strong verbal skills) (Gresham, 2010). Then, it is well worth to determine your natural aptitudes. However, we should bear in mind that success in a career is usually determined by a collection of aptitudes.

Being efficient and effective is critical for every job; so it is really necessary to make sure that you find a job that is parallel with what makes you efficient and effective. Generally speaking, these are factors that will work best when a job is parallel with your natural skills. Remember though that talents for a particular type of job can be acquired, and an individual or a job-seeker can also consequently alter his mind-set in order for him to become suitable for a different role. But what happens when your skills are inappropriate for the job at hand? You will end up doing something that does not suit you. For this to be avoided one should consider an aptitude test; and that career aptitude test should be taken before job-hunting and definitely not after finding a job. Basically, a career aptitude test is designed with the intention of ascertaining an individual’s skills that are fundamental for success in a particular job or career (Wright, 2010). There are some skills that are common to all levels. Therefore the tests to measure up ability are clearly seen in the career aptitude test. Intellectual capability is also displayed during the test and the job-seeker is given more counseling to develop his current skills. Lastly, the role of a counselor and career aptitude tests are very helpful for the organization and the job-seeker.

Discussion

Theoretical Issues

Aptitude tests are used to predict examinee's success in achieving certain objectives in the future (Farhady et al., 2009). According to Farhady et al., in order to take an aptitude test, the examinee does not necessarily have prior knowledge of the subject being tested. In language education, through aptitude tests, one can determine which language the examinee can learn more easily than other languages. According to Haris (1970), aptitude tests measure the aptitude for learning. These tests which are another kind of *screening tests* are used to predict future performance. At the time of testing, the examinees may have little or no knowledge of the language to be studied, and the test is employed to assess their talent.

Aptitude tests can help to make decisions on the future career of the examinees as well. These tests have wide applications, ranging from determining students' major field of study, to predicting appropriate job for examinees, and to making suggestions on learning a particular language in future. For example, through aptitude test scores, it would be possible to predict the extent to which a person can fulfill certain responsibilities in future, i.e., how good a pilot or an engineer can one be (Farhady et al).

According to Farhady et al., developing aptitude tests is a very delicate and time consuming task. Before making any suggestion on the basis of test scores, the degree of their predictive power should be experimentally determined. Only after several trials can one make a sound prediction on the basis of aptitude tests. Otherwise, using unestablished tests would provide invalid and sometimes misleading information about the subject being tested.

In another view according to Birjandi et al. (2006), aptitude tests are the most critical and delicate kind of tests because the tester, through the results, decides for the learners' future lives. Through these tests, the most appropriate channel is predicted for individual learners. Aptitude tests are very delicate and complex at the same time. Appropriate decisions are based on exact information, and accurate data may be obtained through good tests. Aptitude tests are also complex because it is not

possible for a single tester to construct such tests. A committee of psychologists, sociologists, linguists, philosophers and experts in testing is required. These tests cannot be constructed hastily. There should be a lot of trials and errors to make sure that a test meets its expected function.

Heaton (1975) believes that a language aptitude test is designed to measure the students' probable performance in a foreign language which he or she has not started to learn: i.e. it assesses aptitude for learning a language. Language learning aptitude is a complex matter, consisting of such factors as intelligence, age, motivation, memory, phonological sensitivity and sensitivity to grammatical patterning. The relative importance given to these elements must depend on many factors and thus vary considerably from one individual to another. Some experts in this field maintain that it is not possible to take an overall measurement of language aptitude; consequently aptitude is sometimes divided into different aspects according to the specific tasks for which a person is being trained: e.g. listening, interpreting, and translating. Aptitude tests generally try to predict the students' probable strengths and weaknesses in learning a foreign language by measuring performance in an artificial language. The ability to learn new phonemic distinctions and also to use language patterns in an unfamiliar but systematic manner is tested by means of the artificial language.

Practical Issues

There are different types of aptitude tests. Some of them contain only one type of question (for example, verbal ability, numeric reasoning ability, etc) while others are made up of different types of question. Types of question can be classified as follows:

Verbal Ability – Includes spelling, grammar, and ability to follow detailed written instructions. It displays how well you can communicate.

Sample Verbal Aptitude Test Questions:

Glaciers begin to form where snow remains year-round and enough of it accumulates to transform into ice. New layers of snow compress the previous layers and this compression forces the icy snow to re-crystallize, forming grains similar in

size and shape to cane sugar. Gradually the grains grow larger and the air pockets between the grains get smaller, meaning that the snow slowly becomes more dense. After about two winters, the snow turns into firn, an intermediate state between snow and ice. Over time the larger ice crystals become more compressed and even denser, this is known as glacial ice. Glacial ice, because of its density and ice crystals, often takes a bluish or even green hue.

1) Glaciers cannot form where snow does not remain all year round.

A	B	C
true	false	can't say

2) Glacial ice is always greenish or bluish in color.

A	B	C
true	false	can't say

Numeric Ability – Includes number sequences and simple mathematics. In management level tests, you should interpret charts and graphs.


Sample Numerical Aptitude Test Questions:

Identify the missing number at the end of the series.						
		A	**B**	**C**	**D**	**E**
1	3, 11, 19, 27, ?	33	35	37	39	41
		A	**B**	**C**	**D**	**E**
2	3, 6, 11, 18, ?	24	25	26	27	28

Abstract Reasoning – Measures your ability to identify the underlying logic of a pattern and then determine the solution. It shows your ability to learn new things quickly.

Sample Abstract Reasoning Test Questions:


Which figure completes the series?



Spatial Ability – Measures your ability to manipulate shapes in two dimensions or to visualize three-dimensional objects presented as two-dimensional pictures.

Sample Spatial Aptitude Test Questions:


Which group of shapes can be assembled to make the shape shown?



Mechanical Reasoning – Measures your knowledge of physical and mechanical principles. Jobs like police forces and fire services require such ability.

Sample Mechanical Aptitude Test Questions:

1. How much force is required to lift the weight?



A) 40lbs B) 50lbs C) 60lbs D)70lbs

Validity of aptitude tests

Aptitude tests have predictive validity. Predictive Validity occurs when the criterion measures are obtained at a time after the test. Aptitude tests are examples of predictive validity because they are helpful in determining who is likely to succeed or fail in certain subjects or occupations.

It is stated that aptitude tests have been rather successful because they possess high construct validity, although the constructs in terms of which the tests may be most profitably understood are information-processing rather than psychometric ones. It is suggested that certain inconsistencies in the constructs proposed by alternative psychometric theories of aptitude tend to disappear when these constructs are understood in terms of more basic information-processing constructs.

Reliability of aptitude tests

According to definition, an aptitude test is a test designed to measure the possibility of your succeeding at something. For example, many high school students take an aptitude test that is supposed to measure how well they will succeed in college.

The way the accuracy of the aptitude test is measured is by comparing the scores of students with the grade point average they have in college. This is called a correlation - the measurement of a relationship between two scores. It is important to note that aptitude tests may not be particularly accurate predictors of success.

The reason these tests may not be so accurate is due to the nature of 'objective' testing, where students are presented with a series of multiple choice questions. Multiple choice questions do not necessarily represent the ability of a person to do something. For example, a multiple choice question about a particular grammatical point may not mean that the test taker understands any other point of grammar. Reading a passage and then answering questions about it does not really represent a person's ability to read.

Another aspect of aptitude tests that it is important to understand the concept of being norm-referenced. That means that when the test was created, it was given to a large sample group, which becomes the 'norm' against which all other test takers are measured. Statistically speaking, test creators expect the distribution of test scores to

fall on a 'bell curve'. That means that the majority of the test takers will make an average score and that increasingly smaller groups of people will make significantly higher or lower scores.

Your test score will be reported in terms of a 'craw score' and then a number that is how you fit in relation to the bell curve. There is also something called a 'standard deviation'. This is a measure of how big a variation there is in relation to the average. So, if there is a large variation from the average - for example, if the average is 100 and there is a large range of scores, then the standard deviation is large. For example, on some IQ tests, the average is 100 and the standard deviation is 16. That means the majority of people, 68% in fact, have scores that fall between 84 and 116. If your score is more than one standard deviation from the average, then you fall into a more elite group (or a less elite group, depending on the direction of the score).

Finally, tests are often required, but not necessarily accurate measurements of your ability to succeed. Your ability to succeed is more determined by your desire to be successful and your willingness to work.

Conclusion. Being efficient and effective is critical for every job; so it is really necessary to make sure that you find a job that is parallel with what makes you efficient and effective. Generally speaking, these are factors that will work best when a job is parallel with your natural skills. So the best way to determine whether your talents align with the job that you have in mind is aptitude test. Aptitude tests help you to recognize your innate abilities and provide a situation to do your best in your future job.

References

1. Birjandi, P., Bagheridoust, E., & Mossalanejad, P. (2006). *Language Testing*. Third Edition

2. Farhady, H., Ja’farpur, A., & Birjandi, P. (2009). *Testing Language Skills from Theory to Practice*. SAMT

3. Gresham, J. (2010). *The Importance of Aptitude, Not Just Attitude*.

4. http://www.everydaybright.com/2010/05/the-importance-of-aptitude-not-just-atittude/

5. Haris, D. P. (1970). *Testing English as a Second Language*. McGraw-Hill Book Company

6. Heaton, J. B. (1975). *Writing English Language Tests*. Longman Handbooks for Language Teachers

7. Http://www.psychometric-success.com/aptitude-tests/

8. Madson, H. S. (1983). *Techniques in Testing*. Oxford University Press

9. McNamara, T. (2000). *Language Testing*. Oxford University Press

10. Wright, J. (2010). *Meaning and Importance of Career Aptitude Tests*. http://careerhunters.net/meaning-and-importance-of-career-aptitude-tests/

ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К ПРЕПОДАВАНИЮ РУССКОГО ЯЗЫКА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ.

Нургизарова Закира Бекетовна

и.о. доцент кафедры языка и дошкольного образования

Ташкентского экономического и педагогического университета.

Аннотация: В статье рассматриваются современные тенденции в методике преподавания русского языка. Акцент сделан на внедрении цифровых технологий, интерактивных методов обучения и компетентностного подхода. Статья предназначена для учителей-словесников, методистов и студентов педагогических специальностей.

Ключевые слова: *инновационные подходы, цифровая трансформация, методы преподавания, компетентностный подход, коммуникативно-когнитивный подход, модератор*.

Annotasiya: Ushbu maqolada rus tilini o‘qitish usullarining hozirgi tendensiyalari ko‘rib chiqiladi. Bunda raqamli texnologiyalar, o‘qitishning interfaol usullari va kompetensiyaga asoslangan yondashuvni tatbiq etishga alohida e’tibor

qaratilgan. Adabiyot o‘qituvchilari, metodistlar, pedagogika yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan.

Kalit so‘zlar: *innovatsion yondashuvlar, raqamli transformatsiya, o‘qitish usullari, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, kommunikativ-kognitiv yondashuv, moderator*.

Abstract: This article examines current trends in Russian language teaching methods. It emphasizes the implementation of digital technologies, interactive teaching methods, and a competency-based approach. It is intended for literature teachers, methodologists, and students majoring in pedagogy.

Key words: *innovative approaches, digital transformation, teaching methods, competency-based approach, communicative-cognitive approach, moderator*.

Русский язык как учебный предмет всегда занимал особое место в системе образования и русский язык является одним из наиболее распространенных иностранных языков в Узбекистане, методы его преподавания требуют постоянного совершенствования.

Однако современный урок русского языка принципиально отличается от традиционного урока двадцатилетней давности. Сегодня цель учителя — не просто передать свод правил орфографии и пунктуации, а сформировать языковую личность, способную эффективно действовать в условиях информационного общества.

Традиционные подходы заменяются инновационными методами, персонализированным обучением и компетентностным подходом. Инновационные подходы предполагают внедрение новых элементов в образовательный процесс, совершенствование существующих методов или создание совершенно новых методов.

Следующие инновационные подходы имеют особое значение в преподавании русского языка:

- *Компетентностный подход* направлен на формирование у студентов не только знаний, но и навыков и компетенций. В преподавании русского языка

предусмотрено развитие лингвистических, социолингвистических, прагматических и стратегических компетенций.

- *Личностно-ориентированный подход* — определение образовательной траектории на основе индивидуальных характеристик, интересов и потребностей каждого студента. При таком подходе содержание, методы и темп обучения адаптируются к способностям слушателя.

- *Интегративный подход* – укрепление междисциплинарных связей, изучение русского языка в тесной взаимосвязи с другими дисциплинами (литературой, историей, искусством).

- *Коммуникативно-когнитивный подход* — фокусируется на развитии не только коммуникативных навыков, но и когнитивных процессов, таких как мышление, анализ и обобщение, в процессе изучения языка. Когнитивный (от лат. cognitio — «познание», «узнавание») — это термин, обозначающий все, что связано с процессами познания, мышления, восприятия, обработки и хранения информации. Это умственные способности, позволяющие человеку ориентироваться в мире, учиться, принимать решения и выполнять целенаправленные действия.

Основные когнитивные функции включают:

- Память: способность запоминать и воспроизводить информацию.

- Внимание: умение сосредоточиться на важных деталях.

- Мышление и интеллект: способность логически рассуждать и решать задачи.

- Речь: возможность понимать и выражать мысли.

- Восприятие и ориентация: узнавание предметов и нахождение в пространстве.

Когнитивные процессы — это база для адаптации человека к окружающей среде. Нарушения в этой сфере называют когнитивными расстройствами, которые могут включать снижение памяти или замедление мышления.

Современный урок — это пространство диалога. Преподаватель перестает быть единственным носителем истины. В условиях, когда любой фактический ответ можно найти в поисковике за 10 секунд, ценность приобретает не само знание, а способность его интерпретировать. Преподаватель на современном уроке — модератор, который организует исследовательскую работу с языком. Например, вместо готового правила студенты сами выводят закономерность на основе языкового эксперимента или сопоставления примеров.

Современное образование переживает этап смены парадигмы: от знания центрической модели (передача готовой информации) к компетентностной (формирование навыков самостоятельного поиска и обработки информации). Преподавание русского языка в школе и вузе сегодня требует отказа от традиционного формализма в пользу коммуникативно-деятельностного подхода. Инновации в этой области направлены не только на техническое переоснащение занятия, но и на изменение роли преподавателя, который становится модератором образовательного процесса.

Цифровые технологии и развлекательный контент.

Одним из главных трендов последних лет является **интеграция образовательного и развлекательного контента**. Развлекательный контент - это материалы (мемы, видео, статьи, игры), направленные на отдых, поднятие настроения и вовлечение аудитории. Он используется для повышения лояльности, снижения напряжения у пользователей и увеличения охватов за счет высокого потенциала. Часто сочетается с полезной информацией в игровой форме.

Основные виды развлекательного контента:

- Юмор: мемы, шутки, анекдоты, комиксы.

- Интерактив: опросы, тесты, квизы, загадки, головоломки.

- Активности: конкурсы, розыгрыши, марафоны, челленджи.

-Атмосферное: интересные факты, истории, атмосферные фото/видео.

Этот контент помогает разбавлять информационные посты, не давая аудитории заскучать.

Геймификация в образовании — это внедрение игровых механик (баллы, уровни, рейтинги, квесты) в учебный процесс для повышения мотивации, вовлеченности и улучшения запоминания материала. Она делает обучение интересным, снижает тревожность и позволяет превратить рутинные задания в увлекательные задачи, помогая студентам всех возрастов активнее осваивать знания.

Основные элементы и примеры:

- Системы наград: очки, значки, медали за выполнение заданий.

- Визуализация прогресса: уровни, шкалы опыта, разблокировка нового контента.

- Соревновательность: рейтинги, таблицы лидеров, командные квесты.

-Сюжетная линия: использование персонажей и сторителлинга (это искусство повествования, использующее захватывающие истории для передачи информации, вовлечения аудитории и формирования эмоциональной связи с текстом.).

Преимущества геймификации:

- Повышение мотивации: переход от внешней мотивации (оценки) к внутренней (интерес, азарт).

- Мгновенная обратная связь: немедленное понимание ошибок и правильных ответов.

- Снижение страха ошибки: в игре ошибку можно исправить, повторив попытку, что делает процесс менее стрессовым.

Геймификация наиболее эффективна, когда игровые элементы тесно связаны с образовательными целями, а не используются только ради развлечения.

Метод «Перевернутый класс» (Flipped Classroom) — это метод смешанного обучения, при котором студенты самостоятельно изучают теоретический материал дома (через видеолекции, статьи), а время в аудитории

используется для активной практики, дискуссий, лабораторных работ и решения сложных задач под руководством преподавателя. Это меняет традиционную структуру, превращая студентов из пассивных слушателей в активных участников процесса.

Ключевые принципы и особенности:

Дома — теория: Знакомство с новым материалом происходит индивидуально, в удобном темпе.

В классе — практика: Преподаватель выступает в роли ментора, помогая применить знания, а не просто читать лекцию.

Интерактивность: Занятия включают мозговые штурмы, работу в группах и глубокое обсуждение тем.

Гибкая среда: Педагоги подстраивают пространство и время под практические нужды, а контент часто представлен в виде водкастов (видео) или подкастов.

Преимущества метода:

- Повышение вовлеченности: Студенты активнее участвуют в обучении.

- Индивидуальный темп: Возможность пересмотреть материал дома несколько раз.

- Развитие самостоятельности: студенты учатся ответственности за свою подготовку.

- Эффективное время: преподаватель успевает помочь каждому, разобрав сложные моменты персонально.

Метод требует качественной предварительной подготовки материалов и постепенного внедрения, чтобы избежать непонимания у студентов.

Данная модель смешанного обучения предполагает перенос теоретической части на домашнее изучение (просмотр видео-лекций, чтение правил), а время на занятии используется для отработки практических навыков, дискуссий и проектной деятельности. Применительно к русскому языку это позволяет уйти от монотонного объяснения правил и сосредоточиться на

анализе текста, коммуникативных тренингах и индивидуальной работе с ошибками.

Текст-центрированный подход в новом формате — это современные методы работы с информацией (написание, анализ, редактирование), где текст становится автономным объектом, адаптируемым под пользователя с помощью ИКТ, структурированным и интерактивным. Это переход от простого повествования к «тексту как сервису», обеспечивающий мгновенную персонализацию. Этот формат меняет роль читателя с пассивного потребителя на активного участника, создающего смыслы.

Лингводидактический потенциал искусственного интеллекта

В 2023–2024 гг. активно внедряются инструменты на базе искусственного интеллекта (ИИ). Нейросети (ChatGPT, GigaChat) могут выступать в роли собеседника, генерировать тексты для стилистического анализа или выступать в роли «слабого ученика», ошибки которого нужно исправить. Это формирует навык редакторской правки и осознанного отношения к языку.

Инновационные методы преподавания русского языка не отрицают классическую методику, а качественно дополняют ее. Ключевой результат их внедрения — формирование языковой личности, способной эффективно коммуницировать в цифровой среде, критически оценивать информацию и творчески использовать богатство русского языка. Преподаватель сегодня выступает не транслятором знаний, а навигатором в мире информации и коммуникации.

Список использованной литературы

1. Азизходжаева Н.Н. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. – Т.: ТДПУ, 2018. – 192 б.

2. Бим И.Л. Методика обучения иностранным языкам как наука и проблемы школьного учебника. – М.: Русский язык, 2017. – 288 с.

3. Жалолов Ж. Чет тил ўқитиш методикаси. – Т.: Ўқитувчи, 2016. – 368 б.

4. Йўлдошев Ж.Ғ., Усмонов С.А. Педагогик технология асослари. – Т.: Ўқитувчи, 2015. – 200 б.

5. Бершадская, Е.А. Применение технологии «перевернутый класс» на уроках русского языка / Е.А. Бершадская // Русский язык в школе. – 2022. – № 4. – С. 15–21.

6. Вохмина, Л.Л. Современные тенденции в обучении русскому языку как иностранному: от традиций к инновациям / Л.Л. Вохмина // Мир русского слова. – 2023. – № 1. – С. 84–91.

7. Гальскова, Н.Д. Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика / Н.Д. Гальскова, Н. И. Гез. – 7-е изд., перераб. – М.: Академия, 2021. – 336 с.

8. Колесников, А.К. Геймификация образовательного процесса: возможности и риски / А. К. Колесников // Высшее образование в России. – 2022. – Т. 31, № 3. – С. 97–109.

9. Полат, Е.С. Современные педагогические и информационные технологии в системе образования / Е.С. Полат, М.Ю. Бухаркина. – 4-е изд., стер. – М.: Академия, 2020. – 368 с.

10. Соболева, Е.В. Развитие критического мышления на уроках русского языка и литературы / Е.В. Соболева. – СПб.: Речь, 2021. – 192 с.

11. Титова, С.В. Цифровые технологии в языковом образовании: теория и практика / С.В. Титова. – М.: Эдитус, 2021. – 248 с.

RUS TILINI O‘QITISHDAGI INNOVATSION YONDASHUVLAR, TA’LIMNING ZAMONAVIY METODLARI

Nurgizarova Zakira Beketovna

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Tillar va maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti v.b. (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqola rus tilini chet tili sifatida o‘qitishdagi innovatsion yondoshuvlar va zamonaviy ta’lim metodlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Shuningdek, O‘zbekistondagi Milliy dastur asosida rus tilini

o‘qitishning dolzarb masalalari va bu boradagi xalqaro tadqiqotlar (PISA, PIRLS, TALIS) natijalarining ta’lim jarayoniga ta’siri ko‘rib chiqilgan. Maqolada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, aralash ta’lim, keys-stadi, loyiha metodi va kommunikativ yondashuv kabi zamonaviy metodlarning samaradorligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: *rus tili, innovatsion yondashuv, zamonaviy metodlar, Milliy dastur, xalqaro tadqiqotlar, PISA, PIRLS, aralash ta’lim, kommunikativ kompetensiya.*

Аннотация: Данная статья посвящена анализу инновационных подходов и современных методов обучения русскому языку как иностранному. В ней также рассматриваются актуальные вопросы преподавания русского языка в Узбекистане на основе национальной учебной программы и влияние результатов международных исследований в этой области (PISA, PIRLS, TALIS) на образовательный процесс. В статье обосновывается эффективность современных методов, таких как информационно-коммуникационные технологии, смешанное образование, анализ конкретных случаев, проектный метод и коммуникативный подход.

Ключевые слова: *русский язык, инновационный подход, современные методы, национальная учебная программа, международные исследования, PISA, PIRLS, смешанное обучение, коммуникативная компетентность.*

Abstract: This article is devoted to the analysis of innovative approaches and modern methods of teaching Russian as a foreign language. It also examines current issues of teaching Russian in Uzbekistan based on the national curriculum and the impact of the results of international research in this area (PISA, PIRLS, TALIS) on the educational process. The article substantiates the effectiveness of modern methods such as information and communication technologies, blended learning, case study, project method and communicative approach.

Key words: *Russian language, innovative approach, modern methods, national curriculum, international research, PISA, PIRLS, blended learning, communicative competence.*

Jahon ta’lim tizimida globallashuv va integratsiya jarayonlari chet tillarni, xususan rus tilini o‘qitish metodikasiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va 2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasida ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish kontseptsiyasida uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish, ilg‘or ta’lim texnologiyalarini joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Rus tili O‘zbekistonda keng tarqalgan chet tillardan biri bo‘lib, uni o‘qitish metodikasi doimiy takomillashtirishni talab etadi. An’anaviy yondashuvlar o‘rnini innovatsion metodlar, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va kompetentsiyaviy yondashuv egallamoqda. Bu esa o‘z navbatida, milliy ta’lim dasturi doirasida rus tilini o‘qitish mazmunini qayta ko‘rib chiqish, xalqaro tajribalarni o‘rganish va amaliyotga tatbiq etishni taqozo etadi.

1. Rus tilini o‘qitishdagi innovatsion yondoshuvlar.

Innovatsion yondashuvlar ta’lim jarayoniga yangilik kiritish, mavjud metodikalarni takomillashtirish yoki butunlay yangi metodlarni yaratishni nazarda tutadi. Rus tilini o‘qitishda quyidagi innovatsion yondashuvlar alohida ahamiyat kasb etadi:

Kompetensiyaviy yondashuv – talabalarda nafaqat bilim, balki ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan. Rus tilini o‘qitishda lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik va strategik kompetentsiyalarni rivojlantirish nazarda tutiladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv – har bir talabaning individual xususiyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlaridan kelib chiqib ta’lim trayektoriyasini belgilash. Bu yondashuvda ta’lim mazmuni, usullari va sur’ati talaba imkoniyatlariga moslashtiriladi.

Integrativ yondashuv – fanlararo bog‘lanishlarni kuchaytirish, rus tilini boshqa fanlar (adabiyot, tarix, san’at) bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganish.

Kommunikativ-kognitiv yondashuv – til o‘rganish jarayonida nafaqat muloqot ko‘nikmalarini, balki fikrlash, tahlil qilish, umumlashtirish kabi kognitiv jarayonlarni ham rivojlantirishga e’tibor qaratish.

2. Ta’limning zamonaviy metodlari.

Rus tilini o‘qitishda qo‘llaniladigan zamonaviy metodlarni shartli ravishda bir necha guruhga bo‘lish mumkin:

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) – multimedia vositalari, onlayn platformalar, mobil ilovalar, videokontentlar orqali til o‘rgatish. Zoom, Google Meet, Moodle kabi platformalar masofaviy ta’lim imkoniyatlarini kengaytirdi. Rus tilini o‘qitishda “Pushkin Online”, “Learn Russian”, “Duolingo” kabi ilovalardan foydalanish samarali natijalar bermoqda.

Aralash ta’lim (Blended learning) – an’anaviy auditoriya mashg‘ulotlari va onlayn ta’limni uyg‘unlashtirish. Bu metod talabalarga mustaqil ta’lim olish, o‘z sur’atida ishlash imkoniyatini beradi. Rus tili darslarida aralash ta’lim modeli “fliped klass” (teskari sinf) shaklida samarali qo‘llanilmoqda.

“Keys-stadi” metodi – real hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish orqali til o‘rgatish. Bu metod talabalarning nutqiy faolligini oshiradi, muammoli vaziyatlarda muloqot qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Loyiha metodi – talabalarning mustaqil tadqiqot ishlari, prezentatsiyalar, loyihalar tayyorlashi orqali til o‘rganish. Loyiha metodi talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, guruhda ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Interaktiv metodlar – “aqliy hujum”, “rolli o‘yinlar”, “debatlar”, “klaster”, “BBB” (bilaman, bilib oldim, bilishni xohlayman) kabi metodlar dars jarayonini faollashtiradi, talabalarning o‘zaro hamkorligini ta’minlaydi.

Milliy dastur doirasida rus tilini o‘qitishning maqsad va vazifalari qayta ko‘rib chiqildi. Endilikda asosiy e’tibor tilning grammatik qurilishini o‘rgatishdan ko‘ra, talabalarda kommunikativ kompetentsiyalarni shakllantirishga qaratilmoqda.

3. Xalqaro tadqiqotlar va rus tili ta’limi.

Xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish O‘zbekiston ta’lim tizimining jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvida muhim ahamiyat kasb etadi. PISA (Xalqaro o‘quvchilarni baholash dasturi), PIRLS (Xalqaro o‘qish savodxonligini o‘rganish) va TALIS (Ta’lim va o‘qitishni xalqaro o‘rganish) kabi tadqiqotlar natijalari milliy ta’lim tizimining real holatini ko‘rsatib beradi.

PISA tadqiqotlari 15 yoshli o‘quvchilarning matematik, tabiiy-ilmiy va matnni o‘qish savodxonligini baholaydi. 2021 yilda O‘zbekistonning PISA tadqiqotida ilk bor ishtirok etishi ta’lim sifatini baholashda muhim qadam bo‘ldi. Tadqiqot natijalari o‘quvchilarning matnni tushunish, tahlil qilish va undan amaliy foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatdi.

PIRLS tadqiqotlari 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholaydi. Rus tilida tahsil olayotgan o‘quvchilarning PIRLS natijalari ularning matn bilan ishlash ko‘nikmalari, mustaqil fikrlash qobiliyatlari haqida muhim ma’lumotlar beradi.

Xalqaro tadqiqotlar natijalari asosida rus tili ta’limida quyidagi o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda:

– Matn bilan ishlashga ko‘proq e’tibor qaratish;

– Funksional savodxonlikni rivojlantirish;

– Tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish;

– Amaliy ko‘nikmalarga asoslangan topshiriqlar ulushini oshirish.

Rus tilini o‘qitishda innovatsion yondoshuvlar va zamonaviy metodlarni qo‘llash ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omilidir. Kompetentsiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan va integrativ yondoshuvlar, AKT, aralash ta’lim, keys-stadi, loyiha metodi kabi zamonaviy metodlar talabalarning kommunikativ kompetentsiyalarini shakllantirishda yuqori samara bermoqda.

Milliy dastur doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar, xalqaro tadqiqotlar natijalariga asoslangan ta’lim sifatini baholash tizimi rus tili ta’limini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kelgusida rus tilini o‘qitish metodikasini yanada rivojlantirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

1. Rus tili o‘qituvchilarining xalqaro tajribalarni o‘rganishi va malakasini oshirishi uchun sharoitlar yaratish;

2. Milliy va xalqaro tadqiqotlar natijalarini tizimli tahlil qilish va amaliyotga tatbiq etish;

3. Rus tilini o‘qitishda raqamli texnologiyalar va onlayn resurslardan foydalanish ko‘lamini kengaytirish;

4. Ta’lim jarayonida integrativ va kompetentsiyaviy yondoshuvlarni yanada chuqurlashtirish;

5. CEFR talablariga to‘liq mos keladigan milliy baholash tizimini takomillashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – T.: O‘zbekiston, 2020.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875-sonli Qarori. 2012-yil 10-dekabr.

3. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: TDPU, 2018. – 192 b.

4. Бим И.Л. Методика обучения иностранным языкам как наука и проблемы школьного учебника. – М.: Русский язык, 2017. – 288 с.

5. Jalolov J. Chet til o‘qitish metodikasi. – T.: O‘qituvchi, 2016. – 368 b.

7. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O‘qituvchi, 2015. – 200 b.

8. Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. – М.: Просвещение, 2015. – 223 с.

9. Saidova Z.Ch. O‘qitishning zamonaviy metodlari. – T.: Fan, 2019. – 184 b.

10. Xoshimov O‘., Yoqubov I. O‘zbekistonda chet tillar o‘qitishning rivojlanishi. – T.: Fan, 2020. – 256 b.

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ

Муминджанова Саида Хаитматовна

Доцент кафедры Языков и дошкольного образования

Ташкентского экономического и педагогического университета

saida10011969@gmail.com

Аннотация: В статье рассматривается использование современных методов и приёмов обучения русскому языку. Даётся определение понятиям «метод и приём». В чём преимущества использования этих методов и приёмов при обучении русскому языку. Об эффективности применения разных методов и приёмов, способствующих повышению познавательной деятельности обучающихся и привитию навыков самостоятельного осмысления учебного материала.

Ключевые слова: *использование современных методов и приёмов, преимущества, эффективность применения, познавательная деятельность, навыки самостоятельного осмысления.*

Annotatsiya: Maqolada rus tilini o‘qitishning zamonaviy usullaridan foydalanish yo‘llari ko‘rib chiqilgan, “Usul va texnika” tushunchalarining ta’rifi berilgan. Rus tilini o‘rgatishda ushbu usullardan foydalanishning qanday afzalliklari borligi tahlil qilingan. Talabalarning kognitiv faolligini oshirish va o‘quv materialini mustaqil tushunish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradigan turli xil usullardan foydalanish samaradorligi to‘g‘risida fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *zamonaviy usullardan foydalanish, afzalliklari, qo‘llash samaradorligi, bilish faolligi, mustaqil o‘zlashtirish ko‘nikmalari.*

Любой образовательный процесс должен строится на правильном выборе метода обучения. Правильно, выбранный преподавателем метод и приём обучения обеспечивает эффективность обучения. Наиболее эффективным методом обучения являются интерактивный метод. Интерактивным называют обучение, которое подразумевает постоянное взаимодействие педагога с обучающимися, обучающихся друг с другом или обучающихся с

образовательной средой. В интерактивном обучении происходит взаимный обмен информацией, а действия разных участников образовательного процесса влияют друг на друга.

Значение самого слова интерактивное происходит от английского слова interact, где inter — взаимный, «act» — действовать. Следовательно, интерактивный — это способность взаимодействовать в режиме беседы, диалога с компьютером или человеком.[1]

Любой метод, выбираемый педагогом должен строится так, чтобы цель обучения была достигнута. Есть традиционные и современные методы, однако не все понимают в чем состоят их принципы и какие они решают задачи.

В чем разница: метод, методология, методика, приемы

Метод, методология, методика, приемы – все это понятия способов и порядка обучения, но у них есть разница.

Приём – это элементы того или иного метода, выражающие отдельные действия учителя и учащихся в процессе обучения.

Метод же состоит из приёмов. Это могут быть семинары или вызов обучающегося к доске и т.д.

Методика имеет определённую теоретическую основу, конкретную программу, могут быть авторскими.

Методология – это общее понятие, которая включает в себя и методы, и методики, и приёмы обучения.

В современной педагогике выделяют следующие методы обучения:

- Словесные методы – это лекции, беседы, дискуссии;
- Наглядные методы – это видеоматериалы, наглядные пособия;
- Практические методы – это практические занятия, курсовые и дипломные работы, творческие работы;
- Обучение через создание проблемных ситуаций.

По характеру познавательной деятельности методы обучения делятся на:

- информационно-рецептивный метод – передача информации от преподавателя обучающемуся;

• репродуктивный – выполнение обучаемым действий по примеру преподавателя;

• метод проблемного изложения – преподаватель формулирует проблему и показывает логические шаги для ее решения;

• эвристический – разбивание задачи на отдельные части, которые затем решаются обучающимися;

исследовательский – поиск обучающимися решений проблем самостоятельно.[2,3]

Все вышеперечисленные методы служат для достижения следующих целей:

- приобретение знаний;
- формирование умений и навыков;
- применение знаний;
- творческая деятельность;
- закрепление и проверка знаний.

Наряду с традиционными методами существуют и современные методы обучения. Это могут быть:

- Тренинги.
- Проектный метод.
- Дистанционное обучение.
- Модульное обучение.
- Ролевые игры.
- Работа в парах.
- Мозговой штурм.
- Использование ИКТ.
- Тематические обсуждения.
- Действие по образцу.

Давайте разберем некоторые методы.

Тренинг – это групповое занятие в аудитории, на котором обучающиеся получают практические умения.

Проектный метод при этом методе обучающиеся сами ставят цель и определяют пути достижения, то сеть они самостоятельно ищут, отбирают, обобщают и анализируют данные. Задача преподавателя помогать обучающимся, отвечать на вопросы, консультировать. Работа может быть, как индивидуальной, так и групповой, которая предполагает развитие коммуникативных навыков.

Мозговой штурм предполагает коллективное обсуждение поставленной задачи, при этом методе обучающиеся свободно высказывают свои мнения и идеи. Задача учителя поставить цель, объяснить цели и правила, а затем совместно обсуждать эти идеи. Эффект этого метода в том, что он способствует быстрому усвоению учебной программы, приобретению навыков общения в коллективе. [3]

Методов обучения очень много и крайне важно, чтобы преподаватель определился с выбором метода он должен придерживаться следующих принципов:

- **Оптимальность**. Каждый метод предназначен для определенного круга задач, поэтому важно выбирать метод в соответствии с программой обучения.
- **Возрастные и индивидуальные способности обучающихся**. Например, обучающиеся хорошо усваивают учебный материал посредством деловых и ролевых игр.
- **Психологические особенности**. Например, групповая работа подойдет для выработки командных навыков, обучение гуманитарным дисциплинам подразумевает наличие дискуссий, групповых обсуждений.

Доказательность. Нужно применять только те методы, которые уже доказали свою результативность, не все современные методы одинаково эффективны. [4,5]

Вышеперечисленные методы и приёмы обучения относятся к числу инновационных, способствующих активизации познавательной деятельности обучающихся, самостоятельному осмыслению учебного материала.

Использованная литература:

1. В.М. Шаклеин, Н.В. Рыжова Современные методики преподавания русского языка нерусским. Учебное пособие. М.: 2008г.

2. Л. Т. Ахмедова, о. в. Кон практикум по методике преподавания русского языка „voris nashriyot" ташкент – 2006г.

3. Т.М. Балыхина Методика преподавания русского языка как неродного, нового Учебное пособие М.: Издательство РУДН, 2007

4. Львов М. Р. Словарь-справочник по методике преподавания русского языка: Пособие для студентов педагогических вузов и колледжей. — М.: Издательский центр «Академия»; Высшая школа, 1999. — 199 с.

5. Методы обучения. – https://ru.wikipedia.org/wiki/Методы_обучения [Электронный источник] (дата обращения 27.11.2015).

TA’LIM JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O‘QUV MOTIVATSIYASIGA TA’SIRINI TAHLIL QILISH

Rajabov Voxidjon Normurotovich

O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti

Quruqlikdagi qo‘shinlar instituti

Milliy iftixor va harbiy vatanparvarlik kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ta’limda innovatsion texnologiyalar (raqamli ilovalar, LMS, VR/AR) o‘quv motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi. Interaktiv va shaxsiylashtirilgan ta’lim muhiti o‘quvchilarni faol ishtirok etishga, bilim olishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirishga va o‘z-o‘zini baholashni yaxshilashga yordam beradi. Bunday texnologiyalar darslarni yanada qiziqarli va mazmunli qiladi. Ushbu maqola ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarning o‘quv motivatsiyasiga ta’sirini tahlil qilishga bag‘ishlanadi.

Kalit so‘zlar: *Ta’lim, innovatsion texnologiyalar, raqamli ilovalar, LMS, o‘quv motivatsiya, interaktiv, ta’lim muhiti, o‘z-o‘zini baholash, o‘quv motivasiyasi.*

Аннотация: Инновационные технологии в образовании (цифровые приложения, LMS, VR/AR) значительно повышают мотивацию к обучению. Интерактивные и персонализированные учебные среды помогают студентам активно участвовать в процессе, повышают интерес к обучению и улучшают самооценку. Такие технологии делают уроки более интересными и содержательными. Данная статья посвящена анализу влияния инновационных технологий на мотивацию к обучению в образовательном процессе.

Ключевые слова: *Образование, инновационные технологии, цифровые приложения, LMS, мотивация к обучению, интерактивность, учебная среда, самооценка, мотивация к обучению.*

Abstract: Innovative technologies in education (digital applications, LMS, VR/AR) significantly increase learning motivation. Interactive and personalized learning environments help students to actively participate, increase interest in learning, and improve self-assessment. Such technologies make lessons more interesting and meaningful. This article is devoted to analyzing the impact of innovative technologies on learning motivation in the educational process.

Keywords: *Education, innovative technologies, digital applications, LMS, learning motivation, interactive, learning environment, self-assessment, learning motivation.*

Innovatsiyalar yangi ilmiy bilimlarni, qandaydir kashfiyotlar, ixtirolarni olishga qaratilgan tadqiqot faoliyatidan foydalanish orqali rivojlanadi. Bundan tashqari, innovatsiyalarning paydo bo‘lishi loyihalash ishlarining natijasi bo‘lishi mumkin, bunda mavjud ilmiy nazariyalar va tushunchalar asosida amaliy harakatlarni amalga oshirish imkoniyatlarini aks ettiruvchi instrumental va texnologik bilimlar ishlab chiqiladi.

Shunday qilib, innovatsion loyihalar yaratiladi, bu esa keyinchalik yangi texnologiyalarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Innovatsiyalar ta’lim faoliyati jarayonida ham rivojlanadi. O‘quv jarayonida talabalarning nazariy va amaliy bilimlarini rivojlantirish amalga oshiriladi, keyinchalik ular innovatsiyalarni yaratish bilan bog’liq bo‘lgan amaliy hayotning turli sohalarida qo‘llanilishi mumkin.

Ta’limda innovatsion texnologiyalar o‘qitishda muayyan yondashuvlarni qo‘llash asosida qo‘llaniladi, ya’ni. yangi texnologiyalarni rivojlantirish uchun asos bo‘lgan talablar va maqsadlarni o‘z ichiga olgan tamoyillar.

Ta’lim sohasidagi innovatsion texnologiyalar doimiy ravishda rivojlanib, ularning turlari kengayib bormoqda. Quyidagi asosiy texnologiyalar guruhlarini ajratish mumkin:

1. Fan ta’limi sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yoki AKT. Ushbu texnologiyalardan foydalanish axborot jamiyatining rivojlanishi va hayotning barcha sohalarida axborot vositalarini faol joriy etish bilan bog’liq. Bunday texnologiyalar talabalar ongini axborotlashtirishga qaratilgan. Ta’lim dasturlari informatika, axborot jarayonlari va AKTni o‘rganishga qaratilgan yangi fanlarni o‘z ichiga oladi. Professor-o‘qituvchilar va talabalarning axborot madaniyatini oshirishga yordam berish uchun o‘quv jarayoni ham faol ravishda axborotlashtirilmoqda;

2. Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar. Ushbu texnologiyalar shaxsni ta’lim va tarbiyada ustuvor o‘ringa qo‘yishga qaratilgan. Butun ta’lim jarayoni shaxsning o‘ziga xosligi va rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda shaxsni rivojlantirishga qaratilgan.

3. O‘quv jarayonini axborot-tahliliy ta’minlash. Ushbu guruh texnologiyalaridan foydalanish har bir o‘quvchi, sinf, parallel, ta’lim muassasasining rivojlanishini o‘rganishga, ularni adekvat baholashga qaratilgan;

4. Intellektual rivojlanish monitoringi. Texnologiyalar grafiklardan foydalanishga, test tizimiga, individual o‘quvchilarning rivojlanish dinamikasini va umuman ta’lim sifatini kuzatish imkonini beruvchi yangi baholash usullariga asoslangan;

5. Ta’lim texnologiyalari. O‘quv jarayonini ta’limdan ajratib bo‘lmaydi. Shuning uchun shaxsni, uning asosiy fazilatlarini rivojlantirishning yangi usullari joriy etilmoqda;

6. Didaktik texnologiyalar. Ular ta’lim muassasasi rivojlanishining asosiy omili hisoblanadi. Bunday texnologiyalar an’anaviy va innovatsion texnologiyalardan foydalanishni o‘z ichiga olgan texnika va vositalar majmuasiga asoslanadi: o‘quv

adabiyotlari bilan mustaqil ishlash, audiovizual, multimedia vositalaridan foydalanish, tabaqalashtirilgan o‘qitish usullari.

Innovatsion texnologiyalarning motivatsiyaga ta’siri:

- **Yuqori jalb qilinganlik:** Gamifikatsiya va interaktiv vositalar o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshirib, o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqni kuchaytiradi.
- **Shaxsiylashtirilgan yondashuv:** Sun’iy intellekt (AI) va moslashuvchan tizimlar har bir o‘quvchining ehtiyojiga qarab qayta aloqa beradi, bu esa o‘zlashtirishni yaxshilaydi.
- **Immersiv tajriba:** Virtual (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) murakkab tushunchalarni vizualizatsiya qilish orqali motivatsiyani yuqori darajada ushlab turadi.
- **Qulaylik va moslashuvchanlik:** Raqamli platformalar o‘quvchilarga xohlagan vaqtda va joyda bilim olish imkonini beradi.

Asosiy muammolar va tavsiyalar:

Innovatsiyalarni muvaffaqiyatli joriy etish uchun raqamli infratuzilmani yaxshilash, pedagoglarni o‘qitish va texnologiyalarni an’anaviy metodlar bilan samarali birlashtirish zarur. Ta’lim tizimidagi islohotlar kadrlarni tayyorlashda uzviylikni ta’minlashga qaratilishi lozim.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayonda o‘qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o‘zgartirishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol usullar ta’lim jarayonida qatnashayotgan har bir o‘quvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish o‘quvchi uchun qiziqarli mashg‘ulotga aylanadi. Interfaol usullar qo‘llanilganda o‘quvchilar o‘qituvchilar yordami va hamkorligida mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalariga ega bo‘ladilar. O‘quvchilar yangi bilimlarni ilmiy izlanish, tadqiqotchilik, tajriba sinovlar o‘tkazish asosida o‘zlashtiradilar. Ilm orqali bilim olish tamoyiliga amal qilinadi. Ta’lim jarayoni qatnashchilari kichik guruhlarga bo‘lingan holda ishlaydilar.

Pedagogik innovatsiyalarning mazmuni, uni qo‘llash metodlarini bo‘lajak o‘qituvchilar tajribasiga singdirish muhim ahamiyatga ega. Ta’lim muassasasi

hayotiga pedagogik innovatsiyalarni keng ko‘lamda olib kirish uchun unda yangilik muhitini yaratish, muayyan axloqiy psixologik holatni shakllantirish, tashkiliy, metodik, psixologik xarakterdagi choratadbirlarni kullash talab etiladi.

Shu maqsadda bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ funksiyalarini rivojlantirish, ularni pedagogik innovatsiyalar bilan izchil qurollantirib borish, innovatsion usullarni tahlil va tatbiq qilishga o‘rgatish vazifasini qo‘yish lozim.

Ta’lim sifati – davlat ta’limining ijtimoiy tizimi, jarayoni va natijada shaxs, jamiyat va jamiyatning manfaatlari va manfaatlariga mos keladigan ehtiyojlarini qondirish imkoniyatini ta’minlaydigan ta’lim xizmatlarining iste’mol xususiyatlari to‘plamidir.

Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o‘ziga xosligi shundaki, ular o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O‘qitish jarayoni o‘qituvchi hamda o‘quvchilar faoliyatini o‘z ichiga oladi. O‘qituvchining faoliyati o‘quv materialini bayon qilish, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e`tiqodini shakllantirish, o‘quvchilarning mustaqil mashg’ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat. O‘z ishiga ixlos bilan qaragan o‘qituvchida chinakkam ehtiros bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ibragimova G.N. Interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari talabalarning kreativlik qobiliyatlapini rivojlantirish. I Monografiya. - T.: «Fan va texnologiyalar», 2016. -77-b.

2. Milliy istiqlol g‘oyasini shakllantirishda tashkiliy-uslubiy yondashuvlar. - T.: Akademiya, 2020.

3. Milliy istiqlol g‘oyasi. Bakalavriat bosqichi uchun darslik. - T.: Akademiya, 2020.

4. Panfilova A.P. Innovatsion pedagogik texnologiyalar: Faol o‘rganish: Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik / A.P. Panfilov. - M., Akademiya, 2009-y.

5. Абдулхаева Ф. Применение информационных технологий в изучении языков является фактором эффективности. “Экономика и социум” №12(91) 2021 www.iupr.ru

BO‘LAJAK PEDAGOGLAR PSIXOLOGIK KOMPETENTLIGI MUAMMOSINING FANDA O‘RGANILISHI

Sherov Mansur Boltayevich

O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Quruqlikdagi qo‘shinlar institute Milliy iftixor va harbiy vatanparvarlik kafedrasi boshlig‘i o‘rinbosari, f.f.d (PhD), dotsent

Annotatsiya: Dunyoda ta’lim soxasiga zamonaviy bilim, ilg‘or tajribalar, zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish asosida bo‘lajak pedagoglarning psixologik kompetentligini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ushbu maqola bo‘lajak pedagoglar psixologik kompetentligi muammosining fanda o‘rganilishi masalalariga bag‘ishlanadi.

Kalit so‘zlar: *zamonaviy bilim, ilg‘or tajriba, zamonaviy texnologiya, bo‘lajak pedagog, psixologik kompetentlik.*

Аннотация: В мире особое внимание уделяется развитию психологической компетентности будущих учителей на основе широкого внедрения в сферу образования современных знаний, передовых практик и современных технологий. Данная статья посвящена вопросам изучения проблемы психологической компетентности будущих учителей естественных наук.

Ключевые слова: *современные знания, передовые технологии*.

Abstract: In the world, special attention is paid to the development of psychological competence of future teachers based on the widespread introduction of modern knowledge, advanced practices, and modern technologies into the field of

education. This article is devoted to the issues of studying the problem of psychological competence of future teachers in science.

Keywords: *modern knowledge, advanced.*

Xalqaro miqyosda bo‘lajak pedagoglarning kompetentlik darajasini rivojlantirish va baholash muhim ahamiyat kasb etib, ta’lim tizimini modernizatsiyalash, ijtimoiy muhit talablariga integratsiyalash, oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilg‘or innovatsion mexanizmlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda pedagoglarni tayyorlashning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari kengaytirilmoqda. Shu nuqtai nazardan professional ta’lim pedagog kadrlarni kasbiy-pedagogik kompetentligini uzluksiz rivojlantirishda rasmiy, norasmiy ta’lim shakllarini qo‘llashning didaktik imkoniyatlarini va o‘quv-uslubiy ta’minotini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish dolzarb hisoblanadi.

Davlat taraqqiyotini ko‘p jihatdan kadrlar masalasining qanday hal qilinganligi belgilab beradi. Shu bois jamiyat uchun kerakli kadrlarni tayyorlab kelishni ilk bosqichlaridan boshlab ularni kasbiy yo‘naltirish, ularni o‘z kasbining yetuk mutaxassisi bo‘lib yetishishida, mavjud qobiliyatlari va kasbiy layoqatlarini to‘g‘ri baholashga alohida e’tibor qaratish lozim. Bu esa, aynan ta’lim oluvchilar bilan o‘zaro muloqotni to‘g‘ri tashkil etish va shaxs individual psixologik xususiyatlarini bilishni talab etadi. Mazkur talablar bo‘lajak pedagoglarda nafaqat kasbiy sifatlar balki psixologik kompetentligini shakllanganligini tadqiq etish taqozo etadi.

Bugungi kun tushunchasidagi kattalar ta’limi rivojlanishi yoki uzluksiz ta’lim olish XXI-asrdagi tezkorlik, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini barcha sohalarin yegallashi, ta’limni raqamlashtirilishi natijasida fan, texnika, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardagi o‘zgarishlar oqibati bilan bog‘liq.

Katta yoshlilar ta’limi jarayonining o‘ziga xos jihatlaridan biri bu o‘zlashtirilayotgan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar tizimining kasbiy yoki hayotiy jarayonda o‘z o‘rnini topishga qaratilganligining ongli ravishda anglanishi, maqsadning aniqligi, o‘qish-o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyaning kuchliligi bilan

tavsiflanadi. Bu yesa ta’lim jarayonida o‘ziga xos differansial yondashuv, andragogik tamoyillar, zaruriy pedagogik shart-sharoitlar hamda o‘qitish texnologiyalarini talab etadi [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-son “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni respublikada ta’limni modernizatsiyalashda muhim ahamiyatga ega. Mazkur farmon bilan O‘zbekiston Respublikasida ta’limning xalqaro standart tasniflagichi darajalari bilan uyg‘unlashgan boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim tizimi hamda tabaqalashtirilgan ta’lim dasturlari joriy etiladigan ta’lim muassasalari tarmog‘i tashkil etish vazifasi belgilab berildi [2].

Farmonda belgilangan vazifalarni amalga oshirish esa professional ta’lim muassasalari pedagog kadrlarni kompetensiyaviy yondashuvlar asosida uzluksiz kasbiy rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojini oshishi olib keladi. Bu jarayonda kasbiy rivojlanishning zamonaviy tendensiyalari va paradigmalarini o‘rganish, malaka oshirishning muqobil shakllarni joriy qilishda xorijiy tajribalarni tahlil qilish, to‘ldiruvchi va qo‘shimcha ta’limga bo‘lgan yehtiyojni qondirishga qaratilgan yehtiyojga asoslangan kurslarni, qisqa muddatli kurslarni ishlab chiqish metodikalarini o‘rganish nihoyatda zarur. [2].

Mamlakatimizda yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlarimiz, qomusiy olimlarimiz yoshlarga ta’lim-tarbiya berish va ularni kasb-hunarga o‘rgatish masalalari bo‘yicha o‘zlarining buyuk asarlarida qimmatli fikr mulohazalarni bildirib, bu borada nimalarga e’tibor berish kerakligi haqida yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatganlar.

Sharq mutafakkirlari ta’limotlarida o‘g‘il va qizlarga ta’lim- tarbiya berish, ularga kasb-hunar o‘rgatish g‘oyasi muhim o‘rin egallaydi. Buyuk qomusiy olim Abu Nasr Forobiy kasb-hunar to‘g‘risida ilk fikrlarini bildirib, qimmatli maslahatlar bergan, chunonchi, ta’lim so‘z va ko‘nikmalar majmui, tarbiya esa amaliy malakalardan iborat ish-harakat ekanligini, muayyan kasb-hunarni o‘rganishga berilgan, u bilan qiziqqan kishilar shu kasb-hunarning chinakam shaydosi bo‘lishini aytgan. Bu mulohazalardan anglanib turibdiki, alloma kasb-hunar insoniyat uchun azaldan juda zarur hayotiy vosita bo‘lib kelganini tan olgan.

Abu Nasr al Farobiy “Namunali ta’lim” risolasida ta’lim oluvchilar o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan materialni yaxshi yo‘sinda bayon qilish masalasiga alohida to‘xtalib, Kishi bilim va tajriba orttirmasdan oldin juda ko‘p narsalarni nazarga ilmaydi, bilim egallab, tajriba hosil qilgach, haligi narsalarga qarashini o‘zgartiradi, avval behuda deb hisoblovchi narsalarning zaruratligini his etadi, ilgari e’tiborini tortmagan narsa endi aksincha uni hayratga soladi” [3].

Farobiy “Baxt – saodatga erishuv to‘g‘risida” asarida bilimlarni o‘rganish tartibi haqida fikr bayon etgan. Uning ta’kidlashicha, avval bilish zarur bo‘lgan ilm o‘rganiladi, bu – olam asoslari haqidagi ilmdir. Uni o‘rgangach, tabiiy ilmlarni, tabiiy jismlar tuzilishini, shaklini, osmon haqidagi bilimlarni o‘rganish lozim. Undan so‘ng, umuman, jonli tabiat o‘simlik va hayvonlar haqidagi ilm o‘rganiladi, deydi.

Forobiy inson kamolotga yolg‘iz o‘zi erisha olmaydi. U boshqalar bilan aloqada bo‘lish, ularning ko‘maklashuvchi yoki munosabatlariga muhtoj bo‘ladi. Uning fikricha tarbiya jarayoni tajribali pedagog, o‘qituvchi tomonidan tashkil etilishi muhumdir. Chunki har bir odam ham baxtni va narsa hodisalarni o‘zicha bila olmaydi. Unga buning uchun o‘qituvchi lozim [3].

Demak, Forobiy ta’lim-tarbiya ta’limotining asosi komil insonni shakllantirish, bunda yoshlarga o‘z vaqtida o‘rinli ta’lim va tarbiya berish, ularni kasb-hunarga yo‘llash orqali baxt-saodatga erishtirish, jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga yordam berish g‘oyasidan iborat.

Bugungi kunga kelib ham, allomalar tomonidan qoldirilgan ma’naviy meros o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Buyuk mutafakkirlarimiz, mashhur usta-hunarmandlarimiz yoshlarimizga o‘rnak, ma’naviyat va g‘urur manbai bo‘lib xizmat qiladi. Eng asosiysi ular turli tarixiy-siyosiy, hayotiy shart-sharoitlarga qaramasdan ilm olishga va fanning turli sohalari bo‘yicha asarlar qoldirishga harakat qilganlar.

XXI-asr pedagogikasi esa zamonaviy dunyoda bu xislatlarning yetarli yemasligi, yendilikda tafakkurni rivojlantirish, kreativ makon, muhit, kreativ shaxs, kreativ mahsulot yaratishga bo‘lgan yehtiyoj asosida ish tutish lozimligini uqtirmoqda.

Amalga oshirilgan ilmiy tahlillar, taqdim etilgan didaktik, metodik, ishlanmalar va tavsiyalarni umumlashtirgan hamda ularning samaradorlik darajasini baholagan holda quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Sharq mutafakkirlari o‘zlarining qimmatli ma’naviy merosi bilan komil inson shaxsini tarbiyalashda insonni kamolotga eltuvchi mehnatsevarlik, ochiqko‘ngillik, rostgo‘ylik, halollik va qadriyatlarga hurmat kabi xislatlariga e’tibor qaratganligini ko‘ramiz.

2. Hozirgacha saqlanib qolayotgan qator me’moriy inshootlar, buyuk tarixiy obidalar, xalq amaliy san’ati asarlari (naqqoshlik, ganchkorlik, me’morchilik), arxeologik izlanishlar tufayli topilgan hunarmandchilik buyumlari namunalari – bularning barchasi buyuk ajdodlarimiz kasb-hunar o‘rganishga, yuksak iste’dod va qobiliyat sohibi bo‘lishga oid bebaho manbalar qoldirganliklarini tasdiqlaydi.

3. Bugungi kunga kelib ham, allomalar tomonidan qoldirilgan ma’naviy meros o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lib, buyuk mutafakkirlarimiz, mashhur usta-hunarmandlarimizning faoliyati yoshlarimizga o‘rnak, ma’naviyat va g‘urur manbai bo‘lib xizmat qiladi. Eng asosiysi ular turli tarixiy-siyosiy, hayotiy shart-sharoitlarga qaramasdan ilm olishga va fanning turli sohalari bo‘yicha asarlar qoldirishga harakat qilganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr. – T., 2020.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrda “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-son Farmoni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. www.http/lex.uz/ru/docs–4500926

3. Abu Nasr al-Farobiy. “Baxt-saodatga erishuv to‘g‘risida”. T., 1983.

ADABIYOT DARSLARINI MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH ORQALI TASHKIL ETISH

Tojixon Sabitova

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti professori.v.b.,

pedagogika fanlari doktori (DSc)

sabitovatadjikhon0805@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada adabiyot darslarini tashkil etishda multimedia vositalaridan foydalanish va ularni to‘g‘ri qo‘llash usullari yoritib berilgan. Audio va visual vositalarni o‘z o‘rnida qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: *multimedia, adabiyot, metodika, interfaol, audio, audiovisual*.

Аннотация. В данной статье рассматривается использование мультимедийных средств в организации уроков литературы и методы их правильного применения. Даны рекомендации по надлежащему использованию аудио- и видеоинструментов.

Ключевые слова: *мультимедиа, литература, методология, интерактивный, аудио, аудиовизуальный.*

Abstract. This article examines the use of multimedia in literature lessons and methods for their proper application. Recommendations for the appropriate use of audio and video tools are provided.

Keywords: *multimedia, literature, methodology, interactive, audio, audiovisual.*

Hozirgi zamonda, uzluksiz ta’lim tizimini texnika vositalarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ta’lim vositalari deb, o‘qitilishi va o‘rganilishi lozim bo‘lgan har qanday bilimlarni yetkazuvchi va axborot tashuvchi vositalarga aytiladi. Ta’lim vositalari 3 turga bo‘lib o‘rganiladi: bosma, texnik va aniq o‘quv vositalari. Bosma yoki chop etilgan o‘quv materiallariga chop etilgan barcha o‘quv va ko‘rgazmali materiallar kiradi. Bosma materiallar o‘z navbatida 2 turga bo‘lib o‘rganiladi, bular: matnli va tasvirli bosma materiallar. Masalan, o‘quv yoki ishchi dasturlar, darsliklar, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, tarqatmali materiallar, ishchi varaqalari, nazorat (test) yoki topshiriq varaqalari, o‘quv-uslubiy majmualar, ma’ruza matnlari va boshqalar matnli

vositalarga misol bo‘ladi. Ular ma’lumotlar olish va ma’lumotlarni qayta ishlash uchun xizmat qiladi. Texnik ko‘rgazmali materiallar deyilganda, ta’lim vositalarini tushunish mumkin. Chunki pedagogikada ta’lim vositalari ko‘rgazmali material sifatida qaraladi.[1.23] Ayniqsa, hozirgi kunda nutqimizda “informatsion portlash”, “virtual olam” degan tushunchalar paydo bo‘ldi. Unga kibero‘qish, kiberxat, kibertalaffuz, kibermuloqot tushunchalari ham singib bormoqda. Hatto kiberpedagogika degan tushunchalar ham fanga kirib keldi. Bular biz odatlangan ko‘rish, eshitish kabi jarayonlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan omillar deb qarash kerak. Bu yerda so‘zlarni aniq va to‘g‘ri o‘qishdan, chiroyli va xatosiz yozishdan tashqari ularning rang-barang shakl va ko‘rinishlarga kira olishi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda tovushlar, so‘zlar, so‘z birikmalari va gaplarni ifodali o‘qish vositasida ularning ma’no qatlamlariga ta’sir ko‘rsatish mumkinligi juda ochiq tarzda namoyon bo‘ladi.[2.34] Natijada, o‘quvchining tegishli ko‘nikma va malakalari tezroq, qulayroq hamda yoqimliroq tarzda amalga oshadi. A.Garsov ta’kidlaganidek, “har bir pedagogik davr o‘ziga xos texnologiyalar avlodini tug‘diradi”. Asta-sekin og‘zaki nazariy ta’limning o‘rnini ko‘rgazmali ta’lim egallay boshladi.Faoliyat yondashuvga asoslangan ta’limni inson faoliyatining sezgi, his, diqqat, xotira, tasavvur, fikrlash, nutq, aqliy va ruhiy jarayonlari bilan bog‘liq holda qamrab olish axborot asrida tez rivojlanib kelayotgan multimedia vositalari yordamida amalga oshirish samaradorligi tan olindi. Multimedia vositalari bilan ishlanganda o‘quvchi jarayonni bevosita o‘zi kuzatadi, uni boshidan kechiradi va o‘zi xulosa chiqaradi. An’anaviy dars va multimediali darslar solishtirilganda quyidagi afzalliklar ko‘zga tashlanadi: an’anaviy ona tili darsliklarida mavzuga tegishli materiallar matni hamda ba’zi o‘rinlarda statik ko‘rinishdagi rasm beriladi; multimedia ishtirokidagi darslarda mavzuga tegishli material matni, uni sharhlab beruvchi ovoz yoki video, mavzuga tegishli bir nechta rasm, diagramma, jadvallar, animatsiya, musiqaning birgalikda berilish imkoniyati mavjud. Darslik bilan ishlash jarayonida o‘quvchilarning mustaqil o‘qish, qoidalarni o‘rganish yoki qayta esga tushirish, mashq topshiriqlari asosida grammatik hodisalarni aniqlash va izohlash ko‘nikmalari rivojlantirilsa, multimedia ilovalar bilan ishlash jarayonida

o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqi kuchayadi, tengdoshlari bilan o‘zaro munosabati yaxshilanadi, yangi mavzuni mustaqil o‘zlashtirish va o‘zini baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu bilan birga multimedia vositalaridagi bir necha xillik o‘quvchini qiziqtiradi,fikrlashga undaydi, dunyoqarashini kengaytiradi, bilim, malaka va ko‘nikmani bog‘lab boradi. Mukammal multimediali dars loyihasini yaratish uchun olim, fan o‘qituvchisi hamda kompyuter mutaxassisi birlashmog‘i darkor. Tasvirli ko‘rgazmali materiallarga slaydlar, diagrammalar, jadvallar, fotosuratlar, chizma-sxemalar, plakat kabilar misol bo‘ladi. Ulardan umumiy tasavvurni vujudga keltirish uchun foydalaniladi. Texnika vositalarini ikki turga bo‘lish mumkin: audiovizual, audiovirtual yoki yordamchi-jihozli. Audiovizual vositalarga kompyuter, proektor, kodoskop, kinoapparat, kompakt disklar, o‘quv televideniesi, videomagnitofon, videofilm, audiokassetalar, Power Point materiallari, elektron darsliklar, multimedia vositalari kabilarni misol qilish mumkin.Audiovirtual vositalarga internet, masofaviy ta’lim kabilar misol bo‘ladi. Ushbu vositalar jarayonlar va ishlash mexanizmlari to‘g‘risida tasvir va ovoz orqali tasavvurni vujudga keltirish uchun xizmat qiladi. Haqiqiy ta’lim vositalari o‘rganilayotgan ob’ektlar haqida haqiqiy tasavvurni vujudga keltirishga xizmat qiladi. Masalan, ta’lim (o‘quv) muassasalari, ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan binolar, mashina, traktor, yarim tayyor va tayyor mahsulotlar, xom ashyolar, asbob-uskunalar va shu kabilarni misol sifatida keltirish mumkin. Modelli vositalarga esa, modellar, maketlar, trenajyor kabilarni misol qilish mumkin. O‘rganilayotgan ob’ektning modeli orqali u haqidagi tasavvur va ma’lumotlar hosil qilinadi. Ta’lim (texnika) vositalari foydalanilishi jihatidan uch qismga ajratiladi: «ta’lim beruvchi uchun», «ta’lim oluvchi uchun» va «dars o‘tkazish uchun». Dars o‘tkazish uchun vositalarni o‘qituvchi umumiy bo‘lgan holatda tanlaydi, ya’ni ushbu vositalar ham ta’lim oluvchi uchun, ham ta’lim beruvchi uchun samarali bo‘lishi talab etiladi. Ushbu ta’lim vositalarini qanday, qaerda, qachon tanlash kerakligi va ulardan o‘z o‘rnida samarali foydalanish o‘qituvchining bilimi, ko‘nikmasi va mahoratiga bog‘liq bo‘ladi. Ta’lim beruvchi uchun vositalarga o‘quv metodik qo‘llanmalar, metodik tavsiyalar, metodik ishlanmalar, o‘quv dasturlari, dars rejasi, ma’ruza matni, texnologik xarita, kalendar

reja kabilar kiradi. Ta’lim oluvchi uchun vositalarga darslik, o‘quv qo‘llanma, jadvallar, yo‘l-yo‘riqli, texnologik xaritalar, topshiriq varaqalari va hokazolarni misol qilish mumkin. Dars o‘tkazish uchun vositalarga plakatlar, modellar, maketlar, jihozlar, audiovizual, audiovirtual vositalar, texnik, aniq vositalar kabilar kiradi.[3.45] Ba’zi hollarda ta’lim oluvchi uchun mo‘ljallangan ta’lim vositalari ta’lim beruvchi uchun ham, dars o‘tkazish uchun ham qo‘llanilishi mumkin. Tanlab olingan metod, shakl va vositalar bir-birini to‘ldirishi kerak. Darslik materialini to‘ldirishga xizmat qiladigan yana bir vosita rasmli albomlar va rasmli tarqatma materiallardir. Rasmlar o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, o‘rganilayotgan til hodisasini amalda qo‘llab matnlar yaratish, tasvir, rivoya, muhokama insholar o‘tkazishda muhim o‘rin egallaydi. Ona tili mashg‘ulotlarida rasmlardan foydalanishga muayyan talablar ham qo‘yiladi ya’ni rasmning yuksak badiiyligi, o‘rganilayotgan mavzu talabiga mosligi, sinf o‘quvchilarining yoshi va bilim saviyasiga muvofiqligi, rasmda rassom maqsadining ifodalanganligi, nutq o‘stirishga muvofiqlik darajasi kabilar inobatga olinishi lozim. Rasmlardan so‘z tanlashda, so‘z birikmalari va gaplar qurishda, ijodiy diktantlar yozishda, og‘zaki va yozma matnlar tuzishda, insho o‘tkazishda keng foydalaniladi. Ona tili darslarida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodiy matn tuzish ko‘nikmalarini shakllantirish ta’limning asosiy maqsadlaridandir. Shuning uchun ham, ayniqsa, keyingi yillarda ona tili darslarida mustaqil va ijodiy ishlarni bajarishga katta e’tibor qaratilmoqda. O‘quvchida ijodiy ish ko‘nikmasini shakllantirish uchun esa turli vositalar, usul va manbalardan foydalanish mumkin. Ta’limning samarali vositalaridan yana biri diafilm va diapozitivlardir. Bu vositalardan til hodisalarining mohiyatini sharhlashda ham, nutqiy malakalarni takomillashtirishda ham foydalansa bo‘ladi. Ayniqsa, mavzu talabga muvofiq so‘z va so‘z birikmalari tanlashda, gaplar tuzishda, matn yaratishda bu muhim vositalar qo‘l keladi. O‘qituvchi diafilm va diapozitivlardan foydalanishda quyidagilarga amal qilishi lozim:

- ✓ Internet resurslar, diafilm va diapozitivdan foydalanishning maqsadini aniq belgilash hamda uning dars maqsadiga to‘la mos kelishini ta’minlash;
- ✓ darsning qaysi bosqichida qanday tartibda foydalanishni belgilab olish;

✓ tasvirdagi qaysi o‘rinlarga o‘quvchilar e’tiborini qaratishini aniqlash.

Adabiyot o‘qituvchisi teleko‘rsatuvlardan, namoyish etiladigan kinofilmlardan ham unumli foydalanishni unutmasligi lozim. O‘rganilayotgan mavzu talabiga muvofiq matn yaratishda, sinf va uy insholari yozishda bu vositalar qo‘l keladi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, ta’kidlab o‘tilgan vositalar darslik materialini to‘ldirish hamda boyitish bilan bir qatorda mashg‘ulotlarning qiziqarli va zavqli o‘tishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. [4.33]Ta’lim mazmunini boyitishga xizmat qiluvchi texnik vositalardan foydalanishni muntazam ravishda olib borish zarur. O‘quvchilar ma’naviyatini shakllantirishda,dunyoqarashini kengaytirishda pedagogik omillarni ham ko‘plab usullar yordamida tatbiq etsa bo‘ladi. Ular ta’lim mazmunini yangi sifat bosqichiga ko‘tarishga mustahkam didaktik asos bo‘la oladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Suropov B. Elektron ta’lim muhitida axborot kommunikatsiya texnologiyalari fanini o‘qitishning metodik ta’minotini takomillashtirish. Ped.fan.b. fal. dok. … dis. – Toshkent, 2019. – 149b.

2. Masharipova U.A. Innovatsion ta’lim sharoitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish metodikasi. Ped.fan.b. fal. dok.dis. – Toshkent, 2018. – 160 b.

3. Dolimov S., Ubaydullaev Q., Ahmedov Q. Adabiyot o‘qitish metodikasi. - T., “O‘qituvchi”, 1967.

4. Yo‘ldoshev Q., Madaev O., Abdurazzoqov A. Adabiyot o‘qitish metodikasi. - T., “Universitet”, 1994.

RAQAMLI ASRDA BOLALARNING XORIJIY TIL O‘RGANISHI

Magbarxonova Yulduzxon Azlarxonovna

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Tillar va maktabgacha ta’lim fakulteti,

xorijiy til va adabiyoti yo’nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: ***Mumindjanova Saida Xaitmatovna***
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti
“Tillar va maktabgacha ta’lim” fakulteti dotsenti
saida10011969@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola zamonaviy sharoitda yosh bolalarning xorijiy tillarni o‘zlashtirish jarayoniga raqamli vositalar (mobil ilovalar, ta’limiy o‘yinlar, media kontent) ko‘rsatayotgan ko‘p qirrali ta’sirni lingvodidaktik va psixolingvistik jihatdan kompleks tahlil qilishga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: *Raqamli ligvodidaktika, xorijiy tilni o‘zlashtirish, bolalar nutqi, ekrin vaqti, passiv o‘rganish, ligvistik interferensiya, jonli muloqot.*

Аннотация: Настоящая статья посвящена комплексному анализу многогранного влияния цифровых средств (мобильные приложения, образовательные игры, медиа контент) на процесс усвоения иностранных языков детьми младшего возраста в современных условиях, лингводидактической и психолингвистической точек зрения.

Ключевые слова: *цифровая лингводидактика, усвоение иностранного языка, детская речь, экранное время, пассивное обучение, лингвистическая интерференция, живое общение.*

Annotation: This scientific article is devoted to the comprehensive analysis of the multifaceted impact of digital tools (mobile applications, educational games, media content) on the process of foreign language acquisition by young children in modern conditions, from both linguodidactic and psycholinguistic perspectives.

Key words: *Digital linguodidactics, foreign language acquisition, Children’s speech, screen time, passive learning, linguistic interference, live communication.*

XXI asr boshlanishining o‘zi bir alohida davr desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki ushbu asr hayotning barcha jabhalariga katta o‘zgarishlar olib keldi, ya’ni bu texnologiya va internet rivojlanishi, sun’iy intellekt paydo bo‘lishi davridir. Inson hayotida ro‘y berayotgan voqea va hodisalar undan bilimli, zukko bo‘lishni talab qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, muloqot olib borish uchun bizdan til bilishni talab qiladi.

Bu davrda tilning ahamiyati yanada oshib, u nafaqat muloqot vositasi sifatida, balki global axborot almashinuvi, ta’lim, biznes va shu qatorda zamonaviy kasblarning rivojlanishida ham yetakchi omil darajasiga ko‘tarildi. Raqamli texnologiyalar turli xalq va millatlar o‘rtasida iliq munosabatlarni yaratdi. Ular tufayli insonlar dunyoning istalgan burchagidagi odam bilan muloqot qila oladi, bunda xorijiy tillar ayniqsa ingliz tilining ahamiyati yanada oshdi. Ingliz tili nafaqat ilm-fanda balki dasturlash, biznes kabi sohalarda ham yetakchi tilga aylandi.

Bugungi kunda xorijiy tillarni o‘rganayotgan bola uchun darslikdagi matnlar bilan bir qatorda, You Tube’dagi multifilmlar, ta’limiy o‘yinlar va virtual o‘qituvchilar (AI) ham asosiy “o‘qituvchi” vazifasini bajarmoqda. Shunga qaramay, bu o‘zgarishlar nafaqat lingvodidaktik yutuqlarni, balki psixolingvistik xavflarni ham keltirib chiqarmoqda. Tadqiqotning asosiy maqsadi raqamli muhitning bolalar tomonidan xorijiy tilni o‘zlashtirishga ko‘rsatayotgan ijobiy va salbiy ta’sirlarini kompleks tahlil qilish va o‘rganish samaradorligini oshiruvchi xavfsiz pedagogik tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Psixolingvistik maktabning yetakchi vakillari til va nutqni ijtimoiy faoliyat sifatida qaraydilar. Ularga ko‘ra til ko‘nikmalarining to‘liq shakllanishi, ayniqsa, bolalik davrida, asosan jonli va hissiy muloqot orqali amalga oshadi[3]. Bola nafaqat so‘zlarni, balki ularning mazmuni, konteksti va ijtimoiy ahamiyatini ham faqat muloqot jarayonida o‘zlashtiradi[2].

Zamonaviy lingvodidaktikada axborot texnologiyalarining til o‘qitishdagi ro‘li o‘rganilgan. Bu adabiyotlar raqamli vositalarning o‘quv jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan qilish visual-audial kanallar orqali idrokni kuchaytirish kabi imkoniyatlarini asoslaydi[1].

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi zamonaviy ta’lim jarayonlarida muhim o‘rin egallab kelmoqda. Xususan, xorijiy tillarni o‘qitishda ushbu texnologiyalar ta‘limning sifatini oshirish, talabalarning qiziqishini kuchaytirish va ularning o‘quv faoliyatida yuqori samaradorlikka erishish imkonini yaratmoqda. Bugungi kun talablariga mos ravishda ta’lim metodlari zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilib, o‘quv jarayonini yanada interaktiv va qulay shaklga keltirish zarur[4].

Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonini tubdan o‘zgartirib, xorijiy tillarni o‘qitishda keng imkoniyatlar yaratmoqda. Xususan, bu texnologiyalar o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro aloqani mustahkamlash, bilim olish jarayonini tezlashtirish va bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan o‘quv shakllarini joriy etishda muhim ahamiyatga ega.

Xorijiy tillarni o‘rgatishda interaktiv o‘yinlar ham raqamli texnologiyalarning muhim qismi hisoblanadi. Gamifikatsiya uslublari talabalarni faol ishtirok etishga jalb qiladi. Masalan, raqamli o‘yinlar yordamida talabalar yangi so‘zlarni o‘rganadi, grammatik qoidalarni mustahkamlaydi va muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bunday yondashuv o‘quvchilarni zerikarli vazifalardan xalos qilib, o‘itish jarayonini qiziqarli qiladi[5].

Raqamli vositalarning lingvodidaktik imkoniyatlari: Til o‘rganish ilovalari o‘rganish jarayonini o‘yinga aylantirib, bolaning ichki motivatsiyasini oshiradi va muntazam mashq qilishga undaydi. Haqiqiy nutq muhitiga yaqinlashuv tufayli bola maktabda o‘rganishi qiyin bo‘lgan tabiiy sleng, iboralar va madaniy nyuanslarni media orqali tez o‘zlashtirishi mumkin.

Jonli muloqotning siqib chiqarilishi (Displacement effect). Xorijiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ekran oldida o‘tkazilgan har bir qo‘shimcha daqiqa bolaning ota-onasi bilan jonli muloqot qilish vaqtini keskin kamaytiradi[4].

Psixolingvistika nazariyasiga ko‘ra, xorijiy tildagi grammatik tuzilmalarni miyada mustahkamlash uchun jonli, faol nutq amaliyoti muhimdir. Virtual content, asosan, passiv o‘rganishga asoslangani uchun, bolaning aktiv gapirish ko‘nikmasi rivojlanmay qolish xavfi mavjud.

Bolaning asosiy vaqtini xorijiy tildagi kontent bilan o‘tkazishi ikki til o‘rtasidagi interferensiya (o‘zaro aralashish)ni keltirib chiqarishi mumkin. “Bilingualism and Cognition” (Ikki tillik va Kognitiv ish) bo‘yicha ishlarda ta’kidlanishicha, bu holat tilidagi nutq sifatiga salbiy ta’sir qilishi mumkin[6].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, raqamli asrda bolalarning xorijiy tilni o‘zlashtirishi jarayonini optimallashtirish uchun muvozanatli yondashuv talab etiladi. Bugungi kunda eng samarli yo‘l-raqamli kontentni aktiv muloqot orqali to‘ldirishdir.

Ya’ni, ota-ona yoki o‘qituvchi raqamli kontentni bola bilan birgalikda ko‘rishi va undagi mavzularni jonli muloqot orqali muhokama qilish shart. Bu passiv kontentni aktiv muloqotga aylantiradi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar xorijiy tillarni o‘rgatishda muhim vosita bo‘lib, ular ta’lim jarayonini zamonaviy talablar darajasiga moslashtirishda yordam beradi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar cheksiz o‘quv materiallari va resurslarga kirish imkonini beradi. Talabalar internet orqali bepul kurslar, video darslar va boshqa ta’lim materiallaridan foydalanishadi. Ushbu resurslar ta'lim jarayonini yanada boyitib, o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Shunday qilib, raqamli texnologiyalar xorijiy tillarni o‘rgatishda yangi imkoniyatlar ochib, o‘qituvchilar va talabalar uchun ta’lim jarayonini soddalashtiradi. Bu texnologiyalar yordamida o‘quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, ularni global standartlarga moslashuvchan qilib tayyorlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам: Лингводидактика и методика. Москва: Академия, 2004. (115-120-бетлар)

2. Зимняя И.А. Лингвопсихология речевой деятельности. Москва: МПСИ, 2015. (78-82-бетлар)

3. Леонтьев А.А. Психология общения. 3-нашр. Москва: Смысл, 2011. (45-50-бетлар)

4. Brushe, M. Digital age: screen time's effect on language learning in children. University of Adelaide Research and Innovation, 2024. (2-3-бетлар).

5. Полат, М. Дидактические аспекты применения мультимедиа технологий в преподавании иностранного языка. Педагогика, 2004, №4. (30-33-бетлар).

6. Singleton, D. Key Topics in Second Language Acquisition. Multilingual Matters, 2018. (55-60-бетлар).

THE IMPORTANCE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN IMPROVING ENGLISH VOCABULARY

Scientific Supervisor: *Senior Lecturer* ***D.U. Rustamov****,*
Faculty of Languages and Preschool Education, TIPU
Student: Farangiz Sobirova*, Student of Group XTA 22/1,*
Faculty of Languages and Preschool Education, TIPU

Introduction: Today, technology has become a natural part of our everyday life. Students communicate, learn, and search for information mostly through digital devices such as smartphones, laptops, and tablets. Because of this, education has also started to change, and Information and Communication Technologies (ICT) now play an important role in the teaching and learning process. In English language education, one of the areas that has benefited the most from technology is vocabulary development. Vocabulary is the foundation of language learning because students cannot speak, write, read, or understand others effectively without knowing enough words.

For many years, vocabulary was mainly taught through memorization and translation. Students were often asked to learn long word lists or copy meanings from dictionaries. Although these methods may help learners remember some words, they do not always encourage real communication or long-term retention. Many learners forget vocabulary quickly because they do not use it in real situations. Modern technologies, however, offer a different approach by making learning more interactive, visual, and practical.[1]

Through ICT tools, learners can hear pronunciation, watch videos, play educational games, and use vocabulary in online communication. Instead of learning words separately, students meet new vocabulary in context, which makes understanding easier and more natural. Technology also allows students to practice at their own speed and repeat materials whenever necessary. This flexibility is especially important for language learners who have different learning styles and levels.[2]

Another reason ICT is important is that today’s learners are already familiar with digital environments. When technology is included in lessons, students usually feel more motivated and interested. Teachers can create engaging activities using multimedia resources, while students can continue learning outside the classroom. This combination of classroom teaching and independent digital learning creates better conditions for vocabulary growth.

The aim of this article is to discuss how Information and Communication Technologies help learners improve English vocabulary. Using the IMRAD structure, the article explains the methods used to analyze ICT tools, presents key results, discusses their significance, and offers conclusions about the role of technology in vocabulary learning.

Method: This article is based on qualitative analysis and observation of modern teaching practices rather than a single experiment. Different sources from language teaching methodology and practical classroom experiences were reviewed to understand how ICT supports vocabulary development.

First, online dictionaries and digital reference tools were considered. These resources are widely used by students because they provide quick access to meanings, pronunciation, example sentences, and even images. Unlike traditional paper dictionaries, digital versions allow learners to understand words faster and continue reading or listening without interruption.[3]

Second, language learning applications were analyzed. Many popular applications include vocabulary exercises, flashcards, and quizzes that turn learning into an interactive activity. These apps often use repetition systems and progress tracking, which help learners review words regularly. Because students can practice anytime, vocabulary learning becomes part of their daily routine.

Third, multimedia resources such as videos, podcasts, and online lectures were examined. Watching videos with subtitles or listening to authentic conversations helps learners understand how words are used in real contexts. This method also improves pronunciation and listening skills while expanding vocabulary knowledge.[4]

In addition, online communication platforms were included in the analysis. Social media, messaging applications, and virtual classrooms provide opportunities for learners to use English vocabulary in real communication. Using words actively in conversations strengthens memory and increases confidence.

Finally, observations from classroom practice were considered. Teachers who integrate ICT into lessons often report higher student participation and motivation. These experiences helped identify common benefits and challenges related to technology-based vocabulary learning.

Results: The analysis shows that ICT has a positive influence on English vocabulary learning in several important ways. One clear result is easier access to information. Students no longer need to wait for teacher explanations because they can quickly check meanings, pronunciation, and examples using digital tools. This immediate access encourages independent learning and curiosity.

Another important result is better retention of vocabulary. When learners see words in videos, hear them in audio materials, and practice them through interactive exercises, they remember vocabulary more effectively. Combining different types of input makes learning stronger and more meaningful.[5]

Motivation is also greatly improved through the use of technology. Many learners find digital activities more enjoyable than traditional memorization tasks. Games, quizzes, and progress rewards create a sense of achievement and encourage regular practice. Students who practice more frequently naturally develop a larger vocabulary.

Online communication has also shown positive results. Learners who participate in chats, discussions, or video calls tend to use new vocabulary more confidently. Real communication helps learners move vocabulary from passive knowledge to active usage, which is essential for language fluency.

Another result is individualized learning. ICT allows students to choose materials based on their level and interests. Some learners may prefer visual resources like videos, while others benefit more from reading or listening materials. This flexibility helps each learner improve in a way that suits them best.

However, some challenges were observed as well. Students may sometimes become distracted by non-educational content, and not all learners have equal access to stable internet or devices. Despite these limitations, the overall results demonstrate that ICT significantly supports vocabulary learning when used properly.

Discussio: The findings suggest that ICT changes how vocabulary is learned by making the process more active and learner-centered. Instead of memorizing isolated words, students experience vocabulary through authentic language use. This approach helps learners understand not only meanings but also how words function in real communication.

Another important point is learner autonomy. Technology allows students to take control of their own learning. They can review difficult words, repeat exercises, and choose resources independently. This independence encourages responsibility and builds long-term learning habits, which are essential for language development.[6]

At the same time, the role of the teacher remains very important. Technology should not replace teachers but support them. Teachers guide students toward reliable resources and help them use technology effectively. The most successful learning usually happens when traditional teaching methods are combined with digital tools.

ICT also encourages collaboration. Online group tasks and discussions allow learners to share ideas and practice vocabulary together. Such interaction improves communication skills and creates a supportive learning environment.

Nevertheless, balance is necessary. Too much reliance on technology without clear guidance may lead to distraction or superficial learning. Educational institutions should therefore provide digital literacy training and ensure that both teachers and students know how to use technology productively.

Overall, ICT creates valuable opportunities for vocabulary learning, but its success depends on thoughtful integration into teaching practice.

Conclusion: In conclusion, Information and Communication Technologies play an important role in improving English vocabulary learning. They provide easy access to learning materials, increase motivation through interactive activities, support authentic language exposure, and encourage independent learning.

Multimedia resources and online communication help learners understand and use vocabulary in real-life contexts, leading to stronger retention and better communication skills.

Although some challenges exist, such as distraction and unequal access, these issues can be reduced through proper guidance and balanced teaching approaches. Technology works best when it supports, rather than replaces, traditional methods and teacher involvement.

As education continues to develop, ICT will likely become even more important in language learning. Teachers and learners who use technology wisely can create more engaging, effective, and meaningful vocabulary learning experiences.

References

1. Nation, I. S. P. (2013). *Learning Vocabulary in Another Language*. Cambridge University Press.

2. Thornbury, S. (2002). *How to Teach Vocabulary*. Pearson Education Limited.

3. Harmer, J. (2015). *The Practice of English Language Teaching* (5th ed.). Pearson Education.

4. Richards, J. C., & Renandya, W. A. (Eds.). (2002). *Methodology in Language Teaching: An Anthology of Current Practice*. Cambridge University Press.

5. Chapelle, C. A. (2001). *Computer Applications in Second Language Acquisition*. Cambridge University Press.

6. Beatty, K. (2013). *Teaching and Researching Computer-Assisted Language Learning* (2nd ed.). Routledge.

7. Warschauer, M., & Healey, D. (1998). Computers and language learning: An overview. *Language Teaching*, 31(2), 57–71.

8. Alqahtani, M. (2015). The importance of vocabulary in language learning and how to be taught. *International Journal of Teaching and Education*, 3(3), 21–34.

9. Schmitt, N. (2000). *Vocabulary in Language Teaching*. Cambridge University Press.

10. Dudeney, G., & Hockly, N. (2007). *How to Teach English with Technology*. Pearson Longman.

Footnotes

[1] Nation, I. S. P. (2013). *Learning Vocabulary in Another Language*. Cambridge University Press.

[2] Thornbury, S. (2002). *How to Teach Vocabulary*. Pearson Education Limited.

[3] Chapelle, C. A. (2001). *Computer Applications in Second Language Acquisition*. Cambridge University Press.

[4] Dudeney, G., & Hockly, N. (2007). *How to Teach English with Technology*. Pearson Longman.

[5] Beatty, K. (2013). *Teaching and Researching Computer-Assisted Language Learning*. Routledge.

[6] Schmitt, N. (2000). *Vocabulary in Language Teaching*. Cambridge University Press.

AI POWERED ELEMENTS FOR DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE IN TEACHING ENGLISH AS A FOREIGN LANGUAGE

Rahmonova Feruza Choriyevna

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo'nalishi 1-bosqich magistranti

Annotation. The rapid development of artificial intelligence (AI) technologies has significantly influenced modern education, particularly in the field of teaching English as a Foreign Language (EFL). This article examines the role of AI-powered elements in developing communicative competence among EFL learners. Communicative competence is considered a key objective of contemporary language teaching, encompassing linguistic, sociolinguistic, discourse, and strategic competencies. The study analyzes how AI-based tools such as intelligent tutoring systems, speech recognition software, chatbots, adaptive learning platforms, and

automated feedback systems contribute to enhancing learners’ speaking, listening, reading, and writing skills. The article also discusses the advantages and challenges of integrating AI into EFL classrooms and emphasizes the importance of teachers’ digital competence. The findings suggest that AI-powered technologies, when used pedagogically and ethically, can significantly improve learners’ communicative competence and learner autonomy.

Keywords: *artificial intelligence, communicative competence, EFL, AI-powered learning, language teaching, digital education.*

Annotatsiya. Sun’iy intellekt (AI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi zamonaviy ta’limga, ayniqsa, ingliz tilini chet tili sifatida o‘qitish (EFL) sohasida sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu maqolada AI asosidagi elementlarning EFL o‘quvchilari orasida kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirishdagi roli o‘rganiladi. Kommunikativ kompetentsiya zamonaviy til o‘qitishning asosiy maqsadi hisoblanadi, lingvistik, sotsiolingvistik, nutq va strategik kompetentsiyalarni qamrab oladi. Tadqiqotda intellektual repetitorlik tizimlari, nutqni aniqlash dasturlari, chatbotlar, moslashuvchan o‘rganish platformalari va avtomatlashtirilgan fikr-mulohaza tizimlari kabi AI asosidagi vositalar o‘quvchilarning gapirish, tinglash, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini oshirishga qanday hissa qo‘shishi tahlil qilinadi. Maqolada shuningdek, AI ni EFL sinflariga integratsiya qilishning afzalliklari va muammolari muhokama qilinadi va o‘qituvchilarning raqamli kompetentsiyasining muhimligi ta’kidlanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, AI asosidagi texnologiyalar pedagogik va axloqiy jihatdan qo‘llanilganda, o‘quvchilarning kommunikativ kompetentsiyasi va o‘quvchilarning avtonomiyasini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, kommunikativ kompetentsiya, EFL, AI asosidagi o‘rganish, til o‘qitish, raqamli ta’lim.*

Introduction. In recent decades, the concept of communicative competence has become central to foreign language education. Unlike traditional approaches that focused mainly on grammar and vocabulary, modern language teaching emphasizes the ability to use language effectively in real-life communication. At the same time,

technological advancements, especially in artificial intelligence, have transformed educational practices and learning environments.

Artificial intelligence offers innovative solutions for language learning by providing personalized, interactive, and adaptive learning experiences. In EFL contexts, where learners often lack sufficient exposure to authentic language input and communication opportunities, AI-powered tools can serve as valuable resources. This article aims to explore how AI-powered elements support the development of communicative competence in teaching English as a Foreign Language and how they align with contemporary educational goals.

Communicative competence refers to the ability of learners to use a language appropriately and effectively in various communicative situations. It consists of several interrelated components:

- **Linguistic competence**, which involves knowledge of grammar, vocabulary, and pronunciation;
- **Sociolinguistic competence**, which relates to the appropriate use of language in social and cultural contexts;
- **Discourse competence**, which focuses on coherence and cohesion in spoken and written texts;
- **Strategic competence**, which enables learners to overcome communication difficulties.

Developing these competencies requires meaningful interaction, authentic input, feedback, and learner engagement. However, traditional classroom settings often face limitations such as large class sizes, limited time, and insufficient opportunities for individual practice. This is where AI-powered technologies can play a crucial role.

AI-powered elements in language education include a wide range of tools and systems designed to support learning processes. One of the most significant advantages of AI is its ability to personalize learning according to individual learners’ needs, proficiency levels, and learning styles.

Speech recognition technologies help learners improve pronunciation and fluency by providing instant feedback. Intelligent tutoring systems guide learners

through structured tasks and adjust difficulty levels based on performance. Chatbots simulate real-life conversations, allowing learners to practice speaking in a low-anxiety environment. Adaptive learning platforms analyze learners’ progress and recommend suitable materials, while automated writing evaluation tools assist in improving writing skills by offering corrections and suggestions.

These tools create opportunities for continuous practice, which is essential for developing communicative competence.

AI-powered technologies significantly contribute to the development of all four language skills. In speaking and listening, speech recognition and conversational agents enable learners to engage in interactive dialogues, enhancing fluency and confidence. In reading, AI-based platforms provide customized texts and comprehension activities. In writing, automated feedback systems help learners identify grammatical, lexical, and stylistic errors.

Moreover, AI supports learner autonomy by allowing students to practice independently outside the classroom. This flexibility is particularly beneficial in EFL contexts, where exposure to English may be limited. AI tools also encourage learner motivation through gamification, progress tracking, and immediate feedback.

Despite its advantages, the integration of AI into EFL teaching also presents challenges. Technical issues, lack of access to digital resources, and insufficient teacher training can hinder effective implementation. Additionally, ethical concerns such as data privacy and over-reliance on technology must be carefully addressed.

Teachers play a crucial role in mediating AI use in the classroom. AI should not replace teachers but rather support them by enhancing instructional effectiveness. Therefore, developing teachers’ digital and ICT competence is essential for successful AI integration.

Conclusion. In conclusion, AI-powered elements offer significant potential for developing communicative competence in teaching English as a Foreign Language. By providing personalized, interactive, and adaptive learning experiences, AI technologies help overcome traditional limitations of EFL classrooms. When integrated thoughtfully and pedagogically, AI can enhance learners’ communicative

skills, autonomy, and motivation. Future research should focus on empirical studies and best practices to maximize the benefits of AI in language education while addressing its challenges.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jalolov J.J. Chet tillarni o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 432 b.

2. Ishmuhamedov R., Yo‘ldoshev N. Innovatsion pedagogik texnologiyalar va ta’lim samaradorligi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 256 b.

3. Umarov M., Xudoyberdiyev Sh. Ingliz tilini o‘qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish // Zamonaviy ta’lim. – Toshkent, 2018. – №3. – B. 45–49.

4. O.U. Amanbayeva. O‘zbekistonda chet tili ta’limida sun’iy intellekt vositalarini qo‘llash: datlabki kuzatishlar. Yosh olimlar ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 106-bet.

5. D.A. Ibragimova. Ingliz tilini o‘qitishda kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari. // Development and innovations in science. 54-bet.

6. D.A. Ibragimova. Til o‘qitishda sun’iy intellekt texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari. Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar ilmiy metodik jurnali 58-61 betlar.

7. D.Sh. Shoisayeva. Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’limda xususan til o‘rganishda qo‘llanilishi. Ta’lim maydonida tendensiyalari:kompetensiyalar, innnovatsiyalar va texnologiyalar” nomli xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 51-bet.

8. Fryer L.K., Carpenter R. Bots as language learning tools // Language Learning & Technology. – 2006. – Vol. 10, No. 3. – P. 8–14.

9. Warschauer M., Healey D. Computers and language learning: An overview // Language Teaching. – 1998. – Vol. 31, No. 2. – P. 57–71.

10. Canale M., Swain M. Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing // Applied Linguistics. – 1980. – Vol. 1, No. 1. – P. 1–47.

11. Richards J.C., Rodgers T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014. – 410 p.

12. Bax S., Hubbard P. Technology in Language Education. – London: Routledge, 2019. – 312 p.

13. Luckin R., Holmes W., Griffiths M., Forcier L. Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education. – London: Pearson, 2016. – 210 p.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI

Abduraxmanova Aida Erkin qizi

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti

maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi,

Ilmiy rahbar: ***Ergashova Munisa Hoshim qizi***

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ekologik madaniyatni shakllantirishning zamonaviy mexanizmlari tahlil qilinadi. Bugungi globallashuv va ekologik muammolar keskinlashuvi sharoitida ekologik ong va mas’uliyatni bolalik davridan boshlab rivojlantirish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Muallif maktabgacha yosh davrini shaxsning tabiatga munosabati shakllanadigan muhim bosqich sifatida asoslaydi hamda ekologik tarbiyani tashkil etishda integrativ yondashuv, innovatsion pedagogik texnologiyalar, STEAM elementlari, raqamli vositalar va rivojlantiruvchi muhitning ahamiyatini yoritib beradi. Shuningdek, maqolada ekologik madaniyatni shakllantirishda pedagog va ota-onalar hamkorligining o‘rni, milliy qadriyatlarga tayangan holda ekologik ongni rivojlantirish masalalari ochib berilgan. Maqola xulosalaridan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda hamda maktabgacha ta’lim amaliyotini takomillashtirishda foydalanish mumkin.

Kalit so‘zlar: *ekologik madaniyat, maktabgacha ta’lim, ekologik tarbiya, innovatsion texnologiyalar, integrativ yondashuv, ekologik ong, barqaror rivojlanish.*

Maktabgacha yosh bolalar tabiatan qiziquvchan, yangi narsalarni bilishga intiluvchan bo‘lishadi. Ularning idroki, tafakkuri hamda atrofdagi olamga bo‘lgan qiziqishini ilmiy va tarbiyaviy yo‘lga yo‘naltirish, tarbiyachi-pedagoglarning asosiy vazifasiga kiradi. Zotan, bolalarning ekologik ongini shakllantirishda dastavval tabiat bilan bevosita tanishtirish orqali boshlanadi. Tabiat haqidagi boshlang‘ich bilimlar, o‘simlik va hayvonot olami, yer, suv, havo kabi hayotiy resurslarning ahamiyatini bola kichik yoshidan anglay boshlasa, keyingi bosqichlarda u ekologik tozalik, tabiatni asrash va saqlash zaruriyati borasida barqaror tushunchalarga ega bo‘ladi.

Tabiat bilan tanishtirish mashg‘ulotlari maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni atrof-muhitni o‘rganish, kuzatish, tajriba qilish, ekologik savol-javoblar, kichik loyiha yoki mavzuli mashg‘ulotlar shaklida amalga oshiriladi. Bu jarayonda bolaning kuzatish qobiliyati, tafakkuri, xotirasi va ifoda etish mahorati rivojlanadi. Tabiatni kuzatish orqali bolalarda “nima uchun” va “qanday qilib” kabi savollarga javob topish talab etiladi. Bunday yondashuv esa bolaning aqliy faoliyati va hayotiy pozitsiyasi shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ekologik madaniyatni shakllantirishda tabiat bilan tanishtirish mashg‘ulotlarining birinchi bosqichida bolalarga atrofdagi o‘simlik va hayvonot olamini tanitish, ularni bir-biridan farqlash, turli mintaqalarda uchraydigan tabiat manzaralari haqida tushuncha berish muhim ahamiyatga ega. Bu orqali bolalar avvalo tabiatning xilma-xilligini va go‘zalligini his qiladi, o‘zlarining yashab turgan muhitiga, ona yurt manzaralariga mehr uyg‘otadi. Tabiatni sevish, uning go‘zalligidan bahramand bo‘lish tuyg‘usi esa ekologik tarbiyaning poydevorini tashkil etadi[60]

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida (MTT) ekologik madaniyatni shakllantirishning zamonaviy mexanizmlari interaktiv o‘yinlar, loyihalar metodi, tabiat bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot va ekologik muhit yaratishni o‘z ichiga oladi.

[60] Shakarova Sarvinoz. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ekologik madaniyatni shakillantirishda tabiat bilan tanishtirish mashg‘ulotining ahamiyati // “Ustozlar uchun” elektron jurnal. 157-bet

Asosiy maqsad — bolalarda tabiatga ongli xulq-atvor, ekologik ong va mas’uliyatni erta yoshdan boshlab shakllantirishdir[61].

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ekologik madaniyatni samarali shakllantirish maqsadida quyidagi zamonaviy mexanizmlarni joriy etish maqsadga muvofiq:

Integrativ yondashuvni kuchaytirish: Ekologik tarbiya alohida mashg‘ulot sifatida emas, balki nutq o‘stirish, tasviriy faoliyat, musiqa, jismoniy tarbiya hamda elementar matematika mashg‘ulotlari bilan integratsiyalashgan holda olib borilishi zarur. Bu bolalarda tabiatga nisbatan yaxlit dunyoqarashni shakllantiradi.

STEAM elementlari asosida ekologik ta’limni tashkil etish: Tajriba-sinov, kuzatish, kichik loyihalar (masalan, “Urug‘dan niholgacha”, “Suvni tejaymiz”) orqali bolalarda ekologik tafakkur va tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Rivojlantiruvchi ekologik muhit yaratish: Guruhlarda “Tabiat burchagi”, mini-laboratoriya, ekofaoliyat markazlari tashkil etish; tirik tabiat obyektlari (o‘simliklar, akvarium baliqlari) orqali bevosita kuzatish imkoniyatini kengaytirish.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish: Interaktiv taqdimotlar, animatsion videolar, virtual sayohatlar yordamida bolalarda ekologik tasavvurlarni boyitish. Multimedia vositalari orqali fasllardagi ekologik o‘zgarishlarni ko‘rgazmali tarzda namoyish etish.

Ota-onalar bilan hamkorlikni tizimlashtirish: “Eko-oila” loyihalari, daraxt ekish aksiyalari, chiqindilarni saralash bo‘yicha oilaviy topshiriqlar orqali ekologik madaniyatni oilaviy qadriyat darajasiga ko‘tarish.

Milliy qadriyatlar asosida ekologik tarbiya: O‘zbek xalq og‘zaki ijodi, maqollar, tabiatni asrashga doir an’anaviy qarashlardan foydalanish orqali ekologik ongni milliy ruhda boyitish.

Ekologik monitoring va baholash tizimini joriy etish: Bolalarning ekologik bilim, ko‘nikma va munosabatlarini aniqlash uchun kuzatuv kartalari, diagnostik metodikalardan foydalanish.

[61] Matluba Suyunova. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik etika (Axloq) tuyg‘usini shakllantirishning metodologik asoslari. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 4(7), 146–150. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/zdpp/article/view/80825

Pedagoglarning ekologik kompetentligini oshirish: Tarbiyachilar uchun malaka oshirish kurslari, seminar-treninglar tashkil etish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni o‘rgatish.

Maktabgacha yosh davri ekologik madaniyatni shakllantirishning eng muhim bosqichi hisoblanadi. Aynan shu davrda bolalarda tabiatga nisbatan mehr, mas’uliyat va ehtiyotkorlik kabi qadriyatlar shakllanadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar hamda integrativ metodlar asosida tashkil etilgan ekologik ta’lim jarayoni bolalarning ekologik ongini, tafakkurini va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ekologik madaniyatni shakllantirish jarayoni tizimli, maqsadli va uzluksiz bo‘lishi lozim. Ta’lim-tarbiya jarayonida nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy faoliyat, tajriba va kuzatishlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ota-onalar hamda pedagoglarning hamkorligi esa ushbu jarayonning samaradorligini oshiradi.

Shunday qilib, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ekologik madaniyatni shakllantirishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish nafaqat bolalarning ekologik savodxonligini oshiradi, balki kelajakda atrof-muhitga mas’uliyatli munosabatda bo‘ladigan, ekologik ongli shaxsni tarbiyalashga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. – Toshkent, 2022.
3. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. Ilk qadam: davlat o‘quv dasturi. – Toshkent: 2018. – 112 b.
4. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.
5. To‘xtayeva M. Maktabgacha ta’limda ekologik tarbiya metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 180 b.

6. Rasulova D. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari: Ped. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dis. …avtoref. – Toshkent, 2021. – 48 b.
7. Abdullayeva N. Ekologik ta’lim va barqaror rivojlanish tamoyillari // Pedagogik mahorat. – Toshkent, 2020. – № 4. – B. 45–49.
8. Qodirov B. Maktabgacha ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash // Uzluksiz ta’lim. – Toshkent, 2022. – № 2. – B. 23–27.
9. Suxomlinskiy V. A.. Bolalarga qalbimni beraman. – Toshkent: O‘qituvchi, 1984. – 320 b.
10. Russo Jan-Jak. Emil yoki tarbiya to‘g‘risida. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – 384 b.
11. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris: UNESCO Publishing, 2017. – 63 p.
12. UNICEF. Early Childhood Development and Education Report. – New York: UNICEF, 2019. – 72 p.
13. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi rasmiy sayti. – URL: https://eco.gov.uz (murojaat qilingan sana: 15.02.2026).
14. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim agentligi rasmiy sayti. – URL: https://mpe.uz (murojaat qilingan sana: 15.02.2026).

TAYYORLOV GURUHLARIDA MANTIQIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION METODLARI

Uroqova Zilola Chorshanbiyevna
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti
maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi,
Ilmiy rahbar: ***Ergashova Munisa Hoshim qizi***

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarining tayyorlov guruhlarida bolalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishning innovatsion metodlari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim paradigmasi bolani passiv bilim oluvchi emas, balki faol fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, 6-7 yoshli bolalarda tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, sabab-oqibat bog‘lanishlarini anglash kabi mantiqiy operatsiyalarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada interaktiv o‘yinlar, STEAM elementlari, muammoli vaziyatlar yaratish, loyiha metodi hamda raqamli ta’lim vositalarining samaradorligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *mantiqiy tafakkur, tayyorlov guruhi, innovatsion metodlar, STEAM, muammoli ta’lim, interaktiv o‘yin, maktabga tayyorgarlik.*

Maktabgacha ta’limning tayyorlov bosqichi bolaning maktab ta’limiga muvaffaqiyatli moslashuvi uchun poydevor vazifasini bajaradi. Ayniqsa, 6-7 yosh davrida tafakkur jarayonlari faol rivojlanib, bola atrof-muhitni ongli ravishda idrok eta boshlaydi. Bu bosqichda mantiqiy tafakkurning shakllanishi keyingi o‘quv faoliyatining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi[62]. Amaliy kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy mashg‘ulotlarda ko‘proq tayyor bilimlarni berishga urg‘u beriladi. Natijada bolalarda mustaqil fikrlashdan ko‘ra eslab qolish ustunlik qiladi. Holbuki, zamonaviy ta’lim modeli bolani tahlil qiluvchi, savol beruvchi va xulosa chiqaruvchi subyekt sifatida tarbiyalashni ko‘zda tutadi. Shu bois tayyorlov guruhlarida mantiqiy tafakkurni rivojlantirish uchun innovatsion metodlarni qo‘llash zarurati yuzaga keladi.

Innovatsion metodlar deganda faqat texnologik yangilik emas, balki pedagogik jarayonga yangicha yondashuv – muammoli vaziyat yaratish, interaktiv muloqot, tajriba va kuzatishga asoslangan faoliyat tushuniladi. Masalan, STEAM elementlari asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda bola oddiy kuzatuvchidan faol tadqiqotchiga aylanadi[63]. Konstruktorlar bilan ishlash, tajriba o‘tkazish, modellashtirish orqali sabab-oqibat bog‘lanishlarini anglay boshlaydi. Shuningdek, didaktik va mantiqiy o‘yinlar (klaster tuzish, ortiqchasini topish, ketma-ketlikni aniqlash) bolalarning

[62] Выготский, Л.С.. Мышление и речь. – Москва: Педагогика, 1982. – 287 с.
[63] UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris: UNESCO Publishing, 2017. – 63 p.

taqqoslash va umumlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Raqamli ta’lim vositalari esa vizual va interaktiv muhit yaratib, abstrakt tushunchalarni tushunishni osonlashtiradi. Eng muhimi, bu metodlar bolada qiziqish va ichki motivatsiyani kuchaytiradi. Demak, tayyorlov guruhlarida mantiqiy tafakkurni rivojlantirish jarayoni tizimli, maqsadli va innovatsion yondashuv asosida tashkil etilishi lozim.

Tayyorlov guruhlarida mantiqiy tafakkurni rivojlantirish maktabga sifatli tayyorgarlikning muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion metodlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar bolalarda nafaqat bilim, balki fikrlash operatsiyalarini ham rivojlantiradi. Muammoli vaziyatlar, interaktiv o‘yinlar, tajriba va loyiha faoliyati bolalarning mustaqil qaror qabul qilish, sabab-oqibat bog‘lanishlarini tushunish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Shuningdek, mantiqiy tafakkur rivojlangan bola maktab sharoitiga tezroq moslashadi, o‘quv topshiriqlarini ongli bajaradi hamda o‘z fikrini asoslab bera oladi. Shu bois tayyorlov bosqichida innovatsion metodlardan foydalanish zamonaviy ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalarga tayangan holda quyidagi tavsiyalarni berishni lozim topdik:

1. Tayyorlov guruhlarida har bir mashg‘ulot tarkibiga mantiqiy topshiriqlarni integratsiyalash zarur.
2. Muammoli vaziyat yaratish usulidan muntazam foydalanish, bolani mustaqil xulosa chiqarishga yo‘naltirish tavsiya etiladi.
3. STEAM elementlari asosida kichik loyihalar va tajribalar tashkil etish samarali natija beradi.
4. Interaktiv va didaktik o‘yinlar orqali taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirish lozim.
5. Raqamli vositalardan maqsadli foydalanish, biroq ularni an’anaviy metodlar bilan uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiq.
6. Pedagoglar uchun mantiqiy tafakkurni rivojlantirish metodikasi bo‘yicha amaliy seminar-treninglar tashkil etish zarur.

7. Ota-onalarni jarayonga jalb etib, uy sharoitida mantiqiy o‘yin va mashqlarni davom ettirish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva N. 6–7 yoshli bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish metodlari // Pedagogik mahorat. – Toshkent, 2020. – № 4. – B. 52–57.

2. Давыдов В.В. Проблемы развивающего обучения. – Москва: Педагогика, 1986. – 240 с.

3. Элконин Д.Б. Психология игры. – Москва: Педагогика, 1978. – 304 с.

4. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. Ilk qadam: davlat o‘quv dasturi. – Toshkent, 2018. – 112 b.

5. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

6. Piaget J. The Psychology of the Child. – New York: Basic Books, 1969. – 173 p.

7. Qodirov V. Maktabgacha ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalar // Uzluksiz ta’lim. – Toshkent, 2022. – № 3. – B. 34–39.

8. Rasulova D. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkurni rivojlantirishning pedagogik asoslari: Ped. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2021. – 48 b.

9. To‘xtayeva M. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 256 b.

10. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris: UNESCO Publishing, 2017. – 63 p.

11. UNICEF. Early Childhood Development and Education Report. – New York: UNICEF, 2019. – 72 p.

12. Выготский, Л.С. Мышление и речь. – Москва: Педагогика, 1982. – 287 с.

BOLALARNI RAQAMLAR BILAN TANISHTIRISH

Mirodilova Charos Mirshuhrat qizi

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti

maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi,

Ilmiy rahbar: ***Ergashova Munisa Hoshim qizi***

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni raqamlar bilan tanishtirishning pedagogik ahamiyati va samarali usullari tahlil qilinadi. Raqamlar bilan tanishtirish jarayonida o‘yin, vizual materiallar va interaktiv mashqlar orqali bolalarning matematik fikrlash, e’tibor, xotira va mantiqiy tafakkuri rivojlantiriladi. Shuningdek, maqolada raqamlarni o‘rganish jarayonida tarbiyachilar tomonidan qo‘llaniladigan metodik tavsiyalar va maktabgacha ta’lim muassasalarida qo‘llash mumkin bo‘lgan innovatsion uslublar keltiriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, to‘g‘ri tanlangan o‘quv faoliyati bolalarda matematika asoslarini mustahkamlash va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Kalit so‘zlar: *bolalar, raqamlar, maktabgacha ta’lim, matematik tafakkur, o‘yin metodlari, vizual materiallar, mantiqiy fikrlash, pedagogik texnologiyalar.*

Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan isloh qilish va takomillashtirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarini davlat tomonidan boshqarishning samarali tizimini yaratish hamda uning moddiy–texnika bazasini mustahkamlash maqsadida so‘nggi yilda qabul qilingan qat’iy choratadbirlar natijasida Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi va uning joylardagi hududiy bo‘linmalari tashkil qilindi. Davlatimiz rahbari tomonidan ta’lim tizimining ilk poydevori qo‘yiladigan maktabgacha ta’lim sohasini yangi pog‘onaga olib chiqish, bolalarning iqtidori hamda salohiyatini ilk yoshlardanoq to‘g‘ri yo‘naltirish borasida juda ko‘p tashabbuslar hayotga tatbiq etilmoqda va bu sa’y-harakatlar bolalar ta’lim-tarbiyasida o‘zining ijobiy natijasini bermoqda.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning maktabga tayyorgarligini ta’minlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Ushbu jarayonda bolalarda ilk matematik tasavvurlarni, xususan, son va raqamlar

haqidagi bilimlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamlar dunyosi bilan erta tanishish bolalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini, diqqatini, xotirasini va kognitiv rivojlanishini rag‘batlantiradi[64].

Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish, ularni raqamlar bilan tanishtirish jarayoni nafaqat maktabga tayyorgarlikni ta’minlaydi, balki ularning atrofdagi dunyo haqidagi tushunchalarini kengaytiradi, tahlil qilish va umumlashtirish qobiliyatini rivojlantiradi. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari va innovatsion metodikalardan foydalanish ushbu jarayonni yanada samarali va qiziqarli qilish imkonini beradi. Shu bois, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni raqamlar bilan tanishtirishning nazariy va amaliy asoslarini chuqur o‘rganish, ilg‘or pedagogik tajribalarni tahlil qilish va ularni amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifasidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishida ilk matematik tasavvurlarni shakllantirishning o‘rni beqiyosdir. Bu jarayon shunchaki raqamlarni yodlash yoki sanashni o‘rganishdan iborat emas, balki bolaning kognitiv, ijtimoiy–emotsional va hatto til rivojlanishiga ham chuqur ta’sir ko‘rsatadigan murakkab va fundamental[65] jarayondir. Matematika, ayniqsa, uning dastlabki tushunchalari, bolaning atrof–muhitni tushunishi, mantiqiy fikrlashi va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shveytsariyalik pedagoglardan J.G.Pestalotsi (1746-1827) o‘sha davrda mavjud bo‘lgan, o‘qitish usullarining kamchiliklarini ko‘rsatib, bolalarga ma’lum obyektlarni sanashga, raqamlar ustida amallarni tushunishga o‘rgatishni tavsiya qilgan, vaqtni aniqlashni ko‘rsatgan. U tomonidan taklif qilingan o‘qitish usullari oddiy elementlardan murakkabroq narsalarga o‘tishni, bolalar tomonidan sonlarni o‘zlashtirishni osonlashtiradigan vizualizatsiyani keng qo‘llashni nazarda tutadi[66].

J.G. Pestalotsining g‘oyalari keyinchalik XIX–asr o‘rtalarida maktablarda matematika o‘qitish sohasidagi islohotlarga asos bo‘lib xizmat qildi. F.Frebel (1782–

[64] https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/algebra/bolalarda-miqdor-va-son-sanoq-haqidagi-bilimlarni-shakllantirish-sanashga-o-rgatish

[65] Early Numeracy as a Cornerstone of Long-Term Academic Success - EdSurge.

[66] M.M.Ibroximova. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni son-sanoq bilan tanishtirish usullari. Ta’lim sifati yangi O‘zbekiston taraqqiyotini yanada yuksaltirishning muhim omili. Kokand University ilmiy jurnal 754-bet

1852) va M.Montessori (1870–1952) tomonidan yaratilgan sensor ta’limning klassik tizimlari bolalarni geometrik figuralar, o‘lchamlar, o‘lchash va hisoblash o‘lchami, vazni bo‘yicha ob’yektlar qatorini chizish bilan tanishtirish metodologiyasini taqdim etganlar. M.Montessori o‘z–o‘zini rivojlantirish va o‘z–o‘zini o‘rganish g‘oyalariga tayanib, sonlar, shakllar, o‘lchamlar, shuningdek yozma va og‘zaki raqamlashni o‘zlashtirish uchun maxsus muhit yaratish zarurligini tan oldi. Buning uchun u maxsus materialdan foydalanishni taklif qildi: sanoq qutilari, o‘nlab bog‘langan rangli munchoqlar, tangalar va boshqalar.


Ilk matematik ko‘nikmalar bolalarning miya rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bog‘chaga kirishdan oldin matematik tushunchalarni o‘zlashtirgan bolalar keyinchalik akademik ko‘rsatkichlarda, ayniqsa matematika va o‘qishda, yuqori natijalarni ko‘rsatadilar. Bu shuni anglatadiki, erta yoshdagi matematik tajribalar bolaning kelajakdagi o‘quv muvaffaqiyatlari uchun mustahkam poydevor yaratadi[67].

Kichik yoshdagi bolalar dastlab sonni konkret narsalar bilan bog‘liq holda idrok etadilar. Ular uchun “uch” degani uchta o‘yinchoq, uchta barmoq yoki uchta shirinlik demakdir. Bu –sonning miqdoriy jihati, ya’ni narsalarning sonini anglash. Bu bosqichda bolalar ko‘pincha sanashni yoddan bilishlari mumkin, ammo har bir narsaga bittadan sonni moslashtirish (birma–bir moslik prinsipi) yoki oxirgi aytilgan son butun to‘plamning miqdorini bildirishini (kardinal prinsip) tushunishlari qiyin kechadi.

Bu holatni J. Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasidagi operatsiyadan oldingi bosqich (preoperational stage) bilan bog‘lash mumkin, bu bosqichda bolalar hali mavhum tushunchalarni to‘liq o‘zlashtira olmaydilar va konkret fikrlash ustunlik qiladi[68].

Didaktik o‘yinlar nafaqat matematik ko‘nikmalarni, balki shaxsiy va ijtimoiy sifatlarni ham rivojlantiradi. O‘yin davomida bolalar navbat kutish, qoidalarga rioya qilish, o‘z fikrini izohlash va jamoada ishlashni o‘rganadilar.

[67] https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC5519454/
[68] https://www.simplypsychology.org/piaget.html



Sanashni o‘rganamiz

Ushbu o‘yin bolalar uchun mo‘ljallangan “Kes va o‘ynang” faoliyati bo‘lib, unda bolalar kesish va joylashtirish orqali vizual tafakkur, motor ko‘nikmalar va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradilar. O‘yin varaqadagi rasm kesilgan bo‘laklarga bo‘lingan va raqamlangan: har bir bo‘lakni kesib olib, to‘g‘ri tartibda joylashtirish orqali bolalar to‘liq rasmni qayta tiklashadi. Rasmda rang–barang qal’a tasviri mavjud bo‘lib, uning har bir qismi turli ranglar bilan ajratilgan. Bu o‘yin bolalarga ranglarni ajratish, shakllarni tanish va qo‘l koordinatsiyasini rivojlantirish imkonini beradi. Shuningdek, raqamlar ketma–ketligini kuzatib, tartibni saqlash bolalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini ham oshiradi. Umuman olganda, bu faoliyat nafaqat qiziqarli, balki rivojlantiruvchi xususiyatga ega bo‘lib, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mo‘ljallangan.

Yozish orqali raqamni o‘rganish



Bu o‘yin bolalar uchun mo‘ljallangan ta’limiy mashg‘ulot bo‘lib, asosiy maqsad raqamlarni tanish va yozishni o‘rgatishdir. Unda katta va aniq ko‘rinadigan “5” raqami markazda joylashgan, uning atrofida esa beshta kulgili yulduzsimon baliq tasvirlangan. Bu tasvirlar bolalarga raqamning miqdoriy ma’nosini ko‘rish orqali tushunishga yordam beradi. Pastki qismida esa ikki qatorda yozuv mashqlari berilgan: birinchi raqam to‘liq yozilgan, qolganlari esa kontur shaklida bo‘lib, bolalar ularni chiziq bo‘ylab yozib mashq qilishlari mumkin. Umuman olganda, o‘yin vizual obrazlar va yozuv mashqlari orqali bolalarning raqamlarni tanish, sanash va yozish ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu tarzda, bolalar nafaqat “5” raqamini ko‘rish va sanashni, balki uni to‘g‘ri shaklda yozishni ham o‘rganadilar.

Maktabgacha ta’lim davrida bolalarni raqamlar bilan tanishtirish ularning intellektual va kognitiv rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayon bolalarga sonni tushunish, miqdoriy munosabatlarni idrok etish va oddiy hisoblash ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Tadqiqot va pedagogik amaliyotlar

shuni ko‘rsatadiki, raqamlar bilan tanishtirish nafaqat matematik bilimlarni rivojlantiradi, balki bolalarning diqqat, xotira va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini ham mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduvaliyeva D.A. Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematika ko‘nikmalarini shakllantirish. –Toshkent: Fan, 2018.
2. Alimova N.S. Ta‘lim tarbiya nazariyasi va metodikasi. –Samarqand: SamDU nashr, 2020.
3. Karimov R.Q. Maktabgacha ta‘lim psixologiyasi. –Toshkent: Sharq–Gazeta, 2019.
4. Mamatqulova L.R. Maktabgacha ta‘limda matematika metodikasi. –Buxoro: BuxDU nashr, 2021.
5. Rasulova G.M. Boshlang‘ich matematik tushunchalarni o‘rgatish usullari. – Toshkent: Movarounnahr, 2017.
6. Sobirov A.T. Ta‘limda o‘yin metodlari. –Toshkent: Universitet nashriyoti, 2019.
7. Tursunov E.A. Maktabgacha yoshda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish. – Toshkent: Sharq, 2018.
8. “Bolalar bilan raqamlar” ta‘lim portali. https://www.pedagogportal.uz/raqamlar
9. “Preschool math activities: introduction to numbers” – Early Learning Resource. https://www.earlymath.org
10. UNICEF “Early Childhood Development”. https://www.unicef.org/earlychildhood
11. UNESCO “Mathematics in early childhood education” https://www.unesco.org/education/maths

BO‘LAJAK TARBIYACHILARDA INTERFAOL METODLAR YORDAMIDA KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH

Ergashova Munisa Hoshim qizi
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Tillar va maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
Kamilova Barnoxon Muhammadodil qizi
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti
maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola maktabgacha ta’lim sohasida faoliyat yurituvchi bo‘ladigan tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalasiga bag‘ishlangan. Maqolada interfaol metodlarning samarali qo‘llanilish usullari, jumladan, vaziyatli o‘yinlar, muammoli vaziyatlarni yechish, guruhli mashg‘ulotlar va loyiha ishlari orqali kasbiy malakani oshirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada tarbiyachilarning pedagogik va ijtimoiy kompetensiyalarini baholash va rivojlantirish mexanizmlari, amaliyotda duch kelinadigan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ham keltiriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, interfaol metodlar bo‘lajak tarbiyachilarda nafaqat bilim, balki kommunikatsiya, ijodiy fikrlash va jamoada ishlash ko‘nikmalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *bo‘lajak tarbiyachi, kasbiy kompetensiya, interfaol metodlar, pedagogik malaka, innovatsion yondashuv*.

Maktabgacha ta’lim tizimi jamiyatning eng muhim ijtimoiy institutlaridan biri bo‘lib, unda tarbiyachilarning malakasi va kasbiy kompetensiyalari bevosita bolaning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Bugungi kunda pedagogik jarayonda tarbiyachilarning nafaqat nazariy bilimga, balki amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi talab etiladi. Shu sababli, bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi nafaqat amaliy, balki ilmiy nuqtayi nazardan ham dolzarb hisoblanadi. Interfaol metodlar pedagogik jarayonda bilim berish va ko‘nikma shakllantirishning eng samarali vositalaridan biri sifatida qaraladi. Ushbu metodlar tarbiyachilarning ijodiy fikrlashini, muammolarni hal etish qobiliyatini, jamoada ishlash va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, interfaol metodlar bo‘lajak tarbiyachilarda o‘zini namoyon etish, tashabbus ko‘rsatish va o‘qituvchi sifatida professional o‘sish motivatsiyasini shakllantirishga imkon yaratadi. Shu nuqtayi nazardan, maqolada bo‘lajak tarbiyachilarda interfaol metodlar yordamida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari o‘rganiladi, zamonaviy pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi hamda ularni amaliyotga tatbiq etishning samarali yo‘llari ko‘rsatib beriladi.

R.Sadikovaning tadqiqotida ta’kidlanishicha, interfaol metodlar pedagogik ta’lim jarayoniga integratsiya qilinganda bo‘lajak tarbiyachilarning professional, kommunikativ va kreativ kompetensiyalarini samarali shakllantirish mumkin. Bu yondashuv pedagogik bilim, amaliy ko‘nikmalar va hamkorlik ko‘nikmalarini bir vaqtning o‘zida rivojlantiradi[69].

Vedyashkina A.V. tadqiqotida interfaol va faol o‘qitish metodlari bo‘lajak pedagoglarning umumiy professional hamda kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim omil ekanligi tasdiqlangan[70] – bu metodlar talabalarni o‘zaro muloqotda, hamkorlikda ishlashga va real pedagogik vaziyatlarda qaror qabul qilishga yo‘naltiradi.

“Pedagogik vaziyat” o‘yini

Maqsad: Tarbiyachilarda muammoli vaziyatlarni hal etish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Jarayon: Tarbiyachilar guruhlarga bo‘linadi, ularga maktabgacha ta’lim jarayonida uchrashi mumkin bo‘lgan pedagogik vaziyatlar beriladi. Har bir guruh vaziyatga yechim topib, keyin boshqalarga taqdim qiladi.

“Tarbiyachi va bola”

Maqsad: Tarbiyachilarda kommunikatsiya va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish.

[69] https://eprajournals.com/IJMR/article/18505
[70] https://journals.rcsi.science/2658-4034/article

Jarayon: Tarbiyachilar navbatma-navbat tarbiyachi va bola rolini bajaradi. Mashg‘ulotdan so‘ng guruh bilan refleksiya o‘tkaziladi, muammolar va yechimlar tahlil qilinadi.

“Pedagogik loyiha” o‘yini

Maqsad: Tarbiyachilarda ijodiy fikrlash va guruhda ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish.

Jarayon: Guruhlar bolalar uchun kichik pedagogik loyiha ishlab chiqadi (masalan, o‘yin mashg‘uloti yoki mavzuli dars), so‘ng uni taqdim qiladi va boshqa guruhlar bilan muhokama qiladi.

“Muammoli ssenariy” o‘yini

Maqsad: Tarbiyachilarda tezkor fikrlash va pedagogik qaror qabul qilish qobiliyatini oshirish.

Jarayon: Tarbiyachilarga kutilmagan pedagogik vaziyat beriladi va ular 2–3 daqiqa ichida yechim taklif qilishlari kerak bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abduqodirov, A.A. *Pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlar.* Toshkent: O‘qituvchi, 2020.

2. Akhmedova, M. & Dilmurodova, N. The use of interactive methods in teaching professional speech to students. Linguistics and Culture Review, v5(S2), 1801.

3. Jalilova, S. Interfaol o‘qitish metodlari orqali o‘quvchilarda kommunikativ qobiliyatni rivojlantirish texnologiyasi // “Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali.

4. Karimova, N.M. *Zamonaviy ta’limda interaktiv metodlar.* Samarqand: Innovatsiya, 2019.

5. Meliyev, X.A., Jamoldinova, O. & Riskulova, K. *Tarbiyachining kasbiy kompetenti va mahorati.* Toshkent: O‘quv qo‘llanma, 2021.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA BOSHQARUVNI TASHKIL ETISHNING INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI

Zabiyeva Gulchehra Rustam qizi

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi,

Ilmiy rahbar: ***Ergashova Munisa Hoshim qizi***

Annotatsiya: Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishda yangicha yondashuvlarga asoslanib ta’lim tarbiya jarayonini tashkil etish bugungi kunning asosiy masalasidir. Ushbu maqolada ham boshqarishni tashkil etishning usullari va turlari,innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirish haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *Boshqaruv, menejment, innovatsion boshqaruv, jarayon, takomillashtirish, pedagogik texnologiya, nazorat, direktor.*

Аннотация: организация образовательно-воспитательного процесса на основе новых подходов к управлению системой дошкольного образования-главный вопрос сегодняшнего дня. В данной статье также рассматриваются методы и виды организации управления,совершенствования на основе инновационных педагогических технологий.

Ключевые слова: *Менеджмент, управленческая деятельность, инновационный менеджмент, совершенствование, педагогическая технология.*

Abstract: the organization of the educational process based on new approaches to the management of the preschool education system is the main issue of today.This article also discusses methods and types of management organization, improvement based on innovative pedagogical technologies.

Keywords: *Management, innovative management, improvement, pedagogical technology.*

Zamonaviy ta’lim tizimi nuqtayi nazaridan qaraganda maktabgacha ta’lim tashkiloti unda tashkil etilgan pedagogik jarayonlar hamda tashkilot direktoriga bo‘lgan talablar ham oshib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

2018-yil 30-sentabrda “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3955-son qaroriga muvofiq, shuningdek, maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, to‘laqonli jamiyatga moslashgan bola shaxsini shakllantirish mamlakatimizda o‘sib borayotgan avlodni sog‘lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta’lim-tarbiya jarayoniga samarali ta’lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta’limning samarali tizimini tashkil etish bo‘yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirildi.

Pedagogik ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish ma’lum bir o‘zaro bog‘liq elementlardan iborat bo‘lgan murakkab tizim sifatida qaraladi. Bunday elementlarga uning faoliyatini belgilovchi maqsadlar, vazifalar, vositalar, shakl va usullar, sub'ekt, boshqaruv ob'ekti, tamoyillari va funksiyalari kiradi. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish sharoitida pedagogik jarayonni qurishning o‘ziga xosligini ta’kidlanadi, unda o‘ziga xoslik, bolalar rivojlanishining normal kursi va maktabgacha yoshdagi bolalik davrining o‘ziga xosligi saqlanib qoladi. Ular jamiyatdagi o‘zgarishlar, yangicha tafakkur va dunyoqarashning shakllanishi, psixologiya-pedagogika fanining rivojlanishi bilan bog‘liq holda o‘zgarib boradi. Boshqaruv sub’ektlari faoliyatini belgilaydigan maqsadlar pedagogik jarayonning maqsad va vazifalariga mos keladi: bolaning shaxsiyatini rivojlantirish, uning dunyoni va o‘zini bilishga bo‘lgan ehtiyojini shakllantirish, shuning uchun asosiy shart. maktabgacha ta’lim muassasasining faoliyati bu – jamoaning barcha a’zolari tomonidan bolaning shaxsiyatining o‘ziga xosligini tan olish[71].

Maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarining boshqaruv harakatlari,pedagogik jamoa bilan munosabati,ota-onalar bilan hamkorligi shu kabi boshqa jarayonlar ham bola tarbiyasi uchun juda muhim omillardan hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotida pedagogik jarayonni boshqarish modeli quyidagi xususiyatlarga ega:

Ta’lim va tarbiya jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari;

- Maktabgacha ta’lim va boshlang‘ich ta’lim o‘rtasidagi o‘zaro muvofiqlikni ta’minlash va uyg‘unlashtirish;

[71] https://www.iupr.ru/_files/ugd/b06fdc_e24a303ba6514e6cbc0ce7d8b739d1e7.pdf?index=true

- Maktabgacha ta’lim tashkilotining ijtimoiy- psixologik mas’uliyati;

- Maktabgacha ta’lim tashkilotining jamiyat, oila, maktab, mahalla, oliy o‘quv yurtlari bilan aloqasi, maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatining doirasini kengaytirish;

- Insonparvarlik tamoyiliga asoslangan kattalar va bolalar o‘rtasidagi hamkorlik.

Bundan tashqari, boshqaruv modeliga qo‘yiladigan talablar:

- Uning tez o‘zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy va pedagogik sharoitlarga moslashishi, boshqaruv subyektlariga yangi tuzilmalar va mazmunni tizimga o‘z vaqtida kiritish imkonini beruvchi ochiqligi;

- Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini boshqarishning taqlidchanlik xarakteriga barham berish, ijodkorlik muhitini yaratish, qat’iy tartib-qoidalarga barham berish;

- Ta’lim tashkiloti xodimlari doimiy yangilanishga, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining rivojlanishini ta’minlashga qaratilishi kerak;

- Xodimlar malakasini oshirish va qabul qilish jarayonining shaffofligi.

G‘oyalarning innovatsiyaga aylanishini ta’minlaydigan va bu jarayonni boshqarish tizimini shakllantiradigan faoliyat bu innovatsion faoliyatdir. Innovatsiya jarayoni rivojlanish bosqichlarining yana bir o‘ziga xos xususiyati mavjud. Pedagogik tajribada pedagogik innovatsiyalarni ijodiy qo‘llash alohida o‘qituvchilar ish faoliyatining boshlang‘ich bosqichida namoyon bo‘ladi. Pedagogik innovatsiyalarning mazmuni, uni qo‘llash metodlarini bo‘lajak o‘qituvchilar tajribasiga singdirish muhim ahamiyatga ega.

Ta’lim muassasasi hayotiga pedagogik innovatsiyalarni keng ko‘lamda olib kirish uchun unda yangilik muhitini yaratish, muayyan axloqiy psixologik holatni shakllantirish, tashkiliy, metodik, psixologik xarakterdagi chora tadbirlarni qo‘llash talab etiladi. Shu maqsadda bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ funksiyalarini rivojlantirish, ularni pedagogik innovatsiyalar bilan izchil qurollantirib borish, innovatsion usullarni tahlil va tatbiq qilishga o‘rgatish vazifasini qo‘yish lozim[72].

Boshqaruvni tashkil etish yuzasidan maslahatlar:

- jamoaviy birlikni ta’minlash;

[72] https://www.iupr.ru/_files/ugd/b06fdc_e34346eb72774c3886f37086128a4e9b.pdf?index=true

- uyushqoqlik ruhida ishni tashkil etish;
- pedagogik kengashni tashkil etishda noodatiy shaklda tashkil etish
- ma’naviy marifiy ishlarda o‘zaro tashkilotlar bilan hamkorlikni bog‘lash.

Xulosa qilib aytganda tizimni isloh qilish,takomillashtirish,soha bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish va dunyo tajribasidan o‘rnak olgan holda milliy tarbiya modelini ta’lim tizimida qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.Bugungi zamon pedagogi kreativ fikrga ega, mustaqil va erkin fikr mulohazalarni bayon eta oluvchi,soha yangiliklaridan xabardor bo‘lishi lozim.

Boshqaruvni tashkil etishning innovatsion yondashuvlari quyidagilar:

- STEAM texnologiyalarining joriy etilishi;
- Pedagogik klasterni tashkil etish;
- Integratsion hamkorlikni ta’minlash;
- Axborot texnologiyalardan samarali foydalanish;
- Kompetensiyaviy xususiyatlarini takomillashtirish yuzasidan seminar-treninglar tashkil etish;
- Kattalar→yoshlarga yoshlar – kattalar prinsipi asosida pedagoglar o‘rtasida “Ustoz–shogird” an’anasini takomillashtirish

Boshqaruv jarayoni murakkab va mo‘tadil bo‘lmagan jarayon hisoblanganligi sababli ham uni vaziyatdan kelib chiqqan holda tayinlangan qoidalar asosida qat’iy boshqarish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrda “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3955-son qarori.
2. Novikova G.P. Zamonaviy maktabgacha ta’limni boshqarish shartlar: Maktabgacha ta’lim muassasasi rahbari uchun qo‘llanma.
3. Sh. Sodiqova Maktabgacha pedagogika. – T.: Tafakkur bo‘stoni. -2013.
4. www.ziyonet.uz. www.google.uz

DIFFERENSIAL ADABIY TA’LIM SHAROITIDA BADIIY ASARNI TAHLIL QILISH METODIKASI

Matkarimova Sayyora Shavkatbek qizi

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti v.b.,

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada differensial adabiy ta’limning nazariy-metodologik asoslari, uning umumiy o‘rta ta’lim tizimidagi o‘rni hamda badiiy asarni tahlil qilish metodikasining ilmiy-pedagogik jihatlari keng yoritilgan. Shuningdek, asar tahlilining asosiy komponentlari, yosh xususiyatlarini hisobga olish zarurati, tarixiy asarlarni o‘rganishning metodik tamoyillari va poetik til masalasi atroflicha tahlil etilgan. Differensial ta’lim sharoitida adabiyot darslarining kasbga yo‘naltirish, ijodkor shaxsni shakllantirish va estetik tafakkurni rivojlantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *differensial ta’lim, adabiy ta’lim, badiiy asar tahlili, obraz, syujet, kompozitsiya, poetik til, kasbga yo‘naltirish, estetik tarbiya.*

Bugungi globallashuv jarayonida ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan asosiy vazifalardan biri — o‘quvchining individual qobiliyatini aniqlash va rivojlantirishdir. Shu jihatdan differensial ta’lim modeli zamonaviy pedagogikaning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Adabiyot fani inson tafakkuri, ma’naviyati va estetik didini shakllantirishda alohida o‘rin tutadi. Differensial adabiy ta’lim esa o‘quvchilarning qiziqishi va moyilligiga tayangan holda chuqurlashtirilgan bilim berish, ularni kasbga yo‘naltirish va ijodkorlik salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi — differensial adabiy ta’lim sharoitida badiiy asarni tahlil qilish metodikasining ilmiy asoslarini ochib berish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Differensial adabiy ta’limning nazariy asoslari

Differensial ta’lim — o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etish shaklidir. Adabiy ta’limda bu quyidagilarni nazarda tutadi:

- o‘quv materialini chuqurlashtirib o‘qitish;
- ixtisoslashtirilgan sinflar tashkil etish;
- ijodiy mashg‘ulotlar sonini oshirish;
- mustaqil tahlil va tadqiqot faoliyatini rag‘batlantirish.

Differensial adabiy ta’limning muhim jihati shundaki, u umumiy o‘rta ta’limning asosiy talablarini saqlagan holda, ma’lum yo‘nalish bo‘yicha chuqur bilim beradi. Bu jarayon o‘quvchini oliy ta’limga tayyorlash bosqichi vazifasini ham bajaradi.

Badiiy asarni tahlil qilishning ilmiy-metodik asoslari

Adabiyot darslarida badiiy asarni tahlil qilish markaziy o‘rinni egallaydi. Tahlil jarayoni o‘quvchini asarni shunchaki o‘qishdan ongli ravishda anglash bosqichiga olib chiqadi. Rus adabiyotshunosi Vissarion Belinskiy sezgi va tafakkur birligi haqida fikr yuritar ekan, badiiy asarni idrok etishda hissiy va aqliy qabulning uyg‘unligi zarurligini ta’kidlaydi.

Badiiy asarni tahlil qilishda quyidagi komponentlar muhim hisoblanadi:

1. **G‘oyaviy mazmunni aniqlash** — asarda ilgari surilgan asosiy fikr va maqsadni ochish.
2. **Syujet va voqealar tizimi** — voqealarning rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish.
3. **Obrazlar tizimi** — qahramonlarning xarakteri, ichki kechinmalari va ijtimoiy mavqeini aniqlash.
4. **Kompozitsiya** — asar qismlarining o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish.
5. **Poetik til** — badiiy tasvir vositalari, metafora, epitet, dialog va monologlarni tahlil qilish.

Mazmun va shakl birligi badiiy asarning estetik qiymatini belgilovchi asosiy omildir.

Tarixiy asarlarni o‘rganish metodikasi

Tarixiy mavzudagi asarlar o‘quvchilarni muayyan davr hayoti bilan tanishtirishda muhim manba hisoblanadi. Masalan, Abdulhamid Cho‘lponning Kecha

va kunduz romanida XIX asr oxiri — XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy muhit aks ettiriladi.

Asarni tahlil qilishda yozuvchining yashagan davri, tarixiy sharoiti va dunyoqarashi hisobga olinishi zarur. Aks holda asarning g‘oyaviy yo‘nalishiga to‘g‘ri baho berish qiyinlashadi. Shuningdek, Xurshid Do‘stmuhammadning Mirkomilboyning qazo bo‘lgan namozi hikoyasi jadidchilik g‘oyalarini badiiy umumlashtirish orqali ochib beradi. Asarda obrazlar qarama-qarshiligi, syujet rivoji va kompozitsion yaxlitlik muhim metodik material sifatida xizmat qiladi.

Yosh xususiyatlarini hisobga olish

Pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatadiki, turli yoshdagi o‘quvchilar badiiy asarni turlicha idrok etadi. Adabiyotshunos olim Subutoy Dolimov o‘quvchilarning yosh psixologiyasini hisobga olmasdan turib samarali adabiy ta’limni tashkil etib bo‘lmasligini ta’kidlagan.

5–6-sinf o‘quvchilari voqealar rivojiga ko‘proq qiziqsa, yuqori sinflarda obrazlar tizimi, g‘oyaviy qatlam va poetik til masalalariga e’tibor kuchayadi. Shu bois tahlil jarayoni oddiydan murakkabga tamoyili asosida qurilishi lozim.

Differensial ta’lim va kasbga yo‘naltirish

Differensial adabiy ta’lim o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish orqali ularni jurnalistika, filologiya, tarjimonlik, dramaturgiya kabi sohalarga yo‘naltiradi.

Adabiyot darslarida:

- mustaqil esse yozish,
- matn tahlili,
- badiiy tajriba mashg‘ulotlari,
- ijodiy loyihalar

kabi faoliyat turlari o‘quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantiradi.

Differensial adabiy ta’lim o‘quvchilarning qiziqishi va qobiliyatini hisobga olgan holda chuqurlashtirilgan bilim berishga xizmat qiladi. Badiiy asarni ilmiy asosda tahlil qilish esa estetik tafakkurni rivojlantiradi, mustaqil fikrlashni shakllantiradi va ma’naviy barkamollikni ta’minlaydi.

Mazmun va shakl birligi, obrazlar tizimi, kompozitsiya hamda poetik tilni uyg‘un o‘rganish differensial ta’lim samaradorligini oshiradi. Bu jarayon o‘quvchini nafaqat bilimli, balki ijodkor va ma’naviy yetuk shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Belinskiy V.G. Adabiyot va san’at haqidagi maqolalar. – Moskva: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1954. 523 b.
2. Abdulhamid Cho‘lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1991. 384 b.
3. Xurshid Do‘stmuhammad. Mirkomilboyning qazo bo‘lgan namozi. – Toshkent: Sharq, 2005. 128 b.
4. Subutoy Dolimov. Adabiy ta’lim metodikasi masalalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978. 214 b.
5. Qambarova S. Adabiy-nazariy tushunchalarni o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2010. 176 b.
6. Xodjamqulov U., Botirova Sh. Adabiyot nazariyasini o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Tafakkur, 2018. 240 b.

SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF PREPARING STUDENTS WITH PHYSICAL DISABILITIES FOR PARASPORTS

Ph.D. (PhD), Associate Professor, Acting Z.B. Sabirova,
Tashkent University of Economics and Pedagogy,
Faculty of Languages and Preschool Education

Abstract. The development of parasports has become an important direction in inclusive education and rehabilitation. Preparing students with physical disabilities for parasports requires scientific planning, theoretical understanding, and specialized pedagogical approaches. This article examines the scientific and theoretical foundations of parasport preparation, focusing on adaptive physical education, motivation, psychological readiness, inclusive pedagogy, and training methodology.

The study analyzes key methods used in parasport training programs and highlights results that demonstrate improvements in students’ physical, emotional, and social development. The findings confirm that systematic preparation based on scientific principles enhances athletic performance and promotes social inclusion. The discussion emphasizes the role of teachers, trainers, and institutions in creating effective parasport environments.

Keywords: *parasports, physical disabilities, inclusive education, adaptive training, rehabilitation, physical education*.

In modern society, the integration of students with physical disabilities into education and sports has become a priority for many countries. Inclusive education not only ensures equal access to learning but also supports physical development and social participation. One of the most effective ways to support students with physical disabilities is through participation in parasports.

Parasports provide opportunities for physical rehabilitation, psychological improvement, self-confidence development, and social inclusion. However, successful involvement in parasports requires professional preparation based on scientific and theoretical principles. Traditional physical education programs are often insufficient because they do not fully consider the functional limitations, health conditions, or psychological needs of students with disabilities.

The scientific foundation of parasport preparation is based on adaptive physical education, biomechanics, sports medicine, pedagogical psychology, and rehabilitation theory. The theoretical foundation includes concepts of inclusive pedagogy, motivation theory, competency-based education, and social integration models.

Therefore, the purpose of this article is to analyze the scientific and theoretical foundations of preparing students with physical disabilities for parasports and to identify effective pedagogical and training approaches.

The purpose of research

To explore and systematize the scientific and theoretical foundations for preparing students with physical disabilities for parasports.

The objects of research

To identify key theoretical principles of parasport preparation. To analyze scientific methods used in training students with physical disabilities. To determine the impact of parasport preparation on students’ physical and psychosocial development.

This study uses a qualitative and analytical research design. The research methodology includes the analysis of scientific literature, theoretical synthesis, and pedagogical interpretation.

Literature review of scientific journals, dissertations, and books on parasports and adaptive physical education. Comparative analysis of training models for students with and without disabilities.

Pedagogical observation analysis from inclusive sports environments (based on previously published practical studies).

Data Analysis

The collected information was processed through:

content analysis,

classification of theories and principles,

identification of scientific approaches in parasport preparation.

The analysis revealed that the preparation of students with physical disabilities for parasports is based on several important scientific and theoretical foundations. These foundations are grouped into five main areas.

Adaptive Physical Education Theory

Adaptive physical education is the main theoretical basis for parasport training. It emphasizes:

individualization of training,

correction of motor impairments,

development of functional abilities,

improvement of physical health.

Adaptive training programs allow students to engage in sport while respecting their medical conditions and functional limitations.

Sports Medicine and Rehabilitation Foundations

Sports medicine provides scientific support for safe training. The study found that parasport preparation must include:

regular medical monitoring,

prevention of overtraining,

safe load distribution,

rehabilitation exercises.

Rehabilitation theory supports gradual physical development, helping students restore motor functions or adapt to physical limitations.

Biomechanics and Motor Learning Principles. Biomechanics plays an essential role in selecting suitable parasport activities. Students with physical disabilities often use compensatory movements. Therefore, training must focus on:

correct posture,

safe movement patterns,

balance and coordination development,

muscle strength and endurance improvement.

Motor learning theory supports the idea that repeated practice and feedback improve motor skills, even in students with limited mobility.

Psychological and Motivational Foundations. The results show that motivation is one of the most important factors influencing parasport participation. Psychological theories such as self-determination theory and achievement motivation theory suggest that students are more successful when they experience:

autonomy,

competence,

social support.

Parasports also reduce anxiety, depression, and social isolation. Students develop higher self-esteem and emotional stability through sport participation.

Inclusive Pedagogy and Social Integration Theory

Inclusive pedagogy is another essential theoretical foundation. It supports equal participation and adaptation of sports environments for students with disabilities.

Social integration theory explains that parasports help students:

develop communication skills,

feel part of a community,

gain social recognition.

Inclusive sports training creates a supportive environment where students can interact with peers and develop teamwork abilities.

The findings confirm that preparing students with physical disabilities for parasports is not only a physical training process but also a complex pedagogical and psychological system. Scientific foundations such as adaptive physical education, biomechanics, and sports medicine provide a safe and effective training structure. At the same time, theoretical foundations such as motivation theory and inclusive pedagogy ensure emotional readiness and social adaptation.

The success of parasport preparation depends heavily on individualized training programs. Each student has different functional limitations, health conditions, and psychological needs. Therefore, training must be flexible and based on medical recommendations.

Another important aspect is the role of teachers and coaches. They must have professional competencies in adaptive sport methodology, inclusive communication, and rehabilitation principles. Without specialized training, coaches may unintentionally create unsafe conditions or fail to motivate students effectively.

The discussion also highlights that parasport preparation contributes not only to sports achievement but also to rehabilitation and educational success. Students who regularly participate in parasports demonstrate improved discipline, confidence, and academic motivation.

However, challenges remain. Many institutions lack accessible facilities, adaptive equipment, and trained professionals. These barriers reduce opportunities for students with disabilities. Therefore, government support, institutional policies, and inclusive sport infrastructure development are necessary.

The scientific and theoretical foundations of preparing students with physical disabilities for parasports are based on interdisciplinary knowledge, combining sports science, medicine, psychology, and pedagogy. Adaptive physical education theory,

biomechanics, rehabilitation principles, and inclusive pedagogy play a major role in developing effective training programs.

The preparation process should focus on individualization, medical safety, motivational support, and inclusive environments. Parasports provide significant benefits for physical development, psychological well-being, and social integration. Therefore, educational institutions should strengthen adaptive training systems and create accessible opportunities for students with disabilities.

References.

1. Sherrill, C. (2004). Adapted Physical Activity, Recreation and Sport: Crossdisciplinary and Lifespan. McGraw-Hill.

2. Winnick, J. P. (2011). Adapted Physical Education and Sport. Human Kinetics.

3. DePauw, K. P., & Gavron, S. J. (2005). Disability Sport. Human Kinetics.

4. UNESCO (2020). Inclusive Education: Guidelines for Inclusion and Equity in Education.

BIRINCHI BOSQICH TALABALARI UCHUN CHET TILLARNI O‘QITISHDA RAQAMLI VOSITALAR VA SUN’IY INTELLEKT ILOVALARINING SAMARADORLIGI

Komiljonova Gulhayyo Komiljonovna

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Tillar va maktabgacha ta’lim fakulteti

Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo‘nalishi 1-bosqich magistranti.

Annotatsiya. Maqolaning mazmuni birinchi bosqich talabalariga chet tillarni o‘qitishda raqamli vositalar va sun’iy intellekt (AI) ilovalarining samaradorligini aniqlashga qaratilgan. Zamonaviy ta’lim muhitida raqamli texnologiyalar va AI asosidagi platformalar chet tillarni o‘qitish jarayonining ajralmas qismiga aylanib, ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynamoqda. Maqolada AI

yordamida individual yondashuvni ta’minlash, tezkor va aniq baholash, shuningdek, interaktiv va moslashuvchan o‘rgatuvchi interfeyslar orqali til o‘rganish sifatini oshirish imkoniyatlari yoritiladi. Maqola doirasida ChatGPT, Duolingo, Grammarly kabi zamonaviy AI asosidagi platformalarning chet tilini o‘rganishdagi funksional imkoniyatlari va samaradorligi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *Ingliz tili, sun’iy intellect (AI), ChatGPT, Duolingo, Grammarly, Memrise, Rosetta Stone, Cambridge Dictionary, WordReference, DeepL, ELSA Speak va Quizlet.*

Annotation. This article aims to determine the effectiveness of digital tools and artificial intelligence (AI) applications in teaching foreign languages to first-year students. In the contemporary educational environment, digital technologies and AI-based platforms have become an integral part of foreign language instruction, playing a significant role in enhancing both the quality and effectiveness of education. The article highlights the potential of AI to support personalized learning, provide rapid and accurate assessment, and improve the quality of language learning through interactive and adaptive instructional interfaces. Within the scope of the study, the functional capabilities and effectiveness of modern AI-based platforms – such as ChatGPT, Duolingo, and Grammarly – in foreign language learning are analyzed.

Keywords: *English language; artificial intelligence (AI), ChatGPT, Duolingo, Grammarly, Memrise, Rosetta Stone, Cambridge Dictionary, WordReference, DeepL, ELSA Speak and Quizlet.*

Аннотация. Данная статья направлена на определение эффективности цифровых инструментов и приложений искусственного интеллекта (AI) в обучении иностранным языкам студентов первого курса. В современной образовательной среде цифровые технологии и платформы на основе AI стали неотъемлемой частью процесса преподавания иностранных языков, играя важную роль в повышении качества и результативности обучения. В статье раскрываются возможности применения AI для обеспечения индивидуального подхода к обучению, проведения оперативной и точной оценки знаний, а также повышения качества изучения языка за счёт интерактивных и адаптивных

обучающих интерфейсов. В рамках исследования анализируются функциональные возможности и эффективность современных AI-платформ в изучении иностранных языков, таких как ChatGPT, Duolingo и Grammarly.

Ключевые слова: *английский язык, искусственный интеллект (AI), ChatGPT, Duolingo, Grammarly, Memrise, Rosetta Stone, Cambridge Dictionary, WordReference, DeepL, ELSA Speak, Quizlet.*

XXI asrning ikkinchi o‘n yilligida raqamli texnologiyalar ta’lim sohasini tubdan o‘zgartirdi. Ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi chog‘ida onlayn ta’limga zo‘rlik bilan o‘tish butun dunyo ta’lim sohasi vakillarini raqamli vositalardan faol foydalanishga majbur qildi. Mamlakatimizda ham bu borada samarali ishlar olib borildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-mayda “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni organishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqishga olib chiqish chora-tadbirlari tog‘risida”gi PQ-5117-son qarori qabul qilingan. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “chet tillarini oqitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari tog‘risida” 2021-yil 6-maydagi kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan 23-son yig‘ilishida chet tillarini organish uchun yetarli shart sharoitlar yaratish va chet tillarini o‘rganishni ommalashtirish xususida vazifalar belgilab berilgan.[73]

Zamonaviy pedagogikada sun’iy intellekt texnologiyalarini chet tillarni o‘qitish jarayoniga integratsiya qilish masalasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sun’iy intellekt har bir o‘quvchining o‘rganish uslubi va bilim darajasini tahlil qilib, ularga mos individuallashtirilgan pedagogik yechimlar taqdim etish imkonini beradi. Raqamli ta’lim muhitida bu texnologiyalar til o‘rganish samaradorligini oshirishning asosiy vositasiga aylanib, ta’limning sifatini hamda qamrovini sezilarli darajada kengaytirmoqda. Natijada chet tillarini o‘qitish an’anaviy yondashuvlardan innovatsion, o‘quvchiga yo‘naltirilgan modellarga bosqichma-bosqich o‘tib, yangicha pedagogik yondashuvni shakllantirib bormoqda.

Raqamli vositalarning pedagogik samaradorligini asoslovchi bir necha nazariy

[73] V.X.Shoynazarova. Kasbga yo’naltirilgan ingliz tili o’qitishda zamonaviy talablar va samaradorlik omillari. 2024-yil. 65-bet.

modellar mavjud. Mishra va Koehler tomonidan 2006-yilda ishlab chiqilgan TPACK (Texnologik-Pedagogik-Kontent Bilimi) modeli texnologiya, pedagogika va kontent bilimlarining kesishmasida effektiv ta’lim yuzaga kelishini asoslab bergan.[74] Krashening “Input Hypothesis” nazariyasi chet tillarni o‘qitishda raqamli vositalar va sun’iy intellekt ilovalaridan foydalanishning nazariy asoslarini tushuntirib beradi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, til o‘zlashtirish jarayoni o‘rganuvchiga tushunarli, ammo uning mavjud bilim darajasidan biroz yuqori bo‘lgan kiritma (i+1) taqdim etilganda samarali amalga oshadi.[75] Birinchi bosqich universitet talabalarida til darajasi va o‘rganish tezligi turlicha bo‘lgani sababli, an’anaviy ta’limda bunday moslashtirilgan kiritmani ta’minlash qiyin hisoblanadi. Aynan shu jihatdan sun’iy intellekt asosidagi raqamli platformalar muhim ahamiyat kasb etadi. AI ilovalari talabalar bilim darajasini tahlil qilib, ularga individual moslashtirilgan til materiali, mashqlar va topshiriqlarni taklif etadi. Bu esa Krashen nazariyasidagi “tushunilgan kiritma” tamoyilining amaliyotda samarali tatbiq etilishiga imkon yaratadi. Natijada, talabalarning til o‘zlashtirish jarayoni tezlashadi, motivatsiyasi oshadi va o‘rganish jarayoni tabiiyroq shaklga ega bo‘ladi.

Bugungi kunda chet tilini o‘rgatishda quyidagi raqamli vositalar keng qo‘llanilmoqda: Onlayn platformalar: Duolingo, Memrise, Rosetta Stone kabi dasturlar chet tilini o‘rganishni interaktiv va oson qiladi. Video va audio materiallar: YouTube darslari, podkastlar, audio kitoblar orqali eshitish va tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Raqamli lug‘atlar va tarjima ilovalari: Cambridge Dictionary, WordReference, DeepL kabi resurslar so‘z boyligini oshirish va tarjima qilishda yordam beradi.

O‘tkazilgan tahlillar va eksperimental kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt (AI) texnologiyalari birinchi bosqich universitet talabalarini chet tillarni o‘rganish jarayonida sezilarli darajada qo‘llab-quvvatlaydi. Tadqiqot doirasida o‘rganilgan asosiy AI vositalari — Duolingo, ChatGPT, Grammarly, ELSA Speak va

[74] Mishra, P, & Koehler, M. J. (2006). *Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge.* Teachers College Record, 108(6), chapter 1017–1054.
[75] S.D.Krashen.. *Principles and Practice in Second Language Acquisition. University of Southern California. 1982. chapter 9-15.*

Quizlet — talabalarning til kompetensiyasini rivojlantirishda o‘zining funksional imkoniyatlari bilan samarali ekanligi aniqlangan.

Birinchidan, Duolingo platformasi o‘yinlashtirilgan (gamified) muhit, kundalik eslatmalar va mukofotlash tizimi orqali talabalarni muntazam mashq qilishga rag‘batlantiradi. Mashqlar bosqichma-bosqich murakkablik darajasiga qarab taqdim etiladi, bu esa individual o‘quv darajasiga moslashuvchanlikni ta’minlaydi.

Ikkinchidan, ChatGPT kabi yirik til modellari yordamida talabalar real vaqt rejimida savol-javob, matn tuzish va tahlil qilish orqali yozma va og‘zaki ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Ushbu vosita mustaqil mashg‘ulotlar, topshiriqlar tuzish va grammatik tushuntirishlar uchun ayniqsa samaralidir.

Uchinchidan, Grammarly ilovasi yozma nutqni rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib, grammatik, uslubiy va imloviy xatolarni aniqlab, real vaqt rejimida tahlil va takliflar beradi. Bu o‘quvchilarni tanqidiy fikrlash va o‘z yozmalarini tahlil qilishga undaydi.

To‘rtinchidan, ELSA Speak ilovasi talabalarga talaffuz ustida mustaqil ishlash imkonini beradi. Ilova foydalanuvchi talaffuzini tahlil qilib, noto‘g‘ri aytilgan so‘zlarni ko‘rsatadi va to‘g‘ri talaffuz namunalarini taklif etadi, bu esa talaffuz ko‘nikmalarini mukammallashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

Beshinchidan, Quizlet platformasi talabalarni lug‘at boyligini oshirishga yo‘naltirilgan fleshkartlar, testlar va eslab qolishga yordam beruvchi o‘yinlar orqali individual o‘rganish traektoriyasini shakllantiradi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, raqamli vositalar va sun’iy intellekt texnologiyalari talabalarning motivatsiyasini oshiradi, til o‘rganish jarayonini individuallashtiradi va akademik ko‘nikmalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu topilmalar oliy ta’lim muassasalarida chet tillarni o‘qitish metodikasini takomillashtirish va raqamli hamda AI texnologiyalarini ta’lim jarayoniga samarali integratsiya qilish uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Raqamli texnologiyalar ta’limning shu paytgacha shakllangan, mavjud bo‘lgan modelini butunlay o‘zgartirdi. *Birinchidan,* talaba darsda hech qachon uxlamaydi, chunki darslar interaktiv va qiziqarli tarzda shakllantiriladi. *Ikkinchidan*, sun’iy

intellektdan foydalanishda talaba o‘quv jarayonini o‘ziga moslashtirishi va individuallashtirishi mumkin, bunga an’anaviy darslarda to‘liq erishib bo‘lmaydi. *Uchinchidan,* AI raqamlashtirilgan baholash tizimi o‘qituvchiga o‘qish kursini tezda o‘ziga moslab sozlash, eng samarali ta’lim formatini tanlash imkonini beradi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy darslardan farqli o‘laroq, sun’iy intellekt yordamida o‘quv jarayoni yanada qiziqarliroq va samaraliroq kechadi, qog‘ozdagi zerikarli yozilgan so‘zlar va iboralar o‘rniga, so‘zlar interaktiv formatda o‘rganiladi[76].

Sun’iy intellektning pedagogik va psixologik jihatlari nafaqat o‘quv jarayonini osonlashtiradi, balki psixologik jihatdan ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchi xatodan qo‘rqmasdan mashq qiladi, chunki AI tizimi uni tanqid qilmaydi, balki yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi. Shu bilan birga, interaktiv o‘rganish o‘quvchining diqqatini oshiradi va tahliliy fikrlashni shakllantiradi. Tilshunos olim L. Vygotskiy “inson tafakkuri til orqali rivojlanadi” degan g‘oyani ilgari surgan. Shunday ekan, sun’iy intellekt orqali ko‘p tilli muhit yaratish inson tafakkurining intellektual o‘sishiga xizmat qiladi. J.Bruner esa “interaktiv o‘qitish o‘quvchini faol subyektga aylantiradi” deya ta’kidlagan. Shu nuqtayi nazardan, AI texnologiyalari o‘quvchini faol o‘rganish jarayonining markaziga qo‘yadi.[77]

Sun’iy intellekt (SI) vositalari chet tillarini o‘rganish jarayoniga inqilobiy yondashuvlarni olib kirmoqda. Interaktiv va moslashuvchan AI ilovalari orqali til o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirish ancha osonlashgan. Chet tillarni o‘qitishda AI texnologiyalaridan oqilona foydalanish o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshirish, ta’lim sifatini yaxshilash va individual o‘rganish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Kelajakda AI vositalari o‘qituvchining eng samarali yordamchisiga aylanishi kutilmoqda va ta’lim jarayonini yanada interaktiv hamda shaxsiylashtirilgan shaklga olib keladi.

Shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish nafaqat ta’lim sifatini oshirishga, balki chet tillarni o‘qitishda teng imkoniyatlarni yaratishga ham

[76] Pearson. (2019). Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications. Chapter 110. Retrieved from https://www.pearson.com/content/dam/one-dot-com/one-dot-com/global/Files/news/news-announcements/2019

[77] G.Sodiqova. Raqamli davrda ko‘p tillilik va sun’iy intellekt: chet tillarni o’rganishda innovatsion yondashuvlar. Toshkent-2025. 213-bet. https://conference.uzswlu.uz/conf/article/view/1590/1692

xizmat qiladi. Biroq, ushbu texnologiyalarni joriy etishda axborot xavfsizligi, akademik halollik va ma’lumotlarning ishonchliligi kabi masalalarga alohida e’tibor qaratish zarur. O‘qituvchi va sun’iy intellekt vositalari o‘rtasidagi samarali hamkorlik pedagogik jarayonning muvaffaqiyatini ta’minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Shu bois, sun’iy intellektni ta’lim jarayoniga tatbiq etish metodik va me’yoriy asoslar bilan mustahkam qo‘llab-quvvatlanishi lozim. Natijada chet tillarni o‘qitish jarayoni yanada zamonaviy, moslashuvchan va yuqori samaradorlikka ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi “Chet tillarni o‘rganishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-son qarori.

2. Mishra, P, & Koehler, M. J. (2006). *Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge.* Teachers College Record, 108(6), chapter 1017–1054.

3. S.D.Krashen. *Principles and Practice in Second Language Acquisition. University of Southern California. 1982. chapter 9-15.*

4. V.X.Shoynazarova. Kasbga yo‘naltirilgan ingliz tili o‘qitishda zamonaviy talablar va samaradorlik omillari. 2024-yil. 65-bet.

5. Pearson. (2019). Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications. Chapter 110. Retrieved from https://www.pearson.com/content/dam/one-dot-com/one-dot-com/global/Files/news/news-announcements/2019

6. G.Sodiqova. Raqamli davrda ko‘p tillilik va sun’iy intellekt: chet tillarni o‘rganishda innovatsion yondashuvlar. – Toshkent, 2025. 213-bet.

MODERN METHODS OF USING AUDIO AND VIDEO MATERIALS TO DEVELOP LISTENING COMPREHENSION SKILLS

Scientific Supervisor:
Ph.D. (PhD), Associate Professor, Acting ***S. Israilova****,*
Faculty of Languages and Preschool Education, TIPU
Student: Mirislomova Asila*, Student of Group XTA 22/1,*
Faculty of Languages and Preschool Education, TIPU

Introduction: In recent decades, rapid technological advancement has significantly transformed educational practices around the world. The integration of digital technologies into classrooms has created new opportunities for interactive and student-centered learning. In foreign language teaching, particularly in English language education, technology has become an indispensable tool for developing communicative competence. Among the four essential language skills—reading, writing, speaking, and listening—listening comprehension plays a foundational role because it provides the primary input for language acquisition.

Listening is not merely a passive activity of hearing sounds. It is an active cognitive process that involves decoding phonological signals, recognizing vocabulary and grammatical structures, interpreting intonation patterns, and constructing meaning in real time. Learners often face difficulties in listening comprehension due to rapid speech rate, reduced forms, unfamiliar accents, and limited lexical knowledge. Therefore, effective listening instruction is crucial in foreign language methodology. Traditionally, listening activities were limited to scripted recordings included in textbooks. Although such recordings were helpful for controlled practice, they often lacked authenticity and did not fully reflect real-life communication. Modern audio and video materials, however, provide learners with exposure to authentic language use, natural pronunciation, spontaneous speech, and diverse cultural contexts.[78]

According to Krashen's Input Hypothesis, language acquisition occurs when learners are exposed to comprehensible input slightly above their current proficiency

[78] Brown, H. D. (2007). Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. Pearson Education

level.[79] Audio and video materials provide such meaningful input by presenting language in contextualized and realistic situations. In addition, multimedia tools enhance learner engagement and motivation, which are key factors in successful language acquisition.

The aim of this article is to examine modern methods of using audio and video materials to develop listening comprehension skills in English language learners within the framework of the IMRAD structure.

Method: This study is based on qualitative analysis of contemporary English language teaching methodologies, theoretical literature on listening comprehension, and practical classroom observations.

First, various types of authentic audio materials were analyzed, including podcasts, interviews, news broadcasts, lectures, and conversational dialogues. These materials expose learners to natural speech patterns, connected speech, and different varieties of English. Exposure to authentic audio input improves learners’ ability to recognize reduced forms, assimilation, elision, and intonation patterns.[3]

Second, video-based instruction was examined as an effective strategy for listening development. Videos combine auditory and visual channels, allowing learners to interpret meaning through gestures, facial expressions, and situational context. Visual information supports comprehension, especially when learners encounter unfamiliar vocabulary.[4]

Third, modern listening pedagogy emphasizes structured listening stages:

Pre-listening stage, where teachers activate background knowledge and introduce key vocabulary;

While-listening stage, where learners complete comprehension tasks such as note-taking or answering questions. Post-listening stage, where students summarize information, express opinions, and analyze content.

These stages transform listening from passive reception into active processing. Furthermore, technological features such as subtitles, transcripts, playback speed adjustment, and interactive quizzes were analyzed. These tools promote learner

[79] Krashen, S. (1985). The Input Hypothesis: Issues and Implications. Longman.

autonomy by allowing students to regulate their learning pace and review difficult sections independently. Classroom observations indicate that teachers who systematically integrate multimedia materials report increased student participation, improved listening accuracy, and higher levels of motivation.

Results: The findings demonstrate that modern audio and video materials significantly enhance listening comprehension skills in several ways.

First, authentic audio exposure improves phonological awareness. Students become more familiar with natural speech speed, accent variation, and informal expressions. As a result, they develop stronger decoding skills and greater listening confidence.[80]

Second, video-based instruction enhances contextual comprehension. Visual cues such as body language and environmental context help learners interpret meaning even when they do not understand every word. This reduces anxiety and supports inferencing strategies.

Third, multimedia learning increases vocabulary acquisition and retention. Words encountered in authentic audiovisual contexts are remembered more effectively than isolated vocabulary lists. Repeated exposure strengthens long-term memory.

Another important result is increased learner motivation. Students often perceive multimedia activities as more engaging and relevant than traditional listening exercises. Motivation encourages frequent practice, which directly influences listening proficiency. However, certain challenges were observed. Overreliance on subtitles may reduce listening effort, and excessive multimedia use without pedagogical planning may lead to distraction. Therefore, balanced integration of audio and video resources is essential for optimal results.

Discussio: The results confirm that multimedia-based listening instruction aligns with communicative language teaching principles. Listening is treated as an interactive and strategic process rather than a passive skill.

[80]Richards, J. C. (2008). Teaching Listening and Speaking: From Theory to Practice. Cambridge University Press

According to Mayer's multimedia learning theory, combining visual and auditory input enhances comprehension because information is processed through dual cognitive channels.[6] This explains the effectiveness of video materials in listening instruction.

Moreover, multimedia resources foster learner autonomy. Students can access online listening materials outside the classroom, repeat difficult sections, and select topics based on personal interest. Such independent practice strengthens long-term skill development.

The teacher's role remains critical in guiding learners, selecting appropriate materials, and designing structured tasks. Technology should support pedagogical objectives rather than replace traditional instruction.

In addition, multimedia listening promotes intercultural awareness. Authentic videos introduce learners to diverse cultural perspectives, communication styles, and real-life situations. This exposure enhances not only listening skills but also overall communicative competence.

Conclusion: In conclusion, modern methods of using audio and video materials play a crucial role in developing listening comprehension skills in English language learners. Authentic multimedia input provides meaningful exposure to natural language, improves phonological awareness, increases motivation, and enhances contextual understanding.

Structured listening stages, technological tools, and interactive tasks contribute to effective skill development. Although certain challenges such as distraction and overreliance on subtitles exist, proper pedagogical planning ensures successful implementation. As educational technology continues to evolve, multimedia-based listening instruction will remain a central component of English language teaching methodology.

References

1. Brown, H. D. (2007). Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. Pearson Education.

2. Field, J. (2008). Listening in the Language Classroom. Cambridge University Press.

3. Harmer, J. (2007). How to Teach English. Pearson Longman.

4. Krashen, S. (1985). The Input Hypothesis: Issues and Implications. Longman.

5. Mayer, R. E. (2001). Multimedia Learning. Cambridge University Press.

6. Richards, J. C. (2008). Teaching Listening and Speaking: From Theory to Practice. Cambridge University Press.

7. Vandergrift, L., & Goh, C. (2012). Teaching and Learning Second Language Listening. Routledge.

8. Nation, I. S. P. (2013). Learning Vocabulary in Another Language. Cambridge University Press.

Footnotes

[1] Brown, H. D. (2007). Teaching by Principles.

[2] Krashen, S. (1985). The Input Hypothesis.

[3] Field, J. (2008). Listening in the Language Classroom.

[4] Harmer, J. (2007). How to Teach English.

[5] Richards, J. C. (2008). Teaching Listening and Speaking.

[6] Mayer, R. E. (2001). Multimedia Learning.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA ONA TILI DARSLARIDA INTERFAOL METODLARNI SAMARALI JORIY ETISH

Saydullayeva Sevara Muxammadi qizi

A.Qodiriy nomidagi JDPU

Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim

fakulteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi

+998885865557

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limda ona tili fanini o‘qitishda interfaol metodlarni qo‘llashning dolzarb muammolari, ularning sabablari vailmiy-amaliy yechimlari tahlil qilinadi. Boshlang‘ich sinflarda an’anaviy, reproduktiv usullardaolib boriladi, bu esa o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va nutqiy kompetensiyasinirivojlantirishga to‘sqinlik qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatatadiki, interfaol metodlar-guruh ishlari,muammoli vazifalar, rol o‘yinlar va kommunikativ mashqlar-o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi, muloqot madaniyatini rivojlantiradi va ijodiy tafakkurini shakllantiradi. Shu maqolada dolzarb pedagogik muammo tahlil qilinib, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha amaliy va metodik takliflar berilgan. Tadqiqot natijalari pedagogik jarayonni optimallashtirish va ona tili darslarida yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, ona tili, interfaol metodlar, nutqiy kompetensiya, pedagogik innovatsiya, kompetensiyaviy yondashuv, muammoli vazifa, rolli o‘yinlar, guruh ishlari, nutqiy faollik.*

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi shaxs kamolotining poydevori hisoblanadi. Ona tili darslari o‘quvchilarning tafakkuri, nutqi va savodxonligini shakllantirishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, boshlang‘ich sinfda shakllangan nutqiy ko‘nikmalar keyingi bosqichdagi ta’lim muvaffaqiyatini belgilaydi [1. 45-b.].

Bugungi kunda ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Biroq amaliyotda ona tili darslari ko‘pincha an’anaviy, reproduktiv metodlar asosida olib borilmoqda. Bu esa o‘quvchilarning nutqiy faolligini to‘liq rivojlantirishga to‘sqinlik qilmoqda. Amaliy kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinflarda interfaol metodlardan foydalanish tizimli yo‘lga qo‘yilmagan. Natijada o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va erkin nutq tuzish ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmayapti [2. 78-b.].

Muammoning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi yetarli emasligi;
- darsliklarda ijodiy topshiriqlar ulushining kamligi;

- baholash tizimining ko‘proq nazariy bilimni tekshirishga yo‘naltirilganligi [3. 112-b.].

Interfaol metodlar o‘quvchini ta’lim jarayonining faol subyekti sifatida shakllantiradi. Pedagogik tadqiqotlar interfaol yondashuv o‘quvchilarning kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishini tasdiqlaydi [4. 56-b.].

Nutqiy kompetensiya bu – o‘quvchining o‘z fikrini mantiqiy, ravon va asosli ifoda eta olish qobiliyatidir. U matn yaratish, dialogda qatnashish va muammoli vaziyatlarni hal etish jarayonida shakllanadi [5. 67-b.].

Boshlang‘ich ta’limda ona tili darslarida interfaol metodlarni tizimli joriy etish o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish, mustaqil fikrlash va ijodiy tafakkurini shakllantirishning muhim shartidir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, interfaol metodlar:

– o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantiradi;

– muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini mustahkamlaydi;

– muammoli vazifalarni yechish orqali tanqidiy tafakkurni shakllantiradi;

– darsga qiziqishni oshiradi va o‘quvchilarning faolligini rag‘batlantiradi.

Shu bilan birga, interfaol metodlarni samarali qo‘llash o‘qituvchidan yuqori metodik mahorat talab etadi. Ularni amaliyotga joriy etish uchun: muntazam malaka oshirish kurslari, darslik va qo‘llanmalarda ijodiy topshiriqlarni ko‘paytirish, baholash mezonlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta ko‘rib chiqish, raqamli ta’lim platformalarini integratsiya qilish zarur.

Shunday qilib, interfaol metodlar orqali ona tili darslarini yanada samarali tashkil etish boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning nafaqat nutqiy, balki ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa pedagogik jarayonni modernizatsiya qilish va yuqori natijaga erishishning muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent: 2021. 45-b.

2. Yo‘ldoshev Q. Pedagogik texnologiyalar asoslari. Toshkent: 2022. 78-b.

3. Zokirov Sh. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent: 2020. 112-b.

4. Karimova D. Kompetensiyaviy ta'lim asoslari. Toshkent: 2023. 56-b.

5. Xoliqov A. Raqamli pedagogika. Toshkent: 2024. 67-b.

THE EFFECTIVENESS OF USING INTERACTIVE METHODS IN TEACHING ENGLISH

Scientific Supervisor: *Senior Lecturer* ***D.A.Ibragimova***

Faculty of Languages and Preschool Education, TIPU

Student: Anarbayeva Sabrina *Student of Group XTA 22/1,*

Faculty of Languages and Preschool Education, TIPU

Abstract. This article examines the effectiveness of using interactive methods in teaching English as a foreign language (EFL). The study explores the theoretical foundations of interactive learning, its pedagogical principles, and its impact on learners' communicative competence, motivation, and cognitive engagement. Based on modern educational approaches and empirical research, the paper argues that interactive methods—such as collaborative learning, role-play, problem-based learning, and digital technologies—significantly enhance students' language acquisition. The findings indicate that interactive strategies promote active participation, critical thinking, and meaningful communication, which are essential components of effective language learning in contemporary educational contexts.

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz tilini chet tili (EFL) sifatida o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish samaradorligini tahlil qiladi. Tadqiqot interfaol ta'limning nazariy asoslari, pedagogik tamoyillari hamda uning o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasi, motivatsiyasi va kognitiv faolligiga ta'sirini o'rganadi. Zamonaviy ta'lim yondashuvlari va empirik tadqiqotlarga asoslanib, maqolada hamkorlikda o'qitish, rolli o'yinlar, muammoli ta'lim va raqamli texnologiyalar kabi interfaol metodlar talabalarning til o'zlashtirish jarayonini sezilarli darajada samarali tashkil etishi asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari interfaol strategiyalar faol ishtirok, tanqidiy fikrlash va mazmunli muloqotni rivojlantirishini

ko‘rsatadi, bu esa zamonaviy ta’lim sharoitida samarali til o‘rganishning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Keywords: *interactive methods, English language teaching, communicative competence, student-centered learning, collaborative learning, motivation, EFL instruction.*

Teaching English in the 21st century requires innovative pedagogical approaches that respond to the demands of globalization and digital transformation. Traditional teacher-centered instruction, which primarily focuses on grammar translation and passive memorization, has gradually been replaced by student-centered methodologies that emphasize interaction and communication. Interactive methods are grounded in constructivist theory, which views learning as an active, social process where knowledge is constructed through collaboration and meaningful engagement.

The theoretical foundation of interactive learning can be traced to the works of Lev Vygotsky, who emphasized the importance of social interaction in cognitive development. His concept of the Zone of Proximal Development (ZPD) highlights the role of collaborative activities in enhancing learners’ abilities. Similarly, communicative language teaching (CLT), as proposed by scholars such as Hymes, stresses the development of communicative competence rather than mere grammatical accuracy. Interactive methods align closely with these theoretical principles, as they create opportunities for authentic communication in the classroom.

Interactive methods in English language teaching include pair and group work, role-plays, debates, simulations, project-based learning, brainstorming, case studies, and the integration of information and communication technologies (ICT). These methods shift the focus from the teacher to the learner, encouraging active participation and autonomy. For example, role-play activities allow students to practice real-life communication scenarios, thereby improving fluency and confidence. Group discussions and debates foster critical thinking and help learners articulate their opinions effectively in English.

One of the main advantages of interactive methods is the enhancement of communicative competence. Students develop not only linguistic competence (grammar and vocabulary) but also sociolinguistic and pragmatic skills. Through collaborative tasks, learners are exposed to diverse perspectives and language inputs, which enrich their linguistic repertoire. Moreover, interactive activities reduce anxiety and create a supportive learning environment, especially for shy or introverted students.

Motivation is another significant factor influenced by interactive teaching. Research in educational psychology demonstrates that learners are more motivated when they are actively involved in the learning process. Interactive methods increase intrinsic motivation by making lessons engaging and relevant. The use of multimedia tools, online platforms, and gamification techniques further enhances students’ interest and participation. Digital technologies, such as interactive whiteboards, language learning applications, and virtual classrooms, provide authentic materials and opportunities for real-time communication with native speakers.

Furthermore, interactive learning contributes to the development of higher-order thinking skills. Problem-based learning and project-based activities require students to analyze information, synthesize ideas, and present solutions in English. Such tasks integrate language learning with cognitive development, ensuring deeper understanding and long-term retention of knowledge.

However, the implementation of interactive methods also presents certain challenges. Teachers need adequate training to design and manage interactive activities effectively. Classroom management can become complex, particularly in large groups. Additionally, limited technological resources may hinder the integration of ICT tools. Despite these challenges, the benefits of interactive methods outweigh their limitations when properly implemented.

Empirical studies indicate that students exposed to interactive teaching demonstrate improved speaking proficiency, better listening comprehension, and increased classroom participation compared to those taught through traditional methods. Assessment results often reveal higher achievement levels and greater

learner satisfaction. Therefore, integrating interactive strategies into English language curricula is essential for meeting modern educational standards.

In conclusion, the effectiveness of interactive methods in teaching English lies in their ability to create meaningful communication, foster learner autonomy, and enhance motivation. By promoting collaboration, critical thinking, and practical language use, interactive approaches significantly improve the quality of English language instruction. Educational institutions should encourage teachers to adopt innovative, student-centered methodologies and provide professional development opportunities to ensure successful implementation.

References

1. Brown, H. D. (2007). *Principles of Language Learning and Teaching* (5th ed.). Pearson Education.
2. Harmer, J. (2015). *How to Teach English* (2nd ed.). Pearson Education.
3. Hymes, D. (1972). On communicative competence. In J. B. Pride & J. Holmes (Eds.), *Sociolinguistics*. Penguin.
4. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching* (3rd ed.). Cambridge University Press.
5. Slavin, R. E. (2011). *Educational Psychology: Theory and Practice* (10th ed.). Pearson.
6. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.

YOZMA NUTQ KOMPETENSIYASINING CHET TILINI O‘QITISHDAGI USTUVOR YO‘NALISH SIFATIDAGI TALQINI

Islomova Madina Asqarovna
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti
“Tillar va maktabgacha ta’lim” kafedrasi katta o‘qituvchisi
Email: madinaislomova828@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada yozma nutqning lingvodidaktik mohiyati hamda CEFR (A1–B1) darajalari asosida nemis tilini o‘qitishda yozish ko‘nikmalarini kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda yozma nutqning janr xususiyatlari, uning kommunikativ kompetensiya tarkibidagi o‘rni hamda tarixiy-metodik rivojlanish bosqichlari yoritildi. Nazariy tahlil, qiyosiy metod va pedagogik kuzatuv asosida jarayonli yozish modeli samaradorligi asoslab berildi. Natijalar CEFR deskriptorlariga mos holda yozma kompetensiyani bosqichma-bosqich shakllantirish imkoniyatini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: *yozma nutq, CEFR, kompetensiyaviy yondashuv, kommunikativ kompetensiya, nemis tili, metodika.*

Abstract: This article analyzes the linguodidactic nature of written speech and examines the development of writing skills in teaching German based on the CEFR (A1–B1) levels through a competency-based approach. The study explores the genre characteristics of written discourse, its role within communicative competence, and its historical and methodological stages of development. Based on theoretical analysis, comparative methods, and pedagogical observation, the effectiveness of the process-oriented writing model is substantiated. The findings demonstrate the possibility of systematically developing written competence in accordance with CEFR descriptors.

Keywords: *written discourse, CEFR, competency-based approach, communicative competence, German language, methodology.*

Fikr va axborot tilning grafik vositalari orqali, ya’ni yozma nutq shaklida ifodalanadi. Yozma nutq jarayoni esa shaxsning mantiqiy tafakkuri hamda ijodiy salohiyatining o‘zaro integratsiyasi natijasida yuzaga keladi.Yozma nutqning asosiy vazifasi fikrni aniq, ravon va lo‘nda bayon etishdan iborat. Ushbu jarayon o‘quvchilarning tahliliy fikrlash, dalillash va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Yozma nutq muloqotning bilvosita shakli bo‘lib, og‘zaki nutqdan farqli ravishda bevosita interaksiyani talab etmaydi. Shu bilan birga, u fikrni saqlash, qayta ko‘rib chiqish va tahrirlash imkonini beradi, bu esa refleksiv o‘rganish jarayonini ta’minlaydi. Xorijiy tilni o‘qitishda yozma kompetensiyaning

ahamiyati Common European Framework of Reference for Languages (CEFR)[81] tizimida alohida ta’kidlangan. CEFRga ko‘ra, til egallash jarayoni lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi hamda A1–B1 bosqichlarida yozma ko‘nikmalarni bosqichma-bosqich rivojlantirishni nazarda tutadi.

Kommunikativ kompetensiya nazariyasi Michael Canale va Merrill Swain[82] tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, dastlab grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik komponentlarga ajratilgan. Keyinchalik ushbu tasnif CEFR doirasida uch asosiy komponent – lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik kompetensiyalar shaklida takomillashtirildi. Xorijiy til o‘qitish metodikasi tarixan grammatika-tarjima usulidan boshlab audiolingval, audiovizual va kommunikativ yondashuvlargacha rivojlandi. XX asrning 70-yillaridan boshlab kommunikativ yondashuv yetakchi paradigma sifatida shakllandi. Ushbu yondashuv o‘quvchini ta’lim jarayonining markaziga qo‘yib, real kommunikativ vaziyatlarda tilni qo‘llashni maqsad qiladi.

O‘zbekistonda nemis tilini o‘qitish metodikasini takomillashtirish masalasi so‘nggi yillarda kompetensiyaviy yondashuv asosida keng tadqiq qilinmoqda. Xususan, D.A. Gulomova (2020)[83] o‘z tadqiqotida nemis tilini o‘qitishning metodologik asoslarini tizimli ravishda yoritib, kommunikativ va kompetensiyaviy yondashuvlarning o‘zaro integratsiyasiga e’tibor qaratadi. Muallif til o‘rgatishda nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish zarurligini asoslab beradi. N. Yuldasheva (2021)[84] yozma nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda interaktiv metodlarning samaradorligini tahlil qilib, zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvini kuchaytirishini ta’kidlaydi.

[81] CEFR (Chet tillarni o‘rganish, o‘qitish va baholash bo‘yicha Umumevropa kompetensiyalari) Yevropa Kengashi tomonidan 1989-1996-yillarda ishlab chiqilgan. Uning yakuniy rasmiy hujjati 2001-yilda chop etilgan va Yevropa Ittifoqi tomonidan til darajalarini baholashning xalqaro standarti sifatida foydalanish tavsiya etilgan. https://grantlar.uz/blog/cefr/

[82] CANALE, MICHAEL, Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing, Applied Linguistics, 1980

[83] Gulomova, D. A. (2020). Nemis tilini o‘rganish metodologiyasi. Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

[84] Yuldasheva, N. (2021). Yozma nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda interaktiv metodlar. Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim muassasalari.

Ayniqsa, yozma topshiriqlarni muammoli vaziyatlar asosida tashkil etish kompetensiyaning shakllanishiga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslanadi. A. Khamraev (2019)[85] yozma nutqni o‘rgatishda innovatsion yondashuvlarni taklif etib, til o‘rganishda integrativ va texnologik vositalardan foydalanish samaradorligini ko‘rsatadi. Muallif yozma nutqni shakllantirish jarayonida mantiqiylik, izchillik va kohärenz (bog‘liqlik) masalalariga alohida urg‘u beradi. Shunday qilib, tahlil qilingan adabiyotlar nemis tilini o‘qitishda yozma nutq kompetensiyasini shakllantirishda kompetensiyaviy, innovatsion va interaktiv yondashuvlarning o‘zaro uyg‘unligi muhim ekanligini ko‘rsatadi. Biroq, CEFR talablari asosida A1–B1 darajalarda yozma nutq kompetensiyasini shakllantirishning yaxlit pedagogik mexanizmlari yetarli darajada tizimlashtirilmaganligi mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi. Ushbu tadqiqotlar O‘zbekistonda CEFR standartlariga mos yozma nutq kompetensiyasini shakllantirish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

MDH mamlakatlari olimlaridan I. A. Zimnyaya[86] kompetensiya tushunchasini psixologik-pedagogik jihatdan asoslab, kompetensiyaviy ta’lim modelini taklif qilgan. Galina Kitaygorodskaya[87] esa til o‘qitishda intensiv va kommunikativ metodlarning samaradorligini isbotlagan. Bu yondashuvlar yozma nutqni bosqichma-bosqich rivojlantirishda muhim didaktik asos hisoblanadi.

Xorijiy tilshunoslari va didaktlari orasida Brian North[88] tomonidan ishlab chiqilgan CEFR tizimi til o‘qitishda xalqaro standart sifatida qabul qilingan. Jack C. Richards[89] kommunikativ til o‘qitish nazariyasini rivojlantirgan bo‘lsa, H. Douglas Brown[90] ikkinchi tilni o‘rganish jarayonida yozma va og‘zaki nutq integratsiyasini asoslab bergan. Nemis tili yozma nutqini o‘qitishda maxsus metodik qo‘llanmalar ham muhim ahamiyatga ega. Věra Janíková[91] “Prozessorientierter Schreibunterricht

[85] Khamraev, A. Yozma nutqni o‘rgatish bo‘yicha innovatsion yondashuvlar. Fan va texnologiya.Tashkent: 2019.
[86] Зимняя И. А. Ключевые компетенции как результат образования. Москва, 2004, 20–30- b
[87] Kitaygorodskaya G.A. Методика интенсивного обучения иностранным языкам. Moskva, 1986. 40–70-betlar
[88] Brian North., Peter Lang, 2000., 30–120- B.
[89] Jack C. Richards & Theodore S. Rodger, Approaches and Methods in Language Teaching., Cambridge University Press, 1986 (keyingi qayta nashrlari: 2001, 2014)64–86-betlar
[90] H. Douglas Brown., Principles of Language Learning and Teaching., Longman, New York, 2000 (4-nashr; keyingi nashrlar 2007 va 2014)
[91] Janíková V., Didaktik des Unterrichts Deutsch als Fremdsprache: Eine Einführung. Brno: Masarykova Univerzita. S.24. 2010

im DaF” asarida yozma nutqni jarayonli o‘qitish modelini taklif etgan. Christiane Althoff “Sternstunden Deutsch” to‘plamida nemis tili darslarida kreativ topshiriqlardan foydalanishni tavsiya qiladi. Stefan Schäfer “Methoden Deutsch”[92] kitobida motivatsion va interaktiv metodlarni taqdim etgan. Helmut Johannes Vollmer[93] esa nutq kompetensiyasi va muloqot strategiyalarini rivojlantirish masalalarini tadqiq qilgan.

Tadqiqot metodlari: Tadqiqot quyidagi metodlar asosida amalga oshirildi:

Nazariy tahlil – yozma nutq, kommunikativ kompetensiya va CEFR hujjatlarini o‘rganish. Tarixiy-qiyosiy metod – xorijiy til o‘qitish usullarining evolyutsiyasini tahlil qilish (grammatika-tarjima, audiolingval, kommunikativ yondashuv).

Pedagogik kuzatuv – A1–B1 darajadagi o‘quvchilarning yozma ishlari monitoringi.

Matn tahlili – o‘quvchilar tomonidan yozilgan hikoya, esse, maqola va xat janrlarini lingvistik va pragmatik mezonlar asosida baholash.

Yozma nutq quyidagi janrlar asosida o‘rganildi:

Hikoya (narrativ matn),

Esse (argumentativ matn),

Maqola (ilmiy-publitsistik matn),

Rasmiy va norasmiy xatlar,

Amaliy hujjatlar (hisobot, reja).

Jarayonli yozish modeli (pre-writing, while-writing, post-writing)

Natijalar: Tahlil natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi: Yozma nutq janrlarining tizimli o‘qitilishi o‘quvchilarning mantiqiy izchillik va matn strukturasini shakllantirish ko‘nikmasini rivojlantirdi. A1 darajasida oddiy informativ va shaxsiy xatlar yozish kompetensiyasi shakllandi. A2 bosqichida voqealarni izchil bayon qilish va shaxsiy fikr bildirish qobiliyati rivojlandi. B1 darajasida argumentativ matn tuzish va fikrni dalillash ko‘nikmasi sezilarli darajada yaxshilandi. Grammatik xatolar

[92] Stefan J. Deutsch als Zweitsprache in der Schule: Grundlagen - Diagnose - Förderung. 3. Auflage. Stuttgart.2005
[93] Helmut J., Vollme H., Language and Communication in the European Framework., Council of Europe Publishing, Strasbourg, 2006

kamayishi bilan birga pragmatik moslik darajasi oshdi. Natijalar yozma nutqni kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitish samaradorligini tasdiqladi.

Muhokama: Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, yozma nutqni rivojlantirish faqat grammatik to‘g‘rilikka emas, balki kommunikativ maqsadga muvofiqlikka ham asoslanishi lozim. Kommunikativ yondashuv doirasida yozma nutq real hayotiy vaziyatlar bilan bog‘langan topshiriqlar asosida shakllantirilganda samarali natija beradi. Xatolarni tabiiy o‘rganish jarayonining bir qismi sifatida qabul qilish, ravonlikni aniqlikdan ustun qo‘yish zamonaviy metodik tendensiyalardan biri hisoblanadi. CEFR asosidagi uch kompetensiya – lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik – yozma nutqda integrativ tarzda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun yozma nutqni rivojlantirish jarayoni kompleks yondashuvni talab qiladi.

Xulosa: CEFR (A1–B1) darajalari asosida nemis tilini o‘qitishda yozma nutqni rivojlantirish kompetensiyaviy yondashuv asosida samarali tashkil etilishi mumkin. Jarayonli metodika o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash, ijodkorlik va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantiradi. Kelgusida raqamli texnologiyalar asosida yozma nutqni rivojlantirish va baholash mezonlarini takomillashtirish istiqbolli yo‘nalish sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. CEFR (Chet tillarni o‘rganish, o‘qitish va baholash bo‘yicha Umumyevropa kompetensiyalari) Yevropa Kengashi tomonidan 1989-1996-yillarda ishlab chiqilgan. Uning yakuniy rasmiy hujjati 2001-yilda chop etilgan va Yevropa Ittifoqi tomonidan til darajalarini baholashning xalqaro standarti sifatida foydalanish tavsiya etilgan. https://grantlar.uz/blog/cefr/

2. Canale, Michael, Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing, Applied Linguistics, 1980

3. Gulomova, D. A. (2020). Nemis tilini o‘rganish metodologiyasi. Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

4. Yuldasheva, N. (2021). Yozma nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda interaktiv metodlar. Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim muassasalari.

5. Khamraev, A. Yozma nutqni o‘rgatish bo‘yicha innovatsion yondashuvlar. Fan va texnologiya. Tashkent: 2019.

6. Зимняя И. А. Ключевые компетенции как результат образования. Москва, 2004, 20–30- b

7. Kitaygorodskaya G.A. Методика интенсивного обучения иностранным языкам. Moskva, 1986. 40–70-betlar

8. Brian North., Peter Lang, 2000., 30–120- B.

9. Jack C. Richards & Theodore S. Rodger, Approaches and Methods in Language Teaching., Cambridge University Press, 1986 (keyingi qayta nashrlari: 2001, 2014)64–86-betlar

10. H. Douglas Brown., Principles of Language Learning and Teaching., Longman, New York, 2000 (4-nashr; keyingi nashrlar 2007 va 2014)

11. Janíková V., Didaktik des Unterrichts Deutsch als Fremdsprache: Eine Einführung. Brno: Masarykova Univerzita. S.24. 2010

12. Stefan J. Deutsch als Zweitsprache in der Schule: Grundlagen - Diagnose - Förderung. 3. Auflage. Stuttgart.2005

13. Helmut J., Vollme H., Language and Communication in the European Framework., Council of Europe Publishing, Strasbourg, 2006

XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARI ASOSIDA O‘QUVCHILARDA TAYANCH HAMDA ADABIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Tirkasheva Go‘zal Baxramovna

Chirchiq davat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalq og‘zaki ijodi namunalari asosida o‘quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari ilmiy-nazariy va metodik jihatdan tahlil qilinadi. Kompetensiyaviy

yondashuvning mohiyati, uning zamonaviy ta’lim tizimidagi o‘rni hamda folklor namunalarining tarbiyaviy, axloqiy, estetik va kommunikativ salohiyati asoslab beriladi. Xalq og‘zaki ijodi asosida kompetensiya shakllantirishning mexanizmlari, metodlari va samaradorlik omillari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *kompetensiyaviy yondashuv, xalq og‘zaki ijodi, pedagogik imkoniyat, tayanch kompetensiya, milliy qadriyat, tarbiya, metodika.*

Аннотация. В статье рассматриваются педагогические возможности формирования ключевых и предметных компетенций учащихся на основе образцов устного народного творчества. Анализируется сущность компетентностного подхода, его роль в современной системе образования, а также воспитательный, нравственный, эстетический и коммуникативный потенциал фольклора. Раскрываются механизмы, методы и условия эффективного формирования компетенций средствами народного творчества.

Ключевые слова: *компетентностный подход, устное народное творчество, педагогические возможности, ключевые компетенции, воспитание, методика.*

Abstract. This article examines the pedagogical opportunities of forming key and subject-specific competencies in students through samples of folklore. The essence of the competence-based approach and its role in modern education are analyzed. The educational, moral, aesthetic, and communicative potential of folklore is substantiated. The mechanisms, methods, and effectiveness conditions of competence formation through oral folk art are revealed.

Keywords: *competence-based approach, folklore, pedagogical opportunities, key competencies, education, methodology.*

Globallashuv sharoitida ta’lim tizimi oldiga shaxsning intellektual, ma’naviy va ijtimoiy jihatdan barkamol bo‘lib shakllanishini ta’minlash vazifasi qo‘yilmoqda. Zamonaviy pedagogika fanida bilimga yo‘naltirilgan modeldan kompetensiyaga asoslangan modelga o‘tish jarayoni kuzatilmoqda. Bu jarayon o‘quvchining nafaqat nazariy bilimga ega bo‘lishini, balki uni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatini rivojlantirishni talab etadi.

Shu nuqtayi nazardan, xalq og‘zaki ijodi namunalari o‘quvchilarda milliy va umummadaniy kompetensiyalarni shakllantirishning samarali pedagogik vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Xalq og‘zaki ijodi – millatning tarixiy xotirasi, ma’naviy merosi va ijtimoiy tajribasini o‘zida mujassam etgan noyob tarbiya maktabidir. Mazkur maqolada xalq og‘zaki ijodi namunalari asosida kompetensiya shakllantirishning pedagogik imkoniyatlarini ilmiy asoslash va metodik tavsiyalar ishlab chiqish masalalari tahlilga tortildi.

“Kompetensiya” tushunchasi pedagogik adabiyotlarda shaxsning muayyan faoliyat turini samarali bajarishga tayyorligini ifodalovchi integrativ sifat sifatida talqin qilinadi [1, 52-b.]. U bilim, ko‘nikma, malaka, tajriba hamda shaxsiy sifatlar birligida namoyon bo‘ladi. Ta’lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuv amaliy yo‘naltirilganlik, faoliyatga asoslangan o‘qitish, integrativlik, natijaviylik kabi tamoyillarga asoslanadi.

Adabiy ta’lim jarayonida o‘quvchilarda shakllantirilishi lozim bo‘lgan tayanch kompetensiyalar quyidagilardan iborat:

1. Kommunikativ kompetensiya;
2. Axborot bilan ishlash kompetensiyasi;
3. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi;
4. Milliy va umummadaniy kompetensiya;
5. Shaxsiy o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi.

Mazkur kompetensiyalarni rivojlantirishda xalq og‘zaki ijodi boy didaktik imkoniyatlarga ega. Kezi kelganda, xalq og‘zaki ijodining tarbiyaviy va pedagogik salohiyati haqida so‘z yuritganda xalq og‘zaki ijodi asrlar davomida shakllangan ijtimoiy-tarbiyaviy tajribani o‘z mazmun-mundarijasida mujassamlashtirishini qayd etish o‘rinli bo‘ladi. Mazkur jihatlar folklorning quyidagi janrlari mazmunida namoyon bo‘ladi: ertaklar, dostonlar, maqollar, topishmoqlar, rivoyatlar, afsonalar, latifalar, marosim qo‘shiqlari.

Masalan, xalqimizning qahramonlik eposi namunasi hisoblangan “Alpomish” dostonida mardlik, vatanparvarlik, sadoqat va iroda kabi fazilatlar ulug‘lanadi. Ushbu

asarni o‘rganish jarayonida o‘quvchilarda faol fuqarolik pozitsiyasi, milliy o‘zlikni anglash hamda axloqiy baholash ko‘nikmalari shakllanadi.

Folklor namunalarining adabiy ta’lim dasturida berilishi hamda pedagogik jarayonda o‘rganilishining didaktik ahamiyati quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi:

a) axloqiy-etik tarbiya – ertaklarda yaxshilik va yomonlik qarama-qarshiligi orqali ijtimoiy me’yorlar singdiriladi. Qahramonlarning xatti-harakatlari tahlili o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi [2, 83-b.].

b) nutq va tafakkur rivoji - maqollar qisqa, lo‘nda va chuqur ma’noga ega bo‘lib, mantiqiy fikrlashni faollashtiradi. Topishmoqlar esa analitik tafakkurni rivojlantiradi.

c) estetik tarbiya – doston va qo‘shiqlar badiiy tasvir vositalari orqali estetik didni shakllantiradi.

d) ijtimoiy kompetensiya rivoji – folklor namunalarida jamoaviylik, hamkorlik va birdamlik g‘oyalari ilgari suriladi [3, 117-b.].

Adabiyot fani bo‘yicha xalq og‘zaki ijodi asosida tarbiyalanuvchilarda tayanch va adabiy kompetensiyalarni shakllantirishni quyidagi mexanizmlar orqali amalga oshirish mumkin bo‘ladi:

1. **Identifikatsiya mexanizmi** – o‘quvchining qahramon bilan o‘zini qiyoslash jarayoni.
2. **Refleksiya mexanizmi** – voqealarni tahlil qilish orqali shaxsiy xulosa chiqarish.
3. **Faoliyat mexanizmi** – sahnalashtirish, muhokama, loyiha ishlari orqali amaliy tajriba orttirish.
4. **Integratsiya mexanizmi** – adabiyot, tarix, ma’naviyat fanlari bilan bog‘liqlik.

Yuqorida keltirilgan tayanch kompetensiyalarni shakllantirishni amalga oshirish jarayoniga amaliy-metodik jihatdan yondashilganda, ya’ni kompetensiyaviy yondashuv asosida folklordan foydalanishda quyidagi noan’anaviy va interfaol metodlar ko‘proq samara berishi o‘z tasdig‘ini topdi:

- Muammoli savollar asosida tahlil;

- Rolli o‘yin va dramatizatsiya;
- Klaster va konseptual xaritalar tuzish;
- Loyiha metodi;
- Debat va bahs-munozara.

Masalan, maqollarni zamonaviy hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lab muhokama qilish kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyani rivojlantiradi.

Mazkur jarayonda quyidagi pedagogik shart-shartlar samaradorlikni ta’minlaydi:

- o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olish;
- dars mashg‘ulotlari jarayonida interfaol metodlardan o‘z o‘rnida to‘g‘ri va unumli foydalanish;
- mashg‘ulotlarda milliy qadriyatlarga hurmat muhitini yaratish;
- baholash mezonlarini kompetensiyaviy natijalar asosida ishlab chiqish.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, xalq og‘zaki ijodi namunalari asosida tayanch va fanga doir adabiy kompetensiyalarni shakllantirish zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Folklor namunalari o‘quvchilarda nafaqat bilim, ko‘nikma va malakalarni, balki mustaqil fikrlash, axloqiy pozitsiya, ijtimoiy faollik va milliy o‘zlikni anglash kabi sifatlarni rivojlantiradi. Kompetensiyaviy yondashuvni xalq og‘zaki ijodi bilan integratsiyalash ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi va shaxs kamolotini ta’minlaydi.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga tayangan holda quyidagi tavsiyalarni berish mumkin bo‘ladi:

1. Folklor namunalarini mavzuga mos ravishda tanlash.
2. Har bir darsda kamida bitta kompetensiyani maqsadli rivojlantirish.
3. Baholash mezonlarini faoliyat natijasiga asoslash.
4. Integrativ dars shakllaridan foydalanish.
5. O‘quvchilarning ijodiy mustaqilligini qo‘llab-quvvatlash.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zunnunov A. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010. – 256 b.

2. Yo‘ldoshev Q. Folklor va tarbiya masalalari. – Toshkent: Fan, 2015. – 180 b.

3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. - Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.

4. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – 320 b.

5. Saidahmedov N. Pedagogik mahorat va kompetensiya. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2018. – 214 b.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA O‘YINGA ASOSLANGAN MUHITNING AVZALLIGI

O‘tayev Akram Yo‘ldoshevich

TIPU, “Tillar va maktabgacha ta’lim” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d

Turg‘unova Dinara Doniyor qizi,

Oltiboyeva Maftuna Mansur qizi

TIPU, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari

Annotatsiya: Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yinga asoslangan muhit muammosini tadqiq etish zaruriyat bo‘lib turibdi. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yinga asoslangan muhitni tashkil qilish innovatsion va pedagogik masalalardan biri ekanligi, o‘yinga asoslangan muhitning amzalligi hamda ushbu muammoni tadqiq etish zaruriyati haqida fikr yuritiladi.

Tayanch iboralar: *maktabgacha ta’lim, o‘yinga* asoslangan muhit, innovatsiya, strategiya, joriy etish, amaliyot, zaruriyat, davlat, nodavlat.

Аннотация: В настоящее время исследование проблемы игровой среды в дошкольных образовательных организациях является актуальной необходимостью. В данной статье рассматривается организация игровой среды в дошкольных учреждениях как одна из важных инновационных и

педагогических задач. Также анализируются преимущества игровой среды и обосновывается необходимость дальнейшего изучения данной проблемы.

Ключевые слова: *дошкольное образование, игровая среда, инновацияя, стратегия, внедрение, практика, необходимость, государственный, негосударственный*.

Abstract: The issue of studying a play-based environment in preschool educational institutions remains highly relevant. This article discusses that organizing a play-based environment in preschool institutions is one of the important innovative and pedagogical challenges. It also examines the advantages of a play-based environment and highlights the necessity of conducting research on this issue.

Key words: *preschool education, play-based environment, innovation, strategy, implementation, practice, necessity, state, non-state*.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida bola ongi va tafakkurini, axloqiy va madaniy saviyasini oshirish, muammolarni hal etishga yo‘naltirish ta’lim va tarbiyaning yaxlit tizimini yaratish va amaliyotga joriy etish zaruriyati soha mutaxassislarini ilmiy-pedagogik izlanishlarga da’vat etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-iyundagi PQ-232-son “O‘zbekiston 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi qarorida maktabgacha ta’lim tashkilotlarini 2030-yilga qadar sifatli rivojlantirish vazifalari qo‘yilgan, bu vazifalarning asosiylarini maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta’lim bilan to‘liq qamrab olish, mazkur tizimda ta’lim va tarbiyaning innovatsion shakllarini joriy etish hamda davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini kengaytirish ustuvor masala sifatida qaralgan. Shu jihatdan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yinga asoslangan muhitni tarkib toptirish va uning vositasida bolalarni yangi O‘zbekiston sharoitiga mos ravishda tarbiyalash masalalari dolzarb bo‘lib turibdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi PF-19-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida bolalarni o‘yinga yo‘naltirilgan ta’lim asosida milliy g‘urur va Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash ko‘zda tutilgan.

O‘yinga asoslangan muhit bu – bolaning tabiiy ehtiyojlari, qiziqishlari va faolligini hisobga olgan holda tashkil etilgan pedagogik makondir. Bunday muhitda ta’limiy vazifalar o‘yin shaklida amalga oshiriladi va bola faol ishtirokchi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘yin jarayonida bola tahlil qiladi, taqqoslaydi, muammoni hal etadi va qaror qabul qiladi. Bu esa tafakkurni rivojlantirish bilan birga bolaning mantiqiy fikrlash qobiliyatini kuchaytiradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yinga asoslangan muhitni tashkil qilish innovatsion va pedagogik masalalardan biridir. Chunki mazkur masalada quyidagilar idrok etilishi kerak:

1) muhit deganda tarbiyachilar, maktabgacha ta’lim tashkilotlari xodimlari, ota-onalar va ta’limdan manfaatdor shaxslarning hamkorlikda o‘ziga xos tarbiyaviy makonni yaratish nazarda tutiladi;

2) mana shunday tarbiyaviy makonda o‘yinga asoslangan muhitni tashkil qilish va unda noan’anaviy shakllaridan foydalanish;

3) o‘yinning ta’limiy, tarbiyaviy, innnvatsion va amaliy shakllaridan foydalangan holda maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash;

4) o‘yinga asoslangan muhit vositasida tarbiyalanuvchilarning bilimlar tushunchasini, axloqiy ko‘nikmasini va ijtimoiyligini hozirgi zamon talablari asosida shakllantirish;

5) o‘yinga asoslangan muhitning individual metodikalarini yaratish. Bularning barchasi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yinga asoslangan muhit muammosini innovatsion yondoshuvlar asosida ilmiy, amaliy va metodik jihatdan tadqiq etishni taqoza etadi.

Mamlakatimizda 2025-yil holatiga ko‘ra bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrob olish darajasi 78 foizni tashkil qiladi. Ayni paytda mazkur tizimda tarbiya jarayonini kuchaytirish, davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatining samaradorligini oshirish hamda tizimni oliy ma’lumotli pedagog kadrlar bilan ta’minlash masalalari innovatsion yondoshuvlar asosida hal etilishi dolzarb bo‘lib turibdi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning to‘laqonli rivojlanishi uchun uning o‘z tashabbusi bilan yuzaga keladigan va rivojlanadigan havaskor, birdan o‘ylab topiladigan o‘yinlar zarur. O‘yin pedagogik shakl sifatida (tarbiyachi tomonidan tashkil etilgan) ta’lim va tarbiya vazifalarini hal qilishga yordam beradi, ammo havaskorlik o‘yinidan ajralgan holda u rivojlanishni ta’minlay olmaydi. O‘yindan faqat Dasturni amalga oshirish vositasi sifatida foydalanish bolalarda zarur maqsadli yo‘nalishlar shakllanmasligiga olib keladi, bunday bola, u bilan faol ishlashga qaramay, amalda maktabdagi ta’limga tayyor bo‘lmaydi. Shu jihatdan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yinga asoslangan muhit muammosini tadqiq etish zaruriyati quyidagilar bilan belgilanadi:

Birinchidan, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yinga asoslangan muhitni tashkil qilishning nazariy asoslarini tadqiq etish va unda muammoga doir xorijiy hamda milliy munosabatlarni belgilash;

Ikkinchidan, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yinga asoslangan muhit muammosining didaktik xususiyatlarini tahlil qilish va unda bolalarning bilim va ko‘nikmalarini tezkor shakllantirishning ta’limiy shakllarini ishlab chiqish;

Uchinchidan, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yinga asoslangan muhitning metodik masalalarini o‘rganish va ta’limiy o‘yin, tarbiyaviy o‘yin, faoliyatga yo‘naltirilgan o‘yin, individual o‘yin hamda guruhli o‘yin shakllarini asoslash;

To‘rtinchidan, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yinga asoslangan muhitning imkoniyatlaridan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish va bu mexanizmlarning samaradorligni ta’minlovchi tizimlarini yaratish;

Beshinchidan, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yinga asoslangan muhitning samaradorligini baholash va maktabgacha yoshdagi bolalarning tarbiyalanganlik ko‘rsatgichlarini tashxislash.

Oltinchidan, bolalarning faoliyatni, birgalikdagi faoliyat ishtirokchilarini erkin tanlashi uchun shart-sharoitlar yaratish;

Yettinchidan, bolalarning tashabbuskorligi va mustaqilligini turli faoliyat turlarida (o‘yin, tadqiqot, loyiha, bilish va boshqalar) qo‘llab-quvvatlash;

Sakkizinchidan, bolalarning spontan o‘yinini qo‘llab-quvvatlash, uni boyitish, o‘yin vaqti va makonini ta’minlash.

Hozirgi zamon maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishning turli shakllaridan foydalanilmoqda. Shu jihatdan o‘yinga asoslangan ta’lim va tarbiya shakllari keng joriy etilgan. Biroq maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yinga asoslangan muhitni tarkib toptirish va uning ishtirokchilari hamda ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini belgilash muammosini tadqiq etish dolzarb bo‘lib turganligini ta’kidlash lozim.

Albatta, “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti” talablari maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanish qonuniyatlariga zid kelishi mumkin emas. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartlarining asosiy maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish sharoitlarini boyitishdir.

O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish jarayonida zamonaviy maktabgacha ta’lim tizimida o‘yin asosiy pedagogik usul sifatida qaralib, o‘yinga asoslangan ta’limni joriy etish bo‘yicha yangi metodikalarini joriy etish davr talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston -2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi 2023-yil 11-iyundagi PQ-232-son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevralda “Maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-19-son farmoni.

3. O‘tayev A. Maktabgacha ta’lim muassalarida pedagogik jarayonlarni takomillashtirish. “Pedagoglarning ehtiyojlarga asoslangan uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimi: ilg‘or tajribalar va rivojlanish istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. – Sirdaryo, 2024-yil 16-oktabr.

4. O‘tayev A. Maktabgacha ta’limni rivojlantirishning yangi tamoyillari. Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. 2026-yil 2(2)-son.

“GAME TECHNOLOGIES IN TEACHING ENGLISH TO PRIMARY SCHOOL STUDENTS”

Jurambekova Sabrina Tolibjonovna

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Tillar va maktabgacha ta’lim fakulteti

Xotijiy til va adabiyoti yo‘nalishi 4-bosqich talabasi 942081305

sabrinaabbosova7@gmail.com

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations, pedagogical principles, methodological features, and practical effectiveness of using game technologies in teaching English to primary school students. Special attention is given to psychological characteristics of young learners, communicative competence development, and the integration of digital and non-digital game elements into the educational process [1:15]. The article also discusses advantages, challenges, and methodological recommendations for effective implementation.

Key words: *game technologies, gamification, primary education, English language teaching, communicative competence, digital learning.*

Abstrakt. Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'qitishda o'yin texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari, pedagogik tamoyillari, metodologik xususiyatlari va amaliy samaradorligini tahlil qiladi. Yosh o'quvchilarning psixologik xususiyatlariga, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga va raqamli va raqamli bo'lmagan o'yin elementlarini ta'lim jarayoniga integratsiyalashga alohida e'tibor qaratilgan [1:15]. Maqolada shuningdek, samarali amalga oshirish uchun afzalliklar, qiyinchiliklar va metodologik tavsiyalar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: *o‘yin texnologiyalari, o‘yinlashtirish, boshlang‘ich ta’lim, ingliz tilini o‘qitish, kommunikativ kompetensiya, raqamli o‘rganish.*

Introduction

In contemporary education, the modernization of teaching methodologies has become a fundamental requirement [8:22]. The rapid development of digital technologies and globalization processes have significantly influenced foreign

language education. English, being an international language of communication, requires effective and innovative teaching approaches from the earliest stages of schooling. Primary school learners possess specific cognitive and psychological characteristics that differentiate them from adolescent and adult learners [9:21]. Their learning process is closely connected with emotional engagement, play activity, imagination, and social interaction. Therefore, traditional explanatory methods may not fully satisfy their developmental needs.

Game technologies represent an effective pedagogical tool that integrates educational objectives with interactive and motivational elements [1:22]. The use of games in foreign language teaching is supported by both psychological theory and modern methodological research. Properly organized game-based instruction enhances learners’ motivation, improves retention, and develops communicative competence.

Theoretical Foundations of Game-Based Learning

According to Jean Piaget’s theory of cognitive development, children actively construct knowledge through interaction with their environment [2:44]. Learning occurs most effectively when children manipulate objects, explore situations, and solve problems. In this context, games provide a natural medium for intellectual development.

Lev Vygotsky emphasized the importance of social interaction and the concept of the “Zone of Proximal Development” [3:86]. Game activities often involve collaboration, dialogue, and peer support, which facilitate language acquisition within a supportive environment.

Modern foreign language methodology highlights communicative competence as the primary goal of instruction [4:25]. Game technologies align with the principles of Communicative Language Teaching (CLT), as they create meaningful communicative situations. Research in motivational strategies demonstrates that positive emotional engagement significantly increases learning efficiency [5:51]. Game elements such as points, levels, and rewards contribute to intrinsic motivation and sustained interest.

Classification of Game Technologies in Primary English Teaching

1. Digital Game-Based Learning

Digital technologies are increasingly integrated into primary education. Interactive platforms such as Kahoot!, Quizlet, and Duolingo allow teachers to organize vocabulary practice, grammar revision, and formative assessment in an engaging manner.

Digital games provide: Immediate corrective feedback, multimedia support (audio, video, animation), individualized pacing, and automated performance tracking.

Scholars note that digital game-based learning enhances learner autonomy and increases participation rates.

2. Gamification Techniques

Gamification refers to the application of game elements within non-game educational contexts. In primary classrooms, gamification may include: point systems, achievement badges, level progression, leaderboards, and reward charts.

Such systems encourage consistent engagement and foster responsibility. However, it is important that extrinsic rewards do not replace intrinsic motivation.

3. Role-Playing and Simulation Activities

Role-playing activities simulate authentic communicative situations, such as visiting a doctor, shopping, or introducing oneself. These activities promote communicative competence by encouraging spontaneous language use.

Role-play contributes to development of speaking fluency, reduction of language anxiety, improvement of pronunciation, and social skill development.

4. Physical and Movement-Based Games

Young learners demonstrate higher concentration levels when physical movement is integrated into lessons. Activities such as “Simon Says,” vocabulary relay races, and action songs combine language practice with kinesthetic learning.

Research indicates that multisensory learning enhances memory retention and cognitive processing.

Development of Language Skills Through Game Technologies

Vocabulary Acquisition: Vocabulary learning is fundamental in primary education. Repetitive exposure through interactive games strengthens lexical retention [7:63];

Grammar Practice: Grammar structures can be practiced through sentence-building games, interactive quizzes, and collaborative competitions;

Listening and Pronunciation: Audio-supported games improve phonological awareness and listening comprehension;

Speaking Skills: Role-play and storytelling games encourage oral communication and confidence building;

Reading and Writing: Word puzzles, matching exercises, and digital storytelling activities develop literacy skills;

Advantages of Game Technologies provide increased learner motivation, positive emotional classroom climate, development of communicative competence, support for differentiated instruction, enhancement of creativity and critical thinking, and improved long-term retention. Empirical studies confirm that students exposed to game-based learning demonstrate higher engagement and academic achievement.

Conclusion

Game technologies constitute an essential component of modern primary English education. Their theoretical justification is grounded in psychological and pedagogical research. When systematically integrated into the curriculum, games facilitate language acquisition, enhance communicative competence, and create a supportive learning environment.

Therefore, the implementation of game technologies should not be considered merely an optional supplement but rather a strategic pedagogical approach aligned with contemporary educational standards.

References:

1. Wright, A., Betteridge, D., & Buckby, M. Games for Language Learning. Cambridge, 2006.
2. Piaget, J. The Origins of Intelligence in Children. New York, 1952.
3. Vygotsky, L. S. Mind in Society. Harvard University Press, 1978.

4. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge, 2014.
5. Dörnyei, Z. Motivational Strategies in the Language Classroom. Cambridge, 2001.
6. Prensky, M. Digital Game-Based Learning. McGraw-Hill, 2001.
7. Nation, I. S. P. Learning Vocabulary in Another Language. Cambridge, 2001.
8. Harmer, J. How to Teach English. Pearson, 2007.
9. Cameron, L. Teaching Languages to Young Learners. Cambridge, 2001.

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Abdurahmonova Laylo Toyir qizi
A.Qodiriy nomidagi JDPU
Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada boshlang‘ich ta’lim ona tili darslarida interfaol metodlarni samarali joriy etishning nazariy, metodik va huquqiy asoslari yoritiladi. Boshlang‘ich ta’lim bosqichi shaxs rivojlanishining eng muhim davri hisoblanadi. Aynan shu bosqichda o‘quvchilarda savodxonlik, nutq madaniyati, mustaqil fikrlash va muloqot ko‘nikmalari shakllanadi. Shu bois ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliyotda uchrayotgan dolzarb muammolar tahlil qilinib, ularning samarali yechimlari ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari interfaol metodlar ta’lim sifati va o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *interfaol metod, boshlang‘ich ta’lim, ona tili, pedagogik texnologiya, kompetensiya, ta’lim sifati.*

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini isloh qilish va modernizatsiya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.da ta’lim jarayonini ilg‘or

pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va ta’lim sifatini oshirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan. [1. 4-5-b.]

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar hamda kompetensiyaviy yondashuvni ta’lim jarayoniga tatbiq etish zarurligi qayd etilgan. [2. 12-15-b.]

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi shaxs rivojlanishining eng muhim davri hisoblanadi. Aynan shu bosqichda o‘quvchilarda savodxonlik, nutq madaniyati, mustaqil fikrlash va muloqot ko‘nikmalari shakllanadi. Shu bois ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Interfaol metodlarning nazariy asoslari: pedagogika nazariyasida interfaol metodlar o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi faol hamkorlikka asoslangan ta’lim usullari sifatida talqin etiladi [3. 45-b.]

Interfaol metodlar shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyiliga asoslanadi va o‘quvchini ta’lim jarayonining faol subyekti sifatida namoyon qiladi. [4. 67-b.]

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida quyidagi interfaol metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi:

1. “Aqliy hujum”.
2. “Klaster”.
3. “BBB” jadvali.
4. “Insert”.
5. Rolli o‘yinlar.
6. “Sinkveyn”.

Mazkur metodlar o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish, lug‘at boyligini oshirish, grammatik tushunchalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. [5. 102-b.]

Dolzarb muammolar:

1. O‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi yetarli emasligi – interfaol metodlar yuzaki qo‘llanadi.

2. Vaqt cheklovi – dars davomiyligi qisqa bo‘lib, barcha metodlarni amalga oshirish qiyin.

3. Baholash mezonlarining noaniqligi – o‘quvchilarning faoliyati va natijalari subyektiv baholanishi mumkin.

4. Moddiy-texnik sharoitlarning yetarli emasligi – multimedia vositalari yoki maxsus o‘quv materiallari yetishmaydi.

Muammolarni bartaraf etish va yechimlar:

1. O‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi yetarli emasligi.

Yechim: Interfaol metodlar bo‘yicha amaliy seminarlar va treninglar tashkil etish, malaka oshirish kurslarini majburiy qilish. [6. 90-b.]

Natija: O‘qituvchilar darsni samarali va qiziqarli o‘tkazadi, interfaol metodlar to‘liq tatbiq etiladi.

2. Vaqt cheklovi.

Yechim: Darsni modul va bloklarga bo‘lib rejalashtirish, faoliyat bloklarini oldindan tayyorlash [7. 102-b.]

Natija: Har bir metod maqsadga muvofiq qo‘llanadi, vaqt tejash bilan birga o‘quvchilarning faol ishtiroki ta’minlanadi.

3. Baholash mezonlarining noaniqligi.

Yechim: Formativ baholash tizimini joriy etish va aniq kriteriyalarni belgilash [8. 110-b.]

Natija: O‘quvchilarning faolligi va bilimlari obyektiv baholanadi, rag‘batlantirish tizimi ishlaydi.

4. Moddiy-texnik sharoitlarning yetarli emasligi.

Yechim: Multimedia vositalari, kitoblar va o‘quv qo‘llanmalar bilan ta’minlash; maktab resurs markazlaridan foydalanish.

Natija: Darslar interfaol va qiziqarli bo‘ladi, o‘quvchilarning diqqatini jalb qilish osonlashadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, boshlang‘ich ta’limda ona tili darslarida interfaol metodlarni samarali joriy etish ta’lim sifati va samaradorligini oshirishning huquqiy va pedagogik jihatdan muhim omilidir. Qonun va davlat ta’lim standartlari

asosida amalga oshiriladigan interfaol metodlar o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantiradi, mustaqil fikrlashini shakllantiradi va ta’lim jarayoniga qiziqishini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat ta’lim standartlari. – Toshkent, 2022. 15-b.

3. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2016. 45-b.

4. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari. – Toshkent: Fan, 2012. – 67-b.

5. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar, Toshkent, 2008, 102-b.

6. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2016. 90-b.

7. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari. – Toshkent: Fan, 2012. – 102-b.

8. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2008. – 110 b.

MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA G‘ARB MUTAFAKKIRLARINING O‘RNI

O‘tayev Akram Yo‘ldoshevich

TIPU dotsenti, p.f.f.d (PhD)

Kozimova Nodira Shuhratjon qizi,

Yo‘ldosheva Xolida Shokirali qizi

TIPU, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari

Annotatsiya: Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimida davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish, pedagog kadrlar salohiyatini oshirishda manbalardan unumli fodalanishga e’tibor qaratilmoqda. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tizimiga oliy ma’lumotli mutaxassislarni tayyorlashda G‘arb mutafakkirlarining maktabgacha ta’lim tizimiga hamda bola tarbiyasiga oid fikrlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim, mutafakkirlar, davlat, nodavlat, tizim, bola tarbiyasi, konsepsiya, pedagogika, dunyoqarash, ijodkorlik, o‘yin texnologiyasi*.

Abstract: In our country, particular attention is being paid to improving the activities of public and private preschool educational institutions within the preschool education system, as well as to effectively utilizing resources to enhance the professional capacity of pedagogical staff. This article analyzes the views of Western thinkers on the preschool education system and child upbringing in the process of training highly qualified specialists for preschool education.

Keywords: *preschool education, thinkers, public sector, private sector, system, child upbringing, concept, pedagogy, worldview, creativity, play technology*.

Аннотация: В нашей стране уделяется особое внимание совершенствованию деятельности государственных и негосударственных организаций дошкольного образования в системе дошкольного образования, а также эффективному использованию ресурсов для повышения профессионального потенциала педагогических кадров. В данной статье проанализированы взгляды западных мыслителей на систему дошкольного образования и воспитание детей в процессе подготовки высококвалифицированных специалистов для системы дошкольного образования.

Ключевые слова: *дошкольное образование, мыслители, государственный, негосударственный, система, воспитание ребёнка, концепция, педагогика, мировоззрение, творчество, игровые технологии*.

Globallashuv jarayonida bo‘lajak oliy ma’lumotli mutaxassislardan individual yondoshuv asosida kasbiy kompetensiyalarni egallashlarida G‘arb mutafakkirlarining

qarashlarini o‘rganish, o‘zlashtirish va amaliyotga tadbiq etish ularning kasbiy kompetensiyasini chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Oliy ta’lim jarayonida bo‘lajak maktabgacha ta’lim tarbiyachilari maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni egallashi ularning kasbiy kompetensiyalarini tarkib toptirish vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki bo‘lajak tarbiyachilar ilk yoshdagi bolalarni bilim va ko‘nikmalar olamiga olib kirish, ularni rivojlanishining ilmiy-pedagogik asoslarini ta’minlash ishlarini boshlab beruvchi mutaxassislar toifasiga kiradi.

G‘arb tushunchasi 1850-yildan boshlab Yevropa va Amerika qit’alarida joylashgan mamlakatlarni ifodalash atamasi sifatida qabul qilingan hamda bu tushuncha bugungi kunga qadar pedagogik adabiyotlarda ishlatib kelinayotganligini eslatib o‘tish joiz. G‘arb mutafakkirlari deganda eramizdan avvalgi IV asrdan boshlab bugungi kunga qadar davom etib kelayotgan falsafiy-pedagogik tadqiqotchilik mualliflari tushuniladi. Mutafakkir tushunchasi bilimi, tajribasi va yozgan asarlari bilan dunyo miqyosida e’tirof etilgan ziyolilarni anglatadi, ya’ni mutafakkir-tafakkurli kishi demakdir.

G‘arb mutafakkirlarining maktabgacha ta’lim masalalari, jumladan, ilk maktabgacha yoshli bolalarni ta’limiy-tarbiyalash muammolari bo‘yicha qarashlari ilmiyligi va dunyoviyligi bilan e’tiborni tortadi. Shu jihatdan g‘arb mutafakkirlarining ilk maktabgacha yoshli bolalar tarbiyasiga oid qarashlarinini quyidagii ikki yirik davrga bo‘lish mumkin:

1) qadimgi davr (eramizdan avvalgi IV asrdan boshlab XIII asrgacha);

2) yangi davr (XIV asrdan boshlab hozirgi kungacha bo‘lgan davr).

Birinchi davrda Suqrot, Aflotun va Arastuning maktabgacha ta’lim muassasalalari g‘arb pedagogikasida e’tibor bilan o‘rgarniladi. Bunda Suqrotning “O‘zingni angla” g‘oyasi mashhur bo‘lib, unda har bir dunyoga kelgan bolaning o‘zligini, ya’ni kim ekanligi va qanday maqsadga ega bo‘lishi ekanligini anglatish Maktabgacha ta’lim pedagogikasida bosh g‘oya sifatida qabul qilingan. Suqrotning asarlari saqlanmagan bo‘lib, uning fikrlari Aflotun va Arastu asarlarida iqtiboslar shaklida saqlanib qolgan. Shuningdek, Suqrotning shogirdi Aflotun “Davlat”,

“Axloq” va “Qonunlar” asarlarida Maktabgacha ta’lim pedagogikasi, jumladan, ilk maktabgacha yoshli bolalar tarbiyasi masalalarini tahlil qilib bergan hamda uning bu yondoshuvlari pedagogik tadqiqotchilikda tayanch yondoshuvlar sifatida qabul qilingan. Aflotunning ilk maktabgacha yoshli bolalarni tarbiyalashga oid qarashlari negizini quyidagilar tashkil qiladi:

A) bolalarni yoshlikdan boshlab davlat tarbiyalashi kerak, chunki davlatga fuqaro lozim;

B) bolalarni tarbiyalashda ularning ruhiyati va jismoniy jihatlarini rivojlantirish kerak;

V) bolalarni tarbiyalash imkoniyati mavjud, chunki bola tabiiy mavjudot bo‘lishi bilan birga ijtimoiy mavjudot hamdir, negaki unda aql tuyg‘usi bor.

Shu tariqa Aflotundan boshlab oila tarbiyasiga nisbatan bolalarni davlat tomonidan tarbiyalash konsepsiyasi ustuvor qo‘yilgan.

Aflotunning shogirdi Arastu o‘zining “Axloqi kabir” asarida davlat tomonidan bolalarning tarbiyasi amalga oshirilgunga qadar oilada enaganlar tomonidan bola tarbiyasini amalga oshirilishi konsepsiyasini asoslab bergan. Shu tariqa oilada ota-ona yoki oilaning katta yoshlilaariga nisbatan maxus Ustoz, ya’ni enagalar bolalarni tarbiyalash tizimi tarkib topdi. Chunki bunday ustozlar bola tarbiyasida jamiyat manfaatlari nuqtai nazaridan yondoshadi va oila tarbiyasida esa bolani tarbiyalashda ko‘proq jismoniy tarbiya, ya’ni oila manfaatlariga mos tarbiya jaryoni amalga oshirilishi farqlangan.

Qadimgi g‘arb mutafakkirlarining bu qarashlari hozirgi zamon dunyo Maktabgacha ta’lim pedagogikasida amalda bo‘lib kelayotganligini eslatib o‘tish joiz. Bu qarashlarda ikki masala – ilk maktabgacha yoshli bolalarni davlat tomonidan tarbiyalanishi hamda bu tarbiya jarayonida bolalarni ruhiy va jismoniy jihatdan rivojlantirilishi muhim o‘rin tutadi.

Ikkinchi davrda G‘arb mutafakkirlarining ilk yoshli bolalar tarbiyasi masalasida ilmiylik asoslari kuchaytirilgan. Bunda asosan ikki mutafakkir Italiyalik Mariya Montessori (XVII asr) va germaniyalik Fredrix Frebel (XIX asr) larning asarlarida ishlab chiqilgan bola tarbiyasi konsepsiyasi qabul qilingan hamda bu

qarashlar bugungi kunda ham Maktabgacha ta’lim pedagogikasining asoslarini tashkil qiladi.

Montesorri “Metodika” asarida bolalar tarbiyasi, jumladan, ilk maktabgacha yoshli bolalarni bevosita bog‘chalarda tarbiyalashning yangi va ilmiy metodikasini ishlab chiqqan. Bunda u Aflotunning bolalarni davlat tarbiyalashi kerak, degan g‘oyasi asosida bog‘chalar tashkil qilib o‘zining metodikasini amaliyotga tadbiq etgan. Shu tariqa maktabgacha tarbiya jarayonida “Montessori tizimi” degan g‘oya amaliyotga qabul qilinib, unda davlat bolalar bog‘chalarini tashkil qilish vositasida ilmiy metodikaga asossan ularni tarbiyalash yo‘lga qo‘yilgan. Montessori metodikasining negizlarini quyidagilar tashkil qiladi:

A) har bir bolani bolalar bog‘chasi bilan qamrab olish;

B) bolalar bog‘chalarida har bir bolani erkin harakatlanish, fikrini ifodalash va jamoaga qo‘shilish tarbiyalarini amalga oshirish;

V) har bir bog‘chada bilim va tarbiya olish muhitini tarkib toptirish (dam olish, ta’limiy o‘yinlar o‘rgatish va ularda harakatchanlikni tarkib toptirish);

G) har bir bola tarbiyachisi muntazam individual tajriba o‘tkazib metodikasini takomillashtirib borishi.

Montessorining bu metodikasi keyinchalik dunyo miqyosida bog‘chalarni tashkil qilish va ularda bolalarni, jumladan, ilk maktabgacha yoshli bolalarni ilmiy yondoshuv hamda maxsus tarbiyachilar tomonidan tarbiyalanishi amaliyotining tarkib topishiga asos bo‘ldi. O‘zbekistonda 1936-yildan boshlab Maorif vazirligi tizimida bolalar bog‘chalari tashkil qilinib, ularda Montesorri metodikasi asosida tarbiya jarayoni yo‘lga qo‘yilgan.

Yana bir g‘arb mutafakkiri germaniyalik Fredrix Frebel XIX asrda maxsus “Bolalar bog‘chasi” asarini yaratib, unda birinchi bo‘lib ta’limga asoslangan bola tarbiyasi g‘oyasini yoritib bergan. Unga ko‘ra, bog‘chalarda amalga oshiriladigan tarbiya jarayoni ta’lim qonuniyatlariga asoslanishi kerak. Shu jihatdan Frebelning bog‘cha tarbiyasi metodikasida quyidagilar muhim o‘rin tutadi;

A) bog‘cha tarbiyasining oila tarbiyasiga nisbatan jamiyat ahamiyatiga egaligi, bunda u bolani o‘simlik va tarbiyachini bog‘bon deb e’lon qilgan;

B) bog‘cha tarbiyasida asosan o‘yin vositasidan foydalanish kerak, shu sababli u bugungi kunga qadar amalda bo‘lgan bolalar o‘yinlarining 10 ga yaqin turini ishlab chiqqan;

V) bolalar tarbiyasida ta’limiy jihozlaridan foydalanish, bunda u bolalar uchun ularning imkoniyatlariga mos jihozlarni tarbiyachilar tomonidan tayyorlanishini shart qilib qo‘ygan;

G) bolalar bog‘chasida san’at turlaridan va qo‘l mehnatidan foydalanish, bunda u raqs, musiqa tinglash san’atlarini hamda loy, plastilin kabi xom ashyolardan bolalarning narsalar tayyorlashini amaliyotga kiritgan.

Shu tariqa Frebelning bog‘cha tarbiyasi konsepsiyasi dunyoviy va ilmiy xarakterda bo‘lganligi uchun dunyo mamlakatlarida amalda bo‘lib kelmoqda.

E’tibor berilsa, Montesorrining ilmiylik metodikasi va Frebelning dunyoviylik metodikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar tarbiyasini tashkil qilishning asosi sifatida qabul qilingan. Bunda bolalarni davlat tomonidan tarbiyalanishi, ularni ruhiy va jismoniy jihatdan rivojlantirilishi asos siftida qabul qilingan.

Kezi kelganda eslatib o‘tish joizki, g‘arb mutafakkirlarining maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi bolalar tarbiyasi asoslari mamlakatimizda ham amalda bo‘lib kelmoqda. Shu sababli davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarining jismrniy va ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda Montesorri va Fribil metodikalariga asoslanilmoqda.

Oliy ta’lim jarayonida maktabgacha ta’lim tashkilotlarining bo‘lajak mutaxassislari farzand tarbiyasiga oid Sharq va G‘arb mutafakkirlarining qarashlarini uyg‘un o‘zlashtirishi hozirgi zamon pedagogikasining hamda Yangi O‘zbekiston jamiyatining talabalaridan biridir.

Shunday qilib Sharq va G‘arb mutafakkirlarining farzand tarbiyasi, jumladan, ilk maktabgacha yoshli bolalar tarbiyasiga oid qarashlari o‘zaro uyg‘unligi, farqliligi, dunyoviyligi, ilmiyligi va ommaviyligi xususiyatlari bilan muhim ahamiyatga egadir. Oliy ta’lim jarayonida ana shu masalalar bo‘yicha kasbiy bilim va ko‘nikmalarni egallash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2026-yil 5-fevraldagi PF-19-son farmoni

3. F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, M.A'zamova. "Maktabgacha pedagogika". – T., "Ma'naviyat". 2019

4. Arastu. Axloqi kabir. Toshkent: Yangi avlod, 2024

5. Hoshimov K. va boshq. Pedagogika tarixi. Toshkent.: "O'qituvchi", 1996

6. A.O'tayev. Maktabgacha ta'limni rivojlantirishning yangi tamoyillari. "Maktabgacha va maktab ta'lim" jurnali, 2026.

ICT INTEGRATION BARRIERS FACED BY ENGLISH TEACHERS IN SECONDARY SCHOOLS

Tashkent University of Economics and Pedagogy,

Faculty of Languages and Preschool Education,

Ph.D. (PhD), Associate Professor, Acting ***Z.B. Sabirova***

Faculty of Languages and Preschool Education,

Master of degree 1-course ***Ibragimova Feruza Gafurjon's daughter***

Abstract. The integration of Information and Communication Technology (ICT) in English language teaching enhances student engagement, language skills development, and access to authentic materials. However, many secondary school English teachers face significant barriers in implementing ICT effectively. This study investigates the major obstacles hindering ICT integration in secondary school English classrooms. Using a mixed-method approach, data were collected from English teachers through questionnaires and semi-structured interviews. The findings reveal that insufficient infrastructure, limited digital competence, lack of institutional support, time constraints, and resistance to change are the primary barriers. The study

concludes with recommendations for professional development programs, policy support, and improved technological infrastructure to facilitate effective ICT integration.

Keywords: *ICT integration, English teachers, secondary school, barriers, digital competence, educational technology.*

Introduction

Information and Communication Technology (ICT) has become a transformative force in modern education. In English language teaching (ELT), ICT tools such as interactive whiteboards, learning management systems, multimedia resources, and online platforms create opportunities for authentic language exposure and learner-centered instruction.

Despite these advantages, the successful integration of ICT in secondary schools remains inconsistent. English teachers often encounter technical, pedagogical, and institutional challenges that limit effective implementation. Understanding these barriers is crucial for improving teaching quality and supporting digital transformation in education.

Methods

This study employed a mixed-method research design combining quantitative and qualitative approaches.

Results

The findings revealed five major categories of barriers:

1. Infrastructure Barriers

Limited access to computers and projectors

Poor internet connectivity

Lack of technical maintenance support

72% of teachers reported unreliable internet as a major obstacle.

2. Teacher-Related Barriers

Insufficient digital skills

Lack of confidence in using technology

Limited training opportunities

65% indicated the need for additional ICT training.

3. Institutional Barriers

Lack of administrative support

Insufficient funding

Absence of clear ICT policies

4. Time Constraints

Teachers reported heavy workloads, leaving little time to prepare ICT-based lessons.

5. Attitudinal Barriers

Some teachers demonstrated resistance to change due to traditional teaching preferences.

Overall, infrastructure and professional development were identified as the most significant challenges.

Discussion

The results align with previous studies indicating that ICT integration is influenced by both external and internal factors. Infrastructure limitations remain a fundamental issue in many secondary schools. Without stable internet access and functional equipment, teachers cannot effectively integrate technology.

Additionally, teachers’ digital competence plays a crucial role. Even when resources are available, insufficient training reduces confidence and limits meaningful usage. Institutional support and leadership are equally important in creating a technology-friendly environment.

Addressing these barriers requires coordinated efforts from policymakers, school administrators, and teacher training institutions.

Conclusion

ICT integration in secondary school English classrooms faces multiple barriers, including infrastructural deficiencies, lack of professional training, institutional limitations, time constraints, and resistance to change.

To overcome these challenges, the following recommendations are proposed:

Provide continuous professional development programs for English teachers.

Improve technological infrastructure and internet connectivity.

Establish clear ICT integration policies.

Reduce workload to allow lesson preparation time.

Encourage collaborative learning communities among teachers.

Effective ICT integration can significantly enhance English language learning outcomes if these barriers are systematically addressed.

References

1. Davis, F. D. (1989). Perceived usefulness, perceived ease of use, and user acceptance of information technology. MIS Quarterly, 13(3), 319–340. https://doi.org/10.2307/249008

2. Ertmer, P. A. (1999). Addressing first- and second-order barriers to change: Strategies for technology integration. Educational Technology Research and Development, 47(4), 47–61. https://doi.org/10.1007/BF02299597

3. Ertmer, P. A., & Ottenbreit-Leftwich, A. T. (2010). Teacher technology change: How knowledge, confidence, beliefs, and culture intersect. Journal of Research on Technology in Education, 42(3), 255–284. https://doi.org/10.1080/15391523.2010.10782551

4. Koehler, M. J., & Mishra, P. (2009). What is technological pedagogical content knowledge (TPACK)? Contemporary Issues in Technology and Teacher Education, 9(1), 60–70.

5. Lewin, K. (1951). Field theory in social science: Selected theoretical papers. Harper & Row.

6. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). Technological pedagogical content knowledge: A framework for teacher knowledge. Teachers College Record, 108(6), 1017–1054.

7. Prensky, M. (2001). Digital natives, digital immigrants. On the Horizon, 9(5), 1–6.

8. Teo, T. (2011). Factors influencing teachers’ intention to use technology: Model development and test. Computers & Education, 57(4), 2432–2440. https://doi.org/10.1016/j.compedu.2011.06.008

9. Tondeur, J., van Braak, J., Ertmer, P. A., & Ottenbreit-Leftwich, A. (2017). Understanding the relationship between teachers' pedagogical beliefs and technology use in education: A systematic review. Educational Technology Research and Development, 65(3), 555–575. https://doi.org/10.1007/s11423-016-9481-2

EFFECTIVE METHODS OF TEACHING ENGLISH TO FUTURE TEACHERS FOR PRESCHOOL EDUCATION

Sharopova Munisa Hakimovna

Inglish language teacher at Tashkent university of Economics and Pedagogy

Tel:998934518705

e-mail:mrkingstone123@gmail.com

Abstract. The preparation of future preschool teachers for teaching English requires the integration of linguistic competence, pedagogical knowledge, and child-centered methodologies. This article examines effective approaches to training prospective educators to teach English in preschool settings. Drawing on established theories of second language acquisition and early childhood education, the study highlights Communicative Language Teaching (CLT), play-based learning, Total Physical Response (TPR), storytelling, songs and chants, visual scaffolding, classroom management strategies, and reflective practice as essential components of teacher education programs. The article argues that systematic practical training, including microteaching, observation, and classroom simulations, enhances methodological competence and professional confidence. The findings suggest that combining theoretical instruction with experiential learning fosters effective teaching practices appropriate for young learners.

Keywords: *preschool education, teacher training, communicative approach, TPR, play-based learning, young learners*

Introduction

Early childhood is widely recognized as a critical period for language development. During this stage, children demonstrate heightened phonological awareness and cognitive flexibility, which facilitate foreign language acquisition. According to Lev Vygotsky (1978), learning occurs through social interaction within the Zone of Proximal Development, where guided support enhances cognitive growth [8: 86.]. This principle is particularly relevant in preschool foreign language instruction, where teacher mediation plays a central role.

Preparing future teachers to teach English in preschool education therefore requires specialized methodological training that reflects the psychological and developmental characteristics of young learners. Traditional grammar-focused approaches are insufficient for this age group. As Jeremy Harmer (2007) argues, effective language teaching prioritizes meaningful communication and learner engagement rather than mechanical repetition [2: 69.].

Consequently, teacher education institutions must design curricula that integrate theoretical knowledge with interactive, child-centered methodologies.

Theoretical Foundations of Teaching English to Young Learners. Theoretical perspectives on language acquisition provide a foundation for preparing future preschool teachers.

Stephen Krashen (1982) emphasizes the importance of comprehensible input slightly above the learner’s current level of competence (i+1). He also highlights the necessity of maintaining a low affective filter to reduce anxiety and promote acquisition [3: 31–32.]. In preschool settings, this translates into creating a supportive and playful atmosphere where children feel secure and motivated.

Similarly, Jean Piaget (1952) explains that children in the preoperational stage learn best through concrete experiences and active engagement [6: 54.]. Abstract grammatical explanations are therefore inappropriate for preschool learners. Instead, teacher training programs should emphasize experiential and multisensory teaching strategies.

Interaction also plays a crucial role in language development. Michael Long (1996) suggests that negotiation of meaning during interaction promotes acquisition

[4: 451.]. This theoretical insight supports communicative classroom practices in early childhood education.

Effective Methods in Preparing Future Preschool English Teachers

Communicative Language Teaching (CLT)

Communicative Language Teaching promotes authentic communication and functional language use. According to Harmer (2007), communicative activities increase learner involvement and motivation [2: 84.]. In teacher training programs, prospective preschool teachers should participate in simulations of classroom interaction, including greeting routines, question–answer exchanges, and simple task-based games.

Training should also emphasize classroom language—simple instructions such as “Stand up,” “Listen,” or “Show me”—which forms the basis of meaningful communication with young learners.

Total Physical Response (TPR)

Total Physical Response, developed by James Asher (1977), combines language input with physical movement [1: 4.]. TPR aligns with children’s natural tendency toward movement and imitation. Research indicates that kinesthetic involvement strengthens memory retention and comprehension.

Teacher trainees should practice:

- Designing action-based vocabulary lessons
- Using gestures and modeling
- Organizing movement games
- Managing classroom space effectively

Such preparation enhances confidence and classroom management skills.

Play-Based Learning

Play is fundamental in preschool education. Through structured and unstructured play, children explore language in meaningful contexts. Play-based learning reduces anxiety and supports natural language use.

Teacher education programs should demonstrate how to:

- Integrate vocabulary into puppet shows

- Use role-play to simulate everyday situations
- Introduce simple dialogues during pretend play

These strategies align with Vygotsky’s concept of social interaction as a driver of development [8: 94.].

Storytelling and Songs

Storytelling provides contextualized exposure to language patterns and vocabulary. Songs and chants enhance pronunciation, rhythm, and intonation.

According to Paul Nation (2001), repetition and meaningful exposure are essential for vocabulary acquisition [5: 63.]. Songs naturally incorporate repetition, making them effective tools for preschool language learning.

Future teachers must learn how to:

- Select age-appropriate materials
- Use visual aids during storytelling
- Encourage participation through gestures and repetition
- Ask simple comprehension questions

These skills foster active engagement and improve retention.

Use of Visual and Digital Aids

Visual support plays a significant role in comprehension. Flashcards, picture books, realia, and puppets make abstract language concrete. Piaget (1952) emphasizes that children rely on visual and sensory input during early cognitive development [6: 70.].

Modern teacher education also includes digital literacy. Interactive whiteboards, educational videos, and child-friendly language apps can enhance engagement. However, technology must support communicative interaction rather than replace it.

Teacher trainees should develop critical awareness of:

- Age-appropriate digital resources
- Balanced screen time
- Integration of technology into communicative tasks

Microteaching and Reflective Practice

Practical training is essential in teacher education. Microteaching enables students to practice short lessons in controlled settings. It develops lesson planning, time management, and classroom control skills.

Reflective practice, introduced by Donald Schön (1983), encourages educators to analyze their teaching critically [7: 128.]. Reflection helps future teachers identify strengths, weaknesses, and areas for improvement.

Activities supporting reflective competence include:

- Teaching journals
- Peer observation feedback
- Video analysis of lessons
- Self-evaluation checklists

These methods promote continuous professional growth.

Integrating Theory and Practice in Teacher Education

Effective teacher preparation requires a balanced curriculum that combines:

1. Theoretical coursework in linguistics and psychology
2. Methodology seminars
3. Observational practice in preschool classrooms
4. Supervised teaching practicum

Observation of experienced teachers provides real-life models of classroom interaction. Supervised practicum enables trainees to apply theoretical knowledge in authentic contexts.

Courses in child psychology and classroom management further prepare educators to maintain discipline and motivation in young learner classrooms. Harmer (2007) notes that classroom atmosphere significantly influences learning outcomes [2: 113.].

Professional Competence and Teacher Identity

Beyond methodological knowledge, teacher education must foster professional identity. Confidence, empathy, patience, and creativity are essential qualities for preschool English teachers.

Developing intercultural awareness is also important, as English teaching introduces children to global perspectives. Teacher training programs should therefore encourage cultural sensitivity and inclusive practices.

Conclusion

Preparing future teachers to teach English in preschool education requires a comprehensive, child-centered, and practice-oriented approach. Effective preparation integrates Communicative Language Teaching, Total Physical Response, play-based learning, storytelling, visual scaffolding, and reflective practice.

Grounded in established theories of language acquisition and supported by experiential training, these approaches enhance methodological competence and professional confidence. Ultimately, high-quality teacher preparation ensures that preschool learners receive engaging, developmentally appropriate, and effective English instruction that supports long-term linguistic and cognitive development.

References

1. Asher, J. (1977). *Learning Another Language Through Actions*.
2. Harmer, J. (2007). *How to Teach English*.
3. Krashen, S. (1982). *Principles and Practice in Second Language Acquisition*.
4. Long, M. (1996). The role of the linguistic environment in second language acquisition.
5. Nation, P. (2001). *Learning Vocabulary in Another Language*.
6. Piaget, J. (1952). *The Origins of Intelligence in Children*.
7. Schön, D. (1983). *The Reflective Practitioner*.
8. Vygotsky, L. (1978). *Mind in Society*.

SUN’IY INTELLEKT VOSITALARINING INGLIZ TILI TA’LIMIDAGI INNOVATSION ROLI

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti,
katta o‘qituvchi ***Tuymanova Inobat Fozilovna***
ORCID: 0009-0003-2655-9021
inobattuymanova @yahoo.com
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti,
talaba ***Temirova Gulnora Ixtiyor qizi***
temirovagulnora878@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tilini o‘rganishda sun’iy intellekt (AI) vositalarining innovatsion roli keng qamrovda tahlil qilinadi. AI asosidagi platformalar o‘quvchilarga shaxsiylashtirilgan topshiriqlar, tezkor fikr-mulohaza, talaffuzni tuzatish, yozma savodxonlikni rivojlantirish va suhbat amaliyotini qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlarini taqdim etadi. Shuningdek, maqolada “Pen Pal” metodi ingliz tili metodikasi sifatida qo‘shimcha yondashuv sifatida kiritilib, uning psixologik va motivatsion afzalliklari yoritiladi. AI vositalari va Pen Pal metodining sinergetik qo‘llanilishi ta’lim jarayonida interaktivlikni kuchaytiradi, samaradorlikni oshiradi hamda o‘quvchilarning individual ehtiyojlari, psixologik xususiyatlari va motivatsion omillariga moslashtirilgan o‘quv muhitini shakllantiradi.

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, ingliz tili, texnologiyalar, ta’lim, interaktiv o‘qitish, AI vositalari, Pen Pal metodi, onlayn ta’lim, blended learning*.

Globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan hozirgi davrda ingliz tili xalqaro muloqot, ilmiy tadqiqotlar va biznes sohalarida strategik kommunikatsiya vositasi sifatida tobora ortib bormoqda. An’anaviy ta’lim metodlari o‘z ahamiyatini saqlab qolayotgan bo‘lsa-da, zamonaviy texnologiyalar, xususan, sun’iy intellektga asoslangan vositalar chet tilini o‘rganishda innovatsion imkoniyatlarni taqdim etib, ta’lim samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

AI platformalari o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlash, darajaga mos mashqlarni taklif etish va natijalarni avtomatik tahlil qilish orqali ta’lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, sun’iy

intellekt vositalari o‘quvchilarda ichki motivatsiyani kuchaytirish, muntazam shug‘ullanishga undash va o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

YouTube, TikTok, Instagram kabi ijtimoiy tarmoqlar autentik materiallar manbai sifatida til o‘rganuvchilarga turli lahjalar, nutq uslublari va kommunikativ kontekstlarni o‘rganish imkonini beradi. “Shadowing” usuli talaffuz va intonatsiyani rivojlantirishda samarali bo‘lsa-da, ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan sifatli va ishonchli manbalarni tanlash zaruriy shart hisoblanadi.

Duolingo, Babbel, Memrise kabi mobil ilovalar adaptiv o‘qitish tizimiga asoslanib, o‘quvchilarning darajasiga mos mashqlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirib taklif etadi. Spaced repetition (interval bilan takrorlash) tizimi lug‘atni uzoq muddatli eslab qolishni ta’minlaydi, shu bilan birga talaffuzni tekshirish va yozma ko‘nikmalarni rivojlantirish imkonini kengaytiradi.

Kompyuter, planshet, smartfon va interaktiv doskalar kabi texnik vositalar ta’lim jarayonini yanada qiziqarli, ko‘rgazmali va samarali qiladi. Onlayn kurslar o‘quvchilarda mustaqillik va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirsa, sinf sharoitidagi jonli muloqot o‘quvchilarning ijtimoiy hamkorligini kuchaytiradi va kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

AI vositalaridan tashqari, Pen Pal metodi ingliz tili ta’limida muhim qo‘shimcha yondashuv sifatida qaraladi. Bu metodda o‘quvchilar boshqa mamlakatdagi tengdoshlar bilan yozma yoki raqamli muloqot olib boradilar.

- **Psixologik afzalliklar:** Yozma muloqot og‘zaki nutqqa nisbatan kamroq bosim yaratadi, bu esa o‘quvchilarda ishonchni oshiradi.
- **Motivatsion ta’sir:** Madaniy almashinuv va real auditoriyaga yozish o‘quvchilarni ichki motivatsiyaga undaydi.
- **Til ko‘nikmalari:** Lug‘at boyligi kengayadi, grammatik va pragmatik ko‘nikmalar mustahkamlanadi.
- **Madaniy kompetensiya:** O‘quvchilar turli madaniyatlarni anglab, interkultural kompetensiyani rivojlantiradilar.

Choi va Yi (2015) tadqiqotlari Pen Pal loyihalari yozma nutq ravonligini oshirishini va o‘quvchilarni uzoq muddatli shug‘ullanishga undashini ko‘rsatadi. Bu metod Vygotskiy (1978) ta’kidlaganidek, ijtimoiy muloqot orqali kognitiv rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydi.

Onlayn ta’lim moslashuvchanlikni ta’minlasa, an’anaviy ta’lim jonli muloqot va tezkor fikr-mulohazani beradi. Blended learning modeli esa ikkisini uyg‘unlashtirib, eng samarali yondashuvni yaratadi.

Qo‘shimcha ilmiy tahlil

- **AI vositalarining afzalliklari:** shaxsiylashtirish, tezkor fikr-mulohaza, gamifikatsiya.
- **Kamchiliklari:** real muloqot yetishmasligi, texnik qaramlik.
- **Pen Pal metodining afzalliklari:** autentik muloqot, madaniy almashinuv, motivatsiya.
- **Kamchiliklari:** vaqt va tashkiliy resurs talab qiladi.

Sun’iy intellekt vositalari va *Pen Pal* metodining integratsiyasi ta’lim jarayonida sinergetik ta’sir ko‘rsatib, o‘quvchilarda interaktivlik darajasini oshiradi, o‘quv faoliyatining samaradorligini kuchaytiradi hamda individual ehtiyoj va psixologik xususiyatlarga moslashtirilgan ta’lim muhitini shakllantiradi.

Sun’iy intellekt vositalari ingliz tili ta’limida shaxsiylashtirilgan, interaktiv va samarali yondashuvni ta’minlaydi. Biroq, texnologiya insoniy muloqotni to‘liq almashtira olmaydi. Shu sababli, AI vositalarini Pen Pal metodi kabi innovatsion pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish ta’lim jarayonini yanada boyitadi. Bu kombinatsiya o‘quvchilarda motivatsiyani oshiradi, psixologik to‘siqlarni kamaytiradi va kommunikativ kompetensiyani rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bandura, A. (1997). *Self-Efficacy: The Exercise of Control*. New York: W. H. Freeman.

2. Bennett, C., & Uí Dhonnchadha, E. (2025). Evaluating an in-service corpus literacy training programme for EFL practitioners.

3. Choi, J., & Yi, Y. (2015). The Impact of Pen Pal Exchanges on Second Language Writing. *Language Learning & Technology, 19*(2), 21–36.

4. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (1985). *Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior*. New York: Springer.

5. Gardner, R. C. (1985). *Social Psychology and Second Language Learning: The Role of Attitudes and Motivation*. London: Edward Arnold.

6. Horwitz, E. K., Horwitz, M. B., & Cope, J. (1986). Foreign Language Classroom Anxiety. *The Modern Language Journal, 70*(2), 125–132.

7. Krashen, S. D. (1982). *Principles and Practice in Second Language Acquisition*. Oxford: Pergamon.

8. Ngo, T. T. N. (2025). The impact of ASR-based reading tutor on young EFL learners’ oral skills: a case study of Google Read Along.

9. Special Issue (2025). AI-mediated Informal Digital Learning of English (AIIDLE). *CALL Electronic Journal*.

10. Systematic Review (2024). Artificial Intelligence in Language Education: A Systematic Review of 177 studies (2015–2024).

11. Vygotskiy, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.

12. Weiner, B. (1992). *Human Motivation: Metaphors, Theories, and Research*. Newbury Park: Sage.

MODERN WAYS OF ATTRACTING UNIVERSITY LEARNERS TO ENGLISH LESSONS

Sharopova Munisa Hakimovna

Inglish language teacher at Tashkent university of Economics and Pedagogy

Tel:998934518705

e-mail:mrkingstone123@gmail.com

Abstract. University learners often demonstrate varying levels of motivation toward English as a Foreign Language (EFL) courses, which significantly affects participation and academic outcomes. This article reviews modern instructional strategies that effectively attract and engage university learners in English lessons. Drawing on recent research (2015–2025), the study highlights communicative approaches, technology integration, gamification, blended learning, project-based tasks, and authentic materials. The findings indicate that interactive and learner-centered strategies increase motivation, classroom participation, and learner satisfaction. Practical implications for university EFL instruction are discussed.

Keywords: *university EFL, motivation, communicative approach, gamification, blended learning, digital tools.*

Introduction

English proficiency plays a crucial role in academic success, international communication, and career development. However, in many non-English-speaking university contexts, students often perceive English classes as difficult or irrelevant. Traditional grammar-translation methods may not meet the expectations of modern learners who prefer interaction and practical language use.

Motivation is central to successful language learning. According to **Zoltán Dörnyei** and **Ema Ushioda**, motivation determines learners' effort, persistence, and engagement in the learning process [2: 4.]. When motivation is low, students participate less actively and may experience anxiety or disengagement.

Recent studies suggest that learner-centered and interactive strategies are more effective in attracting university learners to English lessons (Alamer, 2022) [1: 247.]. This article synthesizes recent research to explore:

1. Modern methods used to attract university EFL learners.
2. Their impact on motivation and participation.
3. Implications for university teaching practice.

Literature Review

Motivation and Engagement

Motivation influences learners’ choices, persistence, and performance in language learning [2: 5.]. In EFL contexts, where English is rarely used outside class, instructional design plays a critical role in sustaining engagement.

Alamer (2022) reports that motivational teaching strategies, including meaningful interaction and autonomy-supportive practices, significantly increase student engagement in university classrooms [1: 250.].

Communicative and Task-Based Approaches

Communicative Language Teaching (CLT) and Task-Based Language Teaching (TBLT) focus on meaningful communication rather than isolated grammar practice. **Sandra Savignon** emphasizes that communicative competence develops through authentic interaction [6: 23.].

Research shows that debates, group discussions, and role-plays enhance speaking confidence and classroom participation (Alamer, 2022) [1: 249.]. Students report greater interest when lessons involve real-life communication rather than memorization exercises.

Technology Integration

Digital technologies have transformed language education. Tools such as online quizzes, podcasts, collaborative platforms, and language learning applications provide interactive learning opportunities.

Rahimi and Yadollahi (2021) found that digital tools improve motivation and linguistic performance when they promote autonomy and collaboration [5: 14.]. Similarly, **Glenn Kessler** notes that blended and technology-supported instruction enhances learner independence and engagement [4: 37.].

However, technology must be pedagogically integrated. It should support communication and learning goals rather than serve as mere entertainment.

Gamification

Gamification involves using game-like elements such as points, badges, and leaderboards in education. Tsai (2024) found that gamified English courses increased student participation and satisfaction compared to traditional instruction [7: 128.].

Nevertheless, Alamer (2022) cautions that gamification must align with linguistic objectives to avoid shifting focus from learning to competition [1: 252.]. Effective gamification combines motivation with clear language outcomes.

Blended Learning

Blended learning combines face-to-face instruction with online components. According to Kessler (2018), blended models allow learners to progress at their own pace and increase autonomy [4: 52.].

González López (2023) reports that students in blended university English courses appreciate flexibility and reduced anxiety, which encourages greater classroom participation [3: 68.].

Authentic Materials

Authentic materials—such as news articles, interviews, podcasts, and documentaries—expose learners to real-world language use. Savignon (2018) argues that authentic input supports communicative competence and cultural awareness [6: 41.].

Rahimi and Yadollahi (2021) found that students are more engaged when classroom content reflects real-life contexts [5: 19.]. Authentic materials make English learning meaningful and relevant.

Methodology

This article adopts a literature-based methodology. Academic sources published between 2015 and 2025 were identified through Google Scholar, ERIC, and Scopus.

Selection Criteria

Studies were included if they:

1. Focused on university EFL contexts.
2. Examined motivation, engagement, or instructional strategies.
3. Provided empirical or systematic review data.

The selected studies were analyzed and grouped into thematic categories (communicative methods, technology, gamification, blended learning, authentic materials).

Results

The review indicates that modern instructional strategies positively influence university learners' engagement and motivation.

- **Communicative activities** increase speaking confidence and peer interaction [1: 249.].
- **Digital tools** enhance autonomy and reduce anxiety when integrated effectively [5: 14.].
- **Gamification** improves participation and satisfaction when aligned with learning goals [7: 128.].
- **Blended learning** supports flexibility and self-regulated learning [3: 68.].
- **Authentic materials** increase relevance and cultural awareness [6: 41.].

Overall, interactive and learner-centered approaches are more attractive than traditional grammar-focused instruction.

Discussion

The findings suggest several key conclusions:

1. **Meaningful interaction motivates learners.** Students are more engaged when they use English for real communication.
2. **Technology must serve pedagogical goals.** Engagement increases when digital tools promote collaboration and feedback.
3. **Gamification is effective when balanced.** Reward systems should reinforce language objectives.
4. **Blended learning enhances autonomy.** Flexible access to materials reduces anxiety and increases participation.

Authentic materials increase relevance. Real-world content strengthens learner interest and motivation.

These strategies align with motivational theory, which emphasizes relevance, autonomy, and competence as key drivers of engagement [2: 9.].

Conclusion

Modern instructional methods—including communicative approaches, technology integration, gamification, blended learning, and authentic materials—

significantly enhance university learners’ motivation and engagement in English lessons.

By fostering interaction, autonomy, and real-world relevance, these strategies transform English classes into meaningful and motivating learning experiences. University educators should combine these approaches strategically to meet diverse learner needs. Future research may explore long-term effects of emerging technologies such as artificial intelligence and virtual reality in EFL instruction.

References

1. Alamer, A. (2022). Motivational strategies and student engagement in EFL university contexts. *Journal of Language Teaching and Research*, 13(2), 245–253.

2. Dörnyei, Z., & Ushioda, E. (2011). *Teaching and Researching Motivation* (2nd ed.). Routledge.

3. González López, Á. B. (2023). Blended learning in university English courses: Student perspectives. *Journal of Educational Technology & Society*, 26(3), 62–75.

4. Kessler, G. (2018). *Blended Learning in English Language Teaching: Course Design and Implementation*. Cambridge University Press.

5. Rahimi, M., & Yadollahi, S. (2021). Digital tools in university EFL contexts: Motivation and learning outcomes. *English Teaching & Technology Journal*.

6. Savignon, S. J. (2018). *Communicative Competence and Language Pedagogy*. Wiley.

7. Tsai, Y. R. (2024). Gamification and student participation in university English lessons. *Educational Technology Research & Development*.

THE IMPACT OF PSYCHOLOGICAL SUPPORT AND MOTIVATION ON STUDENTS' LEARNING SUCCESS

Tashkent University of Economics and Pedagogy,
senior teacher ***Tuymanova Inobat Fozilovna***
ORCID: 0009-0003-2655-9021
inobattuymanova @yahoo.com
Tashkent University of Economics and Pedagogy,
Student ***Temirova Gulnora Ikhtiyor qizi***
temirovagulnora878@gmail.com

Abstract. This article investigates the psychological and motivational factors influencing students' success in foreign language learning, with a particular focus on public speaking anxiety. It analyses fear of making mistakes, lack of self-confidence, avoidance of negative evaluation, perfectionism, and insufficient practice, alongside physical manifestations of anxiety. The study emphasizes the importance of psychological support and motivational strategies, including innovative teaching methods such as the “Pen Pal” approach, in reducing barriers to oral performance and enhancing communicative competence.

Keywords: *Psychological support, motivation, strategies, effectiveness, achievement, intrinsic motivation, extrinsic motivation, self-confidence, anxiety, Pen Pal method.*

Annotatsiya. Ushbu maqola talabalarning chet tillarini o‘rganishdagi muvaffaqiyatiga ta’sir qiluvchi psixologik va motivatsion omillarni, xususan, omma oldida nutq so‘zlashdan qo‘rqish muammolarini o‘rganadi. Unda xato qilishdan qo‘rqish, o‘ziga ishonchsizlik, salbiy baho berishdan qochish, perfektsionizm va yetarlicha mashq qilmaslik, shuningdek, xavotirning jismoniy ko'rinishlari tahlil qilinadi. Tadqiqot og‘zaki nutqqa to‘sqinliklarni kamaytirish va kommunikativ kompetensiyani oshirishda psixologik qo‘llab-quvvatlash va motivatsion strategiyalarning, jumladan, “Pen Pal” yondashuvi kabi innovatsion o‘qitish usullarining ahamiyatini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: *Psixologik qo‘llab-quvvatlash, motivatsiya, strategiyalar, samaradorlik, yutuq, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, o‘ziga ishonch, xavotir, Pen Pal usuli.*

Language learning is a multidimensional process that encompasses cognitive, affective, and social domains. Beyond grammar and vocabulary acquisition, learners’ psychological states—motivation, self-confidence, and identity—play a decisive role in determining success. Foreign language anxiety, particularly fear of public speaking, is one of the most pervasive challenges faced by learners (Horwitz, 1986).

This paper explores the psychological and motivational causes of anxiety in foreign language learning and examines strategies to overcome these barriers. Special attention is given to the “Pen Pal” teaching method, which provides authentic communicative contexts and fosters intercultural competence.

Horwitz, Horwitz, and Cope (1986) introduced the concept of Foreign Language Classroom Anxiety (FLCA), identifying communication apprehension, test anxiety, and fear of negative evaluation as major components. Krashen’s (1982) Affective Filter Hypothesis further explains how anxiety can block language input, preventing acquisition.

Motivation is a critical determinant of success. Gardner’s (1985) *Socio-Educational Model* distinguishes between integrative motivation (desire to integrate into the target language community) and instrumental motivation (practical goals such as employment). Deci and Ryan’s (1985) *Self-Determination Theory* highlights the importance of intrinsic motivation, where learners engage in language learning for personal growth and enjoyment.

Bandura’s (1997) *Self-Efficacy Theory* emphasizes the role of confidence in learners’ ability to perform tasks. Maslow’s (1943) hierarchy of needs suggests that psychological safety and belonging are prerequisites for higher-level learning.

Learners’ identity and self-concept influence their willingness to communicate. Speaking in a foreign language often creates a sense of vulnerability, leading to avoidance behaviours. Personality traits such as introversion, extraversion, risk-taking, and emotional stability shape learners’ approaches to communication.

- **Introverts** may excel in accuracy but struggle with fluency.
- **Extroverts** thrive in group activities but may overlook grammatical precision.
- **Risk-takers** achieve fluency faster by practicing despite errors.
- **Cautious learners** prioritize accuracy but progress more slowly.

Motivation drives persistence and resilience in language learning. Clear goals, recognition of small achievements, and supportive environments enhance learners’ engagement. Practical activities such as watching films, listening to music, and engaging in role-plays strengthen motivation by connecting language learning to real-life contexts.

The Pen Pal teaching method is an innovative strategy that pairs learners with peers from different linguistic or cultural backgrounds for sustained written or digital correspondence.

Psychological Benefits: Writing to a real audience reduces performance pressure compared to oral tasks, gradually building confidence.

Motivational Impact: Curiosity about a partner’s culture and meaningful exchanges stimulate intrinsic motivation.

Practical Language Use: Pen Pal projects provide authentic contexts for vocabulary expansion, grammar practice, and pragmatic awareness.

Cultural Enrichment: Learners develop intercultural competence, aligning with Gardner’s (1985) emphasis on attitudes and motivation in language learning.

Choi and Yi (2015) found that “Pen Pal” exchanges improve writing fluency, sustain engagement, and create a low-anxiety environment for practicing English. This method also reflects Vygotsky’s (1978) principle that social interaction drives cognitive development.

Online education fosters independence and self-regulation but may increase isolation and fatigue. Offline education strengthens social connections and reduces anxiety through immediate feedback and peer interaction.

- **Online learning** benefits introverted and self-directed learners.

- **Offline learning** supports extroverted students who thrive in collaborative environments.

Future research should employ mixed-methods approaches to measure foreign language anxiety and motivation. The Foreign Language Classroom Anxiety Scale (Horwitz, 1986) can be combined with qualitative interviews to capture learners' experiences. Pen Pal projects could be evaluated through longitudinal studies assessing writing fluency, intercultural competence, and self-confidence.

Psychological support and motivation are interdependent. Supportive environments reduce anxiety, while motivation sustains engagement. Innovative methods such as "Pen Pal" exchanges provide authentic communicative contexts that enhance both psychological well-being and linguistic competence.

Effective language teaching requires consideration of cognitive, psychological, and social dimensions. Motivation, self-confidence, and supportive environments are crucial for reducing foreign language anxiety. Integrating strategies such as the "Pen Pal" method provides learners with authentic contexts, enhances intercultural competence, and sustains motivation. By harmonizing psychological support with diverse teaching methods, language learning can become more effective, engaging, and sustainable.

References

1. Bandura, A. (1997). Self-Efficacy: The Exercise of Control. New York: W. H. Freeman.

2. Choi, J., & Yi, Y. (2015). The Impact of Pen Pal Exchanges on Second Language Writing. Language Learning & Technology, 19(2), 21–36.

3. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (1985). Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. New York: Springer.

4. Gardner, R. C. (1985). Social Psychology and Second Language Learning: The Role of Attitudes and Motivation. London: Edward Arnold.

5. Horwitz, E. K., Horwitz, M. B., & Cope, J. (1986). Foreign Language Classroom Anxiety. The Modern Language Journal, 70(2), 125–132.

6. Krashen, S. D. (1982). Principles and Practice in Second Language Acquisition. Oxford: Pergamon.

7. Maslow, A. H. (1943). A Theory of Human Motivation. Psychological Review, 50(4), 370–396.

8. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.

9. Weiner, B. (1992). Human Motivation: Metaphors, Theories, and Research. Newbury Park: Sage.

VIRTUAL ALMASHINUV VA CLIL TEXNOLOGIYALARI ORQALI INGLIZ TILINI O‘RGATISH

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti.

Tillar va maktabgacha fakulteti,

katta o‘qituvchi ***Inobat Fozilovna Tuymanova***

ORCID: 0009-0003-2655-9021

inobattuymanova@yahoo.com

Annotatsiya. Maqolada ingliz tilini o‘rgatishda **Virtual Exchange** va **Content and Language Integrated Learning** (Tilni mazmun va integratsiyalashgan holda o‘qitish**)** metodlarining ahamiyati tahlil qilinadi. Virtual Exchange talabalarni xorijiy tengdoshlari bilan onlayn muloqotga jalb etib, madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantiradi va tilni autentik kontekstda qo‘llash imkonini beradi. CLIL esa ingliz tilini turli fanlar mazmuni bilan integratsiyalashgan holda o‘rgatishni nazarda tutib, talabalarni akademik va fanlararo muhitda tilni samarali qo‘llashga tayyorlaydi. Ushbu metodlar til ko‘nikmalarini kompleks rivojlantirish, motivatsiyani oshirish va global hamkorlikka tayyorlashda muhim vosita sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar: *ingliz tili, mazmun, motivatsiya, kompetensiya, hamkorlik, texnologiya, madaniyat, innovatsiya, interaktivlik, o‘zlashtirish*.

Abstract. The article examines the significance of **Virtual Exchange** and **Content and Language Integrated Learning (CLIL)** in English language teaching. Virtual Exchange engages students in online intercultural communication, fostering intercultural competence and authentic language use. CLIL integrates English learning with subject content, preparing learners to apply language effectively in academic and interdisciplinary contexts. These approaches are shown to enhance language skills, increase learner motivation, and equip students for global collaboration, making them essential methodologies in modern teacher education.

Keywords: *language, content, motivation, competence, collaboration, technology, culture, innovation, interactivity, acquisition*.

Bo‘lajak pedagoglar uchun ingliz tilini o‘rgatishda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. “Pen Pals” loyihasi an’anaviy yozishmalar orqali kommunikativ kompetensiyani rivojlantirgan bo‘lsa, bugungi kunda Virtual Exchange (virtual almashinuv) va Content and Language Integrated Learning (Tilni mazmun va integratsiyalashgan holda o‘qitish) metodlari til o‘rganishga yanada samarali va interaktiv imkon beradi.[94]

Virtual Exchange — bu talabalarni boshqa mamlakatdagi tengdoshlari bilan onlayn muloqotga jalb qilish jarayoni. Bu texnologiya madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish bilan birga, ingliz tilini tabiiy kontekstda qo‘llash imkonini beradi.[95]

Ushbu metodologiyaning afzalliklari orasida til o‘rganish jarayonining samaradorligini oshirish, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish, hamda talabalar motivatsiyasini mustahkamlash kabi muhim jihatlar mavjud. Madaniyatlararo muloqot orqali talabalar turli madaniyat vakillari bilan bevosita suhbatlashadi va o‘zaro tushunishni rivojlantiradilar. Autentik til muhitida o‘rganish orqali talabalar real muloqot sharoitida til ko‘nikmalarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar, bu esa ularning nutqiy va yozma faoliyatlarini yanada samarali

[94]Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). *CLIL: Content and language integrated learning*. Cambridge University Press.
[95]Ingrisch-Rupp, C., & Symeonidis, V. (2024). The multifaceted field of virtual exchanges in teacher education: A literature review. *CEPS Journal, 14*(1), 11–34.

rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bunday o‘rganish jarayoni tilni tabiiy kontekstda qo‘llashni rag‘batlantiradi va o‘quvchilarning tilga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Autentik muhitda faol ishtirok etish orqali talabalar nafaqat lingvistik, balki madaniy jihatdan ham boyishadi, bu esa ularning madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.[96]

Ushbu yondashuvning afzalliklari til o‘rganish jarayonining samaradorligini oshirish, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish hamda talabalar motivatsiyasini mustahkamlashda namoyon bo‘ladi.

Talabalar Virtual Exchange va CLIL texnologiyalari orqali ingliz tilini amaliy kontekstda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lib, bu ularning til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi. Amaliy faoliyatlar va real muloqot sharoitlari talabalarni faol ishtirok etishga undaydi, natijada til o‘rganish jarayoni yanada samarali va qiziqarli bo‘ladi. Shu tariqa, motivatsiyaning oshishi o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini mustahkamlash va rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.[97]

Virtual Exchange va CLIL texnologiyalarini amaliy qo‘llash doirasida talabalar Zoom, Teams yoki Google Meet kabi onlayn platformalar orqali xalqaro muloqotda faol ishtirok etadilar. Shuningdek, ular birgalikda prezentatsiya, video yoki tadqiqot loyihalarini tayyorlash orqali hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Bundan tashqari, onlayn forumlar va bloglarda fikr almashish orqali o‘zaro muloqot va bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu bilan birga, bu jarayonlarda www.mypalpen.com sayti ham samarali vosita sifatida keng qo‘llaniladi, bu esa talabalar o‘rtasida xalqaro hamkorlik va kommunikatsiyani yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Content and Language Integrated Learning (CLIL) — bu ingliz tilini boshqa fanlar (tarix, biologiya, IT, san’at) orqali o‘rgatish metodikasi. Til o‘rganish mazmun

[96]O’Dowd, R. (Ed.). (2020). *Second language teaching and learning through virtual exchange*. Routledge.

[97]Tuymanova, I. F. (2024). Xorijiy tilni o‘qitishda “Pen Pals” loyihasining ahamiyati. *Pedagogik va psixologik tadqiqotlar*, VOLUME-II, ISSUE-2, 5 p.

bilan bog‘lanadi va talabalar tilni faqat lingvistik emas, balki akademik kontekstda ham qo‘llashni o‘rganadi.

Yuqoridagi metodlarning afzalliklar shulardan iborat:

- mazmuniy integratsiya: Sayt til o‘rganishni fanlar mazmuni bilan uyg‘unlashtiradi, bu esa foydalanuvchilarga tilni kontekstual va mazmunli ravishda o‘zlashtirish imkonini beradi.

- kognitiv rivojlanish: Murakkab va abstrakt tushunchalarni ingliz tilida anglash orqali yuqori darajadagi fikrlash ko‘nikmalari shakllanadi.

- motivatsiya va qiziqish: Saytning interaktiv va maqsadga yo‘naltirilgan o‘quv materiallari o‘rganishni qiziqarli qiladi va foydalanuvchilarning o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi.

- akademik tayyorgarlik: Ingliz tilida ilmiy va akademik matnlarni tushunish va yaratish ko‘nikmalari rivojlanadi, bu esa foydalanuvchilarni yuqori ta’lim va professional faoliyatga tayyorlaydi.

- til ko‘nikmalarining integratsiyasi: Tinglash, o‘qish, yozish va gapirish ko‘nikmalari birgalikda rivojlantiriladi, bu esa tilni kompleks va samarali o‘rganishni ta’minlaydi.

- madaniyatlararo kompetensiya: Sayt orqali foydalanuvchilar nafaqat til, balki ingliz tilida ifodalangan madaniy va ilmiy kontekstlarni ham o‘rganadilar.[98]

CLIL metodologiyasi doirasida talabalar ingliz tilini turli fanlar orqali o‘rganadilar. Masalan, tarix darslarida ular ingliz tilida tarixiy voqealarni muhokama qilib, nafaqat til ko‘nikmalarini, balki tarixiy bilimlarini ham chuqurlashtiradilar, bu esa ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi va ingliz tilida laboratoriya tajribalarini tushuntirish orqali ilmiy atamalarni o‘zlashtiradi va fan sohasidagi kommunikativ ko‘nikmalarini oshiradi. IT darslarida esa ingliz tilida dasturlash asoslarini o‘rganish orqali talabalar zamonaviy texnologiyalar bilan tanishib, texnik tilni amaliy qo‘llash imkoniyatlarini kengaytiradilar. Shu tarzda,

[98]Mehisto, P., Marsh, D., & Frigols, M. J. (2008). *Uncovering CLIL: Content and language integrated learning in bilingual and multilingual education*. Macmillan Education.

CLIL metodologiyasi til va fan bilimlarini integratsiyalash orqali o‘quv jarayonining samaradorligini va mazmuniyligini oshiradi.

Virtual Exchange va CLIL texnologiyalari ingliz tilini o‘rgatishda nafaqat til ko‘nikmalarini rivojlantirish, balki talabalarni global madaniyatlararo muloqotga tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu metodlar orqali talabalar nafaqat tilni o‘rganadi, balki uni amaliy kontekstda qo‘llashni, tanqidiy fikrlashni va mustaqil o‘rganishni ham rivojlantiradi.[99]

Zamonaviy ta’lim jarayonida Virtual Exchange va CLIL texnologiyalari talabalar uchun interaktiv va mazmunli o‘rganish muhitini yaratadi. Bu metodlar yordamida talabalar o‘zaro hamkorlikda ishlash, yangi bilimlarni ingliz tilida qabul qilish va o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Virtual Exchange va CLIL texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar:

Pedagoglar uchun maxsus treninglar tashkil etilishi zarur bo‘lib, unda Virtual Exchange va CLIL metodologiyalarining nazariy asoslari hamda amaliy qo‘llanilishi bo‘yicha malaka oshirish imkoniyatlari yaratilishi lozim.

Dars rejalariga Virtual Exchange va CLIL faoliyatlarini tizimli va maqsadga muvofiq ravishda integratsiya qilish orqali o‘quv jarayonining samaradorligi va mazmuniyligi oshirilishi muhimdir.

Talabalarni zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtirish, ularni faol ishtirokga jalb qilish uchun interaktiv va kommunikativ metodlarni qo‘llash tavsiya etiladi.

Onlayn platformalar va resurslardan samarali foydalanish, shu jumladan xalqaro hamkorlik va muloqot imkoniyatlarini kengaytirish pedagogik jarayonni boyitadi.

Baholash tizimini til ko‘nikmalari va mazmuniy bilimlarni birgalikda o‘lchashga moslashtirish orqali o‘quv natijalarining aniq va to‘liq baholanishi ta’minlanishi kerak.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki Virtual Exchange va CLIL texnologiyalari bo‘lajak pedagoglar uchun ingliz tilini o‘rgatishda samarali metodlar hisoblanadi.

[99] Tuymanova, I. F. (2024). Til o‘rganishda autentik materiallarning o‘rni va bu sohadagi “Pen Pals” loyihasining autentik usul sifatida qo‘llanilishi. *Taraqqiyot tadqiqotlari*, ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 3 p.

Virtual Exchange talabalarni global muloqotga tayyorlasa, CLIL ularni akademik va fanlararo kontekstda tilni qo‘llashga o‘rgatadi. Har ikkisi ham til o‘rganishni mazmunli, motivatsion va zamonaviy tashkil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati.

1. Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). *CLIL: Content and language integrated learning*. Cambridge University Press.
2. Dalton-Puffer, C. (2007). *Discourse in content and language integrated learning (CLIL) classrooms*. John Benjamins Publishing.
3. Dooly, M., & Vinagre, M. (2021). Research into practice: Virtual exchange in language teaching and learning. *Language Teaching, 55*(3), 1–15. Cambridge University Press.
4. O’Dowd, R. (Ed.). (2020). *Second language teaching and learning through virtual exchange*. Routledge.
5. Tuymanova, I. F. (2024). Xorijiy tilni o‘qitishda “Pen Pals” loyihasining ahamiyati. *Pedagogik va psixologik tadqiqotlar*, VOLUME-II, ISSUE-2, 5 p.
6. Tuymanova, I. F. (2024). Til o‘rganishda autentik materiallarning o‘rni va bu sohadagi “Pen Pals” loyihasining autentik usul sifatida qo‘llanilishi. *Taraqqiyot tadqiqotlari*, ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 3 p.

MAKTAB ADABIY TA’LIMIDA SHE’RIY SAN’ATLARNI O‘QITISHDAGI MURAKKABLIKLAR

Abdullayev Akmal Amirovich,
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti,
Tillar va maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti v.b., f.f.f.d (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktab adabiy ta’limida she’riy san’atlarni o‘qitish jarayonida yuzaga keladigan metodik, lingvopoetik va psixologik murakkabliklar ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinadi. She’riy san’atlarning nazariy

tasnifi, ularning badiiy matn tarkibidagi funksiyasi hamda o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilish jarayonidagi qiyinchiliklar aniqlanadi. Tadqiqotda milliy adabiyotshunoslik va metodika manbalariga tayangan holda muammoning yechimiga doir ilmiy xulosalar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: *she’riy san’at, badiiy matn, poetika, adabiy ta’lim, metodika, talqin, lingvopoetika, estetik tafakkur.*

Аннотация. В статье анализируются методические, лингвопоэтические и психологические трудности преподавания поэтических средств выразительности в школьном литературном образовании. Рассматриваются классификация поэтических приёмов, их функциональная роль в художественном тексте, а также проблемы их усвоения учащимися. На основе национальных и зарубежных научных источников формулируются выводы и практические рекомендации.

Ключевые слова: *поэтические средства, художественный текст, поэтика, литературное образование, методика, интерпретация, эстетическое мышление.*

Abstract. This article analyzes methodological, linguopoetic, and psychological difficulties in teaching poetic devices in secondary school literary education. The classification of poetic devices, their functional role in literary texts, and challenges in students’ comprehension are examined. Based on national and international scholarly sources, scientific conclusions and practical recommendations are proposed.

Keywords: *poetic devices, literary text, poetics, literary education, methodology, interpretation, aesthetic thinking.*

Maktab adabiy ta’limi tizimida she’riy san’atlarni o‘qitish muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Chunki badiiy tafakkur, estetik idrok va poetik tahlil ko‘nikmalari aynan she’riy vositalar orqali shakllanadi. O‘zbek mumtoz adabiyotida, xususan, Xorazmiy, Lutfiy, Navoiy, Atoiy, Sakkokiy, Bobur va Ogahiy ijodida she’riy san’atlar mukammal badiiy tizim sifatida namoyon bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu haqda adabiyotshunos olim Anvar Hojiahmedov: “She’riy san’atlar

badiiy tafakkurning estetik shaklidir; ular mazmunni chuqurlashtiradi, obrazni jonlantiradi”, – deya qayd etadi [6: 37-bet]. Ushbu fikr she’riy san’atlarni o‘qitishning nafaqat nazariy, balki tarbiyaviy ahamiyatini ham belgilaydi.

Sharq mumtoz poetikasida tashbeh, istiora, tazod, talmeh, tajnis kabi san’atlar alohida tizimni tashkil etadi. She’riy san’atlarning lirik janrlar tizimidagi o‘rnini taniqli adabiyotshunos Izzat Sulton quyidagicha ta’kidlaydi: “Badiiy asarning estetik qudrati ko‘p jihatdan undagi tasvir vositalarining uyg‘unligiga bog‘liq” [4: 112-bet]. Rus adabiyotshunosligida ham poetik vositalar muhim o‘rin tutadi. Viktor Jirmunskiy bu haqda: «Poetik obraz trop va kompozitsiyaning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladi», – deya yozadi[3: 56-bet]. Ushbu nazariya maktab darslarida she’riy san’atlarni matn kontekstida o‘rgatish nechog‘lik zarur ekanligini ko‘rsatadi. Ingliz adabiyotshunosligida poetik vositalar “figurative language” termini doirasida talqin qilinadi. Cleanth Brooks bu haqda shunday ta’rif beradi: “She’riyat tili – paradoks tilidir” [1: 3-bet]. Ushbu yondashuv she’riy san’atlarning ko‘p qatlamli semantikasini anglash muammosini ochib beradi.

Maktab adabiy ta’limida she’riy san’atlarni o‘qitishdagi metodik murakkabliklar haqida fikr yuritganda buning sabablari sifatida bir qancha obyektiv va subyektiv omillarni keltirish mumkin. Jumladan, maktab amaliyotida quyidagi muammolar kuzatiladi:

1. Nazariy tushunchalarning o‘rgatilishida sodda, oson va ravon uslubni qo‘llamaslik natijasida murakkabliklarning yuzaga kelishi. O‘quvchilar ko‘pincha maktab adabiy ta’limida o‘rganiluvchi murakkab bo‘lmagan she’riy san’atlar hisoblangan tashbeh bilan isti’orani farqlashda ham qiynaladilar.

2. Terminologik (atamalarga xos) ortiqchalik. She’riy san’atlarning nomlari, ularning o‘rgatilishida arabcha-forscha istilohlarning etimologik tarjimasini hamda ma’no ko‘chish yo‘li bilan tarjimasini o‘rgatmaslik o‘quvchilarning badiiy idrokini qiyinlashtiradi.

3. Matndan ajratib, uzib olingan holda o‘qitish. She’riy san’atlarni matnning yaxlit butunligidan alohida ajratib, uzib olingan holda talqin qilish ularning mazmuni hamda estetik funksiyasini ochib bermaydi.

Atoqli metodist olim Qozoqboy Yo‘ldoshev shunday ta’kidlaydi: “Adabiy tahlil jarayoni o‘quvchining mustaqil fikrlash faoliyati bilan bog‘lanmasa, u quruq nazariy mashqqa aylanadi” [5: 89-bet].

Bundan tashqari, she’riy san’atlarni o‘qitishda psixologik va lingvopoetik omillar ham mavjud, ya’ni she’riy san’atlarni idrok etish abstrakt tafakkur darajasi bilan bog‘liq. Yuqori sinf o‘quvchilarida metaforik tafakkur yetarli shakllanmagan bo‘lsa, she’riy san’atlarni tushunish murakkablashadi. Rus psixologi Lev Vygotskiy fikricha: «Badiiy obrazni tushunish ma’lum darajadagi abstraksiyani talab qiladi.» [2: 145-bet]. Mazkur holat maktabda she’riy san’atlarni o‘qitishda bosqichma-bosqich yaxlit metodik tizimni ishlab chiqishni talab qiladi.

Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalarga tayangan holda muammoning yechimiga doir quyidagi takliflarni berish mumkin:

- she’riy san’atlarni matn asosida integrativ o‘qitish;
- interfaol metodlar (klaster, konseptual xarita, komparativ tahlil)dan foydalanish;
- mumtoz va zamonaviy she’riyatni qiyosiy o‘rganish;
- lingvopoetik tahlil elementlarini joriy etish.

Maktab adabiy ta’limida she’riy san’atlarni o‘qitish ko‘p qirrali metodik jarayon bo‘lib, u nazariy aniqlik, lingvopoetik yondashuv va psixologik tayyorgarlikni talab etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, she’riy san’atlarni kontekstual, funksional va integrativ asosda o‘qitish samarali natija beradi. Milliy va xorijiy tajribani uyg‘unlashtirish mazkur jarayonni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Brooks C. The Well Wrought Urn. – New York: Harcourt, 1947. – 256 p.

2. Выготский Л. С. Психология искусства. – М.: Искусство, 1968. – 379 с.

3. Жирмунский В. М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Л.: Наука, 1977. – 407 с.

4. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980. – 320 b.

5. Yo‘ldoshev Q. Adabiy ta’lim metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002. – 240 b.

6. Hojiahmedov A. She’riy san’atlar va badiiy mahorat. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004. – 168 b.

IKKINCHI TILNI O‘QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH: METODIKA VA SAMARADORLIK.

Nurgizarova Zakira Beketovna

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Tillar va maktabgacha a’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi (PhD)

Mayusupova Malika Shavkat qizi

Xorijiy til va adabiyoti fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola ikkinchi tilni o‘qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarning qo‘llanilishini tahlil qiladi. Raqamli asrda til ta’limi tubdan o‘zgarib, o‘qitish va o‘rganish tajribasini yaxshilash uchun innovatsion vositalar va resurslar paydo bo‘ldi. Maqolada sun'iy intellekt, virtual va kengaytirilgan reallik, mobil ilovalar va o‘yinlashtirish kabi texnologiyalarning til o‘rgatishdagi o‘rni, ularning afzalliklari va integratsiya strategiyalari muhokama qilinadi. Shuningdek, texnologiyalarni vazifaga asoslangan ta'lim va aralash ta'lim kabi pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish masalalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *pedagogik texnologiyalar, ikkinchi til o‘qitish, raqamli ta'lim, sun'iy intellekt, virtual reallik, o‘yinlashtirish, vazifaga asoslangan ta’lim*.

Аннотация: В данной статье анализируется использование современных педагогических технологий в процессе обучения второму языку. В цифровую эпоху языковое образование претерпело значительные изменения, и появились инновационные инструменты и ресурсы для улучшения процесса преподавания и обучения. В статье рассматривается роль таких технологий, как искусственный интеллект, виртуальная и дополненная реальность, мобильные приложения и геймификация, в преподавании языков, их преимущества и

стратегии интеграции. Также освещаются вопросы сочетания технологий с педагогическими подходами, такими как обучение на основе задач и смешанное обучение.

Ключевые слова: *педагогические технологии, обучение второму языку, цифровое обучение, искусственный интеллект, виртуальная реальность, геймификация, обучение на основе задач*.

Abstract: This article analyzes the use of modern pedagogical technologies in second language teaching. In the digital age, language education has undergone significant changes, with the emergence of innovative tools and resources to enhance teaching and learning. The article examines the role of technologies such as artificial intelligence, virtual and augmented reality, mobile apps, and gamification in language teaching, their benefits, and integration strategies. It also highlights the combination of technologies with pedagogical approaches such as task-based learning and blended learning.

Keywords: *pedagogical technologies, second language teaching, digital learning, artificial intelligence, virtual reality, gamification, task-based learning*.

Bugungi globallashuv davrida ikkinchi tilni o‘rganish hayotiy zaruriyatga aylandi. XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim sohasiga, xususan, chet tillarni o‘qitish metodikasiga ham tub o‘zgarishlar olib kirdi. Globallashuv sharoitida ko‘p tillilik muhim ahamiyat kasb etar ekan, o‘qituvchilar til o‘rganishni qo‘llab-quvvatlash uchun an’anaviy va raqamli ta’lim muhitlarida yangi imkoniyatlarni izlamoqdalar.

Ta’lim tizimidagi islohotlar o‘qituvchidan nafaqat tilni bilishni, balki uni yetkazib berishda eng samarali yo‘llarni topishni talab qilmoqda. An’anaviy “yodlash” metodikasidan voz kechib, talabani dars markaziga qo‘yuvchi yangi pedagogik texnologiyalarga o‘tish davr talabidir.

Ikkinchi tilni o‘qitishda qo‘llanilayotgan zamonaviy texnologiyalarni bir necha asosiy guruhlarga ajratish mumkin.

1. Loyiha usuli (Project Method). Talabalar ma’lum bir mavzu bo‘yicha mustaqil izlanish olib boradilar va natijani taqdimot shaklida namoyish etadilar. Bu jarayonda til o‘rganuvchi tildan maqsadli foydalanishni o‘rganadi.

2. O‘yin texnologiyalari (Gamification). Til o‘rganishdagi psixologik to‘siqlarni olib tashlash uchun dars davomida rolli o‘yinlar, kvestlar va intellektual musobaqalardan foydalaniladi. Bu, ayniqsa, so‘z boyligini oshirishda samarali.

3. AKT va multimedia vositalari. Internet resurslari (Duolingo, Quizlet), video darslar va podkastlar tinglash orqali talabalarda Listening (tinglab tushunish) va Speaking (gapirish) ko‘nikmalari tabiiy muhitda shakllanadi.

4. Sun’iy intellekt vositalari. Sun’iy intellekt (AI) va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyalari til o‘qitishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. AI asosidagi platformalar talabalarga real vaqt rejimida suhbatlashish imkonini beruvchi chat-botlar, talaffuzni tuzatuvchi virtual repetitorlar va shaxsiylashtirilgan o‘quv dasturlarini taklif etadi. Masalan, ELSA Speak ilovasi real vaqt rejimida talaffuzni tahlil qilib, urg’u va qiyin tovushlar haqida fikr-mulohaza beradi. Revita platformasi esa Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasiga asoslanib, o‘quvchining shaxsiy darajasiga moslashtirilgan mashqlar yaratadi.

5. O‘yinlashtirish va mobil ilovalar. Mobil yordamida til o‘rganish (MALL) istalgan vaqt, istalgan joyda ta’lim olish imkonini beradi. O‘yin elementlaridan foydalanish (gamification) o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirib, ularni faol ishtirok etishga undaydi. Kompyuter o‘yinlarining “kvestlar” asosidagi tuzilishi vazifaga asoslangan ta’lim (TBLT) metodologiyasi bilan uzviy bog’liq bo‘lib, o‘quvchilar o‘yin davomida real vazifalarni bajarish orqali tilni o‘rganadilar.

6. Aralash ta'lim (Blended learning). An’anaviy yuzma-yuz ta’limni onlayn resurslar va raqamli topshiriqlar bilan uyg’unlashtirish aralash ta’lim muhitini yaratadi. Sinxron va asinxron o‘qitish usullarini birlashtirish o‘quvchilarning qiziqishini uyg‘otadi.

Ikkinchi tilni o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish quyidagi asosiy imkoniyatlarni yaratadi:

1. Ta’lim jarayonini shaxsiylashtirish

2. Talabalar motivatsiyasini oshirish

3. Real muloqot muhitini yaratish

4. Mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Bugungi kunda har bir talabaning qo‘lidagi smartfon – kuchli ta’lim vositasiga aylandi. Biroq, texnologiyalarni qo‘llashda muhim tamoyil – ularni pedagogik maqsadlarga bo‘ysundirishdir. Texnologiya vosita emas, balki maqsadga erishish vositasi bo‘lishi kerak.

Yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash darsning sifatini oshiradi, talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otadi va eng muhimi – “til to‘sig‘i”ni yengishga yordam beradi. O‘qituvchi faqat ma’lumot beruvchi emas, balki jarayonni yo‘naltiruvchi (fasilitator) vazifasini bajarishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ishmuhamedov R. J., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – T.: “Iste’dod”, 2008

2. Khodjayeva, G., & Akhmadaliyeva, K. (2024). Chet tilini o‘rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar: Raqamli asrda til o‘rganishni kuchaytirish. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 2(5), 499-503.

3. Foreign language teaching technologies. (2025). Zenodo.

4. Omirzak, A. (2025). Digital educational resources and artificial intelligence: new opportunities in teaching English as a foreign language. Bilimger.kz.

5. Kuldasheva, M. (2024). TBLTda texnologiyalarni integratsiyalash: til o‘rganish tajribasini oshirish. Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika, 2(3), 420-425.

6. Passov E. I. Kommunikativniy metod obucheniya inostrannomu govoreniyu. – M.: Prosveщenie, 1991.

7. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: "Moliya", 2003.

THE ROLE OF EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN GAMIFIED REFLECTIVE PRACTICES

Mahmudova Zilola Shukhrat qizi

EFL teacher, Chirchik State Pedagogical University

E-mail: *z.mahmudova@cspu.uz*

Abstract. This thesis explores the role of educational technologies in supporting and enhancing gamified reflective practices in higher education, with particular attention to English language teaching. Drawing on theories of gamification, reflective learning, and technology-enhanced education, the study examines how digital tools and platforms facilitate reflective engagement through game elements such as points, badges, levels, progress visualization, and interactive feedback. The analysis suggests that educational technologies not only support the implementation of gamified reflection but also contribute to increased learner motivation, deeper reflection, and more learner-centered instructional environments.

Keywords: *educational technologies, gamification, reflective practices, higher education, learner autonomy, digital learning.*

Annotatsiya. Mazkur tezis oliy ta'lim tizimida gamifikatsiyalangan reflektiv amaliyotlarni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishda ta'lim texnologiyalarining tutgan o'rnini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, unda ingliz tilini o'qitishga alohida e'tibor qaratiladi. Gamifikatsiya, reflektiv ta'lim va texnologiyalar asosida boyitilgan ta'lim nazariyalariga tayangan holda, tadqiqot raqamli vositalar va platformalar reflektiv faollikni ballar, raqamli belgilar (badge), darajalar, taraqqiyot vizualizatsiyasi hamda interaktiv fikr-mulohaza kabi o'yin elementlari orqali qanday qo'llab-quvvatlashini tahlil qiladi. Tahlil natijalari ta'lim texnologiyalari nafaqat gamifikatsiyalangan refleksiya jarayonlarini amalga oshirishga xizmat qilishini, balki o'quvchilarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish, refleksiyaning chuqurlashuvi hamda ta'lim jarayonining o'quvchi markazlashuvini ta'minlashga ham hissa qo'shishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *ta'lim texnologiyalari, gamifikatsiya, reflektiv amaliyotlar, oliy ta'lim, o'quvchi mustaqilligi, raqamli ta'lim.*

Аннотация. В данной тезисной работе рассматривается роль образовательных технологий в поддержке и развитии геймифицированных рефлексивных практик в системе высшего образования с особым акцентом на преподавание английского языка. Опираясь на теории геймификации, рефлексивного обучения и технологий, обогащающих образовательный процесс, в исследовании анализируется, каким образом цифровые инструменты и платформы способствуют рефлексивной активности обучающихся посредством игровых элементов, таких как баллы, цифровые значки (бейджи), уровни, визуализация прогресса и интерактивная обратная связь. Результаты анализа показывают, что образовательные технологии не только обеспечивают эффективную реализацию геймифицированной рефлексии, но и способствуют повышению учебной мотивации, углублению рефлексивного мышления и формированию более ориентированной на обучающегося образовательной среды.

Ключевые слова: *образовательные технологии, геймификация, рефлексивные практики, высшее образование, автономия обучающихся, цифровое обучение.*

The rapid development of educational technologies has profoundly influenced teaching methodologies in higher education. Digital platforms, online learning environments, and interactive tools have expanded opportunities for student-centered learning and have reshaped traditional instructional practices. In this evolving educational landscape, there is a growing emphasis on developing learners’ autonomy, self-regulation, and reflective thinking skills, which are considered essential for lifelong learning.

Reflection is widely recognized as a core component of effective learning. Through reflection, students analyze their learning experiences, evaluate their progress, and make informed decisions about future learning strategies [4: 113]. In English language teaching and other academic disciplines, reflective practices support deeper learning and promote metacognitive awareness. However, when reflection is implemented through conventional written journals or formal reports,

students often perceive it as repetitive and unengaging, which limits its educational value.

To address this challenge, educators have increasingly turned to gamification as a pedagogical approach that introduces game elements into non-game learning contexts. Gamification has been shown to enhance motivation, engagement, and persistence by making learning activities more interactive and goal-oriented. When combined with educational technologies, gamification offers new possibilities for designing reflective practices that are dynamic, engaging, and meaningful. This thesis aims to explore the role of educational technologies in the implementation of gamified reflective practices and to analyze their pedagogical potential in higher education [3: 9].

Reflective learning is grounded in the idea that meaningful learning occurs when learners actively analyze their experiences. Reflective practices encourage students to question their assumptions, evaluate outcomes, and develop strategies for improvement. Educational theorists emphasize that reflection supports deep learning, critical thinking, and personal development.

In higher education, reflective practices are commonly implemented through learning journals, portfolios, and feedback discussions. While these methods are pedagogically valuable, they often lack immediacy and interactivity, especially in large or technology-mediated classrooms. As a result, students may engage with reflection superficially, completing tasks without genuine cognitive involvement.

Gamification refers to the use of game design elements such as points, badges, levels, challenges, and leaderboards in non-game contexts. In education, gamification is used to increase motivation, foster engagement, and encourage sustained participation in learning activities. Research suggests that gamification can positively influence learners’ emotional and behavioral engagement by providing clear goals, immediate feedback, and a sense of achievement. When applied to reflective practices, gamification can transform reflection from a routine activity into an interactive learning experience. By framing reflection as a challenge or quest,

learners become more motivated to analyze their experiences and articulate their thoughts.

Educational technologies provide the infrastructure necessary for implementing gamified reflective practices. Digital learning management systems, mobile applications, and online collaboration platforms enable educators to design interactive tasks, track learner progress, and provide instant feedback. These technologies support personalized learning pathways and allow students to reflect at their own pace. The integration of educational technologies with gamification creates opportunities for continuous reflection supported by visual progress indicators, digital rewards, and interactive feedback mechanisms. This combination enhances both the accessibility and effectiveness of reflective practices.

Educational technologies play a central role in facilitating gamified reflective practices. Digital platforms allow educators to design reflective tasks that incorporate game mechanics and multimedia elements. For example, online learning management systems can be used to assign reflective challenges, award digital badges for consistent reflection, and visualize learner progress through dashboards.

Mobile applications and online tools enable students to record reflections in various formats, including text, audio, and video. This multimodal approach caters to diverse learning preferences and encourages more authentic reflection. Additionally, interactive feedback tools allow students to receive immediate responses to their reflections, reinforcing engagement and motivation.

Gamified reflective practices supported by technology also promote collaboration and peer interaction. Discussion forums, shared digital portfolios, and collaborative reflection tasks enable students to learn from each other’s experiences and perspectives [8: 182]. Such interaction enriches the reflective process and contributes to a supportive learning community.

The integration of educational technologies into gamified reflective practices offers several pedagogical benefits. First, it increases learner motivation by making reflection more interactive and rewarding. Second, it enhances metacognitive awareness by providing structured prompts and visual feedback. Third, it supports

learner autonomy by allowing students to take control of their reflective learning process. However, the implementation of gamified reflective practices also presents challenges. These include the need for careful instructional design, adequate technological infrastructure, and teacher training. Without clear pedagogical goals, gamification may become superficial and fail to support meaningful reflection. Therefore, educators must ensure that game elements align with learning objectives and reflective outcomes.

This thesis highlights the significant role of educational technologies in supporting and enhancing gamified reflective practices in higher education. By combining digital tools with gamification principles, educators can transform reflection into an engaging, learner-centered process that promotes motivation, autonomy, and metacognitive development. Educational technologies provide the necessary platforms for implementing interactive reflection, offering opportunities for personalization, collaboration, and continuous feedback.

The findings suggest that gamified reflective practices supported by educational technologies have strong pedagogical potential, particularly in language education and other learner-centered disciplines. Future research may focus on empirical evaluation of specific technologies and the long-term impact of gamified reflection on academic achievement and learner development.

REFERENCES

1. Absatarova, A.A. Q., & Qizi, Z. M. S. (2025). Why english should be taught an early age. *Academic research in educational sciences*, *6* (NUU Conference Students 1), 353-357.

2. Brookhart S. M. How to create and use rubrics for formative assessment and grading. – Alexandria, VA : ASCD, 2013. – 192 p.

3. Deterding S., Dixon D., Khaled R., Nacke L. From game design elements to gamefulness: Defining gamification // *Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference*. – New York : ACM, 2011. – P. 9–15.

4. Dewey J. Experience and education. – New York : Macmillan, 1938. – 116 p.

5. Mansurbekova, K. M. Q., & Mahmudova, Z. S. Q. (2025). The role of communicative language teaching (clt) in developing speaking skills: a multimodal approach. *Academic research in educational sciences*, *6*(NUU Conference Students 1), 115-119.

6. NO, P. The Methodological Importance Of Self-Assessment And Reflection In The Process Of Teaching English.

7. Redecker C. European framework for the digital competence of educators (DigCompEdu). – Luxembourg : Publications Office of the European Union, 2017. – 95 p.

8. Turmamatova, D. N. Q., & Makhmudova, Z. S. Q. (2025). Ways and principles of developing pronunciation sub-skills in teaching a foreign language. Academic research in educational sciences, 6(NUU Conference Students 1), 181-184.

“5”-SINF ADABIYOT DARSLARIDA EPIK ASARLARNI O‘QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Xasanova Nozimaxon Xasan qizi

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Tillar va maktabgacha ta’lim fakulteti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

+998945228507

Annotatsiya. Ushbu maqolada 5-sinf adabiyot darslarida epik asarlarni o‘qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalasi yoritilgan. Interfaol metodlarning o‘quvchilarning matnni anglash, tahlil qilish va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslangan. Tajriba natijalari asosida metodlarning samaradorligi ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: *adabiyot, darslik, epik asar, badiiy tafakkur, pedagogik texnologiya, zamonaviy yondashuv*

Аннотация. В данной статье рассматривается использование современных педагогических технологий в процессе преподавания эпических произведений на уроках литературы для 5 класса. Научно обоснована важность интерактивных методов в развитии у учащихся навыков понимания, анализа и самостоятельного мышления. Эффективность методов продемонстрирована на основе результатов эксперимента.

Ключевые слова: *литература, учебник, эпическое произведение, художественное мышление, педагогические технологии, современный подход*

Annotation. This article examines the use of modern pedagogical technologies in teaching epic works in fifth-grade literature classes. The importance of interactive methods in developing students' comprehension, analysis, and independent thinking skills is scientifically substantiated. The effectiveness of these methods is demonstrated through experimental results.

Keywords: *literature, textbook, epic work, artistic thinking, pedagogical technologies, modern approach*

Umumiy o‘rta ta’lim tizimida adabiyot fanini o‘qitishning asosiy maqsadi o‘quvchilarda badiiy-estetik tafakkurni shakllantirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iborat. 5-sinf bosqichi o‘quvchilarni epik janrdagi asarlar bilan izchil tanishtirish davri hisoblanadi. Epik asarlar voqea-hodisalarni keng tasvirlash, obrazlar orqali hayotiy muammolarni yoritish xususiyati bilan ajralib turadi. “5”-sinf darsliklarida xalq og‘zaki ijodi namunalari hamda mumtoz va zamonaviy adiblar ijodi o‘rin olgan bo‘lib, xususan, Hamid Olimjon, Erkin Vohidov kabi adiblar asarlari o‘quvchilarning badiiy tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. “5”-sinf adabiyot darsligida epik asarlarga misol keltiradigan bo‘lsak, birinch navbatda xalq og‘zaki ijodidan, hammamiz sevib o‘qiydigan asarlardan biri bu “Uch og‘a-ini botirlar” ertagi hisoblanadi. Bundan tashqari Mirtemir she’rlari, Sharq hikoyat va rivoyatlari darslikda keltirilgan. “Sariq devni minib” romanidan parchalar keltirilgan. Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlariga nazar tashlasak bunda darsga qiziqmaydigan o‘qishni yomon ko‘radigan, o‘quvchilarni ham qiziqtirib ketsa bo‘ladi. Oddiy o‘qish va mazmunini so‘rash bilan cheklanmasdan uni

jonlantirish ham muhimdir. Adabiyot darsligida shularga etibor berilgan, o‘qish uchun asar berilishidan oldin o‘quvchilarni qiziqtirish maqsadida savol bilan murojaat qilingan, asar ichidan o‘quvchilar uchun qiziq bo‘lgan o‘rinlari keltirib o‘tilgan. Ayniqsa asar mazmunidan kelib chiqib, o‘quvchining yoshiga mos rasmlardan foydalanilgan. Bundan maqsad o‘zlashtirishi past bo‘lgan o‘quvchilar ham asar voqealariga qiziqib o‘qishi, undan xulosa chiqarishi, fikrlay olishi, tafakkuri kengayishi ko‘zda tutilgan. Uyga berilgan topshiriq va vazifalar bo‘limida topshiriqlar, lug‘atlar bilan ishlash, reja tuzish ,ijodiy rasmlar bilan ishlash, sahna ko‘rinishlari tayyorlash kabi vazifalar keltirilgan. Demak, zamonaviy va qiziqarli yondashuv asosida tashkil etilgan adabiyot darslari o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik texnologiya – bu ta’lim jarayonini maqsadli, tizimli va natijaga yo‘naltirilgan holda tashkil etishdir. Epik asarlarni o‘qitishda quyidagi interfaol metodlar samarali natija beradi:

1. “Aqliy hujum” metodi

Asar mavzusi yuzasidan o‘quvchilarning dastlabki bilim va tasavvurlarini aniqlashga xizmat qiladi.

2. “Klaster” metodi

Obrazlar tizimini va syujet chizig‘ini tahlil qilishda qulay vosita hisoblanadi.

3. “Rolli o‘yin” metodi

Qahramon xarakterini ochishda, o‘quvchilarning ijodiy va emotsional faolligini oshirishda samaralidir.

4. “BBB” (Bilaman – Bilmoqchiman – Bildim) jadvali

O‘quvchilarning bilim darajasidagi o‘zgarishni aniqlash imkonini beradi. Tajriba-sinov natijalariga ko‘ra, interfaol metodlardan foydalanilgan sinflarda o‘quvchilarning matnni anglash darajasi va mustaqil fikrlash ko‘rsatkichlari an’anaviy darslarga nisbatan yuqori bo‘ladi. Jumladan, o‘quvchilarning darsdagi faolligi oshadi, badiiy matnni tahlil qilish ko‘nikmasi shakllanadi, og‘zaki nutqi rivojlanadi, adabiyot faniga qiziqish kuchayadi.

Xulosa qilib aytganda, 5-sinf adabiyot darslarida epik asarlarni o‘qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta’lim sifatini oshiradi. Interfaol metodlar o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, obrazlarni chuqur tahlil qilishga va badiiy asarni ongli qabul qilishga o‘rgatadi. Shu bois adabiyot darslarida zamonaviy metodlarni tizimli ravishda qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.

2. To‘xliyev B. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016.

3.Ishmuhamedov R., Abduqodirov A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2019.

4. 5-sinf Adabiyot darsligi. –Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022.

5. Xoliqov A. Pedagogik mahorat va texnologiya. – Toshkent, 2020.

INGLIZ TILINI O‘QITISHDA MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARINING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Fayzulloyeva Parinoz Xudoybergan qizi

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Xorijiy til va adabiyoti yo‘nalishi, 2-bosqich talabasi

Email: parinozfayzullayeva32@gmail.com

Ilmiy rahbar: ***M.H.Sharopova***

Abstract. This article examines the pedagogical significance of multimedia technologies in English language teaching at secondary and higher education levels. Drawing on dual coding theory, cognitive multimedia learning principles, and contemporary applied linguistics research, this study demonstrates that the purposeful integration of audiovisual and interactive digital resources enhances communicative competence, listening skills, and learner motivation. The study emphasises that technology alone does not ensure better outcomes; rather, pedagogically grounded

multimedia use determines effectiveness. Evidence-based recommendations are provided for teachers and curriculum designers.

Keywords: *multimedia technologies, English language teaching, pedagogical effectiveness, communicative approach, dual coding theory, learner motivation, digital learning environment.*

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumiy o‘rta va oliy ta’lim bosqichlarida ingliz tilini o‘qitishda multimedia texnologiyalarining pedagogik ahamiyati tahlil qilinadi. Dual coding nazariyasi, kognitiv multimedia ta’lim tamoyillari hamda zamonaviy amaliy lingvistika tadqiqotlariga tayangan holda audiovizual va interaktiv raqamli resurslardan maqsadli foydalanish kommunikativ kompetensiya, tinglab tushunish ko‘nikmalari va o‘quvchilar motivatsiyasini oshirishga xizmat qilishi asoslab beriladi. Shuningdek, texnologiyaning o‘zi yuqori natijani kafolatlamasligi, balki uning metodik jihatdan asoslangan qo‘llanilishi pedagogik samaradorlikni belgilashi ta’kidlanadi. Maqolada o‘qituvchilar va o‘quv dasturi ishlab chiquvchilar uchun amaliy tavsiyalar ham keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *multimedia texnologiyalari, ingliz tilini o‘qitish, pedagogik samaradorlik, kommunikativ yondashuv, dual coding nazariyasi, o‘quvchi motivatsiyasi, raqamli ta’lim muhiti.*

Jahon ta’lim tizimining rivojlanishi sharoitida chet tillarini, xususan ingliz tilini o‘qitish metodologiyasi sezilarli darajada yangilanmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng tarqalishi ta’lim jarayoniga yangi yondashuvlarni joriy etishni talab qilmoqda, chunki an’anaviy o‘qitish usullari zamonaviy o‘quvchilarning axborotni interaktiv va ko‘p kanalli (multimodal) qabul qilish xususiyatlariga to‘liq mos kelmaydi.

Shu bois multimedia texnologiyalarini ta’lim jarayoniga tatbiq etish dolzarb pedagogik masalaga aylandi. Multimedia vositalari matn, audio, video va grafik elementlarni uyg‘unlashtirgan holda til o‘rganishda kommunikativ muhit yaratishga xizmat qiladi [1, B. 45–48]. Biroq ularni samarali qo‘llashning metodologik asoslari, ayniqsa O‘zbekiston ta’lim tizimi sharoitida, ayrim jihatlarda yetarlicha tizimlashtirilmagan.

Mazkur maqolada ingliz tilini o‘qitishda multimedia texnologiyalarining nazariy va amaliy pedagogik ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot multimedia integratsiyasining o‘quv natijalari, o‘quvchilar motivatsiyasi va ta’lim samaradorligiga ta’sirini ilmiy manbalar asosida yoritishga qaratilgan.

Multimedia texnologiyalarining nazariy asoslari. Multimedia tushunchasi pedagogik jihatdan faqat texnik vositalar majmuasi emas, balki ta’lim jarayonining psixologik va metodik asoslari bilan bog‘liq tizim sifatida qaraladi. Allan Paivioning dual coding nazariyasiga ko‘ra, inson miyasi axborotni verbal va vizual tizimlar orqali parallel ravishda qayta ishlaydi, bu esa bilimni samaraliroq o‘zlashtirishga yordam beradi [8, B. 67–70]. Ushbu nazariyani rivojlantirgan R. Mayer kognitiv multimedia ta’lim nazariyasida matn va tasvirning uyg‘un qo‘llanishi o‘rganish samaradorligini oshirishini ta’kidlaydi. Uning tadqiqotlari multimedia materiallari ta’lim jarayonida bilimni chuqurroq anglashga xizmat qilishini ko‘rsatadi [1, B. 45–48].

Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar til o‘qitishda texnologik vositalardan foydalanishni qo‘llab-quvvatlaydi [4, B. 29–32]. Multimedia vositalari verbal va vizual axborotni birgalikda taqdim etish orqali o‘quvchilarning eslab qolish jarayonini kuchaytiradi hamda samarali o‘quv muhitini shakllantirishga yordam beradi.

Ingliz tilini o‘qitishda multimedia vositalarining roli. Multimedia vositalarining ingliz tili darslaridagi roli ko‘p qirrali bo‘lib, u til kompetentsiyasining barcha komponentlarini — tinglab tushunish, so‘zlashish, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini — yaxlit rivojlantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy ingliz tili darslarida multimedia vositalari kommunikativ yondashuvni qo‘llash imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi [2, B. 84–86]: autentik video materiallar, podkastlar va interaktiv dialoglar orqali o‘quvchilar sun'iy tuzilgan darslik vaziyatlaridan ko‘ra haqiqiy muloqotga yaqin kommunikativ tajriba orttiradilar.

Tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish masalasida multimedia vositalarining o‘rni beqiyosdir. Multimedia vositalari ingliz tili darslarida o‘quvchilarning tinglab tushunish qobiliyatini izchil rivojlantirib boradi [6, 55–58]:

bir xil til jarayonini turli lahjada gapiruvchi so‘zlovchilar ovozi, turli nutq sur'atlari va intonatsiya namunalari orqali idrok etish o‘quvchida til eshitish idrokini kengaytiradi va hayotiy muloqotga tayyorgarlikni mustahkamlaydi. Audiovizual vositalar o‘quvchilarning kognitiv diqqatini darsga qaratib, bilimni mustahkamlashga faol ko‘maklashadi [1, B. 45–48]: vizual kontekst so‘z ma'nosini xotirada uzoq muddatga ushlab turuvchi assotsiativ zanjirlar tizimini hosil qiladi.

Interaktiv texnologiyalar, xususan nutqni tanib olish tizimlari, chatbot-o‘qituvchilar va rolli o‘yin simulyatorlari o‘quvchilarning nutq faoliyatini rivojlantirishda alohida samaradorlik ko‘rsatadi [2, B. 84–86]. O‘qitish metodlari tarixiy rivoji nuqtayi nazaridan qaralsa, multimedia vositalari endi pedagogik jarayonning ixtiyoriy qo‘shimchasi sifatida emas, balki uning ajralmas metodologik tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda [4, B. 29–32]. Bu o‘zgarish, ayniqsa, kommunikativ va vazifalarga asoslangan (task-based) metodlar bilan uzviy bog‘liqdir, chunki ushbu metodlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi aynan autentik materiallar va real muloqot muhitini talab etadi.

Vizual materiallardan foydalanish o‘quvchilar faolligini oshirishda ham hal qiluvchi rol o‘ynaydi [6, B. 55–58]. Statik matn sahifasi bilan munosabatda bo‘lgan o‘quvchi asosan passiv axborot qabul qiluvchi bo‘lsa, multimedia muhitida u faol konstruktor — axborotni o‘zi talqin qiladigan, tanlaydigan va qayta ishlaydigan sub'ektga aylanadi. Bu o‘zgarish o‘quvchining ta'limdagi agentligini (learner agency) kuchaytiradi.

Motivatsiya va texnologiya o‘rtasidagi bog‘liqlik

Motivatsiya psixologiyasi va til o‘qitish metodologiyasining kesishgan nuqtasida joylashgan muhim savol – texnologiyalar o‘quvchining ichki motivatsiyasiga qanday ta'sir ko‘rsatadi? Til o‘rganishda motivatsiya o‘quvchilarning til egallashdagi muvaffaqiyatiga bevosita va kuchli ta'sir ko‘rsatadi [3, B. 72–75]: uzoq muddatli ichki motivatsiyaga ega o‘quvchilar metakognitiv strategiyalardan ko‘proq foydalanadi, mustaqil o‘qish vaqtini ko‘proq ajratadi va murakkab vazifalar oldida bardoshlilik namoyon etadi.

Texnologiyalar yordamida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarda kognitiv qiziqishni oshirishga, ya'ni ko‘proq mustaqil o‘rganishga intilish his-tuyg‘usini kuchaytirishga qodir [3, B. 72–75]. Bu ta'sir bir necha mexanizm orqali amalga oshadi: birinchidan, raqamli muhit o‘quvchilarga o‘z o‘rganish sur’ati va yo‘nalishini belgilash imkonini beradi (avtonomilik his-tuyg‘usi); ikkinchidan, gamifikatsiya elementlari – ball, ko‘tarilish darajalari, yutuq nishonlari – ta'limni maqsadga yo‘naltirilgan o‘yin formatiga yaqinlashtiradi; uchinchidan, darhol fikr-mulohaza (instant feedback) mexanizmi o‘quvchining xatolarini konstruktiv tarzda to‘g‘irlashga imkon beradi va xato qilishdan qo‘rqish hissiyotini kamaytiradi.

Multimedia texnologiyalari o‘quvchilarning motivatsiya darajasini oshirishga yordam beradi [7, B. 219–222], chunki vizual jihatdan boy va interaktiv ta'lim muhiti kognitiv qiziqishni uyg‘otib, o‘rganishni zaruriy majburiyatdan ijodiy jarayonga aylantiradi. Raqamli platformalar mustaqil ta'lim imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi [5, B. 112–115]: Duolingo, BBC Learning English, Coursera kabi resurslar o‘quvchilarga sinf vaqtidan mustaqil ravishda anglofon media muhitiga kirib borishga, listeningni mustaqil mashq qilishga va interaktiv grammatika mashqlarini bajarishga sharoit yaratadi. Ushbu cheksiz kirishish imkoniyati darsdan tashqari o‘rganishni institutlashtirib, hayotiy ta'lim (lifelong learning) madaniyatini shakllantiradi.

Multimedia vositalarining pedagogik afzalliklari. Multimedia vositalarining pedagogik afzalliklari tizimli tahlil qilinsa, bir necha asosiy yo‘nalish ajralib chiqadi. Birinchi yo‘nalish — individuallashtirilgan ta'lim imkoniyati. Kompyuter asosidagi ta'lim tizimlari til o‘rganishda har bir o‘quvchiga nisbatan moslashuvchan individual yondashuv amalga oshirish imkonini beradi [5, B. 112–115]: adaptiv algoritmlar o‘quvchining xato naqshlari va o‘zlashtirish sur'atini tahlil qilgan holda materialning murakkablik darajasini avtomatik tarzda moslashtiradi. Bu esa an'anaviy sinfda deyarli amalga oshirib bo‘lmaydigan haqiqiy differentsiatsiyani ta'minlaydi.

Ikkinchi yo‘nalish – autentik tilni o‘rganish muhitini yaratish. Zamonaviy texnologiyalar ingliz tilini o‘rganishda samarali pedagogik vosita sifatida ishlaydi [7, B. 219–222], chunki ular real anglofon muhitidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri materiallar —

yangiliklar, filmlar, podkastlar, ijtimoiy tarmoq postlarini o‘quv jarayoniga olib kirish imkonini beradi. Bu autentik kontaktning lingvistik ahamiyati kattadir: o‘quvchi tilni sun’iy tuzilgan namunalardan emas, balki real muloqot kontekstida idrok etishni o‘rganadi.

Uchinchi yo‘nalish – ko‘p sezgi a'zolarini birgalikda faollashtirish (multimodal learning). Multimedia ta'limda vizual, audial va kinestetik kanallarni bir vaqtda ishga solish orqali ko‘p qirrali semantik iz hosil qiladi, bu esa bilimni uzoq muddatli xotirada saqlash imkoniyatini kuchaytiradi. To‘rtinchi yo‘nalish – formativ baholash imkoniyatlarining kengayishi. Raqamli platformalar o‘quvchilarning javoblari, xatolari va vaqt sarfi to‘g‘risida real vaqt rejimida ma'lumot to‘plash va tahlil qilish imkonini beradi, bu esa o‘qituvchiga qo‘shimcha metodologik asos asosida ta'lim strategiyasini tezkor tuzatish imkonini yaratadi.

Zamonaviy tadqiqotlar tahlili. Multimedia texnologiyalarining til ta'limiga ta'sirini o‘rganuvchi empirik tadqiqotlar so‘nggi ikki o‘n yillikda keskin ko‘paydi va metodologik jihatdan ham ancha murakkablashdi. Mayer (2009) tomonidan amalga oshirilgan keng miqyosli eksperimental tadqiqotlar multimedia ta'lim tamoyillarining universalligini asoslab berdi va matn-rasm kombinatsiyasi faqat matn yoki faqat rasmga nisbatan materialni yaxshiroq o‘zlashtirilishiga olib kelishini statistik jihatdan tasdiqladi [1, B. 45–48].

Brown (2014) ingliz tili o‘qitishda kommunikativ metodologiya va raqamli vositalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganib, interaktiv multimedia faoliyatlarining o‘quvchilarda speaking va listening ko‘nikmalarini bir vaqtda rivojlantirishda birgalikda samarali ta'sir ko‘rsatishini aniqladi [2, B. 84–86]. Mahdi (2018) mobil qurilmalar yordamida tashkil etilgan ta’lim jarayonlari leksik birliklarni o‘zlashtirish samaradorligini oshirishini aniqlagan [3, B. 72–75]..

Yunus va hammuallif (2019) tadqiqotida raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish o‘quvchilarning o‘quv jarayonidagi faolligini oshirish imkoniyatiga ega ekani qayd etiladi, biroq ushbu samaradorlik o‘qituvchining texnologiyadan metodik jihatdan to‘g‘ri foydalanishiga bog‘liq ekani ta’kidlanadi [7, B. 219–222]. Ushbu

natija muhim metodologik xulosani yuzaga keltiradi: multimedia faqat vosita, uning samaradorligi esa ushbu vositani boshqaradigan pedagog mahoratiga bog‘liq.

Chun va Plass (2016) ning raqamli o‘qish muhitida leksik bilim o‘zlashtirilishini o‘rganuvchi tadqiqoti ham diqqatga sazovordir: ushbu tadqiqotda interaktiv izohlar (vizual va audial birgalikda) so‘zlarni eslab qolishda faqat matniy izohlardan sezilarli darajada samarali bo‘lgani aniqlandi [8, B. 67–70]. Warschauer (2004) kompyuter vositalida til o‘qitishning (CALL) rivojlanish tarixi va pedagogik imkoniyatlarini chuqur tahlil qilib, raqamli muhitning o‘quvchilarga autentik ma'lumot izlash, ijodiy til ishlatish va tengdoshlar bilan hamkorlik qilish imkonini bergani sababli an'anaviy ta'lim muhitidan tubdan farq qilishini asoslab berdi [5, B. 112–115].

Xulosa va tavsiyalar. Mazkur maqolada multimedia texnologiyalarining ingliz tili ta’limidagi pedagogik ahamiyati nazariy va empirik jihatdan tahlil qilindi. Dual coding nazariyasi hamda kognitiv multimedia ta’lim tamoyillariga asoslangan holda audio, video va interaktiv raqamli vositalarning til ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish va individuallashtirilgan ta’limni qo‘llab-quvvatlashdagi roli ko‘rsatildi.

Shu bilan birga, multimedia texnologiyalari o‘z-o‘zicha yuqori pedagogik natija bermasligi ta’kidlandi. Ularning samaradorligi, avvalo, o‘qituvchining texnologiyani maqsadga muvofiq va metodik jihatdan asosli qo‘llay olishiga bog‘liq.

Amaliy tavsiyalar sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin: multimedia vositalari dars maqsadlari bilan uyg‘un holda qo‘llanishi, material tanlashda o‘quvchilarning til darajasi va madaniy konteksti hisobga olinishi hamda o‘qituvchilarning raqamli pedagogika bo‘yicha malakasini muntazam oshirish zarur.

Umuman olganda, multimedia texnologiyalaridan maqsadli va metodik asosda foydalanish ingliz tilini o‘qitish samaradorligini oshirishga hamda ta’lim jarayonini zamonaviy talablar darajasida tashkil etishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mayer, R.E. Multimedia Learning. – 2nd ed. – New York: Cambridge University Press, 2009. – 320 p. (B. 45–48).

2. Brown, H.D. Principles of Language Learning and Teaching. – 6th ed. – New York: Pearson Education, 2014. – 378 p. (B. 84–86).

3. Mahdi, H.S. Effectiveness of Mobile Devices on Vocabulary Learning: A Meta-Analysis // Journal of Educational Computing Research. – 2018. – Vol. 56, № 1. – P. 72–95. (B. 72–75).

4. Harmer, J. The Practice of English Language Teaching. – 4th ed. – Harlow: Pearson Education, 2015. – 448 p. (B. 29–32).

5. Warschauer, M. Technology and Social Inclusion: Rethinking the Digital Divide. – Cambridge, MA: MIT Press, 2004. – 260 p. (B. 112–115).

6. Rost, M. Teaching and Researching Listening. – 2nd ed. – Harlow: Pearson Education, 2011. – 342 p. (B. 55–58).

7. Yunus, M.M., Salehi, H., Nordin, N. ESL Pre-Service Teachers’ Perceptions on the Use of Paragraph Punch for Teaching Writing // English Language Teaching. – 2019. – Vol. 6, № 10. – P. 78–90. (B. 219–222).

8. Paivio, A. Mental Representations: A Dual Coding Approach. – New York: Oxford University Press, 1986. – 322 p. (B. 67–70).

INGLIZ TILIDA ERKIN GAPIRISH OMILLARI
FACTORS INFLUENCING FLUENT SPEAKING IN ENGLISH

Fayzulloyeva Parinoz Xudoybergan qizi
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Xorijiy til va adabiyoti yo‘nalishi, 2-bosqich talabasi
Email: parinozfayzullayeva32@gmail.com
Ilmiy rahbar: ***M.H.Sharopova***

Abstract: Speaking fluency in English remains one of the most essential yet challenging skills for language learners. This article examines the psychological, pedagogical, and environmental factors that influence learners’ ability to speak

confidently. Based on communicative language teaching and psycholinguistic research, it examines the roles of motivation, anxiety, authentic practice, listening input, and classroom atmosphere in oral development. Particular attention is given to fluency–accuracy balance, communicative exercises, and the supportive role of modern technologies. The findings indicate that psychologically safe learning environments, real-life communication tasks, and consistent practice significantly enhance speaking fluency. Practical recommendations are provided for teachers and learners.

Keywords: *speaking fluency, communicative competence, language anxiety, motivation, authentic materials, oral practice.*

Annotatsiya: Ingliz tilida erkin gapirish ko‘nikmasi til o‘rganuvchilar uchun muhim, ammo murakkab jarayon hisoblanadi. Mazkur maqolada o‘quvchining ingliz tilida ishonch bilan gapira olishiga ta’sir qiluvchi psixologik, pedagogik va muhit omillari tahlil qilinadi. Motivatsiya, nutq qo‘rquvi, autentik amaliyot, tinglash ko‘nikmasi va sinf muhiti og‘zaki nutq rivojiga ta’siri nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi. Fluency va accuracy muvozanati, kommunikativ mashqlar hamda zamonaviy texnologiyalarning speaking rivojidagi roli yoritiladi. Natijalar psixologik qulay muhit, real kommunikativ vazifalar va muntazam amaliyot nutq ravonligini oshirishda muhim ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *nutq ravonligi, kommunikativ kompetensiya, til tashvishi, motivatsiya, autentik materiallar, og‘zaki amaliyot.*

Ingliz tili bugungi globallashuv davrida xalqaro muloqot, ilm-fan, biznes va madaniyat sohasida asosiy vosita sifatida tan olingan. Til o‘rganish jarayonida to‘rtta ko‘nikma — o‘qish, yozish, tinglash va gapirish — birga rivojlantiriladi. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab o‘quvchilar grammatika va lug'atni yaxshi bilishlariga qaramay, erkin gapira olishmaydi. Bu holat speaking ko‘nikmasining o‘z tabiatiga ko‘ra boshqa ko‘nikmalardan farq qilishini anglatadi.

Speaking — bu faqat til bilimini namoyish etish emas, balki real vaqtda fikrni shakllantirib, uni tovush orqali ifodalash jarayonidir. Shu sababli bu ko‘nikma bir qator psixologik, ijtimoiy va metodologik omillar bilan chambarchas bog'liq. Nutq

psixologiyasi nuqtai nazaridan qaraganda, nutq jarayoni fikr shakllanish, kodlash va artikulyatsiyadan iborat bo‘lib [10, B. 22–30], ularning har biri alohida tayyorgarlik va mashqni talab qiladi.

Ushbu maqolaning maqsadi ingliz tilida erkin gapirish omillarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, pedagogik yondashuvlarni baholash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, O‘zbekistonda ingliz tilini o‘qitish islohotlari keng ko‘lamda amalga oshirilmoqda, biroq speaking ko‘nikmasini rivojlantirish metodologiyasi hali yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Speaking psixologiyasi tilshunoslik, kognitiv psixologiya va pedagogika kesishmasida joylashadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, til o‘rganishda psixologik omillar, ayniqsa o‘z-o‘ziga ishonch va motivatsiya, og'zaki nutqning sifati va faolligiga bevosita ta'sir qiladi [1, B. 267–270]. Biror til o‘rganuvchisi o‘z qobiliyatiga ishonmasa, u nutq holatida ortiqcha kognitiv yuklamani boshdan kechiradi, bu esa erkin gapirish imkoniyatini cheklaydi.

Kommunikativ yondashuv (Communicative Language Teaching) sohasidagi nazariyotchilar erkin gapirish ko‘nikmasining nazariy va grammatik bilimlardan emas, balki bevosita kommunikativ tajribadan shakllana borishi g'oyasini ilgari suradi [1, B. 280–285]. Ya'ni, til o‘rganuvchi qancha ko‘p haqiqiy muloqot holatlarida qatnashsa, uning nutqi shuncha tabiiy va erkin bo‘lib boradi. Bu nuqtai nazar grammatik-tarjima metodidan sezilarli darajada farq qiladi.

Motivatsiya nazariyasi nuqtai nazaridan Dörnyei kontseptsiyasi e'tiborga loyiqdir. Bu yondashuvga ko‘ra, o‘quvchining ichki (intrinsik) va tashqi (ekstrinsik) motivatsiyasi uning speaking faolligiga to‘g'ridan-to‘g'ri ta'sir ko‘rsatadi [6, B. 35–40]. Ichki motivatsiya — ya'ni ingliz tilida gapirish orqali muloqot qurish, yangi odamlar bilan tanishish, g'oyalarni ifodalash istagi — tashqi rag'batdan ancha mustahkam va uzoq muddatli samara beradi.

Nutq jarayonining kognitiv modeli ham muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu modelga ko‘ra, nutq real vaqtdagi fikrlash jarayoni hisoblanadi [4, B. 1–10]: tilchi tinglovchi biladi nima demoqchi ekanligini, lekin bu fikrni tezda so‘zga aylantirish, grammatik jihatdan to‘g'ri shakllantirish va to‘g'ri talaffuz qilish —

bularning hammasini bir vaqtda amalga oshirish katta kognitiv kuch talab qiladi. Shu sababli speaking ko‘nikmasi rivojlanishiga sistematik yondashuv kerak.

Ingliz tilida erkin gapirishga ta’sir qiluvchi omillar. Til o‘rganish jarayonida psixologik omillar, ayniqsa nutq qo‘rquvi va ishonch darajasi, ingliz tilida erkin gapirish ko‘nikmasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, language anxiety o‘quvchilarning nutq sifatiga salbiy ta’sir qilib, ularni oddiy va tanish iboralar bilan cheklanib qolishga majbur qiladi [7, B. 125–128]. Xato qilishdan qo‘rqish yoki boshqalar oldida noqulay ko‘rinishdan xavotirlanish so‘z tanlash va grammatik shakllarni qo‘llash jarayonini sekinlashtiradi, bu esa nutq ravonligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi [8, B. 283–295]. Aksincha, psixologik jihatdan qulay muhit o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi, ularni yangi iboralarni sinab ko‘rishga undaydi va natijada erkin gapirish imkoniyatini kengaytiradi [8, B. 296–305].

Motivatsiya ham speaking rivojining muhim omillaridan biri hisoblanadi. O‘quvchi ingliz tilini nima maqsadda o‘rganayotganini anglaganida uning nutq faoliyati barqarorroq bo‘ladi [6, B. 35–40]. Motivatsion strategiyalar qo‘rquv darajasini kamaytirib, o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshirishi mumkin [6, B. 117–134]. Amaliy topshiriqlar, masalan, autentik video materiallarni muhokama qilish yoki real kommunikativ vazifalarni bajarish speaking amaliyotiga qiziqishni kuchaytiradi. Speaking rivojida fluency va accuracy o‘rtasidagi muvozanat ham muhim hisoblanadi: faqat grammatik to‘g‘rilikka e’tibor qaratish o‘quvchini gapirishdan cho‘chitishi mumkin, faqat ravonlikka urg‘u berish esa xatolarni mustahkamlashi ehtimoli bor [3, B. 7–15]. Shu sababli speaking mashqlarida erkinlikni saqlagan holda, alohida mashqlarda tuzatishlar kiritish samaraliroq hisoblanadi.

Listening va speaking ko‘nikmalari o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, tinglab tushunish orqali o‘quvchi nutq ohangi, tezligi va iboralar qo‘llanilishini o‘zlashtiradi [5, B. 19–25]. Autentik audio va video materiallar real nutq namunalari bilan tanishtirib, speaking rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [5, B. 26–34]. Bundan tashqari, muntazam amaliyot nutq avtomatizatsiyasini ta’minlaydi, ya’ni tez-tez ishlatiladigan so‘z va iboralar ongli kuch sarflamasdan qo‘llanila boshlaydi [10, B. 31–40]. Doimiy

speaking mashqlari nutq tezligini oshirib, fikrni ingliz tilida erkin ifodalashga yordam beradi, chunki til bilimining o‘zi yetarli emas — samarali nutq uchun muntazam kommunikativ amaliyot zarur [9, B. 95–103].

Speaking ko‘nikmasini rivojlantirishda kommunikativ til o‘qitish metodologiyasi (CLT) eng keng qo‘llaniladigan yondashuv hisoblanadi. Bu metodologiyaning asosida real hayot muloqot holatlariga o‘xshash mashqlardan foydalanish yotadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, real kommunikativ speaking mashqlari an'anaviy til mashqlaridan ancha samaraliroq [2, B. 123–130], chunki ular o‘quvchini haqiqiy muloqotga tayyorlaydi.

Kommunikativ mashqlar orasida rol o‘ynash (role-play), muloqot kartalari (information gap), munozara, taqdimot va guruh loyihalari alohida o‘rin tutadi. Bu turdagi mashqlar o‘quvchida spontan nutqni rivojlantiradi, ya'ni u oldindan tayyorlangan matnni o‘qimay, o‘z fikrini erkin bayon etishga o‘rganadi [4, B. 44–56].

Qo‘llab-quvvatlovchi sinf muhiti — bu pedagogik omillarning eng muhimlaridan biri. O‘quvchi o‘zini baholanmayotgan, xato qilsa kamsitilmayotgan deb his qilsagina, u speaking faoliyatiga dadilroq kirishadi [2, B. 140–145]. O‘qituvchining o‘quvchiga nisbatan ijobiy munosabati, xatolarni to‘g'ri tuzatish usullari va sinfdagi do‘stona atmosfera — bularning barchasi speaking faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Pedagogik jihatdan yana bir muhim yondashuv — bu aralash ta'lim (blended learning). Darsda kommunikativ mashqlar o‘tkazilib, uy vazifasi sifatida o‘quvchilarga podcast tinglash, xorijiy hamqasblar bilan onlayn muloqot qilish yoki o‘z nutqini yozib olish va tahlil qilish topshiriladi. Bu yondashuv speaking amaliyotini sinfxona bilan cheklamaydi va o‘quvchiga ko‘proq imkoniyat yaratadi.

Raqamli texnologiyalar speaking ko‘nikmasini rivojlantirishda yangi imkoniyatlar ochib bermoqda. Sun’iy intellekt asosidagi ilovalar (masalan, ELSA Speak, Duolingo, Google Pronunciation Coach) o‘quvchiga talaffuzini darhol tekshirib ko‘rish va tuzatish imkonini beradi. Bu esa an’anaviy darsda har doim ham mumkin bo‘lmaydigan individual fikr-mulohazani ta’minlaydi.

Video konferentsiya platformalari (Zoom, MS Teams, Google Meet) va til almashish platformalari (Tandem, HelloTalk) o‘quvchilarga tilni ona tili sifatida ishlatadiganlar bilan muloqot qurish imkonini beradi. Bu turdagi autentik kommunikatsiya o‘quvchida real speaking ko‘nikmalarini shakllantiradi va motivatsiyasini oshiradi. Ayniqsa, real muloqot sharoitida gapirish tajribasi o‘quvchiga sinfdagi mashqlardan ko‘ra ko‘proq ishonch beradi.

Podcast va YouTube kanallar speaking rivojida ikki tomonlama xizmat qiladi: birinchidan, ular autentik ingliz nutqiga doimiy ta'sir qilish imkonini beradi; ikkinchidan, o‘quvchi o‘zi ham podcast yozib, ko‘nikmalarini mustaqil rivojlantirishi mumkin. Shadow reading va transcription mashqlari ham texnologiyalar yordamida yanada samarali amalga oshirilmoqda.

Biroq texnologiyalarning o‘zi speaking muammolarini hal qilmaydi. Ular faqat qulay vosita bo‘lib, asosiy omillar — motivatsiya, amaliyot va psixologik qulaylik — o‘z kuchini saqlab qoladi. O‘qituvchi texnologiyalarni shu asosiy omillarni kuchaytirish uchun vosita sifatida ishlatishi kerak.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilida erkin gapirish ko‘nikmasiga ta’sir qiluvchi omillar asosan psixologik, metodologik va tashqi muhit omillariga bo‘linadi. Bu omillar o‘zaro bog‘liq holda ishlaydi: motivatsiya oshsa amaliyot ko‘payadi, muntazam amaliyot esa nutq avtomatizatsiyasini kuchaytirib, qo‘rquvni kamaytiradi. Natijada speaking rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi jarayon yuzaga keladi.

Tadqiqotlar nutq qo‘rquvi ko‘plab mamlakat o‘quvchilariga xos ekanini ko‘rsatadi, biroq uning darajasi madaniy muhitga qarab farq qiladi. O‘zbekiston ta’lim sharoitida ham o‘quvchilarning xato qilishdan qo‘rqib gapirmaslikka moyilligi kuzatiladi, bu esa kommunikativ yondashuvni joriy etishda qiyinchilik tug‘diradi.

Fluency va accuracy muvozanati masalasida yagona yondashuv mavjud emas: ayrim olimlar dastlab ravonlikni rivojlantirish tarafdori bo‘lsa, boshqalar bu ikki ko‘nikmani parallel rivojlantirishni ma’qul ko‘radi. Amaliy tajriba esa yondashuvni o‘quvchining darajasi va dars maqsadiga mos tanlash samaraliroq ekanini ko‘rsatadi.

Zamonaviy texnologiyalar speaking rivojiga yangi imkoniyatlar yaratgan bo‘lsa-da, ular pedagogik asoslarni to‘liq almashtirmaydi. Qo‘llab-quvvatlovchi muhit, kommunikativ mashqlar va muntazam amaliyot hanuz asosiy omillar bo‘lib qolmoqda, texnologiyalar esa ushbu jarayonni kengaytirish va mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ingliz tilida erkin gapirish ko‘nikmasi grammatika qoidalarini yodlash yoki lug‘at to‘plash bilan emas, balki real muloqot tajribasi, psixologik qulaylik va muntazam amaliyot orqali shakllanadi. Ushbu tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchining erkin gapira olishiga to‘sqinlik qiluvchi asosiy omil ko‘pincha bilim emas, qo‘rquv va ishonchsizlikdir. Shu sababli oŞqituvchining eng muhim vazifasi — sinfda xato qilishdan qo‘rqmaydigan, fikrni erkin ifodalash mumkin bo‘lgan muhit yaratish. Bundan tashqari, kommunikativ mashqlar, autentik audio-video materiallar va texnologiyalardan oqilona foydalanish speaking rivojiga katta hissa qo‘shadi. O‘quvchi uchun esa eng qisqa yo‘l oddiy: ko‘proq tinglash, ko‘proq gapirish va xatolardan qo‘rqmay oldinga intilish.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Scovel, T. A Time to speak: A psycholinguistic inquiry into the critical period for human speech. Newbury House, 1988.

2. Littlewood, W. Communicative Language Teaching: An Introduction. Cambridge University Press, 1981.

3. Brumfit, C. Communicative Methodology in Language Teaching: The Roles of Fluency and Accuracy. Cambridge University Press, 1984.

4. Bygate, M. Speaking. Oxford University Press, 1987.

5. Rost, M. Listening in Language Learning. Longman, 1990.

6. Dörnyei, Z. Teaching and Researching Motivation. Pearson Longman, 2001.

7. Horwitz, E. K., Horwitz, M. B., & Cope, J. Foreign language classroom anxiety // The Modern Language Journal, 1986. — Vol. 70, No. 2.

8. MacIntyre, P. D., & Gardner, R. C. Methods and results in the study of anxiety and language learning // Language Learning, 1994. — Vol. 44, No. 2.

9. Nation, P., & Newton, J. Teaching ESL/EFL Listening and Speaking. Routledge, 2009.

10. Levelt, W. J. M. Speaking: From Intention to Articulation. MIT Press, 1989.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA TA’LIM JARAYONIDA BADIIY ADABIYOTNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Abdurahimova Sevinch

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti

Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish va kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirishning ilk jarayonini shakllantirish yo‘l-yo‘riqlari bayon etilgan. Katta yoshdagi guruhlarni kitobxonlikka qiziqtirish bo‘yicha metodik tavsiyalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: *ta’lim, badiiy adabiyot, tarbiya, muloqot madaniyati, tafakkur, ijtimoiy ko‘nikmalar, estetik did.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning so‘zlariga ko‘ra: “Har bir davlat va har bir millat, avvalo, o‘zining intellektual potensiali va yuqori ma’naviyati bilan kuchli bo‘ladi. Va bu mag‘lub bo‘lmas kuchning manbai – kitoblar va kutubxonalar – insoniyatning buyuk ixtirosidir.” Ushbu so‘zlar ta’lim jarayonida badiiy adabiyotning ahamiyatini yoritishda asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi. Kitob va badiiy asarlar nafaqat bilim manbai, balki insonning ma’naviyati, dunyoqarashi va hissiy dunyosini boyitadigan eng muhim vositalardan biridir. Badiiy adabiyot o‘quvchilarda estetik did, tafakkur va ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu nuqtayi nazardan, pedagogika va didaktika sohasida badiiy asarlarni ta’lim jarayoniga kiritish eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Ta’lim jarayonida badiiy adabiyotning tarbiyaviy ahamiyati bolalarning ma’naviy va estetik

rivojlanishida katta rol o‘ynaydi. Badiiy matnlar orqali bolalar hayotiy vaziyatlarni tushunishni, insoniy qadriyatlarni anglashni va tafakkurini rivojlantirishni o‘rganadilar. Shu bilan birga, badiiy adabiyot bolalarning so‘z boyligini oshirish, nutq madaniyatini shakllantirish va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Hozirgi kunda maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim tashkilotlarida badiiy adabiyotdan samarali foydalanish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda, ammo uning tarbiyaviy ahamiyati va ta’lim jarayonidagi rolini tizimli o‘rganishga e’tibor yetarli emas. Shu sababli, ushbu maqolada badiiy adabiyotning ta’lim jarayonidagi tarbiyaviy ahamiyati tahlil qilinadi.

Maqolaning maqsadi ta’lim jarayonida badiiy adabiyotning tarbiyaviy ahamiyatini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish, bolalarning muloqot madaniyati, tafakkuri, ijtimoiy ko‘nikmalari, estetik didi va ijodiy qobiliyatlarini badiiy matnlar orqali rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlarni aniqlashdir. Shu orqali bolalarning hissiy va intellektual rivojlanishini ta’minlash, ularning o‘zini ifoda etish qobiliyatini oshirish va ma’naviy-axloqiy tarbiyasini mustahkamlashga xizmat qiladigan metodlarni aniqlash ham maqsad qilinadi.

Ta’lim jarayonida badiiy adabiyotdan maqsadli foydalanish bolalarning hissiy-intellektual, ijtimoiy va muloqot qobiliyatlarini shakllantirishda muhim omil ekanligi olingan natijalar orqali tasdiqlanadi. Badiiy matnlarning o‘quv jarayoniga integratsiyasi bolaning ichki dunyosini boyitibgina qolmay, tafakkurini kengaytiradi, nutq madaniyatini mustahkamlaydi hamda ularni o‘z his-tuyg‘ularini aniqlik bilan ifoda etishga o‘rgatadi.G‘arb pedagogik tadqiqotlarida badiiy adabiyotning bilim va shaxsiyatni rivojlantirishdagi roli keng tahlil qilingan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, badiiy matnlar til ko‘nikmalari, o‘qish madaniyati va kritikal fikrlashni rivojlantiradi hamda bolalarda empatiya, hissiy ong va axloqiy qaror qabul qilish qobiliyatini oshiradi. Masalan, chet ellik tadqiqotchilar bolalar adabiyoti va o‘qish jarayoni o‘rtasidagi munosabatni o‘rganib, badiiy asarlar bolalar nutqi, estetik sezgirlik va madaniy tushunishni kuchaytirishini aniqlashdi. Ularning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, badiiy adabiyot bolalarning o‘qish madaniyati va shaxsiy rivojlanishini bir paytda qo‘llab-quvvatlaydi. Sharqda, ta’lim tizimlarida madaniyat va adabiyot

o‘qitish metodlarida badiiy asarlarni qo‘llash bolaning hissiy ongini va tafakkurini chuqur rivojlantiradi. Badiiy matnlar yosh avlodni insoniy qadriyatlar, mehr-oqibat, hurmat va adolat kabi universal jamiyat tamoyillariga yo‘naltiradi. Shu tariqa, adabiyot bolalar uchun ma’naviy tarbiya vositasi sifatida xizmat qiladi va ijtimoiy mas’uliyatni uyg‘otadi.Ta’lim jarayonida badiiy adabiyotning tarbiyaviy ahamiyati ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq qilingan. G‘arb va Sharq pedagogik fikrlarini tahlil qilganda, badiiy matnlar bolalarning tafakkuri, muloqot madaniyati va estetik didini shakllantirishda muhim vosita ekanligi aniq ko‘rinadi. Vygotskiy til va tafakkur rivojlanishining uzviy bog‘liqligini ta’kidlaydi. Uning fikricha: “Til va tafakkur rivojlanishi bir-birini mustahkamlovchi jarayonlardir.” Bu shuni anglatadiki, badiiy adabiyot bilan shug‘ullanish bolalarning fikrlash qobiliyatini va nutq madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Montessori bolalar ta’limi haqida shunday degan: “Ta’lim samarali bo‘lishi uchun bolaga hayotga ochilish imkonini berishi kerak.” Ya’ni, badiiy matnlar orqali o‘quvchilarning hissiy-ijtimoiy tafakkuri va dunyoni anglash salohiyati oshadi. Shunday qilib, badiiy matnlar bolalarda fantastika va real hayot tajribalarini solishtirib o‘rgatadi, ularni murakkab ijtimoiy vaziyatlarda o‘zini tutish qobiliyatiga yo‘naltiradi. Bu esa ta’lim jarayonida badiiy adabiyotning nafaqat estetika, balki ijtimoiy-axloqiy va tarbiyaviy funksiyasini ham ochib beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida badiiy adabiyot bolalarni aqlan, axloqan va estetik tarbiyalashning eng muhim vositasi bo'lib, ular nutqini o'stiradi, dunyoqarashini kengaytiradi va his-tuyg‘ularini shakllantiradi. Ertaklar va hikoyalar orqali bolalarda milliy tuyg'u, yaxshilik, halollik hamda tabiatga muhabbat kabi fazilatlar tarkib topadi. Badiiy obrazlar ta'lim jarayonini jonlantirib, bolalarni yoshiga mos ravishda tarbiyalaydi. Bolalarbop barcha asarlarda yosh avlodning dunyoqarashi, tafakkuri, o‘y-kechinmalari, orzu-istaklari, voqelikka estetik munosabati o‘z ifodasini topadi. Ularning aksariyati yozuvchilar (kattalar) tomonidan yaratilsa-da, voqelik bolalar dunyoqarashi nuqtayi nazaridan talqin va tadqiq etiladi, bolalar tilidan hikoya qilinadi va baholanadi. Bolalar turli faoliyatlari davomida badiiy adabiyot orqali tanishgan qahramonlariga taqlid qilishga o‘rganadilar. Taqlid asosida hayotiy

harakatlar modelini o‘zi uchun shakllantirib oladilar. Maktabgacha ta’lim hayotiy maktab sifatida bolalar uchun kerakli ma’lumotlarni badiiy adabiyot orqali o‘rgatadi. Bolalar o‘rgangan ma’lumotlarini hayotda uchraydigan voqea-hodisalar bilan solishtiradilar. Natijada ijobiy qahramonlar hatti-harakatlariga mos faoliyat orqali atrofdagilar bilan muloqotga kirishadilar, odobli va yaxshi bola rolini ijro etadilar. Shuning uchun ham badiiy adabiyotni bola shaxsini shakllantirish va nutqni rivojlantirishning muhim vositasi, bolalarni estetik va axloqiy tarbiyalash vositasi deb aytish mumkin. Badiiy asarlar bolaning atrof-muhitga bo‘lgan to‘g‘ri munosabatini shakllantirishga yordam beradi, real hayot omillarini umumlashtiradi, hayotni, insoniy his-tuyg‘ular va munosabatlar dunyosini bilishga yordam beradi. Bola ularning g‘oyalari va his-tuyg‘ularini, fikrlar va til tizimini tushunishni boshlaydi. Badiiy shakllarning ma’nosini tushunishda bolalarga otaonalar, pedagoglar va yaqinlari yordam beradi. Bizning tadqqiqotimizda maktabgacha yoshdagi bolalarga badiiy asar shakli, ba’zi xususiyatlari, matn tilining barqaror burilishlari, ritmi, qofiyasi va boshqa jihatlarini alohida ko‘rsatishga urg‘u berildi. Biroq bu jarayonda, ya’ni, badiiy materialni idrok etishda bolalarning individual xususiyatlari, bolalarning badiiy moyilligiga e’tibor qaratish lozim. Bu usullardan integrativ qo‘llash ham pedagogning metodik faoliyatida keng qo‘llanish uchun taklif etildi. Pedagogning metodik faoliyati vazifalari quyidagilar:

1. Bolalarda kitobga bo‘lgan ishtiyoqni, qiziquvchanlikni shakllantirish va o‘z vaqtida payqash.

2. Rasmli ifodalar va illyustratsiyalarni ko‘rib tushunish va nutqiy tasvirlash qobiliyatini shakllantirish.

3. Qahramonlarning alohida harakatlarini ajratib olish va savol-javobda ulardan foydalanishga tayyorlash. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga badiiy adabiyotni tanishtirishda qo‘llaniladigan usullardan biri bu sahnalashtirishdir. Sahnalashtirish usuli qo‘llanilganda bolalar asarni sevishga, uni mazmunan o‘zlashtirishga erishdilar. Ayniqsa, tadqiqot davomida rollar taqsimoti jarayonida bolalar o‘rtasida qahramonlarning talash bo‘lishi kuzatildi. Bunda pedagoglar uchun quyidagi ish turini qo‘llash taklif etildi. Bolalarga quyidagicha topshiriq berildi:

1. Berilgan sochma rasmlarni nomlash va asar bo‘yicha turkumlash to‘liq epizodni davom ettirish.

2. Oldin yod olingan va o‘zlashtirilgan she’rlardan yod olish (bir-biri bilan teng natijalarni qo‘lga kiritgan bolalar she’r misralarini navbat bilan aytadi, kim she’r aytishdan to‘xta qolsa, g‘olib bolaga qahramon rolini bajarish topshiriladi). Bolalarga rollar taqsimlab beriladi. Bolalarga she’rni oson yodlash imkonini berish maqsadida mnemonik yondashuvlardan foydalanildi. Mnemonikada she’rning qator boshidagi so‘zini shartli ifodalar bilan belgilashga e’tibor qaratildi. Shunda bolalar qatorni belgiga qarab qaysi so‘zdan boshlash kerakligini eslaydi va qatorni yoddan aytadi. Shu tartibda bir necha bor takrorlatish orqali hamda uyga takroran yod olish topshiriqlari berish bilan bolalar tomonidan she’rning yod olinishiga erishildi. Sanab o‘tilgan usullarni tarbiyachi-pedagoglar integrativ tarzda qo‘llashi ham ijobiy natija berishi kuzatildi. Bolalar adabiyoti bilan tanishtirish mashug‘lotlarida keng qo‘llanilgan usullardan biri bu tinglash va tushunishdir. Tarbiyachi tomonidan ta’sirli va ifodali o‘qilgan asarlar bolalarni tinglab, tushunishlarini ta’minlaydi. Tinglangan asarni tahlil qilish, ma’nosini tushunish, yodda saqlash, o‘z so‘zlari bilan bayon etish badiiy asar ustida ishlash bosqishlarini tashkil etadi. Badiiy asarlarni vizual vositalar yordamida namoyish qilish – taqdimot usuli ham qo‘llanildi. Tajriba-sinov ishlari davomida ikkala usulni integratsiyalagan “Ifodali taqdimot” texnologiyasi qo‘llanildi. Bunda ifodali o‘qib eshittirilgan asardagi rollar yopiq rasmlardan tanlash yordamida taqsimlandi. So‘ngra rollar ijrosi bo‘yicha har bir bolaga topshiriqlar tushuntirildi. Badiiy adabiyot va nutqni rivojlantirish mashg‘uloti davomida ko‘pgina uslubiy texnikalarning maqsadi matnni tinglash va tushunish jarayonini yengillashtirishni, bolalar tomonidan asarni eslab qolishga yordam berishni ko‘zda tutmog‘i lozim. Shuning uchun ifodali o‘qish pedagogdan dastlabki tayyorgarlikni talab qiladi. Dastlabki tayyorgarlikka asarni tahlil qilish, mag‘zini chaqish, ichida va ovoz chiqarib o‘qish mashqlari kiradi. Hamma tayyor bo‘lganidan so‘ng sahna ko‘rinishi boshlandi. Rollar ijrosiga qarab bo‘yalgan plakat ham paralel namoyish etildi. Shu tartibda bolalarning birgalikdagi faoliyati badiiy asar taqdimotida namoyish etildi. Mazmuni hayotiy va rang-barang rasmli ifodalarga ega bo‘lgan badiiy asar san’at

asari sifatida maktabgacha yoshdagi bolaga bevosita ta’sir qilish kuchiga egadir. Mazmuni va jozibadorligi bilan bolalar uchun qiziqarli bo‘lgan badiiy asarlar qahramonlarning harakatlari va ularning oqibatlari namoyishi orqali bolalar tomonidan mustaqil ravishda o‘zlashtiriladi. Badiiy adabiyot va nutqni rivojlantirish mashg‘uloti davomida ko‘pgina uslubiy texnikalarning maqsadi matnni tinglash va tushunish jarayonini engillashtirishni, bolalar tomonidan asarni eslab qolishga yordam berishni ko‘zda tutmog‘i lozim. Ushbu maqsadlarni hal qilish uchun quyidagi texnikadan foydalanish pedagoglarga taklif etildi. Har bir yosh davriga xos xususiyatlarni sharhlash orqali quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin: Badiiy adabi bolalarni har tomonlama tarbiyalashning ta’sirchan vositasi bo‘lib, u ular nutqini rivojlantirish va boyitishga ulkan hissa qo‘shadi. Badiiy adabiyot she’riy obrazlar orqali bolaga jamiyat, tabiat hayoti, insoniy his-tuyg‘ular va munosabatlarni tushunishga yordam beradi, emotsiyani boyitadi. Badiiy adabiyot maktabgacha yoshdagi bolalarda insonparvarlik his-tuyg‘ularini, hamdardlik, yaxshilik, kichiklar, ota-onalar va oilaning katta a’zolariga nisbatan g‘amxo‘rlik ko‘rsatish kabi hissiyotlarni shakllantirishga yordam beradi. Bolalar badiiy asarlardan estetik va axloqiy tasavvur oladilar. Bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirishni ularning yosh imkoniyatlari, nutqiy rivojlanish va adabiy asarlarni qabul qila olish darajasini hisobga olgan holda o‘tkazish zarur. Ushbu yosh bosqichida maktabgacha ta’lim tashkiloti va oilaning vazifasi – bolalarni adabiy rivojlantirish poydevorini hozirlash, ularni bo‘lajak o‘quvchilar sifatida shakllantirishdan iboratdir. Maktabgacha yosh davrida ertak va hikoyalarni ko‘p eshitgan bolaning nutqi ravon, fikrlashi tiniq, xayolot olami cheksiz bo‘ladi. O‘tkazilgan tajribalar maktabgacha ta’lim tashkilotlaridan ta’limning navbatdagi bosqichiga borgan bolalar bilan oiladan borgan bolalar o‘rtasida ravon nutqning rivojlanish darajasi va mustaqil fikrlash imkoniyatlarida sezilarli farq borligi va bu holat bolaning maktabning boshlang‘ich sinflarida yaxshi baholarga o‘qishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatishini belgilamoqda. Bugungi shiddatli rivojlanish davrida ertak, hikoyalar aytishning o‘zi kifoya qilmaydi. Buning sababi kompyuter o‘yinlari, televideniyada berilayotgan multfilmlar, ertak qahramonlari aks etgan harakatli o‘yinchoqlar bolada afsonaviy

devlar, uchar gilamlar, yalmog‘iz kampirlarga qiziqishini qiyinlashtiradi. Bu muammoni hal etishda xalq og‘zaki ijodi bilan tanishtirish ishlariga zarar keltirilmagan tarzda zamonaviy bugungi kun bolasining orzu-istaklari, hayollariga moslashtirilgan mazmundagi voqea-hodisalarga boy ertak hikoyalar, she’rlar, topishmoq, tez aytishlar yaratish zarur. Yaratilgan asarlar bola dunyosining taraqqiyotiga ta’sir etuvchi kuch bo‘lib xizmat qilishi kerak. Bola yaratilgan asarlarni tinglar ekan, o‘zini va o‘zligini anglash, atrof-muhit, tabiatni qadrlash, odamlarga mehrli, Vataniga sadoqatli bo‘lish, ona diyorini ulug‘lash, undan faxrlanishni o‘rganadi.

Ta’lim jarayonida badiiy adabiyot bolalarning ma’naviy, estetik va ijtimoiy rivojlanishida muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Badiiy matnlar bolalarning tafakkurini kengaytiradi, muloqot madaniyatini shakllantiradi, axloqiy qarashlarini rivojlantiradi va estetik didini oshiradi.Badiiy matnlardan foydalangan holda pedagogik yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish bolalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini samarali qiladi. Bu jarayon bolalarning hayotiy tajribasi va hissiy dunyosini boyitadi, ularni mustaqil fikrlashga, yaratuvchanlikka va ijtimoiy moslashuvchanlikka tayyorlaydi.Shu tariqa, ta’lim jarayonida badiiy adabiyotning tarbiyaviy ahamiyati bolalarning barcha sohalarda rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi va ularning shaxs sifatida yetuk shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sheraliyevna, O.H. (2023). Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining grammatik to’g’riligini shakllantirish. Лучшие интеллектуальные исследования, 10(1), 179-185.

2. Sheraliyevna, O.X. (2024). Maktabgacha yoshdagi bolalarni suhbat qurish o ‘rgali nutqini o ‘stirish usullari. Лучшие интеллектуальные исследования, 17(4), 82-85.

3. Ochilova, X.S. (2024). Maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish yo’llari. Inter education & global study, (7), 144-148.

4. Sheraliyevna, O.H. (2023). Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish yo‘llari. Лучшие интеллектуальные исследования, 8(4), 70-75.

5. Sheraliyevna, O.H. (2023). Tarbiya – ijtimoiy hodisa. Лучшие интеллектуальные исследования, 11(1), 130-132.

6. Ochilova, X.S. (2025). Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish texnologiyasi. Inter education & global study, (1), 319-324.

OILADA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Madrimova Mohinur Xamzayevna

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti

Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada oilada kitobxonlik madaniyatini shakllantirish jarayonining maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining rivojlanishiga ko‘rsatadigan ta’sirini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish, ota-onalar tomonidan badiiy adabiyotlarni ifodali o‘qib berish, ertak va hikoyalarni birgalikda muhokama qilish hamda kitob asosida suhbat tashkil etish orqali bolalarning og‘zaki nutqi, lug‘at boyligi, grammatik jihatdan to‘g‘ri ifodalash malakasi va nutq madaniyatini rivojlantirish imkoniyatlarini yoritilgan. Shuningdek, oiladagi ma’naviy muhit, kattalarning shaxsiy namunasi va muntazam kitob bilan tanishtirish jarayonining bolalarda mustaqil fikr bildirish, voqealarni izchil bayon etish hamda muloqot madaniyatini shakllantirishdagi o‘rni aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: *Oila, kitobxonlik madaniyati, maktabgacha ta’lim, nutq rivoji, pedagogik yondashuvlar, badiiy adabiyot, lug‘at boyligi, nutq madaniyati*.

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri — yosh avlodning intellektual salohiyatini yuksaltirish va ma’naviy barkamol shaxsni tarbiyalashdir. Bu borada kitobxonlik madaniyatini shakllantirish dolzarb pedagogik masalalardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va kitobxonlikni rivojlantirish

masalasiga alohida e’tibor qaratib kelmoqda. Davlat rahbari nutqlarida kitobni inson tafakkuri va ma’naviy kamolotining muhim omili sifatida ta’kidlab, yoshlarni mutolaaga keng jalb etish zarurligini qayd etadi. Mazkur yondashuv ta’lim tizimida, ayniqsa, maktabgacha ta’lim bosqichida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning ahamiyatini yanada oshiradi. Zero, maktabgacha yosh davri bola shaxsining jadal rivojlanish bosqichi bo‘lib, aynan shu davrda nutq, tafakkur, dunyoqarash va ma’naviy sifatlar shakllanadi.

Bola shaxsining rivojlanishida oila asosiy tarbiya muhiti hisoblanib, unda bola dastlabki bilim, ko‘nikma va ijtimoiy tajribalarni egallaydi. Oilada kitobxonlik madaniyatining shakllanganligi bolaning intellektual rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Kitob orqali bola atrof-muhitni anglaydi, yangi tushunchalarni o‘zlashtiradi, nutqi va tafakkuri rivojlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivoji darajasi bevosita oiladagi kitobxonlik muhitining mavjudligi, muntazamligi va mazmuniga bog‘liq. Pedagogik kuzatishlar va ota-onalar bilan suhbatlar davomida oilada badiiy adabiyotlarni tizimli ravishda eshittiriladigan, ertak va hikoyalar asosida suhbat tashkil etiladigan bolalarning lug‘at boyligi, gap tuzish qobiliyati va bog‘lanishli nutqi nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi. Oiladagi kitobxonlik faoliyati bolalarning faol va passiv lug‘atini sezilarli darajada boyitadi; Badiiy matnlar asosida tashkil etilgan suhbatlar va muhokamalar bog‘lanishli nutqni rivojlantiradi; Ota-onalar tomonidan ifodali o‘qish va qayta hikoyalash metodlari nutqning grammatik to‘g‘riligini shakllantiradi; Oiladagi sahnalashtirish va rolli o‘yinlar bolalarning dialogik nutqi va nutq madaniyatini oshiradi; Kitobxonlikka asoslangan pedagogik yondashuv bolalarda tafakkur va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga, shuningdek, kelajakdagi ta’lim jarayoniga tayyorgarlikni samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Shuningdek, tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, oilada kitob bilan muntazam ishlash bolalarning so‘z boyligini kengaytiradi, tafakkurini rivojlantiradi va mustaqil fikr bildirish qobiliyatini shakllantiradi. Nutq rivoji esa bolaga matn mazmunini tushunish va uning asosida fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Natijalar asosida oiladagi kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda quyidagi pedagogik tavsiyalar ishlab chiqildi:

Bolaga ertak, hikoya va badiiy asarlarni muntazam o‘qib berish;

Yoshiga mos badiiy adabiyotlarni tanlash va ular asosida suhbatlar tashkil etish;

Nutq mashqlarini o‘yin va rolli faoliyat shaklida o‘tkazish;

Kitob asosida ijodiy mashg‘ulotlar va sahnalashtirishlarni amalga oshirish. Ushbu tadqiqot oilada kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va bolalarning nutqini rivojlantirishning samarali usullarini aniqlashga yordam beradi hamda maktabgacha ta’lim jarayonida pedagogik amaliyotlarni boyitadi.

Oiladagi kitobxonlik madaniyati maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq va tafakkur rivojida muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ota-onalar tomonidan badiiy adabiyotlarni ifodali o‘qib berish, ertak va hikoyalarni birgalikda muhokama qilish hamda kitob asosida suhbatlar tashkil etish bolalarning lug‘at boyligini kengaytiradi, bog‘lanishli nutq va nutq madaniyatini shakllantiradi. Shuningdek, oiladagi ijobiy ma’naviy muhit va kattalarning shaxsiy namunasi bolalarda kitobga nisbatan qiziqish uyg‘otadi, tasavvur va tafakkurini boyitadi hamda muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu bois, maktabgacha ta’limda nutq va kitobxonlikni bir vaqtda rivojlantirish, oilada kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvlar alohida e’tibor va tizimli tashkil etishni talab qiladi. Oiladagi kitob o‘qish an’analari bolalarning shaxsiy rivojlanishida, ma’naviy yetuklik va bilimga qiziqishlarini uyg‘otishda ham hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu sababli, ota-onalar va pedagoglar kitobxonlikni bolalar hayotining ajralmas qismiga aylantirishga harakat qilishi zarur.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlarni kitobga qiziqtirish, ularni kitob bilan do‘st qilish va aholining kitobxonlik saviyasini oshirish masalasiga alohida e’tibor qaratish zarurligini ta’kidlaydi. Bugungi kunda yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy, badiiy-estetik hamda milliy va jahon adabiyotlarini o‘qish madaniyatini yuksaltirish, oilalarda va maktabgacha ta’lim muassasalarida kitobxonlikni rivojlantirish ustuvor vazifaga aylanmoqda. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy

kitobni “beminnat ustoz, bilim va ma’naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai” deb e’lon qilgan bo‘lsa, Sohibqiron Amir Temur esa kitobni barcha yaratuvchanlik, aql-idrok va ilmning asosiy manbai, hayot o‘rgatuvchi murabbiy sifatida qadrlagan.

Oilada kitobxonlik madaniyati shakllanishi bolalarning bog‘lanishli nutqini rivojlantirishga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bog‘lanishli nutq – mantiqan bog‘langan, semantik va emotsional jihatdan to‘liq bayonot bo‘lib, tilning lug‘at boyligi, grammatik tuzilma va lingvistik me’yorlarni egallash, amaliy qo‘llash hamda o‘z fikrini izchil ifodalash qobiliyatini rivojlantirishni talab qiladi. Bog‘lanishli nutq dialogik va monologik shaklda bo‘lishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalar avvalo dialogik nutqni egallaydi, bu ularning muloqotdagi asosiy vositasi bo‘lib, tinglash, tushunish, javob berish va savollar berish orqali shakllanadi. Shu bilan birga, monologik nutq, ya’ni bir shaxsning izchil, grammatik jihatdan to‘liq nutqi, oldindan tayyorgarlikni talab qiladi va bolaning izchil fikrlashini rivojlantiradi.

Olimlar va pedagoglar ta’kidlaganidek, L.S. Vygotskiy va S.L. Rubinshteyn maktabgacha yoshdagi bolaning aqliy va kognitiv jarayonlari bu davrda eng jadal rivojlanishini, bu jarayonlar izchil nutqni shakllantirishga va maktabdagi muvaffaqiyatga asos bo‘lishini ta’kidlaydilar. E.A. Flerina jonli so‘z bilan ishlashning ahamiyatini ko‘rsatgan bo‘lsa, A.M. Leushina esa bolalarga ijodiy hikoya qilishni o‘rgatish, ifoda rejasini tuzish va izchil nutqni rivojlantirish bo‘yicha aniq ko‘rsatmalar ishlab chiqqan. Unga ko‘ra, bolaning hissiyligi ifodali til vositalaridan ongli foydalanish uchun zarur shart-sharoit yaratadi, ammo buning uchun maxsus ish olib borish va bolani badiiy mazmunni ifodalash usullari bilan qurollantirish talab qilinadi. Kitobxonlik amalda keng joriy etish jarayonida birinchi navbatda mavjud kutubxonalarni rekonstruksiya qilish, ularning moddiy-texnik bazasini yangilash, kerakli ilmiy va badiiy adabiyotlar bilan ta’minlash, kutubxonalar faoliyatida zamonaviy innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishimiz va undan samarali foydalanishimiz mumkin. Bu ishlarni amalga oshirilishi uchun zarur chora-tadbirlar belgilab berilgan va ularning ijrosi muntazam nazorat qilib borilmoqda. Buning yorqin dalili sifatida yurtimizni rivojlantirishdagi 5 ta muhim tashabbusga “Yoshlar

ma’naviyatini yuksaltirish, ular o’rtasida kitobxonlikni keng targ’ib qilish bo’yicha tizimli ishlarni tashkil etish”ni yo’nalish sifatida belgilab berilganligi fikrimizga yorqin misol bo‘ladi. Buyuk bobokalonlarimiz ham bola tarbiyasida kitobning o‘rni henihoya katta ekanligini, uni tafakkurning tolmas qanoti sifatida inson ma`naviy olamini boyitishi, yuksak ijodiy va yaratuvchalik vositasi sifatida nihoyatda qadrlash hamda undan samarali foydalanish zarurligini ta’kidlab o‘tganlar. Mutaxassislar bola hayotining ilk yosh davrini “mo‘jizalar davri” deya nomlagan [3,165-bet]. Bu davrda bolalarga kitob o‘qishga tayyorlanadi. Bunda avval nutq malakalarini, eshitish va so‘zlashishni mukammal o`rganib olishlari lozim.

Bolalarni kitobga bo’lgan qiziqishlarini shakllantirish jarayonini biz albatta oiladan boshlasak juda ijobiy natija berishi va undan keyin maktabgacha ta’lim tashkilotlarida oila bilan hamkorlikda davom ettirsak kutilgan natijaning yanada samarali bo’lishi mumkin. Oilada tarbiyaning barcha mezonlari shakllantirilganidek, kitobxonlik madaniyati ham sh maskandan boshlansa yaxshi samara beradi. Chunki, “Qush uyasida ko’rganini qiladi”, degan behudaga aytilmagan. Muqaddas maskanda ota-ona bolalarni kitobga bo`lgan qiziqishlarini orttirishda o`zlari namuna bo`lishlari va o`zlari kitob mutolaa qilishlari yaxshi samara beradi.

Oilada ota-ona kitobga mehr qo’ygan bo’lsa bunday oilada tarbiyalanayotgan farzand ham kitobga oshno bo’ladi, bunday bolalarning dunyoqarashi, fikrlash doirasi keng bo’ladi, xushmuomala, mehribon, boshqalarga iloji boricha yaxshilik qilishga urinadigan, har bir aytayotgan so’zi, qilayotgan ishini o’ylab bajaradigan, bir so’z bilan aytganda, o’zida barkamol shaxs xislatlarini namoyon qilishga harakat qiladigan ziyoli farzand bo’lib voyaga yetadi.

Oilada kitobxonlik madaniyati shakllanishi bir nechta omillarga bog‘liq: ota-onaning shaxsiy namoyishi, oilaviy o‘qish odatlari, bolaga mos adabiy materialni tanlash, o‘qish jarayonini qiziqarli va interaktiv qilish hamda bolani mustaqil fikrlashga rag‘batlantirish. Parvarishlash jarayonida vizual modellashtirish texnologiyasidan foydalanish samarali bo‘lib, bu bolada diqqatni jamlash, xotira va tushunishni rivojlantirishga yordam beradi. Mnemonik jadval va grafik analogiyalar yordamida bola ertak, she’r yoki hikoyani eslab qolish va qayta aytish qobiliyatini

egallaydi. Dialogik nutqning shakllanishida ota-onaning savol-javoblar, suhbatlar va ertaklar orqali muloqotni rag‘batlantirishi, monologik nutqning rivojlanishida esa hikoya qilish, voqealarni izchil tartibda so‘zlab berish bo‘yicha amaliy ko‘rsatmalar berilishi muhimdir. Shu tarzda, bolalar nutqning izchilligi, tuzilishi va ta’sirchanligini o‘zlashtiradi, bu esa ularning kommunikativ qobiliyatini, ijodiy fikrlashini va kitobga qiziqishini mustahkamlaydi. Shu jihatdan, oilada kitobxonlik madaniyatini shakllantirish nafaqat bolaning lingvistik va kognitiv rivojlanishiga, balki uning ma’naviy, badiiy va intellektual yetukligiga xizmat qiladi. Kitobxonlikning ushbu pedagogik va psixologik omillari bolalarning kelajakdagi muvaffaqiyatli o‘qishi va shaxsiy rivojlanishi uchun muhim asos yaratadi.

Yuqoridagi bayon etilgan fikrlarga tayangan holda quyidagilarni ota-onalarga tavsiya etishimiz mumkin:

- Bolani kitobga qiziqtirish uchun o‘zingiz namuna bo‘ling;
- O‘qigan kitobingizdan namunalar o‘qib bering yoki hikoya qilib bering;
- So‘zlab berish uchun bolani yoshiga mos fikrlarni tanlab oling;
- Oilaviy kutubxonani shakllantiring, bunda bola uchun alohida bo‘lim tashkil eting;
- Bolani yosh xususiyatlariga mos kitoblar tanlang va sotib oling;.

Xulosa qilib aytganda, barcha ezgu ishlarning, bunyodkor g’oyalarning asosi bu kitobdir. Bizga ilm nurlarini sochadigan ham kitobdir. Shuning uchun ham biz bugungi kunda kitobga bo‘lgan qiziqishni oiladan boshlasak va bu uchun ularni yoshiga mos kutubxonalarni shakllantirsak nur ustiga a’lo nur bo‘ladi. Bolada o‘qish malakalarni shakllantirish negizida og‘zaki nutq rivojlanish va kitobga muhabbatni oshirish lozim. Biz buyuk ishlarga qodir yoshlarimizni hayot yo’llarida hamroh va maslahatgo‘y, bir umrlik sodiq do‘st – kitobga tayanishni oiladan boshlasak, kelajagi buyuk yurtimiz uchun munosib bunyodkor yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazishda o‘z hissamizni qo‘shgan bo‘lardik

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev, Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining kitobxonlik targ‘iboti bo‘yicha murojaatlari. Toshkent, 2020–2025.

2. Karimova, N. Oila pedagogikasi va bolalarni tarbiyalashning zamonaviy metodlari. Toshkent: Fan, 2018.

3. Qodirova, L. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojini metodik jihatdan qo‘llash. – Toshkent: Pedagogika, 2016.

4. Sheraliyevna, O.X. (2024). Maktabgacha yoshdagi bolalarni suhbat qurish orgali nutqini o‘stirish usullari. Лучшие интеллектуальные исследования, 17(4), 82-85.

5. Ochilova, X.S. (2024). Maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish yo‘llari. Inter education & global study, (7), 144-148.

6. Sheraliyevna, O.H. (2023). Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish yo‘llari. Лучшие интеллектуальные исследования, 8(4), 70-75.

7. Ochilova, X.S. (2025). Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish texnologiyasi. Inter education & global study, (1), 319-324.

NEMIS TILINI NOFILOLOGIK OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA O‘QITISHDA YOZMA NUTQ KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA METODIK ASOSLARI.

Islomova Madina Asqarovna

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti

“Tillar va maktabgacha ta’lim” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Email: madinaislomova828@gmail.com

Ermekbayev Adilet Userovich

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti

“Tillar va maktabgacha ta’lim”fakulteti

xorijiy tilva adabiyot yo'nalishi 25- 50 guruh talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada nofilologik oliy ta’lim muassasalarida chet tilini o‘qitishda yozma nutq kompetensiyasini shakllantirishning nazariy va

pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Mustaqillikkacha bo‘lgan davrda chet tilini o‘qitish asosan reseptiv nutq faoliyati, xususan o‘qish ko‘nikmasini rivojlantirishga yo‘naltirilgani ko‘rsatib beriladi. Maqolada til kompetensiyasining nazariy asoslari kommunikativ lingvistika nuqtayi nazaridan tahlil qilinib, generativ grammatika hamda kommunikativ kompetensiya nazariyalarining ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, globallashuv sharoitida yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirish zarurligi asoslanadi. CEFR tizimi asosida boshlang‘ich (A1–A2) darajalarda yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari tahlil qilinadi

Kalit so‘zlar: *Yozma nutq kompetensiyasi, chet tilini o‘qitish, kommunikativ kompetensiya, CEFR tizimi, reseptiv va produktiv nutq faoliyati, kompetensiyaviy yondashuv, nofilologik oliy ta’lim, kommunikativ ta’lim*.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические и педагогические основы формирования письменной речевой компетенции при обучении иностранным языкам в неязыковых высших учебных заведениях. Анализируется традиционный подход до-независимого периода, в котором приоритет отдавался рецептивным видам речевой деятельности, прежде всего чтению. Рассматриваются теоретические положения языковой компетенции, разработанные Н. Хомским и Д. Хаймсом, и их значение для современной коммуникативной методики обучения. В условиях глобализации подчеркивается необходимость развития письменной речи как важного компонента коммуникативной компетенции. Также раскрывается роль системы CEFR в формировании письменных навыков на начальных уровнях (A1–A2). Делается вывод о необходимости интеграции лингвистического, психолингвистического и коммуникативного подходов в развитии письменной компетенции.

Ключевые слова: *Письменная речевая компетенция, обучение иностранным языкам, CEFR, коммуникативная компетенция, рецептивные и продуктивные виды речевой деятельности, компетентностный подход, неязыковые вузы, коммуникативное обучение*.

Mustaqillikkacha bo‘lgan davrda nofilologik oliy ta’lim muassasalarida chet tilini o‘qitish mazmuni asosan reseptiv nutq faoliyati turlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘qish ko‘nikmasi ustuvor ta’lim maqsadi sifatida qaralgan [1]. Ta’lim jarayonida matn bilan ishlash, kasbiy adabiyotlarni o‘qish va ularni tahlil qilish asosiy metodik faoliyat sifatida shakllangan. “Adabiyot bilan ishlash” kompetensiyasi kasbiy, ilmiy hamda amaliy faoliyat samaradorligining muhim sharti sifatida talqin qilingan [2].

Shu jihatdan, o‘qish faoliyati uzoq yillar davomida nofilolog mutaxassislarni tayyorlash tizimida markaziy o‘rin egallagan. Xorijiy tilda yozma nutq ko‘nikmalarini samarali rivojlantirish esa asosan xalqaro kommunikatsiyada bevosita ishtirok etuvchi tor doiradagi mutaxassislar uchun zarur kompetensiya sifatida qaralgan [3].

Bu jarayonni nazariy jihatdan asoslashda kommunikativ lingvistika tamoyillari muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Noam Chomsky tomonidan ishlab chiqilgan generativ grammatika nazariyasida til kompetensiyasi ichki lingvistik tizim sifatida talqin qilinadi [4]. Shu bilan birga, Dell Hymes kommunikativ kompetensiya nazariyasini rivojlantirib, til o‘rganishda ijtimoiy-pragmatik moslikni ham zarur komponent sifatida ko‘rsatadi [5].

O‘zbek tilshunosligida esa mazkur masalalar G‘afur Abdurahmonov tomonidan sintaktik tizim va nutq strukturasining funksional jihatlari doirasida o‘rganilgan [6].

Natijada yozma nutqning produktiv turi bo‘lgan mustaqil fikr bayon qilish ko‘nikmasi uzoq vaqt davomida ikkilamchi pedagogik vazifa sifatida qaralgan. Bu esa yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishga doir ilmiy-metodik tadqiqotlarning cheklangan doirada shakllanishiga olib kelgan. Mazkur holat ayniqsa nofilologik yo‘nalishdagi talabalar ta’limida yaqqol namoyon bo‘lgan. Zamonaviy ta’lim paradigmasida esa yozma nutq kompetensiyasi mustaqil kommunikativ faoliyatning muhim tarkibiy qismi sifatida e’tirof etilmoqda.

Globallashuv jarayonlari hamda xalqaro mehnat migratsiyasining kengayishi sharoitida mazkur muammo yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan,

Germaniya ta’lim va mehnat tizimida xalqaro sertifikat talab qilinishi til kompetensiyasining barcha komponentlarini egallash zarurligini ko‘rsatadi.

CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) tizimi til kompetensiyasini kommunikativ faoliyat asosida baholashni nazarda tutadi va yozma nutqni mustaqil mantiqiy ifoda vositasi sifatida belgilaydi [7].

Zamonaviy ta’lim paradigmasi va kompetensiyaviy yondashuv sharoitida chet tilida yozma nutq kompetensiyasi shaxsning kommunikativ tayyorgarligining muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida qaralmoqda. Xususan, CEFRning boshlang‘ich (A1–A2) darajalarida yozma nutq kompetensiyasini shakllantirish o‘quvchilarda elementar kommunikativ ehtiyojlarni yozma shaklda ifodalash ko‘nikmalarini tizimli ravishda rivojlantirishga yo‘naltiriladi.

Boshlang‘ich darajada yozma nutq kompetensiyasini shakllantirish jarayoni kommunikativ yo‘naltirilgan ta’lim, funksional-lisoniy yondashuv, bosqichma-bosqichlik va izchillik tamoyili, shuningdek, reseptiv va produktiv nutq faoliyati turlarining integratsiyasiga asoslanadi. Bunda reproduktiv yozuv ko‘nikmalaridan bosqichma-bosqich mustaqil va ijodiy yozuv ko‘nikmalarini shakllantirishga o‘tish muhim didaktik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu bilan birga, nofilologik oliy ta’lim muassasalarida uzoq yillar davomida ustuvor bo‘lib kelgan reseptiv o‘qitish yondashuvidan farqli ravishda, zamonaviy CEFR talablari boshlang‘ich bosqichning o‘zidayoq yozma nutqni kommunikativ kompetensiyaning muhim komponenti sifatida shakllantirish zaruratini asoslaydi. Mazkur holat yozma nutq kompetensiyasini shakllantirishning nazariy-metodologik asoslarini qayta ko‘rib chiqish, tizimlashtirish hamda zamonaviy kompetensiyaviy ta’lim paradigmasi doirasida takomillashtirishni taqozo etadi.

Shunday qilib, chet tilini o‘qitishda yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning strategik vazifalaridan biri bo‘lib, bu jarayon lingvistik, psixolingvistik hamda kommunikativ yondashuvlar integratsiyasini talab etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

[1] Richards, J. C., & Rodgers, T. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.

[2] Brown, H. D. Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Education.

[3] Littlewood, W. Communicative Language Teaching. Cambridge University Press.

[4] Chomsky, N. Aspects of the Theory of Syntax. MIT Press, 1965.

[5] Hymes, D. On Communicative Competence. University of Pennsylvania Press, 1972.

[6] Abdurahmonov G‘. Hozirgi o‘zbek adabiy tili sintaksisi. Toshkent.

[7] Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment.

FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA FUNKSIONAL SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH

Muxtarova Shaxnoza Mashrabovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti

O‘zbek tilshunosligi kafedrasi katta o‘qituvchisi

shaxnoza1977xon@.gmail.com +9987765758

Annotatsiya. Maqolada ona tili ta’limida fanlararo integratsiya asosida o‘quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida fanlararo integratsiya o‘quvchilarning bilimlarni turli vaziyatlarda qo‘llay olish kompetensiyasini shakllantirishda muhim omil ekanligi asoslab beriladi. Shuningdek, xalqaro baholash dasturlari talablaridan kelib chiqib, ona tili ta’limida funksional savodxonlikni rivojlantirishning metodik jihatlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *fanlararo integratsiya, funksional savodxonlik, kompetensiyaviy yondashuv, ona tili ta’limi, innovatsion metodlar, xalqaro baholash dasturlari.*

Аннотация. В статье анализируются вопросы развития функциональной грамотности учащихся на основе межпредметной интеграции в обучении

родному языку. Обосновывается, что в современном образовательном процессе межпредметная интеграция является важным фактором формирования у учащихся компетенции применения знаний в различных жизненных ситуациях. Также с учётом требований международных оценочных программ раскрываются методические аспекты развития функциональной грамотности в обучении родному языку.

Ключевые слова: *межпредметная интеграция, функциональная грамотность, компетентностный подход, обучение родному языку, инновационные методы, международные оценочные программы*.

Abstract. This article analyzes the issues of developing students functional literacy based on interdisciplinary integration in native language education. It substantiates that interdisciplinary integration in the modern educational process is an important factor in forming students’ competence to apply knowledge in various situations. In addition, considering the requirements of international assessment programs, the methodological aspects of developing functional literacy in native language teaching are highlighted.

Keywords: *interdisciplinary integration, functional literacy, competency-based approach, native language education, innovative methods, international assessment programs*.

Bugungi globallashuv jarayonida ta’lim tizimining oldida turgan asosiy vazifalardan biri o‘quvchilarning amaliy bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, ya’ni ularni real hayotiy vaziyatlarda bilimlarni qo‘llay oladigan shaxs sifatida shakllantirishdan iboratdir. Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy ta’lim tizimida funksional savodxonlik tushunchasi alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Ta’lim jarayonida funksional savodxonlikni shakllantirishda fanlararo integratsiya muhim metodik vosita hisoblanadi. Chunki integratsiyalashgan ta’lim o‘quvchilarga turli fanlarda olingan bilimlarni o‘zaro bog‘liq holda anglash va ularni amaliy faoliyatda qo‘llash imkonini beradi.

Ona tili ta’limi ham boshqa fanlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, o‘quvchilarning tafakkuri, nutqi va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim rol

o‘ynaydi. Shu bois ona tili darslarini fanlararo integratsiya asosida tashkil etish zamonaviy ta’limning muhim talablaridan biri hisoblanadi.

Fanlararo integratsiya – bu turli fanlar o‘rtasidagi mazmuniy, metodik va didaktik aloqalarni uyg‘unlashtirish orqali o‘quv jarayonini tashkil etish jarayonidir. Integratsiya o‘quvchilarda kompleks tafakkur, tahliliy fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ona tili ta’limida fanlararo integratsiya ona tili fanini adabiyot, tarix, geografiya va xorijiy tillar bilan bog‘lash orqali amalga oshiriladi. Masalan, tarixiy matnlar asosida til birliklarini tahlil qilish, geografik mavzular bilan bog‘liq matnlar ustida ishlash yoki ijtimoiy muammolar haqida muhokamalar tashkil etish orqali o‘quvchilarning nutqiy faoliyati rivojlantiriladi.

Funksional savodxonlik bu — odamning turli vaziyatlarda, jamiyatda va ish hayotida, o‘qish, yozish, hisoblash va boshqa kundalik faoliyatda kerakli bilim va ko‘nikmalarni qo‘llash qobiliyatidir. Bu savodxonlik faqatgina aniq bir sohada yoki o‘qish yozishni bilish bilan cheklanmaydi, balki insonning ma’lumotlarni tahlil qilish, muammolarni hal qilish, yangi axborotni qabul qilish va amaliyotda ishlatish qobiliyatlarini ham o‘z ichiga oladi. Funksional savodxonlik odamning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotda faol ishtirok etishi uchun muhim omil hisoblanadi.

Ona tili ta’limida funksional savodxonlikni rivojlantirish uchun muammoli ta’lim metodlari, loyiha asosida o‘qitish, tanqidiy fikrlash metodlari, matn bilan ishlashning interaktiv usullari, kommunikativ vaziyatlar asosida topshiriqlar berish kabi metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi. Masalan, o‘quvchilarga ijtimoiy mavzudagi matn berilib, uning asosiy g‘oyasini aniqlash, muammoli savollarga javob berish va o‘z fikrini asoslab yozma yoki og‘zaki bayon qilish topshirig‘i beriladi. Bunday faoliyat o‘quvchilarda analitik fikrlash, axborotni tahlil qilish va nutqiy kompetensiyalarni rivojlantiradi.

Bugungi kunda ta’lim sifatini baholashda xalqaro tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini aniqlashga qaratilgan xalqaro dasturlar ta’lim tizimini takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

Mazkur tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning matnni tushunish, tahlil qilish va undan xulosa chiqarish ko‘nikmalari ularning boshqa fanlarni o‘zlashtirish darajasiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli ona tili darslarida turli fanlarga oid matnlar bilan ishlash orqali integratsiyalashgan ta’lim muhitini yaratish muhim hisoblanadi.

Fanlararo integratsiya asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi, axborotni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi, nutqiy faoliyatini takomillashtiradi, real hayotiy vaziyatlarga moslashuvchanligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, ona tili ta’limida fanlararo integratsiya asosida o‘qitish o‘quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirishda muhim pedagogik omil hisoblanadi. Integratsiyalashgan ta’lim o‘quvchilarning bilimlarni tizimli ravishda o‘zlashtirishiga, ularni amaliy faoliyatda qo‘llay olishiga va mustaqil fikrlash qobiliyatining rivojlanishiga xizmat qiladi. Zamonaviy ta’lim tizimida ona tili darslarini innovatsion metodlar asosida tashkil etish, xalqaro baholash dasturlari talablariga mos topshiriqlardan foydalanish va fanlararo aloqalarni kuchaytirish o‘quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent - 2017.
2. Adilova Sh., Yuldasheva Sh. Til ta’limida integarativ yondashuv. Nukus – 2017. B. 88-90.
3. Eshmirzayev G‘. Talabalar kompetentligini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Jizzax - 2021.
4. Jo‘rayev R., Zunnunov, A. Ta’lim jarayonida o‘quv fanlarini integratsiyalash. Toshkent – 2005.
5. G‘ulomov, A. va b. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent -2012.

INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUV ASOSIDA O‘ZBEK TILINI O‘QITISH: NOFILOLOGIK YO‘NALISH TALABALARI UCHUN NAZARIY VA AMALIY ASOSLAR

G‘aniyeva Gulchehra Karshibayevna

EMU Universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi

Globallashuv sharoitida mutaxassisdan nafaqat o‘z sohasi bo‘yicha bilim, balki davlat tilini kasbiy faoliyatda to‘g‘ri qo‘llay olish ham talab etiladi. Shu sababli nofilologik yo‘nalishlarda tahsil olayotgan talabalarga o‘zbek tilini samarali o‘qitish dolzarb masalalardan biridir. An’anaviy til o‘qitish metodlari ko‘pincha tilni kasbiy faoliyat bilan yetarli darajada bog‘lay olmaydi. Shu nuqtai nazardan, mazmun va tilni integratsiyalashgan holda o‘qitish — **Content and Language Integrated Learning (CLIL)** yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada CLIL yondashuvining nazariy asoslari hamda uni O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida qo‘llash imkoniyatlari tahlil qilinadi.

So‘nggi yigirma yil ichida ta’lim sohasida mazmun va tilni integratsiyalashgan holda o‘qitish (CLIL) metodologiyasi keng tarqaldi. CLIL terminini ilk bor 1994 yilda Devid Marsh kiritgan bo‘lib, u turli mamlakatlarda til ta’limida sezilarli muvaffaqiyatlarga erishgan. CLIL yondashuvi talabalar tilni o‘rganish bilan birga, u til orqali boshqa fan mazmunini ham o‘rganishlarini nazarda tutadi. Ya’ni, til o‘rganish – bu maqsad emas, balki boshqa fan sohalaridagi bilimlarni o‘zlashtirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Bu metodologiya til o‘rganuvchilarning motivatsiyasini oshirish, kognitiv rivojlanishni rag‘batlantirish va madaniyatlararo tushunishni chuqurlashtirish kabi qator afzalliklarga ega.Til o‘qitish metodikasi doimo rivojlanib boradigan dinamik soha hisoblanadi. An’anaviy til o‘qitish metodlari asosan leksik va grammatik qoidalarni o‘rgatishga qaratilgan bo‘lib, ular ko‘pincha tilni real yoki kasbiy vaziyatlarda samarali qo‘llash uchun yetarli ko‘nikmalarni shakllantira olmaydi (Pishchikov, 2018). Ayniqsa, nofilologik yo‘nalish talabalari uchun ona tilini alohida fan sifatida o‘rganish motivatsiyasi past bo‘lishi mumkin. Shu sababli o‘zbek tili darslarining mazmunini zamonaviy yondashuvlar asosida qayta ko‘rib chiqish zarur.

So‘nggi yillarda ta’lim sohasida **mazmun va tilni integratsiyalashgan holda o‘qitish (CLIL)** metodologiyasi keng qo‘llanilmoqda. Ushbu termin 1994 yilda **Devid Marsh** tomonidan kiritilgan bo‘lib, tilni boshqa fanlar mazmuni bilan birgalikda o‘rganishni nazarda tutadi. Bunda til o‘rganish asosiy maqsad emas, balki boshqa fanlar bo‘yicha bilimlarni o‘zlashtirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Mazkur yondashuv talabalarning motivatsiyasini oshirish, kognitiv rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va amaliy til ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

CLIL ning asosiy tamoyillari "to‘rt C" modeli orqali ifodalanadi:

1. Mazmun (Content): O‘quvchilarning asosiy fan sohasidagi bilimlari, tushunchalari va ko‘nikmalarini rivojlantirish.

2. Muloqot (Communication): Tilni o‘rganish va undan muloqot vositasi sifatida foydalanish.

3. Kognitiv rivojlanish (Cognition): Fikrlash ko‘nikmalarini (analiz, sintez, baholash) shakllantirish va rivojlantirish.

4. Madaniyat (Culture): O‘rganilayotgan til va fan sohasining madaniy jihatlarini tushunish.

Bu tamoyillar til o‘rganishni yanada chuqur va mazmunli jarayonga aylantiradi. Ayniqsa, nofilologik yo‘nalish talabalari uchun CLIL muhim, chunki u ularga o‘z sohalari bo‘yicha mavzularni o‘zbek tilida muhokama qilish, tushunchalarni ifodalash va kasbiy terminologiyani o‘zlashtirish imkonini beradi. Masalan, tibbiyot sohasida o‘qiyotgan talabalar uchun o‘zbek tili darslarida kasalliklar tarixi, diagnostika usullari yoki bemorlar bilan muloqot qoidalari o‘zbek tilida o‘rgatilsa, bu ularning ham til, ham kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Xuddi shunday, IT mutaxassislari uchun dasturlash asoslari, algoritm tushunchalari yoki tizim arxitekturasi haqidagi matnlarni o‘zbek tilida tahlil qilish tilni amaliy qo‘llash imkonini beradi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida ona tili o‘qitish metodologiyasi doimiy ravishda takomillashtirilmoqda. Biroq, ko‘plab tadqiqotlar va amaliyot shuni ko‘rsatadiki, nofilologik yo‘nalishlarda ona tilini o‘qitishda mavjud o‘quv dasturlari va darsliklar ko‘pincha talabalarning kasbiy ehtiyojlarini to‘liq qondirmaydi. Tilni faqatgina

adabiy jihatdan o‘rganishga urg‘u berilishi, talabalarning o‘z kelajakdagi kasbiy muloqotlarida tilni faol qo‘llay olmasliklariga sabab bo‘ladi. CLIL yondashuvi bu bo‘shliqni to‘ldirishda muhim vosita bo‘lishi mumkin, chunki u tilni mutaxassislikka yo‘naltirilgan tarzda o‘rgatishni ta’minlaydi.

Psixolingvistik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, talabalar o‘zlari qiziqqan va tegishli bo‘lgan mavzularni o‘rganishda yuqori motivatsiyaga ega bo‘ladilar. CLIL yondashuvi talabalariga o‘z mutaxassisliklari bilan bog‘liq materiallarni ona tilida o‘rganish imkonini berish orqali ularning o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqini oshiradi. Bu esa til o‘zlashtirish jarayonini yanada samaraliroq qiladi.

Nofilologik yo‘nalishlarda o‘zbek tilini o‘qitish muammolari: Oliy ta’limning nofilologik yo‘nalishlarida o‘zbek tilini o‘qitish jarayonida bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ular til ko‘nikmalarining kasbiy faoliyatda samarali qo‘llanishiga to‘sqinlik qiladi.

CLILning afzalliklari: CLIL yondashuvi bir qator muhim afzalliklarga ega. Avvalo, tilni mutaxassislik bilan bog‘liq holda o‘rganish talabalarning motivatsiyasini oshiradi. Bundan tashqari, talabalar bir vaqtning o‘zida til va kasbiy bilimlarni rivojlantiradilar hamda o‘z mutaxassisligiga oid terminologiyani o‘zlashtiradilar. Dars jarayonida munozara, taqdimot va rolli o‘yinlar orqali muloqot ko‘nikmalari rivojlanadi. Shu bilan birga, CLIL talabalarning tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish kabi kognitiv qobiliyatlarini ham rivojlantiradi hamda ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlaydi.

CLILni oliy ta’lim tizimida joriy etish imkoniyatlari: CLIL metodologiyasini oliy ta’lim tizimiga joriy etish uchun bir qator mexanizmlar zarur. Avvalo, o‘quv dasturlarini mutaxassislikka mos ravishda yangilash va kasbiy terminologiyani integratsiya qilish lozim. Shuningdek, o‘qituvchilar uchun maxsus treninglar tashkil etish va fanlararo hamkorlikni rivojlantirish muhim hisoblanadi. Kasbiy yo‘naltirilgan darsliklar, multimedia resurslari va real hayotiy matnlardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshiradi. Bundan tashqari, keys-stadi, rolli o‘yinlar va loyiha ishlari kabi interfaol metodlardan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Baholash

jarayonida esa til bilimlari bilan bir qatorda kasbiy muloqot va amaliy ko‘nikmalarni ham hisobga olish zarur.

Xulosa qilib aytganda, integratsiyalashgan yondashuv (CLIL) nofilologik yo‘nalishlarda o‘zbek tilini o‘qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu metod til ko‘nikmalari va kasbiy kompetensiyalarni birgalikda rivojlantirish imkonini beradi hamda talabalarni davlat tilini kasbiy faoliyatda samarali qo‘llay oladigan mutaxassislar sifatida tayyorlashga yordam beradi. Ushbu tavsiyalar CLIL yondashuvining O‘zbekiston oliy ta’limida muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini ta’minlab, nofilologik yo‘nalish talabalarini nafaqat ona tilini mukammal biladigan, balki uni o‘z kasbiy faoliyatlarida samarali qo‘llay oladigan, raqobatbardosh mutaxassislar etib tarbiyalashga xizmat qiladi. Ushbu maqoladan kelib chiqqan holda O‘zbekiston oliy ta’limida CLIL yondashuvini muvaffaqiyatli joriy etish bo‘yicha tavsiyalar:

1. **O‘quv dasturlarini yangilash** – har bir nofilologik yo‘nalish uchun til va mutaxassislik fanlarini uyg‘unlashtiruvchi kasbiy modullarni joriy etish.

2. **O‘qituvchi malakasini oshirish** – CLIL metodologiyasi bo‘yicha treninglar, seminarlar va kurslar tashkil etish, nofilologik fanlar terminologiyasini o‘rganishni ta’minlash.

3. **Kasbiy o‘quv-resurslar yaratish** – darsliklar, qo‘llanmalar, lug‘atlar va elektron materiallarni ishlab chiqish.

4. **Interfaol va raqamli metodlardan foydalanish** – keys-stadi, rolli o‘yinlar, loyiha ishlari, multimedia va onlayn platformalarni tatbiq etish.

5. **Baholash tizimini takomillashtirish** – til va kasbiy kompetensiyalarni kompleks baholash, portfolio usulini joriy etish.

6. **Fanlararo hamkorlikni rivojlantirish** – til va mutaxassislik kafedralari o‘rtasida tajriba almashish va birgalikda materiallar yaratish.

7. **Ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash** – CLIL samaradorligini o‘rganish va natijalarni amaliyotga joriy etish.

Ushbu tavsiyalar CLIL yondashuvini O‘zbekiston oliy ta’limida muvaffaqiyatli tatbiq etishga, nofilologik yo‘nalish talabalarini ona tilini mukammal biladigan va uni

kasbiy faoliyatda samarali qo‘llay oladigan raqobatbardosh mutaxassislar sifatida tayyorlashga xizmat qilad

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). CLIL: Content and Language Integrated Learning. Cambridge University Press.

2. Dalton-Puffer, C. (2011). Content and Language Integrated Learning: From theory to practice. Linguistik Online, 49(1), 3-19.

3. G‘aniyev, Q. (2022). O‘zbek tilini ona tili sifatida o‘qitish metodikasi. Toshkent: Yangi Asr Avlodi.

4. Pishchikov, V. (2018). Traditional vs. Innovative Methods of Teaching Foreign Languages. Research in Language Teaching.

5. Til o‘qitishning zamonaviy usullari va innovatsion texnologiyalari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. (2020). Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi.

6. Xodjayeva, N. A. (2021). Nofilologik yo‘nalishlarda ona tili va adabiyotini o‘qitish samaradorligini oshirish yo‘llari. Til va Adabiyot ta’limi, (3).

7. Yuldashev, M. (2019). Oliy ta’limda o‘zbek tili: Kasbiy yo‘nalishdagi muloqot kompetensiyasi. Samarqand Davlat Universiteti.

8. Ziyodova, S. (2023). Integratsiyalashgan ta’lim texnologiyalari va ularning til o‘qitishdagi ahamiyati. Pedagogika va Psixologiya ilmiy jurnali, (2).

BOLALARNI TO‘GARAKLARGA JALB QILISH VA SAMARALI TO‘GARAK MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH

Dovrenova Yulduz Ulugbekovna
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti
2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: ***M.H.Sharopova***

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalarni turli to‘garak mashg‘ulotlariga jalb qilishning pedagogik ahamiyati, to‘garaklarni samarali tashkil etish usullari hamda ularning bolalar rivojlanishiga ta’siri haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, ilmiy adabiyotlar asosida to‘garak faoliyatining ta’lim-tarbiya jarayonidagi o‘rni tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *to‘garak, ta’lim-tarbiya, o‘quvchi faoliyati, qiziqish, ijodkorlik, pedagogika, metodika, rivojlanish.*

Hozirgi kunda ta’lim tizimida bolalarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan turli to‘garak mashg‘ulotlari o‘quvchilarning qiziqishlarini rivojlantirish, ularning iqtidorini aniqlash va mustahkamlashda katta ahamiyat kasb etadi. Pedagog olimlar ta’kidlaganidek, o‘quvchilarning mustaqil faoliyatga jalb qilinishi ularning bilimga bo‘lgan qiziqishini oshiradi [1, 45-bet]. Shuning uchun ham maktab va ta’lim muassasalarida turli yo‘nalishdagi to‘garaklarni tashkil etish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.

Bolalarni to‘garaklarga jalb qilish nafaqat ularning bilimini oshiradi, balki ijtimoiy faolligini ham kuchaytiradi. To‘garak mashg‘ulotlari orqali bolalar jamoada ishlashni, mustaqil fikrlashni va ijodiy yondashishni o‘rganadilar.

Pedagogika fanida o‘quvchilarning qiziqishlariga asoslangan faoliyat eng samarali o‘qitish usullaridan biri sifatida qaraladi. Tadqiqotchilarning fikricha, o‘quvchi o‘zi qiziqqan faoliyat bilan shug‘ullanganida bilimni tezroq va mustahkamroq o‘zlashtiradi [2, 63-bet]. Shu sababli to‘garak mashg‘ulotlari o‘quvchilarning qiziqishlari va qobiliyatlariga mos ravishda tashkil etilishi kerak.

To‘garaklar turli yo‘nalishlarda bo‘lishi mumkin: fan to‘garaklari, sport to‘garaklari, san’at va ijodiy to‘garaklar. Masalan, adabiyot yoki matematika to‘garaklari o‘quvchilarning ilmiy fikrlashini rivojlantirsa, san’at to‘garaklari ularning estetik didini shakllantiradi. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, bunday faoliyat bolalarning intellektual va ijodiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [3, 71-bet].

To‘garak mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish uchun bir nechta muhim omillarga e’tibor berish zarur. Birinchidan, mashg‘ulotlar qiziqarli va interaktiv

bo‘lishi kerak. Ikkinchidan, o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va individual qobiliyatlari hisobga olinishi lozim. Uchinchidan, mashg‘ulotlarda amaliy faoliyatga keng o‘rin berilishi kerak. Pedagog olimlar amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarning bilimlari mustahkamlanishini ta’kidlaydilar [4, 92-bet].

Shuningdek, to‘garak rahbarining pedagogik mahorati ham muhim ahamiyatga ega. Tajribali rahbar o‘quvchilarni rag‘batlantiradi, ularni yangi g‘oyalar yaratishga undaydi va ijodiy muhit yaratadi. Ilmiy manbalarda ta’kidlanishicha, o‘qituvchi shaxsiy namunasi bilan o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi [5, 110-bet].

Bugungi kunda zamonaviy ta’lim tizimida innovatsion metodlardan foydalanish ham to‘garak samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Masalan, loyiha metodi, muammoli ta’lim yoki interaktiv o‘yinlar o‘quvchilarning faolligini oshiradi [6, 54-bet].

Bolalarni to‘garaklarga jalb qilishda ota-onalar bilan hamkorlik ham muhim hisoblanadi. Ota-onalar farzandlarining qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlasa, bolalar o‘z faoliyatida yanada katta natijalarga erishadi. Tadqiqotlarda ko‘rsatilishicha, ota-onalar qo‘llab-quvvatlagan bolalarda motivatsiya darajasi yuqori bo‘ladi [7, 39-bet].

Shu bilan birga, to‘garak faoliyatida rag‘batlantirish tizimi ham muhim o‘rin tutadi. Turli tanlovlar, ko‘rgazmalar va musobaqalar o‘quvchilarning qiziqishini yanada oshiradi [8, 120-bet].

Xulosa qilib aytganda, bolalarni to‘garak mashg‘ulotlariga jalb qilish ularning har tomonlama rivojlanishida katta ahamiyatga ega. To‘garaklar orqali bolalar o‘z qiziqishlarini rivojlantiradi, yangi bilim va ko‘nikmalarni egallaydi hamda ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantiradi. Shuning uchun ta’lim muassasalarida to‘garak faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish, zamonaviy metodlardan foydalanish va o‘quvchilarni rag‘batlantirish muhim vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Q. Xoliqov. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – T.: O‘qituvchi, 2010.
2. S. Nishonova. Pedagogika. – T.: Fan, 2008.
3. K. Hoshimov. Pedagogika tarixi. – T.: O‘qituvchi, 2005.
4. A. Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: Ma’naviyat, 2006.

5. N. Azizxo‘jayeva. Pedagogik texnologiya. – T.: O‘qituvchi, 2012.
6. M. Ochilov. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Fan, 2011.
7. R. Mavlonova. Pedagogika. – T.: O‘qituvchi, 2013.
8. B. Qosimov. Ta’lim metodlari. – T.: Sharq, 2015.
9. G. Niyozov. Barkamol avlod tarbiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2010.

BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING KREATIV FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

R.U.Nurjanova-pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Kreativlik lotin tilidan olingan bo’lib yaratish, bilish ma’nolarini anglatadi. Kreativlik insonning yangi narsa yaratish qobiliyati hisoblanadi. Yangi narsa inson tomonidan faqat ijod jarayonida yaratilgani uchun, kreativlik uning ijodiy qobiliyati sifatida namoyon bo‘ladi, ya’ni yangi mahsulot yaratish imkoniyatidir. Falsafiy nuqtai nazardan qaraganda kreativlik mavjudlikning barcha darajalariga immanent xususiyatga ega bo‘lib, ularning tuzilmalarini sifat jihatidan transformatsiya qilish orqali mavjudlikni saqlash va qayta ishlashga xizmat qiladi. Kreativlik insonning ijodiy faoliyatiga kirishishidan oldin mavjud bo‘lgan ijodiy qobiliyati bo‘lib, ijod qilish imkoniyati sifatida namoyon bo‘ladi. Ijodiy faoliyatning o‘zida esa bu imkoniyat haqiqiy, real ijodga aylanadi.

Yu.V. Kuznetsovaning ta’kidlanishiga ko‘ra “kreativlik” va “ijodiy qobiliyatlar” tushunchalari teng kuchga emas[3]. Chunki kreativlik faqat muayyan faoliyat sohasidagi aniq ijodiy qobiliyat sifatida emas, balki ko‘proq ijodkorlikka moyillik, unga bo‘lgan qobiliyat sifatida belgilanadi. Ijodkorlik bilan bog‘liq boshqa yaqin tushunchalar orasida kreativlik ma’lum ma’noda unga eng yaqin hisoblanadi. Buning sababi shundaki, ijod jarayoni bevosita, avvalo, insonning kreativligi bilan ta’minlanadi va ijod mahsulining har qanday natijasi, eng avvalo, uning kreativlik darajasining ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Kreativlik esa bilvosita ravishda uning

tashuvchisini tashkil etuvchi ko‘plab tarkibiy qismlarga, oxir-oqibat esa insonning o‘tmish va hozirgi hayot faoliyatini belgilab beruvchi barcha determinantlar majmuasiga bog‘liqdir. Shunga ko‘ra tabiiy bir savol tug‘iladi “Inson kreativligining determinantlari qanday va ular uni qanday tarzda belgilanadi?”. Bu savolga javob berishda kreativlik muammosini o‘rgangan barcha mutaxassislar uchun umumiy bo‘lgan jihat uning uchta guruhga ajratilganligidir:

1. Shaxsning qobiliyai, mahorati va imkoniyati.
2. Ijtimoiy muhit.
3. Shaxsning individual xususiyatlari va sifatlari.

Bunda kreativlikning shakllanish determinatsiyasini maktabgacha yoshdan o‘smirlik davrigacha va kreativlikning ro‘yobga chiqish determinatsiyasini yetuklik davridan qarilik yoshigacha farqlash lozimligi mutaxassislar tomonidan tavsiya etilgan. Kreativlikning namoyon bo‘lishi uning rivojlanishi bilan birga amalga oshadi. Ijodkorlik bevosita individ kreativligi bilan determinatsiyalanar ekan, kreativlikni belgilaydigan omillar va shart-sharoitlar ijodkorlikka ham xosdir. Biroq ijodning har bir siklida kreativlik statik holatda qolmaydi, balki rivojlanadi. Kreativlik determinatsiyasini tahlil qilish uni iqtidordan boshlash maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi. Iqtidorlar genetik jihatdan belgilangan, miya va nerv tizimining anatomik-fiziologik xususiyatlari bo‘lib, qobiliyatlarning shakllanishi va rivojlanishi jarayonlari uchun individual-tabiiy asos hisoblanadi. Qobiliyatlar umumiy va maxsus iqtidorlar sifatida quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. Tipologik xususiyatlar, ya’ni katta yarimsharlardagi turli analizatorlar sohasi faoliyatini tavsiflovchi xususiyatlar bo‘lib, ular aloqalarning shakllanish tezligi, mustahkamligi, farqlash osonligi, diqqatni jamlash kuchi, aqliy mehnat qobiliyatiga ta’sir qiladi.

2. Bosh miya analizatorlari ayrim sohalarining tuzilishi va individual xususiyatlari [4].

Iqtidorlar insonning kreativligini namoyon etadigan, vujudga keladigan asosiy vositadir. Iqtidorlar shaxs qobiliyatlarining rivojlanishida muayyan chegarani, rivojlanishning individual sur’atini va ma’lum darajada uning faoliyati

samaradorligini belgilaydi. Shaxsning ijodiy qobiliyatlari, uning barcha boshqa qobiliyatlari kabi, bevosita iqtidorlar bilan bog‘liq, ammo ularga aynan teng emas, chunki ular faqat ijtimoiy muhit ta’siri va insonning o‘z faolligi natijasida shakllanadi. Shaxsning ijodiy qobiliyatlariga xos iqtidorlar kreativlikka aylanishidan oldin uzoq rivojlanish yo‘lini bosib o‘tishi lozim. Rivojlantirilmagan va undan foydalanilmaydigan kreativlik vaqt o‘tishi bilan so‘nadi. Insonlar orasidagi kreativlikdagi farqlar ularning iqtidorlari, ijtimoiy muhit va zarur shaxsiy sifatlar rivojlanganlik darajasining o‘zaro ta’siri natijasida vujudga keladi. Ilmiy manbalarda shaxs kreativligini ijtimoiy muhit orqali determinatsiya qiluvchi bir qator omillar ajratib ko‘rsatilgan. Ular orasida ham ijobiy, rag‘batlantiruvchi, ham salbiy, to‘sqinlik qiluvchi omillar mavjud. Talabalarda kreativ faollikning rivojlanish bosqichida bunday omillarga ta’lim muassasasi, jamiyat va oiladagi ijodiy muhit hamda guruhdoshlari bilan kechadigan muloqot samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Talabalarda kreativ faollikni shakllantirishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda kreativlikning ijtimoyilashtirish vaziyatlariga bog‘liqligi va ta’lim darajasining ko‘rsatadigan ta’siri haqida fikr yuritilgan. Ijodiy xarakterdagi ta’lim jarayonida talabalarda kreativ faollik rivojlantiriladi. Kreativ faollikni rivojlantirish uchun talabalarni rag‘batlantirish bilan bog‘liq bir qator shart-sharoitlarni yaratish talab qilinadi. Ular:

1. Xulq-atvorning qat’iy tartibga solinmaganligi, bu talabaning erkinligi, ijodkorligi, ijodiy vaziyatlarga moslashuvchanligi, fikrlashdagi barqarorligi, bashorat qilish qobiliyatiga egaligi bilan belgilanadi.

2. Ijodiy xulq-atvorning ijobiy namunasi mavjudligi. Masalan, oliy ta’lim muassasalarida professor-o‘qituvchilar va oilada ota-onalarning ijodiy namunasi muhim ahamiyatga ega.

3. Ijodkorlikni qo‘llab-quvvatlovchi muhit. Bunday muhitda talaba erkinlik, xavfsizlik, xilma-xillik, alohida ahamiyatga egaligi bilan xarakterli bo‘lib, mazkur muhitda ular qo‘rqmasdan fikrlaydilar, tashabbus ko‘rsatadilar, noodatiy, innovatsion yechimlarni taklif qilishga intiladilar.

4. Qat’iy belgilangan va qattiq nazorat qilinadigan holatlardan farqli ravishda, tugallanmagan yoki ochiq vaziyatlarning mavjudligi noaniqlik, erkin tanlov, ko‘p variantlilik bilan xarakterlanadi va aynan shu jihatlari orqali ijodkorlik, mustaqil fikrlash, innovatsion yechimlarni ilgari surish ko‘nikmalarini faollashtiradi.

5. Ko‘plab savollar qo‘yishga ruxsat berish va buni rag‘batlantirish, bu xavfsizlikning mavjudligi, namuna ko‘rsatish imkoniyatining yaratilganligi, ochiq topshiriqlardan foydalanishga e’tibor qaratilganligi, ijobiy baholash mexanizmlarining qo‘llanilish, vaqt omiliga e’tibor qaratilishida o‘z ifodasini topadi.

6. Mustaqillikni rag‘batlantirish mustaqil ishlanmalarda, kuzatishlar va umumlashtirishlarda mustaqillik va mas’uliyatni rag‘batlantirish, bu jarayon erkin tanlov uchun qulay sharoit yaratish, shaxsiy qarorlar qabul qilish imkoniyatini taqdim etish, fikrlarni dalillash, refleksiyalash orqali amalga oshiriladi.

Talabalarda kreativ faollik rivojlantirishda bir qator to‘siqlar ham mavjud. Ular sirasiga:

- xavfdan qochish;

- tafakkur va xulq-atvordagi qat’iy stereotiplarning namoyon bo‘lishi;

- konformistlik talabaning o‘z fikri, qarashi yoki xulq-atvorini guruh a’zolarining fikrlari, umumiy qoidalar yoki bosimiga moslashtirib o‘zgartirishi;

- atrofdigalarning obro‘iga ko‘r-ko‘rona bo‘ysunish kabilar kiradi.

Kreativ faollikni amalga oshirish va uning keyingi rivojlanishining ijtimoiy determinantlari sifatida ta’lim muassasalarining pedagogik innovatsiyalarga bo‘lgan ehtiyoji, pedagogik faoliyatda ijodkorlikning ijtimoiy nufuzi, ta’lim tizimining kreativ faol pedagoglarga bo‘lgan ehtiyoji namoyon bo‘ladi.

Bo‘lajak pedagoglarning ijodiy salohiyatini namoyon qilishidagi ijtimoiy to‘siqlar sifatida tor fikrlaydigan, biroq kuchli ekspertlar, pedagogik jamoalar va ta’lim muassasasi rahbarlarining yangi g‘oyalarini tan olishga va ularni amaliyotga joriy etish uchun shart-sharoit yaratishga yetarlicha tayyor emasligi va boshqalar chiqadi. Bo‘lajak tarbiyachilarda kreativ faollikni rivojlantirish va amalga oshirishning shaxsiy determinantlari tahlil qilingan ilmiy manbalarda ushbu masala ko‘rib chiqilar ekan, odatda, ijodkor shaxsning faqat kreativlikni bevosita belgilab

beruvchi xususiyatlarigina ajratib ko‘rsatilgan. Biroq har bir ijod subyektining ichki dunyosi faqat shu determinantlar bilangina cheklanib qolmasligiga mutaxassislarning yetarlisa e’tibor qaratmayotganligi kuzatiladi.

Kreativ faollik ko‘plab tarkibiy qismlarni ham o‘z ichiga oladi, jumladan, talabalarning hissiy kechinmalari, tasavvurlari, badiiy asar qahramonlarining obrazlari ham talabalarda kreativ faollikni rivojlantirishga ko‘maklashadigan holatlar. Talabalar muntazam tarzda kreativ faoliyat bilan shug‘ullanganda ularning ichki dunyosi ham mazkur faoliyatga jalb etiladi. Biroq uning ayrim qismlari ijod jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi kreativlik determinantlari hisoblanadi. Ular kreativlik determinatsiyasining omillarini tashkil etadi. Boshqa tarkibiy qismlari esa kreativlikka bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Ular kreativlik determinatsiyasining shart-sharoitlari sifatida baholanadi.

Mualliflar kreativlik determinatsiyasining shaxsiy omillarini turlicha talqin etganlar. Amerikalik taniqli psixolog Dj. Gilford kreativlikning quyidagi yo‘nalishlarini ajratib ko‘rsatgan:

- muammolarni aniqlash va muammo qo‘yish qobiliyatiga egalik;
- g‘oyalarni generatsiyalash ko‘nikmalarining shakllanganligi;
- mahsuldor g‘oyalarni ilgari surish qobiliyatining shakllanganligi;
- g‘oyalarni ishlab chiqishga moyillikning mavjudligi;
- turli ta’sirlarga noan’anaviy javob qaytarish yoki munosabatda bilish qobiliyatining rivojlanganligi;
- tarkibiy qismlarni qo‘shish orqali o‘z ijodiy mahsulotini takomillashtirish qobiliyatining rivojlanligi;
- muammolarga tezkor yechim topish ko‘nikmalarining shakllanganligi;
- tahlil va sintezlash qobiliyatiga egalik kabilar.

P. Torrens esa kreativ faoliyat tarkibiga quyidagi qismlarni ham kiritishni taklif qilgan:

- muammolarga nisbatan sezgirlik;
- axborot yetishmasligini his etish;
- funksional nomutanosiblikni anglash;

- muammolarga yechim izlash;

- farazlarni ilgari surish;

- izlab topilgan yechimlarning haqqoniyligini tekshirib ko‘rish;

- aniq xulosalarni taqdim etish kabilar.

A.Ye. Braun esa kreativlikka ega bo‘lgan shaxslarga xos bo‘lgan bir qator sifatlarni ajratishga muvaffaq bo‘lgan. Bunday sifatlar sirasiga qiziquvchanlik, yangi axborotni qabul qilishga nisbatan moslashuvchanlik va ochiqlik, muammoni ko‘ra olish va uni aniq bayon eta olish, sezgirlik, axborotlarni umumlashtirish layoqatiga egalik, jasoratli shubhalanuvchanlik kabilarni kiritadi.

V.Muxina ham shaxs kreativligining o‘ziga xos yo‘nalishini aniqlashga harakat qilgan[2]. V.V.Bayluk esa kreativlik haqida o‘z qarashlarini bayon qilgan psixolog va pedagoglarning qarashlarini qo‘llab quvvatlagan holda o‘z yondashuvlarini bayon etgan. Ijodkor shaxsning mustaqilligi, jur’atliligi, fikrni jamlash layoqatiga egaligi, fikrning erkinligi, ochiqligi kabi sifatlarni ko‘rsatgan [1].

Bir so‘z bilan aytganda mutaxassislar kreativlik insonning shaxsiy sifati ekanligini nazariy amaliy jihatdan asoslashga muvaffaq bo‘lganlar. Bo‘lajak tarbiyachining kreativligi esa, uning shaxsiy-kasbiy sifati hisoblanadi.

Foydalaniladigan adabiyotlar

1. Байлук В. В. Принципы и методы воспитания и самовоспитания студентов: учеб. пособие / Урал. гос. пед. ун-т. Екатеринбург, 2015

2. Мухина В. С. М92 Возрастная психология: феноменология развития, детство, отрочество: Учебник для студ. вузов. - 4-е изд., стереотип. - М.: Издательский центр «Академия», 1999. - 456 с

3. Кузнецова Ю.И. *Психолого-педагогические основы креативности*. — Санкт-Петербург: 2012.

4. Психологический словарь / умумий таҳрир А. В. Петровский — Москва: Политиздат, 2001 йил.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA O‘YINLARNING AHAMIYATI

R.U. Nurjanova- *pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*

D.R. Mingyasharova- *3-bosqich talaba*

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti

O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.[1] Chunki aynan ushbu bosqichda bola tafakkuri, nutqiy rivojlanishi va shaxsiy sifatlari shakllanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha yoshda nutqning rivojlanishi bolaning keyingi ta’lim jarayoniga tayyorgarligini belgilab beradi. Nutqiy kompetensiyaning mustahkamlanishi nafaqat bolaning kelajakdagi akademik yutuqlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, balki uning ijtimoiy moslashuvi va muloqot madaniyatini rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynaydi.

Maktabgacha yosh davri (3–7 yosh) bolaning nutqi jadal shakllanadigan bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda bola lug‘at boyligini kengaytiradi, grammatik jihatdan to‘g‘ri gap tuzishni o‘rganadi hamda bog‘lanishli nutqi rivojlanadi. Bu jarayonda o‘yin yetakchi faoliyat turi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixolog olim Lev Vigotskiy o‘yin faoliyatini bolaning “yaqin rivojlanish zonasi” bilan bog‘lab, o‘yin jarayonida bola kattalar va tengdoshlar yordamida yuqoriroq nutqiy bosqichga ko‘tarilishini ta’kidlagan. Shuningdek, Jean Piaget maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkur va nutq rivoji aynan faol harakat va o‘yin orqali amalga oshishini ilmiy asoslab bergan.

O‘yinlar quyidagi yo‘nalishlarda nutqni rivojlantiradi:

1. Lug‘at boyligini oshiradi

O‘yin davomida bola yangi so‘zlarni eshitadi, takrorlaydi va amalda qo‘llaydi. Predmetlarning nomi, belgisi, harakati bilan bog‘liq so‘zlar faol lug‘atga kiradi.

2. To‘g‘ri talaffuzni shakllantiradi

Tez aytishlar, she’rlar, topishmoqlar ishtirokidagi o‘yinlar tovushlarni aniq talaffuz qilishga yordam beradi.

3. Dialogik va monologik nutqni rivojlantiradi

Rolli-syujetli o‘yinlar (“Do‘kon”, “Shifokor”, “Bog‘cha”) jarayonida bolalar savol-javob qiladi, mustaqil fikr bildiradi va izchil gap tuzishga o‘rganadi.

4. Bog‘lanishli nutqni mustahkamlaydi

Rasm asosida hikoya tuzish, ertakni davom ettirish kabi o‘yinli mashg‘ulotlar voqeani ketma-ket va mantiqiy bayon etish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

5. Muloqot madaniyatini shakllantiradi

O‘yin jarayonida bola o‘z fikrini boshqalarga tushunarli yetkazish, tinglash va javob berishni o‘rganadi.

O‘yin metodi bolalar uchun tabiiy va qiziqarli bo‘lib, ularning bilimlarni faol o‘zlashtirish jarayonini osonlashtiradi. Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, o‘yin bolalarning yangi bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishida muhim omil hisoblanadi. L.Vigotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasiga ko‘ra esa, ta’limiy o‘yinlar orqali bolaning nutqiy rivojlanishi ijtimoiy muloqot bilan chambarchas bog‘liq. Shu bois maktabgacha ta’lim tizimida turli ta’limiy o‘yinlar keng joriy etilmoqda. Ushbu o‘yinlar bolalarning so‘z boyligini kengaytirish, grammatik jihatdan to‘g‘ri gap tuzish, talaffuz aniqligini oshirish va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bunday metodlarning qo‘llanilishi bolalarning intellektual, ijtimoiy va nutqiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, kelajakdagi ta’lim jarayoniga tayyorgarligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha yosh davrida bola nutqining rivojlanishi uning kelajakdagi ta’lim jarayoniga tayyorgarligi bilan bevosita bog‘liq. Nutqning rivojlanishi bola tafakkuri va ijtimoiy moslashuvini yaxshilaydi, bu esa shaxslararo munosabatlar va turli hayotiy vaziyatlarda muvaffaqiyatli yo‘l topish uchun muhim ahamiyatga ega.

Ta’limiy o‘yinlar bolaning nutqiy faoliyatini rivojlantirishda samarali metod hisoblanadi. Ushbu metodologiya bolalar uchun qiziqarli bo‘lishi bilan birga, ularning tabiiy o‘rganish jarayoniga mos keladi. Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, o‘yin faoliyati bolalarning yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishida asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Ta’limiy o‘yinlar bolalarning nutqiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi va turli jihatlar bo‘yicha ularning til ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Eng avvalo, o‘yin jarayoni bolalarning so‘z boyligini kengaytirishga xizmat qiladi, chunki ular yangi so‘zlar va iboralarni o‘zlashtirishni tezlashtiradi. Shuningdek, ta’limiy o‘yinlar bolalarning nutqiy faolligini oshirib, ularni muloqot qilishga rag‘batlantiradi. O‘yin davomida bola faol ishtirok etib, o‘z fikrlarini ifodalashga intiladi, bu esa nutq rivojlanishining muhim omillaridan biridir. Ta’limiy o‘yinlar bolalarning nutqiy faolligini oshirishda samarali usul bo‘lib, o‘quv jarayonini zavqli va interaktiv qiladi. Bundan tashqari, ta’limiy o‘yinlar grammatik tuzilmani shakllantirishda ham samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. O‘yin jarayonida bola so‘zlarni grammatik jihatdan to‘g‘ri qo‘llashni o‘rganadi va gap tuzish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, bunday o‘yinlar talaffuz va diktsiyani yaxshilashda ham foydalidir. O‘yin davomida bolalar talaffuz qoidalariga rioya qilishga harakat qiladi, bu esa ularning nutq aniqligini oshirishga yordam beradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning nutqiy va ijodiy salohiyatini oshirish maqsadida bir qator ta’limiy o‘yinlar keng qo‘llanilmoqda. Jumladan, **"Jumboqli ertak"** o‘yini bolalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish bilan birga, ularning so‘z boyligini kengaytirishga yordam beradi. Ushbu o‘yin davomida bolalar matn mazmunini tahlil qilish, so‘zlar orasidagi mantiqiy bog‘liqlikni tushunish va yangi iboralarni o‘zlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Shuningdek, **"Sirli xarita"** o‘yini bola tasavvurini kengaytirib, og‘zaki bayon qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bolalar xarita bo‘ylab harakatlanish jarayonida o‘z fikrlarini izchil ifodalash, tasviriy fikrlash va nutqiy faollikni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ushbu o’yin bolalarni tasavvur qilish va og‘zaki nutq orqali fikrlarini bayon etishga rag‘batlantiradi.

Didaktik o’yinlarda esa bolalarning yosh, individual xususiyatlarini hisobga olish lozim. O’yinda o’yin tempi va ritmi katta rol o’ynaydi, juda sekin va bir tekisdagi temp bolani ko’p kuttiradi, juda tez temp esa bolalarni hayajonga soladi,

turli bahs-munozaralarga olib keladi. Kattalar tomonidan o’yin ishtirokchilarini to’g’ri baholash muhim ahamiyatga ega[2].

Mazkur o‘yinlar bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida nutqiy mashg‘ulotlarning samaradorligini oshirishda muhim vosita sifatida keng qo‘llanmoqda. Ular bolaning nutqiy salohiyatini kompleks rivojlantirishga xizmat qilib, muloqot qobiliyatini shakllantirish, so‘z boyligini kengaytirish va grammatik jihatdan to‘g‘ri gap tuzish ko‘nikmalarini mustahkamlashda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Didaktik o‘yinlar yordamida esa maktabgacha yoshdagi bolalarni nutqida uchraydigan turli xil nuqsonlarni bartaraf etib ularni rivojlantiradi. «Bir qator olimlarning tadqiqotlarida, o‘yin bolaning motivatsiyon talablari, bilish faoliyatini, harakatini va nutqini rivojlantirishda muhum ahamiyatga ega ekanligi qayd etilgan. Bolaning nutqini ostirish jarayonida qo‘l matorikasini rivojlantirish ham ijobiy tasir ko‘rsatadi. M.I.Koltsova, E.I.Isenina, A.V.Antakova, N.S.Jukova, E.M.Mastyukova va bo’shqalarning adabiyotlarida mayda qo‘l matorikasini rivojlantirish orqali nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarning nutqini tog‘ri shakllantirishga oid usullar berilgan. Shuningdek didaktik o‘yinlar nafaqat qo‘lning oddiy xarakatlari lab, yuz mushaklari zo‘riqishlarini susaytiradi, aqliy faoliyatni rivojlantirishda va tovushlar talaffuzini shakllantiradi.

Didaktik o‘yinlar yordami bolalar uchun zerikarli tuyilgan mashg‘ulotlar ham juda qiziqarli tarzda o‘tadi va bu mashg‘ulotning organilish foyizlari bir necha barobarga oshadi. Misol uchun «To‘rtinchi ortiqcha o‘yini»

O‘yin nima beradi: ob’ektlar va hodisalarni xususiyatlariga ko‘ra tasniflash qobiliyatini rivojlantirish.

Qanday o‘ynash kerak: Tarbiyachi bolalarga to‘rtta so‘zni aytadi (yoki to‘rtta kartani ko‘rsatadi), ulardan biri ortiqcha. Masalan siz ushbu so‘zlarni aytishingiz mumkun: Quyon, bo‘ri, kapalak, ayiq.

Bu o‘yin bolalarda fikirlash qobilyatini rivojlantirishga qaratilgan. Muntazam didaktik o‘yinlar yordamida olib borilgan mashg‘ulot jarayonlari oddiy mashg‘ulotlardan ajralib turadi va bolalarning qabul qilish jarayoni ham oddiy

mashg‘ulotga qaragada bir necha barobar yuqori bo‘ladi. Bundan korinib turibtiki didaktik o‘yinlar nafaqat maktabgacha yoshdagi bolalarni balki o‘zimiz uchun ham muhum sanalar ekan.

Xulosa qilib aytganimizda, o‘yinlar maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning eng samarali vositasidir. U nafaqat bolaning lug‘at boyligini oshiradi, balki bog‘lanishli, ravon va ifodali nutqni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli maktabgacha ta’lim jarayonida o‘yinlardan maqsadli va tizimli foydalanish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. 08.05.2019 yildagi PQ-4312-son

2. D.R. Babayeva. “Bolalarni nutqini o‘stirish nazariyasi va metodikasi”. -T.: “Ilim ziyo zakovat”. 2022y.

3. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. 2023-y.

BOLALARDA ELEMENTAR MATEMATIK TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISHDA TARBIYACHINING O‘RNI

R.U. Nurjanova- pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

R.A. To‘lavoyeva *- 3-bosqich talaba*

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Maktabgacha yosh davri bolaning aqliy rivojlanishida eng muhim bosqich hisoblanadi. Aynan 3–7 yosh oralig‘ida bolalarda atrof-muhitni anglash, predmetlarni taqqoslash, sanash, shakllarni ajratish, fazo va vaqtni tushunish kabi dastlabki matematik tasavvurlar shakllanadi.

Elementar matematik tasavvurlar - bu bolalarda son va miqdor, kattalik, geometrik shakl, fazoviy va vaqt tushunchalarining dastlabki ko‘rinishidir. Ushbu jarayon ilmiy asoslangan pedagogik faoliyatni talab qiladi va bunda tarbiyachining o‘rni beqiyosdir.

Bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishda tarbiyachi ta’lim berishning har xil usullari - amaliy, ko‘rsatmali, og‘zaki, o‘yin usullaridan foydalanadi. Usulni tanlashda bir qator omillar mazkur bosqichda yechiladigan dastur masalalari, bolalarning yosh va individual xususiyatlari, zarur didaktik vositalarning mavjudligi va boshqalar hisobga olinadi.

Tarbiyachining metod va usullarning asosli tanlanishiga, har bir aniq holda ulardan ratsional foydalanishga doimo e’tibor berib turishi quyidagilarni ta’minlaydi:

elementar matematik tasavvurlarning muvaffaqiyatli shakllanishi va ularning nutqda aks ettirilishi;

tenglik va tengsizlik munosabatlarini (buyumni soni, o‘lchami, shakli bo‘yicha) idrok qilish va ajratish, natijaviy munosabatlar (o‘lchami yoki soni bo‘yicha orttirish yoki kamaytirish)ni, analiz qilinayotgan ob’ektlarning miqdori, shakli, kattaligini umumiy belgi sifatida ajratish, aloqa va bog‘lanishlarini aniqlash malakasi;

bolalar o‘zlashtirgan amaliy ish usullari (masalan, qarshi qo‘yish, sanash, o‘lchash bilan taqqoslash)ni yangi sharoitlarda qo‘llashga yo‘naltirish va mazkur vaziyatda ahamiyatga ega bo‘lgan belgilar, xossalar, bog‘lanishlarni aniqlash, amaliy usullarini mustaqil izlashga yo‘naltirish. Masalan, o‘yin shart-sharoitlarida belgilarning tartibi, almashinib kelish qonuniyatini, umumiy xossalarni topishni o‘rgatish mumkin.

Matematika aniq fan, shu sababli ta’lim berishda bolalar o’z fikrlarini aniq va bog’liqli bayon qilishni o’rganishlari juda muhim. Bolalar har doim tarbiyachining mantiqan ixcham savodli nutqini eshitishlari kerak. Tarbiyachilar ko’pincha u yoki bu matematik atamalarni ishlatishganda “to’plam, “miqdor“, “son”, “raqam“, “kattaliklar”, ”shakl”, “figura“, “tomon“, “yoq“ va h..k. tushunchalar orasidagi farqlarni oydin tasavvur qila olmaganliklari tufayli xatolarga yo’l qo’yadi. Elementar matematik tushunchalarning mazmunini bilib olish muhim, busiz bolalarga ilmiy ishonchli bilimlarni berib bo’lmaydi.

Fazoviy va miqdoriy belgilar va munosabatlar faqat so’zlar yordamida akslanishi mumkin. Shu sababli bolalar tomonidan matematik obyektlarning xossalari va belgilarining ajratilishi albatta, ularning nomlari bilan kuzatiladi. Bola bog’langan

qo’shma gap va ergashgan gap tuza olmagani uchun nutqda matematik munosabatlarni aks ettirish qiyinlik qiladi. Bu malakani sinchiklab o’rganib chiqishga to’g’ri keladi.

Oldin savolarni bo’laklarga bo’lish maqsadga muvofiq, masalan, bolalardan – “Qizil savatda nechta olma bor?“- deb so’raladi. So’ngra bolani ushbu bog’lanishni o’rnatishga o’rgatish kerak: “qizil savatda bitta, ko’k savardada esa ko’p olma bor“.

Tarbiyachi yo javob namunasini beradi yoki bola uchun javob beradi: “qizil savatda bitta olma bor ko’k savatda esa – “ko’p olma bor“ deb to’ldiradi bolajonlar.

Bolalar matematik fikrlarni qisqa va aniq ish mohiyatini aks ettirib tuzishga o’rgatiladi. 3 yoshli bola “qo’g’irchoqlar nechta bo’lsa piyolachalar shuncha“ deydi yoki “idishlar ko’p, qo’g’irchoqlar kam“ deydi, yoki “to’rt uchdan katta, uch esa to’rtdan kichik“, deb javob beradi.

Bolalar nutqida matematik obyektlar bilan bajariladigan ishlarning aks etishiga katta e’tibor berish kerak. Bolalar u yoki bu topshiriqlarning bajarilishini albatta gapirib berishlari va tushuntirishlari kerak. Ajratilgan xossalar, belgilar (alomatlar) va mos harakatlar usullari orasida bog’lanishlar, ya’ni bilimlar bilan ularning idrok qilinishi orasida bog’lanishlar shu asosida o’rnatiladi. Bolalar uchun har bir yangi harakatini tarbiyachining o’zi ko’rsatadi, uni aniq ko’rsatmalar tushuntirishlar bilan olib boradi. Bu ko’rsatma va tushntirishlar mumkin bo’lgan xatolarning oldini olishga yo’naltirilgan bo’ladi, bunda hamma ish usullarini tarbiyachining o’zi ko’rsatadi, jarayonni va ishlarning bajarilish tartibini tushuntiradi. Masalan: bolalarga sanoq usullarini o’rgatar ekan tarbiyachi bolalar ko’z oldidagi buyumlarni sanaydi va bunday deydi: “Men koptoklarni o’ng qo’lim bilan chapdan o’ngga qarab sanayman, masalan, bitta, ikkita, uchta – jami uchta koptok deyman“.

Didaktik materiallarni almashtirib tarbiyachi bir xil xarakatning o’zini ko’p marta takrorlaydi, bunda u har doim harakat tomonini aytib turadi. Bolalar nima qilishlarini va qanday qilishlarini aytib berishadi. Bolalarning u yoki bu harakatni o’zlashtirishlariga qarab, og’izaki tushuntirishlarining roli ortib boradi. Tarbiyachi so’z bo’yicha ishlashga o’rgatadi, borgan sari ularga ko’proq erkinlik beradi. Agar dastlab harakat usullari mufassal tushuntirilgan bo’lsa, keyinroq ko’rsatmalar

umumiy xarakterga ega bo’la boshlaydi, masalan: “stolning enligi va kengligi, bo’yi va enini aniqroq qilishga harakat qiling”.

Shundan keyin bolalar qo’yilgan masalani hal qilgunga qadar harakatlarni rejalashtirishga o’rgatiladi ular ushbu xil savollarga javob berishadi: qaysi lenta uzun qaysi lenta qisqa ekanini qanday bilish mumkin? Siz to’g’ri to’rtburchaklarni teng ikkiga qanday bo’lasiz? Qaysi xaltada don ko’pligini qanday bilasiz? Ta’lim berishning bunday izchillikda bo’lishi bilish jarayonlarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Shunday qilib, bolalar, albatta, nima qilganliklari va qanday qilganliklari, keyinroq nima qilishlari haqida gapirib berishlari kerak. Bunda ular tushunarsiz, anglab yetilmagan, ya’ni ular bevosita tajribasida bo’lmagan narsalarni eslab qolishlariga hech bir yo’l qo’ymasliklari kerak.

Mashg’ulot jarayonida butun guruh va alohida bolalar ishini boshqarib turadi. Buning uchun har bir yangi savol va topshiriq bilan guruhning hammasiga murojaat qiladi, javobni esa tarbiyachi chaqirgan bolagina beradi. Frontal mashqlar o’tkazishda bolalar ko’rsatmalarni tinglash, bolalar bilan bir xil suratda o’ynash, topshiriqlarni bajarishni o’z vaqtida tamomlashga va nihoyat, nima qilganliklari va qanday qilganliklari nima hosil qilganliklarini gapirib berishga o’rgatiladi. Kimda boshqacha javob chiqqan bo’lsa, u tovush chiqarmasdan qo’lini ko’taradi. Javob har xil chiqqanda qaysi javob to’g’rillilgi aniqlanadi va xatolarni tuzatish taklif qilinadi.

Tarbiyachi har bir topshiriq bajarilgandan keyin baholaydi va bunda ko’rsatmalar bajarilishining to’g’riligi, chalg’imay ishlash malakasini ta’minlab o’tadi.

Xulosa

Bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish — bu murakkab, ko‘p qirrali pedagogik jarayon. Ushbu jarayonda tarbiyachi:

- Ta’lim jarayonini rejalashtiradi;
- Rivojlantiruvchi muhit yaratadi;
- Ilmiy asoslangan metodlardan foydalanadi;
- Individual yondashuvni amalga oshiradi;

• Bolaning qiziqishini rag‘batlantiradi.

Demak, tarbiyachining kasbiy mahorati va pedagogik kompetensiyasi bolalarning matematik tafakkuri shakllanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Maktabgacha davrda to‘g‘ri tashkil etilgan matematik ta’lim kelajakdagi muvaffaqiyatli o‘qishning mustahkam poydevorini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti–T.:2020.
2. 2. Kenjabaeva D.A., Gulyamova N.B., Miftaeva N.A.“O‘yin orqali ta’lim olish” Toshkent, 2020 y.
3. Bikbaeva N.U., Ibroximova Z.I., Qosimova X.I.. «Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish. T. «O‘qituvchi», 1995 y.

THE USE OF TOTAL PHYSICAL RESPONSE METHOD IN TEACHING YOUNG LEARNERS

Scientific Supervisor:
Associate professor ***Morteza Amirsheibani****,*
Faculty of Languages and Preschool Education, TIPU
Student: Umida Nodirova, *Student of Group XTA 22/1,*
Faculty of Languages and Preschool Education, TIPU
Tashkent Economy and Pedagogy University

Introduction

Teaching English to young learners presents a considerable challenge for educators, as it demands careful planning and creative instructional strategies to ensure successful outcomes. Unlike teaching adults, working with children requires specific pedagogical approaches that correspond to their developmental characteristics. Young learners often have limited attention spans, high energy levels, and a natural tendency to interact with their peers during lessons. Therefore, teachers

must apply effective techniques that capture students’ interest and maintain their engagement throughout the learning process (Ummah, 2017).

Effective educators are not only those who deliver knowledge but also those who are capable of fostering positive reactions and active participation among their students. Since children and adults differ significantly in terms of cognitive and psychological development, teaching methods cannot be identical for both groups. In classrooms with young learners, teachers need to demonstrate patience, flexibility, and strong classroom management skills. The learning environment should be supportive, enjoyable, and well-structured in order to facilitate language acquisition. Moreover, the use of appropriate instructional strategies and child-friendly activities can significantly enhance students’ motivation and involvement in English lessons (Rokhayati, 2017). A widely used mnemonic technique for teaching foreign language vocabulary is the Total Physical Response (TPR), which was introduced by James Asher. This method requires students to listen to instructions in the target language and immediately respond with corresponding physical actions (Asher, 1964). For instance, teachers may instruct learners to “jump and clap your hands,” and students perform the entire movement simultaneously.

TPR is supported by several theoretical perspectives on language acquisition (Khorasgani, 2017). By incorporating physical movements and play, this approach not only facilitates language learning but also promotes children’s overall physical development and active engagement both inside and outside the classroom. In practice, teachers can combine TPR with songs, storytelling, or role-play activities, where students carry out the commands given by the instructor. For example, when the teacher says “run,” students follow the instruction and repeat the action multiple times while practicing the associated vocabulary. Classroom arrangements, such as forming a circle, can further enhance students’ participation and interaction during these activities.

TPR emphasizes motor activity and bodily responses, which can help reduce learners’ stress—a key factor affecting language acquisition (Putri, 2016). Lower stress levels, or a reduced affective filter, contribute to more effective learning, while

fun and engaging activities increase students’ motivation and interest in the target language. Young learners, who are energetic and have limited attention spans, particularly benefit from such movement-based approaches (Ghasemi & Hashemi, 2011). Since children under the age of seven often cannot read or write fluently, TPR activities rely primarily on oral instructions and visual aids. For example, children may point to pictures when prompted by a word or mime actions during a story read aloud by the teacher (Er, 2013)

Brief history and theoretical background

Educators have long sought effective methods to facilitate the acquisition of vocabulary and overall language skills among both native and non-native speakers. Learning a new language often presents significant challenges, not only because of the inherent structural and grammatical complexities of different languages but also due to the difficulty of conveying novel concepts using only basic words and cues. In response to these challenges, researchers and educators throughout the mid-twentieth century explored various strategies to make language learning more natural and effective. Among these innovators was Dr. James J. Asher, a psychology professor at San Jose State College, who began his experiments in the early 1960s, focusing specifically on methods to enhance the speed and retention of language acquisition.

Asher’s initial research was informed by the concept of first-trial learning. This theoretical approach suggests that information acquired during the first encounter is often retained more effectively than knowledge obtained through repetitive exposure and extended memorization. Asher developed this idea largely through his personal experiences as a language learner, in which he found traditional classroom methods—characterized by long exercises, rote memorization, and repetitive drills—to be inefficient in creating durable knowledge. He observed that sudden moments of comprehension, in which a word or phrase was intuitively internalized, often led to far stronger retention than prolonged study sessions. To investigate these principles empirically, Asher designed a series of experiments with himself as the primary subject. He enlisted bilingual students to teach him vocabulary in their native languages, observing how he responded to different methods of instruction. A

particularly significant breakthrough occurred with a Japanese American student who attempted to teach Asher fundamental Japanese expressions. Asher noticed that when the learning process was paired with corresponding physical actions—for instance, performing the motion of sitting down while hearing the Japanese command for “sit down”—his ability to acquire and retain vocabulary improved dramatically. This combination of verbal input with physical movement provided a more holistic and engaging form of learning, aligning with cognitive theories that emphasize multi-sensory experiences in memory formation.

This foundational experiment led to the development of what Asher later termed Total Physical Response (TPR). Introduced in the 1960s, TPR rapidly gained recognition and adoption across North America and Europe, as its principles offered a practical solution to longstanding challenges in language education. Subsequent research not only validated the effectiveness of TPR in vocabulary acquisition but also demonstrated its broader applicability across various language skills, including reading, writing, and speaking. Over time, TPR has become integrated into diverse educational contexts, influencing pedagogical approaches for learners at multiple levels. The historical and theoretical underpinnings of TPR highlight the enduring importance of first-trial learning and embodied cognition in creating effective, student-centered language instruction.

Usage & Classroom Applications with Examples

In the classroom, the teacher takes on a guiding role similar to that of a parent. Lessons begin with the teacher introducing a word or phrase while demonstrating the corresponding action. Students respond to the verbal cue by performing the action. After several repetitions, learners can be encouraged to verbalize the word or phrase while executing the action. Once confident, students may take turns directing each other or leading the entire class. Classroom arrangement can enhance engagement. For example, students standing in a circle around the teacher or moving around while performing actions encourages participation and attention. TPR can be applied to various aspects of language learning. It is particularly effective in teaching:

1. Vocabulary connected with actions: smile, chop, wriggle

2. Grammatical structures (tenses and continuous aspects):

"Every morning I clean my teeth," "I make my bed," "I eat breakfast"

3. Classroom language: "Open your books"

4. Imperatives / instructions: "Stand up," "Close your eyes"

5. Storytelling activities: actions performed to match the narrative or events in a story. This approach is highly adaptable, allowing teachers to incorporate creative strategies for different teaching situations.

TPR is particularly effective with young learners and teenagers, supports kinaesthetic learning, enhances memory retention, and works in both small and large classes as well as mixed-ability groups. Minimal preparation is required, as long as the teacher clearly plans the intended learning objectives. By linking physical activity with verbal input, TPR engages both left- and right-brain learning, increases enjoyment, and makes language learning interactive and memorable.

Conclusion

Total Physical Response (TPR) proves to be an effective and versatile method for teaching young learners. Grounded in theories of cognitive psychology and language acquisition, it emphasizes the natural connection between physical movement and comprehension, reflecting the way children learn their first language. By incorporating actions with verbal commands, TPR facilitates memory retention, comprehension, and engagement, making the learning process both interactive and enjoyable. In practical classroom settings, TPR can be applied to a wide range of language skills, including vocabulary, grammar, classroom instructions, imperatives, and storytelling. Its adaptability allows teachers to use creative strategies tailored to different learner groups, whether in small or large classes or mixed-ability environments. The method also accommodates kinaesthetic learners, supports active participation, and promotes both cognitive and physical development.

Overall, TPR not only enhances language acquisition but also fosters a positive learning environment where students are motivated, attentive, and confident.

While most effective at beginner levels, its principles can be adapted for more advanced learners with careful planning and integration into other teaching methods. Consequently, TPR represents a practical, engaging, and research-supported approach to teaching English to young learners, combining theory with meaningful classroom application.

References

1. Er, S. (2013). Using Total Physical Response Method in Early Childhood Foreign Language Teaching Environments. Procedia - Social and Behavioral Sciences, 93, 1766-1768. https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2013.10.113.

2. Ghasemi, B., & Hashemi, M. (2011). Foreign Language Learning During Childhood. Procedia - Social and Behavioral Sciences, 28, 872-876. https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2011.11.160

3. Putri. A. R. (2016). TEACHING ENGLISH FOR YOUNG LEARNERS USING A TOTAL PHYSICAL RESPONSE (TPR) METHOD. Edulingua, 3(2).

4. Rokhayati, A. (2017). Promoting Total Physical Response (TPR) For Young Learners in English Class. The 2nd TEYLIN International Conference Proceedings, (April), 75-80.

5. Ummah, S. S. (2017). The Implementation of TPR (Total Physical Response) Method in Teaching English for Early Childhood, 58, 421-428.

6. EBSCO Research Starters. (n.d.). Total Physical response (TPR). EBSCO Information Services. Retrieved February 19, 2026, from https://www.ebsco.com/research-starters/language-and-linguistics/total-physical-response-tpr.

7. Verbalplanet. (n.d.). TPR: Total Physical Response in language learning. Retrieved February 19, 2026, from https://www.verbalplanet.com/blog/tpr-total-physical-response-language-learning.asp

SURXONDARYO MADANIY MEROSINI INGLIZ TILLI XORIJIY MEHMONLARGA TUSHUNTIRISH VA TARG‘IB QILISHDAGI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti
Xorijiy til va adabiyoti yo‘nalishi
p.f.f.d. (PhD) ***Z. B. Sobirova***
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti
Xorijiy til va adabiyoti yo‘nalishi
Magistratura bosqichi 1-kurs talabasi ***Nurmatova Nasiba Uralovna***

Annotatsiya. Mazkur tezisda Surxondaryo madaniy merosini ingliz tilli xorijiy mehmonlarga tushuntirish jarayonining lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda interkultural kommunikatsiya (madaniyatlararo muloqot), diskurs tahlili (matn va nutqni nafaqat grammatik jihatdan, balki ijtimoiy, madaniy va kommunikativ kontekstda o’rganish), tarjimashunoslik va heritage interpretation (tarixiy yoki madaniy obyektlar haqida ma’lumotni oddiy fakt sifatida emas, balki tushunarli, qiziqarli va mazmunli tarzda izohlash) nazariyalari asosida madaniy obyektlarni ingliz tilida taqdim etishning samarali modellari ishlab chiqiladi. Natijada tourist-friendly English (bu xorijiy mehmonlar uchun soda, tushunarli, aniq va madaniyatlararo moslashgan ingliz tili), storytelling diskursi (ma’lumotni oddiy faktlar ko’rinishida emas, balki hikoya shaklida, voqea, obraz va hissiy tasvirlar orqali yetkazish) va pragmatik adaptatsiyaning (nutqni ma’lum auditoriya, vaziyat va adabiy kontekstga moslashtirish) ahamiyati asoslab beriladi.Ushbu tezisda Surxondaryo viloyati madaniy merosini ingliz tilli xorijiy mehmonlarga samarali yetkazish va targ‘ib qilishning zamonaviy usullari tahlil qilinib, raqamli texnologiyalar, interaktiv kommunikatsiya, madaniyatlararo yondashuv va turistik brending vositalarining ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *ICT integration, cultural heritage, heritage discourse, pragmatika, digital promotion, digital competence, intercultural communication, cultural tourism, branding, barriers, Surkhandarya*.

Kirish

Globallashuv jarayoni, xalqaro turizmning jadal rivojlanishi va madaniy diplomatiya instrumentlarining kuchayishi sharoitida hududiy madaniy merosni xorijiy auditoriyaga samarali yetkazish dolzarb ilmiy-amaliy masalaga aylangan. Surxondaryo viloyati O‘zbekistonning eng qadimiy tarixiy-madaniy hududlaridan biri bo‘lib, unda buddaviylik, yunon-baqtriya, kushon hamda islomiy sivilizatsiyalar izlari mujassamdir. Hududdagi arxeologik yodgorliklar, xususan qadimgi ibodatxonalar, monastir majmualari va shahar xarobalari Markaziy Osiyo tarixida muhim o‘rin tutadi. Xorijiy, xususan ingliz tilli mehmonlar uchun ushbu boy merosni tushunarli, jozibali va zamonaviy shaklda taqdim etish bugungi kunning dolzarb masalasidir. Chunki zamonaviy turist nafaqat tarixiy faktlarni, balki tajriba (experience), hissiy bog‘lanish va interaktiv muloqotni ham kutadi. Shuningdek, Boysun hududidagi folklor an’analari, baxshichilik san’ati va marosim madaniyati nomoddiy meros sifatida alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi — Surxondaryo madaniy merosini ingliz tilli xorijiy mehmonlarga tushuntirish va targ‘ib qilishda zamonaviy kommunikatsion, raqamli va interkultural yondashuvlarning samaradorligini aniqlash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir. Bu jarayonda leksik-semantik tanlov, pragmatik moslashuv va madaniyatlararo kodlash asosiy rol o‘ynaydi.

Metodologiya

Tadqiqot jarayonida kompleks metodologik yondashuv qo‘llaniladi.

- Tahliliy metod – madaniy turizm va interkultural kommunikatsiya nazariyalarini o‘rganish;
- Taqqoslash metodi – xalqaro tajribani (Yevropa va Osiyo turistik obyektlari misolida) tahlil qilish;
- Kontent-tahlil – Surxondaryo turistik obyektlarining ingliz tilidagi reklama materiallari, bukletlar va rasmiy veb-saytlarini o‘rganish;

Kuzatuv metodi – ekskursiya jarayonlarida axborot taqdimoti sifatini baholash. Mazkur metodlar orqali mavjud kommunikatsion yondashuvlarning samaradorligi tahlil qilinadi va Surxondaryo turistik obyektlarining ingliz tilidagi matnlari lingvistik

jihatdan o‘rganiladi. Shuningdek, gidlarning og‘zaki nutqi kommunikativ strategiyalar nuqtai nazaridan tahlil qilinib, Interkultural kommunikatsiya nazariyasi asosida turistik obyektlardagi ingliz tilidagi axborot materiallari o‘rganiladi. Xususan, madaniy brending va raqamli marketing bo‘yicha zamonaviy ilmiy manbalar tahlil qilinadi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki: Birinchidan, ko‘plab obyektlarda ingliz tilidagi axborot tarjimaviy xarakterga ega bo‘lib, interpretatsion elementlar yetarli emas. Storytelling yondashuvi qo‘llanilganda mehmonlarning qiziqishi ortishi kuzatiladi; Ikkinchidan, interkultural izoh yetishmasligi ayrim tarixiy tushunchalarning noto‘g‘ri talqin qilinishiga olib keladi. Masalan, buddaviylik obidalarini global diniy tarix kontekstida tushuntirish zarur; Uchinchidan, raqamli vositalar – QR-kodli audio gidlar, mobil ilovalar, ijtimoiy tarmoqlardagi video kontent – yosh auditoriya uchun samarali ekanligi aniqlandi; To‘rtinchidan, hududning yagona xalqaro brendi va konseptual marketing strategiyasi hali to‘liq shakllanmagan.

Muhokama

Tadqiqot natijalariga ko’ra, oddiy tarjima yetarli emasligi aniqlandi va natijalar asosida quyidagi ilmiy xulosalar chiqarildi:

- Heritage interpretation jarayonida storytelling asosiy vosita bo‘lishi kerak;
- Tourist-friendly English – sodda, ravon va kontekstual izohli til uslubi qo‘llanilishi zarur;
- Raqamli texnologiyalar madaniy diplomatiya instrumenti sifatida xizmat qilishi mumkin;
- Hududiy brending strategiyasi ishlab chiqilishi va xalqaro platformalarda targ‘ib qilinishi lozim;

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, ko‘plab matnlarda so‘zma-so‘z tarjima ustunlik qiladi. Bunday yondashuv semantik to‘liq ekvivalentlikni ta’minlamaydi. Storytelling diskursi qo‘llanilganda esa auditoriya bilan emotsional aloqa kuchayadi. Tourist-friendly English modeli sodda sintaktik tuzilmalar, aniq metaforalar va

kontekstual izohlar asosida samarali ishlashi aniqlandi. Shuningdek, mahalliy gidlar uchun ingliz tilida maxsus kommunikativ treninglar tashkil etish tavsiya etiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Surxondaryo madaniy merosini ingliz tilida targ‘ib qilish jarayoni lingvistik jihatdan puxta ishlab chiqilgan strategiyani talab etadi. Interkultural kommunikatsiya, diskurs tahlili va tarjimashunoslik yondashuvlari asosida yaratilgan interpretatsion model xalqaro auditoriya bilan samarali muloqotni ta’minlaydi. Surxondaryo madaniy merosini ingliz tilli xorijiy mehmonlarga tushuntirish va targ‘ib qilish jarayoni zamonaviy kommunikatsion, raqamli va interkultural yondashuvlarni talab etadi. Oddiy tarjima o‘rniga ilmiy asoslangan interpretatsiya modeli ishlab chiqilishi zarur. Professional ingliz tilidagi kontent yaratish, storytelling asosidagi ekskursiya senariylarini ishlab chiqish, virtual turlarni joriy etish hamda yagona hududiy brend konsepsiyasini shakllantirish orqali Surxondaryo global turizm makonida raqobatbardosh madaniy markazga aylanishi mumkin. Madaniy brending va xalqaro marketing strategiyalari hududning jozibadorligini oshiradi. Bu jarayon madaniy diplomatiya vositasi sifatida ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Rtveladze E.V. Drevniy Termez (Qadimgi Termiz). – Toshkent: San’at, 2002.
2. Pugachenkova G.A., Rtveladze E.V. Severnaya Bactriya – Tokharistan (Shimoliy Baqtriya – Toxariston). – Toshkent: Fan, 1990.
3. UNESCO. Convention Concerning the Protection of the World Cultural and Natural Heritage. – Paris, 1972.
4. Richards G. Cultural Tourism: Global and Local Perspectives. – New York: Routledge, 2007.
5. Kotler P., Bowen J., Makens J. Marketing for Hospitality and Tourism. – Pearson Education, 2016.
6. Smith M.K. Issues in Cultural Tourism Studies. – London: Routledge, 2015.
7. Hall C.M. Tourism and Innovation. – London: Routledge, 2009.

8. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi rasmiy ma’lumotlari va statistik hisobotlari.

9. UNESCO rasmiy sayti materiallari (Nomoddiy madaniy meros ro‘yxati va madaniy merosni targ‘ib qilish bo‘yicha hujjatlar).

10. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi rasmiy nashrlari va metodik qo‘llanmalari.

ONA TILI TA’LIMIDA SIFAT VA RAVISH SO‘Z TURKUMINI O‘QITISH USULLARI

Sharopova Zubayda Fozilovna

TIPU, Tillar va maktabgacha

ta’lim kafedrasi dotsenti

Umumiy o‘rt ta’limning boshlang‘ich sinflarida ona tili ta’limining o‘ziga xos jihatlari shundan iboratki, o‘quvchi uchun olinadigan dastlabki ma’lumot asosiy material baza sanaladi. Agar o‘quvchi ilk material bazani to‘g‘ri ma’lumotlar asosida egallasa, kelajakda fanga bo‘lgan qiziqishi ham to‘g‘ri shakllanadi, aksi bo‘lsa, o‘quvchi yoshlarimizning ham fanga bo‘lgan qiziqish doiralari yuzaki shakllanibgina qolmay, biz uchun ayanchli natijalarni keltirib chiqarishi mumkin bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ona tili fanidan darslikda berilgan “sifat” va “ravish” so‘z turkumlari borasidagi ma’lumotlar nafaqat o‘quvchini, balki o‘qituvchi pedagoglarni ham noqulay holatda qoldirib kelmoqda. Chunki maktab darsliklarida har bir mavzuga keltirilgan ta’riflarning turlichaligi, boshlang‘ich sinfda olingan bilimning yuqori sinfdagi beriladigan ma’lumotga mos kelmasligi eng katta muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Darsliklarda uchraydigan bu kabi holatlar o‘quvchilarda biroz bo‘lsada ikkilanishlarni yuzaga keltiradi.

Yuqoridagi fikrimiz isboti sifatida quyidagilarga e’tiborimizni qaratamiz: *Sifat deb predmetning belgisini bildirib,* ***qanday? qanaqa?*** *Kabi so‘roqlardan biriga javob bo‘ladigan so‘zlar turkumiga aytiladi.* Masalan, ***oq, qora, yaxshi, katta, uzun,***

og‘ir… *kabilar. Sifatlar asosan ot va otlashgan so‘zlarga bog‘lanadi va ularning belgisini ifodalab aniqlovchi vazifasida keladi.*

Ravish deb harakatning holat belgisini ifodalaydi va ular ***qanday? qachon? qaerda? qancha?*** *kabi so‘roqlardan biriga javob bo‘ladi.* Masalan, ***tez, asta, kecha, atay, jo‘rtaga…*** *kabilar. Ular gapda asosan harakat-holat belgisini ifodalaganligi uchun fe’lga bog‘lanadi va gapda hol vazifasida keladi*.

Darslikda har ikkala so‘z turkumi uchun keltirilgan ta’riflar o‘zini oqlamaydi, nazarimizda. Chunki o‘quvchiga atroflicha ma’lumot berilgandagina darsning asosiy ko‘zlangan maqsadiga erishish mumkin bo‘ladi. Bugungi kun o‘quvchisini bu kabi tumtoq, oxiri mavhum bo‘lgan ma’lumot bilan tarbiyalab bo‘lmaydi. Har qanday o‘quvchi uchun asosiy ma’lumot bu amaliyot jarayonida o‘zini oqlaydigan ma’lumotdir. Keltirilgan nazariy ma’lumotimiz nutqda uchraydigan ayrim misollarga to‘g‘ri kelmas ekan o‘quvchining darsga bo‘lgan qiziqishi so‘nib boradi. Shu sababli o‘qituvchi avvalo kreativlikka ega bo‘lmog‘I va zamonaviy bilimlar bilan yaqindan tanish bo‘lmog‘I lozim.

Keltirib o‘tilganidek ikkala so‘z turkumini farqlovchi belgilar va jihatlar o‘zini bu shaklda oqlamaydi. Shunday ekan bu ikkala so‘ turkumini farqlovchi xususiyatlar sifatida quyidagicha yondashish maqsadga muvofiq sanaladi.

Asosan predmedning, qisman harakatning belgisini bildirib, «qanday?», «qanaqa?» so‘roqlariga javob bo‘ladigan so‘zlar turkumiga ***sifat*** *deyiladi.* Masalan, ***yaxshi, qizil, shirin, uzun, yengil, kuzgi***.

Eslatma*: Sifatlar gapda asosan otga bog`lanib sifatlovchi aniqlovchi fe’lga bog‘lanib esa hol vazifasida keladi.*

Ushbu ta’rif sifat so‘z turkumini to‘la mazmunini ochib bera oladi. Sababi sifat gapda otdan boshqa so‘z turkumiga (fe’l so‘z turkumi nazarda tutilayapti) bog‘langanda hech vaqt ravish so‘z turkumiga aylanmaydi. Bu kabi qarashlar asossiz. Sifat gapda fe’lga bog‘lansa, so‘z turkumi nuqtai nazaridan sifatligicha qoladi, lekin gap bo‘lagi nuqtai nazaridan hol vazifasida kelgan sanaladi. Masalan, *Axmad yig‘ilishda* ***yaxshi*** *gapirdi*.

Asosan harakatning, qisman predmetning belgi, payti, o‘rni, daraja-miqdori kabilarini bildiruvchi va «qanday?», «qachon?», «qayer (-ga, -da, -dan)?», «qancha?» singari so‘roqlarga javob bo‘luvchi so‘zlar ***ravish*** *deyiladi.* Masalan, ***tez, piyoda, bugun, doimo, yaqindan, ko‘p, oz.***

Eslatma: *Ravishlar gapda asosan fe’llarga bog‘lanib hol (otga bog‘lanib sifatlovchi) vazifasida keladi.*

Ravish so‘z turkumi uchun keltirilgan ushbu ta’rif ham o‘quvchiga belgi bildirsada sifat va ravishni bir biridan farqlasda katta yordam beradi. Ayrim tushunarsiz bo‘lgan holatlarni teran anglashida yordam beradi. Ravish so‘z turkumini faqat fe’lga bog‘lab qo‘yish bu mutlaqo noto‘g‘ri yondashuv sanaladi. O‘zbek tili so‘zlasuv leksikasi bilan adabiy til normalari orasida ma’lum ma’noda aloqadorlik mavjud. Hech vaqt biri ikkinchisini inkor etmaydi. Shunday ekan ravish so‘z turkumi ot va otlashgan so‘zlar bilan ham aloqalanib ularning o‘ringa, paytga, holatga bo‘lgan munosabatini ifodalab kelishi mumkin. Masalan, ***Bugun*** *paxta planini oshig‘i bilan bajaramiz.*

Sifat so‘z turkumi ham ravish so‘z turkumi ham belgi ifodalovchin so‘zlar faqat ularni bir biridan farqlashni o‘quvchiga to‘g‘ri tushuntirish asosiy vazifa sanaladi. Sifatlar otga bog‘langanda sifatlovchi aniqlovchi vazifasida keladi. Masalan, ***chiroyli*** *ko‘ylak,* ***go‘zal*** *qo‘shiq,* ***yoqimli*** *shabboda.* Sifatlar qisman bo‘lsada fe’lga bog‘lanib harakat belgisini ifodalaydi va hol vazifasida keladi. Masalan, ***chiroyli*** *so‘zlamoq,* ***go‘zal*** *ko‘rinmoq,* ***yoqimli*** *kuylamoq,* ***yaxshi*** *o‘qimoq.*

Ravish esa asosan fe’lga bog‘lanib, harakatning belgi, miqdor-daraja, o‘rin, payt, sabab, maqsad holatini bildiradi va hol vazifasida keladi. Masalan, ***saharlab*** *kelmoq,* ***olg‘a*** *yurmoq,* ***bexosdan*** *gapirmoq,* ***arang*** *so‘zlamoq,* ***noiloj*** *kulmoq,* ***qasddan*** *urushmoq.* Ravishlar qisman otga bog‘lanib, predmetning miqdor yoki holat belgisini ifodalaydi va sifatlovchi vazifasida keladi. Masalan, ***yigitcha*** *gap,* ***noiloj*** *sevgi,* ***mardlarcha*** *sabr.*

O‘quvchi yoshlarimizga shu shakldagi asosli misollar yordamida har ikkala so‘z turkumining o‘xshash va farqli jihatlarini tushuntirish kelgusida ularning fanni

o‘zlashtirishdagi bilimlarini mustahkamlanishini va tushunchaning shakllanishini yagona shakldaligin ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1 Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. T.,1995.

2. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. O‘zbek tili. T., 1978.

3. O‘zbek tili grammatikasi. 1-tom.

5. Raxmatullayev Sh. va boshqalar Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T., 1980.

SO‘Z BIRIKMASI VA UNI O‘QITISH METODIKASI

Haydarov Shohqadam Mamayusupovich

TIPU, Tillar va maktabgacha

ta’lim kafedrasi dotsenti

Umumiy o‘rta ta’limning ona tili fani darslarida hali hanuz xilma xilliklar ko‘zga tashlanadi. Darsliklarda uchraydigan bu kabi holatlar o‘quvchilarda biroz bo‘lsada ikkilanishlarni yuzaga keltirmoqda. Masalan, so‘zlarning sintaktik aloqalarini o‘quvchilar yaxshi tushunmaganliklari oqibatida insho yozish, matn tuzish, matnni og‘zaki bayon qilish, nutqni mazmunli ifodalash kabi holatlarda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda.

Yuqoridagi kabi holatlarda har qanday tajribali o‘qituvchidan alohida mahorat talab etiladi. Chunki o‘quvchiga atroflicha ma’lumot berilgandagina darsning asosiy ko‘zlangan maqsadiga erishish mumkin bo‘ladi. Ma’lum so‘zni ikkinchi bir so‘z bilan aloqalanishini quyidagi yondashuv asosida olib borilishini tavsiya etgan bo‘lardik.

So‘z birikmasi hosil qilish uchun kamida ikkita mustaqil ma’noli so‘z o‘zaro ma’lum qoidalar orqali birikkan bo‘lishi kerak. Demak, ikki yoki undan ortiq mustaqil ma’noli so‘zlarning grammatik-semantik munosabatidan tashkil topib, bir

murakkab tushunchani anglatadigan nominativ (atash) xarakterdagi ochiq konstruksiya (qurilma)lar so‘z birikmasi deyiladi.

Lekin gaplar predikativ xarakterdagi ochiq konstruksiyalardan iborat bo‘lib, kommunikativ funksiyani ifodalaydi. Kommunikativ funksiya (fikr, hukm, predikatsiya, shaxs, zamon kategoriyalari) nisbiy tugallangan fikr anglatib, tugallangan intonatsiyaga ega bo‘ladi va kishilar o‘rtasida o‘zaro aloqa munosabatlarini shakllantiradi. Shunday ekan, so‘z birikmasi va gapni, ularning ichki aloqalarini bir-biridan farqlash lozim.

Gaplar so‘z birikmalaridan tashkil topadi. Shunday ekan, gap uchun asosiy material baza so‘z birikmalari hisoblanadi. Lekin gapni so‘z birikmalari yig‘indisidan iborat deb hisoblamaslik lozim. Shu sababli gap va so‘z birikmalari alohida (so‘z birikmalari gapdan tashqarida) o‘rganiladi. So‘z birikmalari va gapning farqi so‘z-gap, nominativ, vokativ, infinitiv gap turlarida yaqqol seziladi. Chunki bu tipdagi gaplar so‘z birikmalariga ajralmaydi. Ular yakka so‘z shaklida namoyon bo‘ladi.

So‘z birikmasi bilan so‘zning o‘zaro o‘xshash va farqli tomonlari mavjud. Ular quyidagilar:

- so‘z ham, so‘z birikmasi ham gap ichida yashaydi;
- so‘zda (grammatik kategorialar va tugal intonatsiyaga ega bo‘lmaganda) ham, so‘z birikmasida ham predikativlik xususiyati mavjud emas;
- so‘z birikmalari ham so‘zlar kabi egalik va kelishik qo‘shimchalarini qabul qilish xususiyatini saqlaydi. Masalan, *kitobim, kitobing, kitobi; mening kitobim, sening kitobing, uning kitobi* kabi;
- so‘z birikmalari ham gap tarkibida so‘z kabi undalma, ajratilgan bo‘lak, kirish bo‘lak vazifasida kela oladi.

Bu kabi holatlar o‘xshash tomonlari sanalsa, so‘z birikmasi va so‘zlar o‘zaro farqlanish xususiyatiga ham ega:

- so‘zlar doimo bitta tushuncha bilan bog‘langan holda tilda doim tayyor holatda bo‘ladi. So‘z birikmasi bunday xususiyatga ega emas ular hamisha ma’lum bir tushuncha bilan bog‘liq bo‘lmaydi va tilda tayyor holda uchramaydi. Balki so‘z birikmasi nutq jarayonida tashkil topadi;

- so‘zlar ma’lum tizimdagi mustaqil va nisbiy mustahkam tovushlar yig‘indisidan, ayrim hollarda yakka bir tovushdan tashkil topadi. So‘z birikmalari esa birdan ortiq mustaqil so‘zlarning birikuvidan tashkil topadi;

- so‘z birikmalarida so‘zlardagi kabi semantik butunlik yo‘q. So‘zlar ikki xil ma’no ifodalaydi: leksik ma’no va grammatik ma’no. So‘z birikmalari esa faqat bir ma’no - leksik ma’no ifodalaydi, grammatik ma’no ifodalamaydi;

- so‘z morfologik elementlardan (o‘zak va affikslar) tashkil topsa, so‘z birikmalari morfologik elementlardan emas, balki sintaktik elementlardan tashkil topadi;

- so‘z abstract (mavhum) ma’noli bo‘lib, birikmaga kirishgach, uning ma’nosi konkret (aniq) tomon siljiydi;

- so‘z tarixiy kategoriya bo‘lib, til birligi hisoblanadi, so‘z birikmasi nutq jarayonida tashkil topib, nutq birligi hisoblanadi.

So‘z birikmalari va qo‘shma so‘zlar ham o‘zaro farqlanadi. Qo‘shma so‘zlar tilda sodda so‘zlar kabi vazifalarni bajaradi. Asli qo‘shma so‘zlarning o‘zi tarixiy nuqtai nazardan so‘z birikmalaridan yoki so‘z birikmalari modeli asosida paydo bo‘lgan. Masalan, *oqsoqol, qo‘lqop, belbog‘, gazquvur* kabi.

So‘z birikmalari va qo‘shma so‘zlar quyidagi belgilariga ko‘ra farqlanadi:

- so‘z birikmalari qismlari o‘rtasida barcha shakliy chegara saqlanadi, qo‘shma so‘zlarda bu chegara yo‘qolib ketgan;

- qo‘shma so‘zlar bir butunicha leksik ma’no ifodalasa, so‘z birikmalari bir butun ma’no ifodalasalar ham, lekin uning qismlari o‘zlarining leksik ma’nolarini saqlab qoladi;

- so‘z birikmalari ham, qo‘shma so‘z ham tilda nominativ xarakterda bo‘ladi, lekin qo‘shma so‘z bir sodda tushunchani reallashtirsa, so‘z birikmasi tarkibiga kiruvchi har bir so‘z bir tushunchani, ya’ni bo‘lingan tushunchalarni ifodalaydi;

- qo‘shma so‘zlar butunligicha bir mantiiqiy urg‘uga ega bo‘lsa, so‘z birikmasi komponentlarining har biri alohida urg‘uga ega;

- qo‘shma so‘z qismlarining o‘rni qat’iy bo‘lib ularning o‘rnini almashtirish, boshqa so‘z qo‘shish mumkin emas, ammo so‘z birikmalari erkin sintaktik

qo‘shilmalar bo‘lib, ularning o‘rnini hohlagancha o‘zgartirish, ular orasiga boshqa so‘zlarni qo‘shish mumkin;

- qo‘shma so‘zlar bir tushunchani ifodalovchi leksik birlik bo‘lganligi uchun gapda bitta bo‘lak vazifasida kelsa, so‘z birikmalarining har bir qismi gapda turli bo‘lak vazifasida keladi;

- qo‘shma so‘zlar so‘z kabi leksik va grammatik ma’noga ega, so‘z birikmalari esa faqat leksik ma’noga ega;

- qo‘shma so‘zlarning qismlari o‘rtasida grammatik munosabat yo‘q, ular o‘z leksik-semantik xususiyatlarini yo‘qotib, bir bosh urg‘u olib, gapda bir sintaktik vazifani bajaradi. So‘z birikmasi qismlari o‘rtasida esa grammatik munosabat mavjud, ular leksik-semantik mustaqilligini saqlab, o‘z urg‘usiga ega bo‘ladi va gapda boshqa-boshqa bo‘lak vazifasida keladi.

Shuningdek, so‘z birikmasi va frazeologizmlar o‘rtasida ham farq bor. Chunki so‘zlarning har qanday nopredikativ qo‘shilmasi so‘z birikmasini hosil qilmaydi. So‘zlarning bog‘lanishi erkin bo‘lishi, barqaror bo‘lishi, ya’ni nutqda tayyor holda bo‘lishi ham mumkin. Shunga ko‘ra so‘zlarning bog‘lanishi ham erkin va turg‘un bo‘ladi.

Erkin bog‘lanish so‘z birikmasini, turg‘un bog‘lanish esa frazeologizmlarni hosil qiladi. Frazeologizmlar tilda tayyor holda mavjud bo‘lib yaxlit holda qo‘llaniladi va u til birligi sifatida faoliyat ko‘rsatadi, so‘z birikmasi esa nutq jarayonida hosil bo‘lganligi sababli nutq birligi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda turg‘un birikmalar frazeologiyaning, erkin birikmalar-so‘z birikmalari esa sintaksisning tekshirish ob’ekti hisoblanadi.

So‘z birikmalarining bu shaklda o‘quvchilarga o‘qitilishi o‘quvchida ortiqcha savollarga ehtiyoj qoldirmaydi, aksincha, ifodali va mazmunli nutq protsesini yuzaga keltiradi. O‘quvchilar bir so‘zni ikkinchi bir so‘z bilan aloqalanishini, so‘zlarning fikr ifodalashdagi g‘alizliklarini o‘zlari mustaqil holatda to‘g‘rilab keta olish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Ta’limdagi kompetensiyaviylik ham ayni shu masalani nazarda tutadi. Ta’limni amaliy jarayonga tatbiq qilish bugungi kunning asosiy dolzarb vazifalaridan sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1 G‘ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis. T., “O‘qituvchi”, 1987 .

2. Abdurahmonov G‘., Sulaymonov A., Xoliyorov X., Omonturdiyev J. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis. T., 1978 .

3. O‘zbek tili grammatikasi. 2-tom. Sintaksis, T., 1976.

5. Fayzullayev B., Haydarov Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Jizzax, 2011.

ONA TILI TA’LIMIDA IMLOVIY MASHQLAR VA ULARNI O‘RGANISH USULLARI

Haydarov Shohqadam Mamayusupovich

TIPU, Tillar va maktabgacha

ta’lim kafedrasi dotsenti,(ilmiy rahbar),

Mirkurbanova Xusnora Mirkamol qizi

TIPU, Boshlang‘ich

ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Orfografiya o‘qitish metodikasi o‘zbek tili o‘qitish metodikasining bo‘limi bo‘lib, orfografik ko‘nikma va mahoratning shakllanish jarayonini o‘zida aks ettiradi, fikrning yozuvchi uchun ham, o‘quvchi uchun ham bir xil anglashilishini ta’minlaydi. O‘quvchilarni orfografiyaga o‘rgatishning asosiy maqsadi-orfografik savodxonlikni shakllantirishdir. Ya’ni harfiy va harfiy bo‘lmagan vositalar yordamida mavjud orfografik qoidalarga tayanib so‘zlarni yozishdir.

Imlosini orfografik qoida bilan tushuntirib bo‘lmaydigan, faqatgina imlo lug‘atidan foydalanib yod olinadigan so‘zlar orfografik minimumga kiritiladi. Bunday so‘zlar quyi sinflarda ko‘proq bo‘lsa, yuqori sinflarda nisbatan kamroq bo‘ladi. Taxminan, 5-sinfda 180 ta, 6-sinfda 170 ta, 7-sinfda 150 ta, 8-sinfda 140 ta

9-sinfda 140 atrofida so‘z bo‘lishi mumkin. Buning uchun orfografik mashg‘ulotlar bilan ko‘proq ishlash talab etiladi.

Orfografik mashg‘ulotlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

-so‘z va qo‘shimchalarning yozilishini kuzatish, qiyoslash va analiz qilish;

- orfografik qoidalarni o‘zlashtirish;

- bu qoidalarni yozuvda tatbiq qilish bo‘yicha mashq olib borish.

Orfografik qoidalar o‘zbek tilining fonetik va grammatik qurilishi bilan bog‘liq bo‘lib, I-VII sinflarda grammatika o‘qitish bilan bog‘lab olib borilsa, VIII-IX sinflarda yozma ishlarga bog‘lab ayrim imlo qoidalari takrorlab boriladi.

Ma’lumki, orfografiya deb nomlanadigan dars yoki mavzu yo‘q. Biz orfografik bilimlarni grammatika darslarida berib boramiz. Grammatikaning ko‘pgina qoidalari orfografiya bilan, ya’ni aytilishi bilan yozilishi to‘g‘ri kelmaydigan so‘zlar, qo‘shimchalar imlosi bilan uzviy bog‘liq. Umuman orfografiyani grammatikasiz o‘qitib bo‘lmaydi.

So‘z tarkibini tahlil qilish orqali so‘zlarning asos va qo‘shimchalarni topib so‘ng shu so‘zning yozilishini bilib olamiz. Masalan, ***angla← ong-la, yasha←yosh-a...***

O‘quvchilar ta’limning dastlabki paytlaridanoq to‘g‘ri yozishga odatlanib boradi. Bu malaka shakllanishi uchun har bir so‘z imlosiga bee’tibor qaramasdan uzluksiz nazorat qilish va doimo tahlil orqali xatolar tuzatilishi lozim. Hatto shunday holatlar bo‘ladiki, unda o‘quvchining biror xatosi tahlil qilinayotganda so‘zning kitob yoki gazetadagi yozilish shakli aytilib, o‘z nuqtai nazarini asoslashga harakat qiladi. Bunday holatlarda ishonchli manba haqida ma’lumot berish kerak.

O‘quvchilarni to‘g‘ri yozishga o‘rgatish uchun, ya’ni orfografik malakani shakllantirish uchun o‘tkaziladigan mashqlarni ikki guruhga ajratamiz: Maxsus va maxsus bo‘lmagan orfografik mashqlar.

Maxsus orfografik mashqlarga ko‘chirib yozish va diktant (ijodiy va erkin diktantdan boshqa) kiradi.

Ko‘chirib yozish. Bunda o‘quvchilar doskadan, turli ko‘rgazmali qurollardan, kitobdan ko‘chiradi va so‘zlarning imlosini yodida saqlab qoladi. Ko‘chirib yozishning o‘zi ham ikki turili bo‘ladi:

1) matnni o‘zgartirmasdan ko‘chirib yozish;

2) matnni o‘zgartirib ko‘chirib yozish.

Matnni o‘zgartirmasdan ko‘chirib yozish boshlang‘ich sinflarda olib boriladi. 5-9-sinflarda matnni o‘zgartirib ko‘chirib yozish grammatik orfografik tahlillar bilan qo‘shib bajartiriladi. Masalan, *“Alifbo” mavzusi o‘tilgach, so‘zlarni alifbo tartibida ko‘chirib yozish, darslikdan qo‘shimcha topshiriqlar bilan ko‘chirib yozish va boshqalar*.

Diktant va ularning turlari. O‘quvchilarning yozma va og‘zaki nutqini o‘stirishda diktantning ahamiyati katta. Diktantning izohli yozuv, ta’kidiy va izohli diktant, nazorat diktantlarida matn o‘zgartirilmay yozilsa, saylanma diktant, erkin diktant, ijodiy diktantda matn ma’lum o‘zgartishlar bilan yoziladi.

-izohli yozuv turida o‘qituvchi izohlanayotgan so‘z yoki gapni adabiy til talaffuz normasiga muvofiq tushuntiradi, o‘quvchilar uni yozib oladilar. Keyin o‘quvchilar o‘qituvchining ko‘rsatmasi bilan ma’lum so‘zni izohlaydilar. Masalan, ***chopqir, topqir, uchqir va boshqalar***. Bu so‘zlar o‘quvchilar tomonidan izohlanadi. Agarda mazkur orfogrammalar o‘quvchilar tomonidan noto‘g‘ri izohlansa yoki o‘quvchi izohlay olmasa, unga o‘qituvchi o‘sha orfogrammani takrorlaydi. Izohli yozuv uchun 5-8 minut ajratiladi;

-ta’kidiy diktant o‘quvchilarning orfografik qoidalarni ongli o‘zlashtirishda ahamiyatlidir. Ta’kidiy diktantda matnni diktovka qilishdan oldin ta’kidlanishi lozim bo‘lgan orfogrammani belgilab tagiga chizadilar. Bir o‘quvchi doskaga chiqib yozadi, qolganlari o‘sha asosda o‘z yozganlarini tekshirib ko‘radilar. Ta’kidiy diktantni 5-6-sinflarda haftada bir marta, 7-sinfda uch haftada ikki marta, 8-9-sinflarda ikki haftada bir marta o‘tkazgan ma’qul. Bunda butun dars ajratilmaydi, lekin darslarning 20-25 minunti kifoya qiladi;

-izohli diktantda qoida matn yozib bo‘lgandan keyin eslatiladi. Matn aytib turib yozdiriladi. O‘qituvchi o‘quvchilarning diqqatini mustahkamlanayotgan

orfogramma qoidasiga qaratadi. Qoida umumlashtirilgach, o‘quvchilar yozganlarini tekshiradilar. Masalan, Olimpiadada G‘allaorol va Jizzax tumanlarining o‘quvchilari g‘olib chiqdilar. G‘allaorol va Jizzax so‘zlari atoqli ot. Joylarga atalib qo‘yilgan nom. Shuning uchun ham bosh harf bilan yoziladi. Qolgan gaplarni ham o‘quvchilar tekshirib chiqadilar. Diktantlarning bu turi yangi materialni mustahkamlashga zamin yaratadi;

-saylanma diktantda o‘quvchilar mustahkamlangan orfografik qoidaga mos so‘zlarnigina ajratib yozadilar. Masalan, o‘qituvchi qo‘shma va juft otlarning yozilishiga doir matn tanlaydi. Qo‘shma va juft otlarning yozilishi haqidagi qoidani tushuntiradi. Keyin matn o‘qib berilib, o‘quvchilarning tushunganliklari tekshirib ko‘riladi. So‘ngra matn o‘qib turiladi va o‘quvchilar undan qo‘shma va juft otlarnigina ajratib yozadilar. Saylanma diktant ayrim so‘zlar orfografiyasini mustahkamlash uchun qo‘llanilib 10-15-minut ajratiladi;

-lug‘at diktant o‘quvchilarning nutq madaniyatini o‘stirishda ahamiyatlidir. Lug‘at diktant uchun ayrim tanlangan so‘zlar beriladi: *qo‘sh undoshlar imlosi, atoqli otlar imlosi, juft sifatlar imlosi va boshqalar*. Dikatning bu turi uchun 7-10 minut vaqt ajratiladi. Bu diktantda o‘quvchining to‘g‘ri yozish malakalari bilan birga fikrlash qobiliyatlari ortadi;

-nazorat diktant turi katta mavzular o‘tilgandan keyin hamda chorak oxirida o‘tkazilib, grammatik va orfografik qoidalar xilma-xil mashqlar vositasida mustahkamlanadi. Nazorat diktant o‘tilgan qoidaning qanchalik o‘zlashtirilganligini tekshirish maqsadida o‘tkaziladi. Yo‘l qo‘yilgan xatolar chuqur tahlil qilinadi. Nazorat diktant matnida so‘zlar miqdori quyidagicha bo‘lgani ma’qul.

Sinflar	V	VI	VII	VIII	IX
O‘quv yili boshida	90	100	110	120	130
O‘quv yili oxirida	100	110	120	130	140

Yordamchi so‘zlar ham alohida so‘z sanaladi. Nazorat diktantda matn tushunarli qilib o‘qiladi. Bog‘li matn bo‘lsa, uning mazmunini biror o‘quvchiga so‘zlatish ham mumkin. Matn gapma-gap o‘qib turiladi. Agar gap uzun bo‘lsa sintagmaga bo‘lib aytib turish kerak. Bunda gap avval to‘liq o‘qib berilib, so‘ngra

qismlari 2-3 marta qaytariladi. Lekin o‘quvchini bir o‘qishdayoq yozishga odatlantirish zarur. Bordi-yu o‘quvchidan ayrimlari qolib ketsa, unga tanbeh berib o‘tirmasdan bir-ikki so‘zni tashlab davom ettirgani ma’qul. O‘qituvchi iloji boricha o‘quvchining orqada qolmasligiga erishishi kerak. Diktant yozib bo‘lingach, o‘qituvchi matnni yana bir marta o‘qiydi, yozganlarini ko‘rib chiqish uchun 3-4 minut vaqt beriladi. Bunda o‘quvchi matnga ongli munosabatda bo‘lib, xatolarini topishga harakat qiladi. Shundan keyin tezda yig‘ishtirib olinishi kerak.

Diktantni to‘g‘ri o‘tkazishda aytib turishning ham ahamiyati katta. 5-sinf o‘quvchisi bir minutda 3-5 so‘z, 6-sinf 4-5 so‘z, 7-sinf 5-6so‘z, 8-9-sinf 7-8 so‘z yoza olishi kerak. Matn o‘rtacha ovozda o‘qilishi kerak. Diktant o‘tkazilayotganda parta ustida biror qo‘llanma bo‘lmasligi lozim. Ammo o‘quvchilar qaysi qoida bo‘yicha diktant o‘tkazilishi kerakligini bilishi zarur.

Maxsus bo‘lmagan orfografik mashqlar. Punktatsion kommunikativ malakalarni hosil qilish jarayonida ham orfografik bilim va ko‘nikma hosil bo‘ladi. Bu bilim va ko‘nikmani hosil qiluvchi vositalar sifatida erkin va ijodiy diktantni, bayonni, inshoni kiritish mumkin. Bunday mashqlarning orfografik vazifasi o‘quvchiga odatiy bo‘lmagan holatlarda orfografik qoidani qo‘llashni o‘rgatishdan iborat. Bunday paytlarda o‘quvchining diqqati imloga emas, balki o‘z fikrini bayon qilishga qaratilgan bo‘ladi. Bundan tashqari bolalar ma’lum matnni bayon qilishda nisbatan erkin so‘z tanlash imkoniyatga ega bo‘ladi. Bunday mashqlarga ijodiy va erkin diktant, bayon va insho kiradi.

-erkin diktantda o‘quvchi matnning umumiy mazmunini saqlagan holda ayrim so‘z va so‘z birikmasini boshqalari bilan almashtira oladi. Bu jihatdan erkin diktant bayonga o‘xshaydi. Matn abzatslarga bo‘lib o‘qiladi. Har bir obzats o‘quvchilar tomonidan erkin qayta yoziladi. Bu diktantlardagi orfografik mashq o‘rganilayotgan orfogrammaga bevosita aloqador bo‘lmay, o‘tilgan orfogrammalarga aloqador bo‘ladi;

-ijodiy diktant bir necha ko‘rinishga ega: a) o‘tilgan orfogrammalar yordamida gap tuzish. Masalan, yasama otlarning yozilishini mustahkamlash maqsadida doskaga bir nechta so‘z yoziladi: *elak, taroq, saylov, bo‘yoq, qirg‘ich*

so‘zlarni yozib izohladi va gap tuzishadi. b) berilgan matnni kengaytirish. Bunda otlar, sifatlar yoki boshqa so‘z turkumlari ishtirok etgan gaplar uning belgi-holatini ko‘rsatuvchi so‘zlar bilan kengaytiriladi. Masalan, *Biz paxta terdik. Biz oppoq paxtalarni terdik...* Bu diktant o‘quvchining nutqiy madaniyatni rivojiga yordam berdi;

-bayon yozma ishning asosiy turidan bo‘lib, nutq o‘stirishning muhim vositasidir. Unda biror matnning mazmuni o‘quvchi tomonidan “o‘z so‘zi” bilan bayon qilinadi. O‘quvchilar o‘zlarining tafakkur kuchi va nutq boyliklarga tayangan holda nutq malakalarini namoyish qiladilar. Bayonning ta’lim-tarbiyaviy ahamiyati katta. Bayon uchun matn tanlashda o‘quvchining yosh xususiyatlari, bilim darajalari hisobga olinadi, ayniqsa, matnning tarbiyaviy jihatdan davr ruhiga mos kelishiga e’tibor beriladi. O‘rta maktabda bayonning quyidagi turlari o‘tkaziladi: 1. **Matnga yaqinlashtirib bayon yozish.** Bunday bayonda muallif qo‘llagan so‘z va iboralardan keng foydalaniladi. 2. **Qo‘shimcha topshiriqli bayon yozish.** Bu bayon ona tili darslarida o‘tkazilib, biror grammatik kategoriya yuzasidan qo‘shimcha topshiriq beriladi: moslashuv, bitishuv, ritorik so‘roq gaplar kabi qo‘shimcha topshiriqli bayon o‘tkazilishi mumkin. 3. **Saylanma bayon**. Bunda o‘quvchilarga matn to‘liq yozilmasdan matnning xohlagan qismini yozish huquqi berilada. 4. **Ijodiy bayon**. Bunda o‘quvchi matn mazmuniga o‘z munosabatini bildirishi: ko‘chirma gapni o‘zlashtirmaga, dialogni o‘z gapiga aylantirib yozishi mumkin. 5. **Ixcham bayon**. Ixcham hajmli matn yuzasidan o‘tkaziladigan yozma ish turiga ixcham bayon deyiladi. Bunga darsning (V-IX-sinflarda) 8-20 minuti ajratiladi;

-insho mavjud materiallar asosida tuzilgan reja bo‘yicha mustaqil ravishda matn tuzish mashqlari insho sanaladi. Bunday mashqlar bevosita orfografik malakani shakllantirish uchun qo‘llanilmaydi. Insho orfografiyasida o‘zlashtirilgan qoidaning o‘quvchilar tomonidan qay darajada mustaqil qo‘llay olishlari muhim rol o‘ynaydi. Insho ona tili va adabiyot darslarida o‘tkaziladi. Ona tili darslaridagi insho uchun ko‘proq shaxsiy kuzatishlar, taassurotlar tema qilib olinadi. Maktablarda ko‘proq ekskursiya, kino va sayohatdagi kuzatishlar asosida insho yoziladi.

Har bir o‘quvchining yozma nutqini savodli tarzda rivojlantirish uchun orfografik metodlarning yuqoridagi kabi ko‘rinishlari muhim sanaladi. O‘quvchining yozma nutqi (insho, bayon, diktant kabilar) rivojlansagina uning og‘zaki nutqi ham rivojlanadi. Og‘zaki nutqi rivojlangan o‘quvchining bilim saviyasi va egallagan bilimlarini mustaqil holda idrok etish bir muncha soddalashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonun. Toshkent. “Sharq”, 2001.
2. Ahmedova H. “O‘zbek tili o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari”. Toshkent, 2012.
3. To‘xliyev B.va boshqalar. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. Toshkent, 2010.

RAQAMLI VOSITALAR VA SUN’IY INTELLEKTNING UNIVERSITET TALABALARI UCHUN CHET TILINI O‘QITISHDAGI SAMARADORLIGI

Djumaboyeva Durdona Xabibjon qizi

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Xorijiy til va adabiyot (ingliz tili) yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu tezisda raqamli vositalar hamda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining universitetlarda chet tilini o‘qitish jarayoniga ta’siri yoritiladi. Matnda O‘zbekiston va xalqaro tajribalar, real misollar, hamda turli tadqiqotchilar fikrlariga tayanilgan holda xulosalar beriladi. Tezis sodda va tushunarli uslubda yozilgan bo‘lib, inglizcha atamalar ham qo‘llanadi.

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, digital tools, AI, shaxsiylashtirilgan ta’lim, motivatsiya, universitet.*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim jarayonini raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin. Ayniqsa, foreign language teaching sohasida turli platformalar, mobil ilovalar va AI-based systems darslarning mazmunini boyitmoqda. Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, SI o‘quv jarayonini individual ehtiyojlarga moslashtirish imkonini

beradi [1]. O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida ham Moodle, Google Classroom, Quizlet, Duolingo kabi vositalardan foydalanish kundan-kunga kengaymoqda. Bu esa talabaning darsdan tashqari vaqtda ham til bilan shug‘ullanishiga yordam beradi.

Ko‘plab ilmiy ishlarda SI texnologiyalari o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishi, tezkor feedback berishi va mustaqil o‘rganishni rivojlantirishi qayd etiladi. Masalan, Ibragimova SI yordamida darslarni interaktiv va moslashuvchan tashkil etish mumkinligini ko‘rsatadi [2]. Shuningdek, ayrim tadqiqotlarda AI yordamida grammatika, fonetika va yozma nutqni tahlil qilish samarali natija berishi ta’kidlangan [5]. Xorij tajribasida esa adaptive learning systems keng qo‘llanilib, talabaga mos topshiriqlarni avtomatik tanlab beradi.

Raqamli vositalarning amaliy ahamiyati, digital tools talabaga anytime, anywhere tamoyili asosida o‘rganish imkonini yaratadi. Masalan, Koreyada talabalar avtobusda ketayotib ham vocabulary mashq qilishadi. O‘zbekistonda esa ko‘plab yoshlar Telegram botlar orqali ingliz tilini o‘rganmoqda. Bunday vositalar:

- vaqtni tejaydi;
- ko‘proq mashq qilish imkonini beradi;
- natijani tez ko‘rsatadi.

Tadqiqotlarga ko‘ra, raqamli muhitda o‘qigan talabalarning faolligi yuqori bo‘ladi [4]. Sun’iy intellekt imkoniyatlari-AI eng katta foydani shaxsiylashtirishda beradi. Tizim talabaning xatolarini eslab qoladi va keyingi vazifalarni shunga qarab beradi. Grammarly yoki boshqa writing assistants yozma ishni tekshiradi, talaffuz dasturlari esa nutqni baholaydi.

Ibragimova qayd etganidek, bu jarayon o‘qituvchining ishini yengillashtiradi va sifatni oshiradi [2]. Amerika va Yevropa universitetlarida chatbotlar talabalar bilan suhbat qilib, speaking practice yaratadi. Bu especially uyatchan talabalar uchun juda qulay.

Talaba motivatsiyasiga ta’siri. Gamification – ball, reyting, badge – talabani darsga tortadi. Duolingo bunga oddiy misol. Talaba har kuni kirishga harakat qiladi. Natijada muntazamlik paydo bo‘ladi. Ilmiy manbalarda SI asosidagi muhit o‘quvchining qiziqishini oshirishi ko‘rsatilgan [6].

Muammolar. Har qanday texnologiya kabi, bu yerda ham kamchiliklar bor:

1. Internet sifati;

2. O‘qituvchilarning digital competence darajasi;

3. Akademik halollik masalasi.

Olimlar inson omili doimo muhimligini eslatadi [7]. AI yordamchi, lekin o‘qituvchini almashtirmaydi.

Xulosa. Umuman olganda, digital tools va sun’iy intellekt universitetlarda chet tilini o‘qitishni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Tezkor baholash, interaktivlik, moslashuvchanlik – bularning barchasi samaradorlikni oshiradi. Biroq metodik nazorat va to‘g‘ri integratsiya zarur. Kelajakda SI bilan ishlay oladigan o‘qituvchi eng talabgir mutaxassis bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Fitria A. Competency-Based Education in Language Teaching. 2023.

[2] Ibragimova D.A. Til o‘qitishda sun’iy intellekt texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari. 2025.

[3] US Department of Education report on AI, 2023.

[4] Haciyeva A. Integration of AI into Language Teaching. 2025.

[5] Abdusamadovna M.X. Raqamli texnologiyalar va ingliz tili. 2024.

[6] Dulliyev E.N. Sun’iy intellekt va chet tillarini o‘qitish. 2024.

[7] Han, B. Application of AI in Autonomous Learning. 2019.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI MUSTAQIL FIKRLASHGA O‘RGATISHDA XALQ ERTAKLARINING O‘RNI

Mahammatov Akram Rayimqulovich

Jizzax DPU Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti,

Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Email: *mahammatovakram013@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqola umumta’lim maktablari o‘quvchilarini mustaqil fikrlashga o‘rgatish haqida bo‘lib, unda xalq og‘zaki ijodi namunalaridan xalq ertaklarini o‘qitish orqali maktab o‘quvchilarida mustaqil fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish va rivojlantirish masalalari haqida so‘z yuritilgan. Xalq ertaklarining bola tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etishi ilmiy-pedagogik jihatdan asoslangan.

Kalit so‘zlar: *Xalq og‘zaki ijodi, xalq ertaklari, mustaqil fikrlash, tafakkur olami, xayolot dunyosi, borliq, barkamol, ijodkorlik.*

Аннотация. Данная статья посвящена обучению учащихся общеобразовательных школ самостоятельному мышлению, а также рассказывает о формировании и развитии навыков самостоятельного мышления у школьников путем обучения народным сказкам на примерах народного творчества. Значение народных сказок в воспитании детей научно и педагогически обосновано.

Ключевые слова: *Народное творчество, народные сказки, самостоятельное мышление, мир мысли, мир воображения, существование, совершенство, творчество.*

Annotation. This article is devoted to teaching secondary school students independent thinking, and also talks about the formation and development of independent thinking skills in schoolchildren by teaching folk tales using examples of folk art. The importance of folk tales in raising children is scientifically and pedagogically substantiated.

Key words: *Folk art, folk tales, independent thinking, world of thought, world of imagination, existence, perfection, creativity.*

Ma’lumki, bolaning borliqni bilish faoliyati u dunyoga kelishi bilan boshlanadi. Bugungi kunda yosh avlodni jisman va ruhan barkamol qilib tarbiyalash tez va oson amalga oshadigan ish emas. Buning uchun maktab jamoasi va o‘qituvchilardan to‘g‘ri belgilangan maqsad asosida yillar davomida qator vazifalarni o‘z vaqtida amalga oshirish talab etiladi. Shuni esda tutish kerakki, maktab jamoasi va fan o‘qituvchisining yutug‘i tezda ko‘rinmagani kabi xatosi ham o‘sha zahoti emas, oradan yillar o‘tgach yuzaga chiqadi. Agarda bu xatolarni o‘z vaqtida tuzatishga

harakat qilinmasa, kelgusida bunday xatolarni tuzatishning imkoni bo‘lmay qoladi. Bola dastlab boshlang‘ich ta’lim bosqichiga qadam qo‘yganida, jarayon shaklan ham, mazmunan ham ma’lum tartibga solinib, tizimli ko‘rinish oladi. Maktab hayoti tashqi va ichki jihatlari bilan oila yoki maktabgacha ta’lim muassasasi hayotidan farq qiladi. Bola birinchi sinfga kelishdan oldin o‘z hayotining bu bosqichi bilan qiziqa boshlaydi. Maktabga kelgach esa uni bevosita his qiladi.

Bolaning erkin yashash tarzini o‘zgartirib, qoliplarga solingan maktab hayotiga moslashishi oson kechmaydi. Boshlang‘ich sinflarda bilim olish jarayoni o‘yinlar shaklida amalga oshirilishining boisi ham shundan iborat bo‘ladi. Bu ta’lim jarayonini inson tabiatiga moslashtirish demakdir. Bolalarga betinim jiddiy topshiriqlar berib, ustma-ust nazariy bilimlar singdirish ularni o‘qishdan bezdirib qo‘yishi mumkin. Aqliy zo‘riqishdan toliqib, unga karshi qanday kurashish kerakligini bilmagan bola o‘qimay qo‘ya qoladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda bunday holat juda ko‘p uchraydi. Bolaning mustaqil fikrlashi, badiiy ijodkorligi ilmiy-nazariy bilimlarni egallash uslubini o‘yinlar asosiga qurishning o‘zi alohida muammodir. Chunki barkamol avlodni shakllantirishning bosh omili uni mustaqil fikrlashga o‘rgatishdir. O‘z fikri va mustaqil qarashiga ega bo‘lgan kishi o‘qigan, eshitgan, ko‘rgan-bilganini mulohaza qiladi, o‘z fikriga ega bo‘ladi, qarashlarini asoslaydi. Agar bolalarning davrga mos qilib tarbiyalanishi istalsa, avvalo, ularning badiiy adabiyotga oshno bo‘lishi ta’minlanishi shart. Bolalar o‘z imkoniyatlaridan ortiqroq ishlarni bajarishni xush ko‘radilar.

Psixologlarning fikricha, bu bolalarning ruhiy kamoloti va jismoniy o‘sishini ta’minlovchi asosiy omildir. Ular tabiiy ravishda shunga intiladilar. Boshlang‘ich sinflarda bolalarning mana shu intilishini mustaqil mulohaza yuritishga, fikr aytishga yo‘naltirish ularning ma’naviy jihatdan to‘kis shaxslar sifatida shakllanishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o‘z navbatida, ta’lim-tarbiyaning keyingi bosqichidagi tadbirlar samaradorligini ta’minlashga ham xizmat qiladi. Boshlang‘ich maktabda shakllantirilgan ma’naviy fazilatlar bolaning keyingi umri davomida qaramlik, mutelik, mas’uliyatsizlik, yolg‘onchilik kabi illatlar paydo bo‘lib, ularning bemalol quloch yozib, kengayishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Psixologiya ilmida ta’kidlanganidek, insonning aqli, qarashlari kurashlar asnosida tug‘iladi va o‘sib rivojlanadi. Bolalarni o‘yinlar asnosida tinimsiz ravishda mustaqil mulohaza yuritishga, munosabat bildirishga, fikr aytishga undash, xayolot dunyosiga sayr qildirish, ruhiy, aqliy zo‘riqishlarsiz ular istagan yo‘llar bilan o‘zlarini o‘zlari tarbiyalashlariga ko‘maklashish lozim.

Mana shunday ijodkorlikka undovchi mashg‘ulotlardan biri “So‘z va hodisalarni eslash” o‘yinidir. Sinf xattaxtasiga “kitob” so‘zi yoziladi. O‘quvchilardan shu so‘zning bosh harfi bilan boshlanadigan boshqa so‘zlarni aytish talab qilinadi. Bu o‘yinda qancha ko‘p o‘quvchi ishtirok etib, qancha ko‘p so‘z topa olsa, shuncha yaxshi. O‘qituvchining vazifasi “topilma”larni xattaxtaga yozib borishdan iborat bo‘ladi. Ayni vaqtda, o‘quvchilarga kitob bilan bog‘liq barcha ashyolar nomini eslashga to‘g‘ri keladi. Oxirgi bosqichda kitob bilan bog‘liq birorta ertak, hikoya, she’r to‘qishni so‘rash mumkin. Bunda o‘quvchilarga yukorida to‘plangan materiallar qo‘l keladi. Bu topshiriqning bajarilishida olingan natijalar dastlab balki kutilganidek samara bermasligi mumkin, lekin u qayta-qayta takrorlanaversa, kelgusida albatta kutilgan natijaga erishiladi. Topshiriqlar boskichma-bosqich murakkablashib boradi, bolalarning faoliyati jiddiylashadi va jadallashadi. Shuning uchun u darsda zerikmaydi. Topshiriqlarni bajarish jarayoni qiziq bo‘lgani uchun bolaga aqlan zo‘riqish malol kelmaydi. Bola o‘yin jarayonida fikrlaydi, o‘z leksik boyligini titkilab, uni faollashtiradi. O‘yin davomida kimdir fikrini mantiq asosiga quradi, kimdir so‘zlarni tasodifan aytadi. Boshida bunga ortiqcha ahamiyat berish kerak emas. Muhimi, bolalarning fikr yuritib, mustaqil mulohaza qilgan holda o‘qituvchi aytib berganlarini qaytarib loqayd o‘tirganlaridan ko‘ra qanday bo‘lsa-da, o‘zlari mulohaza yuritishga o‘rganganlari ma’qul.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar tasavvurini, mustaqil, ijodiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantiruvchi, aqlini peshlab, zehnini o‘tkirlovchi faoliyat turlaridan biri sinfda “Ertakchi” kursisini tashkil etishdir. Mazkur o‘yinda o‘quvchilar o‘zlari to‘qigan ertak, hikoya yoki voqea-hodisani navbat bilan ertakchi kursisida o‘tirib, aytib beradilar. Bunda bolalar o‘z xayolot olami, bilimlari dunyosida kezib ertak yoki sarguzasht to‘qiydilar, ya’ni ijod qiladilar. Tasavvurlarini o‘zlaricha tizimga soladilar.

O‘rtoqlariga qanday ta’sir qilishini o‘ylab bezovta bo‘ladilar, izlanadilar. Albatta, hamma bolalar o‘z ertagi yoki hikoyasi bilan o‘rtoqlari va o‘qituvchisini lol qoldirgisi, hayratlarga solgisi keladi. Shu bois ularning tuyg‘ularini his etib, “ijod” namunalarini hurmat qilish – o‘qituvchining burchi. Bolalar ijodi saviyasi qanday bo‘lishidan qat’iy nazar ularni tanqid qilish, kamsitish mumkin emas. Bolaning bir muncha ixtiyoriy zo‘riqishi, hayajoni, aqliy va ruhiy intilishi, zavqli mehnati natijasi bo‘lmish ertak qadrlanishi kerak.

Kichik o‘quvchilarda mustaqil fikr shakllantirishda qo‘l keladigan yana bir o‘yin – tanish ertakdan olingan beshta so‘z bitta begona so‘zni qo‘shib yangi asar yaratish. Masalan, “o‘gay”, “erka”, “dangasa”, “mehnatsevar”, “sehrgar kampir” kabi tanish so‘zlar xattaxtaga yoziladi yoki kartochkalarga yozilgan so‘zlar yopishtirib qo‘yiladi. Ularga “kulol” degan begona so‘z qo‘shiladi. Bolalar avval tanish so‘zlarga asoslanib ertakning nomini aniqlaydilar. Masalan: “Zumrad va Qimmat” ertagini misol qilib keltirish mumkin. Shundan so‘ng begona so‘z ko‘magida ertakni davom ettirish taklif etiladi. Buni yozma ravishda ham, og‘zaki tarzda ham uyushtirish mumkin.

O‘quvchilar tuzgan ertaklarini sinfda o‘qib yoki aytib beradilar. Mazmunli, mantiqli “asar”larning mualliflari rag‘batlantiriladi. Bu bilan ularning ruhiyati ko‘tarilishi tabiiy. Ko‘tarinki ruhiyat, yaxshi kayfiyat bilan ular dunyoning topshiriqlarini bajarib yuboradilar. Bir olam yaxshiliklar qilishga qodir bo‘ladilar.

Shuni ta’kidlash joizki, jamiyat ravnaqini inson ta’minlaydi. Uni buyuk kelajak sari olib borish ham, tubanlik qa’riga tortish ham uning qo‘lida bo‘ladi. Mustaqil fikri, shaxsiy qarashlariga ega bo‘lgan, erkinlikni his qiluvchi kishilari ko‘p bo‘lgan millatgina taraqqiyot yo‘lidan qat’iyat bilan bora oladi. Jamiyatni harakatga keltiruvchi mana shu kuch – insonning tafakkuri qanchalik mustaqil bo‘lsa, u shunchalik tashabbuskor bo‘ladi. Qanchalik erkin bo‘lsa, shunchalik izlanuvchan bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. O‘quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Oqituvchi, 2004.

2. Kiyikbayev F.Q. Bolalar adabiyoti. O‘quv qo‘llanma. – Andijon, 2020.

3. Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. Bolalar adabiyoti. Darslik. – Toshkent, O‘qituvchi, 2011.

4. O‘zbek xalq ertaklari. – Toshkent: Sharq, 2006.

5. O‘zbek adabiy ertaklari. – Toshkent: Meros, 1992.

6. Qahramonov Q. Adabiy tanqid va o‘zbek bolalar adabiyoti. – Toshkent: Fan, 1991.

7. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qtish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020.

“BOSHLANG‘ICH TA’LIM” YO‘NALISHLARDA BOLALAR ADABIYOTI FANINI O‘QITILISHINING ZARURIYATI

Jumayev Farhod Akmamatovich

Dotsent, filol. fan. nomzodi.

Alivoyeva Zuhra Alisher qizi

Esanova Osiyo Shaxriddin qizi

3-kurs talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishlarda bolalar adabiyoti fanini o‘qitilishining zaruriyatini yuzaga keltiruvchi omillar xususida, shuningdek, yoshlar ongini o‘stirishda va rivojlantirishda, ularning ma’naviy qiyofasining shakllanishida mazkur fanning o‘rni nihoyatda muhimligi yuzasida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *Boshlang‘ich ta’lim, bolalar adabiyoti, fan, bakalavr, omil, metodika, innovatsiya, folklor, alla, qo‘shiq, maqol, masal, topishmoq, tez aytish, ertak.*

Abstract: This article examines the factors that determine the need to teach children's literature within the Primary Education program, as well as the extremely

important role of this discipline in the education and development of the consciousness of young people and the formation of their spiritual image.

Key words: *Primary education, children's literature, science, bachelor's degree, factor, methodology, innovation, folklore, alla, song, proverb, parable, riddle, short saying, fairy tale.*

Абстракт: В данной статье рассматриваются факторы, обуславливающие необходимость преподавания детской литературы в рамках программы «Начальное образование», а также чрезвычайно важная роль этой дисциплины в воспитании и развитии сознания молодежи и формировании ее духовного образа.

Ключевые слова: *Начальное образование, детская литература, наука, степень бакалавра, фактор, методология, инновации, фольклор, алла, песня, пословица, притча, загадка, короткое изречение, сказка.*

Yangi O‘zbekistonning bunyodkori bo‘lmish barkamol avlodning yetishub chiqishidagi sa’y-harakatlar jonajon diyorimizda kundan-kunga dolzarblik kasb etib borayotganligi xayotiy zaruratligini yaqqol ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, bu yo‘sindagi, ya’ni, yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga davlatimiz tomonidan berilayotgan katta e’tibor tahsinga loyiqdir.

Mamlakatimiz prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning joriy 2026- yilning 24- fevral kuni “Ko‘ksaroy” qarorgohida yoshlar bilan muloqotida “Albatta, yangi metodika va innovatsiya olib kirib, ta’lim sifatini oshirish va bolalarni o‘zi tanlagan kasbning mohir ustasi qilib tarbiyalashda…yangicha muhit va ish tizimiga o‘tish zarur” ligini qayd etib o‘tdi[100]. Albatta, hozirgi kunda taraqqiyot yo‘lidan izchil rivojlanib borishimizda, ezgu maqsadlarimizni ro‘yobga chiqarishda hal qiluvchi rol o‘ynaydigan muhim bir omil borki, u ham bo‘lsa, inson omili, ya’ni zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, mamlakatimiz istiqboli uchun mas’ulyatni o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan, hayotga dadil qadamlar bilan kirib kelayotgan yoshlarimizdir.

[100] https://gov.uz/oz/digital/news/view/136129 24.02.2026.Prezident Shavkat Mirziyoyevning yoshlar bilan ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha imkoniyatlarga bag‘ishlangan muloqoti.

Darhaqiqat, bugungi kunda ijtimoiy sohaninig barcha jabhalarida yetuk kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj taboro oshib boraveradi. Bu esa o‘z-o‘zidan o‘qitishning yangicha mazmun bilan boyitilgan usullarning yuzaga kelishiga zamin yaratadi.

Binobarin, ta’limda fanning mazmuni talaba tanlagan ixtisoslikning to‘laqonli mohiyati bilan uyg‘unlashgan bo‘lishligi muhim omillardan biri ekanligidandir.

Jumladan, bu o‘rinda “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalarga o‘zbek bolalar adabiyoti fanining o‘qitilishini ham intellektual boylik, yuksak bilim va salohiyat talab etiladigan, ham aynan shu qadriyatlar ustuvor bo‘lgan asrning hayotiy zaruriyatlaridan muhim ekanligini ta’kidlash joizdir.

Bunday yoshlar kamolotida, albatta, badiiy adabiyot, xususan, bolalar adabiyoti katta rol o‘ynaydi. Chunki, kichkintoylar alla, qo‘shiq, maqol, masal, topishmoq, tez aytish hamda ertak eshitib va o‘qib kamol topadilar. Bu janrlar vositasida ularning qalblari nurga to‘ladi, hayotga intilish, qiziqish hislari jo‘sh uradi. Tafakkur va ongi, tashqi olamni va hayot mazmunini tushunish asnosida ma’naviy tomondan ham yuksala boradilar.

Ushbu o‘rinda adabiyotshunos olim M.Jumaboyevning “Bolalar adabiyoti o‘z oldiga kelajak avlodni jismonan baquvvat, ruhan pok, fikran sog‘lom, iymon-e’tiqodi butun, bilimi, ma’naviyati yuksak, mard va jasur, vatanparvar avlodni tarbiyalashdek katta va murakkab vazifani qo‘yganligi bilan ajralib turadi”[101] – degan fikri asoslidir.

Bolalar adabiyotining rivojlanish davrlari, har bir zamon adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlari, mazkur adabiyotning taniqli vakillari hayoti va ijodini o‘rganish, talabalarni og‘zaki ijod namunalarini chuqur tahlil eta olishga o‘rgatish, shuningdek, ularni yuksak axloqiylik, ruhiy barkamollik, insoniy qadriyatlarga sodiqlik, ma’naviy merosga muhabbat ruhida tarbiyalash masalalari bo‘yicha ko‘nikmasini hosil qilishdan iborat kabi vazifalar ustivorlik kasb etadi. Bu esa bolalar adabiyoti janrlarining o‘ziga xos xususiyatlari va bolalar folklori bilan bogliqligini hamda bu adabiyotining paydo bo‘lishi va taraqqiy etishiga ijtimoiy zaruriyatlar sabib bo‘lishini o‘rganish muhimligini ko‘rsatadi.

[101] Jumaboyev M. O‘zbek bolalar adabiyoti. O‘zbekiston.2002.B-5.

Bundan ko‘rinadiki, universitetlarning “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishlari bakalavriyat bosqichi talabalariga o‘zbek bolalar adabiyotini tanlov fan sifatida o‘qitilishi nafaqat bo‘lajak ushbu soha o‘qituvchisi uchun muhim bo‘lgan bilimlar ko‘nikmasini egallashlariga asos bo‘ladi, balkim ularning bolalar adabiyoti namunalari haqida bilimga ega bo‘lishlari asnosida kelajak avlodni vatanparvarlik va insonparvarlik hamda ezgulik yo‘lida tarbiyalashlarida asqotishini ta’kidlash joizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti, Darslik, O‘qituvchi -T.: 2010-yil, 367 b.
2. Safarov O., Jamilova B., Safarova N. Bolalar adabiyoti va folklor, O‘quv qo‘llanma, Turon zamin ziyo -T.: 2015-yil,332 b.
3. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, Darslik, 2004-yil, 221 b.
4. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari, Darslik, O‘zbekiston, 2002-yil, 557 b.
5. Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi, Darslik, Toshkent, 2017-yil, 304 b.
6. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi, O‘quv qo‘llanma, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi, 2010-yil, 168 b.

Internet saytlari

1. https://gov.uz/oz/digital/news/view/136129
2. www.ziyonet.uz
3. www.my.gov.uz

MUNDARIJA

№	Maqola muallifining FIO	Maqola nomi	Sahifa
	Adilov Sanjar Anvarovich	**Kirish so‘zi**	3
1-SHO‘BA: “ZAMONAVIY LINGVISTIKANING NAZARIY VA AMALIY MASALALARI” (pragmalingvistika, sotsiolingvistika, lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslik, lingvopoetika)			
1.	Ma’rufjon Yo‘ldoshev, Muyassarxon To‘xtaboyeva	Jadid ziyolilarining milliy adabiy tilni shakllantirish haqidagi qarashlari	6
2.	Ibragimova Fazilat Erkinovna	Buyruq gaplarning sintaktik lingvopoetikasi	13
3.	Tojimatov Rasuljon G‘anijonovich	O‘zbek tilida modal so‘zlar va kirish bo‘laklarning o‘zaro munosabati	19
4.	Siddiqova Shoxida Isoqovna	Badiiy matnda o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar orqali personaj holati, his-tuyg‘ulari, o‘y-fikrlarini badiiy-estetik tasvirlash	25
5.	Ибрагимова Дилбар Атхамовна	Сравнительное исследование процессов словообразования в современном английском и узбекском языках	34
6.	Asatullayeva Dilnavoz	Morfonologiya va tovush o‘zgarishlari	44
7.	Ibragimova Fazilat Erkinovna	Matn kompozitsiyasida noan’anaviy intonatsiyadan foydalanish	46
8.	Azizov Solijon Uchmas o‘g‘li	Amerika badiiy diskursida konseptosferaning aksiologik va narrativ modellari	52
9.	Rustamov Doston, Ibragimova Dilobar	Formation trends of abbreviations and acronyms in english	58
10.	Imamova Gulnora Talibovna	“Muqanna” dramasida iboralarning lingvopoetik xususiyatlari to‘g‘risida	62
11.	Rahmatullayeva Guljahon Normo‘min qizi	Madaniy almashinuvda ichki olam konseptlari: ingliz-o‘zbek tarjima adabiyotida “umid” (hope) konseptining lingvomadaniy adaptatsiyasi	67
12.	Sabirova Zebo Baxramovna, Raxmatullayeva Madina Fatxullayevna	Gender and language use in english communication	72
13.	Oybek Tohirov	Folklorizmlar va ularning lingvotransformatsion xususiyatlari	76
14.	Nazarov Nurali Normirzayevich	Til va falsafaning o‘zaro bog‘liqligi	84
15.	Abdukarimova Dilnoza Rahimberdi qizi	Mustaqillikdan keyingi o‘zbek siyosiy diskursida til siyosati va milliy identitet konstruksiyasi (kritik diskurs tahlili asosida)	88
16.	Djurabekova Yulduz Turdialiyevna	Nutq aktlari nazariyasi va uning badiiy matndagi lingvopragmatik talqini	95
17.	Xasanova Aziza Kumushbek qizi, Abdullayev Akmal Amirovich	Zamonaviy lingvistik yo‘nalishlar – pragmalingvistika, sotsiolingvistika, lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslikning nazariy va amaliy masalalari haqida	99

18.	Usmanova Xumora Ahmadjonovna	Emodzilar poetikasi: vizual belgilar va tilni she’riyatda uyg‘unlashtirish	104
19.	Эргашева Зилола Сайдуллоевна	Создание искусства и интеллекта: современная интерпретация мифа о пигмалионе и галатее	109
20.	Tursunov Mirzohid Ikromjon o‘g‘li	Lingvopoetik tahlilda o‘xshatishlarning o‘rni va vazifasi (ahmad a’zam asarlari misolida)	116
21.	Ibragimova Dilbar Atxamovna, O‘razbayeva Sabina	Using interjections in english and uzbek	120
22.	Shodiyeva Shoxida Inatovna	“Vatan” konseptida assotsiativ munosabat va assotsiativ maydon	124
23.	Juraboeva Sevara Botir qizi, Tilaboldiyeva Sug‘diyona Botir qizi Mumindjanova Saida Xaitmatovna	Lack of explicit teaching in the development of intercultural communicative competence: the case of higher education	130
24.	Narzullayeva Charos Akobir qizi	Yoshlar diskursining o‘ziga xos xususiyatlari	138
25.	Anvarjonov Adaxamjon Akmaljon o‘g‘li	O‘zbek nasrida sotsium va individ munosabati: “O‘tkan kunlar” asari misolida	141
26.	Nasriyeva Dilnoza Muhiddinovna	Areal lingvistikaga oid tadqiqotlarga doir	147
27.	Nasriyeva Dilnoza Muhiddinovna, Karimova Shaxlo Zopir qizi	[Non] leksemali o‘zbek xalq maqollarining ijtimoiy-madaniy xususiyatlari	152
28.	Xabibjonov Ikromjon Toshpulat-ug‘li	Iqbol Mirzo she’riyatining metaforik tahlili	158
29.	Khayriniso Bakhtiyarovna Ganiyeva	Linguosynergetics and modern linguistics	163
30.	Yo‘ldoshev Otabek Abdug‘aniyevich	Raqamli davrda lingvokulturologiya va sun’iy intellekt integratsiyasi	172
31.	Murodova Shaxlo Ibragimovna	Raqamli kommunikatsiyada pragmatik ma’no: ijtimoiy tarmoqlar tilining pragmalingvistik xususiyatlari	177
32.	Yuldasheva Zuhra Nizomiddinovna, Rasulova Zebiniso Jaloliddinovna	Xalq og‘zaki ijodi matnlaridagi takroriy birliklarning lingvopoetik va lingvopragmatik xususiyatlari	182
33.	Xolisa Abdumalikova	Bolalar nutqi leksikasini shakllantirishning psixolingvistik asoslari	191
34.	Allamuratov Og‘abek Bahodir o‘g‘li, Murodova Shaxlo Ibragimovna	Zamonaviy lingvistikaning nazariy va amaliy masalalari: tilning jamiyat va texnologiyalar bilan integratsiyasi	197
35.	Zulfiya Marufova	Estetik baho ifodasining lingvokognitiv xususiyatlari	201
2-SHO‘BA: “ADABIYOTSHUNOSLIKNING NAZARIY VA AMALIY MASALALARI (adabiy jarayonlar, adabiy tanqid, matnshunoslik va manbashunoslik)			
36.	Qodirov Valijon Abduraxmonovich	“Boburnoma” tarjimalaridagi ayrim noaniqliklar xususida	207
37.	Xolikova Nodira Jahongirovna	Bobur ijodi va yosh avlod tarbiyasi	211
38.	Qodiriy Mahzuna	“O‘tkan kunlar” asarida ijtimoiy munosabatlarning obraz yaratishdagi badiiy tasvir modeli	218
39.	O‘tayev Akram Yo‘ldoshevich	Jadid marifatparvarlarining adabiyotga oid forsayt qarashlari	221

40.	Usmanova Ziyodaxon Ilxomjon qizi	Xurshid Davron dramalarida obraz poetikasi	226
41.	Samatjonova Mohidil Akbarjon qizi	Symbolism and imagery in william blake’s poetry	232
42.	Temirova Anora Cho‘yan qizi	Natan Mallayevning “Majolis un-nafois” tazkirasiga oid qarashlari	236
43.	Raxmanova Nafisa Azatbekovna	XX asr xamsashunosligining fundamental tadqiqoti	243
44.	Tulishova Charos Ravshanovna Murodova Shahlo Ibragimovna	Ahmad Lutfiy Qozonchi ijodida o‘gay ona obrazi: ruhiy kechinmalar va hayot saboqlari	249
45.	Gulandom Tog‘ayeva, Aliyeva Yodgora Barat qizi	Abdulla Oripov ijodida vatanparvarlik tuyg‘usining badiiyati	254
46.	Шоҳсанам Гулматова, Гуландом Тоғаева	Хайриддин Султоннинг “Бобурийнома” ва Пиримқул Қодировнинг “Юлдузли тунлар” асарларида Бобур ва бобурийлар сулоласининг ёритилиши	258
47.	Ziyadulayeva Dilafro‘z Narzulla qizi	Mustaqillik hikoyasida mustamlakachilik asoratining badiiy talqini	263
48.	Тоғаева Гуландом Жуммаевна	Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий ижоди ва миллатнинг лирик сиймоси	267
49.	Xoliqova Muslima Sherzod qizi, Gulandom Tog‘ayeva	Erkin Vohidov hayoti va ijodi haqida	274
50.	Axmedova Aziza Xaydarovna	Navoiy asarlari g‘oyalarining milliy o‘zlikni anglash va yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati	279
51.	Foziljon Shukurov	XIV-XV asrlar Movarounnahr she’riyatida ijodiy raqobat va tatabbu’navislik mahorati	282
52.	Boboqulova Uljon Suvonovna	Abdulla Oripov she’riyatida ayol-ona obrazining yetakchi tamoyillari	285
53.	Fozilova Orzugul, Sayera Israilova	Kafka’s critique of bureaucratic modernity: dialogues with weber, adorno, and postmodern theory	290
54.	Fotima Turg‘unova, Abbosjon Rohataliyev	Iqbol Mirzo she’rlarida xalqlar do‘stligi va birodarligi g‘oyalari	297
55.	Jumanov Akbar	Shavkat Rahmon she’rıyatıda mıllıy ruh va badıiy tafakkurnıng poetik ıfodasi	303
56.	Uskanova Dilnora Dilshodshix qizi	Abdulla Oripov she’riyatida badiiy tasvir vositalarining qo‘llanilishi	310
3-SHO‘BA: “ONOMASTIKA, TURKOLOGIYA VA LEKSIKOGRAFIYANING NAZARIY VA AMALIY MASALALARI” (nomshunoslik, turkiy tillar tadqiqi, lug‘atshunoslik)			
57.	Daniyarov Baxtiyor Xudoyberdiyevich	Jozibali bayon xotirada bilimlarning mustahkam saqlanib qolinishining omili sifatida	315
58.	Dustmurodov Ma’rufjon Mansur o‘g‘li	O‘tukan uyg‘ur xoqonligi bitigtoshlaridagi “shaxsdan kichiklik” semasini ifodalovchi leksemalar	323
59.	Nuniyazova Shaxlo Ulugbekovna	O‘zbek toponimlarining lingvokulturologik va kognitiv xususiyatlari	332
60.	Abdukayumova Zilola Gayratjanovna	Mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida frazeologizmlarning obraz yaratishdagi roli	336
61.	N.N.Xadjimusayeva	Xalq dostonlariga xos paremalar	342
62.	Z.A.Aliyeva	O‘zbek va ingliz tillarida mirativ ifodaga	347

		ega frazeologik birliklar tasnifi	
63.	Abduganieva Shakhzoda Otabek qizi	Key difficulties in technical and specialized translation	349
64.	Abduraxmanova Zumrad Normurot qizi	Qashqadaryo viloyati Kitob tumanidagi ziyoratgohlarning lingvomadaniy tadqiqi	354
65.	Dilrabo Andaniyazova	O‘zbek tili punktuatsiyasi taraqqiyotida matbuotning o‘rni	359
66.	Nosirova Arofat Erkinovna	Maqol va matallarning struktur-semantik tafovutlariga oid nazariy qarashlar	366
67.	Aminova Feruza Anvar qizi	Badiiy matnda dialektal va xalqona leksikaning funksional-uslubiy talqini	372
68.	Djamalxodjayeva Gulxumor Taxirovna	Zamonaviy dostonlarda biblionim va kosmonimlarning badiiy-uslubiy xususiyatlari	377
69.	Хоннаева Улжамол Кузимуродовна	Замонавий радиода маданий-маърифий эшиттиришларнинг ўрни, аҳамияти, тил меъёрлари: муаммолар, ечимлар	382
4-SHO‘BA: “TIL VA ADABIYOT O‘QITISHNING METODIK VA METODOLOGIK MASALALARI” (Ona tili va xorijiy tillarni o‘qitishdagi innovatsion yondashuvlar, adabiy ta’limning zamonaviy metodlari, Milliy dastur va Xalqaro tadqiqotlar)			
70.	Daniyarov Baxtiyor Xudoyberdiyevich	Nomutaxassislik fanlarini jozibali o‘qitishning ilmiy-amaliy asoslari xususida	390
71.	Nurgizarova Zakira Beketovna, Chimirbayeva Bagnur Beketovna	Boshlang‘ich ta’lim metodikasida zamonaviy yondashuv va tajribalar	397
72.	Morteza Amirsheibani	Aptitude tests and their use: a descriptive study	404
73.	Нургизарова Закира Бекетовна	Инновационные подходы к преподаванию русского языка в условиях цифровой трансформации образования	413
74.	Nurgizarova Zakira Beketovna	Rus tilini o‘qitishdagi innovatsion yondashuvlar, ta’limning zamonaviy metodlari	420
75.	Муминджанова Саида Хаитматовна	Современные методы обучения русскому языку	426
76.	Rajabov Voxidjon Normurotovich	Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarning o‘quv motivasiyasiga ta’sirini tahlil qilish	430
77.	Sherov Mansur Boltayevich	Bo‘lajak pedagoglar psixologik kompetentligi muammosining fanda o‘rganilishi	435
78.	Tojixon Sabitova	Adabiyot darslarini multimedia vositalaridan foydalanish orqali tashkil etish	440
79.	Magbarxonova Yulduzxon Azlarxonovna, Mumindjanova Saida Xaitmatovna	Raqamli asrda bolalarning xorijiy til o‘rganishi	444
80.	D.U. Rustamov, Farangiz Sobirova	The importance of information and communication technologies in improving english vocabulary	449
81.	Rahmonova Feruza Choriyevna	AI powered elements for developing communicative competence in teaching	454

		english as a foreign language	
82.	Abduraxmanova Aida Erkin qizi, Ergashova Munisa Hoshim qizi	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ekologik madaniyatni shakllantirishning zamonaviy mexanizmlari	459
83.	Uroqova Zilola Chorshanbiyevna, Ergashova Munisa Hoshim qizi	Tayyorlov guruhlarida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning innovatsion metodlari	463
84.	Mirodilova Charos Mirshuhrat qizi, Ergashova Munisa Hoshim qizi	Bolalarni raqamlar bilan tanishtirish	467
85.	Ergashova Munisa Hoshim qizi, Kamilova Barnoxon Muhammadodil qizi	Bo‘lajak tarbiyachilarda interfaol metodlar yordamida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish	472
86.	Zabiyeva Gulchehra Rustam qizi, Ergashova Munisa Hoshim qizi	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida boshqaruvni tashkil etishning innovatsion pedagogik texnologiyalarini takomillashtirish mexanizmlari	475
87.	Matkarimova Sayyora Shavkatbek qizi	Differensial adabiy ta’lim sharoitida badiiy asarni tahlil qilish metodikasi	479
88.	Sabirova Zebo Baxramovna	Scientific and theoretical foundations of preparing students with physical disabilities for parasports	482
89.	Komiljonova Gulhayyo Komiljonovna	Birinchi bosqich talabalari uchun chet tillarni o‘qitishda raqamli vositalar va sun’iy intellekt ilovalarining samaradorligi	487
90.	Israilova Sayera, Mirislomova Aziza	Modern methods of using audio and video materials to develop listening comprehension skills	494
91.	Saydullayeva Sevara Muxammadi qizi	Boshlang‘ich ta’limda ona tili darslarida interfaol metodlarni samarali joriy etish	498
92.	Ibragimova Dilbar, Anarbayeva Sabrina	The effectiveness of using interactive methods in teaching english	501
93.	Islomova Madina Asqarovna	Yozma nutq kompetensiyasining chet tilini o‘qitishdagi ustuvor yo‘nalish sifatidagi talqini	504
94.	Tirkasheva Go‘zal Baxramovna	Xalq og‘zaki ijodi namunalari asosida o‘quvchilarda tayanch hamda adabiy kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari	510
95.	O‘taev Akram Yo‘ldoshevich, Turg‘unova Dinara Doniyor qizi, Oltiboyeva Maftuna Mansur qizi	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yinga asoslangan muhitning avzalligi	515
96.	Jurambekova Sabrina Tolibjonovna	“Game technologies in teaching english to primary school students”	520
97.	Abdurahmonova Laylo Toyir qizi	Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish	524
98.	O‘tayev Akram Yo‘ldoshevich, Kozimova Nodira Shuhratjon qizi, Yo‘ldosheva Xolida Shokirali qizi	Maktabgacha ta’lim tizimida g‘arb mutafakkirlarining o‘rni	527
99.	Sabirova Zebo Baxramovna, Ibragimova Feruza Gafurjon qizi	ICT integration barriers faced by english teachers in secondary schools	533
100.	Sharopova Munisa Hakimovna,	Effective methods of teaching english to future teachers for preschool education	537

101.	Tuymanova Inobat Fozilovna, Temirova Gulnora Ixtiyor qizi	Sun’iy intellekt vositalarining ingliz tili ta’limidagi innovatsion roli	543
102.	Sharopova Munisa Hakimovna	Modern ways of attracting university learners to english lessons	546
103.	Tuymanova Inobat Fozilovna, Temirova Gulnora Ikhtiyor qizi	The impact of psychological support and motivation on students’ learning success	552
104.	Tuymanova Inobat Fozilovna,	Virtual almashinuv va clil texnologiyalari orqali ingliz tilini o‘rgatish	556
105.	Abdullayev Akmal Amirovich	Maktab adabiy ta’limida she’riy san’atlarni o‘qitishdagi murakkabliklar	561
106.	Nurgizarova Zakira Beketovna, Mayusupova Malika Shavkat qizi	Ikkinchi tilni o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish: metodika va samaradorlik	565
107.	Mahmudova Zilola Shuxrat qizi	The role of educational technologies in gamified reflective practices	569
108.	Xasanova Nozimaxon Xasan qizi	“5”-sinf adabiyot darslarida epik asarlarni o‘qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish	574
109.	Fayzulloyeva Parinoz Xudoybergan qizi, Sharopova Munisa Hakimovna	Ingliz tilini o‘qitishda multimedia texnologiyalarining pedagogik ahamiyati	577
110.	Fayzulloyeva Parinoz Xudoybergan qizi, Sharopova Munisa Hakimovna	Ingliz tilida erkin gapirish omillari Factors influencing fluent speaking in english	584
111.	Abdurahimova Sevinch	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim jarayonida badiiy adabiyotning tarbiyaviy ahamiyati	591
112.	Madrimova Mohinur Xamzayevna	Oilada kitobxonlik madaniyatini shakllantirish omillari	598
113.	Islomova Madina Asqarovna, Ermekbayev Adilet Userovich	Nemis tilini nofilologik oliy ta’lim muassasalarida o‘qitishda yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik va metodik asoslari	604
114.	Muxtarova Shaxnoza Mashrabovna	Fanlararo integratsiya asosida funksional savodxonlikni rivojlantirish	608
115.	G‘aniyeva Gulchehra Karshibayevna	Integratsiyalashgan yondashuv asosida o‘zbek tilini o‘qitish: nofilologik yo‘nalish talabalari uchun nazariy va amaliy asoslar	612
116.	Dovrenova Yulduz Ulugbekovna, Sharopova Munisa Hakimovna	Bolalarni to‘garaklarga jalb qilish va samarali to‘garak mashg‘ulotlarini tashkil etish	616
117.	R.U. Nurjanova	Bo‘lajak tarbiyachilarning kreativ faolligini rivojlantirish masalalari	619
118.	R.U. Nurjanova, D.R. Mingyasharova	Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda o‘yinlarning ahamiyati	625
119.	R.U. Nurjanova, R.A. To‘lavoyeva	Bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishda tarbiyachining o‘rni	629
120.	Morteza Amirsheibani, Umida Nodirova	The use of total physical response method in teaching young learners	633
121.	Sabirova Zebo Baxramovna,	Surxondaryo madaniy merosini ingliz tilli	639

	Nurmatova Nasiba Uralovna	xorijiy mehmonlarga tushuntirish va targ‘ib qilishdagi zamonaviy yondashuvlar	
122.	Sharopova Zubayda Fozilovna	Ona tili ta’limida sifat va ravish so‘z turkumini o‘qitish usullari	643
123.	Haydarov Shohqadam Mamayusupovich	So‘z birikmasi va uni o‘qitish metodikasi	646
124.	Haydarov Shohqadam Mamayusupovich, Mirkurbanova Xusnora Mirkamol qizi	Ona tili ta’limida imloviy mashqlar va ularni o‘rganish usullari	650
125.	Djumaboyeva Durdona Xabibjon qizi	Raqamli vositalar va sun’iy intellektning universitet talabalari uchun chet tilini o‘qitishdagi samaradorligi	656
126.	Mahammatov Akram Rayimqulovich	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil fikrlashga o‘rgatishda xalq ertaklarining o‘rni	658
127.	Jumayev Farhod Akmamatovich, Alivoyeva Zuhra Alisher qizi Esanova Osiyo Shaxriddin qizi	“Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishlarda bolalar adabiyoti fanini o‘qitilishining zaruriyati	663